O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

TURAEV B.X., NIZAMOV A.N.

IQTISODIY TA`LIMOTLAR TARIXI

O`zbekiston Respublikasi Oliy va O`rta maxsus ta`lim vazirligi tomonidan oliy o`quv yurtlari talabalari uchun o`quv qo`llanma sifatida tavsiya etilgan

SAMARQAND-2021

UDK 330.12(575.1)
BBK 65.02
T 87

Turaev B.X., Nizamov A.N. Iqtisodiy ta`limotlar tarixi: O`quv qo`llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2021. – 272 b.

Mazkur o`quv qo`llanmasida insoniyat tarixidagi iqtisodiy ta`limotlar tarixi yoritilgan: Qadimgi Sharq, Antik dunyo, O`rta asrlar iqtisodiy fikri, mumtoz siyosiy iqtisodiyot, zamonaviy iqtisodiy nazariyaning yuzaga kelishi va rivojlanishi masalalari ko`rib chiqilgan.

Muallif tomonidan alohida e`tibor, rivojlanishlar doirasida O`zbekistonda iqtisodiy fikr va iqtisodiyot fani rivojlanishiga qaratilgan.

Boblar yoritilishi, amaliyotda mavjud iqtisodiyot ko`rsatkichlari keng foydalanilgan holda amalga oshirilib, tayanch iboralar ro`yxati va nazorat savollari keltirilgan.

O`quv qo`llanmasi “Iqtisodiyot”, “Kadrlar menedjmenti” bakalavriat ta`lim yo`nalishi bo`yicha ta`lim olayotgan talabalar, oliy ta`lim muassasalari professor-o`qituvchilari, rahbar xodimlari uchun mo`ljallangan.

O`quv qo`llanma Samarqand davlat universiteti Ilmiy kengashida ko`rib chiqilgan va chop etishga tavsiya etilgan (2021 yil, 31 may, №11-sonli bayonnoma)

Taqrizchilar: i.f.d., professor **I.Ivvatov**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.

i.f.n., dotsent **B.Bobokulov**, Samarqand davlat universiteti

i.f.n., dotsent **S.L.Alibekova**, Samarqand davlat universiteti

ISBN 978-9943-7274-4-1

© Samarqand davlat universiteti, 2021

KIRISH

Iqtisodiy ta`limotlar tarixini barcha ma`lumotli iqtisodchilar o`z vatani tarixini bilganidek bilishi zarur, zero zamonaviy iqtisodchi uchun o`tmishni, bugungi kunni yaxshi tushunish va mo‘ayyan darajada kelajakni ko`ra bilishi zarur. Gap Shundaki, tarix qaytariluvchan xususiyatga ega bo`lib, bugungi kunning ijtimoiy-iqtisodiy muammolariga duch kelar ekanmiz, o`tmishda o`xshash holatni topib, uning sabab va mohiyatini tushuna bilishimiz zarur. Xuddi Shunday holat, iqtisodiy ta`limotlar tarixiga ham tegishlidir. O`tmishdagi iqtisodiy holatlar nafaqat takrorlanishi, balki real iqtisodiy hayotda qo`llanilishi mumkin bo`lgan bir paytda, biz iqtisodiy g`oyalarni, ta`limotlarni, qonuniyatlarni ham bilishimiz zarur.

Bundan tashqari, ayrim o`xshash iqtisodiy muammolarning nazariy asoslari bilan tanishish, ularni bilish orqali (iqtisodiyotdagi o`xshash asosiy hodisalar unchalik ko`p emas), mo‘ayyan nazariy g`oya bilan bog`liq bo`lmagan ijodiy, erkin fikrlash ko`nikmasini hosil qilamiz.

Bugungi kunda, iqtisodiy ta`limotlar tarixiga bag`ishlangan ko`plab o`quv adabiyotlari topiladi, Shu sababli biz, mazkur o`quv qo`llanmasini bu adabiyotlar ro`yxatidan nima bilan farq qilishini tushuntira olishga harakat qilamiz. Masalan, MDU “Iqtisodiyo nazariya” kafedrasi professori A.G.Xudokormova tahriri ostidagi chop etilgan o`quv qo`llanmasi yoki Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti professori A.Razzoqov tomonidan tayyorlangan “Iqtisodiy ta`limotlar tarixi” darsligidan farqli o`laroq, bizning o`quv qo`llanmamiz, sodda tilda yozilganligi va hajm jihatdan kichikligi bilan ajralib turadi. Shu sababli, o`quvchilarimizga alohida mavzularni chuqurroq o`rganish uchun yuqorida tilga olingan o`quv qo`llanmalariga murojaat qilishlarini tavsiya etamiz.

Bundan tashqari, mazkur o`quv qo`llanmasida iqtisodiy ta`lim tarixi bo`yicha vatanimizda va xorijda nashr etilgan va tarjima qilingan adabiyotlar ro`yxatlari keltirilib, bu holat iqtisodiy ta`limotlar tarixiga oid materiallarning chuqurroq o`zlashtirilishiga yordam beradi.

Hajm jihatidan o`rtacha bo`lgan mazkur o`quv qo`llanmasi o`quvchilarga o`tmishda amal qilgan iqtisodiy nazariyalardan eng zarurlarini tanlash imkoniyatini beradi, ammo bunda iqtisodiy ta`limotlar rivojlanishining umumiy mantig`i yo`qotiladi. Fikrimizcha, iqtisodiy g`oyalar tarixi o`rganilishida, iqtisodiy ta`limotlarni rivojlanishi haqida umumiy tasavvurga ega bo`lish ham muhimdir, zero o`tmish yirik iqtisodchilarining aniq nazariyalari, ta`limotlari, o`tmishdagi iqtisodiy jarayonning ichki va tashqi sabablari haqida tushunchalar ham bilim olish borasida muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy ta`limotlarni rivojlanishi qonuniyatlarini o`rganar ekanmiz, zamonaviy iqtisodiy nazariyalarni tushunib olish osonroq kechadi, chunki bu holat har-bir o`quv kursining mo‘ayyan intiqosidir.

Iqtisodiy ta`limotlar rivojlanishining umumiy mantig`i yo`qotilmasligi uchun, bizning ushbu o`quv qo`llanmamizda iqtisodiy fikrlar tarixi davrlarga ajratilib keltirilgan.

Bundan tashqari, har bir davrda iqtisodiy, siyosiy, madaniy va umummilliy omillar haqida ma`lumotlar keltiramiz, ularning o`sha davrdagi iqtisodiy nazariyalarini shakllanishiga ta`siri yoritilgan. Ikkinchidan, iqtisodiy qikrlar tarixini ochib berishda mazkur davri iqtisodiyotining umumiy uslubiy tavsifi, hamda o`sha davrda amal qilgan iqtisodiy nazariyalar maqsadi yo`nalishlari yoritilgan, va Shundan keyingina ularning ba`zi muhim jihatlari ajratilib ko`rsatilgan. O`quv qo`llanmasining tuzilishiga nisbatan bunay yondashuv, fikrimizcha iqtisodiy ta`limotlarni rivojlantirishning umumiy tendentsiyalarini yo`qotilmasligiga olib kelgan.

Bundan tashqari o`quv qo`llanmada Markaziy Osiyoda shakllangan va amal qilgan iqtisodiy fikrlar ham berilgan. Bunda biz, jahon iqtisodiyoti fani rivojlanishida mamlakatimizda yashab ijod etgan mutafakkirlar iqtisodiy ta`limotlari o`rni va rolini ochib berish kabi muhim vazifani qo`yganmiz. Har bir mavzu so`ngida o`quvchini o`z-o`zini sinash uchun savollar keltirilgan bo`lib, bu hol mo‘ayyan mazmunning asosiy muammolarini chuqurroq o`rganish, keltirilgan materiallarni yana bir bor qayta ishlash imkoniyatini beradi.

I-BOB. IQTISODIY TA`LIMOTLAR TARIXI FANIGA KIRISH

1.1. Iqtisodiy ta’limotlar atamasi shakllanishining tarixiy bosqichlari

Iqtisodiy ta`limotlarni turli davrlarga bo`lgan holda o`rganish maqsadga muvofiq, zero har-bir davrning rivojlanishi o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`lib, ularni davrlarga ajratishni talab etadi. Iqtisodiy fikrlar tarixi rivojlanishining uchta asosiy bosqichga bo`lib o`rganish maqsadga muvofiq.

Birinchi bosqich sifatida, iqtisodiy nazariya shakllanguniga qaar paydo bo`lgan iqtisodiy fikrlardir. Mazkur bosqich miloddan avvalgi III-ming yillik va milodiy XVII asrning ikkinchi yarmiga qadar bo`lgan davrni o`z ichiga oladi.

Bu davrda yuzaga kelgan iqtisodiy fikrlar insoniyat xo`jalik faoliyati bilan birgalikda yuzaga kelib, iqtisodiy nazariyalar esa birmuncha kechroq shakllangan. Ma`lumki, iqtisodiy nazariya ikki asosiy jihati bilan tavsiflanadi: tahlil va tahlil natijalarini tizimlashtirish. Tahlil, inson o`ziga-o`zi savol bera boshlagani bilan yuzaga keladi. Bu nima? Nima uchun yuz beradi? Nima bilan bog`liq? Mazkur savollarga javoblar, mantiqiy jihatdan tizimlashtirilgach, nazariyaga aylanadi. Iqtisodiy ta`limotda, tahlil va tizimlashtirish elementlari mavjud bo`lishi mumkin, ammo mazkur ikki jihat doimiy ravishda iqtisodiy ta`limotlarda XVII asrning ikkinchi yarmidan boshlab mujassamlanib borishi kuzatila boshlagan.

Birinchi bosqichning boshlanishiga miloddan avvalgi III ming yillikni kiritish maqsadga muvofiq. Aynan Shu davrda birinchi tamaddunlar yuzaga kelib, ular bilan birgalikda yozma manbalar paydo bo`lgan. YOzma manbalardan esa, o`sha davrdagi iqtisodiy fikrlar haqida ma`lumot olish mumkin. Demak, iqtisodiy ta`limotlar rivojlanishining birinchi bosqichi miloddan avvalgi III ming yillikdan boshlanib, milodimizning XVII asri II yarmiga qadar bo`lgan davrni o`z ichiga oladi.

Mazkur davrning so`ngigacha, iqtisodiy ta`limotlar boshqa fanlar tarkibiy qimida mujassamlashgan, xususan bunday fanlar sifatida biz yurisprudentsiya, teologiya, tarix, falsafa va boshqaruv haqidagi fanlarni tilga olishimiz mumkin. Umuman olganda, “iqtisodiyot” atamasi antik davrdagi insonlar, qullar, ularning oila a`zolari bilan o`zaro munosabatlari, qishloq xo`jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va saqlash kabi iqtisodiy masalalarni, balki uy xo`jaligini boshqarish bilan bog`liq masalalarni o`z ichiga olgan.

Mazkur atama, qadimgi Yunon yozuvchisi Ksenofont (miloddan avvalgi 430-355 yillar) qalamiga mansub “Oykonomikos” asari nomidan kelib chiqgan. “Oyeonomikos” tushunchasi ikki qismdan, ya`ni “Oykos” (uy) va “Nomos” (qonun) tushunchalaridan iborat, bundan kelib chiqadiki, “Oykonomikos” – “uy

qonuni” ma`nosini anglatadi. Demak Ksenofontning “Oykonomikos” asari nomlanishini, “Uy qonuni” deb tushunishimiz mumkin.

Shu bilan birgalikda, birinchi bosqich davrida iqtisodiy ta`limotlar metodologiyasi ko`proq pozitiv yondashuvga emas, ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlarning me`eriy yondashuvi yotgan. Me`yoriy va pozitiv yondashuvlar o`rtasidagi farq Shundaki, pozitiv yondashuvni qo`llovchilar iqtisodiy munosabatlarni butunligicha yaxlit ko`rib chiqsa, me`yoriy yondashuvchilar iqtisodiyot, jarayon, hodisa va voqealarni o`z ongida mavjud bo`lgan me`yor bilan qiyoslab o`rganadi. Shu sababli, mazkur fikrlarda, tadqiqotlarda katta o`rinni real mavjud iqtisodiyotni me`yoriy darajasiga qanday chiqarish mumkinligi haqidagi tavsiflar oladi.

Ma`lumki me`yoriy yondashuvning asosida «tabiiy tartib» kontseptsiyasi turadi, va unga muvofiq mo‘ayyan jamoatchilik tartibi (jamoatchilik munosabatlari) tabiiy, ya`ni inson tabiatida azaldan o`rin olgan hisoblanadi. Bundan amin bo`lish mumkinki, keyingi mavzularimiz ham, qo`llanmamizda tabiiy sifatida tavsiflangan.

Me`yoriy yondashuvning yana bir misoli sifatida, iqtisodiy hodisalarning turli ma`naviy, etik nuqtai - nazarlardan yondashish holatlarini ham kiritish mumkin. Shuni ham ta`kidlab o`tish joizki, me`yoriy yondashuv, qisman bo`lsada, iqtisodiyot faning ikkinchi va uchinchi rivojlanish bosqichlarida ham qo`llanilgan.

Ikkinchi bosqich Mumtoz siyosiy iqtisodiyotning (XVII asrning ikkinchi yarmi - XIX asr oxiri) paydo bo`lishi, rivojlanishi va bo`linish davrini o`z ichiga oladi.

Dastlab iqtisodiy nazariya «siyosiy iqtisodiyot» deb atalgan. Mazkur atama ya`ni politekonomiya ikki Yunon so`zidan olingan bo`lib «polis» (davlat yoki jamiyat) va «ekonomik» (iqtisodiyot) so`zlaridan olingan, bo`lib, «jamiyat iqtisodiyoti» (xalq xo`jaligi) tushunchalaridan kelib chiqgan. Mazkur atama frantsuz iqtisodchisi Antuan Monkret`en tomonidan ilk marotaba 1615 yfilda nashr etilgan “Politekonomiya” asari nomlanishida qo`llanilgan. Keyinchalik, mazkur tushunchaga “Mumtoz”, ya`ni “mumtoz” iborasi ham qo`shila boshlagan.

Mumtoz siyosiy iqtisodiyot fanlari sirasiga kiritilishi mumkin bo`lgan ilk asarlar XVII asrning ikkinchi yarmida paydo bo`la boshlagani bo`lsada, mazkur tushunchaning ilmiy doiralarda tamomila o`rnashib olishiga, 1776 yilda nashr etilgan ingliz iqtisodchisi Adam Smitning “Boylikning xalqaro tabiati va sabablari to`g`risida tadqiqot” asari turtki bo`lib, keyinchalik mumtoz siyosiy iqtisodiyot tushunchasining XVII-XIX asrlar davomida qaror topib rivojlanishiga sabab bo`ldi.

Alohida fan sifatida iqtisodiyot o`z tasdig`ini XIX asrning boshidan topa boshladi, hamda siyosiy iqtisodiyot ta`limoti sifatida universitetlarda o`qitila boshlandi.

XIX asrning birinchi yarmidan boshlab esa «Mumtoz siyosiy iqtisodiyot», Yangi nazariyalarni ilgari surgan holda rivojlanib, XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, ingliz iqtisodchisi Dj. S. Mill` aytganidek, “oldiga qo`yilgan masalalarni mustaqil ravishda hal eta boshladi”.

Aytib o`tish joizki, “Mumtoz siyosiy iqtisodiyot”ning bosh vazifasi, asosiy iqtisodiy tushunchalarni (narx, mablag`, daromad, kapital va boshqalar) aniqlash, va ularni tizimlashtirish bo`ldi. Shu bilan birgalikda, ular orasidagi sabablar va mohiyatlar belgilanib olindi. Iqtisodiyo fanlar tadqiqot mavzularining asosi sifatida esa, “narx”, “tannarx” kabi tushunchalar olindi.

XIX asrning ikkinchi yarmida mumtoz siyosiy iqtisodiyot mustaqil ravishda rivojlanib bordi, ya`ni asosiy fan sifatida “siyosiy iqtisodiyot kursi” sifatida universitetlarda o`qitilib, uning doirasida o`quv qo`llanmalari va ilmiy asarlar yaratila boshlandi, lekin Yangi iqtisodiy tushunchalar va atamalarni hali kiritmagan edi. Shu bilan birga, mazkur davrda iqtisodiyot fanining Yangi yo`nalishlari ham yuzaga kelib, ular XIX asr so`ngi va XX asrning boshlarida mumtoz siyosiy iqtisodiyotni siqib chiqarishdi.

Uchinchi bosqich zamonaviy iqtisodiyot fani shakllanishi va rivojlanishi davrini o`z ichiga oladi.

Mazkur bosqich XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida vujudga kelib, uning rivojlanishi hozirgi kunga qadar davom etib kelmoqda. Bu bosqichda, iqtisodiyot fanini bir vaqtning o`zida mavjud bo`lgan ikki yo`nalishga, ya`ni marjinalizm va institutsionalizmga ajratish mumkin. Marjinalistik yo`nalish qaror topishi XIX asrning oxirgi yillariga to`g`ri keladi va u “marjinalistik inqilob” nomini olgan. Marjinalistik inqilobdagi oxirgi nuqta siyosiy iqtisodiyotning Yangi iqtisodiyot (ekonomiks) kursi 1902 yilda Kembridj universitetida o`qitilishidan boshlash mumkin. Keyinchalik “Ekonomiks” boshqa universitetlarda ham o`qitila boshladi. Institutsionalistik yo`nalishi esa XIX asrning o`rtalarida yuzaga kelib, XX asrning dastlabki 30 yili davomida shakllandi.

Mumtoz siyosiy iqtisoddan ushbu har ikkala (nazariy) yo`nalishning farqi Shundaki, mumtoz iqtisodni asosan alohida iqtisodiy jarayon va hodisalar mohiyati, ular o`rtasidagi bog`liqlik diqqat e`tiborida bo`lsa, bu ikkala iqtisodiy yo`nalishlarning asosiy predmeti, iqtisodiy hodisalarning o`zaro aloqalari qiziqtirdi. Xususan marjinalizm yo`nalishi sof iqtisodiyotni tadqiq etib, undan ijtimoiy shakllarni ajratgan bo`lsa Institutsionalizm yo`nalishi ijtimoiy - iqtisodiyotni tadqiq etish bilan Shug`ullanadi.

Shunday qilib, marjinalizm va institutsionalizm yo`nalishi namoyandalarini iqtisodiyotdagi amaliyot jarayonlarigina qiziqtiradi. Mumtoz siyosiy iqtisodiyot, marjinalizm va institutsionalizmning o`ziga xos metodologik xususiyatlari va farqlarini keyingi mavzularda ko`rib chiqamiz.

Nazorat uchun savollar:

1. Iqtisodiy ta`limotlar tarixi fanining tadqiqot predmeti nima?
2. Iqtisodiyot fani rivojlanishi tadqiq etilishida tarixiy yondashuv nimada namoyon bo`ladi?
3. Iqtisodiyot fani rivojlanishi tashqi va ichki omillariga nimalar kiradi?
4. Ilk iqtisodiy (fikrlarni) nazariyalarni hisobga olgan holda, iqtisodiy nazariyalarni tahlil etishdan maqsad nima?
5. Turli maktab va yo`nalishlar iqtisodiy nazariyalari nima bilan o`zaro farqlanadi?
6. Iqtisodiyot fani rivojlanishi bosqichlashtirilishi bilan asosiy yo`nalishlar va maktablar bo`yicha iqtisodiyot nazariyasi klassifikatsiyasi orasidagi farq nimada?
7. Iqtisodiyot ta`limotlar tarixining uch asosiy bosqichlari orasidagi farq nimada?
8. Iqtisodiy fikr, iqtisodiy nazariyadan nimasi bilan farq qiladi?
9. Iqtisodiy tadqiqotlardan me`yoriy va pozitiv yondashuv orasidagi farq nimada?
10. “Tabiiy tartib kontseptsiyasi” nimadan iborat?
11. Iqtisodiy munosabatlarga ma`naviy - etik yondashuv nima sababdan me`yoriy deb ataladi?
12. Siyosiy iqtisodiyot atamasi nimani bildiradi?
13. Marjinalistik va institutsional nazariyalar vazifalari mumtoz siyosiy iqtisodiyotning asosiy vazifasidan nima bilan farqlanadi?

Mavzu bo`yicha adabiyotlar ro`yxati:

1. Блаук М. Экономическая мысль в ретроспективе. М., 1995.
2. Шумпеттер Й.А. История экономического анализа: В. 3. Т. 1. СПб., 2001.
3. Razzoqov A. “Iqtisodiy ta`limotlar tarixi” o`quv qo`llanma. T. 2001 yil

II-BOB. QADIMGI SHARQ, ANTIK DUNYO, FEODAL JAMIYAT VA ILK KAPITALIZMNING IQTISODIY TA'LIMOTLARI

2.1. Qadimgi Sharq iqtisodiy fikrlari

Davr tavsifi. Miloddan oldingi III ming yillarda yuzaga kelgan ilk tamaddunlar dastlab Misr, ikki daryo oralig`i davlatlarida, keyinchalik Osiyoning bir qator davlatlarida tarqalib, mo'ayyan turdagi insonlar jamiyati shaklini yuzaga keltirgan. Bu holat keyinchalik boshqa ba`zi qadimiy davlatlarda ham kuzatila bordi. Xususan, Evropada (Krit), Amerikada (Mayya, Aytek, Inklar davlatlari) va Afrikada (Misr) kabilar. Bu davlatlarda asosiy ishlab chiqarish vositalari, er va sug`orish tizimlari, davlatga tegishli bo`lib, davlatchilik mutloq monarxiya ko`rinishida amal qilgan. Asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlar jamoalarga birlashgan hunarmandlar va erkin dehqonlar bo`lib, ular soliq to`lab ma`lum bir mehnat majburiyatlarini bajarishgan. Qullar esa ishlovchilarning kamchilik qismini tashkil etib, asosan puldorlarga, zodagonlarga xizmat ko`rsatishgan yoki eng og`ir mehnat jarayonlarida, xususan temir va tosh konlarida ishlashgan.

Ma`lumki, jamiyat iqtisodiy tizimining katta ulushini natural xo`jaliklar tashkil etgan, Shu bilan birga, tovar munosabatlari (tovar xo`jaliklari) ham qadimdan mavjud bo`lgan. Jamiyatning oliy tabaqa vakillari, asosan mansabdorlardan tashkil topgan, Chunki ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, asosan davlat tomonidan tabaqalashtirilib, nazorat qilingan. Shuningdek jamiyatning ma`naviy hayotida din katta ahamiyatga ega bo`lgan.

Predmet va uslub. Qadimiy Sharq iqtisodiy ta`limotlari haqida ma`lumotlar o`sha davrdagi davlatchilik haqidagi yuridik hujjatlar va davlat boshqaruvchi haqidagi asarlarda keltirilgan, Chunki iqtisodiy hayot ham mazkur sohalarning bir qismini tashkil etgan. Shu sababli iqtisodiy ta`limotlar predmeti bo`lib mo'ayyan davlat miqiyosidagi xo`jalik munosabatlari hisoblangan. Xo`jalik faoliyati haqidagi iqtisodiy fikrlar, g`oyalar o`sha davr mutafakkirlari tomonidan turli asarlarda yoritilgan. Mazkur asarlarda asosan davlatni qanday qilib yaxshiroq boshqarish haqidagi me`yoriy tavsiyalar keltirilgan. Ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlar me`yorlari ko`p jihatdan mavjud bo`lgan diniy qarashlar va an`analarga bog`liq bo`lgan.

Asosiy nazariy qonuniyatlar

Boylik. Iqtisodiyot fani rivojlanishining barcha bosqichlaridagi asosiy muammosi boylikdir (yoki uning turli interpretatsiyalari – daromad, foyda, foydalilik). Iqtisodiyot fanida "iqtisodchi garchi o`zi kambag`al bo`lishiga qaramay, boy bo`lish borasida maslahatlar beruvchi mutaxassisdir" degan aksioma mavjud. Iqtisodiyot nazariyasida boylik muammosi turli jabhalarda - shaxs, jamoa, (firma) va jamiyat darajalarida ko`rib chiqiladi.

Qadimgi Sharq iqtisodiy ta`limotlari ham, asosan davlat boyligini qanday qilib ko`paytirishni nazarda tutgan. Misol uchun, Qadimgi hindlarning «Artxashastra» asarida (miloddan avvalgi IV asr), boylik dehqonlar tomonidan undiriladigan soliqlardan shakllanishi ta`kidlangan. Shu sababli, xalq boyligi, davlat boyligini kafolatlagan. Qadimgi Xitoyning «Guan`-tszi» nomli ensiklopedik asarida esa (miloddan avvalgi IV asr), asosan davlatni boy, xalqni farovon qilish muammolari ko`rib chiqilgan. Asarda mazkur vazifa davlat hukmdori va mansabdorlariga yuklatilganligi e`tirof etilgan.

Boylik orttirish usullari. So`z davlat boyligi haqida ketar ekan, boylik asosan xalqdan yig`ib olinadigan soliqlar xisobiga shakllanishini e`tibordan qochirmagan holda Qadimgi Sharq asarlarida, asosan soliqlarni undirishni takomillashtirish borasidai tavsiyalar bilan cheklangan. Mazkur tavsiyalar jamiyatni tashkil etuvchi uch tabaqasiga tegishli bo`lgan, bular: dehqonlar, hunarmandlar va boshqaruvchilar. Qadimgi Xitoydagi «Shan tszyun` - Shu» nomli asarida (miloddan avvalgi IV asr) davlatning uch vazifasi ya`ni dehqonchilik, savdo va boshqaruv vazifalarini alohida e`tirof etgan. Unga ko`ra dehqonlar erga ishlov berishadi, savdogarlar mol olib kelishadi, mansabdorlar esa xalqni boshqarishadi.

Dehqonlar. Qadimgi Sharqda dehqonlar asosiy soliq to`lovchi va iste`mol buyumlarini ishlab chiqaruvchilar sifatidagina qabul qilingan bo`lsada, davlatchilikning asosi sanalishmagan. «Shan` Tszyun`-Shu» asari muallifi Shan` Yan`ning yozishicha, davlat dehqonchilik va urush vositasida ravnaq topadi, hamda barcha fuqarolar dehqonchilik bilan Shug`ullanishsa, davlat fuqarolarni boshqarishi osonlashadi.

Shuni ham ta`kidlab o`tishimiz kerakki, ko`pchilik qadimgi Sharq mutafakkirlari tomonidan, insoniyat jamiyatida savdoning o`ta muhimligi tan olinsada, savdogarlarga nisbatan munosabati, doimo ham ijobiy bo`lmagan. Misol uchun «Artxashastrada» savdogarlar “o`g`ri” nomini tan olmagan “o`g`rilar” deb atalgan, va bunga sabab, ular davlatga soliqni to`laligicha to`lamasligi bo`lgan. Haqiqatdan ham, savdogarlar tomonidan olinadigan daromadlarni to`laqonli nazorat etish, dehqonlar tomonidan olinadigan daromadlarni nazorat etishga nisbatan murakkabroq bo`lgan. Shan` Yan` yozishicha, savdorgarlar, yashash joylarini muntazam o`zgartirib turishgan. Bunga qarshi chora sifatida u savdogarlardan undiriladigan soliqlar miqdorini ko`paytirishni, bozorlar va chegaralarda undiriladigan bojlarni keskin oshirishni taklif etgan. Bu holat ularni savdo daromadlaridan voz kechib, boshqa faoliyat bilan Shug`ullanishlariga olib keladi deb hisoblangan.

Bundan tashqari, qadimgi Sharq mutafakkirlari savdogarlar oladigan daromadalarini osonroq aniqlash hamda bozorlarda barqaror holatni ta`minlash

uchun, bozor narxlari davlat tomonidan nazorat etilishini taklif etishgan. Bu holat, o`sha davr davlatchilik amaliyotda kuzatilgan. Qadimgi Sharq davlatlari qonunchiliklarida ko`proq e`tibor tovarlar ishlab chiqarishga nisbatan narxlar masalasiga berilgan.

Mansabdorlar. Boshqaruvning natijaviy shakllaridan biri sifatida, SHan` YAn` dehqonchilik jamiyati a`zolari orasidagi ma`suliyatni ilgari surib, birinchi navbatda bu holat soliq to`lanishiga qaratilishi kerakligini ta`kidlagan. Mutafakkir, mazkur printsipni davlat boshqaruvining barcha jabhalarida tadbiq etishni taklif etgan. Misol uchun "Arxashastra" asarida, davlat g`aznasidan pul o`g`irlaydigan mansabdorlarni aniqlab, kelgusida nazoratga olish uchun, davlat tomonidan maxsus xizmatchilar yoki savdogar ko`rinishi ostidagi josuslardan foydalanish taklif etilgan, ammo Shunda ham, "Arxashastra" asari muallifi Katul`ya o`z tavsiyalariga nisbatan pessimistik qarashga ega bo`lgan.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan nazorat etilishi. Qadimgi Sharq jamiyatlari uchun, hukumat qaror va qonunlari orqali barcha ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning davlat tomonidan to`g`ridan-to`g`ri nazorat etilishi tabiiy hol bo`lgan. yuqorida ta`kidlanganidek, hattoki asosiy tovarlarga bo`lgan narxlar ham davlat tomonidan aniq belgilangan. Mo'ayyan tovarlar ishlab chiqarilishi yoki ayriboshlanishga nisbatan davlat monopoliyasi qo`llanilishi ham tabiiy hol bo`lgan, ammo ba`zi hollarda davlat monopoliyasi bahs va munozalarga ham sabab bo`lgan. Misol uchun, miloddan avvalgi 200-100 yillarda Xitoyda tuz va temir ishlab chiqarilishiga nisbatan davlat monopoliyasi tadbiq etilgan. Oqibatda davlat daromadlari oshgan, ammo aholi mazkur tovarlarning qimmatligi va sifati yomonligidan shikoyat qilishni boshlagan. Miloddan avvalgi 80- yillarda taxtga Yangi imperator chiqishi bilan, bu masala muhokama qilinganligi «Yan Tsze Lun`» asarida o`z ifodasini topgan. Davlat monopoliyasi tarafdorlari bu holat davlatga yuqori daromad olib kelayotganligini va strategik nuqtai - nazaridan muhim tovarlarni nazorat etishi sababli xavfsizlik asosiy omili ekanligini isbotlay boshlashgan. Ularga qarshi esa, bu tovarlar davlat tomonidan ishlab chiqarilishi noeffektivligi, buning sababi o`z kuchini to`laligicha ishlatmay mazkur sohada mehnat qilayotgan qul va jinoyatchilarni ishlatish ekanligi, buning natijasida tovar nisbatan qimmat va sifatsiz bo`lib chiqayotganligi, mazkur sohani boshqaruvchi mansabdorlarning korruptsiya va poraxo`rlikka berilganligi ham, ochiq ko`rsatib o`tilgan.

Jamiyat iqtisodiy hayotini davlat tomonidan to`g`ridan - to`g`ri nazorat etish bilan bir qatorda, ba`zi xitoy mutaffakkirlari davlat iqtisodiyotning qisman nazorat etilishi g`oyasini ham ilgari surishgan. Misol uchun Li Kuy (miloddan avvalgi IV asr), "adolat omborlari" g`oyasini ilgari surib, bu g`oya asosida mo`l hosil olingan yillari soliqlar oshirish va ishlab chiqarilgan mahsulotni davlat omborlarida

saqlash, hosil kam bo`lgan yillari esa yig`ilgan mahsulotlar zahiralarini arzon narxlarda xalqga sotish yoki kambag`al, och, naxor odamlarga tarqatish lozimligini aytib o`tgan. «Guan` Tszi» nomli risola mualliflari ham, bug`doy bilan "adolatli" (davlat tomonidan) savdo qilishni taklif etib, bu holat mavsumiy narxlarni tenglashtirishi muhimligini aytishgan. Xususan, kuzda bug`doyni nisbatan qimmat bo`lmagan narxlarda sotib olib, bahorda unchalik qimmat bo`lmagan narxlarda sotish lozimligi ta`kidlangan. Ular soliq yordamida tenglashtirish o`rniga, pul yordamida nazorat qilish lozim deb tavsiya qilishgan. "Guan` Tszi" risolasida jamiyat rivoji haqidagi aniq tavsiflardan tashqari, bozor nazoratida iqtisodiy tenglik tamoyili talab va taklifning mutanosibligida degan g`oya ilgari surilgan. Ular "bozor bu xo`jalikning tartibli yoki tartibsiz holatini belgilab beruvchi sohadir" – deb hisoblashgan.

2.2. Antik dunyo iqtisodiy ta'limotlari

Qadimgi Yunoniston va Qadimgi Rim antik jamiyati, xususiy mulk xukmronligiga asoslangan barqaror natural xo`jalik faoliyatiga ega jamiyat edi. Bu jamiyatda qullar mehnatidan keng foydalanilgan. Siyosiy tizim sifatida demokratiya qo`llanilib, hattoki Rim imperiyasida jiddiy demokratik institutlar amal qilgan. Qadimgi Yunon falsafasi Evropa fani asosini tashkil etib, antik jamiyat, madaniyati va fan sohalarida ulkan yutuqlarga erishgan, hamda u ham tabiiy, ham gumanitar fanlar asosida yotgan.

Predmet va uslub. Antik jamiyat iqtisodiy fikrlari o`sha davrdagi mashhur falsafiy asarlarida yoritilgan bo`lishi mumkin. Jamiyatning iqtisodiy masalalari Qadimgi Yunon faylasuflari Platonning (miloddan avvalgi 428-348 yillar), qalamiga mansub "Davlat va qonunlar" asari, hamda Aristotel`ning (miloddan avvalgi 384-322 yillar), «Nikomax etikasi» va «Siyosat» asarlarida o`z ifodasini topgan.

Bundan tashqari, jamiyatning alohida iqtisodiy-nazariy muammolari, amaliy xo`jalik to`g`risidagi asarlarida ham uchrab turib, ulardan biri Ksenofont (miloddan avvalgi 430-355 yillar) qalamiga mansub «Ekonomika» asaridir. Shuningdek Qadimgi Rim agrariylari masalalari Katon, Varron va Kolumelalarning xo`jaliklar va ular faoliyati haqidagi asarlarida ham ko`rish mumkin.

Antik dunyo iqtisodiy fikrlarida tadqiqot predmeti sifatida xususiy xo`jalik, faoliyati ya`ni «Mikroekonomika» olingan. Uning tadqiqoti me`yoriy yondoShuvga asoslangan tabiiy tartib g`oyasi ma`naviy – etik baholash, hamda pozitiv fikrlari muxim axamiyatga ega bo`lgan. Bundan tashqari tahlil va tizimlashtirish elementlari ham mavjud bo`lgan.

Asosiy nazariy jihatlar

Boylik. Qadimgi Sharq iqtisodiy fikridan farqli o`laroq, antik jamiyatda iqtisodiy fikrlar davlat boyligi haqida emas, balki inson boyligi haqida yuritilgan. Bunda asosiy diqqat e`tiborda iste`mol predmetlari bo`lgan. Masalan Aristotel` asarlarida, hayot uchun zarur bo`lgan iste`mol buyumlari davlat uchun ham, oila uchun ham umumiy tushuncha sifatida qabul qilingan. Bundan xulosa qilish mumkinki Qadimgi Yunon faylasuflari insonning ehtiyojlari qondirilganda boy xisoblanishadi, inson ehtiyojlari qanchalik tez qondirilsa ular boylikka Shu darajada tezroq erishadi.

Mehnat taqsimlanishi. Mehnat taqsimoti masalasida qadimgi Yunon mutaffakkirlari tomonidan turli jixatdan taxliliy fikrlar berilgan. Masalan Ksenofont, mehnat tabaqalanishini bozor hajmi va mahsulot sifatiga qarab ajratilishi haqidagi fikrini ilgari surgan. Uning fikricha «Hunarmand kichik shaharlarda eshik, plug, stol, stul kabi turli mehnat mahsulotlarni yasashi mumkin, va Shu bilan u oilasini boqish uchun etarli darajada buyurtma olganidan xursand bo`ladi, demak yirik shaharlarda ushbu mahsulotlariga talab yuqori bo`lishi sababli, har - bir hunarmand, o`zini va oila a`zolarini boqishi uchun faqat bitta mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashsa etarli bo`ladi, bu esa, tabiiyki, uzoq vaqt davomida aniq bir faoliyat bilan Shug`ullanishiga sabab bo`ladi.

Mehnat taqsimoti masalasiga Platon ham o`z e`tiborini qaratgan. Uning fikricha mehnat taqsimoti mehnat asosida mamlakat barqarorligini ta`minlash printsipi yotadi.

Tovar. Qadimgi Yunon faylasuflari, boylik tushunchasi bilan bir qatorda, qadriyat tushunchasini iqtisodiyot fani tadqiqot doirasiga kiritishgan. Ularning fikricha “qadriyat” mo‘ayyan foydalalik darajasiga ega mahsulot hisoblangan. Keyinchalik, ular mahsulot va tovar tushunchalarini bir-biridan farqlashgan. Ularning fikricha tovar nafaqat foydali xususiyatlarga, balki ayirboshlash imkoniyatiga ham ega bo`lishi kerak. Bunday imkoniyatning o`zi esa tovarga mo‘ayyan qadr - qimmat bag`ishlaydi. Ksenofontning fikricha, inson uchun foydasiz bo`lgan mehnat maxsulini sotish oqibatida sotilgan tovarning foydasi va qadr-qimmati bo`lmaydi.

Shuningdek Platon ham, Aristotel` ham, tovar qadriyatini aniqlash nazariy masalasiga ham e`tibor qaratishgan. “Tovarlar qadriyati tengsiz bo`lgan joyda almashinuv yuzaga kelmaydi. - Tenglik esa, o`zaro qadriyatlar tengligidir” deb ta`kidlaydi Aristotel.

Uning fikricha almashinuv asosida ham, inson ehtiyojlari yotadi. Xar - bir shaxs, o`ziga kerakli bo`lmagan tovarni o`ziga zarur tovargagina almashtiradi. Inson ehtiyojlari xilma-xil. Ularni qondiruvchi predmetlar ham turlicha. AlmaShuv haqida fikr yuritib Aristotel` xulosa qiladiki, o`zaro teng bo`lmagan predmetlar,

teng tannarxga ega bo`lmaydi. Platon fikricha aniq predmetlar o`z tarkibida umumiy g`oyalarni mujassamlashtiradi, ularni hissiyotlar bilan sezish mumkin bo`lmasada, ong bilan tushunish mumkin. Xususan, hissiyotlar uchun predmetlar tengligini aniqlash imkoniyati mavjud emas, Chunki dunyoda bir - xil predmetning o`zi mavjud emas. Tenglikni faqatgina ong ajrata oladi, va bu tenglikni aniqlash usuli ham ong tomonidan amalga oshiriladi. Aristotel`ning fikricha, tovarlar tengligini aniqlash, amaliy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan sun`iy usul yordamida amalga oshirilishi mumkin. Sun`iy usul sifatida mablag` (pul) maydonga chiqadi.

**Mablag`** (Kapital). Aristotel`ning fikricha, pul bu shartli predmetdir. Aristotel pulning kelib chiqishi haqida quydagi fikrni keltiradi. Pul (tanga) umumiy kelishuv asosida paydo bo`lgan. Demak, pul, bu sun`iy, vosita bo`lib, insonlar tomonidan ayirboshlash savdo qulayligi uchun yaratilgan predmetdir.

Yunon faylasuflari, pulning uchta vazifasini ajratishgan.

***** Muomila vositasi, ya`ni bunda pul ikkita tovarni almashinuvini birlashtiradi;

***** O`lchov vositasi (tanga ham ikki predmetni tenglashtiruvchi o`lchov shartli belgisidir);

***** Boylik orttirish vositasi.

Boylik orttirish vositasi vazifasiga Platon ham Aristotel` ham salbiy munosabatda bo`lishgan, Chunki jarayonda pul, o`zining asosiy vazifasi, ya`ni almashinuv vazifasini bajarmaydi. Boylik orttirishga nisbatan salbiy munosabati borasida Aristotel` “Iqtisodiyot” va “Xrematistika” haqidagi asarlarida ko`proq fikr yuritgan.

**Iqtisodiyot va xrematistika haqidagi ta`lim.** Iqtisodiyot va xrematistika xo`jalik munosabatlarini tizimlashtirilishi borasidagi birinchi ilmiy-amaliy tadqiqot hisoblanadi. Aristotel`, barcha xo`jalik faoliyati turlarini ikki qismga ajratib, ularni “iqtisodiyot” va “xrematistika” deb atagan. Bunday bo`linish, faoliyatning maqsadli omili sifatida qabul qilingan. Bunday iqtisodiyot uchun maqsad sifatida iste`mol predmetlari ilgari surilgan bo`lsa, xrematistika uchun pul ajratilgan (Yunon tilidan xremata - pul demakdir). Aristotel` fikricha iste`mol predmetlariga nisbatan harakatlanish, inson tabiatida mavjud holatdir. Aynan Shu sababli, ehtiyojlarni to`laligicha qondirish predmetlarga nisbatan harakat bilan tugaydi. Shu bilan birga Aristotelning fikricha inson tabiatida pulga nisbatan ehtiyoj mavjud emas, Chunki bu tabiiy emas. Aristotelning fikricha pulga nisbatan notabiiy intilish, harakatlanish, erishib bo`lmaydigan maqsadlar sirasiga kiradi. Iqtisodiyot soxasiga Aristotel` dehqonchilik, hunarmandchilik va ishlab chiqaruvchilar savdosini kiritdi, bunda savdo shaxsiy ehtiyojni qondirish uchun mahsulotlarni sotib olish akti nazarda tutilgan. Xrematistika soxasiga esa, professional savdo kiritilgan. Professional savdo tovarlarni keyinchalik sotish uchun sotib olishlik,

ya`ni boylikning manbai sifatida qabul qilishlik olingan. Shuningdek, aynan Shu soxaga sudxo`rlik ham kiritilgan.

**Sudxo`rlik**. Aristotel`ning fikricha, foiz bu pullar tomonidan olingan pul ko`rinishidagi daromaddir, Chunki ehtiyojlar qondirilishi uslublari orasida bu eng notabiiy uslubdir.

Shunday qilib, antik dunyo faylasuflari asarlarida, iqtisodiy muammolarga nisbatan nazariy yondashuvlar allaqachon mavjud bo`lgan. Tovarlar tengligini tadqiq etish muammosi esa, ilmiy tahlil misoli bo`lib, iqtisodiyot va xrematistika haqidagi ta`limotlar doirasida iqtisodiy hodisalar tizimlashtirilishi misoli sifatida ko`rib chiqilishi mumkin.

2.3. Feodal jamiyat va ilk kapitalizmning iqtisodiy ta’limotlari

*O`rta asrlar Evropa iqtisodiy fikrlari.* G`arbiy Evropada o`rta asrlar yoki feodal davri, uchta asosiy bosqichga bo`linishi mumkin: feodalizm shakllanishi davri VI – X asrlar, feodalizm gullab yashnashi davri - XI-XIV asrlar, feodalizm tugashi va kapitalizm yuzaga kelishi davri XV-XVII asrlar.

Mazkur mavzu doirasida ko`proq ikkinchi davr borasida so`z yuritamiz. Aynan shu davrda G`arbiy Evropa iqtisodiyotida natural va bozor xo`jaligi, krepostnoy dehqonlari mehnati, va shahar erkin hunarmandlari, (tadbirkorlar) mehnati birgalikda rivojlangan. Ijtimoiy munosabatlar korporativ va tabaqaviy tavsifga ega bo`lgan. Buning zamirida mo‘ayyan korporatsiya doirasida ham (jamoa, tsex, gil`diya va hokazo) insonlar mo‘ayyan tabaqa vakillari sifatida ma`lum huquqlarga ega bo`lishgan (ruhoniylar, dvoryanlar va uchinchi tabaqa). Inson huquqlari haqida tushunchasi esa, birmuncha kechroq ilk kapitalizm davrida yuzaga kelgan. Siyosiy sohada qirol xukmronligi kuchsiz bo`lib, feodallar hukmronligi birmuncha kuchli bo`lgan. G`arbiy Evropani o`sha davrlarda birlashtirgan yagona holat xristianlik dini va katolik cherkovi bo`lgan. O`rta asrlar madaniyati esa ko`proq din ta`sirida bo`lib, fan va san`at ham aynan cherkov doirasida rivojlangan.

Predmet va uslub. O`rta asrlar iqtisodiy fikri manbalari sifatida asosan teologiyaga oid asarlar hisoblanadi. Shu sababli mualliflarning iqtisodiy qarashlari bevosita teologiya bilan, xususan insonning diniy jihatdan qutqarilishi borasida masalalar bilan bog`liq. O`rta asrlar davrlarida teologiya ayniqsa, katolik teologiyasi insonning jamiyatga qabul qilinishisiz rivojlanishi mumkin emas deb hisoblagan. Bu holat, jamiyat, ya`ni umuminsoniy manfaatlarga bo`ysunish maqsadida egoistik tabiatni engib o`tishga qaratilgan. Shu sababli umumiy qadriyat tushunchasi teologlarning barcha ijtimoiy asarlarida markaziy mavzuga aylangan. O`rta asr mualliflarining barcha asarlarida tadqiqotning meyoriy uslubi ko`p

uchraydi, bu holat ayniqsa barcha masalalar nasroniylik ma`naviyati asosida ko`rib chiqilishida namoyon bo`ladi. Mualliflar fikrlari asosan aprior, shaxsiy fikrga asoslanib, o`ziga xos mantiq asosida ilgari surilgan.

Bundan tashqari, iqtisodiy fikrlarning isbotini asosiy elementi sifatida mo‘ayyan nufuzli manbaga tayanilgan. Manba sifatida, muqaddas kitoblar yoki cherkov ruhoniylari asarlari qabul qilingan. Uslubning o`ziga xosligi sifatida istalgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarning ikki tomonlama tavsifli baholanishini olish mumkin. Bu holat teologlarga bir tomondan Xudo tomonidan yaratilganligi, hamda uning irodasiga bo`ysunishi, ikkinchi tomondan esa inson tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar gunoh sifatida baholanishiga asoslanadi deb hisoblangan.

Shu sababli, barcha dunyoviy hodisalarda ruhoniylar ham xudo nuri, ham inson gunohlari izlarini qidirishga harakat qilishgan. Dunyoning ikki tomonlama tavsifiga nisbatan O`rta asrlarda G`arbiy Evropa mualliflarining quyidagi ikki tavsifli yondoShuvlarini keltirish mumkin. Erta nasroniylar, xususan mashxur ruxoniy avliyo Avgustin o`zining (Avgustin Blajenniy – 354-430), barcha gunohlarni engib o`tish, hamda Xudoga nisbatan to`laligicha bo`ysunishga asoslangan g`oyalarini ilgari surgan. Shuningdek, dunyo ishlaridan voz kechish, qashshoqlikda yashash, nasroniylik qonuniyatlariga to`laligicha bo`ysunish, og`ir mehnat qilish, jismoniy, hamda ruhiy azoblarga dosh berish g`oyalari ham ilgari surilgan.

Keyingi davrlarda, O`rta asr sxolastikasi gullab yashnagan davrlarida boshqacha nuqtai - nazar ilgari surilgan, bunday qarashlar asosan Foma Akvinskiy (Akvinad) asarlarida yoritilgan (1225-1274). Uning fikricha, inson gunohkor tabiati sababli, xudo qonuniyatlariga asoslangan hayotni qura olmaydi. Insonning maqsad sari harakalanish yangidan - yangi gunohlarni keltirib chiqaradi. Xudo yo`lidagi hayot faqatgina monastirlar, mo‘ayyan ruhoniylar jamoasi doirasidagina bo`lishi mumkin.

Dunyoviy ishlarga tartib o`rnatish paytida esa, insonning gunohkorona tabiatini e`tibordan qochirmaslik lozim. Shu sababli jamiyat ham xudo qonuniyatlari (tabiiy holatlardan kelib chiquvchi tabiiy huquq), ham insonlar o`zaro ishonch kuchiga asoslangan qonuniyatlarga muvofiq qo`rilishi lozim (shartli huquq). Bunday shartli huquqlar mo‘ayyan tarixiy holatda xudo qonuniyatlari aksidir.

Bunday qonuniyatlarga nisbatan, yanada kuchli normativ qonuniyat yo`lga qo`yilib, har - bir alohida masala adolat yuzasidan bajarilishi lozim, ya`ni adolat tushunchasi ostida adolatli narx, adolatli mukofot, adolatli bo`lishish va hokazolar kiritilib, bunday g`oya markazida insonlarning o`zaro ishonchi yotgan.

Bunday holatlarda qonunlarga muvofiq hayot kechirishning o`zi ham adolatli sanalgan (Xudo yoki shartli qonuniyatlar bo`lishidan qat`iy nazar).

Foma Akvinskiy iqtisodiy qarashlarining asosiy holatlari. O`rta asrlar iqtisodiy fikrlari bir - xil bo`lmagan. Xayotning umumiy manba, ya`ni muqaddas kitobga tayanish zaruratiga qaramasdan, teologiyada turli maktab va yo`nalishlar mavjud ediki, ular orasida, ko`pincha munozaralar kelib chiqar edi.

Biz o`sha davrlardagi yirik mutafakkirlardan biri bo`lgan muallif Foma Akvinskiy ijodiyotida to`xtalib, uning qarashlari misolida O`rta Asrlar iqtisodiy fikrlari o`ziga xosliklarini yoritishga harakat qilamiz.

Boylik. Foma Akvinskiy fikriga ko`ra, boylik bu gunoh emas. Boylik hukmronlik demakdir va bu hukmronlik faqatgina boylikka ega bo`lgan shaxsga beriladi. Har qanday hukmronlik esa hurmatni keltirib chiqarishi lozim. Boylik qay darajada qo`llanilishi esa, boshqa masala. Agarda uning yordamida yaxshi, ezgu ishlar amalga oshiriladigan bo`lsa, boylik faqatgina ezgulikka xizmat qiladi. Agarda boylik oqibatida gunohkorona ishlar amalga oshiriladigan, adolatsizlikka yo`l qo`yiladigan bo`lsa, boylikning bu tarzda qo`llanilishi gunohdan o`zga narsa emas. Boylikka ega bo`lgan shaxs, o`z harakatlari uchun yuqori darajadagi mas`uliyatga ega bo`ladi. Chunki bu harakatlarning oqibatida, atrof - muhitdagi shaxslar, ayniqsa kambag`allar harakatidagi gunohkorlik yoki ezgulikni keltirib chiqaradi. Shu sababli boy shaxsning gunohlari kambag`al shaxsning gunohlariga nisbatan og`irroq bo`ladi. Boylikk orttirish istagi ham, o`z - o`zidan gunohdir, zero boylik o`z -o`zidan boylik emas, dunyo borshqarilishi yo`lidagi vosita bo`lib, boylikni maqsadga aylantirish, tabiatga qarshi chiqish bilan barobardir. Demakki, buning asosida adolatsizlik yotadi.

Xususiy mulk. Foma Akvinskiy nuqtai - nazaridan shaxs o`z ko`nglini qo`ygan narsalarga egalik qilish huquqiga ega, ya`ni bunday istak asosida yaratuvchining yaratilgan narsalariga nisbatan huquqi bilan tenglashtiriladi. Birinchi navbatda, so`z inson mehnati mahsuli haqida ketib, bunda inson mazkur narsalarni yaratishda mehnat qiladi. Shu bilan birgalikda, inson narsalarni qabul qilish, olish, hamda me`ros qoldirish huquqiga ham egadir, zero uning mehnati nafaqat o`zi uchun, balki o`z oilasi, hamda avlodlari uchun ham xizmat qiladi. Xususiy mulk zaruratini Foma Akvinskiy inson tabiati gunohkorligi bilan bog`laydi. Uning yozishicha, inson faqatgina o`ziga tegishli bo`lgan narsalar borasida ko`proq qayg`uradi. Bundan tashqari, insonlar orasida mulkning bo`linishi barobarida, inson jamoadagi vazifalarini ham baham ko`radi, ya`ni har - bir faoliyat ixtisoslashtirilib, bu holat yanada samaraliroq bo`ladi. Xususiy mulk kuchli tartibini o`rnatish, u yoki bu mulkka egalik qilish borasidagi munozaralarga chek qo`yadi.

Nima bo`lganida ham, inson yaratguvchi tomonidan yaratilgan barcha narsalarga tabiiy egalik qilish huquqiga ega bo`ladi, va bu huquqdan inson

faqatgina ehtiyoj tug`ilgandagina foydalanishi mumkin. Inson o`zganing mulkini o`zlashtirish huquqiga ega bo`lib, buning uchun jazolanishi mumkin emas.

Ijtimoiy tengsizlik. Foma Akvinskiy adolatning ikkita turini ajratadi. Birinchi turi almashinuv vaqtidagi adolatdir. Bunday adolat, almashtirilayotgan tovarlar tengligiga asoslanib, buning oqibatida adolatli narx va adolatli to`lov tushunchalari kelib chiqib, ular haqida quyida to`xtalib o`tamiz. Adolatning ikkinchi turi, bo`lish paytidagi adolatdir. Bunday tur, umumiy mahsulotning jamiyatning har - bir a`zosiga teng ulushda bo`linishiga asoslangan. Bo`lish huquqi arifmetik tenglikka emas, proportsional tenglikka asoslanib buning ostida bo`linish paytidagi har - bir ulush insonning jamiyatdagi mavqeiga qarab belgilanadi.

Bunda adolat bajarilgan ishlar miqdoriga qarab belgilanadi. Har - bir jamiyat ierarxik ekanligi sababli, jamiyat a`zolari xizmatlari ham turlicha bo`ladi, demakki, ularning daromadlari ham turlicha bo`lishi lozim.

Adolatli narx. Adolatli narx borasidagi Foma Akvinskiy fikrlari, birinchi navbatda almashish huquqi tushunchasiga tayanadi (adolatli almashinuv). Adolatli narx, almashinuv paytidagi tenglikni ta`minlashi kerak, ya`ni almashinuv qatnashchisining har - biri ulushiga mutanosib ravishda, belgilanishi lozim. Adolatli narx qanday belgilanishi haqida savol tug`ilishi tabiiy. Foma Akvinskiy fikriga ko`ra, bu holat almaShuvchi tomonlarning sub`ektiv narxlashlari natijasidir.

Birinchi navbatda, bu mazkur tovarni sotgan taqdirda, sotuvchi tomonidan belgilanadigan zarar narxini sub`ektiv ravishda narxlashdir. Mazkur zarar umuman olganda, tovar ishlab chiqarilishi va sotib olinishi bilan bog`liq bo`lgan xarajatlarga tenglashtiriladi, ammo mazkur tovarning xaridor tomonidan sub`ektiv ravishda narxlanishi ham muhim masaladir, Chunki aynan Shu narx orqali xaridor, tovarga bo`lgan ehtiyoj darajasini belgilaydi. Shu bilan birgalikda, sotuvchi unga narx belgilash barobarida, tovar sifatini ham e`tiborga olishi lozim. Keyingi fikrlarida Foma Akvinskiy asosan adolatli narx sifatida o`rtacha sharoitlarda mazkur tovarga nisbatan bozorda belgilangan o`rtacha narxni ko`rib chiqadi.

Foma Akvinskiy aloxida e`tiborni adolatli almashinuv qoidalari buzilish holatlariga ham qaratgan. Ulardan biri, sotuvchi tomonidan tovar sifatini sun`iy ravishda bo`rttirishidir. Uning fikricha, sotvuchi tovar unga ma`lum bo`lgan yashirin sifatsizliklarga ega bo`lgan taqdirda uning narxini tushirishi lozim. Bunda u, xaridor oldida mazkur kamchiliklarni aytib o`tirishga majbur emas. Xaridor, ularni o`zi aniqlashi, hamda tovarning past narxidan ular haqida tushunib olishi lozim.

Adolatsizlikning yana bir turi sifatida, mazkur tovarga xaridorning yuqori darajadagi ehtiyojidan foydalanish kiradi. Sotuvchi, bunday holatda tovar narxini oshirishga haqli emas. Shu bilan birgalikda, xaridor og`ir holatda ko`rsatilgan

xizmat uchun mukofot tarzida, o`zi alohida narxni taklif qilish huquqiga ega. Bundan tashqari, agarda sotuvchi mo‘ayyan sub`ektiv sabablarga ko`ra, o`zida mavjud bo`lgan tovarni bozordagi o`rtacha narxdan yuqoriroq narxda narxlaydigan bo`lsa, u mazkur sub`ektiv baholanishga muvofiq bo`lgan narxni belgilash kabi adolatli huquqga ega bo`ladi.

Savdo haqida. Foma Akvinskiy savdoga ijobiy qaraydi, Chunki savdogar mo‘ayyan tovarlarni ularga ehtiyoj yuqori bo`lgan joylarga etkazish kabi muhim vazifani bajaradi. Buning evaziga u, daromad olish huquqiga ega. Ammo Shu bilan birgalikda savdogar ikki qoidaga bo`ysunishi lozim.

Birinchidan, u tovar narxini o`zi tovarga nisbatan qilgan xarajatdariga mutanosib ravishda belgilashi lozim. Ikkinchidan, u daromad orqasidan, daromad evaziga intilish huquqiga ega emas.

**Sudxo`rlik**. O`z davrining mutafakkirlari singari, Foma Akvinskiy sudxo`rlik qilib foiz olishga salbiy munosabatda bo`lgan. Uning fikricha, mo‘ayyan miqdorda mablag`ni qarzga bera turib, sudxo`r Shu mablag`ga teng mablag`ni talab qilish huquqiga ega. Foiz mablag`dan foydalanish uchun qo`shimcha to`lovdir, Shu sababli pulni “sotish” huquqni sotish bilan barobardir deb qaragan. Shunday qilib, sudxo`r bir tovarni ikki marotaba sotgan bo`ladi, va bu holat sharobfurush, sharobni alohida, uni ichish huquqini alohida sotish bilan barobarligini ta`kidlaydi.

*O`rta asrlarda Rossiyadagi iqtisodiy fikrlar*. Ma`lumki, Rossiyaning iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi o`ziga xos xususiyatlarga ega. Birinchidan Sharqiy Evropa G`arbiy evropadan qoloq bo`lgan. Chunki G`arb davlatlari, Rim imperiyasi qoldiqlari sifatida V asrlarga kelibgina shakllana boshlagan bo`lsa, Qadimgi Rus` davlati (Kiev Rusi) esa IX asrga kelib shakllana boshlagan.

Ikkinchidan, mo`g`ul – tatar bosqini ham, Rossiya qoloqligini oshirib, uning keyingi siyosiy rivojlanishiga salbiy ta`sir ko`rsatgan. Tatar istilosidan ozodlik uchun kurash davomida, Rossiyada XV-XVI asr chorrahasidagina markazlashgan davlat paydo bo`lgan. Ammo G`arbda, markazlashgan davlatlar shakllanishi kapitalizm paydo bo`lishi bilan shakllangan bo`lsa, Rossiya davlatida harbiy zarurat tufayli, krepostnoy huquqi yuzaga kelib rivojlana bordi.

Bundan tashqari, Rossiya davlati tatarlardan Sharqona despotiya mo‘ayyan xususiyatlariga ham ega bo`lgan. Ruhoniy Yermolay tomonidan XVI asrning 40-50 yillarida yozilgan «Ezgulikni istovchi shohlarga er ajratish va hukmronlik borasida tavsiyalar» asarida rus davlatchiligini shakllanish xususiyati yoritilgan. Asar bir tomondan o`sha davrdagi G`arbiy Evropa traktatlari uslubida yozilib, teologiya faktlariga asoslangan, ammo boshqa tomondan, mazkur davlat boshqaruvi haqidagi yuqorida tilga olingan qadimgi Sharq asarlari kabi uslubga ega bo`lgan. Bundan tashqari, Yermolay Erazmning shaxsiy o`ziga xosliklaridan biri, erta nasroniy teologlari qarashlariga yaqin bo`lib, bu holat o`sha davrlarda

Rossiya cherkovida mavjud bo`lgan ajralmaslar oqimi qarashlari ta`siri ostida shakllangan. Bu borada bir - necha misollarni ko`rib - chiqamiz.

Boylik Yermolay tomonidan salbiy baholangan. Uning fikricha boylik birovlar mehnati evaziga yig`iladigan mablag` bo`lib, buning asosida ayyorlik va adolatsizlik yotadiki, o`z shaxsiy mehnati evaziga hech - kim boylik yig`a olmaydi.

**Savdo daromadi va sudxo`rlik**. Daromad borasida Yermolay nisbatan yumshoq munosabatda bo`lib, faqatgina haddan ortiq daromadga nisbatan salbiy qaraydi. Sudxo`rlik evaziga olingan daromad esa, mutlaq salbiydir. Sudxo`rlarga murojaat etar ekan, Yermolay har - bir hayvon faqatgina xudo inoyati bilan unib - o`sadi, sening boyliging esa xudo inoyati bilan o`smaydi. Sen xudoga qarshi chiqasan, va xudo huquqiga da`vo qilib boyligingga o`sishni buyruq berasan, - deb yozgan edi.

Soliqlar. Xudo inoyatiga tayangan holda, Yermolay krepostnoy dehqonlardan yig`ib olinadigan boj va soliqlar miqdorini bittagacha kamaytirish lozimligini aytadi, zero hayvonlar va qushlar ham yiliga faqat bir bora po`st tashlaydi, - deb yozgan edi u.

*O`rta asrlar musulmon dunyosi iqtisodiy fikrlari.* Musul`mon madaniyati arab bosqinlari davrida shakllana boshlagan. Yuz yil davomida (VII-VIII asrlarda) arablar juda yirik hududni bosib olishdi. Arab xalifaligi Rim imperiyasidan ham kattaroq bo`lib, Ispaniyadan Hindistongacha bo`lgan hududni qamrab olgan. Uning tarkibiga ko`plab rivojlangan mamlakatlar ham kirib, bu mamlakatlar aholisi, islom dinini qabul qilish barobarida musul`mon madaniyatini shakllanishiga ham o`z hissalarini qo`shib kelishgan.

Xususan, Vizantiya viloyatlari, Suriya va Misr ham antik madaniyati, jumladan antik falsafasi islom madaniyatini kirib kelishiga asos yaratib bergan. O`rta asrlar Islom falsafasi, Eropadagi kabi boshlang`ich davrlarda teologiya doirasidagina rivojlana bordi. Uning eng yorqin rivojlanish davri IX-XI asrlarga to`g`ri kelib, keyingi davrlarda Islom teologiyasida dogmatizm va mistitsizmning kuchayishiga qaramasdan chuqur falsafiy fikrlarga ham ega bo`lgan. Bunday falsafiy fikrlarni Tunislik faylasuf va tarixchi Valieddin ibn Raxman ibn Xaldun (1332-1406) ilgari surgan.

Ibn Xaldun musul`mon falsafasida ilk marotaba jamiyat rivojlanishi nazariyasi g`oyasini ilgari surgan. G`oya asosida asosan iqtisodiy muammolar va ularning echimi yotgan.

Predmet va uslub. Ibn Xaldun jamiyat rivojlanishini tadqiq etganligi sababli, tadqiqot predmeti sifatida makroiqtisodiyot sohasi ilgari surilgan. U tomonidan qo`llanilgan uslubning o`ziga xos jihati Shundaki, unda pozitiv va normativ yondashuvlar uyg`undir.

Metodologik yondashuv sifatida, atrofdagi dunyo hodisalari uyg`unligi haqidagi g`oya yotgan. Uning yozishicha dunyo tartibli va mukammal bo`lishi lozim. Bunday dunyoda sabab natija bilan bog`liq bo`lishi, koinot bilan bog`lanishi, mavjud bo`lgan narsalar boshqa narsalarga aylanishi lozim deb hisoblagan. YAna bir muhim metodologik jihati Shundaki, jamiyat rivojlanishi tabiiy qonuniyatlari mavjudligi haqidagi tezisdir.

Ko`pchilik davlat namoyandalari, ta`kidlaydi faylasuf, - siyosatda hushyorlikka ega bo`lish barobarida, o`z e`tiborlarini buzilish belgilariga qaratib, o`z davlatlari buzilishiga yo`l qo`ymaslik imkoniyatlarini qidirishadi, zero ularning hisoblashlaricha, faqatgina davlatlarida ro`y berayotgan tartibsizliklar, ulardan oldingi hukmdorlar xatoliklari oqibatida yuzaga keladi. Ammo aslida unaqa emas, istalgan buzilish tabiatan yuzaga keladi.

Jamiyat rivojlanishi nazariyasi. Ibn Xaldun fikricha, jamiyat siklik tarzda rivojlanadi. Har - bir sikl uch bosqichdan iborat. Har - bir bosqichning farqli belgisi Shundaki, uning doirasida iqtisodiyot rivojlanishi darajasi belgilanadi.

Ibn Xaldun yozishicha barcha avlodlar yashaydigan sharoitlar inson tomonidan yaratilgan yashash sharoitlariga bog`liq. Birinchi bosqichni Ibn Xaldun “yovvoyilik” deb ataydi.

Bunda insonlar faqatgina xo`jalikni o`zlashtirish bilan Shug`ullanishadi, ov qilishadi va egulik o`simliklarni yig`ishadi. Ikkinchi bosqich “ibtido`” deb nomlanib, ishlab - chiqarish xo`jaligi dehqonchilik va chorvachilik ko`rinishida yuzaga keladi. Ibn Xaldun tomonidan «tamaddun» deb atalgan uchinchi bosqichda hunarmandchilik va shaharlarda markazlashgan savdo yuzaga keladi (tsivilizatsiya so`zi ham lotin tilidan olingan «civilis» ya`ni shahar so`zidan kelib chiqgan. Ibn Xaldun tomonidan esa «tamaddun» muvofiq arab tarjimasi qo`llanilgan). Tamaddun bosqichiga o`tish barobarida Ibn Xaldun nazariyasiga ko`ra davlat yuzaga kelib, tenglik va urug` demokratiyasidan hukmronlik va tengsizlik munosabatlariga o`tish yuz beradi. Tenglar orasida birinchi bo`lgan qabila sardoridan farqli o`laroq, Amir yollangan jangchilar va mansabdorlarga tayanadi. Ibn Xaldun fikricha, davlat o`z xalqi ustidan tazyiq apparatidan boshqa o`zga narsa emas. Shu jixatdan, Ibn Xaldun nazariyasiga ko`ra, uchinchi bosqichda boylik orttirishning tabiiy va notabiiy usullari yuzaga keladi, ya`ni iqtisodiy munosabatlar tizimlashtiriladi. Boylik orttirish tabiiy usullari sirasiga Ibn Xaldun mehnatni kiritgan, notabiiy usullarga tazyiq (davlat tomonidan o`tkaziladigan tazyiq) kiritilgan.

Tabiiy usullarga qishloq xo`jaligi, hunarmandchilik va savdo kiradi. Ko`rinib turibdiki, bo`linish omili sifatida Aristotel` fikridan farqli o`laroq maqsad emas, usul kirib, savdo ham tabiiy mehnat faoliyati sirasiga kiritiladi. Jamiyat, uning mavjudligi va bozorlari to`laligi, insonlar mehnati bilan, ularning faoliyati va

shijoati bilan bog`liq bo`lib, ulardan asosiy maqsad, manfaatlar va yutuqlarga erishishdir, deb aytgan edi.

Boyishning notabiiy usullariga ibn Xaldun soliqlarni ham kiritadi (soliq va bojlar davlat asosini tashkil etadi) va buning barobarida davlat tomonidan amalga oshiriladigan monopolistik savdo ham e`tibordan chetda qolmagan (Amirlar dehqonlardan mahsulot sotib olish bilan Shug`ullanish barobarida, ularni mo‘ayyan narxlarda sotishga majburlashadi, Shundan so`ng o`zlariga belgilagan narxda mazkur mahsulotlarni davlatlar fuqarolariga sotishadi).

Buning natijasida, muallif, - sud tomonidan tazyiq va harbiy o`ljalar yuzaga keladi deb xisoblaydi. Jamiyat rivojlanishi uchinchi bosqichini tasvirlar ekan, ibn Xaldun fikricha uning eng yuqori rivojlanish nuqtasi davlatning emirilishi va tanazzuliga olib keladi. Davlat ehtiyoji asta-sekinlik bilan o`sadi, buning oqibatida hukmdor tomonidan Yangidan-Yangi soliqlar va bojlar o`ylab topiladi, ammo Shu bilan birgalikda insonlarning mehnat shijoati pasayib boradi. Kambag`allik va har - tomonlama qisilishlar, tangliklar daromadlar yo`qotilishi kabi holatlar savdo bilan bog`liq umidlarini so`ndiradi. Agarda insonlar yashash uchun mablag` topish istagidan voz kechib sotib olishni bas qilsalar, bozorlar to`xtab qoladi. Insonlar boshqa erlarga nasiba axtarib ketib qolishadi va buning oqibatida shaharlar emiriladi.

Shaharlar emirilishi bilan, hukumat va davlat inqirozga yuz tutadi. Bunda so`z, davlat imkon qadar ko`proq soliq undirish barobarida kamroq daromad ola boshlashi haqida ketib, buning natijasida g`azna bo`shab qoladi, armiya to`lovsiz qolib, davlat qo`shni davlatlar tomonidan bosib olinadi. Ammo, mazkur hudud aholisi uchun, tarix davom etadi. Masalan bosqinchilar qo`shni qabilalar bo`lsa, vaqt o`tishi sayin, ular tomonidan Yangi davlat shakllantiriladi, va Ibn Xaldun fikricha, tarix ko`rsatib o`tilgan tizim asosida davom etadi.

**G`oya asosi**. Ibn Xaldun fikricha, tovar narxi talab va taklif mutanosibligi asosida yuzaga keladi. Talab nuqtai - nazaridan narx tovar foydaliligi va mazkur tovar, boshqa tovarlar orasida egallagan o`rnidan kelib chiqib belgilanadi. Taklif nuqtai - nazaridan esa, narx sarflangan mehnat asosida belgilanib, bunda nafaqat ishlab chiqaruvchi mehnati, balki uning moddiy xarajatlari asosida ham yuzaga keladi. Masalan, duradgor taxta ishlatadi, to`quvchi jun, demakki mazkur mehnatkashlar yana bir bora xarajatga yuz tutishadi. Bundan tashqari, Ibn Xaldun, ortiqcha soliqlar ham tovar narxiga ta`sir ko`rsatishini aytib o`tadi.

Savdo daromadi, bu tovar sotilishi va sotib olinish narxi orasidagi farqdir. Inson daromadni tovar narxi oshishini kutib, yoki mazkur tovarga talab yuqoriroq bo`lgan davlatga olib borish orqali erishadi, deb hisoblaydi Ibn Xaldun.

**Mablag`**. Ibn Xaldun fikricha, oltin va kumush, ilgari zamonlardan mablag` sifatida qo`llanilib, o`lchov, to`lov va yig`ish funktsiyasini bajargan. Olloh, ikki

turdagi metall, oltin va kumushni yaratgan - deb yozgan u, va bu ikkala unsur, barcha tovarlar o`lchov vositasidir. Ular sotib olish, yig`ish va boyish asosidir.

Nazorat uchun savollar:

1. Qadimgi Sharq iqtisodiy ta`limotlarining asosiy o`rganish predmeti nima?
2. Qadimgi Sharq asarlarida nima va nima uchun boylik deb qabul qilinar edi?
3. Qadimgi Sharqda boylikni oshirishning qanday usullari taklif qilingan?
4. Nima sababdan Qadimgi Sharq asarlari mualliflari savdoga nisbatan salbiy fikr tug`ilgan?
5. Qadimgi Sharqda bozor munosabatlarini tartiblashtirishning qanday shakllari qo`llanilgan?
6. Qadimgi Xitoyda tuz va temirga nisbatan davlat monopoliyasi tarafdorlari va qarshilari orasida qanday isbotlar keltirilgan?
7. Ba`zi xitoy mutaffakkirlari tomonidan iqtisodiyotning nisbatan boshqarilishining qanday shakllari taklif qilingan?
8. Antik jamiyat iqtisodiy fikrining o`z davri ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlari bilan aloqasi qanday?
9. Iqtisodiy masalalarga nisbatan qadimgi Yunon mutafakkirlari nazariy yondashuvlariga misollar keltiring.
10. Qadimgi Yunon iqtisodiy fikriga nisbatan me`yoriy yondashuvga misollar keltiring.
11. Qadimgi Yunon faylasuflari tomonidan boylik deb nimaga aytilgan va buning asosidagi ma`naviy etik yondashuv nimadan iborat?
12. Ksenofont va Platon asarlaridagi mehnat taqsimoti muammosi qaysi ijtimoiy - iqtisodiy hodisalarga bog`liq?
13. Qadimgi Yunon mutaffakkirlari mahsulot va tovar orasidagi farqni nimada deb bilishgan?
14. Qadimgi Yunon faylasuflari pulning qanday vazifalarini ajratishgan?
15. Aristotel` iqtisodiy munosabatlari tizimlashtirilishi g`oyasi nimadan iborat?
16. O`rta asrlar iqtisodiy fikri me`yoriy tavsifi nimadan iborat?
17. O`rta asr teologlari ikki tomonlama qarashlari sababi nimada?
18. Foma Akvinskiy nuqtai - nazaridan boylik tushunchasi qanday tavsiflanadi?
19. Iqtisodiy munosabatlarga nisbatan, Foma Akvinskiy adolatning qaysi ikki turini ajratadi?
20. Foma Akvinskiyning adolatli narx tushunchasi qanday izoxlanadi?
21. Foma Akvinskiy fikriga ko`ra adolatli almashinuvni tannozulga uchratuvchi holat nima?

22. Foma Akvinskiy va YYermolay Yerazm nuqtai - nazarlarining o`xshash va farqli jihatlari nimada?
23. Ibn Xaldun iqtisodiy tadqiqotlari predmeti nima?
24. Jamiyat rivojlanishi tabiiy qornuniyatlari nimada namoyon bo`ladi?
25. Ibn Xaldun fikriga ko`ra muvofiq jamiyat rivojlanishi turli darajalarida iqtisodiyot qay darajada o`zgaradi?
26. Ibn Xaldun nazariyasiga muvofiq, boylik orttirish tabiiy va notabiiy usullari nima bilan farq qiladi?
27. Ibn Xaldun nazariyasiga muvofiq, davlatning emirilishi sababi nimada?
28. Ibn Xaldun nazariyasiga muvofiq, pul kim tomonidan, va nima sababdan yaratilgan?

Mavzu bo`yicha adabiyotlar ro`yxati:

1. «Архтхашастра». М., 1993.
2. «Гуань Цзы». М., 1959.
3. Книга правителя области Шан. М., 1993.
4. Хрестоматия по истории древнего востока: в 2-х частях. М., 1980.
5. Razzoqov A. “Iqtisodiy ta`limotlar tarixi” O`quv qo`llanma. T. 2003 yil
6. Аристотель. Никомахова этика. Политика// Соч. Т. 4. М., 1984.
7. Ксенофонт. Домострой// воспоминания о Сократе. М., 1993.
8. Платон. Государство. Законы// Соч. Т. 3, 5. М., 1971 – 1972.
9. Жильсон Э. Избранное. Т. 1: Томизм. Введение в философию Фомы Аквинского. М., СПб., 2000, ч. 3 Гл. 4.
10. Шумпеттер Й.А. История экономического анализа. Т. 1. СПб., 2001. С. 116-117.
11. История русской экономической мысли. Т.1. Ч. 1. М., 1955.
12. Игнатенко А.А. Ибн Халдун. М., 1980.

III-BOB. MERKANTILIZM IQTISODIY TA'LIMOTINING MOHIYATI VA AHAMIYATI

3.1. Merkantilizm shakllanish davri tavsifi

Evropa davlatlarida iqtisodiy hayotning faollaShuvi XII-XIII asrlarda aholi soni oshishi, savdoning rivojlanishi va yo`llar xavfsizligi o`sishi sababli amalga oshgan. Asta - sekinlik bilan tashqi savdo aloqalari ko`payib, savdo aylanmasi ishlab chiqarish quvvati o`sishiga asos yaratib berdi. Buning natijasida kemasozlik rivojlanib borgan. Ammo XV asrda mazkur jarayon Yangi sifatga ega bo`ldi. Buyuk jug`rofiy kashfiyotlar davri boshlandi.

Yangi yer va bozorlarni izlash birinchi navbatda qimmatbaho metallarning keskin tanqisligi bilan bog`liq bo`lgan, Chunki o`sha davrlarda qimmatbaho metallar mablag` rolini o`ynagan. Mazkur tanqislik, savdo operatsiyalari o`sishi sababli yuzaga kelgan. Bundan tashqari, evropa davlatlari Hindistonga Yangi dengiz yo`llarini axtarish bilan ovora bo`lishgan, zero Hindiston o`sha davrlarda ziravorlar manbai edi. Suriya va kichik osiyo orqali, Sharqqa olib boruvchi quruqlik yo`llari, yagona yo`llar bo`lib, Venetsiya savdogarlari tomonidan nazorat etilgan. Boshqa mamlakatlar, (Ispaniya, Portugaliya, keyinchalik esa Angliya) bu kabi tashqi savdo aloqalaridan chetlashtirilgan.

Quruqlik yo`llari orqali savdo, ko`plab miqdordagi dallollar orqali amalga oshirilib, bu holatda tovar narxlari keskin ko`tarilishiga sabab bo`lgan. Hindistonga etib olishning Yangi imkoniyatlarini axtarish, afrika qirg`oqlari bo`ylab dengiz yo`llarini o`zlashtirilishiga olib kelindi. Yer aylana ekanligi haqidagi g`oya tiklanishi natijasida esa, G`arbga qarab ekspedlitsiya tashkillashtirilishiga, hamda Amerikaning ochilishiga olib keldi. Oqibatda XVI-XVII asrlar davomida, Yangidan Yangi hududlar o`zlashtirilib, Yangi savdo aloqalari tashkil topdi - Ispaniya - Peru va Meksika, Angliya va Frantsiya - Shimoliy Amerika, Rossiya - SHimoliy Osiyo.

Tashqi savdodagi muvaffaqiyatlar, Evropa tuzilishini o`zgartirib yubordi. Yangi erlardan olib kelinayotgan qimmatbaho metallar oqimi, ilk inflyatsiyaga olib kelib, buning oqibatida narxlar inqilobi yuzaga keldi. Narxlar XVI asrning 30-yillaridan oxirigacha 2-4 baravarga oshdi. Savdo aylanmasi va savdo daromadlari o`sib borib, kapital jamg`arilishining faol jarayoni boshlandi, va oqibatda natural ishlab chiqarishning, tovar ishlab chiqarilishiga o`zgartirilishi maqsadida uni modernizatsiya etilishi kuzatildi. Manufakturalar yuzaga kelib, yarim natural xo`jalik ehtiyojlariga muvofiq ravishda ishlab chiqarish o`sib bordi.

Ushbu davrda Evropa mamlkatlarining, siyosiy tuzilishi ham o`zgardi. Markazlashgan davlatlar shakllanishi boshlandi. Tashqi va ichki savdo hajmi o`sishi, mamlakat ichidagi tarqoq hududlar integratsiyasi uchun iqtisodiy asos

yaratdi. Kommunikatsiya vositalari yaxshilanib bordi. Shu bilan birgalikda, savdogarlar feodallarga qarshi yakka hukmronlik uchun qirollarni qo`llab - quvvatlay boshlashdi. Ular savdo rivojlanishidan manfaatdor bo`lib, buning uchun ko`plab alohida feodal hukmdorlar orasidagi bojxona chegaralarini echish lozimligini tushunib etishdi. Soliq qonunchiligi birlashtirilgan holda tadbiq etila boshlandi. Mazkur o`zgarishlarning barchasi, faqatgina yagona, markazlashgan hukmronlik sharotidagina yuzaga kelishi mumkin edi.

Savdogarlarning ijtimoiy mavqei ham o`sishni boshladi. O`zlarini qo`llab - quvvatlash savdogarlar turli savdo ekspeditsiyalarida tashkillashtirish uchun g`aznadan mablag` olib, buning natijasida siyosiy va harbiy qo`llab - quvvatlashlarga, hamda Yangidan Yangi savdo urushlari va kolonial bosqichlari uchun mo‘ayyan kuchga ega bo`lishdi.

Shuningdek mazkur davrda, intellektual hayotda ham turli muhim o`zgarishlar yuz berdi. Fanning teologiyadan erkinlashishi uchun kurash boshlandi. Eksperimental fan rivojlana boshladi. Oqibatda, birinchi amaliy natijalar olinib, bu natijalar, dunyo boshqaruvida inson tafakkuri nihoyatda yuksak kuchga ega bo`lganligiga amin bo`lindi. Falsafada ham, fikrlashning teologik an`analaridan erkin bo`lish uchun kurash boshlandi. Tahlilning al`ternativ usullari shakllandi, ya`ni abstrakt fikrlarga tayanadigan imperik fikrlashdan, tajribaga o`tildi. Xususan, Yangi usul rivojlanishiga katta hissani ingliz faylasufi Frensis Bekon kiritdi (1561-1626).

Umuman olganda, fan va fikrlash amaliy tavsifga ega bo`lib, turli abstrakt toifalar asosidagi tadqiqotlardan voz kechdi, va kundalik masalalrni echishga e`tiborni qaratdi.

3.2. Merkantilizm umumiy tavsifi

XVI asrdan boshlab, boshqa fanlar bilan bog`liq bo`lmagan Yangi sof iqtisodiy kontseptsiya, merkantilizm (Ital`yancha «merkante» - savdogar) iqtisodiy kontseptsiyasi shakllana boshlandi. Merkantilizm davri eng mashhur mualliflari sirasida florentsiyalik savdogar Bernardo Davantsati (1529-1606), neapollik Antonio Serra, frantsuz Jan Boden (1530-1596), inglizlar Tomas Man (1571-1641) va Dadli Nors (1601-1691) lar kiradi.

Predmet. Merkantilizm davri iqtisodiy traktatlari mualliflari o`z oldiga qo`ygan asosiy vazifalardan biri, millat boyishi uchun vositalarni topish edi. Tahlil predmeti ham aynan Shu masala bilan bog`liq.

Birinchidan, barcha muammolar makro darajada ko`rib chiqila boshlandi. Aynan merkantilizm doirasida, iqtisodiy fanning Yangicha nomi, siyosiy

iqtisodiyot atamasi paydo bo`ldi. Mazkur atama frantsuz iqtisodchisi Antuan de Monkret`en tomonidan kiritildi (taxminan 1575-1621).

Mazkur nomlanish, iqtisodiy masalalar tahlilini aynan mamlakat miqiyosida olib borish lozimligini tasdiqladi.

Ikkinchidan, millat boyishi asosiy manbalaridan biri tashqi savdo sanalganligi sababli, aynan mana Shu soha, tahlilning asosiy predmetiga aylandi. Ko`rib chiqilgan asosiy masalalar, tashqi va ichki savdoni tashkillashtirilishi, valyuta kurslari va pul oqimini nazorat etish, kapital harakatining buzilishi oldini olish, hamda kreditni tashkillashtirish bilan bog`liq bo`ldi.

Ishlab chiqarish sohasida ham, merkantilistlarning alohida e`tibori kuzatildi, ammo bu soha, faqatgina tashqi savdo samaradorligining effektivligini rivojlantirish asosi sifatidagina tadqiq etildi. Asosiy muammo, iqtisodiyotning eksport ehtiyojlaridan kelib chiqgan holda, o`zgartirish bo`lib qoldi, bundan tashqari, sohaviy tuzilmalar o`zgarishi ham tahlil etilib, buning oqibatida manufakturalar, ya`ni hunarmandchilik tashkiliy jihatdan Yangicha shakllarni yaratish dolzarblikka ega bo`ldi.

Savdo manfaatlaridan tashqari merkantilistlarni qiziqtirgan masala, aholini ish bilan band etish masalasi bo`ldi.

Usul.Umuman olganda merkantilistlar iqtisodiy hodisalar tahliliga makroiqtisodiy yondashuvi bilan ajralib turardi. Aynan ular tomonidan “milliy boylik” tushunchasi kiritildi. Mazkur atama o`z o`rnida umumiy ezgulik teologik atamasi o`rnida qo`llanila boshlandi (summum bonum) va Shu orqali, iqtisodiy nazariyani teologik an`analardan ozod etib, o`rta asrlar fikriga xos bo`lgan umumiy individ emas, jamoatchilik ezguligiga asosiy e`tibor qaratdi.

Boylik tushunchasi individualizatsiyasi, keyinchalik yuz bergan bo`lsada, bu holat bevosita mumtoz iqtisodiy nazariya shakllanishi davriga to`g`ri keladi. Mazkur usulning yana bir o`ziga xos tomoni, tadqiqotlarning empirik yo`naltirilganligidir. Bir tomondan u abstrakt tushunchalardan voz kechish natijasida yuzaga keldi, masalan adolatli narxdan voz kechish oqibatida, boshqa tomondan sof amaliy masalalar ko`tarilib, bu masalalar dolzarb iqtisodiy siyosat bilan bog`liqligi isbotlandi. Bu borada, xulosalar, tavsifi ham o`zgardi. Ular, diniy qarashlarga xos bo`lgan me`yoriy tavsiflarni yo`qotib pragmatik yo`nalishga ega bo`lishdi, hamda millat boyishi masalalarini echishga asosiy e`tiborni qaratishdi.

Asosiy nazariy holatlar

Boylik. Boylik merkanlistlar tomonidan mablag` va mamalakatda mavjud bo`lgan tovar-moddiy predmetlar sifati bilan belgilangan. Bunda millat boyligi asosini, foydali savdo yuritish va moddiy tovarlarni yaratish uchun zarur bo`lgan resurslar deb hisoblangan. Ularning sirasiga, birinchi navbatda tabiiy resurslar, jug`rofiy joylashish, aholining ishbilarmonligi va miqdori, sanoatning

rivojlanganlik darajasi, hamda davlatning oqilona siyosati kiritilgan. Ko`pincha boylikning ikki turga bo`linishi kuzatiladi: tabiiy va sun`iy. Ilk marotaba, bu holat ital`yan merkantilisti A. Serra tomonidan kiritilgan. Tabiiy boylik mamlakatning klimatik va jug`rofiy sharoitlaridir.

Asosan bular sirasiga, qishloq –xo`jaligi mahsulotlari, hamda jug`rofiy joylashishiga ko`ra mamlakat savdo darajasi kiritilgan. Sun`iy boylik, sanoat tomonidan ishlab - chiqarilgan tovarlardir. Ularning mavjudligi, aholi miqdori, uning mehnatkashligi, bilimi va ko`nikmalariga bog`liq. Uning mavjudligi ham mamlakat uchun zarur bo`lib, uning hajmlarini mo‘ayyan siyosat yuritilishidan bilib olish mumkindir. Boylikning mehnatkash aholi miqdori bilan bog`lanishi orqali, merkantilistlar asosiy e`tiborini demokrafik masalalar, aholi bandligi, hamda millatning mehnatkashligi va ko`nikmalarini belgilovchi omillarga qaratishgan.

Shu bilan birgalikda, merkantilistlarning fikricha boylikni orttirish, faqatgina tashqi savdo vositasida amalga oshirish mumkin. Bunday nuqtai- nazar, yirik kapitallar yig`ilishi faqatgina tashqi savdoga bog`liq bo`lgan davr uchun xosdir.

Merkantilistlar tomonidan savdoga nisbatan ijobiy baho ham, zamonaviy ochiq jamiyat g`oyalarini eslatadi, ularning fikriga ko`ra, faol savdo aloqalarini yuritayotgan mamlakat, iqtisodiy rivojlanish uchun ko`proq imkoniyatlarga ega bo`ladi (ishlab chiqarish o`sishi, iste`mol darajasi ortishi va kapital to`planishi).

Daromad nazariyasi. Merkantilistlar uchun tashqi savdoning alohida ahamiyati, ular tomonidan ilgari surilgan daromad nazariyasi bilan bog`liqdir. Ularning fikricha, daromad tovar narxining uning tannarxidan ustun kelishidan yuzaga keladi. Bunda savdogar uchun, tovar narxi, nafaqat uning tannarxidan, balki tovarning xarid narxidan ham kelib chiqgan. Daromadning bu turini merkantilistlar sotishdan olingan daromad deb atashgan («Profit upon alienation»), Chunki uning kelib chiqishi, tovar asl narxining ustiga savdogar tomonidan qo`yilgan narx bilan birgalikda belgilanadi. Tovar uchun, uning birlamchi narxidan ortiqroq to`lov to`lash, savdogar xizmatlari uchun to`lov sifatida qabul qilinmasdan, xaridor uchun zarar sifatida qabul qilingan. Merkantilistlarning fikriga ko`ra, savdogar, tovar narxining ustiga narx qo`yishga haqli emas, u bor - yo`g`i mavjud bo`lgan boyliklarni o`z foydasiga xaridor zarar ko`rishi hisobiga qaratadi.

Shunday qilib, har- bir savdo aloqasi, faqat bir tomon uchun, ya`ni sotuvchi uchun boylik manbaiga aylanadi. Demak, shaxsiy boylikni oshirish uchun, ko`proq xarid qilish emas, sotish zarur. Davlat miqiyosida, bu foyda import cheklovi va eksportni maksimal darajada kengaytirishni bildirib, bu borada qonunchilik darajasida ham qarorlar qabul qilingan. Frantsuz merkantilisti, Sharl` Dovenant o`zining «Hindiston savdosi haqida esse» asarida yozishicha (1679), mamlakat

ichida iste`mol qilinayotgan tovarlar, mamlakat ichida ishlab chiqarilayotgan bo`lsa, uning savdosi asosida hech - kim boy bo`lmaydi. Bunda mamlakat fuqarolaridan biri sotadi, ikkinchisi xarid qiladi».

Jamoatchilik iste`moli va banligi masalasi. Merkantilistlarning boylik predmetlari iste`moli masalasiga munosabati o`ziga xos bo`lgan. Unda bir tomondan boylikni, mablag`ni bekorga sarflanishiga tanqid qilinsa, boshqa tomondan boylik predmetlari import tovarlar sifatida tilga olinadi. Agarda so`z ichki sanoat tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlar haqida boradigan bo`lsa, ko`p holatlarda merkantilistlar bu kabi iste`mol turi iqtisodiy foydaliligini ta`kidlashgan. Bundan tashqari, merkantilistlar fikriga ko`ra, turli boylik yoki mablag` bekorchi, ammo go`zal predmetlarga sarflanishi, mablag`ning boylar qo`lidan, mazkur bekorchi boylik predmetlarini ishlab chiqaruvchi kambag`allar qo`liga o`tishi ta`kidlangan.

Daromadlarning aynan Shu holatda qo`llanilishi, Yangi ish o`rinlari, aholi bandlik darajasi, umuman olganda mehnatkash aholi daromadlilik darajasi oshishiga olib keladi. O`zining «tanga haqidagi ocherkida» D. Norsning yozishicha: Umuman olganda, merkantilistlar, iste`mol darajasini millat ishbilarmonligini rivojlanishi uchun omil sifatida qabul qilishgan. Demak bu kabi omillar rivojlanishi ishlab chiqarish o`sishiga olib kelishi, XX asrning 30-yillarida Dj. M. Keyns tomonidan qayta ko`tarilgan.

Bandlik bilan ta`minlash manfaatlari bilan importning cheklanishi ham tushuntirilishi mumkin. Merkantilistlarning ta`kidlashicha, import tovarlariga sarflangan mablag`lar, chet el hunarmandlari mehnatini to`lash uchun sarflanib, bunday holatda, mamlakat ishlab - chiqaruvchilari mehnati to`lovsiz qoladi.

3.3. Kapital nazariyasi

Merkantilistlar, ayniqsa ital`yan va frantsuz merkantilistlari, kapital nazariyasi rivojlanishiga katta hissa qo`shishgan. Mablag`ning buzilishi, ya`ni tangalarning etarli darajada qimmatbaho metallardan qo`shmasdan turib, chiqarilishi masalasi, ayniqsa dolzarb bo`lgan. Mablag` nazariyasining nominalistik nazariyasi tarafdorlari bo`lmish O`rta asrlar mualliflaridan farqli o`laroq, ko`pchilik merkantilistlar, mablag`ning metalldan yasalishi lozimligi nazariyasi tarafdorlari bo`lib, ularning ta`kidlashicha, tangalarda ataylab qimmatbaho metallarni tejash mamlakat iqtisodiy holatini pasayishiga olib kelar ekan.

Xususan, qirolicha Elizaveta I moliyaviy maslahatchisi va qirol valyuta nazoratchisi ser Tomas Greshem (1519-1579) keyinchalik tarixda Greshem qonuni nomi ostida qolgan qonunchilikni ishlab chiqarib, mazkur qonunchilikka muvofiq tarkibi buzilgan tangalar doimiy ravishda to`laqonli metalldan yasalgan tangalarni

aylanmadan siqib chiqaradi. Buning asosiy sababi esa, insonlar doimiy ravishda to`laqonli metaldan yasalgan tangalarni o`zlarida qoldirib, aylanmaga tarkibi buzilgan tangalarni chiqarishga intilishadi.

Ikkinchi tomoni, faqatgina to`laqonli metalldan yasalgan tangalar eksport - import operatsiyalari uchun sarflanadi, demak bunda tangalar mamlakat ichidan chiqib ketadi. Merkantilizm davrida, mablag` miqdoriy nazariyasining birinchi misollari ham paydo bo`ldi. Frantsuz nazariyachisi Jan Baden (1568) va ital`yan merkantilisti Bernardo Davantsati (1588) o`z asarlarida, narx darajasini aniqlashda tangalar muhim rol o`ynashganligini ta`kidlashgan. Bundan tashqari tangalar va tovar aylanmasi hajmi miqdorining mutanosibligi haqidagi g`oya ilgari surilgan.

Xususan, inflyatsiya sabablari sifatida, ular birinchi tarkibning oshishi, yoki ikkinchi tarkibning kamayishi deb tushunilgan. Keyinchalik mazkur g`oyalar, ingliz iqtisodchisi Tomas Mann asarlarida ham rivojlantirildi.

Ko`pchilik holatlarda, mablag` merkantilistlar tomonidan iqtisodiyot faol omili sifatida qabul qilingan. Mablag` betarafligi printsipi esa, keyinchalik paydo bo`ldi. Mazkur betaraflik tamoyili ilk marotaba Georg YUm tomonidan taklif etilib, umuman mumtoz an`ana uchun yetakchi nazariya sifatida qo`llanila boshlandi.

Mamlakat tashqi savdosidagi ustunlikka valyuta kursi ta`sir etilishi haqidagi kechki merkantilistlar g`oyasi ham qiziqarlidir. Mazkur masalaga T. Mann, D. Nors kabi merkantilistlar o`z e`tiborlarini qaratishgan.

Ular g`oyasining asosiy mazmuni Shundan iboratki ediki, mamlakat miqiyosida mablag` miqdori o`sishi, narxlar o`sishiga, va ishlab chiqarish xarajatlari oshishiga olib keladi. Bu holat esa, eksport tovarlarini qimmatlashtirib, tashqi bozorlarda tovar raqobatbardoshligini pasaytiradi. Bundan xulosa kelib chiqadiki, katta pul mab`lag`lari zahirasiga ega bo`lgan mamlakat, tashqi savdodagi o`z kuchini yo`qotadi va Shu orqali keyinchalik boyish imkoniyatlaridan mahrum bo`ladi.

3.4. Protektsionizm siyosati

Millat boyishi muhim vositasi sifatida, merkantilistlar hukmdorning to`g`ri siyosatida deb bilishgan. Davlat iqtisodiy jarayonlarning faol qatnashchisi bo`lish kerak deb bilishgan. Bunday yondashuv merkantilistlar umumiy qarashlaridan kelib chiqgan bo`lib, u makroiqtisodiy yondashuv natijasidir. Merkantilistlar milliy boylik masalalarini tadqiq etib, milliy boylik alohida individlarning tashvishi bo`la olmasligi haqida fikrlarni ilgari surishgan. Bu hukmdor tashvishi bo`lib, hukmdor doimiy ravishda boylik oshishiga qaratilgan markazlashtirilgan siyosat yuritishi kerak.

Bundan tashqari merkantilizmga iqtisodiy qonuniyatlarning yorqin darajada namoyon bo`lishi g`oyasi xos emas. Balki, ular tomonidan katta e`tibor, insonlarning maqsadli harakatlari g`oyasi dolzarb bo`lgan. Xususan, ularning ta`kidlashicha, tabiiy resurslar va qimmatbaho metallarning mavjudligi millat ravnaqiga ta`sir etmaydi.

Millat ravnaqiga faqatgina savdogarlarning ko`nikmasi yoki hukmdorning bunday harakatlardan daromad ola bilish ko`nikmasi asos bo`la oladi. Faqatgina so`ngi davrlarda iqtisodiy tizim o`z –o`zini nazorat etishi haqidagi ilk tasavvurlar shakllana boshladi. Bundan, hech qanday inson irodasi tomonidan bartaraf etib bo`lmaydigan qoida sifatidagi iqtisodiy qonun tushunchasi kelib chiqgan. Ayniqsa bu g`oya, ingliz savdogari Dadli Nors asarida keng yoritilgan. Mazkur g`oyani valyuta kurslarini davlat tomonidan nazorat etilishining zararli ta`sirini isbotlovchi Tomas Mann traktatlarida ham uchratishimiz mumkin.

Protektsionizm nomini olgan merkantilistlar davlat siyosati,yu birgina maqsadga, mamlakatga pul oqimini kiritish g`oyasiga qaratilgan. Bu g`oya o`z tarkibiga qator choralarni ham olgan. Mazkur usullardan biri, mamlakatga chet el valyutasini jalb etish maqsadida valyuta kursini nazorat etish, keyinchalik esa eksport – import operatsiyalarini rag`batlantirish bo`lgan. Bundan tashqari, ssuda foilari normalari ham nazorat ostiga olingan. Mazkur foiz darajasi haqidagi munozaralar o`sha davrdagi iqtisodiy traktatlarida alohida o`rin egallaydi.

Ular ta`limotida soliq siyosati g`oyasi ham ilgari surilgan. Eksportga nisbatan soliq imtiyozlari va subsidiyalari kiritilib, Shu bilan birgalikda import tovarlariga nisbatan yuqori darajadagi bojlar tadbiq etilgan. Shu orqali, ijobiy savdo sal`dosi ta`minlanishi ta`kidlangan. Bundan tashqari import boylik predmetlari iste`moli darajasi ham to`g`ridan - to`g`ri cheklangan.

Siyosatning muhim elementi, ayniqsa so`nggi davrlarda Frantsiyada davlat manufakturalarini tashkillashtirish darajasigacha etgan eksport sanoatini qo`llab – quvvatlash bo`ldi. O`sha davr merkantilistlari, tashqi bozorlarda yuqori narx va yuqori talab darajasiga ega bo`lgan tovarlarni ishlab chiqaruvchi sohalarni rivojlantirish borasida tavsiyalar berishgan. Shuningdek xom - ashyoni import qilib, tayyor mahsulotni eksport qilish ham foydali ekanligi haqidagi g`oya ilgari surilgan, zero xom-ashyoga nisbatan tayyor mahsulot narxi doimo yuqori bo`lgan. Xom-ashyoni ishlab chiqarish emas, uni qayta ishlash borasidagi sanoatni rivojlantirilishi zaruriyati haqidagi xulosa kelib chiqadi.

3.5. Erta va kechki merkantilizm farqi

Iqtisodiy ta`limotlar tarixi fani tomonidan merkantilizm rivojlanishi ikki bosqichini ajratish urf bo`lgan. Birinchi bosqich, erta merkantilizm, yoki

monetarizm deb atalib, u XIV-XVI asrlar chorrahasida yuzaga kelib rivojlangan. Ikkinchi bosqich etuk yoki kechki merkantilizm deb atalib, uning paydo bo`lib rivojlanishi XVI asr oxiri XVII asr iqtisodchilari asarlari bilan bog`lanadi.

Erta merkantilistlar, pul aylanmasini nazorat etish siyosati va mamlakatda qimmatbaho metallar (oltin va kumush) yig`ish masalasiga asosiy e`tiborlarini qaratishgan. Mablag` yig`ilishi millatning boyishi sifatida qabul qilingan, zero mablag` moddiy boylikning hajmli, va Shu bilan birgalikda kuchli ekvivalenti sifatida qabul qilingan. Shu sababli, asosiy maqsad sifatida erta merkantilistlar, faol mablag` balansini ta`minlash deb hisoblashgan. Mazkur maqsadga erishish uchun, ular mamlakatdan pulni olib chiqishni o`lim jazosi darajasigacha ta`qiqlashni taklif etishgan (Ispaniya, XVI asr).

Bundan tashqari, barcha chet el savdogarlari, importdan olingan mablag`larning barchasini mamlakat ichida sarflashlari ustidan qattiq nazorat yuritishib, bu holat sarflar haqidagi qonun qabul qilinishi darajasiga ko`tarilgan. Ichki savdogarlar mamlakatga olib chiqilgan mablag`lardan-da ko`proq mablag` olib kelishlari ustidan ham qattiq nazorat o`rnatilgan.

Kechki davr merkantilistlari tomonidan esa mazkur nuqtai - nazar o`zgartirildi. Yangi erlardan mablag` oqimidan keyin, XVI asrda mablag`lar yig`ilishi dolzarbligini yo`qotdi, boz ustiga pul miqdori oshgani sayin ichki bozordagi eksport- import operatsiyalaridan daromadlilik darajasini tushirayotgan narxlar oshishiga salbiy ta`siri aniqlandi. T.Mann yozishicha, qirollikda pul miqdori oshishi, mamlakat ichidagi tovarlarni qimmat qiladi. Bu esa savdo hajmiga nisbatan davlat imkoniyatlarini tushiradi».

Bundan tashqari, mablag` olib chiqilishiga savdo daromadlarining oshishi va savdo operatsiyalari kengayishi ham halaqit berar edi.

Kechki merkantilistlar pulga katta e`tibor berishgan, ammo bu borada mablag`ga nisbatan faqatgina daromad vositasi sifatidagi qarashlar saqlanib qolindi. Shunday qilib, savdo operatsiyalaridagi muhim o`rin kapital, ya`ni aylanmadagi mablag`lar ekanligi isbotlandi. D. Nors yozishicha: «Hech bir inson, pulga aylantirilgan boyligi harakatsiz, bir joyda oltin yoki kumush ko`rinishida yotadigan bo`lsa boyimaydi, aksincha u qashshoqlashadi. Boy deb faqatgina pul mablag`lari aylanmada yotgan shaxsni tushunishimiz mumkin, misol uchun mavjud erini ijaraga bergan, pulini foiz ostida qarzga bergan, yoki savdo aylanmasiga tovar olib kelgan shaxsni tushunishimiz lozim». Mablag` olib chiqish miqdori cheklanishi, pul mablag`larini o`lik mablag`lar sirasiga kiritilishiga olib keldi.

Kechki merkantilistlar nuqtai - nazaridan, kapital to`planishining asosiy vositasi, tashqi savdodan tushayotgan sal`doda ko`rish mumkin. Shu sababli, faol

savdo balansi yaratilishi asosiy muammoga aylanib, bu holat eksportning import ustidan oshishida deb tushunilgan.

Erta merkantilizmning kechki merkantilizmdan yana bir farqi, narx siyosati o`zgarishi bo`lgan. Agarda, erta bosqichlarda eksport tovarlari narxini oshirish tavsiya etilgan bo`lsa, kechki davrlarda bozorlar uchun kurash murakkablashib, asosiy masala savdo hajmlarini oshirish bo`ldi. Buning uchun, past narxlarda sotish, xattoki zarurat bo`lganda tannarxdan ham pastroq narxlarda sotish tavsiya etilgan. Kechki merkantilistlar, o`zlaridan oldingi avlod vakillarini davlatning mablag` aylonmasi masalalariga aktiv aralashmalari uchun kuchli tanqid qilishgan. Erta merkantilizm davrida keng tarqalgan foiz stavkalari va valyuta kurslarini nazorat etish bo`yicha davlat siyosati ham tanqid ostiga olingan. Mablag` oqimlari o`z - o`zidan nazorat etilishi borasidagi ilk g`oyalar paydo bo`la boshladi. Kechki merkantilistlar, esa savdo faoliyatining qator cheklovlari va savdogarlar ustidan nazorat choralariga qarshi chiqishgan.

3.6. Rossiyada merkantilizm

Sharqiy Evropa, ayniqsa Rossiya o`z rivojlanishida g`arbdan nisbatan orqada qolgan edi. Shu sababli boshlang`ich boylik orttirish davrida ilk merkantilistik nazariyalar va amaliyoti Rossiyada XVII asrning o`rtalari, shoh Aleksey Mixaylovich davriga to`g`ri kelgan. Birinchi yirik Rossiya merkantilistlari sifatida Afanasiy Ordin – Nashchokinni tilga olish mumkin (1605-1680). Nihoyatda bilimdon shaxs sifatida u G`arb bilan keng aloqalarga ega bo`lib, protektsionizm siyosati borasidagi ilk tajribalarini chegara yonida joylashgan Pskov shahri voevodasi sifatida amalga oshirgan. Keyinchalik elchilik xizmati boshlig`i sifatida Ordin - Nashchokin protektsionizm siyosatini davlat darajasida amalga oshirgan. Xususan, 1667 yilda tasdiqlangan «Novotorgoviy ustavi» erta merkantilizm nuqtai - nazaridan yozilgan ilk hujjat hisoblanadi. Unda, chet el savdogarlari huquqlari nihoyatda cheklanib, ularga Rossiyaning faqatgina chegara hududlarida joylashgan shaharlarida savdo qilinishi ruxsat berilgan. Savdoning chakana tarzda amalga oshirilishi ham ta`qiqlangan. Tovarlarga nisbatan bojxona soliqlari oshirilib, ular faqatgina oltin va kumush ko`rinishida nihoyatda past darajadagi kurs bo`yicha bojlar undirilgan. Ordin – Nashchokin garchi muvaffaqiyatsiz bo`lsa ham Rossiyada bank kreditini tadbiq etishga harakat qilgan.

Rossiyada tashqi savdo hajmi shoh Pyotr I davrida birmuncha rivojlangan. Pyotr I davri merkantilistlari sifatida Fedor Saltikovni (1715 yilda vafot etgan) e`tirof etish mumkin. U o`zining Angliyadagi kuzatgan tajribalarini qo`llagan holda, Rossiya tashqi savdo siyosatini rivojlantirish loyihalarini ilgari surgan. Uning fikricha, savdogarlar, barcha davlatlar boyishi mustahkam asosini tashkil

etishi, ta`kidlangan. Aynan Saltikov ilk marotaba eksport manufakturalari qurilishini taklif etib, mazkur manufakturalar Rossiya davlatida ko`payishi va davlat daromadi aynan mana Shu manufakturalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotning tashqi bozorga chiqarilishi orqali oshirilishi mumkinligi haqidagi g`oyani ilgari surgan. Shu bilan birgalikda, Fedor Saltikov chet elda Rossiya savdogarlarini qo`llab - quvvatlash uchun elchixonalar va savdo kompaniyalarini tashkil etish lozimligi, hamda savdogarlar farzandlarini chet elga savdo ishlari va hisob-kitobni o`rganish uchun jo`natish lozimligini tilga olgan.

Nazorat uchun savollar:

1. XV - XVII asrlar davomida Evropa mamlakatlari iqtisodiy va siyosiy sharoitlarida qanday o`zgarishlar yuz berdi?
2. Merkantilizm davri iqtisodchilari uslubining empirik tavsifi nimaga asoslanadi?
3. Erta va kechki merkantilizm orasidagi asosiy farqlarni aytib o`ting.
4. Erta va kechki merkantilistlar tomonidan boylik haqidagi tushunchalarning farqi nimada? Kechki merkantilistlar tomonidan boylik sifatida nimalar ajratilgan?
5. Boylik predmetlarini import qilish va iste`mol qilish mutanosibligi haqidagi merkantilistlar fikriga bandlikning qanday masalasi ta`sir etgan?
6. Mablag` miqdoriy nazariyasi asoschisi kim?
7. Rossiya tarixi qaysi davri uchun merkantilizm xos? Rossiyalik merkantilistlar nimani taklif qilishgan?

Mavzu bo`yicha adabiyotlar ro`yxati:

1. История экономической мысли: курс лекций. Ч.1/ под ред. И. Д. Удальцова. М.: Изд-во МГУ, 1961.
2. История русской экономической мысли. Т. 1. Ч. 1. М., 1955.
3. Меркантилизм / под ред. И.С. Плотникова. М.: ОГИЗ: СОЦЭКГИЗ, 1935.
4. Аникин А.В. Юнность науки. М., 1971.

IV-BOB. ANGLIYA VA FRANSIYADA KLASSIK (MUMTOZ) MAKTABNING SHAKLLANISHI

4.1. Klassik (mumtoz) siyosiy iqtisodiyot umumiy tavsifi

Mumtoz siyosiy iqtisodiyot asosiy bosqichlari. Mumtoz siyosiy iqtisodiyot nomini olgan birinchi nazariy yo`nalish XVII asrning ikkinchi yarmida yuzaga kelib, XIX asrning oxirigacha rivojlandi. Uning mavjudligi davrini uch bosqichga bo`lish mumkin.

Birinchi bosqich XVII asrning oxiridan XVIII asrning oxirigacha davom etgan. Uni yuzaga kelish davri deb atashimiz mumkin bo`lib, asosiy namoyandalari mumtoz siyosiy iqtisodiyot asoschilaridir. Ularning asarlari katta mashhurlikka ega bo`lmagan, Chunki hukmdor iqtisodiy kontseptsiya sifatida merkantilizm qo`llanilgan. XVIII asrning ikkinchi yarmigagina kelib, fiziokratlar frantsuz maktabi birmuncha mashhurlikka ega bo`ldi, ammo bu nazariya o`z hukmdorligini faqatgina Frantsiya hududidagina saqlab qolishga muvaffaq bo`ldi.

Ikkinchi bosqich. XVIII asrning oxiridan XIX asr o`rtalarigacha davom etgan. Mumtoz siyosiy iqtisod to`la hukmronligini tasvirlagan. Bu davrning boshlanish nuqtasi sifatida ingliz iqtisodchisi A. Smitning «Xalqlar boyligi tabiati va sabablari haqidagi tadqiqot» asarini tilga olish mumkin (1776). XIX asrning boshidan boshlab iqtisodiyot fani mumtoz siyosiy iqtisod sifatida alohida mustaqil fan sifatida tan olindi va alohida kurs sifatida universitetlarda o`qitila boshlandi. Shu bilan birgalikda ikkinchi davr davomida mumtoz siyosiy iqtisod ijodiy rivojlanishi davom etib, Yangidan - Yangi nazariyalar ilgari surildi. Ular alohida oqim sifatida mumtoz siyosiy iqtisodiyoti doirasida rivojlana bordi. Ularning bir-biridan asosiy farqi, ham mumtoz tushunchalar, ham siyosiy o`ziga xosliklar nuqtai - nazaridan doimo o`zaro munozaralarga sabab bo`lar edi. Ikkinchi davr yirik nazariyachilari sifatida Dj.S.Mill` tilga olinishi mumkin bo`lib, uning yakuniy asari «Siyosiy iqtisodiyot asoslari» 1848 yilda nashr etildi. Mazkur davrning yana bir namoyandasi K. Marks bo`lib, uning mashhur «Kapital» asari 1850 yil oxirida nashr etildi.

Mumtoz siyosiy iqtisodiyotining uchinchi, oxirgi davri XIX asrning so`nggigacha davom etib, birinchi davr kabi ikki davr oralig`idagi ko`prik bo`ldi. Bir tomondan mumtoz siyosiy iqtisod hukmdorligini saqlab qolgan holda, u universitetlarda alohida muvofiq kurs sifatida o`qitilgan, ammo Yangi nazariy g`oyalar uning tomonidan ilgari surilmagan. XIX asr chegarasini faqatgina marksizm o`tib, mumtoz siyosiy iqtisod metodologik printsiplariga asoslangan holda, XIX asr oxiri XX asr boshida kapitalistik iqtisodiyotda yuzaga kelgan Yangi hodisalarni tadqiq eta boshladi. Boshqa tomondan, XIX asrning ikkinchi yarmida

iqtisodiyot fanining Yangi yo`nalishlari yuzaga kelib, ular XX asrda hukmdor yo`nalishlar, ya`ni marjinalizm va instituttsionalizm g`oyalariga aylandi.

Mumtoz siyosiy iqtisodning mazkur davrlanishi umumqabul qilingan holat bo`lmagan, ammo Shuni ham nazarda tutish lozimki, istalgan tabaqalanish yoki davrlanish ma`lum omillarga bog`liq bo`lib, bu holat birinchi navbatda iqtisodiyot nazariyasi uslubi va predmeti haqidagi tushunchalar asosida yotadi.

Predmet. Mumtoz siyosiy iqtisod tadqiq etilish predmeti ishlab chiqarish sohasi bo`lib, mazkur soha iqtisodiyot boshlang`ich sohasida asosiyga aylanadi, demakki xalq boyligi sifatida ishlab chiqarishning bevosita natijasi qabul qilindi. Shunday qilib, boylik tadqiqoti va tushunilishi predmetiga nisbatan qarash merkantilizm g`oyalariga nisbatan o`zgardi. Iqtisodiy fikr tadqiqoti Yangi fikr paydo bo`lishi, birinchi navbatda qishloq xo`jaligi va sanoati kapitalistik munosabatlar tarqalishining aksi bo`ldi. Mumtoz siyosiy iqtisod birinchi bosqichiga manufaktura ishlab chiqarilishi rivojlanishi davri muvofiq bo`lib, uning ikkinchi davri Angliya va Frantsiyada sanoat to`ntarilishi davriga to`g`ri keldi.

Uslub. Mumtoz siyosiy iqtisod metodologiyasi merkantilizm metodologiyasidan farq qilgan. Merkantilistlardan farqli o`laroq mumtoz nazariya namoyandalari iqtisodiy hodisalarni tasvirlash o`rniga ularni tadqiq etib, mantiqiy abstraktsiya usullarini qo`llashar, hamda deduktsiya uslubi yordamida tahlil natijasida olingan nazariy toifalarni tizimlashtirishar, umumiy nazariyadan xususiy hodisalarga o`tishar edi. Bunday boshlang`ich umumiy nazariya sifatida, narx nazariyasi ilgari surilib, bunday holatda narx tovar ishlab chiqarilishi bilan bog`liq xarajatlardan kelib chiqgan holatda belgilangan. Narx nazariyasi, daromad, kapital nazariyasiga asos soldi. Boshqacha qilib aytganda, mumtoz siyosiy iqtisod tizimlashtirilishi tamoyili boshlang`ich toifa printsipi bo`lib, uning orqali qolgan iqtisodiy toifalar o`zaro bog`liqligi aniqlangan (masalan, shajara kabi). Shuni ham aytib o`tish kerakki, barcha fanlar o`zlarining boshlang`ich bosqichlarida tizimlashtirishning mazkur printsipini qo`llab, tabiiy fanlar atrof - muhit boshlang`ich elementlari nazariyasi birlamchi energiya (flagiston) yo`lidan o`tgan holda, faylasuflar tomonidan munozara olib borilayotgan to`qima yoki fikr birlamchiligi borasidagi bahslariga qo`shimcha mavzu bo`ldi.

Mumtoz siyosiy iqtisodiyoti metodologiyasi shakllanishiga katta ta`sirni falsafa rivojlanishidagi asosiy yo`nalishlar o`zgarishi ta`sir qilgan. Falsafaga birinchi navbatda, tabiiy fanlarning keyingi rivojlanishi ham ta`sir etgan. Katta tajribaviy materialni yig`gan holda, tabiiy fanlar XVII asrda atrof – muhit umumiy nazariyasi ishlanmalarini ishlab chiqarishga o`tdi. Mazkur sohada, ayniqsa, ingliz fizigi Isaak N`yuton ishlanmalari alohida ahamiyatga ega bo`lib, mazkur olim mumtoz mexanika nazariyasini ilgari surgan holda, mikrodunyodan fazogacha

bo`lgan barcha tabiiy hodisalar tushuntirilishi uchun qo`llaniladigan g`oyani ilgari surdi (Isaak N`yuton «Tabiiy falsafa matematik asoslari» 1687).

Bunday mexaniko – ratsionalistik yondashuv, jamoatchilik munosabatlarini tushuntirish borasida ham qo`llanila boshlandi. Bunda jamiyat, tartiblashtirilgan, tabiiy qonuniyatlarga bog`liq dunyo sifatida talqin etilib, ratsional ravishda tushunilishi lozimligi haqidagi nazariya ilgari surildi. Bundan xulosa kelib chiqadiki, hukmdorlarning sub`ektiv harakatlari tabiiy qonuniyatlarga qarshi chiqadigan bo`lsa, hukmdorlarning sub`ektiv harakatlari tabiiy qonuniyatlarga qarshi chiqadigan bo`lsa, ong mazkur masalalarni echish yo`lini ko`rsatishi mumkin. Bunday yondashuv asosida ingliz faylasuflari T. Gobs va T.J. Lokk qalamlariga mansub XVII asr fikrlari yotib, aynan ular, keyinchalik mazkur yo`nalish estafetasini XVIII frantsuz faylasuf ma`rifatchilariga uzatishdi. Bunday g`oyalar, mumtoz siyosiy iqtisodiyotda F. Kene va A. Smit qalamiga mansub «Iqtisodchi inson toifasi» haqidagi nazariyasi, iqtisodiy qonuniyatlari va tabiiy (ob`ektiv) hodisalar haqidagi g`oyalarni keltirib chiqarib, mazkur g`oyalar asosida inson harakatlari maksimal darajada daromad olishga mexanik ravishda yo`naltirilishi lozimligi haqidagi g`oya ilgari surilgan.

Umuman olganda iqtisodiyot, iqtisodchi insonlar miqdori sifatida, yoki boshqacha qilib aytganda, xo`jalik yurituvchi sub`ektlar turli ehtiyot qismlar rolini o`ynaydigan butun mexanizm sifatida qabul qilingan. Iqtisodchi inson haqidagi g`oyadan tashqari, mumtoz siyosiy iqtisodiyot uchun, iqtisodiy munosabatlar turli sinflar orasidagi munosabatlar talqini sifatida ham tavsiflangan.

4.2. Angliyada klassik (mumtoz) siyosiy iqtisodiyot shakllanishi

XVII asrning o`rtalari va Angliya tarixida muhim davrga aylandi. Angliya Gollandiya bilan Evropada savdo sohasida yetakchilik uchun kurashga kirishdi. Mazkur kurashning asosiy usullaridan biri, shaxsiy manufakturani rivojlantirilishi bo`ldi. XVIII asrning boshida mazkur kurash Angliya uchun muvaffaqiyatli yakunlanib, u uzoq muddat davomida jahonda iqtisodiy jixatdan yetakchi davlatga aylandi. Shu bilan birgalikda Angliyada iqtisodiy rivojlanish bilan bir qatorda, fan rivojlanishi ham yuz berdi. XVIII asrning o`rtalarida Angliyada qirollik jamiyatida, birinchi fanlar akademiyasiga asos solindi. Mazkur printsiplarning barchasi, aynan Angliya mumtoz siyosiy iqtisod vatani ekanligini isbotlaydi.

Angliyada mumtoz siyosiy iqtisod asoschisi sifatida esa, asl kasbi shifokor bo`lgan Uil`yam Petti hisoblanadi (1623-1687). Uning «Soliq va bojlar haqidagi traktat» (1662), «Mutafakkirlarga so`z» (1664), «Irlandiya siyosiy anatomiyasi» (1672), «Siyosiy arifmetika» (1676), «Mablag` haqida turli fikrlar» (1682) kabi

asarlarida, merkantilizm elementlari bilan bir qatorda iqtisodiy munosabatlarning Yangi g`oyalari ham shakllana bordi.

Predmet va uslub. Merkantilistlardan farqli o`laroq U.Petti o`z tadqiqot predmeti sifati ishlab chiqarish jarayonini tanladi. Asarlarining mazkur jihati iqtisodiyot tabiiy qonuniyatlariga nisbatan metodologik xususiyatlar apellyatsiyasi bo`ldi.

Asosiy nazariy yondashuvlar

Boylik. Pettining fikricha, boylik moddiy ishlab chiqarish sohasida yaratiladi, savdogarlar hech qanday mahsulot ishlab chiqarishmaydi, ular faqatgina siyosiy tana uchun (davlat uchun) ozuqaviy moddalari va qonini tarqatuvchi tomirlar rolini o`ynashadi. Bunday mahsulot bo`lib, faqat qishloq xo`jaligi va sanoatda ishlab chiqarilgan tovarlar hisoblanadi.

Kapital. Petti kapitalni mamlakat boyligi deb hisoblamagan, uning fikricha, ularni to`plash emas, xarakatga keltirish lozim, Chunki mamlakatdan pul chiqarilishini ta`qiqlovchi qonunchilik, tabiat qonuniyatlariga zid bo`lib, uning amalga oshirilishi mumkin emas. Aynan Petti tomonidan mamlakat uchun zarur bo`lgan pul massasi tushunchasi kiritilib, kapitalning asosiy vazifasi sifatida aylanish deb ta`kidlagan.

Narx va tannarx. Aynan Petti ilk marotaba bozor narxi va tannarxni ajratib, ularni “siyosiy narx” va “tabiiy narx” deb atay boshladi. Uning fikricha tovar narxi uning tannarxidan kelib chiqib, belgilanadi, tannarx esa faqatgina ishlab chiqarish xarajatlari asosida belgilanishi mumkin. Masalan, bir qop bug`doy, bir untsiya kumushga teng ekanligini hisobga olgan holda, u kumushni bug`doy uchun tabiiy narx deb ataydi, Chunki , bir untsiya kumush ishlab chiqarish uchun, bir qop bug`doy ishlab chiqarilishi uchun sarflangan hajmdagi mehnat sarflanadi, agarda kumush ishlab chiqarilishi ikki barobarga oshadigan bo`lsa, uning narxi ikki barobarga tushadi, ammo bug`doyning kumushda belgilanadigan narxi, Shu darajada ikki barobar qimmatlashadi.

U.Petti ishlab chiqarishning ikki asosiy omilini ya`ni mehnat va er omilini ajratadi. Uning fikricha, kema tannarxi va ustki kiyim, syurtuk tannarxi mo‘ayyan miqdordagi er, mazkur erda sarflanishi lozim bo`lgan mehnat hajmiga teng bo`lishi lozim, Chunki kema ham, ustki kiyim ham insonning erga sarflangan mehnatidan olingan mahsulotdir. Bu fikri bilan U.Petti “mehnat boylik otasi, er esa boylikning onasi” deb hisoblagan.

Daromadlar. A) U.Petti tomonidan ish haqi, mehnat haqqi sifatida belgilanib, buning asosida ishchi yashashi uchun zarur bo`lgan mablag`larning minimal tannarxi yotadi. B) Daromad sifatida U.Petti doimiy ravishda qishloq xo`jaligidan olingan rentasini tushungan. U.Petti rentani tovar tannarxi va tovarga sarflangan xarajatlar orasidagi farq deb ta`kidlashgan. V) Ssuda foizini U.Petti er

rentasi hajmidan keltirib chiqarib, bu holat o`sha davrdagi daromadning odatiy ko`rinishi bo`lgan. Uning fikricha, foiz mo‘ayyan miqdordagi erdan olingan renta hajmiga teng bo`lishi lozim, Chunki aynan mana Shu narx evaziga ssuda uchun berilgan mablag` olinishi mumkin.

Yer narxi. U.Pettining fikricha, yer mo‘ayyan narxga ega emas, Chunki u mehnat mahsuli emas. Shu sababdan, yer narxi asosiga u rentani joylashtirib, renta sotib olingan yer maydonidan olinishi mumkin.

Keyingi asarlarida U.Petti, nazariy emas, kundalik hayot talqinlarini misol sifatida qo`llagan, uning fikricha yer odatda sotib olinadi, va erdan doimiy ravishda daromad olish uchun, uch avlod o`z hayoti davomida mehnat qilishi lozim, ya`ni har - bir oldingi avlod, o`zidan keyingi avlod ravnaqi uchun mehnat qiladi. «Angliyada, - mazkur davr 21 yilga teng, Shu sababli er narxi, ham aynan 21 yilga teng renta mablag`i miqdoriga teng bo`lishi lozim» deb yozgan edi U.Petti. Pettidan keyin ko`pgina ingliz iqtisodchilari aynan Shu yo`nalishda tadqiqotlarini davom ettirib alohida Yangi g`oyalarni ilgari surishdi. Bunda, Dj. Lokk (1623 - 1704), N. Barbon (1640-1698), D.Defo (1660-1731), B.Mondevil` (1670-1733), B. Franklin (1706-1790), D. YUm (1711-1776), Dj.Styuart (1712-1780), D.Messi va boshqalarni tilga olish mumkin. Ularning ba`zi g`oyalarini keltiramiz.

Tannarx. Mazkur masala bo`yicha N. Barbon o`zining “Savdo haqidagi ocherk” asrida (1690): barcha tovarlar narxi, ularning foydalilik darajasidan kelib chiqadi, - deb ta`kidlaydi. Ammo boshqa tomondan, savdogar tomonidan belgilangan narx, tannarx savdo xarajatlari va foizdan iborat, hunarmand tomonidan belgilangan narx esa sarflangan ashyo va mehnat uchun sarflangan vaqt bilan belgilanadi. Demakki eng maqbul narx faqatgina bozor toomnidan belgilanib, tovarlarning asl narxi, ularning sotilish narxiga tengdir.

Ish haqi. O`zining «Siyosiy iqtisodiyot haqida tadqiqotlar» deb nomlangan asrida Dj. Styuart (1767), ish haqi asosida yashash uchun zarur bo`lgan xarajatlar minimumini etadi. Mazkur miqdor, siyosiy va jismoniy jihatdan zarur summani tashkil etilishi, jamiyat rivojlanish darajasiga qarab belginalishini, mablag` miqdori,esa jamiyat rivojlanishi sayin oshib borishini ta`kidlagan.

Daromad va ssuda foizi. Pettidan farqli o`laroq, D. Messi va D. YUm daromad va uning xususiy bo`lagi bo`lmish er rentasini ajratishar edi. Daromad foizini esa, ular daromad summasidan kelib chiqgan holda hisoblashgan. Masalan, Messining fikricha, foiz sifatida qarzdorlar to`laydigan narx daromaddir, ya`ni foiz mazkur daromad darajasiga qarab belgilanadi deb hisoblangan.

Aylanma uchun zarur bo`lgan mablag` miqdori. D.Yum mablag` massasi va uning tovar massasi bilan o`zaro aloqalari masalasini tadqiq etgan. O`zining «Tajribalar» deb nomlangan asarida (1752), u mablag` massasi oshib ketishi

natijasida, bozorda mazkur massa mablag` massasiga teng, tovarlar massasi talab etiladi, bu holat esa millat uchun zararli ham, foydali ham emas deb hisoblagan.

Shunday qilib, D.Yum keyinchalik mumtoz siyosiy iqtisod uchun asosiy bo`lgan mablag` betarafligi nazariyasini ilgari surgan birinchi iqtisodchilardan hisoblanadi. Aynan D.Yum XVI asrda buyuk jug`rofiy kashfiyotlardan keyin, Evropaga, Amerikadan kumush va oltin oqimi oshishi natijasida narxlar o`rtacha 3-4 barobar oshganligini misol tariqasida keltirgan. YUmning xulosasiga ko`ra, har bir tovar massasi, uning bozordagi miqdori oshishi sayin arzonlashadi, bu esa qolgan tovar massasiga nisbatan belgilanadigan narx o`sishiga olib keladi.

Mablag` miqdori iqtisodiyotga ta`sir etishi mumkin bo`lgan yagona holat, narxlar Yangi darajasi belgilanishicha bo`lgan mablag` massasi o`sishi holati bo`lishi mumkin. Bunda D. Yum, mablag` iqtisodiyot bo`ylab notekis tarqalishidan kelib chiqadi deb hisoblagan. Ortiqcha mablag`larni paydo bo`lishi bilan, ular hisobiga bozorlarda mo‘ayyan Yangi sohalari paydo bo`ladi. Umumiy narxlar ilgarigi darajani saqlab qolganligi bois, qo`shimcha mablag`ga ega bo`lganlar, boshqalarga nisbatan iqtisodiy imtiyozlarga ega bo`lib, o`z tadbirkorlik faoliyatini rag`batlantirishadi, mablag` evaziga ular ishlab chiqarish hajmini oshirishadi, ish haqini ko`paytirishadi, va buning natijasida Yangi ishchilarni mehnat faoliyatlariga jalb etgan holda, shaxsiy iste`mol darajalarini oshirishga muvaffaq bo`lishadi. Natijada insonlarning Yangi toifalari qo`shimcha daromadlarga ega bo`lib, bozorga Yangi kapitallar yo`naltirilishi yuzaga keladi. Natijada esa, keng doiradagi insonlar uchun qo`shimcha daromad olish imkoniyati yuzaga keladi.

Mazkur jarayon, qo`shimcha mablag`lar miqdori iqtisodiyotning boshqa jabhalariga tekis tarqalmagunga qadar davom etib, tarqadgach esa narxlarning Yangicha hajmi yuzaga keladi, va jarayon boshqatdan boshlanadi.

4.3. Fransiyada klassik (mumtoz) siyosiy adabiyoti shakklanishi

XVII-XVIII asrlarda Frantsiya Angliyaga nisbatan iqtisodiy va siyosiy munosabat jihatdan qoloqlikka yuz tutgan edi. Iqtisodiyotda asosan munosabatlarning feodal shakllari amal qilgan. Xususan qishloq xo`jaligida, dehqonlar garchi krepostnoy bo`lmasalarda, o`z erlariga ega bo`lmay uni pomeshchiklardan ijaraga olishgan, bundan tashqari, ular hanuz feodal majburiyatlar va reglamentatsiyalarga ega bo`lib asosiy soliq to`lovchilar xisoblanishgan. Shu bilan birgalikda, iqtisodiyot siyosati merkantilistlar g`oyalariga asoslangan. Bu holat ayniqsa moliya vaziri J.B. Kal`bere davrida kuzatildi (1619-1683). Buning natijasida hattoki, qattiq va ketma-ketlikdagi protektsionizmni anglatuvchi «kal`bertizm» atamasi ham yuzaga keldi. Kal`bere eksportga yo`naltirilgan manufakturalarni yaratishga harakat qilib, ularga ko`plab

imtiyozlar, Shu jumladan qishloq xo`jaligi mahsulotlariga nisbatan pastroq narxlar kabi imtiyozlarni belgiladi.

Ammo nima bo`lganida ham, Frantsiya tashqi savdoda muvaffaqiyatlarga erisha olmadi, Chunki jahon bozorida asosan gollandlar va inglizlar hukmronlik qilib, qishloq xo`jaligi esa bu davr mobaynida inqirozga yuz tutdi. XVIII asrning boshida Frantsiya o`ziga xos merkantilizmning oxirgi dardiga mubtalo bo`lib, bunda regent Filip Orleanskiy, Shotlandiyalik Djon Loga iqtisodiyotni tiriltirish mumkinligi haqidagi cho`pchaklariga ishonib, metall mablag` o`rniga qog`oz pullarni muomilaga kiritdi. Uning fikricha oltin va kumush pullarni tashqi savdo evaziga yig`ish shart emas, bank qog`oz pullarni muomilaga chiqarishining o`zi etarli deb hisoblar edi. 1716 yilda Lo Parijda umumiy bank ochib, birinchi uch yil davomida uning cho`pchaklari amalga osha boshlagandek bo`ldi. Lo fikricha ichki savdo insonlar bandligi va tovar almashinuvidir, ichki savdo faqatgina pulga bog`liq, ularning katta miqdordagi insonlarni ish joyi bilan ta`minlaydi. 1717 yilda u umumiy bank tomonidan moliyalashtiriluvchi missisipi kompaniyasiga ham asos solib, insonniyat tarixidagi ilk moliya piramidasi bo`lgan ommaviy ravishda aktsiyalar chiqarishni boshladi. 1719 yilda, umumiy bank davlat bankiga aylanib 1720 yilning yanvarida Lo Frantsiya moliya vaziri bo`ldi, ammo Shu yilning kuzidayoq, mazkur davr davomida chiqarilgan aktsiyalar va banknotalarning yirik massasi qadrsizlana boshladi. 1720 yilning dekabr` oyida Lo Frantsiyadan qochib ketdi.

Shunisi qiziqki, qochqinlik davrida, Lo 1721 yilda ruslar xizmatiga o`tish haqidagi Pyotr I taklifini oldi, ammo bundan bosh tortdi. Buning oqibatida Lo tajribasi Rossiyada amalga oshmaydigan bo`ldi. Lo tizimi inqirozi, hukumatning iqtisodiyotdagi faol roli va mablag`larning cheksiz kuchiga ishonch ko`rinishidagi Frantsiyada merkantilizm g`oyalari inqirozini tezlashtirdi. Keyinchalik esa, iqtisodiyotda tabiiy tartib g`oyasi rivojlana boshladi va tadbirkorlikning faoliyatining hukumatdan erkinligi haqidagi shior yuzaga keldi. Mazkur shior keyinchalik atamaga aylanib, bu holatning asosida, erkin raqobatchilik iqtisodiyoti ilgari surgan V. Gurne turadi. Frantsiya mumtoz siyosiy iqtisodning birinchi namoyandasi P`er Buagil`ber (1646-1714), o`z asarlarida D.Lo avantyurasidan oldinroq o`zini qishloq xo`jaligi “advokati” deb e`lon qilgan edi. O`zining Frantsiya holatining aniq tavsifi, uning “boylik darajasi tushishi sabablari, va tiklanishining sodda usullari” deb nomlangan ilk asarida (1696) u merkantilizm, hukumatning iqtisodiy siyosatini tanqid ostiga olib, e`tiborni asosan qishloq xo`jaligiga qaratish lozimligini aytib o`tgan. XVIII asrning boshilaridagi «Frantsiyaga tuhmat», «Bug`doyni o`stirish tabiati haqida traktat», «Boylik, mablag` va soliqlar tabiati haqida fikrlar», «Mablag` kamligi haqidagi tadqiqot»

nomli asarlari asosida u moliya vazirligiga xat bilan chiqib, o`z takliflarini kiritgan, ammo bu g`oyalar qog`ozda qolib ketavergan.

Predmet va uslub. Murojaat sohasidagi e`tibori uchun merkantilizmni tanqid qilgan holda Buagil`ber "dehqonchilik va chorvachilik Peruda joylashgan oltin konlari o`rnini bemalol bosa oladi" deb aytgan moliya vaziri Genrix Sulli iborasiga tayangan, uni ishlab chiqarish sohasiga qarama - qarshi qo`ygan.

O`z metodologiyasida Buagil`ber tabiiy tartib kontseptsiyasini qo`llab, buning ostida kapitalizmni tushungan. Feodal tartiblarni, u notabiiy deb hisoblagan, Chunki mo'ayyan davlat ehtiyojlarini qondirish uchun, xalqga farovonlikni qaytarish uchun hech – qanday sehr - jodu kerak emas, buning uchun bor - yo`g`i tabiat ustidan tazyiqni bas etish kerak xolos deb hisoblar edi u.

Bundan tashqari, aynan Buagil`ber o`zining keyingi fikrlarida Adam Smit asarlarida topgan «ko`rinmas qo`l» atamasi g`oyasi ham ilgari surilgan. Uning fikricha, tabiatdagi boylikni qo`llaydigan barcha hodisalar faqatgina shaxsiy manfaatlar yo`lida amalga oshirilib, bunda insonlar xalq farovonligi uchun kamdan - kam hollarda jon kuydirishadi deb aytgan.

Boylik. Buagil`ber fikricha boylik deb faqatgina hayot uchun zarur bo`lgan predmetlar, ya`ni ozuqa, kiyim tushunilgan. Boylik bundan o`zga narsalar emas.
Narx va tannarx. Bozor feodal reglamentatsiyalari bekor qilinishi, Buagil`ber fikricha, tovarlarning bir - xil mutanosiblikda joylashgan holatda narxlarning tovarlar orasidagi mutanosibligidan kelib chiqgan holda ularga nisbatan amalga oshirilgan ishlab chiqarish xarajatlariga tengligini tushunish lozim. Shunday qilib, Buagil`ber, ingliz iqtisodchilaridan mustaqil ravishda, va ularning asarlari bilan tanishmagan holda mehnat qiymati tushunchasini rivojlantirib, iqtisodiy mutanosiblik tushunchasiga yaqinlashgan.

Kapital. Merkantilistlar farqli o`laroq, Buagil`ber kapital boylik emas, muomila vositasi deb hisoblagan. Uning yozishicha, "kapital o`z - o`zidan boylik emas, va uning miqdori davlat farovonligiga daxlsiz. Ularning miqdori bor - yo`g`i me`yorida ushlab turish, hamda hayot vositasi sifatida qo`llashdan iborat". Frantsiya mumtoz siyosiy iqtisodi namoyandalaridan yana biri, Lo raqobatchisi, kelib chiqishi irlandiyalik bo`lgan moliyachi Richard Kantil`ondir (1680-1734). 1720-30-yillari davomida u «Savdo tabiati haqida tadqiqotlar» asarini yozgan. Mazkur asar 1755- yilda uning o`limidan so`ng nashr etilgan.

Predmet va uslub. Tadqiqot predmeti sifatida Kantil`on avvalambor dehqonchilikni ajratgan. Uning metodologiyasida birinchi navbatda abstraktsiya uslubini ajratib ko`rsatish mumkin, Chunki u iqtisodiyotning turli modellarini tadqiq etgan, ya`ni tabiiy xo`jalik, to`g`ridan - to`g`ri tovar ayirboshlash, va tovar - mablag` xo`jaligi.
Asosiy nazariy holatlar.

Narx va tannarx. Kantil`on tannarxni er va mehnat sifatida belgilab, ulardan er ishlab chiqarishning asosiy omili sifatida e`tirof etilgan. Mehnat tannarxi sifatida Kantil`on bir ishchi tomonidan iste`mol qilinadigan predmetlar ishlab - chiqarilgan er miqdori bilan belgilashni taklif etgan.

Sinflar va daromadlar. Kantil`on ilk marotaba jamiyatning uch sinfga, ya`ni er egalari, yollangan ishchilar va tadbirkorlarga bo`linishini taklif qilgan. YOllangan ishchilar doimiy daromad, ya`ni shartnomaga muvofiq kelishilgan ish haqiga ega, tadbirkorlar esa, o`zgaruvchan daromadga ega. Kantil`on fikricha tadbirkor, mo‘ayyan narxda, keyinchalik noaniq narxda sotish uchun tovar sotib oluvchi shaxs sifatida belgilangan.

Bundan tashqari, Kantil`on erga beriladigan rentani ham uch qismga bo`lgan. Birinchi renta tadbirkor - fermer tomonidan er egasiga to`lanadi, ikkinchisi tovarlar sotib olinishi davomida shahar tadbirkorlariga, uchinchi qismi esa er egasida qoladi.

Kapital. Kantil`on mablag` va tovar massasi mutanosibligini ham aniq tadqiq etib, buning davomida kapitalning aylanma doirasida oshishi butun xalq xo`jaligi miqiyosida narxlarning avtomatik ravishda o`sishiga olib kelmasligi g`oyasini ilgari surgan. Birinchidan, narxlar o`sishi turli hududlarda turlicha kechadi, ikkinchidan, naqdsiz hisob - kitoblarni ham e`tiborga olish lozim, uchinchidan esa mamlakatlar orasida xalqaro savdo bilan bog`liq mablag`lar o`tishini ham hisobga olish zarur.

**Mablag` kapitali**. Kantil`on fikricha, aylanmada bo`lgan mablag` massasi foiz hajmi shakllanishiga ta`sir etuvchi ssuda kapitali bozoriga ta`sir ko`rsatmaydi. Frantsiyada mumtoz siyosiy iqtisodni shakllanishining keyingi bosqichi fiziokratlar maktabi bo`lib, u 1750-1770- yillari davomida amal qilgan. Uning shakllanishiga asosiy ta`sir XVIII asrning o`rtalarida gullab yashnagan frantsuz falsafasi bo`ldi (Vol`ter, Russo, Didro, D`Alamber, Montesk`e, Gol`bax, Gel`vetsiy). Mazkur falsafa yo`nalishi ham tabiiy tartib g`oyasini rivojlantirgan. Iqtisodiyotga nisbatan mazkur g`oyalarni qirol shifokori Fransua Kene ham rivojlantirib bordi (1694-1774). Uning nazariyasi katta muvafaqqiyatga erishib, iqtisodchilar nomini olgan qator shogirdlar tarbiyalanishiga olib keldi, ammo keyinchalik mazkur nom, atamaga aylanib kengroq mazmunga ega bo`lib Kene maktabi, yoki ham fiziokratlar maktabi nomini olgan. Ammo Kene shogirdlari, uning ta`limini davom ettirganliklari uchun, «sekta» nomiga ham «sazovor» bo`lishdi. Kene qalamiga mansub ilk ikki asar, «Bug`doy» va «Fermerlar» asarlari 1752 yilda nashr etilib, Didro va D`Alamber tomonidan nashr etilayotgan «Ensiklopediya» to`plamiga maqola sifatida kiritildi. Keyingi asarlar qatorida, «Dehqonchilik davlati iqtisodiy siyosati iqtisodiy printsiplari» (1758), «Iqtisodiy jadval» (1758), «Tabiiy huquq» (1765) asarlarini tilga olish mumkin.

Predmet va uslub. Kene iqtisodiy ta`limini o`rganish birlamchi predmeti qishloq xo`jaligi edi. Kene metodologiyasi o`ziga xosligi birinchi navbatda uning iqtisodiyotni tirik organizm bilan tenglashtirgan holda, shifokorlik tajribasidan kelib chiqib tabiiy tartib kontseptsiyasini rivojlantirganidadir. Boshqacha qilib aytganda, iqtisodiyot insonlarning irodasi va ongida mustaqil ravishda tabiiy qonuniyatlar asosida rivojlanishidadir. «Fiziokratiya» atamasi ham, aynan Shundan kelib chiqgan bo`lib, tabiat hukmronligini ma`nosini bildiradi. Kene fikricha, insonlar avvalambor hukmdorlar toifasi, iqtisodning tabiiy qonuniyatlariga qarshi chiqadigan bo`lishsa, iqtisodiyot kasal bo`ladi. Shu sababli, o`zining asosiy vazifasi sifatida, Kene maktabi mazkur qonuniyatlarni aniqlab, bu ma`lumotlarni hukmdorlarga etkazishda deb bilishgan.

Asosiy nazariy g`oyalar

Tannarx. Kene nazariyasida iqtisodiy hodisalarning tannarx va natural narxlari aralashadi. Muallif Yangi tannarx yaratilishiga e`tiborni qaratmaydi, va faqatgina tabiiy huquq haqida yozgan holda, u insonning mo‘ayyan narsaga bo`lgan huquqidir. Bu narsa uning ehtiyojlarini qondirishi sifatida tushunilib, mehnat sifatida mazkur narsani sotib olishga qilingan harakatlar deb bilgan.

Sof mahsulot. Kene nazariyasi markazida sof yoki Yangi mahsulot ishlab chiqarilishi yotgan. Kene g`oyasi Petti g`oyasining mantiqiy davomi bo`lib, Pettining mehnat boylikning otasi, er boylikning onasi demakki, sof mahsulot ularning farzandi faqatgina qishloq xo`jaligidan yuzaga kelishini aytib o`tgan edi xolos. Sanoatda ona er mavjud emas, demakki unda sof mahsulotning o`zi ham bo`lishi mumkin emas. Unda mahsulot, qishloq xo`jaligidan kelib chiqgan holda, bor - yo`g`i o`z formasini o`zgartiradi. Savdo esa, mahsulotning iqtisodiyotning bir sohasidan, ikkinchi sohasiga o`tkazilishi vositasidir. Boylik esa, o`z-o`zidan mavjud emas, u bor - yo`g`i almashinuv tengligidir.

Pul. Merkantilizmni tanqid qiluvchi Kene fikriga ko`ra, kapital, boylik emas. U bor -yo`g`i savdoni engillashtiruvchi vosita, muomila vositasidir.

Sinflar. Kene jamiyatni uch sinfga bo`lgan. Ishlab chiqaruvchi, noishlabchiqaruvchi, va er egalari sinfi. Bunday sinflashtirish, Kenening sof mahsulot faqatgina qishloq xo`jaligida yuzaga kelishi mumkinligi haqidagi tasavvuriga asoslangan xolda yaratilgan. Shu sababli, Kene fikriga ko`ra, ishlab chiqaruvchilar sinfi, har yili millat boyligini ishlab chiqaruvchilardir, er mahsulotlarini qayta ishlovchilar aloxida toifa bo`lib, er egalariga har – yili daromad keltiruvchi sinfdir. Mahsulot ishlab chiqarmaydigan sinfni oladigan bo`lsak, mazkur sinf faqatgina boshqa xizmatlar va mehnat turlari bilan Shug`ullanuvchi insonlardan iborat. Bu insonlar dehqonchilikdan tashqari istalgan faoliyat bilan Shug`ullanishlari mumkin. Ularning xarajatlari esa, ishlab chiqaruvchi sinf va mulkdorlar sinfi tomonidan qoplangan.

Kapital. Kapital tushunchasini ilk marotaba Kene tahlil etgan bo`lsada, ammo uning lug`aviy boyligida bunday atama mavjud emas edi. Kapital atamasi o`rniga Kene «avans» atamasini qo`llagan, Chunki kapitalning asosiy omili sifatida uning nazdida xarajatlar narxi aylanmasi turib, aynan Shu aylanma ishlab chiqaruvchiga avans tariqasida qaytib keladi. Bundan tashqari, Kene "kapital" tushunchasini asosiy, hamda aylanma kapital toifalariga bo`ladi. Aylanma kapitalni u har yilgi avans deb ataydi. Xarajatlarning mazkur qismi, bir qishloq xo`jalik yili davomida, aylanadi. Asosiy kapital esa, boshlang`ich avans deb atalib, qator yillar davomida qo`llaniladi. Aylanmaning o`zi esa har yili uning bir qismi amortizatsiya fondiga o`tkazilishi asosida amalga oshiriladi. Asosiy kapitalning barcha summasi o`sha erda yig`iladigan bo`lsa, aylanma tugallangan deb hisoblanadi.

Umumiy milliy mahsulot qayta taqsimlanishi. (jamoatchilik qayta ishlanmalari realizatsiya, hamda sohalararo balans). yuqorida tilga olingan barcha atamalar o`zaro bog`liq. Qayta ishlab chiqarish uchun (ishlab chiqarishni qaytarish uchun) xo`jalik sub`ektiga tayyor mahsulotni realizatsiya etish zarur. Olingan mablag` evaziga esa, ishlab - chiqarishning Yangi elementlari va iste`mol predmetlari sotib olinishi kerak.Xo`jalik sub`ektlari orasidagi barcha oldi - sotdi aktlari umumiy tarzda, umumiy milliy mahsulotning qayta taqsimlanishini bildiradi. Ammo qayta taqsimlanishning barcha aktlarini kuzatishning imkoniyatlari mavjud emas, Shu sababli mazkur jarayonlarning modellashtirilishi uchun xo`jalik sub`ektlari sohaviy guruhlarga birlashishadi, va sohalararo oldi - sotdi aktlarini ko`rib chiqishadi. Bunday model`, sohalararo balans deb ataladi. Kene nazariyasida, sohalararo balans yaratilishining birinchi tajribasi keltirilib, bu holat "iqtisodiy jadval" deb atalgan. Iqtisodiy jadvalda xalq xo`jaliging uch sektorli modeli tasvirlanib, unda sektorlar orasida umumiy milliy mahsulotning qayta taqsimlanishi amalga oshadi (quyida ko`rsatiladi).

A.Tyurgo ta`limotlari o`zining 1766 yilda yozilgan, va nashr etilgan «Boylikning yaratilishi va qayta taqsimlanishi haqidap fikrlar» asarida, u qator Yangicha nazariy g`oyalarni ilgari surgan.

Sinflar. Tyurgo Kene tomonidan yaratilgan ishlab chiqaruvchilar va foydasizlar sinfiga kapitalistlar va ishchilar sinfini ham qo`shgan.


Sof mahsulot. Sof mahsulot, Tyurgo tomonidan sof mahsulot yer rentasi va daromadga bo`linib, daromad o`z navbatida foiz va tadbirkorlik daromadiga bo`lingan.

Kapital. Kapitalni Tyurgo yig`ilgan oddiy boylik deb talqin etib, uning o`z – o`zidan o`sish xususiyatini e`tiborga olgan.

Narx va tannarx. Tyurgo nazariyasida tannarx predmetning foydalilik darajasidir, narx esa taklif va talab mutanosibligidan kelib chiqqan holda belgilanib, uning asosida sotuvchi va xaridor nazdida predmetning foydaliligi

baholanishi yotgan. Mazkur nazariya, Tyurgo nazariyasini mumtoz siyosiy iqtisodiyot nazariyasidan mutlaqo farq qilgan.

F. Kene «iqtisodiy jadvali»

Ishlab chiqaruvchi sinf (qishloq xo`jaligi)	Er mulkdorlari	Ishlab chiqarmas sinf (sanoat)	*Sinflar (iqtisodiyot sektorlari)*
5 mlrd livr (qishloq xo`jaligi mahsulotlari)	2 mlrd livr (mablag`)	2 mlrd livr (sanoat mahsulotlari)	*Qishloq xo`jalik yili oxirida sifnlar orasida UMM taqsimlanishi*
			*Sektorlar orasida almashinuv aktlari*
5 mlrd livr (1 mlrd livr sanoat mahsulotlari 2 mlrd livr Qishloq xo`jalik mahsulotlari 2 mlrd livr mablag`)	2 mlrd livr (1 mlrd livr sanoat mahsulotlari 1 mlrd livr Qishloq xo`jalik mahsulotlari)	2 mlrd livr (qishloq xo`jalik mahsulotlari)	*Almashinuv natijalari*

Natijada:

1. Ishlab chiqaruvchi sinf ega bo`lgan narsalar:
    a) Yangi ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun 3 mlrd qiymatga ega sanoat va qishloq xo`jalik mahsulotlari;
    b) 2 mlrd livr er egalariga to`lanishi lozim bo`lgan ijara haqqi.
2. Yer egalari yil davomidagi ehtiyojlari uchun 2 mlrd livrga teng predmetlarga ega.
3. Ishlab chiqarish qobiliyatiga ega bo`lmagan sinf vakillari, Yangi ishlab chiqarish ehtiyojlariga sarf etilishi lozim bo`lgan 2 mlrd livr mablag`ga ega.

Bir yildan so`ng barcha holatlar takrorlanadi – ishlab chiqaruvchi sinf 5 mlrd livrga teng qishloq xo`jalik mahsulotlarini ishlab chiqaradi, er egalari 2 mlrd livr mablag`ni er uchun uchun ijara haqqi sifatida olishadi, ishlab chiqarish qobiliyatiga ega bo`lmagan sinf vakillari 2 mlrd livrga teng sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Mumtoz siyosiy iqtisodiyoti rivojlanishi asosiy bosqichlari nima?
2. Mumtozm siyosiy iqtisodiyot nazariyasi va merkantilizm kontseptsiyasi tadqiqotlari predmetlari orasidagi farq nimada? Mazkur farq real iqtisodiyotdagi o`zgarishlar bilan qay darajada bog`liq?
3. Mumtoz siyosiy iqtisodiyotida tadqiqot uslubi va tizimlashtirilishi nimada namoyon bo`lgan?
4. Boshlang`ich toifa printsipi nima?
5. XVII-XVIII asrlarda tabiiy fanlarning falsafaga va falsafaning iqtisodiyot faniga ta`siri nimada namoyon bo`lgan?
6. Nima sababdan Angliya mumtoz siyosiy iqtisodi ishlab chiqarishning yetakchisi bo`ldi?
7. Petti ishlab chiqarish, qishloq xo`jaligi va savdoning boylikka nisbatan rolini qanday baholagan? Uning asarlarida mablag` talqini qanday?
8. Petti nazariyasida narx va tannarx mutanosibligi qanday va narx nimaga asoslanib belgilanadi? Petti ish haqi, daromad va ssuda foizlarini qanday belgilagan?
9. Yerni narxlash borasida, Petti qanday qarama - qarshilikka duch keldi?
10. Narx, daromad va mablag` masalalari bo`yicha qolgan ingliz iqtisodchilari qanday qo`shimchalar kiritishdi?
11. Buagil`ber tadqiqoti predmeti va uslubining o`ziga xosligi nimada? Buagil`ber nazariyasidagi proportsional narxlar mazmuni qanday?
12. Buagil`ber mablag` tushunchasi talqini qanaqa?
13. Kantil`on tadqiqoti predmeti o`ziga xosligi nimada? Kantil`on nazariyasida tannarx tushunchasining mazmuni?
14. Kantil`on jamiyat ijtimoiy tuzilishini qanday belgilaydi? Kantil`on mablag` massasini tadqiqoti natijasida qanaqa xulosalarga kelgan?
15. Kene nazariyasi predmeti va uslubi va o`ziga xosligi nimada?Kantil`on nazariyasida aylanmadagi mablag` va pul kapitali tushunchalari mutanosibligi nimada?
16. Kene xalq xo`jaligi, qishloq xo`jaligi, sanoat va savdoning rolini qanday belgilaydi?
17. Kene nazariyasidagi sof mahsulot va sinflar orasidagi bog`liqlik?
18. Kene kapitalning asosiy omili va uning asosiy va aylanma turlariga bo`linishi asosi nimada? Kene o`zining iqtisodiy jadvalda qanday muammoni tadqiq qilgan?
19. Tyurgo nazariyasi Kene nazariyasidan qaysi jixati bilan farq qiladi?

Mavzu bo`yicha adabiyotlar ro`yxati:

1. Шумпетер Й.А. История экономического анализа. Т. 1-2. СПб., 2001
2. Аникин А.В., Аникин В.А. Уильям Петти. М., 1986.
3. Меркантилизм / под ред. И.С. Плотникова. М.: ОГИЗ: СОЦЭКГИЗ, 1935.
4. Петти У. Трактат о налогах и сборах. Verbum sapienti – слово мудрим. Разное о деньгах. М.,1997.
5. Бейтон А., Долло К., Дре А.М., Казорла А. 25 ключевих книг по экономике. Челябинск, 1999.
6. Буагильбер П. Рассуждение о природе богатства, денег и налогов. Горький, 1973.
7. Дроздов В. Франсуа Кенэ. М., 1988.
8. Кенэ Ф. Избранные произведения. М., 1960.
9. Тюрго А. Избранные экономические произведения. М., 1961.

V-BOB. KLASSIK IQTISODIY MAKTABNING TO‘LA SHAKLLANISHI. ADAM SMIT VA DAVID RIKARDO IQTISODIY TA’LIMOTLARI

5.1. Adam Smit iqtisodiy qarashlari

Shotlandiyadagi Glazgo universiteti professori Adam Smitning (1723-1790) «Xalqlar boyligi tabiati va sabablari haqida tadqiqot» asari (1776), bir tomondan oldingi mumtoz iqtisodiy siyosati nazariyalari natijasi bo`lgan bo`lsa, boshqa tomondan Yangi davrning ya`ni jahonga hukmdorlik qilish uchun kursining davri boshlanishi bo`ldi.

O`sha davrlarda, Angliyada sanoat faol rivojlanish davriga o`tgan. Ammo, Angliya iqtisodiy xayotida manufaktura xukmron bosqichida bo`lib, qo`l mehnati o`rnini ilk texnologik jarayonlar bilan almashish davri boshlangan edi, ammo SHotlandiyada joylashgan Glazgo shahrida Dj. Uatt bug` dvigateli ustidan tadqiqotlar yuritayotgan edi. SHaharning ilmiy jamoatchiligi Uatt mehnat qilayotgan tsexda, o`z tajribalarini o`tkazishni ta`qiqladi ammo Shu sababli Smitt ham, Uatt ham, o`z tajribalarini universitet laboratoriyalariyasida davom ettirishdi. Buning natijasida 1784 yilda, dvigatel` yaratilib, uning asosida mexanik ishlab chiqarishga o`tish jarayoni boshlanib, bu jarayon sanoat inqilobi nomini oldi.

Predmet va uslub. Smit tadqiqotlari predmeti, aloxida sohani ajratmasdan butun ishlab chiqarish sohasini qamrab oldi.

Metodologiya sohasida esa, Smit tabiiy tartib g`oyasi tarafdori bo`lib, bunda u o`z davri falsafasidan mavjud bo`lgan tabiiy tartib shaklinini qabul qilgan. Masalan, frantsuz faylasufi Gel`vetsiy asarlarida, Smitt notirik tabiatga nisbatan butun dunyo harakatlanishi qonuniyati bilan bog`liq insonning daromad olishga nisbatan tabiiy harakatida Yangi etika qurilishini aytib o`tilgan edi. Mazkur g`oyalarni iqtisodiyotga nisbatan qo`llab rivojlantirar ekan, Smit insnolarning iqtisodiyotdagi sof harakatlarini sof tavsiflovchi «iqtisodiy inson» abstraktsiyasini yaratdi. Smit fikricha iqtisodiy inson, faqatgina daromad olishga harakat qilib, o`z - o`zidan xudbin bo`lib chiqadi, aynan xudbin inson tabiatidan almashish kelib chiqadi, zero u hech – qachon, hech kimga hech narsa sovg`a qilmaydi, va biror narsani beradigan bo`lsa, o`sha narsaga mos boshqa predmetni talab qiladi.

Smitning fikricha, almashinish faqatgina inson tabiatida mavjud bo`lib, aynan Shu xislati bilan inson hayvonlardan ajralib turadi. Uning fikricha «Hech kim, hech qachon mo‘ayyan it, boshqa it bilan o`z suyagini almashganini ko`rgan emas». Shunday qilib, almashinuv bozor iqtisodiyoti, Smit fikricha, inson uchun tabiiy holdir.

Smitning yana bir metodologik toifasi, «ko`rimsiz qo`l» nazariyasi edi. Inson faqatgina o`z manfaatlari doirasida harakat qiladi, - deb yozgan edi u, ammo Shu bilan birgalikda ko`rimsiz qo`l tomonidan mo‘ayyan maqsad sari etaklanadi,

va gohida o`z oldiga qo`ymagan maqsadlariga ham erishadi. Shunday qilib, Smitning ko`rinmas qo`li, bu ob`ektiv iqtisodiy qonuniyatlar bo`lib, bu qonuniyatlar inson tafakkuri va irodasidan tashqari erkin, mustaqil ravishda harakat qiladi.

«Ko`rinmas qo`l» tushunchasini "iqtisodiy inson" bilan bog`lagan holda, inson o`z shaxsiy manfaatlarini ko`zlagan holda, o`zi bilmay turib jamiyat uchun xizmat qiladi, va bu holat, uning "ko`rinmas qo`l" tomonidan boshqarilishi paytidanda yaxshiroq bo`ladi.

Smit fikricha bu holat, ko`rinmas qo`l sharoitlarida inson bor - yo`g`i shaxsiy manfaatini qondiradi, va Shu sababli yaxshi ishlaydi (avvalambor o`zi uchun, ammo Shu bilan birgalikda jamiyat uchun ham). Davlatning ko`rinadigan qo`li harakati sharoitlarida esa, inson shaxsiy manfaatiga zid bo`lishi mumkin bo`lgan buyruqni oladi va bajaradi, demakki, istar - istamas mehnat qiladi. Shunday qilib, Smit, davlat iqtisodiyotga aralashishida erkinlik kontseptsiyasini asoslab bergan. Bu kontseptsiya keyinchalik "iqtisodiy liberalizm" kontseptsiyasi nomini oldi. Aynan mana Shu kontseptsiya XIX asr boshida keng tarqalib, XX asrning 30- yillari o`rtalarigacha davom etib, dastlab mumtoz, keyin esa neomumtoz iqtisodiy nazariyada amal qildi.

Boylik. Smit fikricha boylik ishlab chiqarish sohasida yaratilgan mahsulotdir. Shu sababli boylikni oshishining asosiy omillari, ishchilar soni va ishlab – chiqarish xajmini oshishidir. Birinchi omilni u juda muhim deb hisoblaydi. Buning isboti sifatida axolisi ko`p ammo kambag`al mamlakatlarni misol keltirgan. Shuni ham e`tiborga olish kerakki, Smit yashagan davrlarda ishlab chiqarish xajmi faqatgina manufakturada mehnat taqsimoti hisobiga oshar edi.

Mehnat taqsimoti. Mehnat taqsimoti A.Smit to`g`nag`ich ishlab - chiqaruvchi manufaktura misolida keltirgan. Hamda butun sanoat ishlab chiqarish darajasida amalga oshishini isbotlab bergan. Aynan Shuning natijasida, Smitning fikricha, xalq xo`jaligi miqiyosida ham mehnat taqsimotini amalga oshirish mumkin. «Junli kurtka, u qanchalik sodda bo`lmasin, ko`plab ishchilar mehnati mahsulidir. Cho`pon, saralovchi, jun qirquvchi, bo`yovchi, to`quvchi, mato ishlab chiqaruvchi, apritorshik, va boshqalar o`z sohalari bo`yicha mehnat qilmaguncha yagona natija kelib chiqmaydi deb ta`riflaydi. Shu bilan birgalikda, makro va mikroiqtisodiy darajada mehnatning ham amal qilinishi turlicha. Agarda manufaktura sharoitida ishchilar mehnati xususiyatlarini boshqaruvchi tomonidan benlgilab berilsa, xalq xo`jaligida esa, Smit fikricha bunday bo`linishni "ko`rinmas qo`l" amalga oshiradi». Mehnat taqsimoti, mo'ayyan shaxsning ko`pchilik tomonidan yaratilishi lozim bo`lgan umumiy boylikni ko`ra bilish va tushunish natijasi emas, bu inson tabiatining mo'ayyan yondashuvi, ya`ni savdo qilish va almashish ixlosiga bog`liq. O`z vaqtida, Platon jamiyatda mehnat taqsimotini

bo`linishi, har - bir shaxs mo‘ayyan imkoniyatga ega bo`lishi natijasidir, deb hisoblagan. Iqtisodiy inson kontseptsiyasiga muvofiq, Smit mazkur imkoniyat ayniqsa yirik daromad olib kelib, bozor xo`jaligida ishlab chiqaruvchilarni mutaxassislashishiga olib keladi deb aytadi.

O`z istemolidan ortiqcha mehnat mahsuli almashishga olib keladi. Insonlar mehnati mahsulotiga almashishga ishonchi har - bir insonni mo‘ayyan mutaxassislik bilan Shug`ullanishga undaydi.

**Mablag`**. Smit fikricha, mablag` umumiy ekvivalent roliga murojaat etish jarayonida o`z-o`zidan ajralib chiquvchi tovardir. «Inson, tabiiyki o`z ishlarini Shunday tartiblashishi kerakki, alohida mahsulotlar bilan bir qatorda o`z tovar turiga ega bo`lib, bu tovarni almashishdan hech kim bosh tortmasligi kerak», «barcha mamlakatlarda insonlar, mazkur tovar sifatida metallardan foydalanishadi». Shunday qilib, mablag` insonlar tomonidan yaratilgan mo‘ayyan sun`iy vosita sifatida talqin etilmagan. Mablag`ning pul funktsiyalari orasida, Smit almashinish funktsiyasini ajratib, bank mo‘ayyan ta`minoti orstida metall mablag`larni pul mablag`larga almashtirish lozim deb hisoblagan.

Narx va tannarx. Smit fikricha, barcha tovarlar umumiy xususiyatga ega, ya`ni ular mehnat mahsulidir. Demakki, tovar ishlab chiqarilishiga sarflangan mehnat, tannarxlar yuzaga kelishi hamda narxlarning o`zaro qarama - qarshiligi uchun asos yaratadi. Tannarx miqdorini belgilovchi mehnat sifati va miqdorini tadqiq etar ekan, u oddiy va murakkab (mutaxassis) mehnatini ajratib, ko`rsatgan bunda murakkab mehnat ayniqsa qimmatroqdir. Bundan tashqari, Smit fikricha, tannarx hajmi mo‘ayyan ishlab chiqaruvchi mehnatining aniq xarajatlari bilan emas, mazkur tovar yaratilishi uchun zarur bo`lgan sohalar bo`yicha o`rtacha xarajatlar bilan belgilanadi.

Shu bilan birgalikda, A.Smit tannarx bevosita mehnat orqali belgilanishi mumkin emas (masalan ishchi ish vaqti bilan), Chunki mehnat turlari xilma - xildir deb aytadi. Shu sababli u, bir tovar narxini, boshqa tovarlar bilan belgilashni taklif etadi. «Tovarlar tez-tez almashib turadi, Shu sababli tovarlar mehnat bilan emas, balki boshqa tovarlar bilan taqqoslanadi». Uning almashinish tannarxini, boshqa biror – bir tovar miqdori bilan belgilash lozim. Shu bilan birgalikda ko`pchilik insonlar, mo‘ayyan tovarning, mo‘ayyan miqdori, mo‘ayyan mehnat miqdoriga tengligini tushunishmaydi.

Birinchi jihat, qo`lda ushlab bo`ladigan predmet bo`lsa, ikkinchisi abstrakt tushunchadir. Agarda mazkur tovarlardan umumiy ekvivalent (pul) ajratilib chiqarilgan bo`lsa, pullardagi narx o`lchovi yuzaga keladi. Smit fikricha, narx tannarxdan farqlanishi mumkin: ya`ni qisqa muddat davomida, talab va taklif o`zgarishi va uzoq muddatga, monopoliya xukmronlik oqibatida farqlanishi mumkin.

Oddiy tovar ishlab chiqarish misolida, narxni taxlil qilgach, Smit kapitalistik iqtisodiyotga o`tib, bu sharoitda ishchi tovar yaratadi, kapitalist esa mazkur tovar egasi va sotuvchisiga aylanadi deb aytadi. Kapitalist uchun tovar narxi asosida, ishchilarning ish haqqi, ishlab chiqarish vositalarini xarid qilish va er ijarasi xarajatlari yotadi. Ammo kapitalist uchun xarajat qilingan mablag`, ishchilar uchun daromadga aylanadi. Mablag`lar, oxir-oqibatda ishchilar, kapitalist va er egasi uchun daromadga aylanadi.

Smitning ish haqi, daromad va renta narxning boshlang`ich uchta manbalari ekanligi haqidagi fikri yotadi. Shunday qilib, Smit tomonidan, narx borasida ikki nazariya ilgari surilgan:

Sodda tovar ishlab chiqarilishi uchun ish haqqi bilan bog`liq ish haqi belgilanashi va kapitalistik iqtisodiyot uchun narx kapitalist xarajatlaridan kelib chiqishi.

Smitdan keyingi barcha mumtoz siyosiy iqtisod namoyandalari ikki guruhga bo`linishdi, ya`ni qiymatning mehnat nazariyasi tarafdorlari, va qiymatning xarajatlar bilan belgilanish nazariyasi namoyandalari.

Har ikkala guruh o`z nazariyasini kapitalistik iqtisodiyotga nisbatan tadbiq etib, bu holat Smit faoliyatida ham kuzatilgan edi.

Narxning daromadlarga bo`linishi. Smit jamiyat a`zolarining uchta sinfga ajratgan: ishchilar, kapitalistlar va daromad oluvchi er egalari yotadi. Buning asosida, ish haqqi, daromad va er rentasi (ijara haqqi yotgan). Daromadlar nazariyasi, narx nazariyasidan kelib chiqgan. Agarda narx, kapitalistik iqtisodiyot sharoitlarida, sarf etilayotgan mehnat bilan belgilanadigan bo`lsa, taqsimlanadigan barcha daromadlar ham mehnat orqali yaratiladi. “Ammo bunday holatda, - deb yozadi Smit, - ishchi doimo ham o`z mehnati mahsulotiga ega bo`lavermaydi”. Ko`pchilik holatlarda, u o`z daromadini uni yollagan kapital egasiga berishi lozim. Kapitalist tomonidan daromad olinishini Smit kapitalist tomonidan ishlab - chiqarishni tashkil etish bilan oqlagan bo`lsa, er egasi tomonidan olinadigan yana bir daromadni Smit to`laligicha inkor etadi. “Butun er maydoni xususiy mulkka aylangan paytlardan boshlab, - deb yozadi u, - er egalari doimo o`zlari ekmagan hosildan ulush olishga harakat qilishadi”.

Agarda, narx kapitalist xarajatlari miqdori bilan belgilanadigan bo`lsa, har - bir daromad mo‘ayyan resurs ya`ni mehnat, kapital (ishlab chiqarish vositalari), va er uchun, to`lovga aylanadi. Smit fikricha ish haqqining eng quyi chegarasi, ishchi va uning oilasi yashashi mumkin bo`lgan mablag`larning minimal darajasi bilan belgilanib, bu daraja mamlakat moddiy va madaniy rivojlanish darajasiga bog`liq. Shu bilan birgalikda, ish haqqi, ishchi kuchiga mehnat bozoridagi talab va taklifdan ham kelib chiqishi mumkin. Bundan tashqari u, nominal ish haqqini ham

belgilab, bu ish haqqi, naqd mablag`larda xisoblanishi, real ish haqqi esa, iste`mol predmetlariga nisbatan narx o`zgarishi bilan belgilanishini ham aytib o`tgan.

Uning fikricha daromad kapitalning muyayan ishga jalb etilishi bilan belgilanadi, kapital miqdoridan kelib chiqgan holda u yirik yoki kichik bo`lishi mumkin. Er rentasi xaqidagi fikrida er narxiga erning hosildorligi va uning joylashishi kabilar renta xajmiga ta`sir etuvchi omillar ekanligi aytilgan.

Kapital. Kapital deb, Smit daromad keltirishi mumkin bo`lgan moddiy boyliklarni aytgan. Uning fikricha, kapital tejamkorlik natijasida yig`ilib, xarajatkorlik natijasida kamayishi mumkin. Smit kapital aylanmasining o`ziga xos talqinini beradi. Uning fikricha, asosiy kapital, daromadni bir kishidan boshqa kishining qo`liga o`tishisiz ham o`sishi mumkin. Bular sirasiga Smit bino va inshootlar qurilishi, er uchastkalarining yaxshilanishi, ishchilarning professional malakasini va texnikaning rivojlanishini kabilarni kiritadi. Aylanma kapital o`z egasidan bir formada ketib qolib, boshqa formada qaytib kelishiga aytiladi. Bular sirasiga, mablag`, xom - ashyo, va tayyor mahsulot kabilar kiritilgan. Shunday qilib, Smit aylanma vositada, biror - bir narsaning bir kishidan, boshqa kishining qo`liga o`tishini aytgan bo`lsa, aylanma kapital faqatgina iqtisodiyot doirasida aylangan. Asosiy kapital, faqatgina aylanma kapital yordamida mo‘ayyan daromad keltirishi mumkin deb aytgan edi Smit.

Ishlab chiqarish mehnati. Smit fikricha, Ishlab chiqarish mehnati, moddiy ishlab chiqarish sohasidagi mehnatdir. Mehnatning bir turi, predmet narxini oshiradi, mehnatning boshqa turi esa, bunday harakatni amalga oshirmaydi deb aytgan edi Smit. Birinchilarini ishlab chiqarish mehnati deb ataydigan bo`lsak, ikkinchisini nomoddiy ishlab chiqarish deb atashimiz mumkin.

Ishlab chiqarish mehnati sirasiga, Smit ishlab chiqarish tashkilotchilari, kapitalistlar faoliyatini kiritgan. Aholining qolgan qismi, ishlab chiqaruvchilar qaramog`idagi tekinxo`rdir. Jamiyatning hurmatga sazovor tabaqalari mehnati uy xizmatkorlari mehnati kabi hech qanday ishlab chiqarishga ega bo`lmaydi. Ular jamiyat xizmatkorlari bo`lib, qolgan aholining yillik mahsulotining bir qismi evaziga kun ko`rishadi.

Smitning yana bir fikriga ko`ra, faqatgina daromad keltirishi mumkin bo`lgan mehnatgina ishlab chiqarish mehnati sirasiga qo`shilishi mumkin.

Umumiy milliy mahsulotni baholanishi. Smitning bu boradagi fikrlar “Smit dogmasi” degan atamani olgan, Chunki mumtoz siyosiy iqtisodiyotning qolgan namoyandalari tomonidan ilgari surilgan nazariyalar bilan bir qatorda turadi. Umumiy milliy mahsulot qiymatini hisobga olinishini u quyidagicha talqin qilgan. Alohida mahsulot narxi, mehnatga sarflangan moddiy xarajatlar va mo‘ayyan korxonada qo`shilgan qo`shimcha narx asosida belgilanib, ish haqqi, daromad va renta summasiga muvofiqdir. Ammo, qayta hisoblangan narx, qo`shimcha narxga

muvofiq bo`lib (alohida mahsulot narxi, moddiy xarajatlar narxi, hamda maosh, daromad va renta summasiga muvofiq bo`lgan mazkur korxonadagi qo`shimcha narx hisobidan tashkil topadi).

Ammo, qo`shimcha narxlar, boshqa mahsulot qo`shimcha narxlariga ham muvofiq bo`ladi (masalan bir ishlab chiqaruvchilar uchun bu xom-ashyo, boshqalari uchun tayyor mahsulot). Xulosa qilish mumkinki, - deb yozadi Smit, - kapital o`rnini qoplash uchun to`rtinchi qism ham zarur (maosh, daromad va rentadan tashqari), ya`ni xo`jalik asboblarining eskirish darajasi narxi. Shuni ham e`tiborga olish kerakki, istalgan xo`jalik asbobi narxi, o`z navbatida xuddi Shunday qismlardan iborat.

Shu sababli, Smit qo`shimcha narxni, na alohida mahsulotda, na milliy mahsulotda hisoblaydi. «Alohida olingan istalgan tovarning qo`shimcha narxi, uch asosiy qismlaridan tarkib topadigan bo`lsa, alohida mamlakat umumiy mehnati mahsulotini tashkillashtiruvchi barcha tovarlarning qo`shimcha narxi nimadan iborat bo`lishi kerak». Ammo, umumiy milliy mahsulot narxi faqatgina qo`shimcha narxlar summasiga teng bo`lib qolishligi natijasida, milliy ma`sulotning asl narxi nimadan iborat ekanligi noma`lum bo`lib qoladi. Smitning mantig`i, XIX asr boshi iqtisodchilari tomonidan, umumiy milliy mahsulotning milliy daromad bilan tenglashtiruvchi g`oyasi asosida davom etgan. Smit xatosi Shundan iborat ediki, u milliy mahsulot va milliy daromad hisoblanishida qo`llaniladigan vaqt cheklovlarini hisobga olmadi (1 yil). Bunday holatda, mo‘ayyan yilning qo`shimcha narxi, o`tgan yilning qo`shimcha narxiga muvofiq bo`lib, qayta hisoblash yuz bermaydi.

Smit dogmasi xatoliklari Kene jadvalida mavjud bo`lgan sotish nazariyasida namoyon bo`lib, u XIX asr boshida soddalashgan takroriy - umumiy ishlab chiqarish nazariyasining bir qismiga aylandi. Umumiy milliy mahsulotning narxi, qo`shimcha narxlar summasiga go`yoki teng deb hisoblangan, ya`ni faqatgina iste`mol predmetlariga sarflanadigan daromadlar summasiga, va buning natijasida jamoatchilik qayta takroriy ishlab chiqarilishi haqida so`z yuritilishi mumkin emas edi.

5.2. D. Rikardo iqtisodiy qarashlari

Ingliz iqtisodchisi David Rikardo (1772-1823), yirik kapitalist va jamoatchilik arbobi bo`lib, fanga ilk marotaba publitsist sifatida ingliz banki emission faoliyati haqidagi munozaralarda qatnashgan holda kirib kelib, uning 1809-1811 yillar davomida nashr etilgan ko`pchilik maqolalari ham shu masalaga bag`ishlangan. Keyinchalik u, Angliyaga bug`doy olib kelinishiga nisbatan yuqori bojxona to`lovlari borasidagi munozaralarda ham qatnashgan (bu jarayon tarixda “non qonunlari” deb atalgan).

Bu haqda Rikardo «Non narxining» kapital daromadiga ta`siri haqida tajriba» deb nomlangan kichik asarni yaratib, asar doirasida uning daromad bo`linishi nazariyasi asoslari yoritilgan. Nihoyat, keng qamrovli iqtisodiy nazariyasini u “siyosiy iqtisod boshlanishi” deb nomlangan asarida yoritib bergan (1817).

Predmet va uslub. Mumtoz siyosiy iqtisod namoyandalari kabi, Rikardo sinflar orasida daromad bo`linishi masalalarini ko`rsatgan holda, tadqiqotining asosiy predmeti sifatida ishlab chiqarish sohasi asosidan kelib chiqgan o`z nazariyasini talqin etgan. Uning yozishicha, - «Mazkur bo`linishni boshqaruvchi qonuniyatlarni aniqlash, - siyosiy iqtisodning asosiy vazifasidir».

Rikardo nazariyasi yuqori darajadagi abstraktsiyasi bilan farq qilar edi. Qator iqtisodiy tushunchalar talqining ikki taraflamaligi va ketma - ketsizligi bilan farq qiluvchi Smit g`oyalarini tanqid etgan holda, u boshlang`ich toifa printsipi bo`yicha qarama-qarshiliklarga ega bo`lmagan mantiqiy nazariyani qurishga harakat qilgan.

Asosiy nazariy holatlar

Narx. Rikardo, o`zining mehnat qiymati haqidagi nazariyasida Smit, Sey va Mal`tusning narx belgilanishi haqidagi turli fikrlarni umumlashtirishga harakat qilgan. Shu bilan birgalikda, u Sey g`oyalarida uchragan predmet narxining uning foydalilik darajasidan kelib chiqib belgilanishini inkor etgan («Bu g`oya tovar narxi iste`molchilar tomonidan belgilangan taqdirda to`g`ri bo`lar edi»). Ammo Shu bilan birgalikda kam uchrash omili ta`sirini ham tan olgan («Tovar narxi uning kam uchrashi oqibatida ham o`sishi mumkin»).

Narxning qilingan xarajatlar asosida belgilanishini esa, Rikardo moddiy xarajatlarni zahira mehnati deb talqin etgan holda, narxning mehnat borasidagi qilingan xarajatlar bilan belgilanish g`oyasi tarafdori bo`lgan. Shunday qilib, Rikardo narxga ta`sir etuvchi barcha omillarni ajratgan holda, uning kelib chiqish asoslarini mehnat bilan bog`lagan. Mashhur Shved iqtisodchisi, G. Myurdal`, bu holatni haqiqatga ko`ra realroq bo`lgan, va bo`lishi mumkin bo`lgan mo‘ayyan holatga tasodifan emas, aniq o`tuvchi doimiy va zarur bo`lgan predmetning asl narxini topishga eski metafizik harakat deb tushuntirgan.

Rikardo Smitning narx, mehnat nazariyasiga ham ma`lum qo`shimcha va o`zgartirishlar kiritgan. Rikardo fikricha, narx kapitalistik iqtisodiyotga, aniqrog`i esa, kapitalizmning doimiy sifatiga ega ekanligi bilan bog`lab, kapitalizm ibtidoiy jamoa davrida boshlanib, tabiiy jamoatchilik tuzilishi deb talqin qilgan. Bundan tashqari, Rikardo narxni o`rtacha sohaviy emas, maksimal mehnat xarajatlari bilan belgilagan.

Rikardo, Smit atamalarini aniqlashtirib, narx tushunchasini turli iqtisodiy holatlarga nisbatan qo`llagan. «Adam Smit, - deb yozgan edi u, - almashinuv

narxining asosiy manbaini to`g`ri aniqlagan holda, nazariya tartibsizligiga yo`l qo`ygan». Tovar narxi, unga nisbatan sarflangan mehnat xarajatlari oshishi yoki kamayishi holatda, narxlar oshishi yoki kamayishi tamoyiliga rioya etish o`rniga u narxni mahsulotga nisbatan standart choralar va bu choralarga almashinishdan kelib chiqib narx belgilash nazariyasini ilgari surgan. Shu sababli, Rikardo narx, mo‘ayyan mehnat xarajatlari bilan belgilangan taqdirda absolyut narx deb, uning sotish bahosini esa, mo‘ayyan tovarlar almashinuvi evaziga olinadigan bo`lsa, nisbiy narx deb atashni taklif etadi. Nisbiy narxni tadqiq etar ekan, u har ikkala tovarning absolyut narxlari o`zgarishiga bog`liqligini ilgari surib, tovar va pulning absolyut qiymatlaridan kelib chiqgan holda narx haqida so`z yuritishni ilgari surgan.

**Mablag`**. Rikardoning fikricha, mablag` tovar bo`lib, uning qiymati tovar ishlab chiqarilishi va bozorga keltirilishi uchun zarur bo`lgan mehnat miqdori bilan belgilanadi. Istalgan tovarning narxi kabi, pul qiymati ham talab va taklif mutanosibligiga bog`liq. Shunday qilib, Rikardo YUm tomonidan ilgari surilgan mablag` miqdoriy nazariyasini rivojlantiradi. Mamlakatda pulning ortig`i yoki etishmasligi Rikardoning fikricha, faqatgina tashqi savdo orqali belgilanadi. Masalan, pul miqdorining oshishi narx oshishiga olib kelib, bu holat tovarlarning chet eldan olib kelingan holda pulning ham chet elga chiqib ketishini yuzaga keltiradi.

Daromadning taqsimlanishi. Mazkur muammo talqini sifatida Rikardo qiymatning mehnat nazariyasi tanlanishi sabablaridan biri sifatida tushuntiradi. Agarda qiymat mehnat tomonidan yaratilib, keyinchalik daromadlarga bo`linadigan bo`lsa, ulardan birining oshishi, boshqasining kamayishiga olib keladi. Agarda, qiymat xarajatlardan kelib chiqgan holda belgilanadigan bo`lsa, daromadlardan birining oshishi, boshqasiga ta`sir ko`rsatmaydi, ammo uning summasi, ya`ni bahosini oshirishi mumkin. Demakki, mehnat qiymatining daromadlarga bo`linishi sinflar orasidagi qarama- qarshilik asosida yotib, uni Rikardoning fikricha, siyosiy iqtisodning asosiy muammosi deb qabul qilish lozim.

Mahsulotning qaysi qismi ish xaqi sifatida to`lanishi, daromad o`rganilishidagi nihoyatda muhim masaladir deb yozgan edi u. Bu holat, ish haqining katta yoki kichik bo`lishiga ayniqsa salmoqli katta ta`sir o`tkazishi mumkin. Rikardo antipatiyasi, bunda er egalari tomonidan daromad taqsimlanishini tadqiq etishga qaratilgan edi. Er egasi manfaati, - deb yozgan edi u, - jamiyatdagi istalgan boshqa sinf manfaatiga qarama - qarshi turadi. Bu kabi ish haqi va er rentasidan daromadga bog`liqligini Rikardo non qonunlari munozaralari jarayonida tilga olgan edi. Uning fikricha, tovar olib kelinish bojlari oshishi va mamalakat ichida non narxlari oshishi, nafaqat er egalari daromadining oshishiga, balki ishchilar tomonidan iste`mol qilinayotgan ne`matlarini predmetlar

qimmatlashishiga olib keladi. Demakki, kapitalistlarning ish haqi to`lashdagi xarajatlari o`sib, daromadlari kamayadi.

Rikardoning fikricha, non protektsionistik non qonuniyatlari mavjud bo`lmagan taqdirda ham, er rentasi oshishi mumkin, Chunki qishloq xo`jaligi mahsulotlariga nisbatan talabning aholi o`sishi va er hosildorlik darajasi tushishi sababli oshishi, aylanmaga Yangidan - Yangi erlarni jalb etishga majbur etib, bu erlarning unumdorligi darajasi pastligi sababli katta miqdordagi mehnat xarajatlarini talab etadi.

Rikardoning fikricha, jamiyat uchun zarur bo`lgan mehnat xarajatlari maksimal xarajatlardan kelib chiqgan holda belgilanishi sababli (sifat darajasidan past er uchastkalarida), boshqa uchastkalardagi fermerlar, nisbatan pastroq individual ishlab chiqarish xarajatlariga ega bo`lgan holda, o`z mahsulotini soha bo`yicha yagona narxlarda sotishga majbur bo`ladi, bu narxlar esa maksimum tayanganligi sababli, mazkur fermerlar yirikroq daromadga ega bo`lib, ularni Rikardo “differentsial renta” deb atagan, Chunki , ular oxir-oqibatida er egalari qo`liga kirib, ijaraning haqqi oshishiga olib keladi.

Rikardoning fikricha, uchastkalar differentsiatsiyasi, kon sanoatida ham mavjud bo`lib, u erda ham differentsial renta yuzaga kelgan.

Kapital. Smitdan farqli o`laroq, Rikardo kapital tushunchasini nafaqat moddiy kapital zahirasi sifatida, balki qiymat aylanmasi sifatida qabul qilib, uning davomiyligini asosiy va aylanma kapital sifatida farqlagan.

Kapitalni tadqiq etar ekan, Rikardo shaxsan o`zi echa olmagan qarama - qarshilikka duch keldi. Bir tomondan, u narxni faqatgina mehnat xarajatlari bilan belgilagan bo`lsa, boshqa tomondan asosiy kapitalning elementlari bo`lmish texnika va boshqa elementlar qo`llanilishi, tovarning nisbiy narxi, tovar ishlab chiqarilishiga sarflangan mehnat miqdori bilan belgilanishi haqidagi printsipini mutlaqo o`zgartiradi. mazkur qarama - qarshilik, daromad muammosida namoyon bo`ladi. Qiymatning mehnat nazariyasiga muvofiq, u boshqa daromadlar qiymatiga bog`liq. Shu bilan birgalikda, Rikardo teng kapitalga teng daromad printsipi real iqtisodiyotda mavjudligini ham tan olgan.

Tashqi savdodagi nisbatan ustunlik. Eksportning tashqi savdoga yo`naltirishi, Smit nazariyasi bo`yicha turli mamlakatlarda bir - xil tovarlar ishlab chiqarilishiga nisbatan xarajatlarning tenglashtirilishi bilan belgilangan. Bunda, eksporter sifatida, mazkur tovar ishlab chiqarilishida pastroq darajadagi xarajatlarga ega bo`lgan davlat faoliyat yuritadi. Rikardo esa, Shuning qatorida, taqqoslanayotgan mamlakatlar ichida turli tovarlar ishlab chiqarilishiga nisbatan xarajatlar mutanosibligini ham hisobga olishni taklif etgan.

Rikardoning nisbiy ustunliklar nazariyasi, xalqaro savdo nazariyalarining keyinchalik ishlab chiqarish nazariyalari ilgari surilishiga asos bo`lib xizmat qildi.

Nazorat uchun savollar:

1. Smit fikriga ko`ra boylik oshishi asosiy omillari qanday?
2. Mikro va makroiqtisodiy darajada mehnat bo`linishi va o`xshashligi farqlari nimalardan iborat?
3. Smit nazariyasiga ko`ra qiymat nima va uning asosiy vazifalari nimadan iborat?
4. Tovar o`lchovi asosi Smit fikriga ko`ra, nimada?
5. Smit narxni nima bilan, va nima sababdan o`lchashni taklif etgan?
6. Smit tomonidan kapital qanday talqin etilgan va uning asosiy va aylanma kapitallarga bo`linishi tamoyillari nimadan iborat?
7. Smit nazariyasi bo`yicha, ishlab chiqarish mehnatining ikki talqini qanday?
8. Smit dogmasining mazmuni va xatosi nimada va uning realizatsiya nazariyasi keyingi rivojlanishida ta`siri qanday yuz bergan?
9. Rikardo nazariyasida absolyut va nisbiy qiymat nima?
10. Rikardoning taqsimot nazariyasini nima sabadan dushmanlik nazariyasi deb atashgan?
11. Rikardo differentsial rentasi nazariyasi mazmuni nimadan iborat?

Mavzu bo`yicha adabiyotlar ro`yxati:

1. Бейтон А., Долло К., Дре А.М., Казорла А. 25 ключевых книг по экономике. Челябинск, 1999.
2. Аникин А.В. Адам Смит. М., 1968.
3. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. М., 1962.
4. Рикардо Д. Сочинения: В 5 т. М., 1955.

VI-BOB. KLASSIK IQTISODIY MAKTABGA MUQOBIL G‘OYALAR MOHIYATI

6.1. J.B.Sey iqtisodiy qarashlari

XIX asrning boshida mumtoz siyosiy iqtisod AQSH va Evropada keng tarqalib alohida mustaqil fan darajasiga erishdi va universitetlarda o`qitila boshlandi. Shu bilan birgalikda yetakchi Evropa davlatlari Angliya va Frantsiyada ishlab chiqarish inqilobi yuz berib, xo`jalik yuritishning kapitalistik shakllari qaror topa boshladi, va buning natijasida mo‘ayyan ijtimoiy o`zgarishlar yuz berdi. Burjuaziya va yer egalari bo`lmish dvoryanlar orasida jamiyatda hukmronlik uchun kurash tugayotgan edi va Shu bilan birgalikda, sobiq uchinchi tabaqa vakillari va burjuaziya orasidagi munosabatlar doirasida qarama - qarshiliklar kuchaya bordi. Bir tomondan burjuaziya va kichik ishlab chiqaruvchilar, va boshqa tomondan esa ishchilar, kichik ishlab chiqaruvchilar, yirik kapitalistik ishlab chiqarish korxonalari bilan raqobatchilikka bardosh berolmay, xonavayron bo`lishar edi. Ishchilar sinfi, miqdoran oshar, ammo mo‘ayyan huquqlarga ega bo`lmagan holda yashash darajasi past va og`ir ish sharoitlariga ega edi. Ijtimoiy bo`linishning Yangi shakllari mumtoz siyosiy iqtisodni bo`linishiga olib keldi, ya`ni burjua, kichik burjua va ijtimoiy guruh.

Mumtoz siyosiy iqtisodning umumiy belgilarini saqlab qolgan holda (predmet, ishlab chiqarish sohasi, narx boshlang`ich toifasi, narxning o`zi esa ishlab chiqarish miqdori bilan belgilanadi), ular qator masalalar bo`yicha turli fikrlarga ega edi (narx talqini mehnat yoki kapitalist xarajatlari bilan belgilanadi, daromadlar talqini davlat iqtisodiy roli va realizatsiyadan kelib chiqib talqin etiladi). Bundan tashqari alohida iqtisodchilar nazariyasida ham, mo‘ayyan farqlar mavjud bo`lib, bu xol ular o`rtasida munozarali masala edi.

Frantsiyada Smit nazariyasi tarafdorlaridan birinchisi va mashhuri Jan Batist Sey edi (1767-1832). Uning hayoti buyuk frantsuz inqilobi davriga to`g`ri kelib, bu inqilob, frantsiyada kapitalizm rivojlanishi uchun keng yo`l ochib berdi. Sey qalamiga mansub, ayniqsa, yirik asarlariga «Iqtisodiy siyosat traktati yoki boylik shakllanishi, bo`linishi va iste`mol qilinish usulining sodda talqini» (1803), «Siyosiy iqtisod katexizisi» (1817), va olti tomdan iborat bo`lgan «Siyosiy iqtisod kursi» (1828-1830)larini kiritish mumkin. Ularda Sey asosan Smit nazariyasiga tayanib, ma`lum qo`shimchalar kiritdi. Bundan tashqari, mo‘ayyan vaqt davomida to`qimachilik fabrikasi hamkori bo`lib, amaliy tadbirkorlikdan ham xabardor edi, va Shu sababli siyosiy iqtisodiyot bilan bir qatorda ilk marotaba sanoat iqtisodiyoti kursidan dars ham o`tgan. Sey maktabi tarkibiga mashhur iqtisodchilar, F. Bastian, F. SHeval`e, SH. Dyunuaelar ham kirgan.

Predmet va uslub. Sey mumtoz iqtisodiy nazariyasini tizimlashtirish borasida ham ulkan ishlarni ham amalga oshirgan. XIX asrning ikkinchi yarmida yashab o`tgan mashhur rus iqtisodchisi A.I. CHuprov o`zining «Siyosiy iqtisod» asarida quyidagilarni yozgan edi: «Sey, siyosiy iqtisod sohasidagi ilk tizimlashtirishga harakat qilgan olimdir. O`zining siyosiy iqtisodiyot haqidagi traktatida, u ilk marotaba iqtisodiy fanning butun sohasini qayta ishlab, aniq lo`nda talqin yaratishga muvaffaq bo`lgan edi».

Boylik. Sey fikricha boylik tushunchasi insonlar tomonidan tekin olinishi mumkin bo`lgan mahsulotlarga (suv, havo) nisbatan emas, mo‘ayyan narxga ega bo`lgan mahsulotlarga nisbatan qo`llanilishi mumkin, Chunki bu mahsulotlar o`z egalarining mutlaq mulkidir. Bundan tashqari, Sey Smitning boylik to`g`risidagi tushunchasini cheklaganligi uchun tanqid qilib, «Smit bu doiraga moddiy bo`lmasada, ammo real kuchga ega bo`lgan boyliklarni ham kiritishi lozim edi, masalan tabiiy yoki o`rganilgan iqtidorni» deb yozgan.

Narx. Narx masalasini har tomonlama ko`rib chiqishga harakat qilgan va quyidagicha fikr yuritgan: «Ishlab chiqarish materiyani yaratmaydi, ammo foydalilikni yaratishi mumkin. Mazkur foydalilik darajasi predmetlarga boylik yaratishi bilan bir qatorda u ishlab chiqarish boyligi ham bo`ladi».

Shu bilan birgalikda, Sey Smitni quyidagi holatlar bo`yicha ham tanqid qilgan ya`ni Smit faqatgina mehnatni narxni keltirib chiqaruvchi omil sifatida tadqiq etgan. Ammo aniqroq tahlil ko`rsatishicha, narx o`z kelib chiqishiga ko`ra, uch toifaning birlashgan holda mehnat qilishi maxsulidir, ya`ni inson, tabiat kuchi va kapital (ishlab chiqarish vositalari).

Sey fikricha, narx bozorda talab va taklif asosida yuzaga keladi. Shunday qilib, u mo‘ayyan ma`noda neomumtoz maktabi namoyandasi bo`lib, mazkur maktab narx nazariyasi asosida foydalilik, ishlab chiqarish xarajatlari va talab va taklif mutanosibligi birlashgan edi.

**Daromad bo`linishi**. Sey daromadlar nazariyasida narx ishlab chiqarishning uch omili asosida yaratiladi: mehnat, kapital va er (tabiat), ularning egalari esa daromad sifatida daromadning o`zlariga tegishli omil tomonidan yaratilgan qismini oladi (maosh, daromad va renta). Daromadga nisbatan Sey Shuni ham aniqlashtiradiki, daromad ssuda foizi hisobiga yaralib, uni kapitalist, kapital egasi sifatida oladi.

Tadbirkorlik daromadi esa, tadbirkor tomonidan tashkillashtirish faoliyati evaziga olinadigan pul miqdori bo`lsa, Shu bilan bir qatorda tadbirkor mo‘ayyan tavakkalchilik evaziga daromadga haqli bo`ladi.

Seyning “Uch omil” nazariyasidan xulosa qilish mumkinki, sinflar orasida mo‘ayyan garmoniya mavjud, Chunki har - bir sinf faqatgina o`ziga tegishli bo`lgan daromad qismiga ega bo`ladi.

Ishlab chiqarish mehnati. Sey Smitga nisbatan ishlab chiqarish mehnati sohasining aniqroq talqinini berib, aynan Shu nazariya foydasiga, nafaqat moddiy ishlab - chiqarish sohasini, balki xizmat ko`rsatish sohasini ham kiritadi, Chunki mashhur soha doirasida ham foydalilik darajasi yaratiladi. Sey fikriga ko`ra, xizmat ko`rsatish sohasida ham, nomoddiy mahsulotlar yaratilib, bu mahsulotlar ishlab chiqarish davrida iste`mol qilinadi. Ammo, bu xizmatlar kapital ko`rinishida akkumullyatsiya qilish kuchiga ega emas, akkummulyatsiyaning o`zi esa xuddi Smit kabi, Sey tomonidan moddiy boyliklar zahirasi deb qabul qilingan.

Realizatsiya. Uning "Uch omil" nazariyasidan ko`ra ham, mashhurroq bo`lgan "realizatsiya nazariyasi" keyinchalik Sey qonuni atamasini oldi. Mazkur qonunga muvofiq, kapitalizm sharoitida, taklif doimo talabga teng va Shu sababli to`liq realizatsiya mavjud holatdir, Chunki xalq xo`jaligi miqiyosida realizatsiya bir mahsulot turlarining boshqa mahsulot turlariga almashinishi bo`lib, Shu sababli tovar ishlab chiqarilishi faktining o`zigina boshqa mahsulotlar sotilishi uchun keng yo`l ochib beradi. Mablag` faqatgina vaqtinchalik almashinuv jarayonidagi rolga ega. Albatta, alohida tadbirkorlarda, sotish bo`yicha vaqtinchalik qiyinchiliklar kuzatilishi mumkin, ammo keyinchalik bunday almashinuv albatta yuz beradi, Shu bilan birgalikda Sey zahira fondlariga nisbatan ham xuddi Shunday fikrda bo`lib, ularni talab darajasiga etgunga qadar vaqtinchalik hodisa deb talqin qilingan.

O`zining realizatsiya nazariyasidan kelib chiqgan holda, Sey quyidagi xulosalarga keladi: «Har bir inson barcha insonlar ravnaqidan manfaatdor va ishlab chiqarishning bir sohasi rivojlanishi boshqa sohalar rivojlanishiga ham olib keladi». «bundan kelib chiqadiki, barcha chet el mahsulotlarining ichki bozorga olib kelinishi, mamlakat ichida ishlab chiqarilgan mahsulotlar sotilishiga yo`l ochib beradi». Shunday qilib, sinflar orasida mo'ayyan garmoniya mavjud ekan, xuddi shunday garmoniya sohalar va mamlakatlar orasida ham mavjud bo`lishi mumkin».

6.2. T.Mal`tus iqtisodiy qarashlari. Davlatning iqtisodiyotdagi roli

Sey iqtisodiy liberalizm g`oyasini ham qo`llab - quvvatlagan. Shunisi qiziqki, deb yozgan edi u, agarda hukumat ishlab chiqarishga aralasha olmasa, demakki hukumat ishlab chiqarishga zarar ham ko`rsatishi kerak ham emas. Ayniqsa u alohida kompaniyalarga davlat tomonidan berilgan monopoliyalarni tanqid etiib, bu holat tashqi savdodagi protektsionizm siyosatiga olib kelishini aytib o`tgan. Bundan tashqari Sey mansabdor shaxslar davlat manufakturalarini boshqara olish imkoniyati haqida ham tanqidiy fikrlar bildirgan. Shu bilan birgalikda, u davlat iqtisodiyotni texnik progressni tezlashtirish uchun ta`lim va fanni moliyalashtirish, mo'ayyan infrastruktura yaratish orqali iqtisodiyotni

rivojlanishini mumkinligiga ishonib erkin raqobatchilik qoidalarini yuridik rasmiylashtirish yo`llarini yaratish haqida fikr bildirgan.

T.R.Mal`tus iqtisodiy nazariyasi. Ingliz iqtisodchisi Tomas Robert Mal`tus (1766-1834), asli ruhoniy bo`lib, Shu bilan birgalikda ilmiy faoliyat bilan ham Shug`ullangan. 1805 yildan boshlab, u Ost-Hindiston kompaniyasi kolledjida siyosiy iqtisoddan dars bergan. Mal`tusning asarlaridan «Jamiyatning kelajakdagi ravnaqi borasida aholi qonuniyatlari haqidagi tajriba» (1798), hamda «Renta tabiati va o`sib borishi haqida tadqiqotlar» (1815) va «Siyosiy iqtisodiyot printsiplari» (1820) kabi asarlari mavjud.

Predmet va uslub. Umuman olganda, Mal`tus nazariyasi metodologiyasi mumtoz siyosiy iqtisod umumiy printsiplariga muvofiq bo`lib, uning boshqa namoyandalardan farqli o`laroq, tadqiqot predmeti sifatida ishlab chiqarishni taxlil etgan (taklif), Shu bilan birgalikda Mal`tus talabga ham katta e`tibor qaratgan.

Asosiy nazariy holatlar

Aholi qonuniyati. Mal`tus aholi o`sishi ishlab chiqarish o`sishidan ko`ra tezroq yuz berishini isbotlashga harakat qilgan, Shu sababli vaqt o`tishi bilan har - bir inson kamroq mahsulot iste`mol qilishga o`tadi, va oqibatda insonlar, sinflar va davlatlar orasida qarama - qarshiliklar yuz berishi mumkin. Mal`tusning fikricha, aholi o`sishi darajasi, jamiyatning quyi tabaqa vakillari orasida keng tarqalganligi bois, u bir tomondan kambag`allarga moddiy yordam ko`rsatishni bekor qilib, boshqa tomondan ularning ta`lim va madaniy darajasini oshirish lozim deb hisoblagan. Bunda Shunga e`tibor berish kerakki, Mal`tusdan oldin aholi miqdori o`sishi ijobiy hodisa deb sanalib, bu holat ishlab chiqaruvchilar soni o`sishiga tenglashtirilgan va xalq boylik darajasini oshiruvchi omil sifatida ko`rib chiqilgan (masalan Smit nazariyasiz).

Mal`tus ilk marotaba, jamiyatning e`tiborini insonlar nafaqat ishlab chiqaruvchilar, balki iste`molchilar ekanligiga qaratgan. Demakki, talab mustaqil iqtisodiy muammo ekanligi isbotlangan.

**Narx va daromadning bo`linishi.** Mal`tus narx nazariyasini kapitalistlar xarajatlari bilan belgilanuvchi omil deb qabul qilib, bundan bo`linish nazariyasini ajratgan (Smit va Sey nazariyasi).

Realizatsiya. Mal`tus Sey nazariyasini tanqid qilgan holda, talab va taklif doimo ham teng kelinishi mumkin emasligini aytib o`tgan, va uning fikricha, birinchidan talab va taklifning narx bo`yicha tengligi, o`zining natural tuzilmasiga ko`ra doimo ham mos kelmasligini, va ikkinchidan jamiyatning boy tabaqa vakillari o`z daromadlarini doimo ham iste`mol qilishga qaratmasliklarini, yaratilgan mablag` zahiralarini esa doimo keyinga qoldirilgan masala sifatida qabul qilishlarini ilgari surgan. «Mablag` yig`ishga ishtiyoq, - deb yozgan edi u, - jamiyat iste`mol qilishga qodir bo`lmagan iste`mol mollari miqdori oshib qolishiga

olib keladi». Saqlab qo`yishga ehtiyoj natijasida talabning taklifdan ortda qolishi haqidagi tezis keyinchalik Keyns nazariyasining asosiga aylandi.

Shu bilan birgalikda, Mal`tus talabning oshirish usullari imkoniyati mavjudligiga ham e`tibor qilgan. Masalan, mazkur boyliklarning jamiyat a`zolari orasida nisbatan tekis bo`linishi, katta miqdordagi insonlarning kichik miqdordagi boyligi real talabga nisbatan ekvivalentga yaqinlashishi kichik guruh doirasidagi boylik bo`linishiga asos bo`la olmaydi. Shu bilan birgalikda, Mal`tus, nisbatan tenglikni ham qabul qilmagan, Chunki yirik kapitallar, demakki korxonalar ham, texnik rivojlanish jihatidan kattaroq imkoniyatga egadir. Ikkinchidan, avvalambor tashqi savdoning rivojlanishi, realizatsiya bozorini kengaytiradi, va Shu bilan birgalikda, mahsulotni nisbatan pastroq narxda sotib olish imkoniyatini yaratadi. Uchinchidan, ishlab chiqarish qobiliyatiga ega bo`lmagan sinflar tomonidan tovarlar iste`moli, ya`ni sof iste`molchilar sinfi, ishlab chiqaruvchilar sinfi mahsulotini sotish imkoniyatini yaratishadi. Bunda, Mal`tus Seyning iste`mol sof va sodda bo`lib, mamlakat boyligi oshishiga hech qanaqa sharoit yaratmasligi borasidagi Sey qonunini inkor etib, Smit tomonidan tanqid etilgan er mulkdorlarining o`zgalar hisobiga daromad ko`rishini yaratishiga salbiy fikr bildiradi. Natijada, Mal`tus to`liq realizatsiyaga zarar etkazishi mumkin bo`lgan omillarni ko`rsatgan holda, jamiyat barcha a`zolari daromadlarida namoyon bo`lgan talab va ishlab chiqarilgan mahsulot taklifi orasidagi tenglik mavjudligini tan olgan.

Ishlab chiqarish mehnati. Smit kabi Mal`tus ham, faqatgina moddiy ishlab chiqarish sohasidagi mehnat foydali ekanligini ta`kidlab, buning oqibatida ishlab chiqarish natijalari realizatsiyasi taklifni oshirishga olib kelganligi xamda mehnatni ham foydali ekanligini inkor etmagan.

6.3. S.Sismondi iqtisodiy qarashlari

Mazkur muammolar bo`yicha Rikardo Sey nuqtai nazari tarafdori bo`lgan. S. Sismondi iqtisodiy nazariyasi. Simon Sismondi (1773-1842) asli shveytsariyalik, Smit nazariyasi tarafdori bo`lib, u 1803 «Tijorat boyligi haqida» asarini nashr etdi. Ammo erta kapitalizmning salbiy tomonlari (og`ir mehnat sharoitlari va ishchilarning past darajadagi maoshlari; ularning huquqlarini himoya etuvchi qonunchilikning mavjud bo`lmaganligi; dehqon va hunarmandlarning kapitalistik ishlab chiqarish bilan raqobatchilikka dosh berolmagan dehqon va hunarmandlarning xonavayron bo`lishi) Simondini Smit nazariyasining tarafdorlari bo`lmish Sey, Mal`tus va Rikardo nazariyalaridan uzoqlashishiga sabab bo`ldi. Bu holat, uning «Siyosiy iqtisodiyotning Yangi bosqichlari» (1819) kitobida yoritilib, unda Sismondi notabiiy kapitalizmga tabiiy kichik tovar ishlab chiqarilishini qarshi

qo`ygan. Shunday qilib, Sismondi, mumtoz siyosiy iqtisodda kichik burjua yo`nalishini boshlab bergan.

Predmet va uslub. Mumtoz siyosiy iqtisod namoyandalarining barchasi kabi, Sismondida ishlab chiqarish sohasi iqtisodiyotida primat mavjud bo`lib, Shu bilan birgalikda qator nazariyalarda namoyon bo`lgan iste`mol sohasiga nisbatan mo‘ayyan qiziqish ham kuzatiladi.

Iqtisodiyotga nisbatan yondashuvning farqli metodologik jihati, mumtoz siyosiy iqtisodiyotning mo‘ayyan ma`naviy etik elementlari asosiy printsiplari bilan to`ldirilganligi bo`lib, bu holatlarni u doimo ta`kidlab kelgan va siyosiy iqtisod oddiy hisob-kitob fani emas, ma`naviy fan deb atagan. Sismondi fikricha, faqatgina raqamlar bilan ishlash, ko`pchilik xatoliklarga olib kelib, har - bir ilgari surilgan g`oya asosida insonlarning his - tuyg`ulari va manfaatlari e`tiborga olinishi kerak deb hisoblagan.

Asosiy nazariy holatlar

Boylik. Sismondi Smit va uning burjua namoyandalari tomonidan ilgari surilgan boylik nazariyasidan farq qiluvchi nazariyaga ega bo`lgan. “Adam Smit bilan birgalikda, - deb yozgan edi u, fikrimizcha, mehnat boylik kelib chiqishining yagona manbaidir, ammo biz buning qatorga milliy boylik o`sishi, faqatgina millat ravnaqi o`sishi bilan birgalikda yuz berishi kerak deb hisoblaymiz”.

Sismondining fikricha, Smit, jamiyatni faqat insonning iqtisodiy shaxslar summasi sifatida qabul qilib, barcha xususiy boyliklar summasi milliy boylik summasini tashkil etadi deb xato qilgan, Chunki buning oqibatida, ijtimoiy tengsizlik yuzaga keladi. Sismondining ta`kidlashicha, Shunday tartibga qarab harakat qilish kerakki, bu tartib, boyga ham, kambahalga ham bir - xil darajada ravnaq, shodlik va tinchlik olib kelsin.

Narx va taqsimlanish. Sismondi, narx mehnat nazariyasini ilgari surib, mehnat boylikning yagona manbai deb ta`kidlagan. Shu bilan birgalikda, mehnatning jamiyat uchun zarur xarajatlariga bahoni faqatgina ishlab chiqarish nuqtai nazaridan belgilagan. Smit va Rikardodan farqli o`laroq, u narxni talab va taklif mutanosibligi sifatida qabul qilib, narx butun jamiyat talabi va mazkur talabni qondirishi mumkin bo`lgan mehnat miqdori mutanosibligi deb belgilagan.

Sismondining daromadlarni taqsimlash nazariyasi mehnat tannarxi nazariyasidan kelib chiqadi. Uning ta`kidlashicha, o`z mehnati mahsuliga xo`jayin bo`lgan ishlab chiqaruvchi manfaatlariga asoslangan kichik tovar ishlab chiqarishdan farqli o`laroq, kapitalizm sharoitida ish haqi ishchi mehnatining qirqma mahsulidir, Chunki kapitalist ishchiga uning mehnati uchun etarli darajadagi kompensatsiyani ta`minlab bermaydi, aksincha, uning hayoti uchun zarur bo`lgan eng zarur vositalarni beradi xolos. Shunday qilib, Sismondining fikricha, daromad, ishchi haqqini o`g`irlashdan boshqa hech narsa emas. Aynan

Shunday fikr, er rentasiga ham tegishlidir, ammo Smit fikriga tayangan holda, Sismondi rentani er haqqi deb tushunadi, Chunki er ishlab chiqarish kuchiga ega.

Realizatsiya. Sey, Mal`tus, va Rikardodan farqli o`laroq, Sismondi kapitalistik iqtisodiy tizimda to`liq realizatsiya imkoniyati mavjudligini rad etadi. Uning ta`kidlashicha, to`liq realizatsiya kichik tovar ishlab chiqarish jarayonida mavjud bo`lgan, ammo kapitalizm rivojlanib borishi sayin, talab bilan taklif mutanosibsizligi o`sib boradi. Birinchidan, taklifning tavsifi o`zgaradi. O`z vaqtida kichik tovar ishlab chiqaruvchi buyurtma asosida, yoki faqatgina uning o`zi uchun ma`lum bo`lgan kichik bozor miqiyosida faoliyat olib borgan. Yirik kapitalistik korxona esa, yirik bozor manfaati miqiyosida faoliyat yuritadi, u o`z bozorini tanimaydi va bunday sharoitlarda qayta ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo`ladi.

Ishlab chiqarish, deb yozadi Sismondi, ijtimoiy daromadga teng bo`lishi kerak, va cheksiz ishlab chiqarishni rag`batlantiruvchilar mazkur daromadni bilib olishga qiziqmagan holda millatni kambag`allashishiga yo`naltirib buni boylik sari yo`l ochib berayapmiz degan holda halok etishayotganliklarini tushunishmaydi.

Sismondining fikricha, inqirozining asosiy sababi yalpi talab qisqarishi bilan bog`liq. Bir tomondan kapitalizm rivojlanishi sayin kichik ishlab chiqaruvchilarning xonavayron bo`lishiga, oqibatda iste`mol darajasi past bo`lgan ishchilarga aylantirib qo`yadi. Umumiy iste`molning pasayishi, kapitalistlar boyligi tomonidan kompensatsiya etilmaydi. Kichik savdogarlar, sanoatchilar yo`qolib boradi, va yuzlab kichik tadbirkorlar o`rnini, bitta yirik tadbirkor egallaydi.

Balki ularning barchasi yirik tadbirkor kabi boy bo`lmaydi, ammo umumiy holda, bitta yirik tadbirkorga nisbatan yuzlab kichik tadbirkorlar yaxshiroq iste`molchi bo`lishadi. Boshqa tomondan, kapitalistik ishlab chiqarish sohasining mexanizatsiyalashishi, ishsizlik darajasini oshirib, ish haqini minimum darajasigacha tushiradi. Sismondining fikricha mexanizatsiyalashtirilgan manufakturalar, o`z mahsulotiga nisbatan narxlarni arifmetik progressiyada tushirilishiga olib kelib, Shu bilan bir geometrik progressiyada qatorda ishchi kuchidan ozod bo`ladi.

Mazkur masalada Sismondi, Smit, Sey, Mal`tus va Rikardoning fikrlariga qarshi chiqadi. Biz doimiy ravishda Adam Smit tomonidan inkor etilgan davlat aralashuvini talab etamiz, deb yozadi u. Bunda davlatning asosiy vazifasi, kapitalizm rivojlanishining salbiy oqibatlarini tuzatishga qaratilgan ijtimoiy - iqtisodiy isloxotlar bo`lishi kerak. Buning oqibatida, aholining ko`plab qatlamlari aziyat chekishadi. Aynan mana Shu tajriba, biznining davlat tomnidan himoya etilishimiz zarurligini keltirib chiqaradi, va biz davlatni aralashishiga chaqirishimiz lozim.

Sismondining fikricha, davlat kapitalizmning keyingi rivojlanishini to`xtatishi kerak. Mavjud kapitalistik korxonalarda u bolalar mehnatini ta`qiqlash, ish kunini chegaralash, hamda ishchilarga kasaba uyushmalarini tashkillashtirishga ruxsat berishni taklif etib, bu holatlarning barchasi, tadbirkorlar hisobiga ijtimoiy sug`urtalar tizimi yaratilishiga olib kelishini (masalan kasallik varaqalari, nafaqa va turli to`lovlarni amalga oshirish) va kapitalistlar daromadidan ishchilarni ta`minlanishini aytib o`tgan. Mening istagim, deb yozgan edi u, sanoat ishchisi xo`jalik faoliyatiga biror kun hamkor bo`lishiga umid qilishdir.

Kelajakda u, kapitalistik korxonalarni kichraytirib, kichik tovar ishlab chiqarishga qaytishni taklif etgan, ya`ni shahar va qishloq xo`jaligi ishlab chiqarilishi, ko`plab mustaqil korxonalarga bo`linib, alohida yirik tadbirkorlar qo`lida saqlanmasligi lozim, zero yirik tadbirkorlar yuzlab va minglab ishchilar hayotini boshqara olish imkoniyatiga ega bo`ladi.

Nazorat uchun savollar:

1. XIX asr boshida mumtoz siyosiy iqtisodning uch yo`nalishga bo`linishining sababi nima?
2. Smit, Sey, Mal`tus, Rikardo, Sismondi metodologiyalarining o`xshash va farqli tomonlari nimada?
3. Yuqoridagi iqtisodchilardan qaysi biri qiymatning mehnat nazariyasi tarafdori, qaysi biri ishlab chiqarish xarajatlari bilan belgilanuvchi qiymat nazariyasi tarafdori?
4. Sey qiymat nazariyasi va zamonaviy qiymat nazariyasi o`xshashligi nimada?
5. Seyning uch omillar nazariyasi nima?
6. Yuqorida ko`rib chiqilgan beshta iqtisodchilardan qaysi biri, kapitalizm sharoitlarida to`liq realizatsiyani inkor etgan?
7. Sey va Mal`tus realizatsiya nazariyalarining o`xshash va farqli tomonlari nimada?
8. Mal`tus aholi nufuz qonunining iqtisodiy mohiyati qanday?

Mavzu bo`yicha adabiyotlar ro`yxati:

1. Бейтон А., Долло К., Дре А.М., Казорла А. 25 ключевых книг по экономике. Челябинск, 1999.
2. Мальтус Т. Опыт закона о народонаселении // Антология экономической классики: В 2т. Т. 2 М., 1993.
3. Сисмонди Ж.С. Новые начала политической экономики. Бастиа Ф.М. Экономические софизми. Экономические гармонии. М., 2000.

VII-BOB. BOZOR IQTISODIYOTIGA MUXOLIF – SOTSIALISTIK YO‘NALISH MOHIYATI VA UNING TARIXI TADBIRI

7.1. R. Ouen va sotsialist - rikardianlar iqtisodiy nazariyasi

Sotsializm g`oyalari, ya`ni mehnat va iste`moldagi tenglik g`oyalari jamoatchilik fikrida inson jamiyati mavjudligining butun tarixi davomida mavjud bo`lib, bu g`oyaning ijtimoiy nazariyasiga (mumtoz siyosiy iqtisod) mutaxassislar faqatgina XIX asrning boshiga kelib e`tibor qaratishdi. Bu olimlar qatorida ingliz sotsialist - utopisti Robert Ouen (1771-1858) va uning tarafdorlari Tomas Gotskin (1787-1869), Uil`yam Tompson (1785-1833), Djon Grey (1798-1850) va Djon Brey (1809-1895) kabilar tilga olinishi mumkin bo`lib, ular sotsialist - rikardianlar nomini Rikardo nazariyasiga sotsialistik xulosalarni kiritish harakati uchun olishgan. Ouenning birinchi asari, «Inson tavsifining shakllanishi (Jamiyatga nisbatan Yangi qarash)» deb nomlanib 1813 nashr etilgan. Shu bilan birgalikda iqtisodiy muammolar uning tomonidan «Lenark grafligiga ma`ruza» (1820), «Yangi ma`naviy dunyo haqida kitob» (1836) asarlarida ham ko`rib chiqilgan. Iqtisodiy masalalar echimi Gotskinning «Kapital e`tirozlaridan mehnatni himoya qilish» (1825), «Xalq siyosiy iqtisodiyoti» (1827), «Mulkning tabiiy va sun`iy huquqlari» (1832), asarlari Tompsonning «Boylik taqsimlanish printsiplariga kirish» (1824) asari, Nreyning «Ijtimoiy tizim» (1813), kabi asarlarida keltirilgan.

Predmet va uslub. Ouen fikricha iqtisodiyot tadqiqotlari predmeti va asosi mumtoz siyosiy iqtisod namoyandalarining barchasi kabi ishlab chiqarish sohasi bo`lib, uning metodologiyasi esa mo‘ayyan farqlarga ega bo`lgan.

Birinchidan, uning fikricha tabiiy tuzilish, kapitalizm emas, kichik tovar ishlab chiqarish bo`lib, sotsializm g`oyasini Ouen agrar va ishlab chiqarish va kooperativ korxonalariga ega bo`lgan jamoalar tizimi sifatida tasavvur qilgan.

Ikkinchidan, Sismondidan farqli o`laroq, Ouen iqtisodiy munosabatlarda ma`naviy - etik yondashuvni xush ko`rib, avvalambor adolat tushunchalaridan kelib chiqgan.

Asosiy nazariy holatlar. Narx va mablag`. Ouen qiymatning mehnat nazariyasiga tayanib, Smitdan farqli o`laroq, uning fikricha qiymatni belgilanishi bevosita mehnat xarajatlariga asoslangan holda amalga oshirilishi kerak. «Insonlarning o`rtacha jismoniy kuchi, - deb yozgan edi u, - o`lchanishi mumkinligi kabi, o`rtacha inson mehnati ham aniqlanishi mumkin. Demakki alohida mahsulotda ham, uning qiymati belgilanib, buning asosida uning almashinuv narxini ham aniqlanishi mumkin. Shunday qilib, inson mehnati o`zining tabiiy va ichki narxiga ega bo`lishi mumkin». Ouenning fikricha, mablag`, yomonlik maksimumi va ezgulik minimumi erishilishi uchun yolg`on ishlatilishidir. Ouen mablag`ni narx va almashinuv vositasi sifatida inkor etgan.

«To`g`ri va ratsional ravishda tuzilgan jamiyatda, - deb yozgan edi, u - oltin, kumush yoki kredit qog`ozlari almashinuv vositasi sifatida hech - qachon ishlatilishi mumkin emas». Ouenning normativ nisbatga yondashgan almashinuvi, xususan uning «Almashinuv, mehnat xarajatlariga mutanosib ravishda amalga oshirilib, adolatsiz kapitalistik jamiyatda mehnat narxi qonuniyati buzilishi kuzatiladi. Ba`zi tovarlar, ularga mehnat sarflanganligiga qaramay, sotilmaydi, boshqa tovarlar uchun esa xarajat qilingan narxdan pastroq baho belgilashadi».

Adolatsiz kapitalistik bozorga muqobil bozor sifatida, Ouen 1832 yilda adolatli almashinuv milliy bozorini tashkil etishni taklif etadi. Mazkur bozorga ishlab chiqaruvchi o`z tovarini olib keladi va uning tovarni obro`li komissiya tomonidan baholanadi xamda tovar narxi haqida ma`lumotnoma beriladi (mehnat mablag`lari). So`ngra, ishlab chiqaruvchi tovarini bozor omborxonasiga adolatli almashinuv uchun topshirib, ishlab chiqaruvchi mazkur ma`lumotnoma asosida, ilgari topshirilgan tovarlar qatoridan o`z tovariga teng narxda boshqa tovar olishi mumkin edi. Ammo bozorning faoliyati uzoq davom etmadi, Chunki omb`orxonada sotilish imkoniyati mavjud bo`lmagan tovarlar yig`ilishi bilan u o`z faoliyatini tugatdi. Nima bo`lganida ham, bunday bozorlarni tashkillashtirishga qaratilgan yana ikki harakat Angliyada Dj. Brey va Frantsiyada P.J. Prudon tomonidan amalga oshirilib, natija esa o`sha - o`sha bo`lib qolaverdi.

Daromadlar. Qiymatning mehnat nazariyasiga muvofiq Ouen, daromadni uchta sinflar orasida ish haqi, daromad va rentaga bo`linishini adolatsiz deb hisoblagan. «Ishchi o`zi ishlab chiqargan mahsulotga sarflagan mehnatiga muvofiq ravishda maosh olishi kerak».

Realizatsiya. Sismondi kabi, Ouen ham kapitalizm sharoitlarida to`la realizatsiya mavjudligini tan olmagan, va talabning taklifdan orqada qolishini inqiroz belgisi sifatida qabul qilgan. Bunday qoloqlik sababini u kapitalizmda daromadlarning adolatsiz ravishda taqdirlanishida deb bilgan. «Jamiyatda mavjud bo`lgan tuzilish, - deb yozgan edi u, - ishchiga mehnati uchun etarli darajadagi mukofotni ta`minlab bera olmaydi, va buning oqibatida bozorlar rivojlanmaydi».

Nazorat uchun savollar:

1. Ouen qiymat nazariyasi va nasroniy faylasuflarning adolatli qiymat nazariyasi o`xshash tomonlari nimada?
2. Adolatli almashinuv bozorlarining tanazulga uchraganligi sabablari nimada?
3. Sismondi va Ouen realizatsiya nazariyasining o`xshash va farqli tomonlari.

Mavzu bo`yicha adabiyotlar ro`yxati:

1. Оуэн Р. Избранные сочинения: В 2 т. М.; Л., 1950.

VIII-BOB. XIX ASR O`RTALARIDA MUMTOZ SIYOSIY IQTISODNING TUGASHI

8.1. Dj.S. Mill` iqtisodiy nazariyasi

XIX asrning o`rtalarida mumtoz siyosiy iqtisod yuqorida ko`rsatilgan uch yo`nalish doirasida rivojlanishni davom ettirdi, ammo asrning o`rtalariga kelib, mazkur metodolik yondashuvlardan kapitalistik iqtisodiyot tadqiqotlari, o`zining mantiqiy yakuniga etib keldi. 1848 yilda, mumtoz siyosiy iqtisod nazariyachilaridan biri Dj. S. Mill` yozishicha, - «Qiymat qonuniyatlarida zamonaviy yoki kelajakda tug`ilajak mualliflar aniqlashi mumkin bo`lgan hech narsa qolmadi. Mumtoz siyosiy iqtisod, natijalarini aniqlashtirish davri kelib, uning asosiy toifalari tenglashtirila boshlandi». Bu ish, XIX asr o`rtalari mumtoz siyosiy iqtisodning yirik namoyandalaridan Dj. S. Mill` va K. Marks tomonidan amalga oshirildi.

Shu bilan birgalikda, ularning asarlarida, Yangicha nazariy yo`nalishlarni metodolik elementlari aks etgan bo`lib, ular mumtoz siyosiy iqtisod o`rnini bosdi. Ushbu yo`nalishlar Mill` g`oyasi bo`yicha «Marjinalizm» va Marks fikriga ko`ra esa «Institutsionalizm» nomini oldi. Mazkur Yangi yo`nalishlar, XIX asrning oxirida iqtisodiy fandan mumtoz siyosiy iqtisodni siqib chiqara boshladi, ammo iqtisodiy ta`lim sohasida u XX asr boshigacha hukmronligini davom ettirdi. Faqatgina mumtoz siyosiy iqtisod tarafdorlari bo`lmish marksistlar, iqtisodiy tadqiqotlarni XX asrda ham davom ettirshdi.

Iqtisodchi va faylasuf Djon Styuart Mill` (1806-1873), iqtisodchi Djeyms Mill`ning o`g`li edi. Dj. S. Mill`ning o`zini Rikardo maktabi tarafdori deb hisoblagan, ammo haqiqatda XIX asr birinchi yarmi mumtoz iqtisodchilari barcha nazariyalarini umumlashtirgan bo`lsa ham , Dj. S. Mill` falsafa sohasida O. Kant va G. Spenser bilan bir qatorda pozitivizm nazariyasi asoschisi bo`ldi. Bundan tashqari, u faol jamiyat arbobi, parlament a`zosi bo`lib, kambag`allar, yollanma ishchilar, xizmatchilar va ayollar huquqlarini kengaytirish uchun kurash olib borgan. Uning fikricha, insoniyat rivojlanishining hozirgi holatida asosiy maqsad, xususiy mulk tizimini barham qilish emas, jamiyat tomonidan kelitirib chiqarilgan foydalarda jamiyatning barcha a`zolari qatnashishi uchun teng to`liq huquqlarni bergan holda, bu tizimni yaxshilashdan iborat. Mill`ning asosiy iqtisodiy asarlari «Siyosiy iqtisodning ba`zi echilmagan muammolariga nisbatan ocherklar» (1844) va «Siyosiy iqtisod asoslari va ularning ijtimoiy falsafada qo`llanilish mo‘ayyan aspektlari» (1848) deb nomlanadi. Bu asarlar yarim asr davomida universitet siyosiy iqtisod kurslari asosi sifatida o`rganilgan.

Predmet va uslub. Mill` mumtoz siyosiy iqtisod metodologiyasi tarafdori bo`lsa ham, pozitivizm falsafasi asoschilaridan biri hisoblanadi. Bu holat uning

iqtisodiy nazariyasining alohida elementlarida namoyon bo`ladi. Pozitivizm xususiyatlaridan biri, hodisalar mohiyatining asosiy sababini qidirishdan voz kechish bo`lgan, ya`ni sabab va oqibat yondashuvidan. Pozitivistlar, real hodisalar va ular orasidagi aloqani tadqiq etishni taklif etishgan, ya`ni funktsional yondashuv tarafdorlari bo`lishgan.

Mill`ning fikricha, bizning bilimimiz faqatgina hodisalarni tushunishi mumkin, biz ularning mohiyatini, hattoki aniq fakt yuzaga kelishining real sabablarini bilmaymiz. Biz faqatgina ularning boshqa faktlarga aloqasini tushunishimiz mumkin. Hodisalarni esa biz bor - yo`g`i ularning qonuniyatlarini tushunamiz xolos.

Mazkur g`oyalarni Mill` iqtisodiy nazariya borasida ham qo`llagan. O`zining asarida yozishicha: «Biz jamiyatda iqtisodiy fenomenlar umumiy tasvirini oldik. Mo‘ayyan darajada, biz ularning o`zaro aloqasini belgilovchi printsiplarni ham aniqlaganmiz». Ayniqsa funktsional yondashuv Mill`ning qiymat borasidagi tadqiqotlarida namoyon bo`lgan. Sabab va oqibat yondashuvidan, funktsional tadqiq etishga iqtisodiyot fanining to`la - to`kis o`tishi XIX asrning oxirida yuz berib, bu holat neomumtozlar va institutsionalistlar nazariyasida namoyon bo`lgan.

Mill` iqtisodiy nazariyasi metodologiyasining yana bir Yangi xususiyati, keyinchalik institutsionalizm doirasida rivoj topgan bo`lib, birinchidan bu ijtimoiy evolyutsiya g`oyasi edi, va bu g`oya ijtimoiy isloxotlar taklifida namoyon bo`ldi.

Ikkinchidan, Mill` iqtisodiy insonni emas, insonni ijtimoiy faoliyatlarida namoyon bo`lishi nuqtai - nazaridan tadqiq etgan. Mazkur yondashuvga muvofiq, Mill` jamiyat iqtisodiy tashkillashtirishni sabablari, inson xulq-atvor xususiyatlari yoki jamoatchilik munosabatlari, institutlar, psixologik va ma`naviy omillarda namoyon bo`lishi darajasining tadqiq etilishining o`zi, siyosiy iqtisod deb nomlanuvchi fan predmetidir.

Iqtisodiy siyosat alohida elementlari uchun, jamiyat umumiy qarashlari va siyosati, alohida ahamiyatga ega emas, ammo kengroq tadqiqotlar doirasidan ham, ularni o`chirib bo`lmaydi, zero inson hayotining turli muhim aspektlari mustaqil ravishda rivojlanmaydi, ulardan har - biri boshqalaridan kelib chiqib, chuqur ravishda ular tomonidan modifikatsiya etiladi.

Asosiy nazariy holatlar

Mill`ning so`nggi asari besh qismdan iborat. Birinchi uchta qismda («Ishlab chiqarish», «Taqsimlanish», «Almashinuv») u asosan o`zidan oldingi mumtoz siyosiy iqtisod natijalarini umumlashtiradi. Bu asrning o`ziga xos jixati Shunda ediki, Mill` ishlab chiqarish va taqsimotini qarama - qarshi qo`yadi. Boylik ishlab chiqarish sharoitlari va qonuniyatlari tabiiy fanlarga xos bo`lgan haqiqat tavsifiga ega, deb hisoblar edi u. boylik taqsimlanishi esa, o`zgacharoq tarzda yuz beradi. Taqsimlash, inson tasarrufiga tegishli bo`lgan ishdir. Asarining oxirgi ikki qismida,

Mill` ya`ni iqtisodiy o`sish va davlatning iqtisodiyotdagi roli muammolarini taxlil etadi.

Narx va tannarx. Mazkur masalalar Mill` tomonidan asarining «Almashish» uchinchi qismida yoritilgan. Uning fikricha, narx asosida ishlab chiqarish xarajatlari yotadi. Mill` narx va tannarxning nisbiyligini (Rikardo terminologiyasi), narx shakllanishi tahlili jarayonida, Mill`, narx taklif va talab oorasida funktsional aloqa muammolariga yo`liqib, narxning talabga ta`sirini tadqiq etib, elastik talab tushunchasini ilgari suradi.

Mablag‘, daromad, kapital, realizatsiya. Bu borada, Mill` o`zidan oldingi davrda yashab o`tgan mumtoz siyosiy iqtisod namoyandalarining fikrlarining turli kombinatsiyalarda takrorlab, asosan Rikardo nazariyasiga tayanadi.

Iqtisodiy o`sish. Mill` ilk marotaba, iqtisodiy statika va iqtisodiy dinamika tushunchalarini ajratadi. Statika ostida, iqtisodiyotning o`zgarmas masshtabdagi funktsiyasi tushunilsa, dinamika ostida o`sish va qulash tushuniladi. Ammo Mill` asarlarida, o`sish va rivojlanish tushunchalari aniqlashtirilmagan. Rivojlanish tushunchasi ostida, hozirgi davrda iqtisodiyotning sifat darajasidagi o`zgarishi tushuniladi. O`sish tushunchasi ostida esa, mo‘ayyan iqtisodiy ko`rsatkichlarning miqdoriy oshishi ko`zda tutiladi. Iqtisodiy o`sish muammosini Mill` o`z kitobining to`rtinchi qismida ko`rib chiqib, bunda asosan iqtisodiy o`sishga ta`sir etuvchi omillar tadqiq etilgan. Iqtisodiy o`sish omillari orasida, u ishlab chiqarish omillarini belgilagan, masalan texnik jarayon, ishlab chiqarish kontsentratsiyasi hisobiga xarajatlarni pasaytirish, xo`jalik aloqalarini kengaytirish bilan bog`liq omillar, mehnat va kapital migratsiyasi, o`sishi, transport va savdoni rivojlanishi, taqsimlash tizimi va turmush farovonligini o`sishi, va nihoyat shaxs va mulk xavfsizligini ta`minlab beruvchi siyosiy omillar.

Shu bilan birgalikda, Mill` iqtisodiyotdagi o`sish va pasayish fazalarining davriy o`zgarishini ham ko`rsatib, birinchilardan bo`lib, Angliyada 1825 yilda boshlab namoyon bo`lgan iqtisodiy sikl mavjudligini ta`kidlagan.

Davlatning iqtisodiyotdagi roli. Mazkur muammoga Mill` nihoyatda ehtiyotkorlik bilan yondashgan. Uning e`tirof etishicha, tadbirkorlik erkinligi va davlatning iqtiisodiyotga aralashuvining to`g`ri mutanosibligini topish zarur. Davlatning iqtisodiyotdagi rolini tanqid etar ekan, Mill` bu jarayondagi ikki asosiy holatga e`tibor qaratgan: davlat mansabdorlarining tomonida samarasiz boshqarilishi va xususiy tashabbusning qisqarishi, huquqiy tashabbus va fuqarolar siyosiy huquqlarining pasayishi.

Iqtisodiy liberalizm nuqtai - nazaridan hukumat tomonidan iqtisodiyotning bevosita boshqarilishini inkor etgan Shu bilan birgalikda, hukumatning iqtisodiyotga nisbiy ravishda aralashishining ikki maqsadini ko`rsatgan: «Hukumat, chekkadan yordamga muhtoj bo`lgan jamiyat a`zolarining bugungi

manfaatlari yoki kelajak avlodlar va insoniyat umumiy manfaatlari uchun zarur bo`lgan holatlar bajarilishi bilan bog`liq barcha ishlarni o`z zimmasiga olishi kerak». Bunda birinchidan hukumat tomonidan ilmiy - texnik taraqqiyotni rivojlantirishi ko`zda tutilib, bu xol birinchi navbatda iqtisodiy o`sishga olib keladi, va ikkinchidan esa teng iqtisodiy imkoniyatlarga va teng huquqlarga ega bo`lgan holda teng iqtisodiy huquqlarga ega bo`lmagan jamiyat a`zolariga moddiy yordam haqida fikr yuritadi (qariyalar, bolalar, nogironlar).

8.2. K. Marks iqtisodiy nazariyasi

Jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta`siri bo`yicha XIX asr faylasuflari va iqtisodchilari orasida yiriklardan biri Karl Marks (1818-1883) hisoblanadi. Ma`lumoti bo`yicha yurist va jurnalist bo`lgan bu olim faoliyat turi bo`yicha professional inqilobchi edi. Uning yaqin yordamchisi va qator asarlarining hammualifi Fridrix Engel`s (1820-1895) hisoblanadi. Marks hayotining keskin burilish davri 1847-1848 yillar edi. Bu vaqtga kelib, tarixiy materializm falsafiy nazariyasi to`liq ishlab chiqarilgan edi. 1847 yilda Marks va Eengel`s ishtirokida xalqaro kommunistlar ittifoqi tashkillashtirilib (I Internatsional asosi), uning uchun Marks va Eengel`s «Kommunistik partiya manifesti» deb nomlangan asarni yozishdi (1848). 1848 yilda yuz bergan birinchi Evropa inqilobidan so`ng, Marks va Engel`s Angliyaga ko`chib o`tib, umrlarining oxirigacha shu mamlakatda yashashdi. Bu erda, Marks o`z iqtisodiy nazariyasi ustidan ishga kirishib ketdi. 1850 yillar oxirida, u o`zining asosiy asari bo`lmish «Kapital»ning birinchi variantini tayyorlab 1859 yilda mazkur asarning birinchi kichik qismini «Siyosiy iqtisodiyot tanqidi haqida» nomi ostida nashr etdi. Ammo keyinchalik, Marks nashr etishni to`xtatib, qo`lyozmani puxtalashtirish lozimligi haqidagi qarorga keldi. 1867 yilda, Marks hayotligi davrida yagona nashr etilgan «Kapital» asarining birinchi tomi chiqguniga qadar, «Kapital» asarining yana ikkita qora nusxasi tayyorlandi. «Kapital»ning ikkinchi va uchinchi tomlari Marks qo`lyozmalari asosida 1885 va 1894 yillarda Engel`s tomonidan nashr etildi.

Predmet va uslub. Marks iqtisodiy nazariyasi tadqiqoti predmeti sifatida, mumtoz nazariya namoyandalari kabi ishlab chiqarish sohasi bo`lgan. Marks bu sohaga Shu qadar kuchli va birlamchi e`tiborni qaratar ediki, qolgan iqtisodiy munosabatlar ham uning uchun ishlab chiqarish munosabatlari edi. Uslub asosida, tarixiy materializm falsafiy nazariyasi yotgan. Jamoatchilik munosabatlariga nisbatan Marks tomonidan bildirilgan moddiy yondashuv quyidagilarda namoyon edi.

Marks jamiyat munosabatlarining mo‘ayyan umumiyligini jamiyat formatsiyasi deb atgan. Mazkur jamiyat munosabatlari bazisi sifatida, u

iqtisodiyotni tilga olib, iqtisodiyot birinchi navbatda texnika rivojlanish darajasi tomonidan belgilanadi (Ishlab chiqarish kuchlari). Iqtisodiyotga aloqasi bo`lmagan boshqa barcha jamiyat munosabatlari (siyosiy, madaniy va boshqalar), bazis poydevoriga asoslangan qurilmalardir. Shunday qilib, texnika (ishlab chiqarish kuchlari) iqtisodiyot tavsifini belgilaydi (ishlab chiqarish munosabatlari), iqtisodiyot esa barcha jamoatchilik munosabatlari uchun tavsiflidir. Shu bilan birgalikda, mo‘ayyan jamoatchilik munosabatlarini (Shu jumladan iqtisodiy munosabatlar: kapitalistik, kichik tovar yoki sotsialistik) tabiiy deb hisoblagan mumtoz siyosiy iqtisodning boshqa namoyandalaridan farqli o`laroq, Marks tarixiy yondashuvni qo`llab, jamiyat formatsiyalari bir - birini faqatgina inqilobiy yo`l bilan o`rin almashishini isbotlagan, ammo nima bo`lganida ham, tabiiylik g`oyasi uning asarlarida baribir mavjud, Chunki kommunistik formatsiya o`z sxemasiga ko`ra oxirgi va to`laqonlidir.

O`zining jamiyat formatsiyalari haqidagi nazariyasini Marks kapitalistik iqtisodiyotning tarixan o`zgaruvchan tavsifining isboti sifatida qo`llagan. Uning fikricha, mazkur iqtisodiyot baribir sotsialistik iqtisodiyotga o`z o`rnini bo`shatib beradi.

Asosiy nazariy holatlar. Xuddi Mill` kabi, Marks mumtoz siyosiy iqtisodning oldingi namoyandalari tomonidan ishlab chiqarilgan nazariyalarni tizimlashtirgan. «Kapital» asari tuzilishi esa, quyidagicha: Birinchi ikki tomda Marks kapitalistik sanoatni tadqiq etib, birinchi tomda ishlab chiqarish masalalari, ikkinchi tomda esa, munosabatlar masalalarini ko`rib chiqgan.

Uchinchi bobda esa, savdo, kredit va qishloq xo`jaligi sohalari tadqiqotiga kiritilgan. Bundan tashqari, Marks iqtisodiy tadqiqotlarining barcha bo`limlarida oliy vazifa, ya`ni kapitalistik iqtisodiyotning adolatsiz ekspluatatorlik tavsifini ko`rsatish harakati mavjud bo`lib, bu holatlar uning bekor qilinish zaruratining isboti sifatida qo`llanilgan.

Narx. O`z tadqiqotlarida, Marks o`ziga xos uslubiy usulni qo`llaydi, ya`ni iqtisodiy toifalar turli abstraktsiya darajasida ko`rib chiqilgan. Xususan birinchi ikki tomda, tannarx umumiy tarzda ishchi mehnati xarajatlari natijasi sifatida ko`rib chiqilgan. Marks tannarxni uch qismga bo`ladi: «Doimiy kapital» (s), ya`ni moddiy xarajatlar narxi, «O`zgaruvchan kapital» (v), ya`ni ishchi kuchi narxi, va «qo`shimcha narx» (m).

Kapitalning doimiy va o`zgaruvchan kapitallarga bo`linishi Yangicha yondashuv bo`lib, Marksdan oldin iqtisodchilar asosiy va aylanma kapitalga bo`lishgan. Marks yaratilgan qo`shimcha qiymatni kapitalist tomonidan ishchilarni ekspluatatsiya natijasi deb atagan. Kapitalist daromadining ishchi daromadiga munosabatini m/v, u qo`shimcha qiymat normasi va ishchilar ekspluatatsiyasi darajasi ko`rsatkichi deb atagan.

Uchinchi bobda, Marks Yangi tushuncha, «takror ishlab chiqarish» tushunchasini kiritib, uni qiymat formasiga aylantirilgan tushuncha deb ataydi. U ishlab chiqarish vositalarini xarid etish xarajatlari, va ishchi kuchining daromadning barcha sohalari uchun o`rtacha ko`rinishi deb atagan. Ishlab chiqarish qiymati tushunchasi, iqtisodchilar orasida ko`plab munozaralarni keltirib chiqardi. Eslatib o`tamizki, Smitdan keyin, mehnat qiymati nazariyasi va qiymat nazariyasining mo‘ayyan xarajatlar bilan talqin etilishi, mumtoz siyosiy iqtisod doiralaridagina qarama - qarshi qo`yilar edi.

Shu sababli kapital asarining uchinchi tomi nashr etilganidan keyin, «Kapitalning» birinchi va uchinchi tomlari orasidagi qarama - qarshiliklar haqidagi ta`kidlar paydo bo`ldi, Chunki ularda, qiymatning turli nazariyalari qo`llanilgan, ya`ni mehnat nazariyasi va xarajat nazariyasi.

Marksistlar («Kapital» asari uchinchi tomi nashr etilgan davrda Marks vafot etgan edi), bunga javoban bir toifa, boshqa toifadan kelib chiqganligini ta`kidlashar edi; mashhur nemis iqtisodchisi V. Zombert ta`kidlashicha, mehnat qiymati qiymatning real tushunchasini mantiqiy asosi bo`lib, xarajatlar bilan belgilanadi, ammo munozaralar keng tarqalmadi, Chunki mumtoz siyosiy iqtisodiyot davr diqqat e`tiboridan tushib kelayotgan edi. Kapital boshqa iqtisodiy toifalari orasida, zamonaviy iqtisodiy fan, Marksning jamiyat ishlab chiqarish va sohalararo raqobatchilik, hamda kapitalning o`zgaruvchanlik nazariyasini Marksning iqtisodiyot faniga asosiy hissasi deb qabul qilinadi.

Ijtimoiy ishlab chiqarish

O`zining ijtimoiy ishlab chiqarilishi nazariyasida Marks fanga yalpi milliy mahsulotni qayta taqismlanish muammosini kiritib, mazkur masalaning tadqiq etilishi F. Kene iqtisodiy jadvalida boshlanib, «Smit dogmasi» paydo bo`lishi bilan yo`qolgan edi. Kenening uch bo`limli modelidan farqli o`laroq, Marks ikki bo`limli modelni yaratib, ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish, ya`ni doimiy kapital elementlarini ishlab chiqarish, va ishchi va kapitalistlar iste`moli uchun zarur predmetlar ishlab chiqarilishi sohalariga bo`ldi, hamda bo`linma ichki aylanmasi doirasidan tashqariga chiquvchi mahsulot qismining mahsulot orasida almashinuv formulasini ishlab chiqardi.

I (c+v+m) = birinchi sektor mahsuloti, II (c+v+m) – ikkinchi sektor mahsulotlari narxi.

Natural ko`rinishda birinchi sektor mahsuloti I c va II c uchun mo`ljallanganligi sababli, I s to`ldirilgandan keyin qolgan I sektor mahsuloti (v+m) narxiga teng birinchi sektor qolgan mahsuloti II c to`ldirilishi uchun II sektorga yo`naltiriladi, natijada I va II sektorlar almashinuv formulasi yuzaga keladi: I (v+m) = II c.

Marks nazariyasining Kene jadvalidan yana bir farqli tomoni Shu ediki, Kene sodda ishlab chiqarishni ko`rib chiqgan, marks esa sodda ishlab chiqarish bilan bir qatorda keng qamrovli ishlab chiqarishni ham ko`rib chiqgan.

Marksning jamoatchilik ishlab chiqarilishi kengaytirilgan sxemalari mohiyatan iqtisodiy o`sishning birinchi modeli edi.

Tarmoqlararo raqobatchilik. Marks sohalararo raqobatchilik tushunchasini kiritib, bu tushuncha ichki sohaviy raqobatchilikdan farqli o`laroq, bir - xil turdagi tovarlar sotilishi uchun raqobatchilikni emas, kapitalning eng daromadli sohalarga yo`naltirilishi uchun raqobatchilikni bildiradi.

Bunda, «Kapital» asarining 3 tomida, Marks qo`shimcha qiymat tushunchasini qo`llamay, uning o`zgargan shakli daromad tushunchasidan foydalangan. Xalq xo`jaligining turli sohalari, turli daromad normalariga egaligi, ya`ni daromadning avanslangan kapitalga nisbati turlichaligi sababli (m/c+v), kapital kam daromadli sohalardan yuqori daromadli sohalarga o`tuvchanligi boshlanadi. Bu holat, korxonaning kam daromadli sohalarida faoliyat yuritayotgan korxonalar yopilishi, yuqori daromadli sohalarda Yangidan - Yangi korxonalar qurilishida namoyon bo`ladi. Natijada, kam daromadli sohalarda, taklif pasayib boradi, narx va daromadlar esa o`sadi, yuqori daromadli sohalarda esa teskari jarayon kuzatiladi. Umuman olganda iqtisodiyot, barcha sohalar uchun o`rtacha daromadni shakllantirishga harakat qiladi.

8.3. Rossiyada mumtoz siyosiy iqtisodiyot

Rossiyada mumtoz siyosiy iqtisodni o`rganishdan oldin, Shunga e`tibor berish kerakki, yuqorida ko`rib chiqilgan, K. Marksdan tashqari, barcha mumtoz siyosiy iqtisod nazariyachilari asosan inglizlar va frantsuzlar bo`lgan. Bu birinchi navbatda Angliya va Frantsiyaning iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanishdagi ilg`orligi bilan bog`liq. AQSH va qator Evropa davlatlari uchun Angliya va Frantsiyadan kirib kelayotgan nazariyalarning interpretatsiya etilishi xos bo`lib, bu holat ularda mavjud bo`lgan iqtisodiy, ijtimoiy sharoitlarga muvofiq yuz berar edi. Mazkur davlatlar qatorida Rossiyani ham tilga olish mumkin. Nima bo`lganida ham, o`sha davrdagi iqtisodiy fanga alohida original g`oyalarni rus olimlari ham ilgari surishgan edi. Mumtoz siyosiy iqtisod Rossiyaga XVIII asrning II yarmida kirib kela boshladi. Mazkur yo`nalishning rasmiy ravishda tan olinishi va universitetlarda o`qi tila boshlanishi g`arbiy Evropadagi kabi XIX asrdan boshlandi. Shu bilan birgalikda, o`zining siyosiy va iqtisodiy rivojlanishi bo`yicha Rossiya g`arbdan qoloqroq.

Shu sababli XVIII asrning ikkinchi XIX asrning birinchi yarmida Rossiya iqtisodiy fikri o`ziga xosliklarga ega edi. U ikki yo`nalishda rivojlana bordi.

Masalan, akademik universitet iqtisodiy fani G`arbiy Evropa bilan keng qamrovli munosabatlarda bo`lib, umumjahon mumtoz siyosiy iqtisod an`analari tarafdori bo`lib, Rossiyada hali mavjud bo`lmagan sanoat kapitalizmiga mos edi. Rossiya iqtisodiy fikrining amaliy yo`nalishi esa, mumtoz siyosiy iqtisod masalalarini ya`ni kredit, moliya, tashqi va ichki savdo, davlatning iqtisodiyotdagi roli, hamda dvoryanlar, savdogarlar, dehqonlar va rus jamiyati boshqa ijtimoiy tabaqalarining xo`jalik huquqlari masalalarini tadqiq etar edi.

Mazkur boboda, Rossiyada mumtoz siyosiy iqtisod nazariy yo`nalishlari rivojlanishining asosiy bosqichlarigina ko`rib chiqiladi.

Rossiyada keng tarqalgan mumtoz siyosiy iqtisod birinchi nazariyasi fiziokratlar nazariyasi bo`lib, uni Rossiyaga, Rossiyaning Frantsiyadagi elchisi Dmitriy Golitsin (1734-1803) olib keldi.

1765 yilda Ekaterina II tashabbusi bilan Parijdagi iqtisodchilar klubiga o`xshash «Erkin iqtisodchilar jamiyati» yaratilib, bu jamiyat 1917 yilgacha amal qilgan. Shu bilan birgalikda, fiziokratlarning nazariy fikrlari, Rossiyada katta e`tibor qozona olmadi. Erkin iqtisodchilar jamiyati faoliyatining boshlang`ich davrlarida, asosan qishloq xo`jaligining asosan amaliy masalalari bilan Shug`ullanar edi.

Ammo 1980 yillarning oxirida, iqtisodiy fanlar tarixi muhim kashfiyot bo`ldi. Ma`lumki F.Kenening iqtisodiy jadvali sohalararo balansi nazariyasida birinchi qadam bo`lib xizmat qilgan. Faqatgina yuz yildan keyin Marks ijtimoiy ishlab chiqarish nazariyasida davom ettirilgan deb hisoblanar edi. Ammo ma`lum bo`lishicha “iqtisodiy jadval”ning keyingi rivojlanishi Xar`kov universiteti professori Yuzef Lang asarlarida keltirilgan (1775 - 1820). YUzef Lang Frayburg universitetini bitirgan olim 1803 yilda Xar`kov universitetiga taklif etildi. 1807-1815 yillarda nashr etilgan asarlarida xalq xo`jaligining avval uch sektorli (garchi Kene g`oyasidan bir oz farq qilsada), keyinchalik to`rt sektorli modelini tadqiq qilgan. Iqtisodiyot sektorlarini belgilash uchun Lang Kene kabi sinf tushunchasini qo`llagan. Uning to`rt sektorli modelida yalpi milliy mahsulot qayta taqsimlanishi, boshlang`ich mahsulotni ishlab chiqaruvchilari (qishloq xo`jaligi va kon sanoati), hamda ikkilamchi mahsulot ishlab chiqaruvchilari (qayta ishlash sanoati), tijoratchilar va xizmatchi sinflar orasida amalga oshirilgan. Bunda u, o`sha davrdagi Rossiyaning xalq xo`jaligi aylanmasidan olingan misollar va tenglamalarni qo`llagan. Afsuski Lang asarlari, zamondoshlari tomonidan e`tiborga olinmay iqtisodiy fan rivojlanishiga hech qanday ta`sir ko`rsatmadi.

Shu bilan birgalikda, fiziokratlar nazariyasiga nisbatan, A. Smit nazariyasi ham Rossiyada kengroq ko`lamda tarqalgan edi. 1761 yilda, Moskva universitetining ikki talabasi, Ivan Tret`yakov (1735-1776) va Semen Desnitskiy (1740-1789) Glazgo universitetiga o`qish uchun jo`natilib, aynan Shu universitetda

ma`naviy falsafa professori sifatida «Xalqlar boyligini» hali yozishga ulgurmagan Smit ham faoliyat yuritib, o`sha davrlarda o`z ma`ruzalarida u, iqtisodiy masalalarni ham ko`targan edi. 1767 yilda, Desnitskiy va Tret`yakov vatanlariga qaytib kelib, Moskva universiteti yuridik fakul`tetida dars bera boshlashdi. Yuridik asarlar bilan bir qatorda, ular umumiy ijtimoiy masalalar bo`yicha ham asarlar yaratib, Tret`yakov hattoki kichik hajmdagi iqtisodiy asar bo`lmish «Qadimgi va zamonaviy halqlarda hukumatning sekin boyishi va ravnaqi sabablari haqida fikrlar» deb nomlangan asarlarini ham nashr etishga ulgurdi (1772) va bu nomlanish Smit asosiy asari nomlanishiga yaqinroq bo`lib, aytib o`tish joizki Smit o`z asarini Desnitskiy asaridan to`rt yil keyinroq nashr etdi. Tret`yakov va Desnitskiyning iqtisodiy qarashlari Smitning erta qarashlariga yaqin bo`lib, undan farqli o`laroq, rus olimlari iqtisodiy liberalizm tarafdorlari bo`lmay, tashqi savdoda protektsionizm va hukumat tomonidan ichki ishlab - chiqarish qo`llab - quvvatlanishi haqidagi g`oyalarni ilgari surishib, katta e`tiborni mablag` aylanmasi kredit va moliyaga qaratishgan. Bundan tashqari Desnitskiy 1781 yilda, jamoatchilik rivojlanishi kontseptsiyasini ilgari surib, uning doirasida iqtisodiyot tarixi sxemasini bergan. Mazkur sxema to`rt bosqichdan iborat edi: ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik va tijorat.

Tijorat ostida Desnitskiy kapitalistik iqtisodiyotni nazarda tutgan. Mazkur sxema, XIX asr o`rtalarida Germaniyada paydo bo`lgan tarixiy maktabning o`xshash sxemalaridan ilgari yaratilgan edi.

XIX asrning boshida, Smit g`oyalari Rossiyada keng tarqalib, 1802-1806 yillarda Smitning xalqlar boyligi asari ham, rus tiliga tarjima qilingan edi. Bu holat XIX asrning boshidan boshlab, siyosiy iqtisod fani universitet dasturi tarkibiga kiritilgan. Yangi fan, asosan chet el professorlari tomonidan o`qitila boshlandi. Ular orasida Moskva universiteti professori va siyosiy iqtisodiyot bo`yicha birinchi o`quv qo`llanma muallifi bo`lmish Xristian SHlyotserni tilga olish lozim bo`lib, uning asarlari ham rus tiliga tarjima qilingan; bundan tashqari, Xar`kov universiteti professori sifatida Lyudvig YAkov ham faoliyat yuritib, u Rossiya iqtisodiyoti haqida asarlar yaratdi. Mixail Balugiyanskiy esa, Avstro-Vengriyalik ukrain millatiga mansub bo`lib, Peterburg universitetining birinchi rektori, mashhur Rossiyalik reformator M. Speranskiyning yordamchisi vazifasida ishlagan edi.

Ushbu olimlar asosan nemis o`quvchilari bo`lganligi sababli, ular mumtoz siyosiy iqtisodni kameralistika nuqtai - nazaridan o`qitishar edi (XVIII asrlarda nemis universitetlarida o`qitilgan davlat boshqaruvi haqidagi fan). Boshqacha qilib aytganda, ular iqtisodiy liberalizm kontseptsiyasining to`liq tarafdori emas edilar.

Birinchi yigirma yil davomida Rossiya siyosiy iqtisodiyoti, Smit nazariyasining bevosita ta`siri ostida o`qitilgan, ammo keyinchalik, Smit g`oyasi umumiy yo`nalish ramzi sifatida samoga ko`tarilib, aniq masalalar bo`yicha

Rossiyalik iqtisodchilar, asosan Sey va Mal`tus asarlariga yondashishar, Rikardo g`oyalari esa, nisbatan kamroq e`tiborga olinar edi. XIX asrning 20-yillaridan boshlab, barcha yo`nalishlar asosan Sey g`oyalariga asoslanib, bu g`oyalar XIX asr 40- yillari boshigacha e`tibordan yiroqlashmagan.

Shu davrlarda Rossiyada yirik iqtisodchi va birinchi siyosiy iqtisodiyot bo`yicha Rossiyalik akademik Genrix Shtorx ham faoliyat yurita boshladi (1776-1835). U Rigada tug`ilib, germaniyada ta`lim olgan, so`ngra esa Peterburg shahridagi birinchi kadet korpusida va tashqi aloqalar vazirligida faoliyat yurita boshladi. Shtorxning asosiy asari, "siyosiy iqtisod kursi" bo`lib, bu asar unga Evropada mashhurlik keltirib, 1815 yilda hattoki frantsuz tilida ham nashr etildi. Mazkur asar bo`yicha, Shtorx Sey bilan munozaraga kirishib, o`sha davrlarda Sey Shtorxni plagiatda aybladi. Nima bo`lganida ham, Evropalik olimlar boshqacha fikrda edi. Masalan, Rikardo g`oyasi tarafdori va yaqin do`sti bo`lmish Mak-Kullox yozishicha, - «Mazkur asar o`z muallifiga katta mashhurlik keltirdi… asosiy g`oyalarning aniq va ravshan keltirilishi bilan bir qatorda, boylik ishlab chiqarilishi haqidagi Shtorx asari, ingliz va frantsuz iqtisodchilari e`tiborini kamroq darajada tortgan predmetlar haqidagi fikrlari bilan boy. Shtorx asarlarini adolatli ravishda, Angliyaga keltirilgan siyosiy iqtisodiyot haqidagi barcha asarlardan ustun qo`yish mumkin.

Iqtisodiyot faniga kiritgan muhim hissasi sifatida Shtorx «Tamaddun nazariyasini» e`tirof etish mumkin, zero uning fikricha mazkur nazariya Smitning «Boylik nazariyasini» to`ldirgan. Mazkur nazariya Sey nazariyasiga yaqin bo`lgan «Narx nazariyasidan» kelib chiqgan. Ma`lumki Sey qiymat belgilanishida ishlab chiqarish omillariga tayangan, Shtorx esa predmetning foydalilik darajasiga e`tibor qaratgan. Shtorx boylik va kapital tushunchasini nomoddiy boyliklarga nisbatan ham ishlatib bular sirasiga turli xizmatlar, Shu jumladan inson salomatligi, bilimi, badiiy tushunchalari, dam olishi, xavfsizligini ham kiritgan. Bundan ishlab chiqarish mehnatining kengroq talqini ham kelib chiqib, ularni Shtorx moddiy ishlab chiqarish doirasidan tashqariga olib chiqadi.

Ishlab chiqarish borasida foydasiz sinflarni, Shtorx faqat mulkdorlar bilan toraytirib, uning fikricha mulkdorlar o`z mulki evaziga foiz yoki renta olishganligi sababli, nafaqaxo`r deb atalishi lozimligini aytib o`tgan. Boylik birlashtirilgan nazariyalari (moddiy) va tamaddun (nomoddiy) nazariyalarini Shtorx xalq barqarorligi nazariyasi deb atagan. Shtorx g`oyalari, xususan, inson nomoddiy kapitali g`oyasi sifatida XX asrning ikkinchi yarmida ham tadqiq etgan. XIX asr 40-yillari o`rtalariga kelib, Rossiyada kapitalizm tanqidchilari asarlari keng tarqala boshlandi (Sismondi va sotsialist - utopistlar). G`arbdagi kabi Rossiya siyosiy iqtisodiyotida ham pozitsiyalarning mo'ayyan polyarizatsiyasi kuzatildi.

Rossiya universitetlarida asosiy o`quv qo`llanmani yaratgan Butovskiy o`z qarashlari bo`yicha Sey maktablariga yaqin turadi. Butovskiy tanqidchisi sifatida, Vladimir Milyutin hisoblanadi (1826-1855). Milyutin o`sha davrlarda talaba bo`lib, keyinchalik Moskva universiteti professori darajasigacha ko`tarildi. O`z qarashlari u Sismondi maktabiga yaqin edi ammo kichik tovar ishlab chiqarish idealizatsiyasini tanqid qilgan.

Rossiya mumtoz siyosiy iqtisodiyotining sotsialistik yo`nalishi namoyandalaridan yana biri, Nikolay Chernishevskiy hisoblanadi (1828-1889), u «Sovremennik» jurnalining muharriri bo`lib, inqilobdan oldingi ko`tarilish, ya`ni 1859-1861 yillar davomida uning asosiy ideologlaridan biri bo`lgan. 1862 yilda u qamoqqa olinib, Sibirga surgun etildi va u erdan 1889 yilda o`limidan oldin ozod etildi. Chernishevskiyning barcha iqtisodiy asarlari 1857-1862 yillar davomida yozilgan bo`lib, ular orasida ikki asarni ajratib ko`rsatish mumkin: «Siyosiy iqtisodiyot bo`yicha ocherklar (Mill` g`oyasi asosida)» va «Kapital va mehnat».

Nazariya sohasida u Mill` asarlariga tayangan ba`zi g`oyalari Ouen nazariyalariga yaqinroq turgan hamda «Mehnatkashlar siyosiy iqtisodiyotining» shaxsiy talqinini yaratishni orzu qilgan. Mehnatkashlar tushunchasi ostida, Chernishevskiy ishchilar qatorida dehqonlarni ham tushunib, uning fikricha, Rossiya sotsializmga nisbatan alohida rivojlanish yo`liga ega bo`lgan, ya`ni dehqonchilik jamoasi va ishchilar arteli yordamida kapitalizmni chetlab o`tgan holda.

Chernishevskiy zamondoshlari mumtoz siyosiy iqtisodning burjua vakillari I. Gorlov, I. Vernadskiy, V.Bezobrazov va boshqalar bo`lishgan. 1859-1862 yillar davomida Peterburg universiteti profesmsori Ivan Gorlov (1814-1890) siyosiy iqtisodiyotning ikki tomli darsligini nashr etib, bu o`quv qo`llanma Butovskiy o`rnida qo`llanila boshlandi. Moskva universiteti professori Ivan Vernadskiy esa (1821-1884) ilk marotaba Rossiyada iqtisod fanlar tarixi bo`yicha fundamental tadqiqotini nashr etib, uni «Siyosiy iqtisodiyot tarixi ocherki» (1858) deb nomladi. Mazkur olimlar, Rossiyada sanoat kapitalizmi va qishloq xo`jaligining fermerlik yo`lida rivojlanishi tarafdorlari edi. Ularning faoliyati, Rossiyadagi isloxotlar davrida kechib, asosiy rollari 1861 yilda krepostnoy huquqi bekor etilishida namoyon bo`lib, bu holat Rossiyada kapitalizm rivojlanishiga muhim asos bo`ldi. XIX asrning 60- yillarida, nihoyat Rossiya siyosiy iqtisod rivojlanishining ikki yo`nalishi birlashib, kapitalistik sanoat sohasi ham nazariy, ham amaliy jihatdan tadqiq etila boshlandi.

Ammo bu holatning paradoksli jihati Shunda ediki, jahon iqtisodiy fanida mumtoz siyosiy iqtisod allaqachon o`zining ijodiy yo`nalishini tugatgan edi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya mumtoz siyosiy iqtisodi barcha mamlakatdagi kabi o`z hukmronligini rasmiy ravishda saqlab qolib,

universitetlarda o`qitilar, ammo uning ijodiy salohiyati allaqachon barham topgan edi.

Nihoyat XIX asrning 90-yillarida, Rossiyada keskin sanoat o`sishi va kapitalizm shakllanishi ta`siri ostida, marksizm g`oyalari keng tarqala boshlandi. O`sha davrdagi iqtisodchi marksistlar orasida, avvalambor P.Struve, M.Tugan – Baranovskiy, V.Ul`yanov (Lenin), S. Bulgakov va boshqalarni tilga olish lozim. Mazkur dardagi Rossiyalik marksistlar, Rossiyalik sotsialistlarning boshqa guruhi bilan nazariy munozaralarni yuritishgan, Chunki Rossiyalik sotsialistlar guruhi, Rossiyada kapitalizmning xalqona kelajagi tarafdorlari edilar. Xalq tarafdorlari (V. Vorontsov, M. Daniel`son), avvalambor Sismondining realizatsiya nazariyasi tarafdorlari bo`lib, ularning fikricha Rossiyada kapitalizm rivojlanishiga bozorning qisqarishi sabab deb hisoblashgan. Marksistlar esa, Marksning ijtimoiy ishlab chiqarish g`oyasiga tayangan holda, ishlab chiqaruvchilar ixtisoslaShuvi o`sishi hisobiga mahsulot realizatsiyasida qiyinchiliklar kelib chiqmasligini isbotlashgan. XIX va XX asrlar oralig`ida, Rossiyada marksizm tanqidiy va ortodoksal marksizmlarga bo`linib ketdi.

Nazorat uchun savollar:

2. Pozitivizm falsafasining Mill` metodologiyasiga ta`siri nimada namoyon bo`lgan?
3. Mill` nazariyasining qaysi elementlarida, ijtimoiy evolyutsiya g`oyasi namoyon bo`ldi?
4. Iqtisodiy tadqiqotida Mill` yondashuvi iqtisodiy inson kontseptsiyasidan nimasi bilan farq qiladi?
5. Mill` qalamiga mansub bo`lgan narx tadqiqotlari tugatilishi, mumtoz siyosiy iqtisod tugatilishiga olib kelinishi haqidagi fikrining mazmuni nimadan iborat?
6. Mil` qiymat nazariyasi tadqiqotlarida qanday asosiy muammolarni ko`rib chiqgan? Mill` tomonidan iqtisodiy o`sishning qanday aspektlari yoritilgan?
7. Mill` iqtisodiyot sohasida qanday masalalarni hukumat oldiga qo`yadi? Marks ijtimoiy formatsiyalari nazariyasida iqtisodiyot qanday o`ringa ega?
8. Marks nazariyasida iqtisodiyotga nisbatan tarixiy yondashuv nimadan iborat?
9. Mill` va Marksning kapitalistik iqtisodiyot masalalarini hal etishga nisbatan yondashuvlarini taqqoslab bering.
10. Marks nazariyasidagi kapitalning doimiy va o`zgaruvchan turlariga bo`linishi, kapitalning asosiy va aylanma turlariga bo`linishidan nimasi bilan farq qiladi?

11. Kapital birinchi va uchinchi tomlarida orasidagi qarama-qarshiliklar haqidagi munozaralar mazmuni nimaga asoslanadi?
12. F.Kene va Marks ijtimoiy ishlab chiqarish nazariyalarining o`xshash va farqli tomonlari nimada?
13. Marks nazariyasi bo`yicha o`rtacha daromadni shakllanishi qanday yuz beradi?
14. XIX asr birinchi yarmida Rossiya iqtisodiy fikrining nazariy va amaliy yo`nalishlari nima sababdan turli mavzularga ega edi?
15. Fiziokratlar maktabi ta`siri ostida Peterburg qanday ilmiy jamiyatga asos solindi?
16. Tret`yakov va Desnitskiy qarashlari Smit nazariyasidan nimasi bilan farq qilar edi?
17. XIX asr boshida Rossiyada qaysi G`arb iqtisodchilari mashhur edi?
18. G. Shtorx «Tamaddun nazariyasi» mohiyati nima?
19. Birinchi rus siyosiy iqtisodiyot darsligi muallifi kim va g`arb iqtisodchilardan qaysi biriga qarashlari bilan yaqinroq?
20. N.Chernishevskiy tomonidan ishlab chiqarilgan iqtisodiy nazariyasi nima deb nomlangan?
21. Kiev maktabi tadqiqotchilari asosiy mavzusi nima?
22. Rossiyada kapitalizm rivojlanishi imkoniyatlari haqidagi masala va XIX asr 90-yillarida xalq tarafdorlari va marksistlar munozaralari realizatsiya nazariyasi orasidagi aloqa nimada namoyon bo`lgan?

Mavzu bo`yicha adabiyotlar ro`yxati:

1. Аникин А.В. Путь исканий. М., 1990.
2. Историки экономической мысли России. В.В.Святловский, М.И.Туган-Барановский, В.Й. Железнов. М., 2002.
3. История русской экономической мысли Т. 1. Ч. 2. Т. 2. Ч. 1-2. М., 1958-1960.
4. Маркс К. Капитал// Маркс К., Энгельс Ф. Соч. Т. 23-25.
5. Милль Дж. С. Основы политической экономики: В 3 т. М., 1980.

IX-BOB. GERMANIYADAGI TARIXIY MAKTAB G‘OYALARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

9.1. F. List va eski tarixiy maktab iqtisodiy kontseptsiyalari

Tarixiy maktab Germaniyada yuzaga kelib, buning o`ziga xos sabablari mavjud. Gap shundaki, 1871 yilgacha Germaniya tarkibida 36 ta nemis tilida so`zlashuvchi hududlardan tashkil topgan. Cho`zilib ketgan feodal bo`linish, Germaniya iqtisodiy rivojlanishini sekinlashtirar va shu sababli uning birlashtirilishi dolzarb masalaga aylangan edi. Nemis ziyolilari, nemis millatining ruhiy birligini ta`kidlashar, katta e`tibor Germaniya tarixiga qaratilar edi. Mazkur g`oyalarning nazariy shakllanishining boshlanishi, Germaniyada XIX asrning birinchi yarmida yuzaga kelgan huquq – tarixiy maktabi bo`ldi. Uning asoschisi Fridrix Karl Savin`i, huquq abstrakt mantiq bilan emas, mo‘ayyan mamlakat milliy ruhiga tayanishi, hamda tarixan o`tuvchan tavsifga ega bo`lishi lozimligini isbotlagan. Mazkur g`oyalarni iqtisodiyot fanidagi maktab ham qabul qilgan.

Uning asoschisi Fridrix List (1786-1846) bo`lib, u o`zining «Siyosiy iqtisodiyot milliy tizimi» (1841) kitobida mumtoz siyosiy iqtisodni kosmopolitik iqtisod deb atab, tanqid qilgan. U Smit nazariyasining uch asosiy kamchiligini ilgari surgan: kospolitizm, ya`ni barcha mamlakatlar uchun yagona bo`lgan iqtisodiy qonuniyatlarining mavjudligi, milliy, o`ziga xoslikni inobatga olmaslik; individualizm, ya`ni iqtisodiy inson atamasi iqtisodiy tahlilida, hech bir jamoatchilik aloqalarini hisobga olmasligi va materializm, ya`ni boylik yaratilishining moddiy omillarining tadqiqoti.

Mazkur kamchiliklarga qarshi List millat ishlab chiqarish kuchi tushunchasini kiritgan.

Bunda birinchidan, individual emas, milliy hajm qabul qilingan, ikkinchidan esa bu doiraga iqtisodiyotning barcha sohalari kiritilgan, uchinchidan, iqtisodiy sabablardan tashqari bu sohaga jamoatchilik institutlari ham kirishi ta`kidlangan. Uning yozishicha, millat ishlab chiqarish kuchlarining shakllanishi, mamlakat moddiy va intellektual kapitallarining o`zaro faoliyati natijasi bo`lib, Shu jumlaga qishloq xo`jaligi kapitali, manufaktuaralar va savdo kiritilgan.

Bundan tashqari, List iqtisodiy liberalizm kontseptsiyasini ham tanqid etib, misol sifatida, Frid Reder kontseptsiyasini ilgari surgan («Erkin savdo»). Uning yozishicha, bunday sharoitlarda faqatgina Angliya uchun normal va foydali bo`lgan iqtisodiy siyosat, barcha mamlakatlarga nisbatan tadbiq etilib, bu holat Angliyaning o`za davrlarda jahon iqtisodiyoti yetakchi ekanligi, ammo mazkur sharoitlar boshqa mamlakatlar uchun imkonsiz ekanligini aytib o`tgan.

Bu yondashuvga qarshi List, turli mamlakatlar iqtisodiyotiga nisbatan tarixiy yondashuvni taklif etgan. Xususan u, milliy iqtisodiyotlar rivojlanishining sohaviy

belgilarga ko`ra besh bosqichini ajratgan: ovchilik, chorvadorlik, agrar, agrar – sanoat va agrar-sanoat – savdo.

Angliya egallab turgan iqtisodiyotning eng yuqori nuqtasiga erishish uchun, Listi mamlakat, yuqorida tilga olingan bosqichlarning to`rtinchi bosqichi iqtisodiyotiga yordam berishi lozimligini, birinchi navbatda protetsionizm siyosati zaruriyatini ilgari surgan.

Qisqa muddat ichida, Listdan so`ng yana boshqa nemis iqtisodchilari ham shunga o`xshash g`oyalarni ilgari sura boshlashdi – bularga Vil`gel`m Rosherning (1817-1894) «Tarixiy uslub nuqtai nazaridan siyosiy iqtisodiyot kursining qisqa asoslari» (1843) asari bilan, Bruno Xil`debrand (1812-1878) «Hozirgi zamon va kelajak siyosiy iqtisodi» (1848) asarlari bilan va Karl Kniss (1821-1898) o`zining «Tarixiy uslub nuqtai - nazaridan siyosiy iqtisod» (1823) asari bilan. Ularning barchasi mustaqil ravishda ijod qilishib, keyinchalik tarixiy maktab nomi ostida, birlashtirilgan.

Xuddi List kabi ular ham, mumtoz siyosiy iqtisodni tanqid etishgan. Masalan Xil`debrand, mumtoz siyosiy iqtisodni inson egoizmi haqidagi tabiiy ta`lim deb atagan. Xususan ular, tabiiy - iqtisodiy qonuniyatlar haqidagi g`oyani inkor etib, iqtisodiyotning nisbiyligi va o`zgaruvchanligi g`oyasini ilgari surishgan, va bu g`oya asosida iqtisodiyot xalq rivojlanishi bilan birlagikda rivojlanishi haqidagi g`oya yotgan. Kniss, erkin harakat, insonning jamiyatdagi erkin tanlovi, tabiat azaliy qonuniyatlarini taqqoslab, bu holat nafaqat alohida shaxslar, balki butun millat xo`jalik faoliyati farqlarini sababi ekanligini ta`kidlagan.

Rosherning yozishicha, faqatgina iqtisodiy idealning mavjudligi, xalq uchun etarli emas, zero hattoki ko`ylak ham, birgina andoza asosida tikilmaydi.
Milliy iqtisodiyotlar farqiga nisbatan xalq xo`jaligi sub`ektlari tanlovi erkinligi ham, eski tarixiy maktab namoyandali fikricha, siyosiy, huquqiy, etik psixologik omillar ta`sir ko`rsatadi. Bularning barchalari milliy ruh tushunchasi ostida birlashadi. Bundan Shunday xulosa kelib chiqadiki, har - bir milliy iqtisodiyot, milliy - iqtisodiy fan tomonidan tadqiq etilishi kerak.

Rosher, Xil`debrand va Kniss uchun tarixiy yondashuv xos bo`lgan. Rosher, bu haqda mazkur tushunchani aralashtirmagan holda, iqtisodiyot tarixiy qonuniyatlari haqida yozgan. Kniss esa, iqtisodiy siyosat va xo`jalik doktrinalari tarixiy nisbiyligi haqida. Xuddi List kabi, ular iqtisodiyot rivojlanishi bosqichlarini ajratishgan, ammo boshqa omillarga tayanishgan. Rosher, ishlab - chiqarishni yetakchi omillari andozalari bo`yicha iqtisodiyotni uch bosqichga bo`lgan: ya`ni, qadimiy, bunda ishlab chiqarish asosiy omili er; o`rta asrlar, asosiy omillar tsex hunarmandlarining erkin mehnati qabul qilingan, va Yangi bosqich, ishlab chiqarishning mexanik ishlab chiqarishga o`tishi natijasida asosiy omil, kapital bo`lishi.

Xil`debrand ham, uch davrni ajratib, asos sifatida, mablag` kredit munosabatlari rivojlanishini qabul qilgan: ya`ni, natural xo`jalik (ammo to`g`ridan - to`g`ri tovar almashinuvi), mablag` xo`jaligi va kredit xo`jaligi.

9.2. Yangi tarixiy maktab iqtisodiy kontseptsiyalari

Mazkur maktab XIX asrning 70- yillariga kelib shakllangan, va yangi tarixiy maktab nomini olgan. Uning tarkibiga oldingiga nisbatan ko`proq olimlar kirib, uning boshida Gustav Shmoller (1839-1917) turgan. yuqorida aytib o`tilganidek, u Avstriya maktabi asoschisi K.Menger bilan metodologik munozaralarni yuritgan. Mazkur munozara davomida Shmoller, abstrakt uslubini to`liq inkor etib, bu uslubni, u izolyatsiya uslubi deb atagan. Shu bilan birgalikda, u o`z tarafdorlari bo`lmish Rosher va Xil`debrandni ham tanqid etib, ular umumiy tarix nazariy natijalariga juda ham ko`p e`tibor berishliklarida ayblagan. Shmoller, barcha iqtisodiy qonuniyatlarni inkor etib, faqatgina jamoatchilik tizimi barcha elementlari yagonaligi va tengligini ta`kidlagan. Uning ta`kidlashicha, xalq xo`jaligi, jamoatchilik hayotining bir qismi, ijtimoiy tananing tomonidir va faqatgina boshqa ijtimoiy hodisalar bilan bir qatorda qabul qilinishi lozim. Buning natijasida, - deb yozgan edi yirik iqtisodiy fikr tarixchisi E. Shumpeter, - inson motivatsiyalari paydo bo`lgan barcha tarixiy komplekslari iqtisodiyot kabi to`la ravishda o`rganilishi lozim. Bunday yondashuvda Shumpeter ham ijobiy, ham salbiy tomonlarni ko`rgan. Garchi bunday tadqiqotlar, - deb yozgan edi u, - alohida teoremalar yaratish imkoniyatini bermasada, ular muvofiq ravishda tayyorlangan ongda turli fikrlarni uyg`otib, bu fikrlar ham aniq qadriyatlarga ega bo`lishi mumkin. Ular, aniq assotsiatsiyalar asosiga aylanib, o`ziga xos, yoki ijtimoiy - iqtisodiy jarayonlar tushunilishini ta`minlashi, tarixiy perspektiva hissini uyg`otishi, yoki zarur bo`lsa, belgilash imkoniyati bo`lmagan, yoki qiyin bo`lgan narsalar orasidagi organik, o`ziga bog`liqlikni aniqlashi mumkin.

Ammo, Shmoller maktabining yosh namoyandalari orasida, tarixiy qonuniyat g`oyalariga nisbatan qaytish kuzatilgan edi. Masalan Karl Byuxer (1847-1930), o`zining «Xalq xo`jaligi yuzaga kelishi» asarida (1893), iqtisodiyotning uzoq muddatli xo`jalik aloqalari sifatida rivojlanishining uch bosqichini ajratadi: ya`ni yopiq uy xo`jaligi va shahar xo`jaligi. Bunda mahalliy bozor hajmidagi xo`jalik aloqalari zarur (ya`ni shahar va qishloq orasidagi aloqa sifatida) va xalq xo`jaligi, bunda tovarlar qator xo`jalik sub`ektlari qo`lidan o`tib, keyingina iste`molchi qo`liga etib keladi.Shmollerning o`zi ham, o`zining «Xalq xo`jaligi haqida umumiy ta`lim ocherki» nomli (1900-1904) yakuniy asarida to`liq empirizm g`oyalariga yondashgan.

Yangi tarixiy maktab, yagona Germaniya davlati shakllanishi davrida rivojlanib, mazkur davlat 1871 yilda yuzaga kelganligi sababli, hukumatning iqtisodiyotdagi roli masalasi uning tadqiqotlarida katta o`rin egallaydi. Mazkur masala bilan ayniqsa G. Shmoller va Lui Brentano faol shug`ullanishgan (1874-1931). Yangi tarixiy maktab namoyandalari tomonidan "hukumat sotsializmi" nazariyasi ilgari surilgan (ommaviy axborot vositalarida u kadeter sotsializm nomini olib, rus tiliga professor sotsializmi deb tarjima qilinadi, zero kateder nemis tilidan kafedra ma`nosini bildirib, bu ma`noda professorlarning kafedra doirasida faoliyat yuritishi ko`zda tutilgan). Hukumat sotsializmi, iqtisodiy liberalizm va marksistik sotsializm kontseptsiyalari orasidagi uchinchi yo`l sifatida talqin qilingan. Hukumat sotsializmi tarafdorlaridan biri A.Gel`t yozishicha, murakkab konservatizm va ijtimoiy inqiloblarga, u qadamba-qadam ilgarilab borilayotgan ijobiy isloxotlarni qarshi qo`ygan. Bunda so`z, asosan, barchaga birdek huquqlarni ta`minlab beruvchi qonunlar ishlab chiqarilishiga qaratilib, bunday huquqiy ta`minot birinchi navbatda jamiyatning quyi tabaqa vakillariga ta`minlab berilishi lozim edi (mehnat qonunchiligi). Shu bilan asosidan kasaba uyushmasi harakati rivojlanib, uning asosida ijtimoiy sug`urta tizimi, kooperatsiyani rivojlanishi yuz berdi (iste`mol ishlab chiqarish kredit kooperatsiyalari), umumiy boshlang`ich ta`lim esa, qonun darajasiga ko`tarildi. Hukumat sotsializmi nazariyasining umumlashtirish maqsadi esa, sinfiy tinchlik va iqtisodiyotning samarali rivojlanishi ilgari surilgan. Shunga o`xshash g`oyalar, ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarida Germaniyada rivojlantirilgan ijtimoiy bozor xo`jaligi kontseptsiyasida ham mujassamlashgan edi. Amalda esa, hukumat sotsializmi g`oyalarini 1872 yilda yaratilgan yangi ijtimoiy maktab namoyandalari tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy siyosat ittifoqi ishlab chiqgan. Mazkur ittifoq doirasida, olimlar, siyosatchilar va tadbirkorlar birlashgan holda, barcha ijtimoiy keskinliklar faqatgina reformalar yo`li bilan hal etilishi lozimligi g`oyasi ilgari surilgan. Shu bilan birgalikda, ittifoq, mo‘ayyan masalalarni ko`tarar, va ularni tadqiq etish uchun grantlar ajratgan holda, tadqiqotchilar natijalarini hukumat organlari va ommaviy axborot vositalariga etkazgan.

Tarixiy maktab kontseptsiyalaridan farqli o`laroq, keyingi bosqich, eng Yangi tarixiy maktab namoyandalari, asosan XX asrning 60-yillaridan keyin rivojlanib, asosiy e`tiborni abstraktsiyalarga qaratgan holda, uni tarixiy yondashuv bilan bog`lashga harakat qilishgan. Ularning nazariyalari, o`sha davrlarda keng rivojlanib borayotgan sotsiologiya bilan bog`liq edi. Bundan tashqari, o`sha davrlarda mashhur bo`lgan faylasuflar V. Vindel`bandt, G. Richard va V.Dil`tey ta`siri ostida ular, iqtisodiyot fanini tushunuvchilar sinfiga kiritishgan (masalan Dil`tey yozganidek, - biz tabiat fenomenlarini tushuntiramiz va madaniyat

fenomenlarini tushunamiz). Iqtisodiyot faniga nisbatan bunday yondashuv nazariy va empirik nazariyalariga qarama-qarshi nazariya sifatida qabul qilingan.

Mazkur maktabning eng yorqin namoyandasi Verner Zombart edi (1863-1941), uning eng yorqin fundamental asari «Zamonaviy kapitalizm» deb nomlanadi. Mazkur asar doirasida, muallif iqtisodiyot rivojlanishini tadqiq etgan holda kapitalizmdan oldingi bosqichni ajratib, uni erta rivojlangan va kechki kapitalizm bosqichlariga bo`lgan, va bu jarayon boshlanishi, birinchi jahon urushi yillariga to`g`ri kelishini ta`kidlagan. Bundan tashqari, Zombart, keyingi bosqich prognozlarini ham «Kapitalizm kelajagi» (1932) nomli asarida keltirib o`tgan. Mazkur bosqichni muallif "tashkiliy kapitalizm" deb atab, uning asosiy xususiyatlari sifatida, iqtisodiyotning hukumat tomonidan nazorat etilishi va xususiy, jamoatchilik (korporativ) va hukumat mulklarini ajratgan.

Zombart, iqtisodiy tizim nazariy tushunchasini ishlab chiqarilishiga kiritib, bu tushuncha ostida u hayot xilma - xilligini tarixan ta`minlab beruvchi mantiqiy yagonalikka yo`naltirilgan xo`jalik tizimi tushunchasi haqida fikr yuritishgan. 1925 yilda, u "xo`jalik hayoti" tartibi nomli asarini nashr etib, unda iqtisodiy tizim tavsifini berib o`tgan, va bu tizimni uch qismga bo`lgan: ya`ni ruhiy (iqtisodiy, ruh, an`analar) shakl (iqtisodiy tashkiliylik) va boshqaruv, uslubiy (ishlab - chiqarish va muomila davomida qo`llaniladigan texnika) va har - bir qismni mazmuniy jihatdan ochib bergan. Zombartning yozishicha, - har - bir tizimni aniq tarixiy material bilan to`yintirgan holda, istalgan tarixiy va hududiy belgilangan iqtisodiyot qiyosiy tahlilini yaratish mumkin deb ta`kidlagan.

Eng yangi tarix maktabining yorqin namoyandalaridan yana biri mashhur sotsiolog Maks Veber bo`ldi (1864-1920). Zombartdan farqli o`laroq, Veberning mashhurligi XX asr davomida o`sib bordi. Uning asarlari orasida «Kapitalizm ruhi va protestantlik etikasi» (1905), «Jahon dinlari xo`jalik etikasi» (1916-1919) va «Iqtisodiyot va jamiyat» (1920) asarlarini tilga olish mumkin.

Veber ijtimoiy faoliyatning to`rt turini ajratgan: ya`ni butun ratsional, qadriy ratsional, samarali va an`anaviy. Bular orasida, mumtoz siyosiy iqtisod va marjinalizm ruhida ratsional faqatgina birinchi turdagi faoliyatlar bo`lib, qadriy ratsional harakatlar inson mo'ayyan ma`naviy qadriyatlarga ega bo`lganligida amalga oshirilishi, affektiv (hissiy) va an`anaviy harakatlar esa mantiq bilan bog`liq emasligi, ya`ni noratsional ekanligi ta`kidlangan. Veber tomonidan ijtimoiy munosabatlar tadqiqoti uchun qo`llanilgan yana bir toifa ideal tur tushunchasidir. Bir tomondan, bu ijtimoiy munosabatlar tizimi abstrakt nazariy modeli bo`lib, boshqa tomondan ideal tur tarixiy tavsifga ham egadir.

Xuddi Zombart kabi, Veber ham kapitalizmni tadqiq etib, uning fikricha, kapitalizm daromad olish istagiga asoslangan xo`jalik faoliyatidir. Shu bilan birgalikda, Veber fikricha, kapitalizm aniq tarixiy tavsifga ham ega. Sof iqtisodiy

aspektda, - deb yozgan edi u, - madaniyatning tarixiy asosi butunjahon muammosidir. Kapitalistik faoliyat emas, turli mamlakatlarda, va turli davrlarda o`zgariuvchan formadir, kapitalizm o`z turi asosida ham avantyuristik, ham savdo, ham urushga yo`naltirilgan, ham siyosiy, ham boshqaruv va daromad olish istagi bilan bog`lanishi mumkin. Bizni esa faqatgina burjua sanoat kapitalizmi yuzaga kelishi qiziqtiradi.

Veberning fikricha, oxirgi holat, to`liq ravishda ratsionaldir, unda xo`jalik ratsional yuritilishi, ratsional hukumat boshqaruvi, ratsional huquq, madaniyat, din va fan birlashgan. Shu bilan birgalikda, Veber fikricha mazkur ideal tur, aniq vaqtda, aniq joyda shakllangan, ya`ni XVI-XVII asrlar davomida Shimoli - G`arbiy Evropada. Mazkur tur ruhi paydo bo`lishi asosiy omillaridan biri, protestantlik dini bo`lib, ayniqsa uning Kal`vinistik varianti kapitalizm rivojlanishiga katta hissa qo`shgan. Protestantizm birinchidan, shaxs mustaqilligi uchun, uning to`g`ridan-to`g`ri cherkov ierarxiyasidan qat`iy nazar xudo bilan muloqotga kirishish huquqini, ikkinchidan esa, rohiblikdan voz kechgan ravishda faol dunyoviy faoliyat, uchinchidan esa, boylikni sarflash emas, uni investitsiya etishni ko`zda tutuvchi boy shaxsning sodda hayoti hisobiga boylik orttirish tarafdori bo`lgan. Veberning fikricha mazkur diniy etika, ishbilarmonlik sohasiga transformatsiya etilib, buning natijasida, Evropa tadbirkorlari mehnatkash, rostgo`y va asketizm tarafdorlari sifatida shakllanishgan.

Birinchi navbatda fuqarolar erkinligiga asoslangan ratsional - siyosiy tizim uchun, O`rta Asr Evropa shaharlari boshqarish tizimi asos bo`lgan. Ratsional boshqarish Veberda byurokratiya nomini olgan (mazkur so`zning ijobiy ma`nosida) va shaxs siyosiy va iqtisodiy erkinliklarini himoya etuvchi tashkilot va qonunlar tizimini yaratgan. Nihoyat, ratsional fan, o`z tadqiqotlarining amaliyotga tadbiq etish maqsadini o`z oldiga qo`ygan holda, texnikani yaratilishi, hamda Evropa sanoat asosini shakllantirishni maqsad qilib olgan. Veberning zamonaviy kapitalizmni shakllanishi haqidagi mazkur nazariyasi, hanuz qiziqish va munozaralarni keltirib chiqarmoqda.

Eng yangi tarixiy maktab namoyandasi bo`lmish Artur Shpitxoff (1873-1957), Germaniya iqtisodiy kon`yunkturasining yirik namoyandalaridan biri edi. Shu bilan birgalikda, umumiy ravishda, ko`pchilik institutsionalizm namoyandalari uchun xos bo`lgan iqtisodiyotning doimiy o`zgaruvchanligi haqidagi nazariyani ilgari surgan. Bundan tashqari, uning tomonidan, nafaqat har - bir milliy iqtisodiyotni, balki uning rivojlanishining har - bir bosqichini ham alohida iqtisodiy nazariya tomonidan tadqiq etish lozimligi haqidagi g`oyalar ilgari surilgan.

Nazorat uchun savollar:

1. F.List mumtoz siyosiy iqtisodni nima sababdan tanqid qilgan?
2. F.List millat ishlab chiqarish kuchi tushunchasiga nimani kiritadi?
3. F.Listning fritrederlik va protektsionizm kontseptsiyalariga nisbatan munosabati qanday?
4. F.List, V.Rosher, B.Xil`debrand va K.Byuxer iqtisodiyot rivojlanishi sxemalarini har - bir sxema davrlash omillari nuqtai – nazaridan taqqoslang.
5. Eski tarixiy maktab namoyandalarining iqtisodiy qonuniyatlar haqida fikri qanday?
6. Abstraktsiya uslubiga nisbatan eski, Yangi va eng Yangi tarixiy maktab munosabati qanday?
7. G.Shmoller fikricha, iqtisodiyotning jamoatchilik munosabatlari tizimidagi o`rni qanday?
8. Davlat sotsializmi kontseptsiyasi nimadan iborat va nima sababdan u uchinchi yo`l sifatida tarafdorlar tomonidan talqin etilgan?
9. V.Zombart nazariyasida iqtisodiyot rivojlanishi bosqichlari qanday?
10. V.Zombart iqtisodiy tizimi tuzilishi qanday?
11. M.Veber nazariyasida ideal xo`jalik turi qanday?
12. M.Veber fikricha, Evropa sanoat kapitalizmi shakllanishiga protestant etikasining roli qanday?

Mavzu bo`yicha adabiyotlar ro`yxati:

1. Бейтон А., Долло К., Дре А.М., Казорла А. 25 ключевых книг по экономике. Челябинск, 1999.
2. Веблен Т. Теория праздного класса. М., 1984.
3. Всемирная история экономической мысли. Т. 2-4. М., 1988-1990.
4. Зомбарт В. Буржуа. М., 1994.
5. Кондратьев Н.Д. Проблемы экономической динамики. М., 1989.
6. Селигмен Б. Основные течения современной экономической мысли. М., 1968.
7. Туган - Барановский М.И. периодические промышленные кризисы. М., 1997.
8. Хансен А. Экономические циклы и национальний доход // Классика кейнсианства: В 2 т. М., 1997.
9. Шумпетер Й.А. История экономического анализа: В 3 т. СПб., 2001.

X-BOB. MARJINALIZM TA’LIMOTI

10.1. Iqtisodiyot fanida marjinalistik inqilob

Davr tavsifi. Marjinalistik inqilob atamasi iqtisodiy ta`limotlar tarixida noaniq tarzda talqin etiladi. Ko`pchilik bu atamani XIX asr etmishinchi yillari boshida marjinalistik asar nomi ostida mashhurlikka ega bo`lgan Avstriyalik olim K.Menger, ingliz olimi U.S. Jevenson va frantsuz L. Val`ras tomonidan nashr etilgan maqolalar bilan bog`lashadi. Biz esa marjinalistik inqilob tushunchasi ostida XIX asr etmishinchi yillari boshidan 1902 yilda Kembridj (Angliya) universitetida ilk marotaba Yangi iqtisodiyot nazariyasi o`quv kursi o`qitilgan davrgacha bo`lgan Yangi marjinalistik nazariya shakllanishining butun davrini olamiz.

Mumtoz siyosiy iqtisodni marjinalizm nazariyasiga almashinuvi XIX asrning etmishinchi yillarida yuz berib, nafaqat mumtoz siyosiy iqtisod salohiyatni tugashi, balki alohida tashqi sabablarga ham bog`liq. Mazkur sabablardan biri, o`sha davrda yuz berayotgan iqtisodiy munosabatlar o`zgarishiga borib taqaladi. Erkin raqobatchilikni rivojlanishi, XIX asr 60- yillariga kelib iqtisodiy o`sish o`zining so`nggi nuqtasiga etdi, ammo 70-80-yillar davomida, iqtisodiy siklda pasayish davri boshlanib, oqibatda jahon iqtisodiyotini uzoq muddat davomida depressiyaga tushib qolishi bilan tarixda qoldi. 1890-yillarda depressiyadan chiqish, ilk monopoliyalar yuzaga kelishi bilan bog`liq bo`lsada, ammo monopolistik raqobatchilik Yangi tizimini nazariy tushunish davri kechroq yuz berib XIX asrning oxirlarida raqobatchilikning kuchayishi kuzatilar edi.

Istalgan krizis, ilgari e`tiborga olinmagan qadriyatlar va Yangi g`oyalarga nisbatan alohida e`tiborni taqozo etadi. Aynan mana Shunday g`oyalar qatoriga qiymatning shakllanishi marjinalistik tahlili o`rin oldi. Yangi nazariya, tadbirkorlik talablariga javob berar edi, Chunki  endi mumtoz siyosiy iqtisodning iqtisodiy hodisalar nima? – kabi savollarga marjinalistlar bu hodisalar qanday o`zaro aloqaga kirisha oladi, va buning natijasida qanday qilib ular yanada samarali tarzda aloqaga kira olishadi degan savollar yuzaga keldi.

O`zaro ta`sir haqidagi tezis, iqtisodiy o`zaro mutanosibligini ham mikro-, ham makro darajalarda ko`tardi (firma va xalq xo`jaligi).

Ayniqsa mutanosib tizim tushunchasi formal jixatdan umumiy bo`lib, ko`plab o`zaro bog`liq elementlar mo‘ayyan jamlanmasini ko`zda tutar edi. Tizimli yondashuv, tabiiy fanlarning mo‘ayyan darajasidan olindi, Shu vaqtning o`zida, fizikada N`yuton mumtoz mexanik tushunchalari ham Yangi nazariyalarga o`rin almashib berayotgan edi. Masalan 1874 yilda Dj. Maksvell elektromagnit maydoni nazariyasi ustidan ishni boshladi. XIX asrning 70-yillariga kelib, molekulyar fizika

ham rivojlana boshladi, va uning tadqiqot markazida jismoniy tanalarni yuzaga keltiruvchi zarralar orasidagi o`zaro ta`siri yotadi va u fizikadan tadqiqotlarning asosiy mavzusiga aylandi. Natijada, energiya aylanish tahlili orqali, tanalar o`zaro ta`siri tizimini o`rganish termodinamik uslubi rivojlanishi boshlandi. Buning natijasida yuzaga kelgan energiyani saqlanib qolish nazariyasi, energiya boshlang`ich sababi sifatida Flagiston nazariyasi o`rnini egalladi. Kimyoda ham, tizimli yondashuv D.Mendeleev tomonidan 1869-1871 yillar davomida elementlar davriy tizimi yaratilishi bilan farqlandi. Biologiyada, alohida organizmlar o`rganilishi tizimi, ularni turlar va ko`rinishlarga klassifikatsiya etish nazariyasi bilan almashib, endilikda biosfera o`zaro bog`liq o`simlik va hayvonlar organizmlarining o`zaro ta`siri yagona tizimi sifatida o`rganila boshlandi.

Falsafada tizimli yondashuv va hodisalar orasida funktsional aloqalar tadqiqoti bundan ham oldinroq pozitivizm nazariyasi asosida qo`llanila boshlanib, bunday holat XIX asrning birinchi yarmida O. Kont, G. Spenser va D.S. Mill` tomonidan amalga oshirilgan. Kont fikricha, hodisalar va ular orasidagi sabab natijaviy bog`liqliklar mohiyati haqidagi masalalar orasida metafizik masala mavjud bo`lgan. Bizning fikrimizcha, sabablarni qidirish mumkin emas va ma`nosizdir, deb yozgan edi u. uning fikricha, fanning vazifasi, hodisalar orasidagi bog`liqliklarni aniqlash bo`lib, ular haqidagi bilimlar aniq va o`lchovli bo`lishi shart.

Iqtisodiyotda ham, xuddi Shunday yondashuv yopiq mutanosib tizim asosida amalga oshirilib, uning barcha qismlari o`zaro bog`liq bo`lishi va sabab va oqibatlarga ega bo`lmasligi, birlamchi va ikkilamchi bilimlarning mavjud emasligi, haqida fikr yuritilgan. Buning natijasida esa iqtisodiyot fanida marjinalistik inqilobi shakllana boshladi.

10.2. Marjinalistika g`oyasining davriyligi

Marjinalistik inqilob jarayonida e`tirof etilishicha, u kelib chiqgan davraga ko`plab g`oyalar oldin ham mavjud bo`lib, bu g`oyalar mumtoz siyosiy iqtisod hukmronligi davridayoq marjinalistik g`oyalarni ilgari surgan. Ammo ular jamiyat tomonidan qabul qilinmay unutilgan. Marjinalistik inqilob asoschilari, mazkur nazariyalarni boshqatdan ilgari surishga harakat qilishdi, zero bu kabi ilmiy nazariyalarning barchasi, xuddi Shunday rivojlanish bosqichlaridan oldin ham o`tgan. Masalan mumtoz siyosiy iqtisod mohiyatan Kene va Smit nazariyalaridan kelib chiqib rivojlangan, Shu davrning o`zidayoq Petti, Buagil`ber va boshqa qator iqtisodchilar nazariyalari merkantilizm hukmronligi davrida tan olinmagan. Shu sababli, ilgarigi davr marjinistlari haqida quyida to`xtalib o`tamiz. Marjinalistik

inqilobni ikki bosqichga bo`lish mumkin bo`lib, ular predmeti va uslubi bilan bir - biridan farq qiladi.

Marjinalistik inqilobning birinchi davri XIX asrning 70-80-yillarning o`rtasiga to`g`ri keladi. Albatta, Shuni e`tiborga olish kerakki, birinchi bosqich g`oyalari tarafdorlari bo`lgan iqtisodchilar, keyingi davrlarda ham yashab faoliyat yuritishgan. yuqorida aytib o`tilganidek, birinchi bosqichning asosiy nazariyachilari Avstriyalik olim K.Menger, ingliz olimi U.S. Jevens va frantsuz olimi L. Val`ras kirgan. Ulardan hayoti davrida faqatgina Menger mashhurlikka erishib, uning shogirdlari va tarafdorlari Avstriya maktabi tushunchasi ostida birlashishgan.

Birinchi bosqich marjinalistlari, boshlang`ich toifa sifatida tannarx g`oyasini saqlab qolishgan bo`lsada, tannarx nazariyasining o`zini o`zgartirishdi. Endilikda, tannarx, mumtoz siyosiy iqtisodda takidlangan, tovar ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlar bilan emas, tovarning maksimal foydalilik darajasi bilan belgilangan. Demakki, tadqiqot predmeti o`zgargan.

Agar, iqtisodning boshlang`ich asosiy sohasi sifatida ishlab chiqarish (taklif) qabul qilingan bo`lsa, keyinchalik iste`molchilik sohasi (talab) qabul qilingan. Foydalilik sub`ektiv tushuncha bo`lganligi sababli, Yangi nazariy yo`nalish boshlang`ich davrlarda sub`ektiv yo`nalish deb ataldi.

Tannarx asosida predmetning foydalilik darajasi yotadi degan g`oya o`z-o`zidan Yangi emas edi, u vaqt - vaqti bilan XVIII asrdan boshlab iqtisodiy fikrda keyingi davrlarda ham yuzaga kelgan edi. Tannarxga kam uchrash omili ham ta`sir etishi haqidagi g`oya ham tilga olingan, ammo bu ikki g`oyaning maksimal foydalilik tushunchasiga birlashishi Yangicha qarashni yaratdi. Maksimal (marjinal) kattaliklar tadqiqoti, Yangicha nazariy yo`nalishning farqli o`ziga xosligiga aylanib, uning nomini asosi sifatida qabul qilindi. Maksimal kattalik, hodisaning mohiyatini emas, mo‘ayyan hodisa kattaligining boshqa kattalik o`zgarishi sababli o`zgarishini bildiradi. Boshqacha qilib aytganda, marjinalizm iqtisodiy jarayonlarni tadqiq etgan.

Iqtisodiy o`zgarishlar (jarayonlar) marjinalistlar tomonidan matematik ravishda modellashtirilib, differentsial tenglamalar (muvofiq grafiklar) asosida o`rganilgan. Differentsial tenglama, mustaqil o`zgaruvchan kattalikni, uning funktsiyasini (ya`ni bog`liq o`zgaruvchanlikni), hamda ishlab chiqarish funktsiyasini (uning o`zgarish tezligini) o`zaro bog`lagan. Bunday modellashtirish, iqtisodiy hodisalar optimal kattaligini topish uchun qo`llanilgan. «Optimum» bu funktsiyaning, uning oqibati nol`ga teng bo`lgan ekstremal mazmunini bildiradi (maksimal yoki minimal).

Marjinalistik uslub matematik tilda shakllantirilishi bilan, - deb yozgan edi amerikalik iqtisodiy fikr tarixchisi B. Seligmen, - xo`jalik faoliyati mazmunini

maksimizatsiyasi muammosini tavsiflash imkoniyati yuzaga kelib, foydalalik, narx, daromad, ishlab chiqarish hajmlari, daromad va xarajatlar minimizatsiyasi uchun muhim bo`lib qoldi.

Modellashtirish istalgan boshqa nazariyadan ko`proq ravishda real hodisa yoki jarayon soddalashtirilishini ko`zda tutadi. Istalgan model` – «boshqa teng sharoitlarda» tushunchasini tarkibiga oladi. Iqtisodiyotning matematik modellashtirilishi bilan Shug`ullangan holda, marjinalistlar soddalashtirishni qo`llab, bunda sof iqtisodiyotnigina tadqiq etishdi, ya`ni ijtimoiy hodisalardan tashqari bo`lgan iqtisodiyotni. Mazkur atama L. Val`ras qalamiga mansub bo`lgan « Sof siyosiy iqtisod elementlari» (1874) asarida ham tilga olingan edi. Keyinchalik mazkur yondashuv siyosiy iqtisod atamasining iqtisodiyot (ekonomika, ekonomiks (ingliz)) atamasiga almashtirilishiga ta`sir etdi, Chunki mumtoz siyosiy iqtisodiyotga bag`ishlangan mavzu doirasida aytib o`tilganidek, siyosiy so`zi Yunoncha «polis» (jamiyat, davlat) atamasidan olinib, siyosiy iqtisodiyot atamasi jamoatchilik (ijtimoiy) iqtisodiyoti ma`nosini belgilaydi. Xususan, U.S. Djevons o`z kitobini «Siyosiy iqtisod nazariyasi» (1871) deb atagan bo`lsa, keyingi asarini «Iqtisodiyot printsiplari» deb atadi. Nazariyaning Yangicha nomlanishining oxirgi varianti marjinalistik inqilobning ikkinchi bosqichida qabul qilindi. Marjinalistik inqilobning ikkinchi bosqichi XIX asrning 80-90-yillari o`rtasiga to`g`ri keladi. Mazkur nazariyaning asoschilari ingliz olimi A. Marshall, amerikalik olim D.B. Klark, va italiyalik olim V. Paretolar edi. Ular tannarx, hamda boshlang`ich toifa printsipidan voz kechib, iqtisodiy aloqalarning natijaviy talqinini funktsional talqin bilan almashtirishdi. Natijada, ular tannarxning ikki nazariyasini (ishlab chiqarish xarajatlari, hamda foydalilik darajasidan kelib chiqgan holda belgilanishi) birlashtirib, bir vaqtning o`zida tannarx tushunchasidan voz kechib, faqatgina narx tushunchasini qoldirishdi, hamda narx deb talab va taklifga bog`liq tenglik darajasi deb belgilab berishdi. «Biz narx predmetning foydaliligi, yoki predmetning ishlab chiqarish xarajatlari bilan boshqarilishi haqidagi munozaralarga teng ravishda munosabat bildirishimiz mumkin edi, ammo bir varaq qog`ozni bir vaqtning o`zida, qaychining har - ikkala kesuvchi qismi kesishini unutib qoldirayapmiz» - deb yozgan edi A. Marshall.

«Endilikda aytish mumkinki, - deb ta`kidlagan edi, ikkinchi bosqich namoyandasi V. Pareto, - istalgan iqtisodchi tannarx sababini qidirar ekan, tenglik sintetik hodisasini to`liq tushunmasligini aniqlaydi».

Endilikda, tizimni belgilovchi printsip, tannarx tushunchasiga ega daraxt ko`rinishidagi sabab - natijaviy aloqalar ketma - ketlikda birlashtirilgan iqtisodiy hodisani tadqiq etuvchi boshlang`ich toifa printsipi emas, boshiga ham, oxiriga ham ega bo`lmagan o`zaro bog`liq tizim sifatidagi iqtisodiyot tushunchasini ilgari suruvchi tenglik printsipi faoliyat yurita boshladi. Xalq xo`jaligi darajasida

iqtisodiy tenglikning umumiy, hamda bir tovarning bozor darajasidagi iqtisodiy tengligini tadqiq etuvchi xususiy iqtisodiy tengliklar ajratiladi. Albatta, tenglik tushunchasi iqtisodiyot fanida Yangi emas edi. Xususan, mumtoz siyosiy iqtisodda talab va tannarx tadqiqotida talab va taklif tushunchasi mavjud edi, ammo bu erda u ikkilamchi bo`ldi, Chunki narx tushunchasining tannarx tushunchasiga nisbatan farqlari namoyon bo`ldi.

Agarda tovar, bozorga haqiqiy talabni qondirish uchun etarli miqdorda olib kelinadigan bo`lsa, deb yozgan edi Smit, bozor narxi, uning tabiiy narxi bilan teng bo`ladi. Marjinalistik nazariyasida esa, tenglik tushunchasi, asosiy tushunchaga aylandi.

Marjinalistik inqilobning ikkinchi bosqichida, tadqiqot predmeti ham o`zgardi. Sabab – natijaviy yondashuvidan voz kechish, iqtisodiyotning boshlang`ich va asosiy sohasidan ham voz kechish bilan barobar edi. Endilikda, tadqiqot predmeti sifatida iqtisodiyotni birinchi o`ringa ko`tarish edi. Ishlab chiqarish sohasi endilikda, tadqiqot predmetiga aylanganligi sababli (iste`mol sohasi bilan bir qatorda), ikkinchi bosqich marjinalistlari neomumtozlar nomini olishdi. Bunda ular, marjinalistik g`oyalarga sodiq qolishib, maksimal kattaliklarni nafaqat talab muammolariga nisbatan, balki taklif muammolariga nisbatan ham qo`llasha boshlashdi.

10.3. Marjinalistik inqilob asoschilari

XIX asrning 70-yillarida, Menger, Djevons, va Val`ras asarlari nashr etilganida, ular iqtisodiyot fanidagi yangi so`z bo`lib tuyuldi. Ammo 1878 yilda, angliyalik professor Adamson hech kimga ma`lum bo`lmagan nemis iqtisodchisi Gossenning 1854 yilda nashr etilgan kitobini topib, mazkur kitobda iqtisodiy munosabatlarning maksimal tahlili printsiplari haqida so`z yuritilganligini ta`kidlagan edi. Gossendan boshqa faoliyat marjinalist iqtisodchilar asarlari ham aniqlandi, ularga quydagilarni kiritish mumkin: Gossen, Dyupyui, Kurno va Tyunen.

German Genrix Gossen (1810-1858), professional iqtisodchi olim emas edi. U mansabdor shaxs bo`lib, keyinchalik o`z biznesini yaratishga ham harakat qilgan, va iqtisodiyot fani muammolari bilan Shug`ullana boshlagan. 1854 yilda, uning «Inson harakatlari qoidalari kelib chiqgan jamoatchilik aloqalari qonuniyati rivojlanishi» deb nomlangan kitobi nashr ettirgan.

U inson faoliyati umumiy nazariyasini maksimal foydalalik printsipi yordamida tushuntirishga harakat qildi. Uning kitobidan kelib chiqgan ikki holat, hozirgi kunda Gossenning birinchi va ikkinchi qonuni deb ataladi.

Birinchisi, maksimal foydalilik tushunchasini beradi (maksimal foydalilik mazkur predmet mavjudligi oshishi sayin kamayib boradi), ikkinchi qonuniyat iste`mol optimal tuzilishiga bag`ishlangan (talab): talablar qondirilishi maksimal darajasi iste`mol qilinayotgan predmetlar maksimal foydalilik darajasidan kelib chiqadi. Ammo Gossen nazariyasi birmuncha tushunarsiz edi. Masalan, I.Vernadskiy qalamiga mansub «Iqtisodiy ta`lim» tarixi tadqiqotlarida Gossen tilga olingan, ammo u Rikardo maktabi namoyandasi sifatida talqin etilgan. Gossendan 10 yil keyin, maksimal foydalilik nazariyasini Jyul` Dyupyui (1804-1866) ham ilgari surgan. U mashhur muhandis bo`lib, Parij muhandislik xizmati bosh direktori vazifasida faoliyat yuritgan. 1844 yilda, Dyupyui «Yo`l tashkiloti arxivlari» jurnalida «Fuqarolik binolari foydalalik darajasi haqida» maqolasini nashr etib, o`z davrida mazkur maqola e`tiborsiz qoldi. Marjinalizmning yana bir erta namoyandalaridan biri mashhur frantsuz matematiki Ogyusten Kurnodir (1801-1876). U 1831 yilda «Boylik nazariyasi matematik printsiplari tadqiqoti» kitobini nashr etib, bu kitob etarli darajada baholanmagan, chunki matematiklar uchun unda hech qanaqa yangilik bo`lmay, iqtisodchilar uchun bu mutlaqo noodatiy asar edi. Ma`lumki marjinalistik inqilob asoschilari Kurno kitobi bilan tanish bo`lishgan, ammo uni Yangi iqtisodiy nazariya bilan bog`lashmagan, chunki boshlang`ich davrlarda eng katta e`tibor, tannarxning sub`ektiv talqini sifatida foydalilik g`oyasi tortar edi. Barcha iqtisodiy munosabatlarga nisbatan universal yondashuv sifatidagi maksimal tahlil, marjinalistik inqilobning ikkinchi bosqichida birinchi o`ringa ko`tarildi. Kurno asarida esa, narx, talab, va taklif monopoliya, duopoliya, oligopoliya va mutlaq raqobatchilik holatlari uchun funktsional aloqalarini ko`rib chiqgan. Shu bilan birgalikda, u ilk marotaba iqtisodiy tenglik tushunchasini ham keltirgan: «Xo`jalik tizimi haqiqatda barcha qismlari o`zaro bog`liq va bir - biriga ta`sir etuvchi butunlikdir… demakki, xo`jalik tizimining u yoki bu alohida sohasiga tegishli masalalarining kompleks ravishda hal etilishi uchun, umumiy tarzda tizimning o`zini e`tibordan qochirmaslik lozim. Shunday qilib, Kurno marjinalistik inqilob ikkinchi bosqichi asoschisidir.

Kechroq davrlarda ilmiy aylanmaga, marjinalizm g`oyasining erta namoyandalaridan biri I.G.Tyunenning «Izolyatsiya holatidagi davlat» (1826) kitobi kiritilgan, Chunki uning maksimal tahlili, ishlab chiqarish sohasi bilan bog`liq bo`lib, bu holatga marjinalistik inqilobning faqatgina ikkinchi bosqichida e`tibor qaratishgan edi. Nemis pomeshchigi Iogann Genrix Tyunen (1783-1850) bir vaqtning o`zida ajoyib amaliyotchi va nazariyotchi edi. 10 yillar davomida amalga oshirilgan kuzatuvlar va o`z pomest`esidagi xarajatlarni tadqiq etish asosida u maksimal tahlil qonuniyatlarini aniqladi. Uning kitobi mashhur bo`lgan bo`lsada, faqatgina qishloq – xo`jaligini yuritish bo`yicha qo`llanma sifatida qo`llanilgan. Gossendan farqli o`laroq, Tyunen mazkur muammoni chuqur

falsafiylik bilan qabul qilib, tadqiqotlarini davom ettirdi va 1850 yilda, o`z kitobining ikkinchi qismini ham nashr etdi. To`la holatda esa kitob uning o`limidan so`ng qolgan qo`lyozmalar asosida to`liq nashr etildi. Shu bilan birgalikda, Tyunen ishlab - chiqarish optimal joylashtirilishi nazariyasi asoschisi ham bo`lib, bu nazariya XX asrning boshiga kelibgina tadqiq etila boshlandi.

10.4. Marjinalistik inqilob natijalari

Shunday qilib XIX-XX asr oralig`ida, iqtisodiyot fanida yangi nazariy yo`nalish paydo bo`lib, bu yo`nalish marjinalistik inqilob ikkinchi bosqichi namoyandalari A. Marshall, D.B. Klark va V.Pareto tadqiqotlariga asoslangan (Avstriya maktabi marjinalistik inqilobi birinchi bosqichida ilg`orlik qilgan bo`lsada, keyinchalik ikkinchi darajaga tushib qoldi, ammo yo`qolmay Yangi avstriya maktabi ko`rinishida tadqiqotlarini davom ettirdi).

Marjinalistlar tadqiqotlari predmeti iqtisodiyot bo`lib, bunda u teng, cheklangan darajadagi mehnat va moddiy resurslarning tizimi sifatida qabul qilingan (mablag` neytral o`zaro bog`lovchi element sifatida talqin etilgan).

Tadqiqotning asosiy mazmuniga xo`jalik mexanizm funktsiyasining firma daromadini maksimizatsiya etish maqsadida resurslar optimal qo`llanilishini ta`minlovchi holatini aniqlashga bag`ishlangan tadqiqotlar bo`lib (makroiqtisodiyot), bu holat jamiyat ravnaqiga ta`sirini aniqlashga yordam berar edi. Iqtisodiy jarayonlar tahlili, faqatgina miqdoriy darajada o`tkazilgan, Shu sababli iqtisodiyotning sifat (ijtimoiy tomonlari) tadqiqot doirasidan tashqariga chiqarilgan edi. Iqtisodiyotning o`zi marjinalistik yo`nalish paydo bo`lishi davrida mutlaq raqobatchilik bozori sifatida ko`rib chiqilgan, ya`ni bozor bir - xil tovarlar, sotuvchilar va xaridorlar maydoni bo`lib, unda ratsional qonuniyatlarga asoslangan holda, to`liq iqtisodiy axborotga ega, hamda erkin harakatlanish qobiliyatiga ega shaxslargina faoliyat yuritishi mumkin deb hisoblangan.

XIX oxiri XX asr boshlaridagi marjinalistlar nazariyasining yana bir sharti, tenglikning iqtisodiy statika bilan bir doirada ko`rib chiqilishi bo`ldi. Dinamika esa, tenglikning vaqtinchalik buzilishi sifatida talqin etilib, bu jarayonda marjinalistik nazariyaning asosiy qonuniyatlari amal qilmaydi deb hisoblangan.
Iqtisodiyot fanida marjinalistik yo`nalishning keyingi rivojlanishi, mazkur cheklovlar doirasidan tashqariga chiquvchi nazariyalar yaratilishi bilan farqlanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Iqtisodiyot fanida marjinalistik inqilob nima?
2. Marjinalistik inqilob birinchi va ikkinchi bosqichlarida tadqiqot predmetlarining farqi nima?

3. Maksimal iqtisodiy tushunchalar nima bilan tavsiflanadi?
4. Marjinalistik inqilob birinchi va ikkinchi bosqichlarida qanday tizim yaratuvchi printsip qo`llanilgan?
5. Marjinalistik inqilob birinchi va ikkinchi bosqichi namoyandalari mumtoz siyosiy iqtisoddagi tannarx tushunchasiga yondashuvi qanday?
6. Iqtisodiy hodisalar orasida o`zaro aloqalarga sabab natijaviy va funktsional yondashuvlar orasidagi farq qanday va bu ularning tizimlashtirilishiga qanday ta`sir o`tkazadi?
7. Umumiy va xususiy iqtisodiy tenglik nima?
8. Neomumtoz atamasi marjinalistik inqilobning qaysi davriga mos? Sof iqtisodiyot tushunchasi nimani bildiradi?
9. “Siyosiy iqtisodiyot” deb nomlanishidadan nima sababdan bosh tortilgan?
10. Gossen, Dyupyui, Kurno va Tyunen o`z asarlarida qanday muammolarni ko`rib chiqishgan?
11. Mutlaq raqobatchilik shartlari qanday?

Mavzu bo`yicha adabiyotlar ro`yxati:

1. Блауг М. Экономическая мысль в ретроспективе. М., 1995.
2. Шумпетер Й.А. История экономического анализа. Т. 3. СПб., 2001.

XI-BOB. MARJINALIZM NEOKLASSIK IQTISODIY MAKTABLAR

11.1. Avstriya maktabining asosiy nazariy holatlari

Marjinalistik inqilobning uch asoschilaridan (Menger, Djevons, Val`ras) faqatgina Karl Menger (1840-1921) birinchi bosqichda mashhurlikka ega bo`ldi. Xususan, bu mashhurlik uning tomonidan o`z nazariyasi talqini davomida matematikaning qo`llanilmaganligida namoyon bo`ldi. Mengerning shogirdlari va izdoshlari Avstriya maktabini tashkil etishdi. Menger shogirdlari orasida yirik nazariyotchilardan Fridrix Vizer (1851-1926) va Evgeniy Byom – Baverk (1851-1914) nomlarini tilga olish mumkin. Ba`zi holatlarda mazkur maktab "Vena maktabi" deb ham tilga olinadi, Chunki ko`rsatilgan barcha iqtisodchilar Vena universiteti professorlari edi.

Predmet va uslub. Avstriya maktabi tadqiqotlari predmeti sifatida, iste`mol sohasi (talab) olingan. Bunda, asosiy yondashuv mikroiqtisodiy darajaga qaratilib, bu jarayon individual xo`jalik faoliyati darajasi sifatida qabul qilingan.

Uslub. Avstriya maktabi nazariyasida so`z avvalambor, izolyatsiya holatidagi inson xo`jalik faoliyati haqida yuritilib, bunda faqatgina inson narsalarga bo`lgan munosabati ko`rib chiqiladi, va Shu sababli mazkur uslub «Robinzona»da uslubi ham deb yuritiladi, zero Avstriyaliklar izolyatsiya holatidagi inson xo`jaligi misoli tariqasida yovvoyi oroldagi Robinzon xo`jaligini keltirishni xush ko`rishgan. Avstriyaliklar metodologiyasi yana bir xususiyati, alohida inson uchun iste`mol predmetlari foydaliligini baholashdagi sub`ektivizmdir. Avstriyaliklarning ta`kidlashicha, iqtisodiyot fani psixologiyaning to`la shakllanmagan sohasidir. Marjinalistik inqilob boshqa namoyandalaridan Avstriya maktabini ajratuvchi metodologiyaning uchinchi xususiyati, iqtisodiyotdagi vaqt omiliga e`tiboridir.

Tannarx. Menger predmet tushunchasi ostida insonga mo‘ayyan foydani ta`minlovchi narsani tushungan. Keyingi qismlarda predmetlar iqtisodiy cheklangan va erkin predmetlarga ajratilgan. Iqtisodiy predmetlar, tannarxga ega bo`lib, tannarx ularning maksimal darajadagi foydaliligi, ya`ni nafaqat foydalilik, balki mazkur predmetning miqdori (kam uchrashi) bilan belgilanadi. Bunda, foydalalik va miqdoriy darajalar sub`ektiv tushunchalar toifasiga kiritilgan. Foydalilik darajasi iste`molchining indvidual yoqtirishlari bilan belgilanadi, miqdoriy tushuncha esa, iste`mol hajmiga taqaladi. Buning misoli tariqasida Menger, Robinzonni keltirib, Robinzon ham boshlang`ich davrlarda dengiz to`lqini unga bir qop bug`doyni orolga olib kelib tashlaganida, birinchi qopni yuqori darajada baholaydi, Chunki bu qop uni ochlik o`limidan saqlab qoladi, ikkinchi qop esa kamroq darajada baholanadi, Chunki ikkinchi qop ikki kishiga

mo`ljallangan edi. Umuman olganda, Robinzon ehtiyojlari besh qop bilan qoplangan. Bunda, beshinchi qopga ehtiyoj qiyinchilik bilan kelib chiqdi (beshinchi qop bug`doyi qushlarga edirildi). Beshinchi qop foydalilik darajasi maksimal bo`ldi.

Avstriyaliklar asarlarida maksimal foydalilik darajasi illyustratsiyasi uchun keltirilgan sodda misol murakkab konstruktsiyalar bilan ham to`ldirilgan. Masalan K. Menger va E. Byom-Baverk asarlarida, iste`mol ehtiyojlarining biri emas, o`nlab turi keltirilgan indvidual baholash taqsimlanishi sxemasi uchraydi. Mazkur sxema quyidagi ko`rinishga ega (11.1.1-rasm).

I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X
10	9	8	7	6	5	4	3	2	1
9	8	7	6	5	4	3	2	1	0
8	7	6	5	4	3	2	1	0	
7	6	5	4	3	2	1	0		
6	5	4	3	2	1	0			
5	4	3	2	1	0				
4	3	2	1	0					
3	2	1	0						
2	1	0							
1	0								
0									

11.1.1-rasm

Mazkur rasmda rim raqamlari individning turli narsalarga ehtiyojini bildiradi – eng keraklisidan - keraksizigacha. Arab raqamlari mazkur narsaga bo`lgan ehtiyoj baholanishi pasayishini aks ettiradi.

Sxema, maksimal foydalilik darajasi belgilanishi ikki omilga bog`liqligi haqidagi xulosani keltirib chiqaradi: inson u yoki bu narsaga bo`lgan ehtiyoji intensivligi va zahira (kam uchrashlik) hajmi. K.Menger tomonidan ilgari surilib, keyinchalik boshqa Avstriyaliklar tomonidan maksimal foydalilikning zahira hajmiga bog`liqligi, Gossen birinchi birinchi qonuniyatiga muvofiq maksimal foydalalik pasayishi printsipiga teng edi. Ular tomonidan «Gossen ikkinchi qonuniyati yana bir bora ochilib, unga muvofiq, mo‘ayyan predmetga nisbatan maksimal foydalilik darajasi erishilgan narsalar to`plami optimalligi haqidagi nazariya yaratildi.

Bundan xulosa kelib chiqadiki, ba`zi predmetlar aniqlanishida tannarxning kazuistik holatlari ham yuzaga keladi, Chunki barcha narsalar ham, bevosita shaxsiy iste`mol uchun qo`llanilmay maksimal foydalilik darajasi bilan to`g`ridan - to`g`ri aloqada bo`laverishmaydi. Masalan, ommaviy ishlab - chiqarilgan tovarlar tannarxi XIX asr oxiri uchun tipik ko`rinishga ega edi. Eslatib o`tamizki, Robinzon

ehtiyojlari zanjiri ham, bug`doyning beshinchi qopida uziladi. Agarda fermer minglab qop bug`doy etishtirsa, qop maksimal foydalilik darajasini uning shaxsiy iste`mol darajasiga belgilash imkoniyati mavjud bo`lmaydi.

Tannarx belgilanish jarayonida maksimal foydalilikdan voz kechmaslik uchun avstriyaliklar mantiqiy zanjirni taklif etishdi, unga muvofiq ommaviy ishlab chiqarish tovarlari tannarxi, ishlab chiqaruvchi shaxsan o`zi uchun sotib olgan predmetlar iste`mol predmetlari foydalilik darajasi bilan belgilanib, mazkur sotib olishga mo`ljallangan mablag`larni u tovarlarni sotibgina egalik qila olar edi.

Shunga o`xshash sxema, avstriyaliklar tomonidan ishlab chiqarish xarajatlar baholanishi uchun ham qo`llanilgan.

Narx. Almashinayotgan tovarlar ishlab chiqarilish xarajatlari tengligiga asoslangan ekvivalentli almashinuvni ko`zda tutuvchi mumtoz siyosiy iqtisoddan farqli o`laroq, Menger nazariyasida almashinuv noekvivalentdir, Chunki almashtirayotgan har - bir shaxs, o`zi uchun foydasiz mahsulot evaziga foydali mahsulot oladi. Pul evaziga tovar sotib olinishida bozor narxi talab va taklif narxlari mutanosibligi asosida yuzaga keladi. Talab narxi, xaridor nuqtai - nazaridan mazkur tovar maksimal foydali darajasi bilan belgilansa, taklif narxi sotuvchi nuqtai - nazaridan xuddi Shu tovar maksimal foydaliligi bilan belgilanadi. Mazkur ikki narx orasida, odatda mo‘ayyan interval mavjudligi bois, oxirgi narx masalasini sotuvchi va xaridor savdo qilish ko`nikmasi hal qiladi. Qizig`i shundaki, Avstriya maktabi ning savdoga nisbatan e`tibori vaqt o`tishi bilan yuksak natijalarni berdi, zero vena universitetining sobiq talabalari bo`lmish Dj.Fon Neyman (1903-1957) va O.Morgenshtern (1902-1977) keyinchalik AQSHga ko`chib o`tib, XX asr o`rtalarida “o`yin” nazariyasini yaratishdi. Avstriya maktabi namoyandalari, asta sekinlik bilan real bozorga yaqinlaShuvchi holatlardagi narx shakllanishini ko`rib chiqishgan. Izolyatsiya sharoitiga almashinuvda, ya`ni bir tomonlama, va ikki tomonlama raqobatchilik sharoitlarida. Ikki tomonlama raqobatchilik sharoitlarida, bozor narxi, bir - biriga maksimal darajada yaqin bo`lgan xaridor va sotuvchi narxlariga tayangan holda belgilanadi.

11.2. Ishlab chiqarish vositalari tannarxi

Mumtoz siyosiy iqtisodda mahsulot tannarxi ishlab - chiqarish xarajatlari bilan belgilangan bo`lsa, Avstriya maktabi namoyondalari nazariyasida, xarajatlar tannarxi, ular tomonidan yaratilgan mahsulot tannarxi bilan belgilangan. Shunisi e`tiborga molikki, o`rta zanjirni yaratuvchi yarim fabrikatlar yaratilishida, bu zanjir iste`mol to`la mahsulotigacha davom etib, keyinchalik uning narxi butun zanjir baholanishi uchun, belgilangan. Menger fikricha, bevosita iste`mol predmeti,

birinchi tartib tovari deb atalib, ishlab chiqarish vositalari esa ikkinchi tartib tovarlari sirasiga kirgan. Masalan sut, birinchi tovari sifatida sotilishi mumkin, ammo undan suzma tayyorlanadigan bo`lsa, u ikkinchi tartib tovariga aylanadi. Agarda suzmadan pishloq qilinadigan bo`lsa, sut uchinchi tartib tovariga aylanadi.

Qo`shimcha murakkabliklar, ishlab chiqarish kompleksi yordamida tayyorlanish jarayonida yuzaga keladi. Shu sababli, ishlab chiqarishning har - bir vositasiga nisbatan iste`mol predmeti tannarxi ulushi qo`llaniladi. Qo`llanilish muammosini hal etishda, Avstriya maktabi namoyandalari yagona fikrga ega bo`lmagan.

Kapital va foiz. Mazkur muammo bo`yicha Avstriya maktabi namoyandalarida mo‘ayyan aniq fikr bo`lmagan. Biz Byom -Baverkning «Kutish nazariyasini» ko`rib chiqamiz. Mengerning turli tartibdagi tovarlar haqidagi nazariyasiga asoslanib, Byom – Baverk kapitalning quyidagicha talqinini beradi: «Kapital yarimtayyor mahsulotlar jamlanmasi bo`lib, bu mahsulotlar ishlab chiqarish uzoq siklining alohida bosqichlarida yaratiladi». Shunday qilib, u kapital talqinini berishda, boyliklar yig`ilishi yoki ishlab chiqarish vositalariga emas, vaqt omili, ishlab chiqarish sikli davomiyligiga asoslanadi.

Keyingi davrlarda Byom - Baverk hozirgi va kelajak mahsulotlari tushunchasini ham kiritgan. Uning fikricha hozirgi tovarlar, yuqoriroq baholanishi kerak. O`z mablag`larini investitsiyalarga kiritgan holda, Avstriyaliklar nazariyasiga ko`ra, inson faqatgina shaxsiy iste`mol nuqtai - nazaridan barcha hodisalarni baholagan bo`ladi va hozirda iste`mol qilinishi mumkin bo`lgan predmetlardan kelajakdagi tovarlarni iste`mol qilish uchun voz kechadi. Shundan so`ng, kutish davri boshlanib, bu davr ishlab chiqarish sikli davomiyligiga bog`liq bo`ladi va mazkur davr o`tganidan keyingina, tadbirkor o`z investitsiyalari hisobiga daromad olib, iste`mol predmetlarini xarid qilishi mumkin bo`ladi. Byom - Baverk talqinida, tadbirkor investitsiyalar ko`rinishi ostida kelajak tovarlarini sotib olib, ularni vaqt o`tishi bilan hozirda iste`mol qilishi mumkin bo`lgan tovarlarga aylantiradi, ammo bu tovarlar tannarxi hozirgi emas, kelajakdagi tovarlar narxi miqdorida to`langanligi bois, tadbirkor qo`shimcha daromadga ega bo`lib, bu daromad hozirda iste`mol qilinayotgan, hozirda va kelajakda ishlab chiqarilgan tovarlar orasidagi narx farqi hajmida belgilanadi. Aynan mana Shu daromad kapital keltirgan foiz bo`ladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, maksimal darajadagi foydalilik bilan belgilanuvchi tannarxning boshlang`ich toifa sifatidagi printsipiga, inson shaxsiy iste`moli printsipiga asoslangan holda, Avstriya maktabi namoyandalari, ba`zida iqtisodiy hodisalarni aniqlashda o`ziga xos konstruktsiyalardan foydalanishga majbur bo`lishgan. Nima bo`lganida ham, Avstriyaliklarning ba`zi g`oyalari, keyingi iqtisodiy nazariyalarda ham rivojlana bordi.

Nazorat uchun savollar:

1. Robinzonada uslubi nima, va bu uslub Avstriya maktabi tomonidan nima sababdan qo`llanilgan?
2. Maksimal darajadagi foydalilik nima va Avstriya maktabining unga nisbatan sub`ektiv yondashuvi nimaga asoslangan?
3. Menger nazariyasi bo`yicha iste`mol tovarlari optimal to`plami toifalanishi qanday?
4. Nima sababdan Avstriya maktabi nazariyasida narx kazuistik holatlari mavjud edi? Ularni ommaviy ishlab chiqarish tovarlari va ishlab chiqarish vositalari narxlari misollariga ajrating.
5. Birinchi, ikkinchi va keyingi tartibdagi ravnaqlar nima?
6. Tadbiq etish muammosi mazmuni nima?
7. Byom - Baverk kapital va iqtisodiyotda vaqt omillarini qanday bog`laydi?
8. Byom – Baverkning kutish nazariyasida kapital foizi qanday talqin etiladi?

Mavzu bo`yicha adabiyotlar ro`yxati:

1. Австрийская школа в политической экономии: К. Менгер, Е. Бём – Баверк, Ф. Визер. М., 1992.
2. Бейтон А., Долло К., Дре А.М., Козорла А. 25 ключевых книг по экономике. Челябинск 1999.

XII-BOB. A. MARSHALL VA D.B.KLARK IQTISODIY NAZARIYASI

12.1. Marshal va Klark nazariyalari

Kembridj universiteti (Angliya) professori Al`fred Marshall (1842-1924) va Kolumbiya universiteti (AQSH) professori Djon Beyts Klark (1847-1938), marjinalistik inqilob ikkinchi bosqichi namoyandalari edi. Garchi ular bir - biridan mustaqil ravishda faoliyat yuritishgan bo`lsada, ba`zida, ularning nazariyalari ingliz, amerika maktabi nazariyasiga birlashgan, Chunki ularning asosiy asarlari «Iqtisodiyot printsiplari» (1890) va «Boylikni taqsimlanishi» (1899) mavzu jihatidan bir - biriga yaqin bo`lib, neomumtoz mikroiqtisodiy nazariya asosini tashkil etadi.


Predmet va uslub. Umuman olganda, Marshall va Klark nazariyalarida predmet va uslub, marjinalistik inqilob ikkinchi bosqichi umumiy tavsifiga mos. Marshallning xizmati Shundan iboratki, u iqtisodiyot fani nomlanishini to`liq o`zgartirishni, “siyosiy iqtisodiyot” atamasidan to`liq voz kechishni taklif etgan. Yangi nom bo`lmish iqtisodiyot atamasi, marjinalistlarning iqtisodiyot tadqiqotida ijtimoiy shakllardan voz kechib, sof iqtisodiyot tadqiqotiga o`tishganliklarini aks ettiradi.

Marshall uslubi o`ziga xosliklari orasida, Djevons va Val`ras kabi marjinalistik inqilob namoyandalaridan farqli o`laroq, matematik apparat qo`llanilishiga nisbatan ehtiyotkorona munosabatidir. O`z asarlarida, Marshall matematik modellarining shartli ekanligini ta`kidlab, u mo‘ayyan imkoniyatlarni haqiqatdan yiroq deb hisoblagan. Uning o`zi ko`proq matematik tahlil uslublarining tahliliy emas, grafik ko`rinishlariga ishongan.

Dj.B.Klark tomonidan qo`llanilgan tahlil uslubiga keladigan bo`lsak, bunda, mazkur iqtisodchi o`z asarlarida Dj.S.Mill`ning statika va dinamika haqidagi xulosalarini rivojlantirganliklarini aytib o`tish mumkin. Uning fikricha, statika, asosiy iqtisodiy parametrlar muvozanatli holatda bo`lgan: ya`ni, mehnat va moddiy resurslar miqdori, ehtiyoj darajasi, texnika va hokazo. Mazkur parametrlardan biri, yoki bir - nechasi o`zgargan taqdirda, dinamika holati yuzaga keladi, ya`ni muvozanat yo`qolib, bu holat parametrlar o`zgarmaguncha davom etadi, va Yangi iqtisodiy parametrlarga nisbatan Yangi muvozanat holati yuzaga keladi.

Klark fikricha, statik holat, tasavvur holatidir. Tabiiy jamiyatlar barchasi dinamikdir. Ammo, mexanika kabi, tinchlik qonuniyatlari, harakat qonuniyatlari tushunarli bo`lishi uchun o`rganilishi kerak. Nima bo`lganida ham, Klark, o`sha davrdagi marjinalistlar kabi, faqatgina iqtisodiy statika tadqiqotlari bilan, cheklangan.

Narx nazariyasi. yuqorida aytib o`tilganidek, ikkinchi bosqich marjinalistlari, narx tushunchasidan voz kechib, bozor narxi va uning o`rnatilish mexanizmlari tahliliga o`tib ketishgan. Mazkur Yangi yo`nalish ketma - ketlikdagi rivojlanishi sifatida, Marshall narx nazariyasini ilgari surilib, keyinchalik u «Marshall xochi» nomini olgan. Mazkur nazariya, narx nazariyasining ikki al`ternativ tomonlar munozarasini tugatdi, ya`ni foydalilik nazariyasi va xarajatlar nazariyasi namoyandalarining. Tovar narxi, endilikda talab va taklif narxlari mutanosibligi asosida belgilanadigan bo`ldi (12.1.1-rasm).



12.1.1-rasm

A. Talab narxi. Marshall nazariyasida maksimal darajada foydalilik bilan belgilanib, avstriya maktabi namoyandalari nazariyasidan farqli o`laroq, mazkur foydalilikning psixologik va sub`ektiv baholanishi asosida abstraktsiyalanadi. Marshall fikricha, talab, tovar narxi va inson mazkur xaridni amalga oshirish uchun egalik qiladigan pul miqdoridan kelib chiqadi. Marshall tomonidan belgilangan talab umumiy qonuniyati bo`yicha, mazkur tovarning qay darajada ko`proq sotilishi mo`ljallanayotgan bo`lsa, uning narxi Shu darajada past bo`lishi kerak, ya`ni boshqacha qilib aytganda talab hajmi narx tushishi natijasida o`sib boradi, va narx oshishi sayin, kamayadi. Shu sababli, talab chizig`i grafigi, pastga qarab yo`naltirilgan.

Marshall talab elastikligi tushunchasini to`liq tadqiq etib, marjinalistik nazariyasiga kiritdi, ya`ni bu tushuncha asosida, talab darajasi narx o`zgarishiga bog`liqligi yotadi. Xususan u, keng talabdagi tovarlar yuqori narxlarga ega bo`lgan taqdirda, ularga nisbatan talab elastikligi o`rtacha darajadagi narxlarda ham baland bo`ladi, ammo narx pasayishi sayin mazkur talabning elastik holati qisqarib boradi.

Bundan tashqari, Marshalning fikricha, tovarlar turli guruhlari orasida, talab elastikligi turli darajasi kuzatiladi. Talabning past darajadagi elastikligiga, birinchi ehtiyoj doirasi predmetlari, hamda boylik predmetlari ega bo`ladi. Elastiklik darajasi, iste`molchi daromad darajasiga ham bog`liqdir (masalan, iste`molchilarning bir guruhi uchun boylik predmetlari bo`lgan tovarlar, boshqa guruh iste`molchilari uchun kundalik ehtiyoj mollariga aylanadi).

B. Taklif narxi. Marshallning fikricha, ishlab chiqarishning maksimal darajadagi xarajatlari bilan belgilanadi. Bu, past darajadagi xarajatlar bo`lib, ular maksimal darajadagi daromadlarni belgilab beradi. Xarajatlar pasayishi, ishlab chiqarish hajmi oshishi bilan yuz berib, buning oqibatida, xarajatlar tuzilishi o`zgaradi. Marshall barcha xarajatlarni doimiy (ishlab chiqarish hajmi oshishi bilan o`zgarmaydigan), va o`zgaruvchan turlarga bo`ladi. Ishlab chiqarish hajmi oshishi bilan doimiy xarajatlarning mahsulot birligiga nisbatan miqdori pasayib boradi. Ammo, doimiy va o`zgaruvchan xarajatlar mutanosibligi o`zgarishi ham o`z cheklovlariga ega. Mazkur cheklov, ishlab chiqarish optimal hajmiga erishishni bildirib, bunda xarajatlar minimal darajada, daromadlar esa maksimal darajada bo`ladi.

Xarajatlar pasaytirilishining boshqa yo`li, ishlab chiqarish omillarining optimal tuzilishini topish bo`lib, bu holat har - bir omil tomonidan ishlab chiqarish optimal darajasiga erishilgan taqdirda aniqlanishi mumkin. Bunda, Gossen tomonidan ilgari surilgan iste`mol predmetlari optimal miqdori borasidagi ikkinchi qonuniyatlar g`oyasi nazarda tutiladi.

Ishlab chiqarish omillari ishlab - chiqarish darajasi g`oyasi ishlab chiqarilishiga qator iqtisodchilar hissa qo`shgan bo`lishib, ular orasida ayniqsa Tyunen tilga olinishi zarur. Mazkur g`oya Marshall g`oyalari asosida ham yotgan, ammo, g`oyaning to`liq rivojlanishi faqatgina Klark asarlarida kuzatiladi. Aynan Klark tomonidan Yangi tahliliy vazifa, ishlab chiqarish omillari qo`llaydigan ogptimal hajm aniqlanishi imkoniyatini beradigan nazariyani yaratish bo`lgan.

Mazkur nazariya asosida, ishlab - chiqarish istalgan omili maksimal ishlab chiqarish darajasi pasayishi printsipi yotadi. Masalan, ishlab chiqarish qolgan omillari o`zgarishsiz qolish sharti bilan har - bir qabul qilingan qo`shimcha ishchi, korxona egasiga kamroq daromad olib keladi. Mazkur daromaddan, maosh to`lanib qolgan mablag` tadbirkor daromadini tashkil etadi.

Xuddi shu kabi fikrlar ishlab chiqarishning har bir omiliga nisbatan ham qo`llaniladi. Bunda tuzilmaning eng optimal ko`rinishi omil maksimal birligi, mazkur omilning bozordagi narxiga teng bo`lishidir. Shuni ta`kidlab o`tish joizki, Klark fikriga ko`ra dinamika sharoitlarida, pasayib borayotgan ishlab chiqarish qonuniyatlari sharotida, omillar yumshab boradi. U texnik progress asosida tuzatiladi, chunki aynan texnik progress barcha omillarning ishlab chiqarilishi o`sishiga olib keladi.

V. Bozor muvozanat narxi. Marshall ta`kidlashicha, bozor mo‘ayyan tovar bilan, mo‘ayyan harakatlarni bajaruvchi insonlar guruhidir. Talab va taklifning bozordagi mutanosibligi, muvozanat narxini keltirib chiqaradi. Bunday muvozanat, doimiy, ya`ni narx mo‘ayyan o`zgarishlar oqibatini tezda tuzatish xususiyatiga ega.

Shu bilan birgalikda, Marshall muvozanat narx atamasi faqatgina mo‘ayyan davrga nisbatan qo`llanilishi mumkinligini ham aytib o`tgan. Narx shakllanishi jarayonida vaqt omili tadqiqoti uning iqtisodiyot nazariyasiga qo`shgan ulkan hissasi bo`ldi. Shuni ham aytib o`tish joizki, Marshall, o`sha davrdagi marjinalistlari kabi, iqtisodiyotni statika doirasida ko`rib chiqib, bu doirada vaqt omili e`tiborga olinmagan. Uning nisbatan talqin etilishi esa, bozor turli muvozanat holatlari qiyoslanishi asosidagi qiyosiy statika uslubi sifatida tilga olingan.

Marshall bu kabi uch holatni farqlagan: juda qisqa muddat (juda qisqa «Bozor davri»), qisqa davr va uzoq muddat. Birinchi holatda sotuvchilar o`z takliflarini talab o`zgarishiga moslashtira olishmaydi, ya`ni boshqacha qilib aytganda, ishlab chiqarish omillari doimiy bo`ladi. Misol tariqasida Marshall tirik baliq bozorini ko`rib chiqib, unda tovar tez buziladi, Shu sababli tovar zahirasi mavjud bo`lmaydi, demakki sotuvchi ham kutilmaganda yuqori darajadagi talabga javob bera olmaydi. Shu sababli muvozanat narxini, talab hajmi belgilaydi.

Qisqa davomida ishlab chiqarish omillarining bir qismi doimiy bo`lib qoladi, ammo boshqa qismi esa o`zgaruvchan bo`lib, Shu sababli takliflar mo‘ayyan hajmlarda talabga ko`ra o`zgartirilishi mumkin. Masalan, ishlab chiqarish quvvatlari, eskiligicha qoladi, ammo ularning amalga oshirilishini o`zgartirib bo`lmaydi.

Nihoyat uzoq muddatni ko`rib chiqadigan bo`lsak, bunday ishlab chiqarishning barcha omillari, o`zgaruvchan bo`ladi. Masalan ishlab chiqaruvchi, qo`shimcha ishlab chiqarish quvvatlarini faoliyatida qo`llash mumkin, Shunday qilib, davr uzayishi sayin, muvozanat narxi, taklif narxi shakllanishi sayin o`sib boradi.

12.2. «Kvazirenta» yoki iste`molchi va sotuvchida ortiqcha tovar yig`ilishi

Muvozanat narxini tahlil etishda, marshall «Kvazirenta» tushunchasini ham kiritgan. Bozordagi narx talab chizig`i taklif chizig`i bilan kesishgan joyda belgilanadi. Taklif nuqtai - nazaridan, bu narx maksimal darajadagi xarajat narxiga muvofiq bo`lib, bu narx iste`molchi tomonidan qabul qilinadi. Nima bo`lganida ham, har - bir ishlab chiqaruvchining xarajat hajmi turlicha bo`ladi. Muvozanat xarajatlaridan past darajadagi xarajatlarga ega bo`lgan tadbirkorlar kutilganidan ortiq daromad, yoki kvazirenta olishadi.

Xuddi Shunga o`xshash holat, talab tomonidan ham kuzatiladi. Dyupyui bilan bir qatorda, Marshall iste`molchi ortiqcha tovari tushunchasini ham kiritgan. Shu bilan birgalikda, iste`molchi talabi bozor narxida aks etgan talab narxidan ko`ra tezroq o`sishi mumkin. Agarda shaxs bozordagi yagona xaridor bo`lganida edi, u bundan-da yuqoriroq belgilashga ham tayyor bo`lar edi. Bozor narxini to`lagan

holda esa, u o`z mablag`larini tejab qolib, mazkur tejalgan mablag`, uning «kvazirentasi» yoki ortiqcha daromadi bo`ladi.

Daromadlar. Daromadlar nazariyasini ko`p jihatdan Dj. S. Klark ishlab chiqarib, u o`z nazariyasini ishlab chiqarish omillari maksimal ishlab - chiqarish nazariyasi bilan bog`lagan. Agarda korxona miqiyosida maksimal ishlab chiqarish darajasi (boshqacha qilib aytganda) ishlab chiqarish omillari miqdori mazkur omillarga bo`lgan narxlarga bog`liq bo`lsa, makroiqtisodiy darajada buning aksi ko`zga tashlanadi. Ya`ni qo`llanilgan ishlab chiqarish omillari miqdori uning narxini belgilaydi (ya`ni, uning ishlab chiqarilishidan olingan daromadni). Masalan, korxona darajasida ish haqi doimiy bo`lib, ish haqi summasi korxona doirasidan tashqarida, mehnat bozorida belgilanadi, ishchilar soni esa, o`zgaruvchan ko`rinish bo`lib, bu miqdor ish haqi hajmiga bog`liq bo`ladi. Mehnat bozorining o`zida esa, bandlar (yollangan) ishchilar miqdori mehnatga bo`lgan talab va taklif mutanosibligini aks ettirib, demakki uning narxini ham belgilab beradi.

Nazorat uchun savollar:

1. Marshall uslubining o`ziga xosligi nimada?
2. Klark iqtisodiy statika va dinamika tushunchalarini qanday talqin etadi? Klark tahlilini dinamik deb bo`ladimi?
3. A. Marshall xochi nima?
4. A. Marshall fikricha, tovarga nisbatan taklif elastikligi darajasi nimaga bog`liq.
5. Maksimal darajadagi xarajatlar nima va ular nimaga bog`liq?
6. Dj. Klark ishlab chiqarish omillari maksimal ishlab chiqarish darajasi nazariyasi nimadan iborat, va u qanday vazifani echish imkoniyatini beradi?
7. Kvazirenta nima?
8. Klark daromadlar nazariyasi va uning ishlab chiqarish omillari, ishlab chiqarish maksimal darajasi nazariyasi orasida qanday bog`liqlik mavjud?

Mavzu bo`yicha adabiyotlar ro`yxati:

1. Кларк Д.Б. Распределение богатства. М., 1992.
2. Маршалл А. Принципы политической экономики: В 3 т. М., 1983-1984.
3. Бейтон А., Долло К., Дре А.М., Казорла А. 25 ключевых книг по экономике. Челябинск, 1999.

XIII-BOB. LOZANNA MAKTABI IQTISODIY NAZARIYASI (L.VAL`RAS, V.PARETO)

13.1. Lozanna maktabi nazariyasi

Lozanna maktabi asoschisi Leon Val`ras (1834-1910) edi. U 1870 yildan 1892 yilgacha, Lozanna universiteti (SHveytsariya) siyosiy iqtisodiyot professori sifatida faoliyat yuritgan, Val`ras nazariyasi keng ma`noda tan olinmagan bo`lib, uning yagona shogirdi va namoyandasi Vil`fredo Pareto edi. U ham Lozanna universitetida faoliyat yuritgan. Pareto bilan birgalikda Val`ras tarafdorlari sifatida M.Pantoleoni, E.Baroni ham qisman mashhurlikka sazovor bo`lishdi.

Paretoning qator shogirdlari va tarafdorlari bo`gan bo`lsada, ular tomonidan ishlab chiqarilgan umumiy iqtisodiy muvozanat nazariyasi, faqatgina ikkinchi jahon urushidan keyin tan olinib, u ham bo`lsa, iqtisodiyotning davlat tomonidan nazorat etilish amaliyoti qo`llanila boshlanganidan so`ng amal qila boshladi.

Predmet va uslub. Garchi Val`ras «sof iqtisodiyot» atamasini ilgari surgan bo`lsa ham, uning o`zi mazkur nuqtai nazar iqtisodiyotda yagona imkoniyati mavjud bo`lgan yondashuv sifatida tan olinmagan. O`zining «Sof siyosiy iqtisod elementlari» (1874-1877) asosiy asari bilan bir qatorda, u «Ijtimoiy iqtisodiyot haqida ocherklar» (1896) «Amaliy - siyosiy iqtisodiyot ocherklari» (1898) va qator boshqa asarlarni ham yaratdi. Shu kabi Pareto ham, iqtisodiy tadqiqotlar bilan bir qatorda («Siyosiy iqtisod kursi» (1896-1897) «Siyosiy iqtisod darsligi» (1906) bilan bir qatorda sotsiologiya bo`yicha ham qator fundamental asarlarni yaratgan. Ammo, mazkur mavzu doirasida, biz ushbu mualliflarning faqatgina “sof iqtisod” haqidagi asarlarini ko`rib chiqamiz, garchi Val`ras marjinalistik inqilobning birinchi bosqichiga, Pareto ikkinchi bosqichiga tegishli bo`lsa ham.

13.2. L.Val`ras. Umumiy iqtisodiy muvozanat

Val`ras, umumiy iqtisodiy muvozanat nazariyasini ishlab chiqgan ilk olim. Umumiy iqtisodiy muvozanat, bu iqtisodiyotning Shunday holatiki, unda barcha bozorlar, bir vaqtning o`zida muvozanatda bo`lib, har - bir xo`jalik sub`ekti, belgilangan byudjet cheklovlari sharoitida, foydalilik maqsadli funktsiyasini mustaqil ravishda maksimizatsiya etishi lozim. Bu holat, faqat narxni mo‘ayyan tizimi shakllanish sharoitida amal qiladi. Val`ras o`zining umumiy iqtisodiy muvozanat modelida, tenglamalar tizimini qo`llab, unda ishlab chiqaruvchi va iste`molchi tomonidan sotilayotgan va xarid etilayotgan tovarlarning ishlab - chiqarish omillari va iste`mol tovarlarining narxlari noma`lum bo`ladi. Tenglamalarning o`zi, iste`molchilar va ishlab chiqaruvchilar harakatini, maksimum darajasiga etkazadi. Aynan Val`ras mazkur tenglamalar tizimi o`z

echimiga ega ekanligini ko`rsatib berib, bunday echim asosida, noma`lum tenglamalar miqdori, tizimdagi tenglikda yotadi, ya`ni tenglamalar tizimi, o`zaroo mutanosib ravishda echilishi lozim. Buning asosida talab va taklif hajmi, alohida tovarga bo`linishi, nafaqat uning narxiga, balki tovarlarga bo`lgan narxiga ham bog`liq bo`lib, bir bozorning holati, boshqa bozor holatiga bog`liq bo`ladi.

Val`ras xalq xo`jaligini 4 asosiy bozorga bo`lgan: iste`mol predmetlari bozori, ishlab chiqarish omillari bozori, pul kapitallari bozori va almashinuv vositasi sifatidagi mablag` bozori. Buning asosida u har - bir bozor doirasidagi tenglik sharoitlarini topadi. Shundan so`ng, mazkur bozorlar orasidagi bog`liqlik masalasi qo`yiladi. Avvalambor, bunda g`oya, iste`mol predmetlari bozori va ishlab chiqarish omillari orasidagi bogg`liqlik haqida ketadi. Tovarlar bo`lgan iste`molchilik talabi, barcha iste`molchilar daromadlariga bog`liq. O`z navbatida ularning daromadlari, narx va ishlab chiqarish omillariga borib taqaladi. Shu bilan birgalikda, ishlab chiqarish omillariga bo`lgan korxona talabi, iste`molchilar tomonidan ilgari surilgan tayyor mahsulotga bo`lgan talabga bog`liq. Keyinchalik, ishlab chiqarish omillari va mablag` kapitallari bozori orasidagi bog`liqlik mavjud bo`lish, buning asosida investitsiya va boylik muvozanati yotishini e`tirof etadi.

Pul mablag`lari bozori va almashinuv vositasi sifatidagi pul bozori orasidagi bog`liqlik tadqiq etiladi. Buning asosida mablag` yig`ilishining hajmini o`sishi, mablag` massasi qisqarishiga olib kelib, tabiiyki narxlarga ta`sir etadi. Val`ras mablag` bozorini quyidagicha ta`riflagan: «mablag` belgilari omili narxi, mablag` real miqdorining istalgan naqd holatdagi mutanosibligiga bog`liq».

Shu bilan birgalikda, Val`ras, iqtisodiyot to`liq muvozanat holatida nisbatan o`sishini isbotlab berib, hech qachon bu muvozanatga erisha olmasligini ta`kidlab o`tgan.

O`zining umumiy iqtisodiy muvozanat modelida, Val`ras, mazkur muammoni mo‘ayyan doirada ko`rsatib bergan, ammo matematik darajada, uni echa olmagan. Keyingi davrlarda qator olimlar ham, mazkur modelni matematik jihatdan rivojlantirishga harakat qilgan. A.Val`t (1936) va Errou Debre (1954) asarlarini ham e`tirof etish mumkin.

13.3. V. Pareto. Umumiy iqtisodiy muvozanat

Val`ras umumiy iqtisodiyot modelini faqatgina ideal raqobatchilik sharti doirasida ko`rib chiqgan bo`lsa, Pareto mazkur masalani iqtisodiyotning 4 ta holati asosida ko`rib chiqgan. Birinchi holatda iste`molchilar va ishlab chiqaruvchilar, bozorda mavjud erkin narxlarni qabul qilishib, ulardan o`z maqsadlari yo`lida foydalanish, ehtiyojlarini mazkur narxlarga moslashtirishadi. Ikkinchi holatda iqtisodiyotdagi, xo`jalik sub`ektlarining asosiy maqsadi, maksimal darajada

daromad olish uchun bozor narxlarini o`zgartirishga qaratiladi. Bu monopolizatsiyalashgan iqtisodiyotga xos bo`lgan xususiyatdir. Iqtisodiyotning uchinchi turida, bozorning markaz tomonidan boshqarilishi, hamda narxlar ijtimoiylashishi asosida ular hukumat tomonidan belgilanib, bu jarayon jamiyatning barcha a`zolari maksimal darajada rivojlanishlari uchun amalga oshiriladi. Sotsializm sharoitlarida tovar - pul munosabatlari barham topib, tayyor mahsulotlar taqsimlanishi yuz berishini ta`kidlagan marksistlardan farqli o`laroq, Pareto umumiy iqtisodiy muvozanatga erishish uchun, narx proportsiyalariga erishish lozimligini isbotlagan. «Agarda sotsialistik hukumat, almashinuvning barcha imkoniyatlarini cheklaydigan bo`lsa, narxlar baribir yo`qolmaydi, juda bo`lmasa tovar taqsimlanishida hisob vositasi sifatida saqlanib qoladi», - deb ta`kidlaydi.

Shunday qilib, Pareto hukumat narxlar muvozanatini hisoblab chiqishga qodir bo`lsa, xususiy mulkka tayangan jamiyat tashkiliyligi va ijtimoiy tashkiliylik orasida biz uchun hech qanday tanlov qolmaydi. Bu muammo, ushbu fenomenning boshqa omillarini hisobga olgan holda, echish mumkin deb aytgan edi u.

13.4. Foydalilikni ordinalistik nazariyasi


Yuqorida aytib o`tilganidek, maksimal foydalilik tushunchasi, marjinalistik nazariyaning asosida yotadi. Ammo agarda, maksimal daraja, miqdoriy daraja bilan baholanadigan bo`lsa, foydalilik darajasi sub`ektiv, tushunarsiz bo`lib qoladi. Shu bilan birgalikda, turli tovarlardan kutilayotgan daromadni maksimalllashtirish uchun, Menger, Djevons, Val`ras va Marshall foydalilik hisoblanish imkoniyatini taxmin qilishgan, ammo mazkur birlikni topish, ularning qo`lidan kelmagan. Foydalilik maksimal darajasini topishga harakat jarayoni, iqtisodiyot faniga kardinalizm nomi bilan kirib kelgan.

Paretoning ta`kidlashicha foydalilikni absolyut hajmini o`lchash imkoniyati mavjud emas, ammo uning tartib hajmini, ketma - ketligini belgilash mumkin, ya`ni, A foydalilik darajasi, B foydalilik darajasidan, B foydalilik darajasi esa V foydalilik darajasidan yuqori bo`lgan. Bunday yondashuv ordinalistik yondashuv nomini olib, XX asrning 30-yillarida, R. Allen va Dj. Kiks asrlarida to`liq isbotlangan, va jamiyat tomonidan tan olingan. Foydalilik nazariyasi ishlab chiqarilishida, Pareto, farqsizlik chiziqlaridan foydalanib, ular tahlil nazariyasiga ingliz iqtisodchisi Frensis Edjuort (1845-1926) tomonidan kiritilgan. Edjuortning o`zi, ularni barter almashinuvi tahlili uchun qo`llab, foydalilik darajasining miqdoriy o`lchamlaridan kelib chiqgan (kardinalistik yondashuv).

Pareto nazariyasida, Edjuort farqsizlik chiziqlari ordinalistik yondashuv sifatida qo`llanila boshlandi. U narxlarni foydalilik darajasini miqdoriy

foydalanilishidan voz kechib, e`tiborini asosan tovarni tanlash nazariyasidan kelib chiqib bir tovarga nisbatan boshqa tovarning xush ko`rilishiga qaratgan. V.Pareto nazariyasida, farqsizlik chiziqlari, yoki farqsizlik chiziqlari xaritasi quyidagicha ko`rinishga ega (13.4.1-rasm).

13.4.1-rasmda OY va 0X o`qlari bo`yicha ikki tovar miqdori boshlanib, ular iste`mol yig`indisini tashkil etadi I, II, III chiziqlar farqsizlik chiziqlaridir. Ularning yig`indisi farqsizlik xaritasini tashkil etadi. Agar, istalgan farqsizlik chizig`ini oladigan bo`lsak, uning har - bir nuqtasi mo‘ayyan iste`mol tovarlari yig`indisini, ya`ni (Y va Xni) tashkil etadi. Bu yig`indilar, ratsional sub`ekt uchun bir - xil darajadagi foydalilikka ega. Uning uchun, xususan, XA va YA, XB va YB, XS va YS hajmlarida tovar iste`mol qilinishi yoki xarid qilinishi farq qilmaydi. Ikkinchi va uchinchi chiziqlar birinchi chiziqdan Shunisi bilan farq qiladiki, ular X va Y tovar katta yig`indilari bilan tavsiflanib, iste`molchi yuqori daromadiga muvofiq bo`ladi. U yoki bu tovarlar yig`indisi foydaliligini belgilashda ordinalistik yondashuv, I, II, III chiziqlar mutanosibligi bilan belgilanadi. Agarda, farqsizlik chizig`ining o`zida, tovarlar yig`indisi, teng taqsimlangan bo`lsa, III chiziqda aks etgan tovarlar yig`indisi ko`proq tanlanadi va II chiziq yig`indilari, kamroq talab qilinadi, ular esa o`z navbatida, doimiy ravishda iste`molchi tomonidan tanlanadi, zero iste`molchi, ularni I chiziq bo`yicha joylashgan yig`indilar bilan taqqoslaydi. Shunday qilib, farqsizlik chizig`i xaritasi, sub`ekt talablarining mo‘ayyan ketma-ketlik tartibini aks ettiradi. Bunday ketma-ketlik, foydalilik darajasining tartibli yoki ordinalistik funktsiyasi deb ataladi.




13.4.1-rasm

Jamoatchilik ravnaqi. Paretodan oldin, jamoatchilik ravnaqi, alohida mustaqil muammo sifatida amaliyotga tadbiq etilmagan, Chunki bu tushuncha individual boyliklar summasi sifatida talqin etilgan. Demak, har - bir inson tomonidan o`z boyligining oshirilishi, avtomatik ravishda jamiyat boyligini

oshishiga olib keladi deb hisoblangan. Pareto, jamiyat boylik darajasi o`sishining maksimal darajasini ko`rsatib bergan. Uning fikricha jamiyat boyligi, o`z maksimumiga erishish holatida, jamiyat boyligi individual boylik kamayishi hisobiga osha olmasligi borasidagi nazariyaning ilgari surilishi bo`ldi. Bu holat «Pareto optimumi» nomini olgan. Shu bilan birgalikda, bu holat, resurslar optimal taqsimlanishiga muvofiqdir. Optimum tomonga harakatlanish boylik o`sishi doirasida yuz berib, jamiyatning hech bo`lmaganda bir a`zosi boyishi oqibatida, qolganlar boyligi saqlanib qolinadigan bo`lsagina erishiladi.

Pareto optimumining grafigini quydagicha:



13.4.2-rasm.

Abstsissalar o`qida X iste`molchi boylik darajasi, Y ordinata o`qi bo`yicha iste`molchisi o`lchanadi. Agarda, barcha resurslar X iste`molchisi boyligini oshirishga qaratiladigan bo`lsa, bu boylik darajasi X` nuqtasiga teng bo`ladi, demakki, Y iste`molchisining maksimal darajadagi daromadi jamiyat rivojlanishining mazkur bosqichida Y` nuqtasiga muvofiq bo`ladi. X` Y` chizig`i byudjet cheklovini aks ettiradi, ya`ni har ikkala iste`molchi boylik mutanosibligining maksimal imkoniyatini. Bunda, mazkur chiziq nuqtalari Pareto fikricha, iqtisodiyotning optimal holati uchun javobgar bo`ladi, Chunki bunday holatda, bir iste`molchining boyishi, boshqa iste`molchining zarar ko`rishi oqibatida yuz beradi.

Aytaylik, iqtisodiyot A nuqtasida joylashadi. Bu holat, optimumga erishilmaganligidan dalolat berib, boylik miqdori oshishi imkoniyati mavjud bo`ladi. Pareto nazariyasiga muvofiq, A nuqtasidan B nuqtasiga harakat , optimumga qarab harakatni bildiradi, zero bir iste`molchining boyishi, boshqa iste`molchi ravnaqi oshishiga olib keladi. Aksincha, A nuqtasidan S nuqtasiga

qarab harakat, mazkur omilga muvofiq bo`lmaydi, Chunki bunday holatda, X iste`molchisi holati yomonlashadi.
Shunday qilib, Pareto fikricha, o`zgarishlar sohasi AAX va AAY chiziqlari bilan belgilanadi.

13.5. Rossiyada marjinalizm qismati

Rossiyada ilk marjinalistik asarlar XIX asrning 90- yillarida paydo bo`ldi, ular orasida M.I. Tugan Baranovskiy maqolasini alohida tilga olish lozim. Bu maqola o`z davrida asosan marksistik nuqtai - nazaridan yozilib, «Xo`jalik tovarlari maksimal darajada foydaliligi, ularning qadrlanishi sababi haqida ta`lim» (1890) deb nomlanib, unda muallif, mehnat tannarxi nazariyasi va maksimal foydalalik nazariyasi sintezini taklif etgan. Keyingi davrlarda, Tugan – Baranovskiy g`oyasini N. Stolerov matematik jihatdan to`laroq shakllantirib bergan. Keyinchalik M. I. Tugan - Baranovskiy o`zini siyosiy - iqtisodiy formulasi taklifi tahliliy isbotini: «Erkin ravishda ishlab chiqarilgan mahsulotlar maksimal foydalilik darajasi, ularning mehnat tannarxiga proportsional teng», (Kiev, 1902) nomli asarida keltirgan.

Mazmunan ular birinchi bosqich marjinalistik inqilobi g`oyalariga yaqin edi. Ammo mazkur nashrlar o`ziga nisbatan keng e`tiborni torta olmadi, Chunki o`sha davrlarda Rossiya jamiyati marksistlar va xalq tarafdorlari namoyandalari munozaralari bilan band edi.

Keyingi davrlarda Rossiyada marjinalizmning keng tarqalishi XX asrga to`g`ri keladi. Shuni ham aytib o`tish lozimki, XIX – XX asr oralig`ida, Rossiya ilm – fani qoloq darajadan, jahon miqiyosida yetakchilik darajasiga ko`tarildi, buning oqibatida, Rossiyalik iqtisodchilar boshqa mamlakatlar iqtisodchilari kabi, o`ziga xos g`oyalarni ilgari surishni boshlab, bu g`oyalar jahon iqtisodiy fanini to`ldirdi. Buning yorqin misolini Vladimir Dmitrievning “Iqtisodiy ocherklar”. Tannarx, mehnat nazariyasi va maksimal foydalalik nazariyasi darajasi organik sintezidan tajriba» (1868-1913) deb nomlangan monografiyasida ko`rish mumkin. Mazkur asarda ikki o`ziga xos g`oya bo`lib, ular zamondoshlari tomonidan e`tiborga olinmadi, ammo keyinchalik dunyo ilm - fani Dmitriev g`oyalarini tan olgan. Asardagi birinchi g`oya sifatida, sohalar aro koeffitsient olinib, bu koeffitsient zamonaviy sohalararo balans nazariyasining asosini tashkil etadi. Ikkinchi g`oya zamonaviy monopoliya narxlari nazariyasi asosi sifatida qabul qilingan. Asarning qisqa mazmuni Shundan iborat ediki, bozor monopoliyasi nafaqat narxlar, balki xarajatlar oshishiga olib keladi.

XX asr boshlarida marjinalistlar, barcha Rossiya universitetlarida mavjud edi. O`zlarining asosiy nazariy qarashlari bo`yicha ularning bir qismi birinchi bosqich, ikkinchi qismi esa ikkinchi bosqich marjinalistik inqilobi tarafdorlari edi.

Qozon va Odessa universitetlarida Zalesskiy va Orjentskiy tadqiqotlari davomidan tashqari, Peterburg universiteti talabasi Vladimir Voytinskiy (1885-1960) qalamiga mansub «Bozor va narxlar» (1906) asarini ham tilga olish lozim, zero keyinchalik Voytinskiy inqilob tarafdorlari qatoriga o`tib ketib, ilmiy ishlarga 1917 yil inqilobidan keyin qaytib keldi, bundan tashqari, Moskva universiteti dotsenti Nikolay SHaposhnikov (1878-1939) «Qadriyat va taqsimlanish nazariyasi» (1912) asarini ham tilga olmay ilojimiz yo`q.

yuqorida tilga olingan Kiev maktabi namoyandalari ham, XX asrlarda marjinalistik nazariyani qabul qilishdi. Ularning yetakchisi bo`lmish Aleksandr Bilimovich (1876-1963), o`zining asosiy asari bo`lmish «Xo`jalik tovarlari tannarxi masalasi haqida» (1914) monografiyasini yaratdi. Voytinskiy va Bilimovich, asosan talab nazariyasiga e`tibor qaratishgan bo`lishsa, Shaposhnikov D.B. Klark qarashlari tarafdori edi.

Rossiyalik marjinalistlar darajasi juda yuqori edi. Iqtisodiy fikr nemis tarixchisi X. YU. Serafimning yozishicha: «Bilimovich nazariy kontseptsiyasini uning ichki qonuniyatlari va mantiqiy holati jihatidan, g`arbiy Evropa nazariy tadqiqotlari bilan tenglashtirish mumkin». Ammo, vaqt o`tgani sayin, jahon miqiyosidagi mashhurlikka Kiev maktabi namoyandasi bo`lmish Evgeniy Slutskiy (1880-1948) erishdi. U 1915 yilda, ital`yan iqtisodiy - statistik jurnallaridan birida «Iste`molchi balanslashtirilgan byudjeti nazariyasi haqida» maqolasini chop etdi. Unda, ilk marotaba, hozirgi zamon iqtisodiy fanida Slutskiy tenglamasi deb ataladigan muvofiq boyliklar narxi mutanosibligi o`zgarishining maksimal normalari tengligi sifatida, iste`molchi byudjeti va foydalilik muvozanati shartini ilgari surdi. Mazkur maqola e`tiborsiz qolgan bo`lsada, 1934 yilda, uni ingliz iqtisodchilari R. Allen va Dj. Xikks e`tirof etib, Slutskiy marjinalistik inqilobdan keyingi yirik ilmiy izlanishlar ekanligi aytib o`tishdi. O`zining «Tannarx va kapital» (1939) asarida Xikks, Slutskiy asarida kuchli darajada matematiklashtirilgan, unning nazariyasi muhimligi haqidagi fikrlar keltirgan.

Marjinalistik nazariya sohasidagi so`nggi fundamental monografiya, Saratov universiteti professori Leonid YUrovskiy (1884-1938) qalamiga mansub bo`lib, bu monografiya «Narx nazariyasi bo`yicha ocherklar» (1919) deb nomlangan, va ko`tarilgan muammo jihatidan A.Marshall nazariyasiga yaqin bo`lgan.

Shunday qilib, XX asrning boshida marjinalistik nazariya Rossiyada keng ravishda talqin etilib (yuqorida barcha namoyandalar ham tilga olinmagan), jahonga o`zining ilmiy fikrini taqdim etgan.

Bol`sheviklar hukumatga kelganidan so`ng, Rossiyada marjinalizm qismati yaxshi bo`lmadi. Shuni ham tilga olish zarurki, partiyaning eng ilg`or liderlari marjinalistik nazariya bilan tanish edilar, xususan N.Buxarin Moskva universitetida o`qigan paytlarida SHaposhnikov seminarlarida Shug`ullangan, emigratsiya davrida esa, Vena universitetida Byom – Baverk ma`ruzalariga qatnab, o`zi uchun zamonaviy bo`lgan iqtisodiy adabiyotlarni kuzatib borgan.

Yuqorida tilga olingan Rossiyalik marjinalistlar qismati quyidagicha rivojlandi. Bilimovich va Voytinskiy, mamlakatni tark etib, ilmiy faoliyatlarini chet elda davom ettirgan hamda yuqori darajada ilmiy nufuzga erishishdi. Ayniqsa Voytinskiy, juda mashhur bo`lib, uni bandlik muammolari tadqiqotchisi va keynsianlik tarafdori sifatida nihoyatda hurmat qilishgan (U inflyatsiyani antikrizis chorasi sifatida qo`llash g`oyasini ham ilgari surgan).

Yurovskiy va Shaposhnikov, 1920-yillar davomida, narkomfinda ishlashgan bo`lsa, keyinchalik Stalin repressiyalari qurboni bo`lishdi. 1920-yillar davomida Slutskiy Moskva shahri kon`yunktura institutida faoliyat yuritib, kon`yunkturaning matematik modellashtirilishi sohasidagi tadqiqotlari jahon iqtisodiy fani dunyosida katta qiziqish uyg`otgan. Ammo 1929 yilda institut yopilishi natijasida Slutskiy, iqtisodiyot fanini tashlab, sof matematik bo`lishga majbur bo`ldi. 1929 yilda Stalin hukumat boshiga kelganidan so`ng, marjinalizm va boshqa barcha nomarksistik iqtisodiy nazariyalar, hamda uning asosida yaratilgan iqtsodiy, matematik - iqtisodiy uslublar ta`qiqlandi. Faqatgina 1950-1960 yillarda, SSSR iqtisodiyot fanidagi matematik uslublar reabilitatsiya etildi. Ularning asosida yotgan marjinalistik nazariya qayta qurish davrigacha tanqid ostiga olindi.

Nazorat uchun savollar:

1. Umumiy iqtisodiy muvozanat nima?
2. Val`ras modelini tasvirlovchi tenglamalar tizimi qanday holatlarda echimga ega bo`ladi? Val`ras xalq xo`jaligini qanaqa to`rt bozorga bo`ladi va bu bozorlar qanday o`zaro bog`liq bo`ladi?
3. Val`ras va Pareto umumiy iqtisodiy muvozanat masalasini iqtisodiyotning qanday turlari doirasida ko`rib chiqishgan?
4. Pareto va marksistlarning sotsializm sharoitlarida tovar - pul munosabatlari borasidagi fikrlari farqi nimada?
5. Foydalilik darajasining kardinalistik va ordinalistik talqini nima? Farqsizlik chiqizlarini nima tavsiflaydi?
6. Jamiyat ravnaqi masalasiga Pareto qanday yangi ishlanmani kiritdi? Pareto optimumi grafigini tasvirlab bering.

Mavzu bo`yicha adabiyotlar ro`yxati:

1. Вальрас Л. Элементы чистой политической экономии. М., 2000.
2. Бейтон А., Доллок К., Дре А.М., Казорла А. 25 ключевых книг по экономике. Челябинск, 1999.

XIV-BOB. INSTITUTSIONALISM YO`NALISHI MOHIYATI VA AHAMIYATI

14.1. Institutsionalistik yo`nalish umumiy tavsifi

XIX asrning ikkinchi yarmida marjinalizm bilan birgalikda yonma-yon, ba`zida esa undan ilg`orlashgan holda, iqtisodiyot fanining yana bir yo`nalishi institutsionalizm shakllanib bordi. Bu yo`nalish mumtoz siyosiy iqtisod o`rniga vujudga keldi. Bu yo`nalish to`la - to`kis, XX asrning boshida shakllandi.

Predmet va uslub. yuqorida iqtisodiyot faniga nisbatan ikki nazariy yondashuvni yuqorida ko`rib chiqgan edik, ya`ni mumtoz siyosiy iqtisod va marjinalizm, mazkur mavzu doirasida institutsionalizm oqimining metodologik xususiyatlarini, ular bilan taqqoslagan holda ko`rib chiqamiz.

yuqorida aytib o`tilganidek, marjinalizm yo`nalishining tadqiqot predmeti sifatida sof iqtisodiyot qabul qilinib, uning ijtimoiy shakllari inkor etiladi. Institutsionalizm esa, aksincha, ijtimoiy iqtisodiyot, madaniyat va siyosat bilan bir qatorda ijtimoiy xajmli tizimining asosiy qismlari sifatida qabul qilishgan. Bundan, mazkur yo`nalishning nomi ham kelib chiqadi.

Boshqa tomondan, mumtoz siyosiy iqtisod ijtimoiy iqtisodiy hodisalarni ko`rib chiqadi, bu holat uning nomida ham aks etgan, ya`ni siyosiy atamasi Yunoncha «polis» (jamiyat, davlat), nomidan kelib chiqadi.

Demak, siyosiy iqtisod ham, jamoatchilik (ijtimoiy) iqtisodiyotdir. Masalan, mumtoz siyosiy iqtisod asosiy e`tiborni sinfiy munosabatlarga qaratgan. Ammo, uning institutsionalizmda farqi Shundaki, mumtoz siyosiy iqtisod ijtimoiy munosabatlarning sabab, natijaviy talqinini qo`llaydi, va Shu sababli iqtisodiyot - siyosat va madaniyatga nisbatan sabab yoki asos sifatida talqin etiladi.

Ayniqsa, bu yondashuv, Marksning bazis va ustqurma haqidagi ta`limi asosida yotadi. Institutsionalizm esa, jamoatchilik munosabatlarini funktsional deb hisoblaydi, va Shu sababli, iqtisodiyot, siyosat va madaniyat mazkur nazariya doirasida o`zaro bog`liq va bir - biriga ta`sir etuvchi omillar sifatida qabul qilinadi.

Mumtoz siyosiy iqtisod (sinfiy munosabatlar bilan bir qatorda) va marjinalizm bir vaqtning o`zida xo`jalik sub`ekti, iqtisodiy insonni birgalikda ko`rib chiqib, ular o`z harakatlarida faqatgina bir maqsadda, ya`ni daromad olish maqsadi haqidagi g`oyaga asoslanishadi (Shu jumladan foydalilik va daromad). Shu sababli, uning harakatlarini modellashtirilishi, hamda prognozlashtirilishi mumkin. Institutsionalistlar fikricha, insonga qator omillar ta`sir etadi, va bu omillar doirasida ham iqtisodiy, ham noiqtisodiy omillar kirishi mumkin. Demak, bir insonning harakatlari, boshqa inson harakatlariga o`xshamaydi, va shu sababli ularni prognozlashtirish juda mushkul. Xuddi shunday xulosa, milliy iqtisodiyotlarga ham tegishli bo`lib, ular institutsionalistlar fikricha, qator o`ziga

xosliklarga ega bo`lib, ularning funktsiyalarini oldindan faqatgina nisbiy ravishda belgilash mumkin.

Mumtoz siyosiy iqtisod (tarixiy yondashuvga ega bo`lgan Marksdan tashqari), iqtisodiyotning mo‘ayyan turini tabiiy ravishda qabul qilib, uni boshqa, notabiiy turlar bilan taqqoslangan. Marjinalizm o`zining miqdoriy yondashuvi bilan, faqatgina statika yoki dinamika holatidagi bozor iqtisodiyotini ko`rib chiqadi. Institutsionalizm esa, iqtisodiyotni tarixiy jihatdan sifat darajada o`zgaruvchan va rivojlanuvchi soha sifatida tadqiq etadi. Ammo, bunda dinamika va rivojlanish orasida adashmaslik lozim, zero birinchi holatda, bu miqdoriy o`zgarish (o`sish, qulash), ikkinchi holatda esa sifat, ya`ni ijtimoiy munosabatlar o`zgarishi kuzatiladi. Masalan, qayta qurish davrida, mamlakatimizda, iqtisodiy qulash kuzatilgan bo`lsada, ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanish mavjud bo`lgan.

Va nihoyat, mumtoz siyosiy iqtisod (burjua vakillari tomonidan) va marjinalizm (boshlang`ich bosqichida) iqtisodiyotni faqatgina iqtisodiy insonlar summasi sifatida ko`rib chiqib, bundan shaxs manfaatlari jamiyat manfaatlaridan ustun kelishini ta`kidlab, iqtisodiy liberalizm kontseptsiyasi yonini olgan holda, insonlar xo`jalik faoliyatiga hukumat aralashuvini cheklagan. Institutsionalizm esa, aksincha, alohida shaxslar manfaatini emas, jamiyat manfaatlarini institutlar (jamoatchilik hodisalari) manfaatlarini ustun qo`ygan, va Shu sababli hukumat jamiyat nomidan faoliyat yuritayotganda, alohida shaxslar ijtimoiy - iqtisodiy faoliyatiga aralash huquqiga ega deb, hisoblashgan.

Shunday qilib, institutsionalistik yo`nalish nazariyachilari, iqtisodiyotni barcha ijtimoiy munosabatlar o`zaro iqtisodiy kontekstida ko`rib chiqishgan. Bundan kelib chiqadiki, alohida insonlarning iqtisodiyotdagi faoliyati murakkab va o`xshashsiz bo`lib, bu holat marjinalistlarning sof iqtisodiyotida kuzatilmaydi, va iqtisodiyotga tarixan yondashish lozim deb hisoblashadi. Bunday iqtisodiyotni doimiy ijtimoiy - iqtisodiy o`zgarishlar jarayoni sifatida qabul qilish lozimligini aytib o`tishadi. Bundan tashqari, institutsionalistlar, iqtisodiyotni individualistik nuqtai - nazardan emas, jamoatchilik (ijtimoiy) nuqtai nazardan ko`rib chiqishgan va Shu sababli, hukumat jamiyat nomidan faoliyat yuritar ekan alohida xo`jalik sub`ektlari faoliyatiga aralashish huquqiga ega deb hisoblashgan.

14.2. Institutsionalizm shakllanishi umumilmiy asoslari

XIX asr boshida jamoatchilik fikri inqilobi yuz berib, bu fikr frantsuz ma`rifatchilari ratsionalistik falsafasidan Yangi romantizm oqimiga nisbatan o`zgarib, bunda nemis faylasuf idealistlari g`oyalari ilgari surila boshlandi. Mazkur oqimga institutsionalizm g`oyasini shakllanishi katta ta`sir ko`rsatdi, aytib o`tish lozimki, romantizm, frantsuz ma`rifatchilari nazariyalari XVII asr oxiri frantsuz

inqilobining qonli amaliyoti bilan o`xshatishlardan so`ng yuzaga keldi. Romantiklar shaxs erkinligini jamiyat tuzilishida emas, ichki dunyoda mavjudligini ta`kidlasha boshlashdi.

Ratsionalistik falsafa ilmli bilimi Gegel` aytib o`tganidek, - poetik va payg`ambarona fikrlar o`rniga vujudga kelgan. Shumpeter aytib o`tganidek, romantizm ratsionalistik sharoitlarga qarshi chiqish bo`ldi: hissiyotlar sovuq fikrga qarshi chiqdi; kutilmagan impul`s untilitar mantiqqa qarshi, intuitsiya tahlilga qarshi, ruh aqlga qarshi chiqib, milliy tarix romantikasi ma`rifat asri intellektual sun`iy konstruktsiyalariga qarshi chiqishi bilan kuzatildi. Romantiklar, jamoatchilik tuzilishi xilma-xilligiga nisbatan utilitar yondashuvga qarshi chiqib, Gedonistik manfaatlarni yuksak darajada ratsionallashtirishga nisbatan rangsiz umumlashtirishga kirishib ketgan. Bunda, romantiklar bilan bir qatorda, XIX asr boshida ingliz faylasufi utilitarizm antagonisti I. Bentonning ham g`oyalari qarshi chiqib, uning tomonidan insonlar orasidagi munosabatlarni ma`ishat va qiyinchiliklar orasida balans g`oyasi ilgari surildi.

Keyingi davrlarda pozitivizm falsafasi ham yuzaga kelib, bu jarayonga ta`sir o`tkaza boshladi va bu yo`nalishning namoyondasi lideri sifatida frantsuz olimi O.Kont mashhurlikka sazovor bo`ldi. Uning 6 tomdan iborat, “pozitivizm falsafasi” kursi asari 1830-1842 yillar davomida davomida nashr etildi. Pozitivizmning boshqa asoschilari qatorida ingliz olimlari G. Spenser va Dj. S.Mill`ni tilga olish lozim.

yuqorida sabab – natijaviy aloqalardan funktsional aloqalariga pozitivistik o`tish, marjinalistik iqtisodiy nazariya tomonidan qabul qilingan. Institutsionalizm ham, Kont va Spenserning ijtimoiy evolyutsiya haqidagi qarashlarini qabul qilgan. Nihoyat, shuni ham aytib o`tish kerakki, Char`lz Darvinning «Tabiiy saralash orqali turlar shakllanishi» (1859) asarining tirik organizmlar evolyutsiyasi va tabiiy saralash haqidagi g`oyalari nafaqat biologiyada, balki ijtimoiy fanlarda ham katta qiziqish uyg`otgan. Shunisi qiziqki, Darvinning o`zi, uning g`oyalari ijtimoiy fanlarga asoslanishi, bu borada katta ta`sir Spenser evolyutsiya nazariyasi va Mal`tusning «Aholi nufuz nazariyasi» ta`sir etganligini aytib o`tgan edi.

14.3. Institutsionalizm shakllanishi bosqichlari

Institutsionalistik yo`nalish XIX asrning o`rtalaridan boshlanib to XX asrning boshiga kelib to`liq shakllangan. Marjinalistik inqilobdan farqli o`laroq, uning tarqalishi asta - sekinlik bilan yuz bergan.

Jarayon mumtoz siyosiy iqtisodga al`ternativa sifatida paydo bo`lgan Germaniyada tarixiy maktabi g`oyalaridan boshlandi. Germaniyadagi tarixiy maktab, nisbatan uzoq muddat davomida mavjud bo`lgan, va shu sababli uning

faoliyati uch davrga bo`linadi: eski tarixiy maktab (1840-1860-yillar), Yangi bosqich (1870-1890-yillar) va eng Yangi davr (1900-1930-yillarning boshi). Yangi tarixiy maktab, marjinalizm al`ternativasi sifatida paydo bo`lib, to`g`ridan- to`g`ri munozaralar Avstriya maktabi asoschisi K.Menger va Yangi tarixiy maktab asoschisi G.Shmoller orasida yuz bergan. Yangi tarixiy maktab g`oyalari Evropa (shu jumladan Rossiyada) va AQSHda keng tarqalgan, ammo institutsionalistik yo`nalishning to`liq tan olnishi XX asrning boshlarida yuz berdi, bunga ichki va tashqi holatlar sabab bo`lgan.

Birinchidan marjinalistik inqilobni uning iqtisodiyotdagi abstrakt va miqdoriy yondashuvlarini barcha olimlar ham tan olavermagan.

Ikkinchidan XIX asr oxiridagi iqtisodiyotning ijtimoiy va statistik tadqiqot usullari faol rivojlanishi institutsionalistlarga qo`shimcha isbotlar yaratgan.

Uchinchidan, XIX asr oxiri XX asr boshlarida, erkin raqobatchilik iqtisodiyoti sohasida ham keskin o`zgarishlar yuz berib, marjinalizm va mumtoz siyosiy iqtisod nazariyalari asoslangan. Birinchi jahon urushi davrida esa, iqtisodiy liberalizm hukmronligidan keyin ilk marotaba xilq xo`jaligi miqiyosida iqtisodiyotni davlat boshqaruvi qo`llanila boshlanib, nihoyat Rossiyadagi sotsialistik inqilob g`alabasi, markazlashtirilgan iqtisodiyotni qurilishi uchun imkon yaratib berdi.

Bundan tashqari, institutsionalistlarning iqtisodiy munosabatlarining o`zgaruvchanligi haqidagi g`oyalari tasdiqlandi. Natijada XX asr boshida institutsionalizm ko`pchilik mamlakatlarda tarqalib, uning asosiy liderlari Germaniya (Yangi tarixiy maktab va ijtimoiy - huquqiy maktab) va AQSH (U erda institutsionalizm atamasi paydo bo`ldi) ega edi. Ammo Angliya, Frantsiya va Rossiya kabi mamlakatlarda, mazkur yo`nalishning bundanda qiziqarli nazariyachilari mavjud bo`lgan.

14.4. XX asr boshida Amerika institutsionalizmi

Germaniya bilan bir qatorda XIX va XX asr oralig`ida institutsionalizm liderlar qatoriga AQSH ham qo`shildi. Bunga Amerika jamiyatida reformistik kayfiyatlar va hukumat antimonopoliya va ijtimoiy siyosati talablari ham sabab bo`ldi. Umumilmiy jihatdan,AQSHda institutsionalizm shakllanishiga XX asr boshida mamlakatni sotsiologik rivojlanish markazlaridan biriga aylanishi ham sabab bo`ldi. Bundan tashqari, Amerikalik iqtisodchilar Germaniya universitetlari bilan ilmiy aloqalarga ega edilar. Natijada, 1880 yillarda R. Eli boshchiligida bir guruh olimlar Yangi tarix maktabiga yaqin bo`lgan “Viskonsin maktabi”ni shakllantirib, iqtisodiyotga hukumat aralashishi lozimligi g`oyasini ilgari surishgan va 1885 yilda Amerika iqtisodiyot assotsiatsiyasi yaratilishiga assos solishdi.

Mazkur assotsiatsiyaning maqsadi Germaniyadagi ijtimoiy - siyosat ittifoqi va Angliyadagi Fabian jamiyati kabi hukumatning reformistik faoliyatiga yordam berish edi.

XIX asr oxirida ilk Amerikalik institutsionalistlar asarlari paydo bo`lib, “institutsionalizm” atamasining o`zi 1918 yilda kiritildi. Erta amerika institutsionalizmi yirik namoyandasi Torsteyn Veblen edi (1857-1929). Uning asarlari orasida «Bekorchi sinf nazariyasi. Institutlar iqtisodiy tadqiqoti» (1899), «Ishbilarmonlik tadbirkorligi nazariyasi» (1904), «Uddaburonlik ongi va ishlab chiqarish texnologiyasi rivojlanishi darajasi» (1914), «Muhandislar va qadriyatlar tizimi» (1921), «Absenteistik mulk va yangi davrda ishbilarmonlik tadbirkorligi» (1923) muhim ahamiyat kasb etadi.

Veblen iqtisodiy fikr frantsuz tarixchisi E.Jansga qaraganda «Maksimal darajadagi foydalilikni sof nazariyasidan, amerikalik iqtisodchilarni chalg`itib, ularni iqtisodiyotni jamoatchilik asoschilari qarama - qarshiliklarini o`rganishga jalb qildi». Veblen, neomumtozlarni iqtisodiy tizim muvozanati haqidagi g`oyasi uchun tanqid qilib, mazkur g`oya asosida, uning harakati va rivojlanishi inkor etilganligini rad etib, iqtisodiyot fani hayot darajasi genetik tadqiqoti, moddiy tamaddun tiriklik tarixi bilan Shug`ullanishi lozimligini aytgan. Uning fikricha, neomumtozlarning yana bir xatosi, iqtisodiyotga nisbatan individualistik yondashuv va inson foyda va xarajatlar balansi sifatidagi harakatlar talqinidir.

Iqtisodiy nazariyaning asosiy xatosi, - deb yozgan edi u, - o`zining predmeti sifatida inson harakatlarini talab va taklif normal tenglamalaridan ko`ra murakkabroq ekanligini tan olinishni rad etishdir. Veblenning o`zi, tadqiqotlarning asosiy bazasi sifatida iqtisodiy inson harakatlarini emas jamiyatning ijtimoiy tizim sifatida institutlar yordamida tashkillanganligini olish deb hisoblangan (inson harakatlari, jamoatchilik hayoti an`analari, va normalari). Mazkur ijtimoiy tizim, uning fikricha doimiy ravishda tashqi hodisalar bosimi ostida, hamda insonlarning ichki istaklari asosida o`zgaradi. Bu borada Veblen turli istaklar, instinktlarni ajratadi, ya`ni o`zini-o`zi himoya qilish va nasl qoldirish instinkti, raqobatchilik instinkti, taqlid qilish instinkti, qiziqish, harakat va boshqalar. U instinktlar, ijtimoiy tizimga, faqatgina ijtimoiy tizim yumshagan davrlarda ta`sir etishini ko`rsatgan, ya`ni ijtimoiy tizim naqadar yumshoq bo`lsa, insonlar mustaqilligi, Shu qadar yuqori bo`ladi. Ijtimoiy tizim evolyutsion tartibda, institutlarning tabiiy saralanish va kurashish natijasida rivojlanadi. Darvin nazariyasiga asoslangan holda, Veblen quyidagi fikrni bildirgan edi: «Bir turning jamiyatdagi hayoti boshqa turlar hayoti kabi, yashash uchun kurashdir, demak bu hodisani saralash va ko`nikish jarayoni deb atash mumkin». Jamiyat tuzilishi evolyutsiyasi, ijtimoiy institutlarning tabiiy saralanish jarayoniga aylangan. U insoniyat tarixida, qator

bosqichlarni ham ajratgan: erta va kechki yovvoyilik, Jaholat va yarim tinch varvarlik, hunarmandchilik va sanoat ishlab chiqarilishi.

Sanoat bosqichi Veblen tomonidan ikki kichik davrlarga bo`lingan: ya`ni kapitalist tadbirkorlar hukmronligi davri va kapitalist mulkdorlar va tadbirkorlik funktsiyasini yollangan boshqaruvchi va muhandislarga topshirilgan kapitalist mulkdor aktsionerlar hukmronligi davri.

Bunda Veblen, o`ziga zamonaviy bo`lgan jamiyat qarama - qarshiliklarini aktsioner mulkdorlar yoki bekorchi sinf va muhandislar va boshqaruvchilar sinfi texnokratik orasidagi qarama - qarshiligida deb talqin qilgan. E`tirof etish lozimki, muhandislarga qiziqish, yuqori darajadagi ko`nikmalar va ota - onalik hisslari xos (boshqa insonlar manfaatlari haqida qayg`urish) va bu hissiyotlar zamonaviy yirik ishlab - chiqarishni shakllantirishga olib kelgan. Bekorchilar sinfiga esa, boshqa instinktlar, ya`ni egoizm va shaxsiy manfaat yo`lida harakatlar xosdir. yuqori darajadagi ko`nikma instinkti o`rnida, -deb aytadi Veblen, - ularda sportchilik instinkti mavjud, masalan ozuqa topish maqsadida ovdan farqli o`laroq, ularda ko`ngilxushlik uchun hayvonlarni o`ldirish sportchilik instinkti. Bu kabi iqtisodiyotdagi hodisalar, iqtisodiyot fanida «Veblen effekti» nomini ham olgan.

Iqtisodiyotdagi bunday qarama - qarshiliklar, sanoat va biznes sohalarida namoyon bo`ladi. Veblen fikricha biznes sohasi industriya sohasi ustidan ustunlikka ega bo`lganligi sababli, texnik progress sekinlashadi, yirik korporatsiyalar ishlab chiqarishni yuqori narx va daromadlar uchun to`xtab turishadi, iste`molchiga unga keraksiz bo`lgan tovarlarni ommaviy reklama orqali sotilishi yuz beradi. Mazkur qarama - qarshilikni echish yo`lini, u Yangicha jamiyat tizimiga o`tishda deb bilib, jamiyat induastrial respublika hukmronligiga o`tgan holda, davlatni muhandislar va texniklar qo`mitasi boshqarishi kerak deb hisoblagan. Uning fikricha, mazkur qo`mita, kapitalizm plutokratiyasi va proletariat diktaturasi orasidagi uchinchi siyosiy yo`l bo`lishi kerak. Ammo o`zining oxirgi asari bo`lmish, «Absenteistik mulk» asarida, u xato qilganligini tan olib, amerikacha o`rta sinf hodisasi bekorchilar sinfiga taqlid qilishga harakat qilayotganligini aytib o`tgan (Shu jumladan, muhandislar ham).

Nima bo`lganida ham, Veblenning kapitalizmdan yangicha jamiyat turiga o`tish haqidagi g`oyalari, keyinchalik rivojlandi. 1932 yilda, yosh institutsionalistlar G.Mints va A.Beral` “Zamonaviy korporatsiya va xususiy mulk” asarini nashr etib, unda yirik korporatsiyalarda real hukmdorlik aktsionerlar va boshqaruvchilar qo`liga o`tayotganligini aytib o`tishgan. 1941 yilda esa, D.Bernxem, boshqaruvchilar inqilobi deb nomlangan kitobini ham nashr etdi.

Urushdan keyingi yillarda mazkur g`oyalar rivojlanishda davom etib, industrial jamiyat nazariyada o`z aksini topgan. Amerika institutsionalizmining yana bir asoschisi, Djon Kommons (1862-1945) bo`ldi. Uning asarlari orasida,

«Boylik taqsimlanishi» (1893), «Sanoat xush ko`rilishi» (1919), «Kapitalizm huquqiy asoslari» (1924), «Institutsionalistik iqtisodiy nazariya» (1934) asarlarini e`tirof etish mumkin. U XIX asr oxirida yuzaga kelgan Viskonsin maktabining to`g`ridan - to`g`ri namoyandasi bo`lib, o`zi ham Viskonsin universitetida faoliyat yuritgan. Shu bilan birgalikda, u faol ravishda, kasaba uyushmalari bilan hamkorlik qilib, mehnat qonunchiligi ishlab chiqarilishida qatnashgan.

Institutsional iqtisodiyotni Kommons individual harakatlar emas, jamoatchilik iqtisodiyoti deb talqin qilgan holda, institutlar ortidan ijtimoiy guruhlar manfaatlari turganligini ta`kidlagan. Bundan tashqari, u institutlar huquqiy tomonini ham ta`kidlagan. Xususan u, ijtimoiy munosabatlarning umumlashtiruvchi tushunchasi kelishuv bo`lib, mazkur jarayon ikki hamkor, ikki tomon o`zaro faoliyatini belgilaydi deb hisoblagan. Kelishuv nazariyasi, uning talqinicha, insonlarning hamkorlikdagi harakati va barcha kelishuvlar baholanishi nazariyasi bo`lib, uning orqali, qatnaShuvchilar bir – birini yagona fikr va harakatlarga erishishga jalb etadi. Kelishuv davomida tomonlar avvalo o`z manfaatlarini qarama - qarshi qo`yishadi, so`ngra esa, kelishilgan holda kompromiss qarorga kelib, kelishilgan holat bo`yicha o`zaro majburiyatlarni zimmalariga olishadi. Ijtimoiy munosabatlar huquqiy nazorati g`oyasi, Kommons kapitalizm rivojlanishi boshlari haqidagi nazariyasi ham mavjud. U to`rt bosqichni ajratadi, ya`ni savdo, sanoat, moliya va ma`muriy kapitalizm bosqichlarini. Ma`muriy kapitalizm bosqichi, bu jamiyat kelajagi bo`lib, bunda hukumat (ma`muriyat), qonunchilikni rivojlantirish orqali mehnat, va kapital yirik va kichik biznes, biznes va ishlab chiqarish orasidagi munozaralarga barham berishi mumkin.

Nihoyat, erta amerika institutsionalizmning uchinchi namoyandasi Uesli Kler Mitchell (1874-1948) edi. U o`zini Veblen shogirdi deb hisoblab, hattoki 1936 yilda, «Veblen darslari» nomi ostida uning asarlari to`plamini ham nashr etdi, ammo, nisbatan boshqa muammolar bilan Shug`ullandi. Avvalambor, u iqtisodiy kon`yunkturaning yirik amerikalik tadqiqotchilaridan biri bo`lib, 1920 yilda iqtisodiy tadqiqotlar milliy byurosini ham boshqargan. Uning faoliyati natijasida, 1913 yilda «ishbilarmonlik sikllari» kitobi nashr etilib, undan so`ng ham qator asarlari chop etilgan. bundan tashqari, u iqtisodiyotda mablag` aylanmasi va kredit moliya institutlari rolini ham tadqiq etib, mablag` institutlari yuqori darajadagi tashkillanish guruhlari jamoatchilik roliga e`tibor qilgan holda, bu hodisa o`rta asrlardan beri rivojlanib, yaratuvchilari zakovati va faoliyatiga aksil ta`sir o`tkazganligini ham aytib o`tgan. Nihoyat u, hukumat nazorati nazariyasini ham ishlab chiqib, bu nazariyani iqtisodiyotni rejalashtirish deb atagan.

F.Ruzvel`tning Yangi iqtisodiy kursi amalga oshirilishi davomida, Mitchell, AQSH milliy resurslari qo`mitasi tashkilotchilaridan biriga aylandi. Ruzvel`t

komandasiga, u bilan bir qatorda Dj.Kommons va yosh institutsionalistlar A. Byorl` va R. Tagvellar ham kirgan.

14.5. Iqtisodiy sikl nazariyalarining vujudga kelishi

Iqtisodiy sikllar nazariyasi faqatgina XIX asrning o`rtalariga kelib rivojlana boshladi. Bu davrga faqat siklsiz inqiroz haqida fikr yuritilgan. Buning sababi Shundaki, birinchi ko`zga tashlanadigan siklik inqiroz Angliyada 1805 yilda yuz bergan edi. Shundan so`ng, darhol inqiroz o`z hajmlariga ko`ra, farqlanishi borasidagi fikrlar bildirildi, zero bu safargi inqiroz, Angliyaning butun iqtisodiyotini qamrab olgan edi. Bu vaqtgacha inqirozlar faqat tarmoq darajasida bo`lgan. Buning sababi Shundaki, Angliya jahon iqtisodiyotida yetakchi bo`lib, xalq xo`jaligi o`zaro bog`liq tizimga aylanib bo`lgan edi. Bu tizim doirasida inqiroz bir tarmoqda boshlanib, asta - sekinlik bilan butun iqtisodiyotni qamrab olgan edi. Siklik darajani belgilash uchun, yana ikki krizisni boshdan kechirib, krizislar har 11 yilda takrorlanganligini aniqlash lozim edi. Siklning davomiyligi asta -sekinlik bilan qisqarmoqda hozirgi vaqtdagi siklning o`rtacha davri besh - etti yil davom etadi. Shunday qilib, Angliyadan so`ng, asta - sekinlik bilan boshqa mamlkatlar ham sikl fenomeni domiga tortilib, bu jarayon qonuniyatlari XIX asrning o`rtalarida aniqlandi.

Iqtisodiy rivojlanishning siklik jarayoni haqidagi alohida fikrlarni qator iqtisodchilar ham aytib o`tishgan shu jumladan Mill` va Marks tomonidan ham. Ammo to`liq ravishda iqtisodiy siklga bag`ishlangan ilk asar frantsuz iqtisodchisi Kliment Jyuglar tomonidan berilgan. U o`zining «Savdo inqirozi va ularning Frantsiya, Angliya va Qo`shma Shtatlar iqtisodiyotida takrorlanishi haqida» (1860) nomli asarida siklik marrasi haqida fikr yuritgan. Shu bilan birgalikda Kliment Jyuglar (1819-1905), sikl tushunchasini uch fazaga «gullab - yashnash», «inqiroz», «depressiya» fazalariga ajratgan. Mazkur fazalar tahlilida, Jyuglar, statistik materiallarni keng qo`llagan holda, bank rezervlari, foiz stavkalari, tijorat kreditlari va tovar narxlari orasidagi bog`liqlikni ochib berishga harakat qilgan, ammo u siklni keltirib chiqaruvchi sabablarni izoxlab bera olmagan.

Iqtisodiy faoliyatda siklik tavsifini tushuntirish harakatlari nisbatan tez sodir bo`lgan. Avvalo, bu sikl nazariyasi, ekzogen nazariyalari bo`lib, ular sikl sabablarini iqtisodiyot doirasidan tashqarida tadqiq qilishgan. Barcha ekzogen nazariyalar quyidagi sxema asosida qurilgan: mo‘ayyan tashqi hodisa, iqtisodiyotga salbiy ta`sir o`tkazadi, va iqtisodiyotda inqiroz sodir bo`ladi, so`ngra mo‘ayyan vaqt davomida iqtisodiyot depressiya fazasidan o`tadi, undan so`ng esa yuksalish bosqichi boshlanadi. Ammo tashqi sabab yana takroran iqtisodiyotga ta`sir etadi va bu esa siklni qayta takrorlanishiga sabab bo`ladi. Iqtisodiyot

doirasidan tashqari bunday nazariya bir masalani dolzarbligiga holicha qoldiradi. Nima sababdan tashqi omil bu qadar takrorlanuvchi hodisa sifatida iqtisodiyotga ta`sir etadi? Nima sababdan inqiroz iqtisodiyotning bemor holati sifatida talqin etiladi.

Sikllilik ekzogen nazariya sifatida bir qator ijobiy jihatlarga ham ega: iqtisodiy mexanizm alohida tomonlari va sohalari o`zaro ta`sirini tadqiq etish, vaqt me`yori tadqiqoti (mo‘ayyan ta`sirning boshlanishi va natijasidagi vaqt) va boshqalar. Birinchi ekzogen siklnazariyalari orasida, marjinalistik inqilob asoschilaridan biri bo`lmish, U.N.Djevons nazariyasi muhimdir. U o`zining «Mo‘ayyan vaqtda yuzaga keluvchi tijorat o`zgarishlari masalalari haqida» (1862) asarida mazkur nazariyani “quyosh yuzasidagi dog`lar” nazariyasi deb ataydi. Uning ta`limotiga ko`ra, mo‘ayyan vaqtda yuzaga keluvchi yuqori darajadagi quyosh faolligi er yuzasida iqlim anomaliyalari yillariga to`g`ri keladi. Bu holatlar, hosil darajasini pasayishiga olib kelib, qishloq xo`jaligi inqirozini yuzaga keltiradi. Ular esa, o`z navbatida qishloq xo`jaligiga yaqin bo`lgan sohalar inqirozini keltirib chiqarib, keyinchalik butun xalq xo`jaligi sikllarini yuzaga keltiradi.

XIX asrning oxirida, iqtisodiy siklning endogen nazariyalari yuzaga kelib, ularda siklilik sabablarini iqtisodiyot doirasining ichida qidirilgan. Siklning barcha fazalari esa (Shu jumladan inqirozning o`zi ham) normal holat deb hisoblanib, xo`jalik hayotining mo‘ayyan davriga bog`liqligi ta`kidlangan. Jahondagi ilk endogen nazariyasi M.Tugan – Baranovskiy nazariyasi bo`lib, bu nazariya uning «Davriy ishlab chiqarish bilan bog`liq davriy sanoat krizislari» deb nomlangan magistrlik dissertatsiyasining asosini tashkil etdi. Mazkur dissertatsiya 1894 yilda Moskva universitetida himoya etilgan. Mazkur nazariya dunyoda katta ta``surot uyg`otgan. Uning nazariyasi fanga sof dengiz havosidek yorib kirdi, - deb yozgan edi mashhur amerikalik iqtisodchi A.Xansen.

Muallif siklning asosiy mohiyatini investitsiya hajmlarini o`zgarishi bilan bog`liqligini ochib beradi. Bu fikr, iqtisodiy sikl nazariyasining yangi davr haqidagi ilk fikrdir. Tyugan – Baranovskiy nazariyasiga ko`ra, iqtisodiy sikl sababi, boyliklar va investitsiyalarning o`zaro ta`sirlaridir. Ma`lumki, kapital to`planishi davomida uning qadri (narxi) pasayib boradi, bu pasayish esa mo‘ayyan darajaga etgach, investitsiyalar uchun asos yaratib berib, ular bundan kredit qimmatligi sababli samarasiz tus oladi. Investitsiyalar o`sishi, ishlab chiqarish o`sishini keltirib chiqaradi. Siklik ko`tarilish fazasi boshlanadi. Ammo investitsiyalarni oshishi xarajatlar oshirilishini ham bildirib, ular esa, buning natijasida, qimmatlashadi va investitsiyalar o`sishini pasaytiradi. Investitsiyalar va ishlab chiqarish qulashi fazasi boshlanadi, ammo Shu bilan birgalikda, boylikni to`planish jarayoni yuz berib, bu holat qayta takrorlanadi.

Tyugan - Baranovskiy nazariyasi keyingi rivojlanishi, germaniyalik A.Shpitxoff, shvetsiyalik G.Kassel` asarlarida davom ettirildi. Tugan - Baranovskiyning o`zi esa, iqtisodiy sikllar tadqiqoti bilan boshqa Shug`ullanmagan.

Keyingi davrlarda, sikl borasida yangidan - yangi nazariyalar ilgari surilib, ular orasida ham ekzogen, ham endogen nazariyalar mavjud bo`lib, ularning doirasida iqtisodiyot siklik harakatlari yangidan - yangi sabablari ko`rib chiqilgan. Nima bo`lganida ham, hozirgi vaqtgacha iqtisodiyot fanida iqtisodiyot siklining biror - bir yagona nazariyasi mavjud emas. Zamonaviy sikllar nazariyasini G.Xaberler yozganidek «bu iqtisodiy sikl kabi murakkab hodisa xo`jalik tizimining barcha sohalarini qamrab oladi, ammo aynan Shu sababli mo‘ayyan yagona omil yordamida uning kelib chiqish sabablarini tushuntirish mumkin emas».

XX asrning boshlarida, yirik sikllar nazariyasi ishlab chiqilib, bu nazariya zamonaviy iqtisodiyot fanida «Kondrat`ev sikli» sifatida ma`lum. Nikolay Kondrat`ev (1892-1938) Peterburg universitetidagi talabasi bo`lib, uning 1917 yilning fevral` va oktyabr` inqiloblari orasida muvaffaq hukumatni qaror toptirishda faol qatnashgan. Keyinchalik muvaffaq hukumat tarkibida oziq - ovqat vaziri o`rinbosari sifatida ham faoliyat yuritgan. Oktyabr` inqilobidan so`ng, Kondrat`ev Moskva qishloq - xo`jalik akademiyasi, hamda Narkomzem tashkilotida faoliyat yuritgan. 1920-yilda, u laboratoriya yaratib, mazkur laboratoriya asosida kon`yunktura institutini tashkil etib, jahon miqiyosida tanildi. Kondrat`ev 1928 yilgacha uning direktori lavozimida ham ishlagan. 1930 yillarda Stalin qatag`onlari boshlangan, qamoqqa olindi, va 1938 yilda otildi.

Yirik sikllar g`oyasi 1922 yildan boshlab Kondrat`ev asarlarida paydo bo`la boshladi. Mazkur muammoga bevosita bag`ishlangan ilk maqolasi, «Kon`yunkturaning yirik sikllari» (1925) deb nomlangan. 1926 yilda Kondrat`ev tomonidan mazkur mavzuda iqtisodiyot institutida ma`ruza o`qilib, bu ma`ruza katta munozaralarga sabab bo`lgan. Kondrat`evning yirik sikllarga bag`ishlangan oxirgi maqolasi 1928 – yilda nashr etilgan. Kondrat`ev yirik sikllari haqidagi yirik tadqiqotlari tazyiq ostida to`xtatilganligi sababli, uning mazkur sohadagi faoliyati natijalari quyidagicha.

1. Statistik ma`lumotlar yirik doirasi asosida u yirik sikllar mavjudligini isbotlab, buning uchun XVIII asr oxiridan 1920-yillar boshigacha bo`lgan davrni tadqiq etgan holda, to`liq va tugallanmagan ikki siklni aniqladi. Birinchi sikl oltmish yil davrni qamrab olib, keyinchalik asta - sekinlik bilan sikl davomiyligi qisqarishi kuzatildi (Jyuglar sikllari kabi).
2. Kondrat`ev empirik to`g`ri chiziqlarni ham ajratdi. Mazkur hodisalarni u statistik jihatdan kuzatib, nazariy jihatdan ularni tushuntira olmadi:

3. ko`tarilish fazasi boshida, ommaviy ravishda texnik kashfiyotlar tadbiq etilishi kuzatiladi;
4. ko`tarilish fazalari qulash fazalaridan farqli o`laroq, ijtimoiy hodisalarning yirik miqdori bilan tavsiflanadi;
5. qulash fazasida, ayniqsa qishloq - xo`jaligi ko`proq aziyat chekadi;
6. o`rta va kichik sikllar yirik sikllarga boy bo`ladi. Bu holat, ayniqsa yirik sikl ko`tarilish fazasida namoyon bo`lib, buning sababi ko`tarilish fazasi davomida, qulash fazasi kuzatilishidir.
7. Kondrat`ev yirik sikllar mexanizmi haqida ham mo‘ayyan gipotezalarni ilgari surgan.

U boylik va investitsiyalar o`zaro faoliyati haqidagi Tugan – Baranovskiy sikllari nazariyasini qo`llagan, ammo Shu bilan birgalikda, mazkur siklning u yoki bu bo`g`inini sikl sababi sifatida qabul qilib bo`lmasligini ham ta`kidlagan. Keyingi davrlarda, Marshall va Val`rasning muvozanat haqidagi g`oyalarini qo`llagan holda, Kondrat`ev birinchi tartib muvozanatidan keyingi tartib muvozanatlariga o`tish sikli vaqtida o`tuvchanlik sxemasini ham ilgari surgan.

Birinchi tartib muvozanati deb, u ishlab - chiqarish quvvatlari va zahira tovarlariga ta`sir etishi mumkin bo`lgan talabni ortishi va o`zgarishi mumkin bo`lmagan taklif hajmi, hamda ishlab chiqarish sharoitlari o`zgaruvchan davrini aytgan. Keyinchalik ikkinchi tartib muvozanati sifatida, u asosiy kapital zahiralari hisobiga iste`mol predmetlarini ishlab chiqaruvchi sohalarda ishlab chiqarishni kengayishi natijasida belgilanishini tushungan.

Keyingi davrlarda ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish sohalarida sanoat kengaya borib, bu holat iste`mol predmetlari ishlab chiqarilishi hajmiga ta`sir etadi va «Uchinchi tartib muvozanati» ni belgilanishiga olib keladi. Kondrat`evning yozishicha, aynan Shunday xolda kon`yunkturaning yirik sikllari mazkur tizim muvozanati real darajasidan chetlashish jarayonini tashkil etadi (uchinchi va undan yuqori tartib) va bu jarayon davomida, muvozanat darajasi ham o`zgaradi.

Kondrat`evning yirik nazariyalar sikliga qiziqishi, jahon iqtisodiy fanida hech - qachon yo`qolmagan, ammo 1970-1980-yillarda, kon`yunktura darajasi, oldingi 1940-1960- yillar boshida kuzatilgan kon`yunktura darajasiga qaraganda yuqoriligi bilan farqlanganligi sababli, iqtisodiyotda davlatning antisiklik nazorati natijasi sifatida talqin etilgan. Ammo 1960-yillar oxirida kuzatilgan uzoq muddatli 1980-yillarning boshigacha kuzatilgan qulash, ko`pchilik iqtisodchilarni Kondrat`ev sikli haqida eslashga majbur qildi. Ammo, yirik sikllar nazariyasi ishlab chiqarilishini tugatish jarayoni hanuz yagona natijaga olib kelmagan.

Nazorat uchun savollar:

1. Iqtisodiyot fanining uchta asosiy yo`nalishini quyidagi belgilarga ko`ra taqqoslang (mumtoz siyosiy iqtisod, marjinalizm va institutsionalizm):
2. Ulardan qaysi biri sof, qaysi biri ijtimoiy - iqtisodiyotni tadqiq etgan?
3. Ulardan qaysi biri sabab - natijaviy, qaysi biri iqtisodiy munosabatlarning funktsional talqinini qo`llagan?
4. Yo`nalishlardan qaysi biri iqtisodiyotning matematik modellashtirish, qaysi biri esa tasodifiy yo`nalishni qo`llaydi?
5. Mazkur yo`nalishlar va iqtisodchilardan qaysi birida iqtisodiyotga nisbatan tarixiy yondashuv mavjud?
6. Iqtisodiyot fanida dinamika va rivojlanish tushunchalari orasidagi farq nimada?
7. Yo`nalishlar va iqtisodchilardan qaysi biri, hukumatning iqtisodiyotga aralashuvini inkor etishadi, qaysi biri esa qabul qilishadi?
8. Institutsionalizm atamasi qaysi so`zlardan kelib chiqadi?
9. Institutsionalizm shakllanishi qanday umumilmiy asoslarga yondashgan?
10. Institutsionalizm yuzaga kelishining asosiy bosqichlari qanday?
11. XX asr boshida institutsionalizmning to`la - to`kis tasdiqlanishining ichki va tashqi sabablari nima?
12. Veblen fikricha, institut o`zgarishlari ichki sabablari nimada?
13. Veblen nazariyasi bo`yicha institutlar o`zgarishi qanday amalga oshadi?
14. Veblen iqtisodiyot tarixiy rivojlanishni qanday bosqichlarga ajratgan?
15. Veblen o`zi uchun zamonaviy bo`lgan jamiyatning asosiy qarama - qarshiliklarini nimada deb bilgan?
16. Veblen bekorchilar sinfini qanday tavsiflaydi?
17. Veblen jamiyat rivojlanishida qanday kelajakni ko`rgan?
18. Kommons institutsional iqtisodiyotni qanday talqin qilgan?
19. Kelishuv nazariyasi mazmuni nima?
20. Kommons kapitalizm rivojlanishi qanday bosqichlarini ajratgan va ma`muriy kapitalizm bosqichini qanday talqin qilgan?
21. Mitchell qanaqa asosiy iqtisodiy muammolarni tadqiq etgan?
22. Iqtisodiy sikllar tadqiqotlari qachon va nima sababdan boshlangan?
23. Mazkur tadqiqotlarga K. Jyuglar hissasi nimada?
24. Ekzogen va endogen sikllar nazariyasi nima bilan farq qiladi?
25. U.S. Djevons iqtisodiy sikli nazariyasining mazmuni nima?
26. M. Tugan – Baranovskiy iqtisodiy sikl nazariyasi mazmuni nima?
27. Yirik sikllar masalasi ishlab chiqarilishida N. Kondrat`ev hissasi qanday?
28. Yirik sikllar mexanizmini tushuntirish uchun, ijodiy ravishda uning tomonidan boshqa iqtisodchilarning qanday g`oyalari qo`llanilgan?

Mavzu bo`yicha adabiyotlar ro`yxati:

1. Бейтон А., Долло К., Дре А.М., Казорла А. 25 ключевых книг по экономике. Челябинск, 1999.
2. Веблен Т. Теория праздного класса. М., 1984.
3. Всемирная история экономической мысли. Т. 2-4. М., 1988-1990.
4. Зомбарт В. Буржуа. М., 1994.
5. Кондратьев Н.Д. Проблемы экономической динамики. М., 1989.
6. Селигмен Б. Основные течения современной экономической мысли. М., 1968.
7. Тюган - Барановский М.И. периодические промышленные кризисы. М., 1997.
8. Хансен А. Экономические циклы и национальний доход // Классика кейнсианства: В 2 т. М., 1997.
9. Шумпетер Й.А. История экономического анализа: В 3 т. СПб., 2001.

XV-BOB. NEOLIBERALIZM G‘OYALARINING MOHIYATI VA AHAMIYATI

15.1. XX asrda iqtisodiyot fanining rivojlanishi

Davr tavsifi. XX asr 20-30- yillarida iqtisodiyotda bir qator o`zgarishlarni `o`lishiga sabab bo`ldi. Birinchidan, yirik kompaniyalar katta ahamiyatga ega bo`lib, ular bozorda monopol hukmronligiga erishishdi. Butun iqtisodiy zanjir bo`ylab yirik firmalarning harakati nazorat o`rnatishga ishlab chiqarishning boshlang`ich bosqichidan sotilishgacha tadbirkorlikning korporativ formalarining rivojlanishiga olib keldi. Yirik firmalar va uyushmalarning harakatdagi agentlari bo`lgan bozor, erkin raqobatchilik modeliga muvofiq bo`lmay qoldi va aynan Shu sharoitlarda neomumtoz nazariya ham rivojlana boshladi.

Ikkinchidan, xo`jalik hayotida davlatning mavqei oshdi. Shuningdek, mazkur davr g`arb mamlakatlari urushdan keyingi rivojlanish davri hamdir. Urushlar davomida, davlatning bevosita iqtisodiyot ustidan nazorati kuchayadi. Bundan tashqari, qator tarixchilar fikricha, insoniyat tarixida ilk marotaba, mazkur urush davomida, g`alaba harbiy qo`mondonlar talantiga emas, mamlkatlar iqtisodiy kuchiga, hukumatlarning ishlab chiqarish resurslarini akkumulyatsiya qilish va ularni armiya ehtiyojlariga yo`naltirishiga bog`liq bo`ldi. Mazkur maqsadda urushda qatnashayotgan mamlakatlarda, ishlab chiqarish va narxlar ustidan nazorat tizimi o`rnatilib, hukumatning ishlab chiqarish jarayonidagi to`g`ridan - to`g`ri qatnashishi kengaydi. Urushda qatnashayotgan ko`plab Evropa mamlakatlari iqtisodiyotidagi davlat xarajatlari ulushi, 50%dan ortib ketdi. Urushdan so`ng, hukumatning iqtisodiyotga aralashish hajmlari qisqardi, ammo davlatning iqtisodiyotni tiklash dasturlari saqlanib qolindi.

Shu bilan birgalikda birinchi jahon urushidan so`ng Evropa mamlakatlarida siyosiy tizim ham o`zgarishiga sabab bo`ldi. Rossiyada inqilob natijasida, sotsialistik davlatchilik shakllanib, u davlatning hukmronligiga asoslandi. 1930-yilga kelib esa, bu holat direktiv rejalashtirish formasini ham qabul qildi. Shu davrning o`zida, Germaniya, Italiya va Ispaniyada fashistik diktatura hukmronligi qaror topib, ular iqtisodiyot korporativ tashkillashtirilishi va davlat nazoratiga asoslangan bu holat bozorda xususiy mulk saqlanib qolingan taqdirdagina imkoni mavjud edi.

Ko`rib chiqilayotgan davrning yana bir jihati, 1929-1933- yillar davomida kuzatilgan inqirozdir. O`zining shakllanish davri bo`yicha u siklik bo`lib, mazmun-mohiyati va davomiyligi bo`yicha boshqa inqirozlardan farq qildi. 1929-yil kuzida fond bozori inqirozga yuz tutishi, bankrotlik to`lqini, mamlakatning oltin standartidan voz kechishi, va valyuta kurslari o`zgarishi, narxlar tushib ketishi, jahon bozori hajmlari qisqarishi, ishlab - chiqarish, bandlik, daromadlar darajasi

qisqarishi, bularning barchasi 1930-yil boshida ko`plab g`arb mamlkatlari iqtisodiyoti yuz tutgan chuqur iqtisodiy qulashning asosiy qismlari edi. Mustaqil ravishda bozor mexanizimining yuzaga kelgan muammolarni hal etishga qodir emasligi, ko`pchilik yetakchi davlatlar hukumatini global davlat nazorati tizimiga o`tishga majbur qildi (AQSHda F. Ruzvel`tning Yangi iqtisodiy siyosati kursi, Germaniyadagi natsistik iqtisodiy siyosat va boshqalar).

15.2. 1920-1930-yillar davomida iqtisodiyot fani umumiy tavsifi

Umuman olganda, mazkur davrda iqtisodiyot fani rivojlanishining birinchi navbatda marjinalistik yo`nalishni faol kengayishi bilan bog`liq bo`lib, u 1930-yillarning o`rtalarigacha, asosan neomumtoz ko`rinishga ega edi. Mazkur maktab doirasida, zamonaviy iqtisodiyot fani asosini makroiqtisodiy nazariya variantini shakllanishi tugadi. Kapital (pul) nazariyasi o`zgarib, foydalilikni belgilashga nisbatan ordinalistik yondashuv tasdiqlandi, talab nazariyasi modernizatsiyasi amalga oshdi. Neomumtoz nazariya iqtisodiy tizim o`zgarishi ta`sirida o`zgarib, bu haqda yuqorida ham aytib o`tgan edik. Xususan, neomumtoz nazariya doirasida yuz bergan muhim o`zgarishlardan biri, bozorda to`liq raqobatchilik modeli qayta ko`rib chiqilishi bo`ldi. Mazkur model`, individlar ratsional harakatlari, to`liq informatsiyaning mavjudligi, mahsulot o`xshashi, bozor qatnashchilari tomonidan hukmronlik mavjud emasligini ko`zda tutar edi. Mazkur printsiplardan barchasi, asta - sekinlik bilan asr boshi iqtisodiy reallikka muvofiqsizlik sababli qayta ko`rib chiqildi. 1930-yillar davomida, birinchi tizimli monopolistik bozor nazariyalari yuzaga keldi. Garchi, bir yoki cheklangan miqdordagi sotuvchilarni ko`zda tutuvchi bozor modeli oldinroq ko`rib chiqilgan bo`lsa ham (bunday holatni hattoki Aristotel` asarlarida ham topish mumkin), aynan XX asr boshida, monopolistik bozor erkin raqobatchilik holatidan-da ko`ra ko`proq uchraydigan hodisa sifatida talqin etila boshlandi. Yangi muammo rivojlanish tadqiqotiga katta hissani, amerikalik iqtisodchi E. Chemberlin va ingliz iqtisodchisi Dj. Robinson qo`shdi.

Bunday sharoitlarda, bozorning tizim sifatidagi mexanistik interpretatsiyasidan voz kechilib, u alohida namoyandalar istagiga bog`liq emasligi isbotlandi. Monopolistik raqobatchilik modeli, yirik tadbirkorlar tomonidan bozor mexanizmi boshqarilishi imkoniyatini ko`zda tutar edi. Demak, insonlar harakatlari bilan iqtisodiyot, bozor mexanizmi, yoki «ko`rinmas qo`llar» emas, balki bozorni insonlar shaxsiy manfaatlari yo`lida boshqarishlari isbotlandi.

Inson omiliga ham bundan buyon katta e`tibor berila boshlandi. Birinchi navbatda, bu holat, tadbirkorlikning turli kontseptsiyalarini rivojlanishi bilan bog`liq bo`lib, ularning doirasida inson iqtisodiy harakatlari noaniqlik sharoitidagi harakatlar deb ko`rib chiqildi. Bu harakatlar ratsional hisob - kitobga emas,

intuitsiyaga asoslanishi ta`kidlandi (Dj. M. Keyns, F. Nayt, Y.Shumpeter). Shuni ham aytib o`tish joizki, inson harakatlari tabiatiga nisbatan bunday qarashlar ko`p jihatdan XX asr boshida yuzaga kelgan yangi falsafiy oqimlar, hayot falsafasi, ekzistentsializm g`oyalariga o`xshash bo`lib, umuman olganda, inson harakati va hayot ratsionalligiga nisbatan boshqacha qarashlar davriga xos edi.

Balanslashtirilgan bozor iqtisodiyoti haqidagi tezis ham tanqid ostiga olindi. Bozor, resurslar optimal taqsimlanishini ta`minlashi haqidagi mumtoz fikr ham, xususan 1920-yillarda xususan, «jamoatchilik ravnaqi» nazariyasi doirasida qayta ko`rib chiqildi. Mazkur nazariya, bozor qulashlarini tadqiq etib, ular natijasida mo‘ayyan tovarlarning kam ishlab chiqarilishi yoki aksincha, keragidan ko`proq ishlab chiqarilishi ta`kidlandi. Mazkur nazariya xulosasi, bozor mexanizmlari kamchiliklarini kompensatsiya etish maqsadida, davlat aralashuvi haqidagi talablari bo`ldi.

Iqtisodiy muvozanatga nisbatan ishonchga qarshi jiddiy argument sifatida, 1929-1933-yillar davomida yuz bergan buyuk depressiya bo`ldi. YUzaga kelgan chuqur inqiroz, doimiysiz ijtimoiy tizim chuqur depressiv holatga tushib qolishi mumkinligini ko`rsatdi. Neomumtoz nazariya, iqtisodiy depressiyalar imkoni mavjudligini tan olar edi, zero, iqtisodiyotga siklik o`zgarishlar xos ekanligini ta`kidlar edi. Ammo, u avtomatik ravishda muvozanat holatiga keluvchi mexanizm bozor tizimi balanslashtirilishi printsipiga asoslangan edi. Buyuk depressiyani ko`rsatishicha, muvozanatga qaytish mexanizmi doimo ham harakatda emas ekan. Bu holat qator iqtisodchilarni iqtisodiyotda muvozanatni o`rnatishga halaqit beruvchi omillarni qidirib topishga, hamda mazkur omillar faoliyatiga qarshilik qilish imkoniyatini beruvchi davlat siyosati choralarini ishlab chiqarishga majbur qildi.

1920-1930-yillar iqtisodiy adabiyotlarining o`ziga xos xususiyati, bandlik muammosiga nisbatan alohida e`tibor edi. Ko`pchilik iqtisodchilar, ishsizlik hodisasiga tushuntirish berish va mazkur muammoni echish bo`yicha choralarni belgilash zarur deb hisoblashgan (A. Pigu, E. Chemberlin, Dj. Robinson, Dj. Keyns, Dj. Xiks va boshqalar).

Bundan – da ko`proq e`tibor, iqtisodiy dinamika muammolariga ham qaratilgan. Ko`pchilik iqtisodchilar, iqtisodiy sikllar tadqiqoti bilan Shug`ullanishgan (neoavstriya maktabi, stokgol`m maktabi, neomumtoza). Iqtisodiy tahlilning Yangi sohasi, iqtisodiy o`sish masalalari bo`ldi. Uning ilk nazariyalari XX asrning 20-yillarida shakllanib, birinchi bosqichda o`ziga nisbatan katta e`tiborni tortmagan. Nima bo`lganida ham, ular iqtisodiy o`sish kelgusi kontseptsiyalari asoslarini yaratib, ham keynchalik, ham neomumtoz kontseptsiyalariga ta`sir etdi. Bunda so`z, avvalambor rus iqtisodchilari V.

Bazarov, G. Fel`dman va N. Kondrat`ev amerikalik matematik iqtisodchilar S. P. Remsey (1903-1930) va Dj. Fon Neyman (1903-1957) haqida ketadi.

Marjinalizm maktabi doirasida yangi maktablar yuzaga keladi. Ulardan biri, XIX asrning boshida shakllangan Stokgol`m maktabidir. Mazkur maktabning yorqin namoyandalaridan Knut Viksel` va Erik Lindal`ni tilga olish mumkin. Shved iqtisodchilari tomonidan, qator g`oyalar ilgari surilib, keyinchalik ular neomumtoz nazariyaning ko`plab qonuniyatlarini o`zgartirdi. Mazkur maktabning yangi g`oyalaridan biri, iqtisodiyot agentlar va bozorlardagi muvozanat shartlarining ratsional printsiplarini qayta ko`rish bo`ldi. Ular tomonidan kutish nazariyalari ishlab chiqarilib, mazkur nazariyaga muvofiq tadbirkorlar qaror qabul qilishda real iqtisodiy ko`rsatkichlardan emas, prognozlashtirilgan ko`rsatkichlardan chiqib kelishlari g`oyasi ilgari surilgan. Umaman olganda, vaqt omili, mazkur maktab iqtisodchilari tomonidan faol ravishda hisobga olinib, buning oqibatida tahlil dinamik ko`rinishga ega bo`ldi. Ular, vaqtinchalik va vaqtlararo muvozanat tushunchalarini kiritishdi. Iqtisodiy harakatning bunday Yangi tushunilishi asosida, harakat noaniqligi printsipi ilgari surilib, u prognozlashtirilgan va haqiqatdagi kattaliklar orasidagi farq yuzaga kelishi sababli, bozor mexanizm muvozanati harakati murakkablashishi yotadi.

Muvozanatning buzilishini yana bir sababini Shved iqtisodchilari pul omili bilan bog`lashgan. Ular, mablag` neytralligi haqidagi mumtoz tezisni tanqid qilishib, ularning fikricha birinchi navbatda nominal iqtisodiy ko`rsatkichlar mavjudligi real ko`rsatkichlar bilan mos tushmasligi sababli, bozor axborotini buzishi, demakki, iqtisodiy agentlar harakatlarini dezorientatsiya etishi mumkinligini ta`kidlab o`tishgan. Xususan bozor rivojlanish qonuniyatlarini buzilishini ta`kidlashgan. Mazkur qonuniyat, talab va taklif tengligini ilgari surib, faqatgina barter iqtisodiyoti doirasida faoliyat yuritishi mumkin. Mablag`ning paydo bo`lishi esa, daromadlarning bir qismini tejab, uning iste`mol qilishga yo`naltirmasligiga olib keladi, demakki muvozanat buziladi.

Stokgol`m maktabining iqtisodiyot fanini rivojlanishiga qo`shgan yana bir muhim hissasi, jamoatchilik daromadi va davlatning iqtisodiyotga aralashuvi zaruriyatini, siklik to`lqinlarni nazorat etish, tahlil usullarini ishlab chiqarish bo`ldi. 1930-yillar o`rtasiga kelib, yana bir keng tan olingan maktab paydo bo`ldi. Bu maktab, keyinchalik keynschilik maktabi nomini olgan. Uning asosida, ingliz iqtisodchisi Dj. M. Keyns nazariyasi yotadi. Mazkur maktab, neomumtozlarning qator qonuniyatlarini tanqid qilgan holda, marjinalistik yo`nalish doirasida qolgan. bundan tashqari, keynschilik paydo bo`lishi bilan marjinalizm doirasida ham muhim o`zgarishlar sodir bo`ldi. Mikroiqtisodiy yondashuvni qo`llagan neomumtozlardan farqli o`laroq, mazkur maktab, Yangi tahlil turi, makroiqtisodiyot tahlilini shakllantirdi. Garchi neomumtoza doirasida

makroiqtisodiy tavsifga ega bo`lgan masalalar ko`tarilgan bo`lgan bo`lsa ham (optimum nazariyasi, umumiy tenglik nazariyasi va boshqalar), bu holat mazkur maktab doirasida mikroyondashuv mavjudligiga ta`sir ko`rsatmadi. Keyns va uning tarafdorlari printsipial ravishda tadqiqot usulini o`zgartirishdi. Ular agregatsiyalangan ko`rsatkichlarni qo`llagan holda tadqiqotlarni yuritishar ekan, ommaviy talab va ommaviy daromad tushunchalarini qo`llashgan.

Marjinalizmga parallel ravishda institutsional yo`nalish ham to`liq shakllanib, u tarixiy maktab metodologik yondashuvlarini rivojlantira boshladi. XX asrning boshida, mazkur yo`nalish birinchi navbatda Germaniya eng Yangi tarixiy maktabida (V. Zombart, M. Veber) va amerika institutsionalizmi (T. Veblen, U. Mitchell, Dj. Kommens, 1930-yillarga kelib G. Minz, A. Berl`) asarlarida namoyon bo`ldi. Aynan Shu davrda, (ya`ni 1918-yilda) "institutsionalizm" atamasi kiritildi. Mazkur yo`nalish metodologiyasida ham, muhim o`zgarishlar sodir bo`ldi. Xususan, eng Yangi tarixiy maktab, bundan oldingi oqimlardan farqli o`laroq (Qadimgi va Yangi tarix maktablari), abstrakt usullar, empirik ma`lumotlar unifikatsiyasi usullari, ularni umumlashtirish usullariga alohida ahamiyat bergan. «Iqtisodiy tizim» (V. Zombart), «Xo`jalik yuritish ideal turlari» (M. Veber) kontseptual tushunchalari kiritilib, ular tarixiy usullarga tahliliy tavsif bera boshladi. Amerika iqtisodchilari institut tushunchasini ishlab chiqarishni boshlashdi. XIX asr tarixiy maktabidan farqli o`laroq, XX asr institutsionalistlarni, ularni tadqiq etish lozimligi g`oyasini ilgari surishdi. Institutsionalizm doirasida tarixiy usul pozitsiyalaridan marjinalistik yo`nalish tanqidi rivojlanishni davom ettirdi.

Iqtisodiy tizim muvozanati printsiplari, davlatning aralashmasligi, inson harakatlari motivlari tor interpretatsiyasi tanqid qilindi. Institutsionalistlar iqtisodiy tahlil qator Yangi yo`nalishlari asoslarini yaratib berishib, bular doirasiga harakat nazariyasi, iqtisodiy tashkiliylik nazariyasi, menedjerlar inqilobi va boshqalar kiritildi. 1930-yillarda, yosh institutsionalistlar (G. Minz, A. Berl`) paydo bo`lishib, ular yirik korporatsiyalar doirasida turli guruhlar harakatlari motiv va turlari tadqiqoti bilan Shug`ullanishgan.

Shuni ham aytib o`tish kerakki, 1930-yillarda institutsionalistlar katta e`tiborni siyosiy - iqtisodiyot masalalariga ham ajratishib, xususan Ruzvel`tning Yangi kursi ishlab chiqarilishida faol ishtirok etishdi.

15.3. Iqtisodiy siyosat masalalari

Iqtisodiy fikr doirasidagi muhim o`zgarish, davlatning iqtisodiyotdagi roliga nisbatan qarashlarning qayta ko`rilishi bo`ldi. Bozor tizimini tartibga solish bo`yicha davlat siyosatining bozor tizimini tartibga solishga qaratilgan harakatlari

zaruriyatlari haqidagi g`oya keng tarqala boshladi. XIX asr oxiri – XX asr boshida, davlatning xo`jalik hayotiga aralashuvi faqatgina antimonopoliya choralari, hamda qisman mehnat bozorini nazorat etish (ish kunini qisqartirish, eng kam oylik haqqini belgilash) bilan cheklanib kelgan. Ammo bu choralar, mumtoz aniq iqtisodiyot mustaqilligi haqidagi iqtisodiy nazariya qonuniyatlariga qarshi chiqar edi. Davlatdan faqatgina monopoliyalar o`sib ketishi, va nisbatan aholi alohida tabaqalariga nisbatan mazkur mexanizmni yumshatish talab qilinar edi.

XX asr boshi iqtisodshiy jarayonlari, XIX asr davomida hukmronlik surgan iqtisodiy liberalizm printsiplari tanqid ostiga olinishiga olib keldi. 1930-yillarning o`rtalariga kelib, davlat aralashuvining printsipial ravishda Yangi kontseptsiyasi shakllandi. U iqtisodiyot depressiv holati tahlili, hamda bozor tizimi mutloq samaraliligi g`oyasini (jamoatchilikka zarur bo`lgan tovarlar ishlab chiqarilish masalasi) tanqidi bilan bog`liq iqtisodiy nazariyada jiddiy o`zgarishlarni olib keldi. Bozor resurslarning samarali ravishda taqsimlanishi bilan ham asosiy iqtisodiy ko`rsatkichlarni muvozanat holatiga keltirish bilan ham Shug`ullanmayotganligi haqidagi tezis, davlatning bozor harakatlarini tartibga solish uchun aralashuvi zarurati haqidagi xulosani keltirdi. Aynan Shu g`oyalarni jamoatchilik ravnaqi nazariyasi (A. Pigu), institutsionalistlar va keynschilar, hamda stokgol`m maktabi g`oyalari ham ilgari surishgan.

Umuman olganda, iqtisodchilarning fikri uch guruhga bo`lindi. yuqorida tilga olingan birinchi guruh fikri, davlatning iqtisodiyotga faol aralashishi tarafdorlari edi. Iqtisodchilarning boshqa qismi, erkin iqtisodiyot mumtoz printsiplari tartiblari tarafdorlari bo`lishib, iqtisodiyotning istalgan turdagi markazlashishi va davlat tomonidan nazorat etish tarafdorlari, ayniqsa neoavstriya maktabi namoyandalari orasida kuzatildi. Xususan, bu fikrlarni Lyudvig fon Mizes va Fridrix fon Xayeklar ilgari surishgan. 1920-yilda L. Mizesning birinchi maqolasi nashr etilib, unda muallif Avstriya liberalizmi asoslarini belgilab berib, rejaviy tizim cheklovlarini tahlil etgan. 1927 - yilda «Liberalizm» kitobini yozib, unda o`z tanqidlarini davlatning iqtisodiyotga aralashuviga qaratib, bu holatni butun bozor tizimi dezorientatsiyasiga olib keluvchi bozor signallari buzilishi deb talqin qilgan. Shu munosabat bilan, u o`z davridagi hukumatlarni etarli darajada liberal emasliklarida ayblagan. 1930-yillarda, uning tarafdori F. Xayek mazkur g`oyalarni rivojlantirib, bozor iqtisodiy agentlarga o`z harakatlarini to`g`ri yo`naltirish imkoniyatlarini breuvchi signallar tizimiga ega ekanligini isbotlashga harakat qilgan. Bozorni reja bilan almashtirilishi, bozorning o`zgarishi narx axboroti va iqtisodiyot balansi buzilishiga olib kelishini aytib o`tgan.

Shu bilan birgalikda, iqtisodchilarning uchinchi guruhi ham paydo bo`lib, ular «liberalizm» doirasida qolgan holda, mazkur g`oyaga mo‘ayyan o`zgartirishlar ham kiritishdi. Mazkur oqim keyinchalik «neoliberalizm» nomini olgan. Bu oqim

XX asrning 30- yillarida paydo bo`ldi. Uning doirasida, London maktabi iqtisodchilari (xususan Layonell Robbins (1898-1984)), qator frantsuz iqtisodchilari (Al`ber Aftal`on, Moris Alle (1911)) va boshqalar, hamda nemis iqtisodchilari, Frayburg maktabi namoyandalari (Val`ter Oyken (1891-1950), Vilgel`m Ryobke (1899-1966), Aleksandr Ryustof (1885-1963) kabi olimlar faoliyat yuritishgan. Mazkur iqtisodchilar turli nazariy maktab tarafdorlari bo`lib, faqatgina davlatning iqtisodiyotdagi roli masalasidagi qarashlari bilan birlashishgan. Shu sababli, neoliberalizm, iqtisodiy nazariya emas, davlatning iqtisodiyotni nazorat etish kontseptsiyasidir. O`z harakatlarini birlashtirish maqsadida, neoliberallar qator anjumanlar tashkil etishib, ulardan birinchisi 1938 yilda Parijda o`tkazildi (Lipmann kollokviumi). Mazkur anjumanda neoliberalizm iqtisodiy dasturi ishlab chiqildi.

Neoliberal yo`nalish mazmunini belgilab bergan asosiy g`oya erkin iqtisodiyot bozorni samarali faoliyati zarur sharti bo`lib, xo`jalik yuritish liberal tizimining saqlab qolinishi esa, davlatning mo‘ayyan choralar ko`rishi sharoitida mumkinligidir. Shu sababli, mazkur oqim namoyandalari laises-faire mumtoz liberal printsipiga qarshi chiqishgan. Ularning fikricha, bozor mexanizmlari birinchidan, erkin tizim ishlab chiqarilishini ta`minlab bera olmaydi (monopolizatsiyaga qaratilgan oqimlar paydo bo`lib tizimning vaqtinchalik muvozanati buzilishiga olib keladi), ikkinchidan esa, daromadlar taqsimlanishining samarasiz tizimini shakllantiradi (aholining himoyalanmagan tabaqalari iqtisodiy hayotdan tushib qolib, qator iqtisodiy jihatdan effektiv sohalar, masalan fan rivojlanmay qoladi). Mazkur kamchiliklarni bartaraf etish uchun, aynan mana Shu kamchiliklar bartaraf etilishi uchun ham davlat aralashuvi zarurdir.

Davlatning birinchi majburiyati erkin iqtisodiyot institutsional tizimini yaratishdir. Mazkur institutsional tizim, tarkibiga qator tovar va kapitallarni erkin harakatlanishini ta`minlovchi qonunni oladi, xususan antimonopoliya choralari, hamda kichik tadbirkorlikni qo`llab - quvvatlash. Bundan tashqari davlat vazifalari tarkibiga u yoki bu iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik va jismoniy sabablarga ko`ra erkin bozor sharoitlarida teng ravishda faoliyat yurita olmaydigan aholi qatlamlarini qo`llab - quvvatlash ham kiradi. Shu bilan birgalikda, davlat aholining samarali iqtisodiy harakatlarini ham qo`llashi zarur (aholi soni ortishini qo`llab - quvvatlash, ishlab – chiqarish mehnati o`sishini quvvatlash, ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish).

Shunday qilib, neoliberalizm mumtoz liberalizm va dirijizm orasidagi o`rta nuqtani egallaydi. Bir tomondan, u bozor mexanizmlarining to`la avtonomiyasiga va davlatning faqatgina qorovul roliga qarshi chiqadi, boshqa tomondan, u mo‘ayyan davlat siyosati vositasida erkin iqtisodiyot tizimini saqlashga harakat qilib, erkin bozor iqtisodiyot tizimini nafaqat samaradorlik asosi, balki jamiyat

siyosiy va fuqarolik erkinligi asosi sifatida qabul qiladi. Neoliberallar davlatni futbol maydonidagi hakam sifatida ko`rib chiqib, garchi sud`ya o`yinda bevosita ishtirok etmasada, o`yin qoidalariga rioya qilishni kuzatib boradi.

Uzoq muddat davomida, neoliberalizm oppozitsiyada bo`lgan, Chunki XX asrning 30-yillari boshidan, 60- yillari oxirigacha, davlatning iqtisodiyotdagi roli kuchayishi tendentsiyasi kuzatilgan. Faqatgina urushdan so`nggi Germaniyada markazlashtirilgan natsizm tizimi qulashidan so`ng liberalizm o`sishi, neoliberallar g`oyalari ijtimoiy bozor xo`jaligi amalga oshirayotgan ijtimoiy siyosatida o`z aksini topdi. Dunyo bo`yicha esa, neoliberalizm XX asrning 70-80 yillariga kelibgina, keng tarqalgan.

Nazorat uchun savollar:

1. XX asr 20-30-yillari iqtisodiyotining farqli tomonlarini sanab bering.
2. Iqtisodiyot fanida XX asrning 20-30-yillarida mavjud bo`lgan asosiy yo`nalish va maktablarni sanab o`ting.
3. XX asr 30-yillari oxiriga kelib marjinalizm yo`nalishi doirasida yuz bergan asosiy o`zgarishlarni sanab bering.
4. Stokgol`m maktabi iqtisodiyot nazariyasi rivojlanishiga qanday hissa qo`shdi.
5. Mazkur davr institutsional yo`nalishi rivojlanishi asosiy xususiyatlari qanday?
6. Keyns davlat nazorati kontseptsiyasidan va mumtoz liberalizmning neoliberalizmdan nimasi bilan farq qiladi?

Mavzu bo`yicha adabiyotlar ro`yxati:

1. История экономики: Учебник / Под ред. О.Д. Кузнецовой и И.Н. Шапкина. М.: ИНФРА – М, 2002.
2. Камерон Р. Краткая экономическая история мира от палеолита до наших дней. М.: РОССПЕН, 2001.
3. История экономических учений. Ч- II. / Под ред. А.Г. Худокормова. М., 1994.
4. Блюмин И.Г. Критика буржуазной политической экономии. Т.- III. М., 1962.

XVI-BOB. NEOMUMTOZ YO`NALISHINING RIVOJLANISHI

16.1. Kardinalistik yondashuvdan ordinalistik yondashuvga o`tish

XIX asrning so`nggi davrida iqtisodiyot fanida yuz bergan marjinalistik inqilob, neomumtoz yo`nalish rivojlanishi uchun kuchli turtki bo`ldi. Iqtisodiyotda Yangi matematik apparatning tadbiq etilishi, ko`plab kontseptsiyalar rivojlanishiga olib keldi. Iqtisodiy nazariya, deyarli Yangi mazmunda boshqatdan yozib chiqildi. Uning asosini esa grafik va tahliliy ko`rinishdagi maksimal tahlili bo`ldi. Bu holat, mumtoz nazariya echa olmagan bir qator muammolar echilishi imkoniyatini, hamda iqtisodiy qonuniyatlarning keyingi unifikatsiyasining imkoniyatini berdi. Xususan, maksimal foydalilik printsipini tadbiq etilishi, narxga ta`sir etuvchi ikki omil tushunchasini yani, kam uchrashlik va predmet foydaliligi bir tushunchaga birlashtirish imkoniyatini berdi, bu holat suv va brilliantlar haqidagi paradoksni echib berdi.

Qiymatning Yangi talqini, nisbatan to`laroq edi, zero tarkibiga kam uchraydigan tovarlar tahlilini olib, ular qiymatning mehnat nazariyasi doirasida bundan oldin ko`rib chiqilmagan edi (Rikardo).

Ammo marjinalistik inqilob davomida, o`z echimini talab etayotgan qator Yangi masalalar ham yuzaga keldi. Xususan, maksimal darajadagi foydalalikka asoslangan Yangi usul, o`z sub`ektivizmi bilan farq qilar, Chunki barcha asosiy iqtisodiy toifalar tovar foydaliligi individual baholanishidan kelib chiqgan edi.

Bunday yondashuv, aniq iqtisodiy vazifalar echilishiga o`tishga qator muammolarni yaratar edi. Xususiy iste`molchilik istaklari, o`zining sub`ektiv tavsifi sababli, aniqlanishi murakkab bo`lib, aynan Shu sababli ularni miqdoriy ravishda baholash imkoniyati yo`q. Buni tushungan holda, iqtisodchilar, maksimal foydalilik nazariyasi sub`ektivizmini echishning asosiy yo`nalishlarini ishlab chiqishdi.

Sub`ektivizm masalalarini echishdagi asosiy holat, foydalalikning kardinalistik talqinidan, ordinalistik talqiniga o`tish bo`ldi. Kardinalistik yondashuv deb, marjinalistik inqilob birinchi bosqichida qo`llanilgan yondashuvga aytiladi. U absolyut ko`rinishdagi har - bir alohida tovar iste`molchilik foydaliligining miqdoriy bahosini nazarda tutadi. Masalan, U. Djevons foydalilik darajasini baholashda «utili birligi» atamasini kiritgan. Ordinalistik yondashuv al`ternativ varianti bo`lib, uning doirasida, boshqa tovarlarga nisbatan tovar yoki tovarlar guruhining qaysi biri iste`molchi uchun istalganligini aniqlash etarli deb hisoblanadi. Mazkur yondashuvni qo`llanilishi, bozordagi tovarlar mutanosibligi yoki almashinuvi mexanizmi tahlili uchun farqsizlik chiziqlarini kiritish imkoniyatini berdi. Ilk marotaba mazkur chiziqlarni ingliz iqtisodchisi Frensis

Edjuort (1845-1926) kiritgan. Uning o`zi foydalalikning miqdoriy hisobi imkoniyatiga asoslangan. Yangi ordinalistik uslub yaratilishi uchun, mazkur chiziqlarni ilk marotaba Vil`fredo Pareto qo`llagan. Aynan uning siyosiy iqtisodiyot darsligida, ordinalistik foydalilik kontseptsiyasi o`z ko`rinishiga ega bo`ldi.

Yangi yondashuv rivojlanishiga katta hissa qo`shgan iqtisodchilardan biri Djon R. Xiks (1904-1989) bo`ldi. Uning «Tannarx va kapital» (1939) asarida, ordinalizm iqtisodiy nazariyadan ustun kelishi tilga olingan.

Dj.Xiks tomonidan farqsizlik chiziqlarining yangi interpretatsiyasi kiritildi. U mazkur chiziqlarni tovar foydaliligi sub`ektiv baholanishiga asoslanib emas, bir tovarning boshqa tovarga nisbatan maqbul ko`rilishi empirik faktlari asosida, qurilishini taklif qilgan. Buning uchun, eng maqbul xarid tuzilishi, tahlil etilgan. Xaridor tanlovi, bir tovarning boshqa tovarga nisbatan ko`proq maqbul ko`rilishi akti sifatida talqin etilgan. Endilikda foydalilik maksimal darajasi kamayishi fakti, bir tovardan boshqa tovar foydasiga voz kechishda aks etar edi. Buning natijasida, tovar maksimal foydalilik tushunchasi Dj.Xiks tomonidan ikki tovar o`rin almashish maksimal normasi toifasiga kiritildi. U endilikda, foydalilik absolyut darajasi o`lchanishini talab etmas edi. Demak, ikki tovar o`rin almashish maksimal pasayib borayotgan normasi tamoyili asosida tovar maksimal pasayayotgan foydalilik printsipi bilan almashtirildi.

Foydalilikni tadqiq etish Yangi printsipi natijasida, tadqiqotchilik vazifasi ham o`zgardi. Endilikda, u yoki bu tovar foydalilik darajasini aniqlash zarurati yo`q edi. Tadqiqot markaziga, bir tovar foydasiga ikkinchi tovardan voz kechish va mazkur istakning o`zgarishiga ta`sir etuvchi omillarni aniqlash masalasi qo`yildi, Shunday qilib, tahlilga ob`ektiv iqtisodiy toifalar kiritila boshlandi.

Dj. Xiks o`z nazariyasining mazkur qismida rus iqtisodchisi Evgeniy Slutskiy asarlaridan foydalanib, Evgeniy Sluchkiy ingliz iqtisodchisi asarlaridan ancha oldin talab tahliliga nisbatan ob`ektivlashtirilgan yondashuvni taklif qilgan edi. U o`z e`tiborini, tovar foydaliligi sub`ektiv baholanishi masalasiga bog`liqligini emas, tashqi omillar ta`sirini qo`yib, tashqi omillar, iste`molchilik istaklariga ta`sir ko`rsatishini aytib o`tgan edi.

Xususan, o`zining «Iste`molchi balanslashtirilgan byudjeti nazariyasi» (1915) asarida, u narxlar va daromad darajasi o`zgarishida, iste`molchi harakatlari qay tarzda o`zgarishini tadqiq etgan edi.

Shunday qilib, ob`ektiv iqtisodiy toifalarning o`zaro ta`siri, tadqiq etilib, buning asosida talab, va daromadlar olingan. Slutskiy asarlari mustaqil ravishda jahon iqtisodiy adabiyotiga keng tarqalmagan, zero bunga tarixiy hodisalar sabab bo` lib, aynan Xiks va uning tomonidan rus iqtisodchisi asarlariga tayanishi, mazkur g`oyalar tiklanishiga zamin yaratgan.

Boshqa ingliz iqtisodchisi Roy Dj. Allen (1906-1983) bilan birgalikda, Xiks Slutskiy yondashuvini rivojlantirdi. Olingan xulosalar, avvalo 1934 yilda nashr etilgan «YAna bir bora narx nazariyasi haqida» asarida aytib o`tilib, keyinchalik Dj. Xiks qalamiga mansub «Tannarx va kapital» asarida rivojlantirildi. Buning natijasida, tovarning ikki asosiy vazifasi funktsiyasi ajratildi – ya`ni almashinuv va daromad samaralari. Almashinuv samarali, narxlar o`zgarishi sababli tovarga nisbatan talab o`zgarishini bildirilib, bunda qay turdagi tovarlar ayniqsa yuqori darajada talab etilishi va boshqa tovarlarni bozordan siqib chiqarishi tushuntirilgan. Daromad samarali, iste`molchi daromadlari ortishi yoki pasayishi natijasida talab qay darajada o`zgarishini tushuntiradi. Birinchi kontseptsiya, ya`ni almashinuv samarali, maksimal darajadagi foydalilik mavjud nazariyasining modernizatsiyalashtirilgan varianti edi. Ikkinchisi, ya`ni daromadning talabga ta`sir etuvchi element sifatida ko`rib chiqilishi, neomumtoz nazariyadagi printsipial ravishdagi Yangi holat bo`ldi. Shu sababli, bu elementni to`liqroq ko`rib chiqamiz. Umuman olganda, daromad samarali, to`g`ridan - to`g`ri daromad va talab darajasiga bog`liq: daromadlar ortishi sayin, o`rtacha darajada tovarlarga talab ham oshadi. Daromad pasaygani sayin esa, tovarlarga nisbatan talab tushib ketadi. Mazkur umumiy qonuniyat bilan birgalikda, qator istisnolar mavjud. Ulardan ikkitasini keltiramiz.

1. Daromad miqdori oshib boishi bilan, arzon, yomon sifatga ega tovarlarga nisbatan talab pasayadi, Chunki individ iste`mol tuzilishi o`zgaradi. Katta moliyaviy imkoniyatlarga ega bo`lgan iste`molchi, yuqori sifatdagi tovarlarni sotib olishga moyil bo`ladi, va ular bundan oldin uning daromadlari uchun juda qimmat edi. Demakki, past darajadagi sifatga ega tovarlarga talab, bunday iste`molchi tomonidan qisqaradi.
2. Daromadlar pasayishi sayin, aholining kam daromadli qatlamlarida birinchi navbatdagi ehtiyojga ega tovarlarga nisbatan talab ortadi. Buning sababi, qimmatbaho tovarlar endilikda arzonroq tovarlar bilan almashtirilishidir. Masalan, kam ta`minlangan oila, oila byudjeti qisqarganida, nisbatan qimmat oziq - ovqat mahsulotlarini sotib olishdan voz kechadi va ularni eng arzon oziq-ovqat tovarlari bilan almashtiradi. Masalan, non bilan. Demakki daromad pasayishi, mazkur tovarga nisbatan, talab o`sishiga olib keladi.

16.2. Kapital nazariyasi

Daromadlarni diskontlashtirish uslubi. XX asrning 20-30- yillari davrida, kapital nazariyasida muhim o`zgarishlar yuz berdi. Shu sababli amerikalik iqtisodchi Irvin Fisherning (1867-1947) asari alohida e`tiborga sazovordir. Mazkur asar «Kapital va daromad» deb nomlanib, u 1906 yilda nashr etilgan. Uning

nazariyasi, tovarlar zahirasi va mazkur tovarlardan xizmat oqimi tushunchalarining ajratilishiga asoslangan. Bunday chegaralash, mazkur iqtisodchining kapital nazariyasi rivojlanishiga qo`shgan katta hissasi hisoblanadi. I. Fisher, daromadni kapitaldan «unga egalikni ta`minlab beruvchi xizmatlar oqimi summasi sifatida baholashni taklif etgan». Shunday qilib, kapitalning tannarxi ham belgilanadi. U daromadlar (xizmatlar) narxiga teng bo`lib, ularni mazkur kapitalga egalik qilgan holda olish mumkin bo`ladi.

Bunday yondashuv, kapital qo`llanilishi turli ko`rinishlarini baholash haqidagi masalani ko`ndalang qo`ygan. Har - bir kapital uchun, uning qo`llanilishi borasidagi variantlar imkoniyatlarining alohida spektri mavjud. Bu variantlar, kapitaldan turli xizmatlar oqimini ta`minlaydi. Mazkur xizmatlar daromadliligini hisoblash, u yoki bu investitsiya daromadlilik darajasini taqqoslash imkoniyatini beradi. Bunda, investitsiya kiritish va daromad olish orasidagi turli vaqtinchalik lagalarni ham hisobga olish zarur. Mazkur omilni hisobga olish uchun, I. Fisher Yangi uslubni ishlab chiqarib, unga “diskonlashtirish” nomini berdi.

Diskontlashtirish uslubining mohiyati quyidagicha. Kapitalga ijobiy foiz stavkasi mavjud bo`lgan sharoitlarda (R), hozirgi kunda mavjud bo`lgan kapitalning yuz birligi, kelajakdagi kapitalning yuz (1++R) birligiga teng bo`ladi, ya`ni kiritilgan kapital miqdori + undan olinadigan foiz miqdori. Aksincha, agarda kelajakda yuz daromad birligi olinish taxmin qilinayotgan bo`lsa, bu daromad 100/(1+R) daromad birligiga teng bo`ladi.

Kelajakda kapital investitsiyadan olinadigan daromadlarni baholash uchun, vaqtning turli davrlarida uni diskontlashtirilishini amalga oshirish zarur, ya`ni ularni hozirgi davr daromadlari formasida ko`rsatib, summalashtirish kerak.

$$I = \sum_{I=I}^{T} \frac{y_i}{(1+r)^i}$$

bu erda i =2, …, T; Yi I - davridagi daromad; T - daromad olinishi umumiy davridir.

Mazkur formula asosida, kapitaldan olinadigan kelajak daromadlarini hozirgi davr kattaliklarida ko`rsatib, uni baholash va kapital investitsiyasi turli variantlarida rentabellikni baholash va taqqoslash mumkin bo`ladi.

Noaniqlik va tadbirkorlik nazariyasi. Nekolassik nazariyasi Yangi elementlaridan yana biri alohida daromad turi sifatida tadbirkorlik daromadini ajratish bo`lib, o`sha davrlarda bu daromad kapitaldan olinadigan daromad bilan bog`liq bo`lmay, noaniqlik sharoitlaridagi harakatlar natijasi deb hisoblangan. Noaniqlik omilining ajratilishi esa, o`sha davrlarda muhim tahliliy Yangilik bo`ldi. Keyingi davrlarda u mustaqil ravishda, kutish nazariyasi doirasida rivojlanib

(Stokgol`m maktabi, keyinchalik), iqtisodiy muvozanat va inson ratsional harakatlari printsipini talqin etuvchi kontseptsiyalarda o`z aksini topdi.

Mazkur nazariyani rivojlanishiga katta hissani amerikalik iqtisodchisi, Frenk Nayt (1895-1973) qo`shdi. Ta`kidlab o`tish joizki, undan oldin bu g`oyalar Irlandiyalik Richard Kantil`on (1680-1734) va nemis iqtisodchisi Iogann Genrix fon Tyunen (1783-1850) tomonidan tilga olingan. Ilk marotaba R. Kantil`on tadbirkorlik tushunchasini kiritib, tadbirkorlik daromadini noaniqlik sharoitlarida mo‘ayyan harakatlar uchun olingan to`lov deb talqin qilgan. I. Tyunenning hissasi Shundaki, u ilk marotaba, tavakkalni aniq va noaniq turlarga bo`lib, tadbirkor daromadini tavakkalning ikkinchi ko`rinishdagi turi bilan bog`lagan.

F. Nayt o`zining «Tavakkal noaniqligi va daromad» (1921) nomli asarida ham, tavakkalning ikki turlari orasidagi chegaralanishni qo`llab kutilmagan tavakkalni noaniqlik deb atagan. Kutilgan tavakkal, baholanish va sug`rta qilish imkoniyati mavjud bo`lgan omadsizlikning hisobga olingan darajasi bo`lsa, noaniqlik, yaqin kelajak haqidagi mo‘ayyan axborotning mavjudsizligi bo`lib, bu noaniqlik sug`urtalanishi mumkin emas. F. Nayt fikricha, tadbirkorning daromadi, noaniqlik sharoitlaridagi harakatlari uchun to`lovdir. Bunday daromad, ishlab chiqarishga qilingan harakatlar hajmi yoki texnologiyalar darajasi bilan bog`liq emas, u to`laligicha iqtisodiy imkoniyatlariga bog`liq bo`lib, bu imkoniyatlar ratsional hisob - kitob bilan bog`liq emas, zero noaniqlik sharoitlarida bunday hisob - kitoblar imkoniyati printsipial ravishda zarur axborot mavjud emasligi sababli imkonsizdir. F. Nayt nazariyasi neomumtoz yo`nalish doirasidagi iqtisodiy agentlar harakatlari muhim belgilovchisi sifatida harakat noratsionalligi va axborot vakuumi, noaniqlik tushunchasini kiritgan birinchi g`oya bo`ldi.

Mazkur nazariyaning yana bir e`tiborli tomoni Shundaki, Dj. B. Klark, A. Marshall va Dj. Xiks nazariyalaridan farqli o`laroq, u iqtisodiyot statsionar holatidagi daromad mavjudligini ya`ni muvozanat nuqtasini ko`zda tutadi.

Keyingi davrlarda, tadbirkorlik g`oyalari rivojlanishiga katta hissani avstriyalik iqtisodchi Yozef Shumpeter (1883-1950) kiritdi. Xususan, o`zining «Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi» (1912), keyinroq esa 1942 yillarda mazkur g`oyasini u «Kapitalizm, sotsializm va demokratiya») asarida ham tilga olgan edi. U o`z zimmasiga tadbirkorlik kombinatsiyalarini Yangidan realizatsiya etish bo`yicha zimmasiga katta tavakkalni olgan. Bunda mazkur harakatlar aniq hisob - kitoblarga emas, aksincha hisoblar tavakkal qilish imkoniyatini bermasligi haqidagi fikrga asoslangan. Shumpeterning daromad tushunchasi F.Nayt fikri kabi, aynan tadbirkor harakatlari bilan bog`liq. Faqatgina mazkur daromad manbai boshqacha tarzda interpretatsiya qilingan. Shumpeterning fikricha, tadbirkor olishi mumkin bo`lgan o`ta yuqori daromad, Yangi uslub qo`llanilishi uchun monopoliya narxidir. Yangi yo`nalish keng tarqalgani sayin, tadbirkorning

monopoliya holati buziladi va uning daromad darajasi to`la yo`qolmaguncha pasayib boradi.

Qiymat nazariyasi. Neomumtoz qiymat nazariyasi, biz ko`rib chiqayotgan davrda deyarli o`zgarmadi. Umuman olganda, Irvin Fisher o`zining «Qiymatning xarid kuchi» (1911) asarida aytib o`tgan formasida, miqdoriy darajada saqlanib qolib, dominant g`oya sifatida uzoq muddat qo`llanilgan.

I. Fisherning mumtoz formulasi, aylanmadagi mablag` miqdori va bir tomondan uning aylanishi, va boshqa tomondan narx ko`rinishida tovar oldi - sotdi aktlari miqdori (transaktsiya) bilan bog`liklik ko`rinishida belgilanadi.

$$MV+M` V` = PT$$

Bunda katta M – aylanmadagi naqd mablag` summasi; V - ularning aylanish tezligi; M` - chek hisoblaridagi mablag` summasi; V` - mazkur mablag`lar aylanish tezligi; P – narxlar o`rtacha hisoblangan darajasi; T - transaktsiyalar hajmi.

I. Fisher tenglamasida, so`z barcha transaktsiyalar amalga oshirilishi uchun iqtisodiyot talablariga muvofiq bo`ladigan mablag` takliflari haqida ketadi. Shu sababli mazkur tenglama, neomumtoz nazariya makroiqtisodiy elementlaridan biri bo`ldi.

1921 yilda yuz bergan iqtisodiy inqiroz va keyingi depressiya iqtisodchilarni narxlarning ishlab chiqarish siklik to`lqinlanishi orasidagi bog`liqlikka e`tiborni qaratishga majbur qilib, narxlar umumiy darajasi haqidagi tezisni Shubha ostiga olishga majbur qildi. Qiymatning miqdoriy nazariyasini qayta ko`rish harakatlarini frantsuz iqtisodchisi Al`ber Aftal`on (1874-1956)amalga oshirdi. 1927 yilda, uning «Zamonaviy dunyo mablag` qadri» deb nomlangan kitobi nashr etilib, unda muallif 1914 - 1920 yillar davomida mablag` massasi aylanmasi va mablag` xarid imkoniyati orasidagi bog`liqlik kuzatilmaganligini aytib o`tgan. Nima bo`lganida ham, u nazariyaning asosiy holatlaridan voz kechmasdan, uni psixologik omili asosida modifikatsiya etishni taklif qilgan, ya`ni mablag` maksimal foydaliligini sub`ektiv baholash asosida. Bu holat, tabiiyki, mablag` miqdori oshishini sekinlashtirishi kerak edi.

1920 yillarda, kassa qoldiqlari yoki mablag` miqdoriy nazariyasining kembridj ko`rinishi paydo bo`ldi. U A.Marshall tomonidan taklif etilib, keyingi davrlarda A. Pigu tomonidan «Qiymat va narx» maqolasida to`liq tahlil etilgan (1917). Keyingi davrlarda qiymat nazariyasi mazkur variantini Keynschilar qo`llashgan. Qiymat miqdoriy nazariyasining Kembridj varianti mumtoz nazariyaning o`zgartirilgan varianti bo`lib, unda mikroiqtisodiy fikrlar namoyon bo`lgan. uning talqin etishicha, muhimi, barcha almashinuv operatsiyalar realizatsiyasi uchun iqtisodiyotga zarur bo`lgan mablag` miqdori emas balki transaktsiyalarni amalga oshirish uchun individlar egalik qilishni hohlagan mablag` miqdori ilgari surilgan. Demak, qiymat harakati umumiy miqdor bilan emas,

individlar tomonidan qiymatga nisbatan talab tahlil etiladi. Nazariyaning bunday varianti, talab darajasiga ta`sir etuvchi sub`ektiv omillar tahlili uchun yo`l ochib beradi. Masalan, likvidlik hajmi, qiymat spekulyativ talabi, bu holatlar, keyinchalik Dj. M. Keyns tomonidan o`z nazariyasi doirasida ko`rib chiqilgan edi.

Kembridj tenglamasi quyidagicha ko`rinishga ega.

$$M=kPY$$

Unda, mablag`ga nisbatan talab, transaktsiya hajmi bilan emas, nominal ko`rinishidagi P (PY) daromadlar darajasi (Y) bilan belgilanadi. Ta`kidlanishicha, mablag` miqdori, individ nominal daromadining doimiy ulushini tashkil etib, bu holat lotincha K. - koeffitsientida aks etadi. Bu individ likvid formada saqlashni istagan daromad ulushidir.

Qiymat miqdoriy nazariyasi, 1921 yilda boshlangan urushdan keyingi inqiroz sharoitlarida iqtisodiy siyosat yuritilishi bo`yicha neomumtoz tavsiyalarga asoslangan. Mazkur siyosat mohiyati, narxlarni barqaror etish maqsadida hukumatning moliya - kredit sohasiga aralashishidir. Mazkur masalada, ayniqsa faol pozitsiyani I. Fisher egalladi. «Dollar stabilizatsiyasi» kitobida (1921), u dollar mohiyatini belgilab beruvchi oltin zahirasini narxlar umumiy darajasi o`zgarishiga muvofiq o`zgartirishni taklif qildi. Narxlar oshganda, pul birligi asosidagi oltin zahirasini oshirish kerak edi. Narxlar pasaygan davrda, aylanmada mavjud bo`lgan mablag` miqdorini banklarda qo`shimcha rezervlar taqdim etish vositasida oshirish lozim edi. Bunday choralar, narxlar oshishiga olib kelib, demakki, sanoat daromadlilik darajasi oshishi va inqirozdan chiqish yo`llari topilishini ko`zda tutar edi.

1920-yillarda, qiymatni miqdoriy nazariyasiga nisbatan radikal tanqidlar ham yuzaga keldi. Mazkur tanqid amerikalik institutsionalist U. Mitchell tomonidan ilgari surilib, uning ta`kidlashicha, narx darajasi va qiymatga nisbatan talab, umum qabul qilingan iqtisodiy ko`rsatkichlarga bog`liq emas, aksincha, ular mablag`ga nisbatan talabni shakllantiruvchi individlar harakatlari motivlariga institutsional ravishda asoslangan murakkab munosabatlarga egadir.

Qiymatni al`ternativ nazariyasini avstriyalik iqtisodchilar ham ilgari surishgan. Xususan F. Xayek o`zining «Qiymat nazariyasi va savdo sikli» (1933) asarida, an`anaviy nazariya, iqtisodiyotda qiymat Yangi massalarining notekis taqsimlanish faktini tan olinmasligini ko`rsatib o`tgan. Bu holat, disproportsiya va yolg`on bozor signallari yuzaga kelishiga olib keladi. Mazkur g`oya, sekin harakatlanuvchi inflyatsiya haqidagi YUm nazariyasiga o`xshash bo`lib, Kantil`on g`oyalarini takrorlagan; to`g`ri, YUm qiymat notekis taqsimlanishi faktini ijobiy baholagan, bundan avstriyalik iqtisodchilar xususan L. fon Mizes, mumtoz qiymat nazariyasi, naqdsiz hisob - kitob mavjudligini hisobga olmagan, ya`ni banklardagi hisob

raqamlari hajmini, vaholanki ular ham mablag` funktsiyasini bajarib, ularning hajmi umumiy narxlar hajmiga ta`sir etadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Foydalalikning kardinalistik yondashuvini belgilashdan ordinalistik yondashuvga o`tish mohiyati nimadan iborat edi?
2. Dj. Xiks maksimal foydalilik darajasi atamasi bilan almashtirgan nazariyada qanday tushunchadan ofydalangan?
3. Almashinuv va daromad effekti nima?
4. Diskontlashtirish nima? Mazkur usulni kim kiritgan va u nima uchun qo`llanilmoqda?
5. XVIII – XIX asr iqtisodchilaridan qaysi birinining kontseptsiyasi F. Nayt tadbirkorlik kontseptsiyasida o`z rivojlanishini topdi?
6. F. Nayt nazariyasiga muvofiq tavakkal va noaniqlik orasidagi farq nimada?
7. Mablag` miqdoriy nazariyasi transaktsion versiyasi ning mazkur nazariya kembridj variantidan printsipial farqi nimada?
8. Mablag` miqdoriy nazariyasining qaysi aspektlari avstriya maktabi, xususan F. Xayek tomonidan tanqid ostiga olingan?

Mavzu bo`yicha adabiyotlar ro`yxati:

1. Слуцкий Е.Е. К теории сбалансированного бюджета потребителя. Экономико - математические методы. Народно-хозяйственные модели. Теоретические проблемы потребления. М., 1963.
2. Хикс Дж.Р. Стоимость и капитал. М.: прогресс – Универс, 1993.

XVII-BOB. NOMUKAMMAL RAQOBAT BOZORI NAZARIYALARI

17.1. E.Chemberlin monopolistik raqobatchilik nazariyasi

Monopoliya holati iqtisodiy ta`limotlar tarixi davomida ko`pchilik iqtisodchilar tomonidan ko`rib chiqilgan. Mazkur muammoning ayniqsa yorqin misollari sifatida, frantsuz iqtisodchisi Antuan Ogyusten Kurne asarlarida ko`rib chiqilgan. «Boylik nazariyasi matematik printsiplari tadqiqoti» (1838) asarida iqtisodiyotda, monopoliya va duopoliya holati keng ko`rib chiqgan. Kurne tomonidan monopolistik daromad maksimizatsiyasi sharoitlari belgilangan, hamda monopolistik bozorda narx erkin raqobatchilik sharoitlariga qaraganda yuqoriroq, ishlab chiqarish hajmlari esa kamroq ekanligi haqida xulosa chiqarilgan. Duopoliya holati, Kurne tomonidan narx, monopoliya va raqobatchilik ko`rinishidagi narx va ishlab chiqarish hajmi darajasi bo`yicha o`rtacha element sifatida ko`rib chiqilgan. Duopolistik bozori tahlili elementlari F. Edjuortning «Sof monopoliya nazariyasi» (1897) kitobida ham mavjud. Monopolistik raqobatchilik nazariyasi tarafdori sifatida rus iqtisodchisi V. K. Dmitrievni ham tilga olish mumkin. U monopolistik narxlar tahlili bilan Shug`ullangan, Shu borada Lozanna maktabi namoyandasi F. Paretoni ham tilga olish joiz.

Monopoliya muammosiga nisbatan qarashlarni kardinal ravishda, ingliz iqtisodchisi, ital`yan millatiga mansub P`etro Straffa g`oyalari ayniqsa muhimdir (1898-1983). 1920-yillarda, Kembridj universitetida, u monopoliya holati bo`yicha faol tadqiqotlarini amalga oshirgan. Uning kontseptsiyasi tarafjorlaridan biri, Djoan Robinson bo`lib, o`zining «Raqobatchilik sharoitlarida daromadlarni shakllantirish qonuniyatlari» (1926) maqolasida raqobatchilik bozori tuzilmasiga hajmdan o`sib borayotgan qaytim qonuniyati ta`siri haqidagi masalani ko`targan. Uning fikricha, mazkur qonuniyat ta`siri tufayli, bozordagi monopoliya holati sof bo`lmaydi. A. Marshall tomonidan ilgari surilgan rivojlangan raqobatchilik kontseptsiyasi va firma nazariyasini tanqid ostiga olar ekan, u bozor qonuniyatlari tadqiqotini raqobatchilikdan emas, aynan monopoliyadan boshlash lozimligini ta`kidlagan. Bunday yondashuv mumtoz va neomumtoz nazariya uchun printsipial ravishdagi Yangi g`oya bo`ldi.

Rivojlanmagan raqobatchilik bozoriga bag`ishlangan tizimli tadqiqotlar 1930-yillarga kelibgina paydo bo`la boshladi. 1933 yilda, Amerika iqtisodchisi Edvard Xastings Chemberlin (1899-1967) qalamiga mansub «Monopolistik raqobatchilik nazariyasi» kitobi nashr etilib, undan bozorda firmaning monopolistik holati, tez uchraydigan hodisa bo`lib, u firma hajmlari bilan bog`liq emasligi ta`kidlangan.


Oldingi sof raqobatchilik yoki sof monopoliya hodisasini ko`rib chiqgan iqtisodchilardan farqli o`laroq, E.Chemberlin iqtisodiyot uchun monopolistik raqobatchilik holati xosligini aytgan. Bu holat, bozorda juda ko`p miqdordagi sotuvchilar mavjudligi, Shu sababli uni raqobatchilik deb atash mumkinligini ilgari suradi, ammo Shu bilan birgalikda, raqobatchilik bozorining ikkinchi sharti, unda bir - xil sifatdagi tovarlar mavjudligidir. E. Chemberlin modelina, ishlab chiqaruvchilar monopoliya daromadini olishga harakat qilgan holda, mazkur tovarga bo`lgan talab elastikligini pasaytitrishadi. Buning uchun, ular o`z mahsulotini boshqa tovarlar umumiy massasidan ajratib, uning sifat darajasini oshirishga, tashqi ko`rinishni jozibadorligiga, hamda sotish shartlarga belgilashga harakat qilgan holda, unga ekslyuziv tavsif berishadi va Shu orqali xaridorni tovarga narx o`zgarishidan qat`iy nazar, xaridor talabini saqlab qolishga harakat qilishadi. Buning natijasida, mahsulot differentsiatsiyasi yuz berib, ishlab chiqaruvchi mazkur tovar turining bozordagi yagona sotuvchisiga ya`ni monopolistga aylanadi.

Mazkur monopoliya holati, bozorda Shunday o`xshash, ammo sifati bilan farq qiluvchi tovarlar mavjudligi bilan ajralib turib, bunday tovarlar substitutlar deb ataladi. Mo‘ayyan tovarga nisbatan narx o`sishi sayin, xaridor o`z talabini Shu ko`rinishdagi boshqa tovarga yo`naltiradi, ammo bunda sotuvchi tomonidan Yangi tovar pastroq narxda sotiladi. Shunday qilib, raqobatchilik saqlanib qolinadi, ammo Yangi tavsifga ega bo`ladi, Chunki tovarlar nafaqat narxlar bo`yicha, balki iste`molchilik tavsiflari bo`yicha ham raqobatchilikka kirishib, sotishni tashkiliyligi bo`yicha ham farq qila boshlaydi (masalan xizmat ko`rsatish, joylashish, reklama va boshqalar). Aynan Shu holatdan sotuvchi foydalanib, u iste`molchi istaklarini narxdan qat`iy nazar boshqa tovarga yo`naltirish imkoniyatiga ega bo`ladi.

Shunday qilib, E. Chemberlin, differentsiatsiyalashgan tovar sotuvchisi, xaridor istaklarini boshqarish imkoniyatiga ega bo`lib, tovarlarga nisbatan talablarni narx bo`yicha nisbatan pastroq darajadagi elastikligiga erishadi. Mazkur fikr, firma harakati, neomumtoz nazariyasiga amerikalik iqtisodchining muhim hissasi bo`ldi. Undan oldin ishlab chiqaruvchi vazifalari, faqatgina talabga nisbatan yondashish sifatida talqin qilingan edi. E.Chemberlin ta`kidlashicha esa, firmalar, taklifning talabga nisbatan moslashtirishga ham ko`p kuch sarflashi belgilangan.

E.Chemberlin alohida e`tiborni, bozorda monopolistik raqobatchilik narx shakllanishi jarayoniga ham ajratgan. Uning fikricha, tovar differentsiatsiyasi sababli, sotuvchi qisman monopoliya hukmdorligiga ega bo`ladi, ya`ni sof raqobatchilik sharoitlaridagidan ko`ra yuqoriroq darajada tovarga nisbatan narx belgilash imkoniyatiga ega, Chunki talab chizig`i past darajada elastiklik xususiyatiga ega bo`ladi.

E.Chemberlin monopolistik raqobatchilik bozorida, narx shakllanish jarayonini quyidagi grafik yordamida illyustratsiya etgan (17.1.1-rasm)



17.1.1-rasm. Monopolistik raqobatchilik bozorida narx shakllanish jarayoni

DD` - talab chizig`i va CC` - taklif chizig`i kesishish nuqtasida P hajmiga teng narxni shakllantirib, bu narx raqobatchilik bozorida shakllanadi. DD` chizig`i Shu bilan birgalikda sotuvchining mo‘ayyan sotish hajmlari sharoitidagi o`rtacha daromadini aks ettiradi.

dd` chizig`i sotuvchining maksimal darajadagi daromadini anglatadi, ya`ni mo‘ayyan tovar birligi sotilish darajasi oshishida, daromad o`sishidagi o`zgarishlarni. Mazkur chiziq, o`rtacha daromad chizig`iga nisbatan keskinroq darajada pastga qarab yo`naltirilgan (talab chizig`i).

Monopolistik raqobatchilik sharoitlarida, sotuvchi maksimal daromadga qarab harakat qiladi va xarajatlar chizig`i va maksimal daromad chizig`i kesishish nuqtasiga muvofiq sotish hajmlarini belgilaydi (SS` taklif chizig`i bilan mos bo`lgan), ya`ni Q` darajasiga erishishga harakat qiladi, sotishning bunday hajmlari sharoitida narx P` darajasida belgilanadi, ya`ni mukammal raqobatchilik sharoitlariga nisbatan yuqoriroq bo`ladi (P`>P), ishlab chiqarish hajmi esa pastroq darajada belgilanadi (Q>Q`).

Monopolistik raqobatchilik sharoitlari tadqiqoti asosida E. Chemberlin zamonaviy iqtisodiyotda yuqori darajadagi ishsizlikka tushuntirish beradi. Uning fikricha differentsiatsiyalashgan tovarlar bozorida ishlab chiqarish hajmlari pastroq darajada belgilanishi, erkin bozor sharoitlariga nisbatan pastroq darajada belgilanishi sababli, ularning past darajada ishlab chiqarilishi yuz beradi, demak ishlab - chiqarish quvvatlari to`la hajmda ishlamaydi. Bunday ishlab chiqarish ishchi kuchiga nisbatan pastroq talab darajasiga ega bo`lib, bu holat ishsizlikni keltirib chiqaradi. Demak past darajadagi bandlik sababi, zamonaviy bozordagi raqobatchilik hodisasidir.

Mo`tadil bozor holati uchun, E.Chemberlin ishlab chiqaruvchilar monopolistik harakatlarini cheklovchi choralar tizimini kiritishni taklif etgan. Umuman olganda, uning ta`kidlashicha, zamonaviy yuqori darajadagi ishsizlik tovar differentsiatsiyasi uchun to`lov bo`lib, bu holat o`z navbatida xaridorlar daromadlari va tablari farqi o`sishi uchun javob beradi.


Dj.Robinson nomukammal raqobatchilik nazariyasi. 1933-yilda E. Chemberlin kitobi bilan qatorda ingliz iqtisodchisi Djoan Robinsonning (1903-1983) «Nomukammal raqobatchilik iqtisodiy nazariyasi» nomli kitobi ham nashr etilgan. E. Chemberlin kabi, Dj. Robinson ham, E. Chemberlin tadqiqotlaridan mutlaqo mustaqil ravishda o`z asari doirasida bozordagi monopolistik hodisani tadqiq etib, bu holatni mahsulot differentsiatsiyasi keltirib chiqarganligini ta`kidlagan. Nima bo`lganida ham, uning nazariyasi, qator farqlarga ega bo`lgan, jumladan, ishsizlik yuqori darajasi sabablari baholanishi doirasida. Birinchidan Dj. Robinson, bozordagi monopolistik holatni nafaqat tovar differentsiatsiyasi bilan, balki ishlab chiqarish kontsentratsiyasi bilan bog`lab, bu holat E. Chemberlin nazariyasi umuman hisobga olinmaganligidan dalolat beradi.

Birinchidan, u monopolist firmalar tomonidan qo`llaniladigan narx diskriminatsiyasi uslubini tadqiq etgan. Monopolistik bozorda talab past darajadagi elastiklikka ega bo`lganligi sababli, ishlab chiqaruvchi bozorni segmentlarga bo`lish imkoniyatiga ega bo`ladi. Buning oqibatida esa, har - bir ajratilgan segment uchun alohida belgilab, bu narx unga maksimal darajadagi daromad olish imkoniyatini yaratadi. Narx diskriminatsiyasini dj. Robinson tomonidan belgilangan narx diskriminatsiyasi asosiy qoidasi, eng yuqori narx talab elastikligi past darajada bo`lgan nuqtada, eng past narx esa, elastiklik darajasi absolyut ko`rinishga ega bo`lgan nuqtada belgilanadi.

Bozor maydon jihatidan ham segmentlarga bo`linishi mumkin, masalan, ichki bozorda yuqori narxlar belgilanishi, tashqi bozorda esa past narxlar belgilanadi. Bozor sotuvchi tomonidan xaridor daromad darajasi bo`yicha ham bo`linadi. Bunday diskriminatsiyani tushuntirish uchun Dj.Robinson «kuchli va kuchsiz bozor» atamalaridan foydalanadi. Kuchli bozor, bu jamiyatning nisbatan to`q a`zolari xaridor bo`lgan bozor bo`lib, ular tovar uchun yuqori narxlarni to`lash imkoniyatiga ega. Kuchsiz bozor esa, past darajadagi daromadlarga ega xaridorlar bozoridir. Buni hisobga olgan holda, ishlab chiqaruvchi avvalo o`z tovarini yuqori narxlarda sotib, kuchli bozor tovarga to`yingandan keyin, uning narxini pasaytira borib, bozorlarda taklif qilish imkoniyatiga ega.

Uchinchidan, Dj. Robinson aksil monopoliya holatini ham ko`rib chiqgan, ya`ni bozorda ko`plab sotuvchilar mavjud bo`lib, faqatgina bir xaridor ularning tovariga ehtiyojmand bo`ladi. Bozorning bunday holati, monopsoniya deb atalib, ishlab chiqarish omillari, xususan ishchi kuchi bozoriga xosdir. Monopsoniya

sharoitlarida xaridor monopoliya hukmronligiga ega bo`lib, sotuvchi monopoliya sharoitlarida o`rtacha emas, yuqori darajadagi daromadlarga tayanishi kabi, monopsonist ham xarid hajmi belgilanishida o`rtacha emas, maksimal xarajat hajmlariga tayanadi. Maksimal xarajat chizig`i AS o`rtacha xarajat chizig`i egriligiga nisbatan kuchliroq egilishga egaligi sababli xarid hajmi erkin raqobatchilikka nisbatan pastroq darajada belgilanadi (Q`<q).



17.1.2- rasm

Bunda maosh o`rtacha belgilar bilan belgilanishda davom etib, demak uning hajmi ham qulaydi (P`<p)/

Monopsoniya modeli yordamida, Dj. Robinson ishchi kuchini sotib olayotgan firma monoposonist bo`ladigan bo`lsa, bu holat mehnat bozoriga salbiy ta`sir ko`rsatishini yoritgan, ya`ni bandlik darajasi tushib ketib, buning oqibatida ish haqi darajasi ham tushadi. Bundan ingliz iqtisodchisi, ishchilar huquqlarini qonunan himoya qilish zarurati va kasaba uyushmalari faoliyatini faollashtirish zarurligi haqida xulosa qiladi.

Uning pozitsiyasi E.Chemberlin pozitsiyasidan aynan Shu jihati bilan farq qiladi, zero E. Chemberlin fikricha, ishsizlik sababi monopsoniya holati emas, monopolistik raqobatchilikdir. Bundan tashqari, E. Chemberlin, bandlik muammosini hal etishda kasaba uyushmalari roliga nisbatan skeptik fikrga ega bo`lib, ularni mehnat bozoridagi monopolistlar sifatida ko`rgan, demak ishchi kuchi narxini oshirish, hamda mehnatga nisbatan talab pasayishi sababchisi ham shular bo`lgan.

Nazorat uchun savollar:

1. Monopolistik raqobatchilik nima? E. Chemberlin modelida, bozorda sotuvchilar holati nima sababdan monopolistik deb ataladi?
2. Monopolistik bozor va monopolistik raqobat bozorida raqobatchilik o`rnatiladigan ishlab chiqarish hajmi va narxi darajasi qanday mutanosiblikka ega?

3. E.Chemberlin unga zamonaviy bo`lgan iqtisodiyotda yuqori darajadagi ishsizlik sababi nimada deb bilgan?
4. E.Chemberlin monopolistik raqobatchilik nazariyasining Djon Robinson nomukammal raqobatchilik nazariyasidan printsipial farqi nimada?
5. Narx diskriminatsiyasi qanday usullarini aytib o`tishingiz mumkin?
6. Monopsoniya holatini tasvirlab bering va monopsoniyaga misollar keltiring.
7. Iqtisodiyotda past darajadagi bandlik sabablari Dj. Robinson fikricha nimaga bog`liq?

Mavzu bo`yicha adabiyotlar ro`yxati:

1. Робинсон Дж. Экономическая теория несовершенной конкуренции. М., 1986.
2. Чемберлин Е.Х. Теория монополистической конкуренции. Реориентация теории стоимости. М., 1959.

XVIII-BOB. JAMIYAT RAVNAQI NAZARIYASI

18.1. V. Pareto «optimum kontseptsiyasi» rivojlanishi


Jamiyat ravnaqi nazariyasi zamonaviy iqtisodiyot fanining bir qismi bo`lib, butun jamiyat miqiyosida kam uchraydigan resurslar samarali taqsimlanishi nuqtai nazaridan iqtisodiyot turli holatlari optimalligini baholash bilan Shug`ullanadi. Mazkur nazariya boshqa marjinalistik yo`nalish nazariyalaridan bir qator farqlarga ega, birinchidan baholash omillarini qo`llaydi, xususan, jamiyat uchun resurslar taqsimlanishi qanday varianti samarali ekanligi masalasini qo`yadi. Shu munosabat bilan, jamiyat ravnaqi nazariyasini ko`pincha iqtisodiyot nazariyasining normativ qismi deb ham atashadi. I.M. D. Litl bilan bir qatorda, ko`pchilik iqtisodchilar fikricha, ravnaq tushunchasining o`zi, mazkur nazariyalarda etik yo`nalishga egadir, zero, ravnaq tarkibiga kiruvchi predmetlar belgilanish omillari yaxshi va yomon tovarlarga bo`linishni eslatadi. Ikkinchidan, mazkur nazariya doirasida, jamiyat ravnaqi haqida mustaqil tushuncha sifatidagi masala qo`yilib, u individual ravnaq doirasida chiqarilmaydi. Bundan tashqari, individual va jamiyat foydasi tushunchalari masalasi ham bir - biriga qarama – qarshidir.

Kal`dor – Xiks kompensatsion omillari. V. Pareto tomonidan yaratilib, siyosiy iqtisodiyot darsligida talqin etilgan ravnaq nazariyasi (1906) qator masalalarni ko`ndalang qo`ygan. Uning tomonidan turli bozor holatlarini baholash omillari ilgari surilib, unga muvofiq «A» holatdan, «V» holat yaxshiroq ekanligi, va buning uchun «A» holatidan, «V» holatiga o`tish davomida bozor ishtirokchilarining birining holati yaxshilanib, boshqasining holati yomonlashmasligi lozim edi. (7-rasm).

V. Pareto tomonidan taklif etilgan omil iqtisodchilarda iqtisodiyot turli holatlarini taqqoslash qay tarzda amalga oshirilishi mumkinligi haqidagi savollarni keltirib chiqardi, zero ularning taqqoslanishida, biz bozor ishtirokchilaridan birining holati yaxshilanishi, boshqasining holati yomonlashishi oqibatida yuz berishini bilamiz. Mazkur masala echimini Dj. Xiks va ingliz iqtisodchisi, vengr millatiga mansub Nikolas Kaldor ilgari surgan (1908-1986). 1939 yilda «Economic journal» jurnalida nashr qilingan maqolada, ular tomonidan keyinchalik Kaldor Xiks omili deb atalgan kompensatsion omil ishlab chiqarilgan edi. Mazkur omilga muvofiq «B» iqtisodiyoti holati, «A» holatiga nisbatan yaxshiroq bo`lishi, bozor ishtirokchilaridan biri tomonidan «A» holatdan «V» holatga o`tish jarayonida olingan daromadi, bozorning qolgan ishtirokchilari tomonidan ko`rilgan zarar miqdoridan oshgandagina yaxshi bo`lishi mumkin. Bunda, mazkur farq hisobiga ko`rilgan zarar kompensatsiya qilinishi mumkin bo`ladi.

Mazkur omilning grafik interpretatsiyasiga qaraydigan bo`lsak, u quyidagi ko`rinishga ega (18.1.1-rasm)

«A» holatidan «V» holatiga o`tishda, X individi daromad ko`radi (Xv>Xa) Y individi esa zarar ko`radi (Yb<Ya). Mazkur holat taqqoslanishi uchun, N.Kaldor X va Y individlari orasidagi resurslar taqsimlanishi grafigini tuzishni taklif etib, bu grafik faqatgina iqtisodiyot darajasi tengligi «B» nuqtasida erishilgandagina imkoni bo`ladi. Rasmda mazkur grafik, bbB` chizig`iga muvofiqdir. Agarda «A» nuqtasi mazkur grafikdan pastga tushib qoladigan bo`lsa, «B» nuqtasiga o`tish, ravnaq umumiy darajasi yaxshilanishi bilan bog`lash mumkin bo`ladi, zero, mazkur nuqtada erishilgan iqtisodiyot holatida taqsimlanish amalga oshirilish mumkin bo`lib (B holatidan B` holatiga o`tish), buning oqibatida har - bir individ holati yaxshilanadi (Yb`>Ya; Ab`>Xa).




18.1.1-rasm

Dj. Xiks tomonidan yana bir omil ham taklif qilingan. «A» va «V» nuqtalari mutanosibligi uchun, u X va Y individlari orasida resurslar taqsimlanishi grafigini tuzishni taklif qilib, bu grafik «A» nuqtasi bilan tavsiflanadi. Rasmda bu AA` chizig`idir.

V nuqtasi chiziqdan yuqori bo`ladigan bo`lsa, «A» holatidan «V» holatiga o`tishni izlanish bilan tenglashtirish mumkin, Chunki «AA`» chizig`ida, X va Y chiziqlari holati yaxshilanishi mumkin bo`lgan biror nuqta mavjud emas, zero «V» nuqtasi bilan taqqoslash imkoniyati ham yo`qolgan bo`ladi.

Tasavvur qilish mumkinki, bir sharoitning bajarilishi, boshqa sharoit bajarilishidan kelib chiqmaydi. Masalan 9-rasmdan ko`rinib turganidek, «A» nuqtasi «VV`» chizig`idan past darajada turgan bo`lsada, «V» nuqtasi «AA`» chizig`idan pastda bo`ladi, bunday holatda «AA`» chizig`ida «A`» nuqtasi mavjud bo`lib, unda har ikkala bozor qatnashchisi holati «B» nuqtasiga nisbatan yaxshiroq bo`ladi. Demakki «B» nuqtasiga o`tishni, «A» nuqtasiga o`tishga nisbatan yaxshilanish deb bo`lmaydi.

Demakki bunday holatda, «A» nuqtasidan «V» nuqtasiga o`tish, N. Kaldor omiliga muvofiq bo`lsa Dj. Xiks omiliga muvofiq emas. Keyingi yillarda, ya`ni 1940 yilda, iqtisodchi Tibor Stsitovski mazkur ikki omilni birlashtirib, «A» nuqtasidan «V» nuqtasiga o`tishni, mazkur omil har ikkala bozor qatnashchisi tomonidan qabul qilingandagina yaxshilanish deb qabul qilishni taklif qilgan.




18.1.2-rasm

A. Pigu jamiyat ravnaqi nazariyasi.

Ingliz iqtisodichisi Artur Sesil` Pigu (1877-1959) XX asr boshi jamiyat ravnaqi nazariyasining yirik namoyandasidir. AK. Marshall shogirdi sifatida, u o`z ustozini Kembridj universiteti siyosiy iqtisod kafedrasi rahbari sifatidagi ishlarini ham davom ettirib (1888) mazkur nazariya rivojlantirilishini davom ettirdi. Jamiyat ravnaqi nazariyasidan tashqari, 1930 yillarda, A. Pigu o`sha davrlardagi yuksak iqtisodchilar kabi katta e`tiborini bandlik muammolariga qaratgan. 1933 yilda, uning «Ishsizlik nazariyasi» asari, 1941 yilda esa «Bandlik va muvozanat» kitobi nashr etilib, ularda muallif ishsizlik muammosining neomumtoz interpretatsiyasi, hamda u bilan kurashish usullarini taklif qilgan. Uning tomonidan, aholi daromadlari real o`sishi, faqatgina narxlar umumiy darajasi to`liqsiz bandlik sharoitlarida yuz berishi mumkinligi haqidagi nazariya ishlab chiqarildi. Bu holat, iste`molchilarning tovarlarga bo`lgan talabini oshirib, bu hodisa iqtisodiyot kon`yunkturasini tirilishiga olib kelishi, ishlab chiqarish kengayishi va demakki ishsizlik darajasi pasayishiga olib kelishi kerak edi. Mazkur nazariya, “Pigu effekti” nomini olib, keynschilik maktabi tomonidan keng foydalanilgan, ammo bu holat, keynschilik maktabi namoyandalariga A.Pigu asarlarini neomumtozlar asarlarini tanqid ostiga olish ishlaridagi asosiy tanqid sifatida qo`llanilishiga halal bermadi. Keyingi davrlarda, daromadlarning iste`mol talabiga ta`siri effekti D. Potinkin tomonidan «Mablag`, foiz va narxlar» (1956) asarida keng tadqiq qilingan.

Jamiyat ravnaqi nazariyasini A.Pigu o`zining “boylik va ravnaq” (1912) asarida rivojlantirib, keyingi davrlarda bu nazariya qayta ishlanib, ravnaq iqtisodiy nazariyasi nomi ostida qayta nashr qilingan (1920-1960). Mazkur kitobda, muallif ravnaq nazariyasi masalasi ko`rinishini o`zgartirib, birinchi darajaga bozor mexanizmi nomukammalligi masalasini ilgari surib, mo‘ayyan tovar turlari ishlab chiqarilishi xarajatlari va daromadlarini mazkur mexanizm etarli darajada aks ettirmasligini ilgari surgan. Bu tovarlar jamiyat ravnaqidir.



18.1.3-Rasm.

Shuni ham aytib o`tish kerakki, jamiyat ravnaqi kontseptsiyasi ancha ilgariroq Stokgol`m maktabi namoyandasi Erik Lindal` tomonidan ham (1891-1960) «Adolatli soliq - pozitiv nazariya» (1919) ocherkida tilga olingan. O`z ustozi Knut Viksel` g`oyalariga tayangan holda (1851-1926) u mazkur tovar turining qator xususiyatlarini ko`rsatib, bu xususiyatlar bozorga to`laqonli daromad va jamiyat ravnaqi ishlab chiqarilish xarajatlarini baholash imkoniyatini bermayotganligini aytib o`tgan. Aynan mana Shu kontseptsiya A. Pigu tomonidan o`z nazariyasini ishlab chiqarishda qo`llanilgan edi.

Jamiyat ravnaqining birinchi istisno xususiyati bo`linmasligidir. Bu holat jamiyat tovarlari bozorning barcha ishtirokchilariga bir vaqtning taklif etilishida namoyon bo`ladi. Uning iste`mol qilinishi esa individual tartibga ega emas. Masalan, agar bir tadbirkor o`z kemalari uchun mayoq o`rnatadigan bo`lsa, bu mayoq nuridan suzib o`tib ketayotgan barcha kemalar foydalanishi mumkin. Ikkinchi xususiyat e`tiyoj cheklanmaganligidir. Agar bozor ishtirokchilaridan biri, mo‘ayyan tovarni iste`mol qilgan bo`lsa, bu holat bozordagi tovar miqdoriga ta`sir o`tkazmaydi. Demakki bozorning boshqa ishtirokchilari imkoniyatlarini kamaytirmaydi. Jamiyat tovarining E. Lindal` tomonidan ajratilgan jamiyat tovarining uchinchi xususiyati, uning iste`mol doirasidan chiqarib bo`lmasligidir. Agar, jamiyat tovari ishlab chiqarilib, bozorda mavjud bo`lsa, mazkur tovardan uning ishlab chiqarilishiga xarajat qilgan boshqa shaxslar bu tovardan foydalanish imkoniyatidan maxrum bo`lmaydi. Masalan, agar bir uyning bir oila a`zolari, ularning uylariga tegishli bo`lgan ko`chani yoritish maqsadida fonar` o`rnatadigan

bo`lishsa, ular tasodifiy yo`lovchilarga fonar yorug`idan foydalanishni ta`qiqlay olishmaydi.

Jamiyat tovarining yuqorida sanab o`tilgan xususiyatlari bilan bog`liq muammo Shundaki, iste`molchilardan bir qismi mazkur tovar ishlab chiqarilishida o`z manfaatlarini bu tovar ishlab chiqarilishi uchun to`lov to`lamaslik maqsadida yashirishga harakat qilishadi. Kelajakda tovardan foydalanishni ta`qiqlay olmaslik, va ravnaq natijalari bilan barcha istovchilar foydalana olishligi, uning mavjudligiga iste`molchilar manfaatlarini oshirish imkoniyatini pasaytiradi. Demakki, bozor, zarur hajmda jamiyat tovarlarini ishlab chiqarish uchun etarli vositalarni akkumulyatsiya eta olmaydi.

Shved maktabi namoyandalari fikricha, mazkur muammoning yagona, ammo nomukammal echimi, hukumatning jamiyat tovarlari ishlab chiqarilishiga aralashuvi bo`lib, bu holat muvofiq soliqlarni kiritish, hamda to`g`ri taqsimlanishi orqali mazkur ishlab chiqarish jarayonining moliyalashtirilishiga imkon berar edi.

A.Pigu jamiyat ravnaqlari muammosining o`zgacha interpretatsiyasini ilgari suradi. U istalgan ravnaq ishlab chiqarish xarajatlari va jamiyat daromadlari mavjudligi haqidagi tezisni ilgari surib, unga muvofiq, bu holatlar ishlab chiqaruvchi tomonidan inobatga olinmaydi, ammo bozorning boshqa ishtirokchilari holatiga ijobiy ta`sir o`tkazadi. Ular, Lindal` nazariyasidagi jamiyat ravnaqlarining etarli darajada ishlab chiqarilmasligi sabablariga ko`ra yuzaga keladi. A. Pigu ularni tashqi effektlar (eksternaliyalar) deb atagan, zero jamiyat ravnaqlari ijobiy tashqi effektlarni shakllantirib, bunga misol sifatida fermerlar o`zlarining qo`shni asalarichi yordamida daromad olishlarini keltirish mumkin, Chunki asalarilar, ularning ham o`simliklarini changlantiradi. Jamiyat xarajatlarini, A. Pigu salbiy tashqi effektlar deb ataydi. Salbiy eksternaliyalarning dolzarb misoli tariqasida, muallif tashqi muhitni ifloslantiruvchi zavod faoliyatini keltiradi. Buning natijasida qo`shni xo`jaliklar daromad darajasi pasayib ketadi, zero ularning faoliyati, mazkur hududdagi tabiiy sharoitlar bilan bog`liq bo`ladi (daryodagi baliqlar miqdori, tuproq unumdorligi darajasi).

Tashqi effektlar mavjudligi, salbiy tashqi effektga ega bo`lgan tovar ishlab chiqarish hajmi zaruridan ortiq darajada, ijobiy tashqi effektga ega bo`lgan tovarlar ishlab chiqarilishi esa, jamiyat uchun zarur bo`lgan darajadan past darajada ishlab chiqarilishiga olib keladi. Ijobiy eksternaliyalar sharoitida, talab va taklif o`rtasidagi nomutanosiblik, xususiy ishlab chiqaruvchi bozor narxiga tayanib, bu narx mazkur tovar uchun xaq to`lovchi bozor ishtirokchilari uchun ishlab chiqarilgan tovar foydalilik darajasi bilan belgilanadi. Bozor, mazkur ishlab chiqarish foydalilik darajasini mazkur daromadni bepul oladiganlar uchun aks ettirmaydi. Masalan, fermerlar, asalarichiga uning asalarilari maydonlari bo`ylab uchayotganligi qo`shimcha haq to`lashmaydi. Buning natijasida asalarichi tovariga

nisbatan bozorr talab darajasi yoki uning ishlab chiqarilishi, real mavjud bo`lgan jamiyat daromadidan past bo`ladi. Demakki, narx ham bundan past darajada belgilanadi. Bozor, taklifning nisbatan past darajadagi hajmini belgilaydi.

Shunga o`xshash holat, salbiy tashqi effektga ega bo`lgan tovarlar ishlab chiqarilishi bilan ham bog`liq bo`ladi. Ishlab chiqaruvchi, bozor mexanizmiga tayanib, bu mexanizm tovar xususiy foydaligini, xususiy xarajatlari bilan bog`laydi, va bunday holatda ishlab chiqaruvchi xarajatlaridan kelib chiqib narx belgilaydi. Demakki, bozor ishtirokchilari mavjud salbiy tashqi effekt oqibatida ko`rayotgan zararlari hisobga olinmaydi. Buning natijasida talab va taklif orasidagi muvozanat, mazkur tovarga nisbatan jamiyat real talabiga qaraganda, ishlab chiqarish yuqori mavjud hajmlari doirasida belgilanadi.

Shu tarzda, xususiy va jamoatchilik daromadlari va xususiy va jamoatchilik xarajatlari orasidagi farq shakllanadi. A. Pigu, bu hodisalarni bozordan tashqari bog`liqliklar deb atagan, zero bozor, tovar jamoatchilik tomonini hisobga olgan holda, tovar jamoatchilik uchun foydaliligiga muvofiq ravishda uning ishlab chiqarish hajmlarini nazorat eta olmaydi.

O`zining tashqi effektlar nazariyasi asosida A.Pigu, qator makroiqtisodiy xulosalarni chiqargan. Birinchidan, u resurslar optimal taqsimlanishi baholanishi borasida o`z usulini taklif etdi. Uning nazariyasiga muvofiq, har - bir tovar uchun ijtimoiy optimum, mazkur tovar ishlab chiqarilishidan jamoatchilik maksimal daromadlari, jamoatchilik maksimal xarajatlariga teng bo`lgandagina yuz berishi mumkin. Ikkinchidan bozor bunday mutanosiblikka erisha olmasligi sababli, tashqaridan ta`sir zarur. Buning uchun A. Pigu, bozor harakatlarini nazorat etish bo`yicha hukumat choralari tizimini kiritishni taklif etgan. Agarda mo‘ayyan tovarga nisbatan jamoatchilik foydasi xususiy foydadan ustun keladigan bo`lsa, hukumat ishlab chiqaruvchiga subsidiyalar taqdim etishi zarur, zero ishlab chiqaruvchi mazkur tovar taklifini oshirishi kerak. Shu bilan birgalikda, subsidiyalar, mazkur tovarni sotib olish uchun, iste`molchiga ham taqdim etishi shart. Tashqi salbiy effektlar mavjudligi holatida esa, tovarning o`ziga, yoki mazkur tovar ishlab chiqarilishi borasida iqtisodiy faoliyatga nisbatan soliqlar belgilanishi zarur.

Ravnaq nazariyasi keyingi rivojlanishi. Keyingi ravnaq nazariyalari nisbatan liberal tavsifga ega bo`ldi. Ular, bozor mexanizmi mustaqil ravishda Pareto optimumi yoki Pigu optimumiga erishish imkoniyatiga ega ekanligini isbotlashga qaratildi. 1930 yillarda, amerikalik iqtisodchi Abba R. Lerner (1903-1983) nazariyasi paydo bo`ldi. Shu bilan birgalikda polyak iqtisodchisi Oskar lange (1904-1965) nazariyasi ham Shu davrlarda paydo bo`ldi. Ular tomonidan ravnaq fundamental teoremasi shakllantirildi. Mazkur teoremaga muvofiq barcha tovarlar

bozor narxiga ega bo`lishsa, raqobatchilik bozoridagi muvozanat Pareto optimumiga teng bo`ladi.

Mazkur iqtisodchilar tomonidan ilgari surilgan optimallik printsipi Pigu optimumi modifikatsiyasi bo`lib, bozorda aks etgan va narx ko`rinishiga ega bo`lgan tashqi effektlar holatiga mosdir.

Pareto optimumi va bozor muvozanati holatlari teng kelishi g`oyasini keyingi davrlarda amerikalik iqtisodchi Kennet Dj. Errou (1921 yilda tug`ilgan) isbotlab, bu holatni «Ravnaq mumtoz iqtisodiyoti bazaviy nazariyasini kengaytirish» asarida yoritgan (1951).

Nazorat uchun savollar:

1. Jamoatchilik ravnaqi nazariyasi predmeti va uslubi umumiy tavsifini bering.
2. Dj.Xiks optimallik omili mazmuni nima?
3. N.Kaldor kompensatsion omili mazmuni nimadan iborat?
4. E.Lindal` tomonidan ilgari surilgan jamoatchilik ravnaqining uch asosiy xususiyatini ayting.
5. Tashqi effekt nima? Tashqi effektlarning qanday turlari mavjud?
6. A. Pigu nuqtai - nazaridan hukumat iqtisodiyotda qanday rollarni bajarishi shart?
7. Pigu optimumi omili mazmuni nima?
8. Lerner va Lange nazariyasiga muvofiq, raqobatchilik bozoridagi muvozanat optimumga qanday sharoitlarda teng bo`ladi?

Mavzu bo`yicha adabiyotlar:

1. Пигу А. Экономическая теория благосостояния: в 2 т. М., 1985.

XIX-BOB. JON MEYNARD KEYNS TA'LIMOTI

19.1. Resurslar cheklanmaganlik sharoiti

Ingliz iqtisodchisi Djon Meynard Keyns (1887-1946), mustaqil marjinalistik maktabi bo`lmish Keynschilik yo`nalishi asoschisi bo`lib, ushbu yo`nalish 1930-yilning oxirlaridan boshlab rivojlangan. Mazkur maktab XX asrning boshlaridan boshlab, Keynsning «Bandlik, foiz va mablag` umumiy nazariyasi» nomli kitobi 1936 yilda nashr etilganidan keyin rivojlana boshladi. Dj. M. Keyns A.Marshallning Kembridj universitetidagi talabasi edi. 1906 yildan boshlab, hukumat moliyaviy tuzilmalarida, xususan g`aznachilikda mehnat faoliyatini yuritgan. Birja operatsiyalari bilan ham Shug`ullangan. Keyinchalik u Kembridj universitetiga o`qituvchi sifatida ishlagan. O`zining ilk asarlarida, u katta e`tiborni mablag` isloxoti va oltin standarti masalalariga qaratgan («Mablag` isloxoti haqida traktat» (1923); «Mister CHerchil` siyosatining iqtisodiy natijalari» (1925); "Mablag` haqida traktat". 2 tomda (1930)). 1929 yilda Buyuk Britaniyada tuzilgan, moliya va sanoat bo`yicha qo`mita (Makmillan qo`mitasi) a`zosi sifatida u hukumat siyosatiga ham, ayniqsa mablag`, kredit va moliya siyosatiga mo'ayyan ta`sir ko`rsatgan. 1940-yillarda, u angliya banki direktorlaridan biri bo`lgan. Ayniqsa uning Bretton- Vud konferentsiyasi ishidagi hissasi katta bo`lib, mazkur konferentsiya ikkinchi jahon urushidan keyin xalqaro valyuta munosabatlarini belgilash uchun chaqirilgan edi. Unda, Keyns ingliz delegatsiyasi boshida turib, oltin standartidan to`liq voz kechish tarafdori bo`lgan. aynan Keyns xalqaro operatsiyalarni amalga oshirish uchun yagona to`lov vositasini yaratish g`oyasini ilgari surgan.

Mazkur g`oya qo`llab -quvvatlanmagan bo`lsa ham, konferentsiya xulosalariga ta`sir etib, xususan jahon banki va xalqaro valyuta fondi yaratilishi uchun asos bo`lgan.

Predmet va uslub. Dj.Keyns nazariyasining printsipial holati iqtisodiy tizim muvozanati haqidagi mumtoz postulat tanqididir. Asosiy argumentlari sifatida, tanqid inson harakatlari modelini qayta ko`rish va muvozanatga ega bo`lgan bozor mexanizmlari harakatini buzayotgan ichki bozor tendentsiyalarini aniqlashdir.

Inson harakati. Dj.M.Keyns nazariyaning muhim farqi, iqtisodiy agentlar ratsional harakatlari mumtoz kontseptsiyasi noto`g`riligini isbotlashdir. Dj. M. Keyns, iqtisodiy inson modeli real holatga mos emas deb hisoblagan, zero iqtisodiy inson harakatlari, absolyut ravishda ratsional bo`lib, iqtisodiyotning ham hozirgi, ham kelajakdagi holati haqida to`liq axborotga ega holda mantiqiy hisob - kitoblarga asoslangan deb hisoblagan. Dj. M. Keyns, F. Nayt va "Stokgol`m maktabi" iqtisodchilari tomonidan ilgari surilgan g`oyalardan foydalanib, inson

harakatlari, kelajakdagi iqtisodiy kon`yunktura haqidagi tasavvurlarga asoslanadi. Mazkur tasavvurlar nomukammal bo`lib, Shu sababli insonlar harakatlari ratsional idealdan uzoq turadi. Mazkur holatda Dj. M. Keyns, harakat irratsional asoslari muhimligini ko`rsatib, ularni "animal spirits", ya`ni hayvoniy his deb atagan. Uning fikricha bozor ishtirokchilari o`z harakatlarida instinkt, shijoat, optimizm yoki pessimizmdan ratsional hisob - kitobga ko`ra ko`proq tayanishadi. Uning yozishicha: «ortodoksal nazariya kelajak haqidagi bilimdan kelib chiqib, u biz hozirda ega bo`lgan holatlardan farq qiladi. Mazkur xatolik Benton kal`kulyatsiyasi chizig`idan kelib chiqadi. Kal`kulyatsiya etilayotgan kelajak gipotezasi, harakat printsiplarining noto`g`ri interpretatsiyasiga olib kelib, ularning qabul qilinishi, harakat qilishga jalb qiladi. Demakki, to`liq bilim, tasodif, umid va qo`rquv yashirin omillari etarli darajada baholanmaydi».

**Mablag` omili.** Keyns fikriga ko`ra iqtisodiyotning yana bir an`anaviy muvozanat modelini buzuvchi omil mablag`dir. Mumtoz va nekolassik maktab namoyandalari, doimo mablag` neytralligi haqidagi fikrdan kelib chiqib, ularni tovar almashinuviga tashlanadigan parda sifatida ko`rib chiqishgan. Dj. M. Keyns, stokgol`m maktabi namoyandalari kabi, mablag` iqtisodiyot faol elementi ekanligiga e`tibor qaratgan. Birinchidan, mablag` bozori holati, naqd ko`rsatkichlariga ta`sir etadi, bu esa bozor signallarini buzilishiga va iqtisodiy agentlar dezorientatsiyasiga olib keladi (nominal va real kattaliklar mutanosibligi masalasi). Ikkinchidan pul mablag`ning zahira ko`rinishida iqtisodiyotdan bir qismining oqib ketishiga zamin yaratadi, bu esa ishlab chiqarish quvvatlarining to`laligicha ishlamasligi, demakki inqirozga olib keladi.

Ma`lumki nemumtoz nazariya, resurslar cheklanganligi, hamda iqtisodiyot vazifasi ularning samarali taqsimlanishidan iborat deb hisoblaydi. Dj. M. Keyns, mazkur tezisni qayta ko`rib chiqib, o`z nazariyasini resurslar to`liq egallanmaganligi holati tahliliga asoslaydi. Xususan, uning tomonidan ishsizlik sabablarining Yangi talqini berilgan. Uning ta`kidlashicha, ishsizlik faqatgina friktsion yoki tuzilmaviy tavsifga ega emas, zero nemumtoz maktab e`tirofidan farqli o`laroq, u majburiy tavsifga ham ega bo`lishi mumkin.

Mehnat bozoridagi to`liq nomukammal bandlik, iqtisodiyotda boshqa ishlab chiqarish resurslarining nomukammal bandligi bilan kuzatiladi. Buning natijasida, resurslar kam uchrashi sharoitida, haqiqatga to`g`ri kelmaydi. Mavjud vositalarning to`liq ishlatilmaganligi haqidagi masala kelib chiqadi. Buning barchasi iqtisodiy tahlil vazifasini o`zgartiradi. Asosiysi, resurslarning to`liq bandligini ta`minlash bo`ladi. yuqorida ko`rsatib o`tilgan barcha omillar, ya`ni harakatning noaniqligi, mablag` omili ta`siri va nomukammal bandlik holati, iqtisodiyotdagi kuchlar mutanosibligini buzadi. Buning natijasida iqtisodiyotning

muvozanat holatidan chetlashishi va bozor muammolarni mustaqil ravishda echa olmasligi holati kuzatiladi.

Makroiqtisodiy yondashuv. yuqorida aytib o`tilganidek, Dj.M. Keyns ilk asarlarida, iqtisodiyotning hukumat tomonidan nazorat etilishiga katta e`tibor qaratgan. U iqtisodiy tizim mustaqil ravishda o`z - o`zini nazorat eta olmasligi fikrini ilgari surib, uning yondashuvi o`ziga xosligini iqtisodiy muammolar tahliliga qaratgan. Buning oqibatida iqtisodiy tahlil uning tomonidan iqtisodiy makrodarajaga ko`tarilib, agregatsiya etilgan ko`rsatkichlarni qo`llaydi, va umumiqtisodiy muvozanat masalalari va iqtisodiyot makroiqtisodiy nazoratini ilgari suradi.

Sabab-natijaviy tahlilga qaytish. yuqoridagi boblarda aytib o`tilganidek marjinalistik inqilob jarayonida, mumtoz sabab - natijaviy tahlildan chetlashish yuz berib, uning o`rniga funktsional uslub kelgan. Mazkur uslub, butun mexanizm harakatini belgilovchi va iqtisodiy jarayonlar sababi bo`lmish asosiy omillarni qidirishdan voz kechishni nazarda tutadi. Funktsional uslub, iqtisodiy tizim barcha elementlarini teng va o`zaro bog`liq deb belgilaydi.

Dj. M. Keyns nazariyasi, sabab - natijaviy tahlilga qaytishni asoslab berdi. Nazariya asosida boshqa iqtisodiy omillarga bog`liq bo`lmagan alohida iqtisodiy toifalarni bir tomondan, boshqa tomondan esa, iqtisodiy mexanizm dinamikasini belgilab beradi. Bunday asosiy omillardan biri esa, mablag` yig`ilishiga moyillik belgilanadi.

Resurslar band emasligi masalasi. Demak, keynschilik nazariyasi asosi bo`lgan masala, resurslarning to`liq band emasligi bilan bog`liqdir. Mazkur masala XX asrning 30- yillarida nihoyatda dolzarb bo`lgan, zero inqiroz yondashuv iqtisodiy realligiga to`liq javob berib, bu holat ishsizlik yuqori darajasi, ishlab chiqarishning keskin qulashi, demakki ishlab chiqarish quvvatlarining yuqori darajada bandligi bilan farqlangan. yuqorida aytib o`tilganidek, Dj. M. Keyns, bandlik masalalari mumtoz interpretatsiyasidan chetlashgan. An`anaviy ravishda ishsizlik, friktsion yoki ko`ngilli turlarga bo`lingan. Hisoblashlaricha, bandlik darajasi mehnat bozorida mehnat uchun talab va taklif muvozanatini belgilovchi nuqtadagi ish haqi hajmiga bog`liq ekan. Shu sababli hech kim tomonidan bandlik darajasini nazorat etish masalasi qo`yilmagan.

1930-yillardagi holat, ishsizlik nihoyatda yuqori darajasi bilan farqlanib, bu holat friktsion yoki ko`ngilli tavsif ostiga tushmas edi. Neomumtozlarning ta`kidlashicha, yuzaga kelgan muammo sababi, birinchi navbatda kasaba uyushmalari siyosati bo`lib, aynan kasaba uyushmalari ish haqi darajasini oshirib, mehnatga nisbatan talab darajasini tushirishgan. Past darajadagi bandlik bilan kurashish chorasi sifatida mehnat haqqini tushirish taklif etilib, bu holat, firmalar tomonidan mehnatga nisbatan talabning bevosita oshishiga olib keladi. Bundan

tashqari, hisoblanishicha, ish haqining past darajasi yuqori daromadlarini ta`minlab berib, iqtisodiyotdagi zahira mablag`lar ulushi oshadi. Kapitalga nisbatan foiz stavkasi tushadi, demakki investitsiyalar hajmi ham oshadi. Investitsiyalar o`sishi, yangi ish o`rinlari yaratilishiga olib kelib, bu holat ham bandlik o`sishiga ijobiy ta`sir etadi.

Dj.M.Keyns, printsipial ravishda yangi kontseptsiyani ilgari surdi. Uning ta`kidlashicha, majburiy ishsizlik ham mavjud bo`lib, bu holat ishlab chiqarish darajasi pastligiga bog`liq. Bunda iqtisodiyot depressiya holatida bo`lib, aynan ishlab chiqarishning to`xtatilishi, ishlab chiqarish quvvatlarining to`liq bo`lmagan hajmda qo`llanilishi, bandlik darajasining ommaviy ravishda pasayishiga olib keladi. Shunday qilib, bandlik muammolari echimining asosiy vazifasi deb Dj.M. Keyns ishlab chiqarish faoliyatini tiriltirish bog`lagan. Mazkur vazifani echish imkoniyatini beruvchi chora sifatida esa, talab samaradorligini rivojlantirish deb hisoblagan.

Samarali talab kontseptsiyasi. Samarali talab kontseptsiyasi Dj.M.Keyns iqtisodiy nazariyasining markazida turadi. Shu sababli uning nazariyasi, hamda keynschilik maktabi nazariyasi asosini, talab iqtisodiy nazariyasi deb atashadi («Demand side economics»). Talab muammosi hech - qachon, neomumtozlar tomonidan o`rganilmagan, Shu sababli ular J.B. Seyning bozor qonuniyatlaridan kelib chiqishib, unga muvofiq taklif doimiy ravishda muvofiq talabini keltirib, mazkur talab etarli bo`lishi mumkin emas. Dj.M. Keyns o`z fikrlarida, Knut Viksel`ning Shved maktabi g`oyalariga rioya etgan holda, ta`kidlaydiki J.B. Sey qonuniyati faqatgina barter iqtisodiyotida amal qiladi. Zamonaviy iqtisodiyot esa, mablag` iqtisodiyoti bo`lib, mablag` barter kelishuvlarining sodda formasi ko`rinishiga ega bo`lmaydi. Ular, daromadning bir qismini mablag` shaklida ushlab qolishga harakat qilishadi, demak Dj.B. Sey tomonidan kiritilgan qoidani buzishadi, zero mazkur qoidaga muvofiq, har - bir sotuvchi o`z navbatida xaridorga aylanadi. Daromadlarning mablag` formasida saqlab qolinishi talab va taklif orasidagi emirilishga olib keladi. Talab, taklifdan qoloq holatga o`tadi, zero olingan mablag`larning bir qismini tovar aylanmasidan zahira sifatida olib qolinadi. Bu holat krizisning real imkoniyatini yaratadi.

Iqtisodiyotning bunday holati, resurslarning ortib qolishi bilan tavsiflanadi, ya`ni yuqori ishsizlik darajasi, ishlab chiqarish quvvatlarining etarli darajadagi hajmga ega bo`lmasligi, harakatga tushmagan kapitallarning katta hajmi. Bunday holatdan chiqishni Dj.M.Keyns etarli darajadagi talab samarali masalasi va resurslarning to`liq bandligini ta`minlashi mumkin bo`lgan choralarning etarli darajada ishlab chiqarilishi bilan bog`laydi.

**Iste`molga nisbatan maksimal moyillik**. Keynschilik nazariyasiga muvofiq samarali talab ikki qismdan iborat, ya`ni iste`mol va investitsiyalardan. Iste`mol

qilish, olingan daromadning mo‘ayyan ulushi ko`rinishida bo`ladi, demak unga to`g`ridan - to`g`ri bog`liq bo`ladi. Daromadning qaysi qismi iste`molga tortilishi, iste`molga maksimal darajada moyillik tomonidan belgilanadi, va bu holat quyidagicha talqin etiladi.

$$k = \frac{\Delta C}{\Delta Y}$$

Bunda: X iste`mol, Y esa daromaddir.

Bundan Dj.M. Keyns Shunday xulosa qiladi, neomumtozlar tomonidan taklif etilgan ish haqi darajasi tushirilishi aholining katta qismi daromadlarini pasaytiradi, iste`mol darajasini tushiradi va talab samarasini pasayishiga olib keladi. Bu holat ishlab chiqarish hajmlariga salbiy ta`sir o`tkazib ishlab chiqarishning keyingi o`sishiga olib keladi. Dj. M. Keyns nuqtai nazaridan daromadlarning oshishi iste`mol darajasiga ham salbiy ta`sir o`tkazadi.

U asosiy psixologik qonuniyat haqida gapirib, mazkur qonuniyatga muvofiq daromad ortishi sayin individ mazkur daromadning kamroq qismini iste`mol qilishga moyil bo`ladi. Demak daromadlar ortgani sayin, iste`mol darajasi kam darajada o`sib boradi. Iste`mol o`zgarishini DC sifatida ko`rsatadigan bo`lsak, daromad o`zgarishini esa DY deb belgilaydigan bo`lsak, bu holatni quyidagicha yozib olish mumkin bo`ladi.

$$\frac{\Delta C}{\Delta Y} < 1$$

Ma`lumki daromad ikki qismdan iborat, ya`ni iste`mol va zahira, demak daromadlar o`sgani sayin, iste`mol ulushi tushib boradi, ammo zahira ulushi ortadi (S):

$$\frac{\Delta C}{\Delta Y} > 1$$

Neomumtoz nazariya nuqtai nazaridan bunda muammo kelib chiqmaydi, zero barcha zahiralar avtomatik ravishda foiz normasi o`zgarishi vositasida investitsiyaga aylanadi: zahiralar o`sgani sayin kapitalga nisbatan foiz tushib boradi; bu holat, investitsiya uchun yanada qulay bo`ladi. Investitsiyalar hajmi foizning pasaygan darajasi bilan daromad o`rtacha normasi tenglashmagunga qadar, o`sib boradi. Investitsiyalar esa, umumiy talabning bir qismiga aylanadi. Demak iste`mol normasi tushishi, talab hajmiga ta`sir o`tkazishi mumkin emas.

Dj.M.Keyns, mazkur masalada neomumtozlar pozitsiyasini tanqid qiladi. Bunda biz, umumiy talab, ya`ni investitsiyalar muammosining keynschilik nazariyasida ko`rib chiqilishiga o`tamiz.

Zahiralar va investitsiyalar mutanosibligi. Dj.M.Keyns ta`kidlashicha, barcha zahiralarni investitsiyalarga aylantiruvchi avtomatik mexanizm mavjud emas. O`z nazariyasining mazkur bandida, u ingliz iqtisodchisi Denis Xolm Robertson aytib o`tilgan g`oyalarni rivojlantiradi, zero Denis Xolm Roberts o`zining «Bank siyosati va narxlar darajasi» (1926) kitobida, iqtisordiyotda mazkur mexanizm mavjud emasligini aytib o`tgan edi. Zahiralar avtomatik ravishda investitsiyalarga aylanmasligi sababli esa, zahiralar ulushi daromadlar o`sishi sayin oshib borishi sababli, mazkur daromadning kattaroq qismi samarali talabdan tushib qoladi. Bunda Dj. M. Keyns zamonaviy iqtisodiyotning asosiy muammosini ko`rib, resurslarning to`liq ravishda band emasligini keltirib chiqarishini aytib o`tgan. O`z pozitsiyasini Keyns quyidagicha belgilagan. U investitsiyalar darajasi investitsiyalar maksimal samarali (MPI) va foiz normasi (R) nisbati bilan belgilagan. Investitsiyalardan kutilayotgan daromad, foiz normasidan oshmaguncha o`sishda davom etadi. Demak, investitsiyalash hajmini belgilovchi markaziy toifa, foiz normasi bo`ladi. Dj.M. Keyns foiz normasi bo`yicha o`z nazariyasini taklif etadi. U foizni kapital emas, balki mablag` narxi sifatida belgilab, aynan Shu g`oya bilan neomumtoz maktabga qarshi chiqadi. Demak foiz darajasi, kapital talabi va taklifi mutanosibligi bilan emas, mablag`, talab va taklifi mutanosibligi bilan belgilanadi. Shunday qilib, foiz kapital bozoriga bog`liq bo`lmagan element sifatida belgilansada bozorga ta`sirini o`tkaza oladi.

Mablag` taklifi (Ms) ularning aylanmadagi umumiy miqdori bilan belgilanadi, mablag`ga nisbatan talabni belgilovchi omil (Md) sifatida Keyns likvidlikka nisbatan moyillikni hisoblaydi, ya`ni individlarning o`z aktivlarini eng likvidli mablag` shaklida formasiga saqlashga harakatida deb hisoblagan. U likvidlikka nisbatan talabni belgilovchi uchta asosiy motivni ajratgan. Birinchi motiv - transaktsion bo`lib, u tovar va xizmatlar oldi - sotdisi amalga oshirish zaruriyati bilan bog`liq. Mazkur motivga ko`ra mablag`ga nisbatan talab intensivligi, daromad umumiy darajasiga bog`liq bo`lib, unga nisbatan to`g`ridan - to`g`ri proportsionaldir. Ikkinchi motiv - ko`zda tutilmagan xarajatlar paytidagi zahira motivi bo`lib, u kutilmaganda yuzaga kelgan xarajatlarni qoplash uchun naqd mablag`ga nisbatan insonlarning aktivlarini nazarda tutadi. Bunday holatda talab hajmi, daromad darajasiga bog`liq bo`lib, unga nisbatan to`g`ridan - to`g`ri proportsional bo`ladi. Uchinchi motiv spekulyativ bo`lib, bunda individlar uchun mablag` boylikni saqlash formasiga aylanadi. Mablag`ga nisbatan o`z talabini belgilagan bunday holatda individ, o`z zahirasini qanday formada saqlash eng daromadli ekanligini shaxsan belgilaydi. Yig`ilgan mablag`larni saqlash al`ternativ shakli sifatida, qimmatbaho qog`ozlar chiqadi. Ularning daromadlilik darajasi qancha yuqori bo`lsa (masalan foizi) qimmatbaho qog`ozlarni saqlash Shunchalik daromadli bo`ladi. Demak, o`z mablag`larini likvid shaklda saqlash moyilligi ham

Shu darajada past bo`ladi. Qimmatbaho qog`ozlar qimmatliligi darajasi pasayishi sayin mazkur moyillik ham pasayadi.

Natijada likvidlikka nisbatan moyillik ikki omilga bog`liq bo`ladi. Daromadga (Y) va foiz normasiga (i) bunda mablag`ga nisbatan talab, umumiy ravishda insonlar harakati psixologik omillariga bog`liq bo`ladi. Mablag` bozoridagi istalgan to`lqinlanishlar individlarning ishonchsizligiga sabab bo`lib, likvidlikka nisbatan moyillik kuchayishiga olib keladi. Bu birinchi navbatda, foiz normasini oshirib, bu holat investitsiyalarga ta`sir etadi. Demakki, zahira mablag`lari o`sishi, foiz normasi o`sishi bilan birgalikda yuz beradi, natijada yig`ilgan mablag`lar investitsiyalarga aylanmasdan likvid formada saqlanadi.

Mul`tiplikator kontseptsiyasi. Dj.M.Keyns, ichki muianosiblikga ega bo`lgan iqtisodiyot modelini yaratadi. Uning muammosi Shundaki, barcha zahira mablag`larini investitsiyaga aylantiruvchi avtomatik ravishda aylantiruvchi mexanizm mavjud emasligidadir. Mazkur muammo, asosiy psixologik qonuniyat harakati bilan, chuqurlashadi, zero bunda daromadlar o`sishi iste`molga maksimal moyillik pasayishiga olib keladi. YA`ni, zahira mablag`larining bunday o`sishi, investitsiyalar o`sishi tomonidan yutilib, daromadning har safar ko`proq ulushi iqtisodiyotdan samarali effektiv talabga aylanmasdan turib tushib qolishiga olib keladi. Investitsiyalar muammosi echilmasa, iqtisodiyot inqirozga tushib, inqiroz holati barcha resurslarning etarli darajada ishlamasligi bilan tavsiflanadi.

Daromad va investitsiyalar mutanosibligini tadqiq etar ekan, Dj.M. Keyns, mablag`lar o`sishiga daromadlar o`sishi miqdoriy ravishda mo‘ayyan darajada ta`sir ko`rsatishi haqidagi modelni ilgari suradi (investitsiyalar). Buning uchun, u mul`tiplikator tushunchasini qo`llab, mazkur tushuncha 1931 yilda ingliz iqtisodchisi Richard F. Kan (1905-1989) tomonidan «Ichki investitsiyalarning ishsizlikka nisbatan mutanosibligi» maqolasida yoritilgan edi.

Daromadlar o`sishi iste`molchilik, hamda zahira mablag`lari o`sishiga olib keladi. Investritsiyalar o`sishiga.

$$\Delta Y=\Delta C+\Delta I$$

Mazkur o`sishdagi C va I ulushlari mutanosibligi iste`molchilikka nisbatan maksimal darajada moyillik bilan belgilanadi. Mazkur moyillik qay darajada past bo`lsa, qo`shimcha o`sgan daromadning Shu darajada katta qismi investitsiyalarga yo`naltiriladi. Demak, investitsiyalar o`sishi, iste`molchilikka nisbatan maksimal moyillikni aks ettiruvchi mo‘ayyan koeffitsientni hisobga olgan holda, daromad o`sishiga tenglashtirilishi mumkin. Mazkur koeffitsienti Dj. M. Keyns mul`tiplikator deb ataydi.

$$\Delta Y=m\Delta I$$

Bunda m - mul`tiplikatordir.

Mul`tiplikator iste`molchilikka nisbatan maksimal moyillikka ega hisoblanadi.

$$M=1/(1-k),$$

Bunda k- iste`molchilikka nisbatan maksimal moyillikdir.

Chiqarilgan model` asosida Dj.M.Keyns iqtisodiyot o`sishini kumulyativ jarayon ko`rinishida aks ettirib, bunda investitsiyalar o`sishi daromad o`sishini keltirib chiqaradi. Daromad esa, o`z navbatida, mul`tiplikator harakati natijasida investitsiyalarning keyingi o`sishini keltirib chiqaradi. Aks ettirilgan model`, iste`mol qilinmagan daromadning butun ulushi investitsiyaga aylanishini tasvirlaydi. Agarda daromadning mazkur ulushi zahira ko`rinishida saqlanadigan bo`lsa, mul`tiplikator faoliyati, teskari yo`nalishda amalga oshib, bu holat daromadlar o`sishini asta - sekinlik bilan qisqarishiga olib keladi.

Davlat iqtisodiy siyosatining keynscha modeli. Agar iqtisodiy tizim samarali talab masalasini mustaqil ravishda echa olmasa, demak iqtisodiyotga tashqi ta`sir zarur bo`ladi. Samarali talab muammosining asosiy punkti sifatida Dj.M. Keyns zahira mablag`larining investitsiyaga aylanishi deb hisoblagan. Uning tomonidan mazkur masalani echa oladigan qator hukumat choralari taklif etilgan. Mazkur choralarni ikki blokka ajratish mumkin. Pul - kredit va byudjet siyosati. Keyns nuqtai - nazaridan Pul - kredit siyosati, xususiy investitsiyalarni rag`batlantirishga qaratilgan bo`lishi kerak. Mazkur holat asosiy jarayoni deb u foiz stavkasi tushirilishi hisobiga investitsion kiritishlar foydalalik darajasini oshirish deb hisoblagan. Keynsianlik nazariyasida foiz stavkasi monetar fenomen deb atalganligi sababli, uning nazorati, pul bozorida mablag` taklif etilishi bilan nazorat etilishi mumkin. Ammo, Dj. M. Keyns, pul kredit choralarining belgilanganligini ko`rsatadi. Uning yozishicha, pul massasi Shu darajada katta bo`lishi mumkinki, buning oqibatida, foiz normasi tushmaydi, aksincha aylanmaga kiritilmagan pul vositalari miqdorini oshiradi xolos. Bunday holatni Dj. M. Keyns likvidlik chohi deb atagan.

Shu sababli kredit - pul siyosati byudjet siyosati bilan to`ldirilgan bo`lishi kerak. Byudjet siyosati maqsadi, hukumat byudjet harakatlari hisobiga ommaviy talab oshirilishi bo`lishi kerak. Dj.M.Keyns, byudjet mablag`larini xususiy tadbirkorlarning jamoatchilik ishlarini yaratish uchun tovar va xizmatlarning hukumat tomonidan sotib olinishini tashkillashtirish uchun xususiy tadbirkorlarga kredit sifatida tarqatilishi lozim deb hisoblagan.

Barcha ko`rsatilgan choralar, investitsiyalar darajasini oshirish hisobiga samarali talabni rag`batlantirish maqsadiga ega bo`lib, ommaviy talab masalalarini echish uchun hukumat ko`rishi lozim bo`lgan asosiy choralardir.

Ammo, ommaviy talabning yana bir elementi mavjud. Bu ham bo`lsa iste`moldir. Dj.M. Keyns fikricha, iste`molchilikni investitsiya o`sishi bo`yicha

dastur to`laligicha amalga oshirilganidan keyin amalga oshirish lozim, zero aynan investitsiyalar ishlab chiqarish darajasiga bevosita ta`sir o`tkazishadi. Nima bo`lganida ham, keynschilik nazariyasi iste`molchilikni oshirishga qaratilgan qator choralarni ko`zda tutadi. Mazkur choralar tarkibiga yuqorida tilga olingan jamoatchilik ishlarini tashkillashtirish (aholining mo‘ayyan qismini ish bilan ta`minlash uchun), hukumat ishchilari iste`mol darajasini oshirish, hamda aholining kambag`al toifalari foydasiga daromadlarni taqsimlashga qaratilgan, zero asosiy psixologik qonuniyatlarga muvofiq jamiyatning mazkur qismi ayniqsa iste`molchilikka moyil bo`ladi.

Xulosa. Keynschilik nazariyasini paydo bo`lishi, marjinalistik iqtisodiy nazariya rivojlanishining Yangi bosqichi bo`lganligi sababli, mazkur nazariya taklif etilgan asosiy Yangiliklarni umumlashtirish joiz.

Birinchidan. Keynschilik, iqtisodiy tahlil vazifasini o`zgartiradi. Agarda an`anaviy ravishda iqtisodchilar oldida cheklangan resurslarni optimal taqsimlash masalasi qo`yilgan bo`lsa, Dj.M. Keyns depressiv siyosatni ko`rib chiqib, bunda resurslar ortig`ini kuzatgan: ya`ni ishsizlik yuqori darajasi, ishlab chiqarish quvvatlarining etarli darajada ishlamasligi, zahira mablag`larining investitsiyaga aylanmasligi, sotilmagan tovarlar.

Ikkinchidan, kapitalistik tizimning o`z - o`zini nazorat etish imkoniyati mavjud emasligi haqidagi tezis himoyasiga Yangi argumentlar keltirildi:

J.Sey buzorlar qonuniyati. Unga muvofiq har bir sotuvchi o`z navbatida xaridorga aylanadi, ammo mazkur qonuniyat Keyns fikriga ko`ra faqatgina barter iqtisodiyotida mavjuddir. Mablag` iqtisodiyotida, daromadlarning bir qismi zahira sifatida saqlanib qolinib, Shu bilan birgalikda ommaviy talab hajmi pasayadi. Buning natijasida taklif talabdan oshadi, bu esa inqirozning real imkoniyatini yaratadi.

Zahira mablag`larini investitsiyaga aylantiruvchi avtomatik mexanizm mavjud emas, zero mazkur jarayonning asosiy dvigateli, foiz normasi bo`lib, u mablag` bozoridagi holat va likvidlik tanlovi psixologik omiliga bog`liqdir.

Insonlar iqtisodiy harakatlari real holatlardan farq qiluvchi mablag` ko`rsatkichlar mavjudligi sababli yuzaga keladigan bozordagi mavjud noaniqlik sababli, ratsional emasdir.

Uchinchidan, hukumatning iqtisodiyotga doimiy aralashish imkon mexanizmlarini va mazkur aralashuv zaruriyatini asoslab beruvchi nazariya yaratildi.

Nazorat uchun savollar:

1. Hayvoniy his nima, hamda uning iqtisodiy harakat haqidagi keynschilik nazariyasidagi roli qanday?

2. Dj.M. Keynsning mablag` neytralligi mumtoz printsipi borasidagi tanqidi mazmuni nimadan iborat?
3. Keynschilik nazariyasi usulining asosiy xususiyatlarini aytib bering.
4. Sey bozorlar qonuniyatining keynschilik tanqidi mohiyati nimada?
5. Iste`molchilikka nisbatan maksimal moyillik nima?
6. Nima sababdan Dj. M. Keyns fikriga ko`ra, zahira mablag`lari avtomatik ravishda investitsiyalarga aylanmaydi?
7. Likvidlikka moyillik tushunchasining asosiy mazmuni nimadan iborat, va u qanday iqtisodiy ko`rsatkichlarga ta`sir etadi? Likvidlikka moyillikni belgilovchi asosiy motivlarni aytib o`ting.
8. Mul`tiplikator nima?
9. Talab samarasini rag`batlantirish bo`yicha Dj.M. Keyns qanday hukumat choralarini taklif etgan?

Mavzu bo`yicha adabiyotlar ro`yxati:

1. Кейнс Дж.М. Обшая теория занятости, процента и денег. М.: гелиос – АРВ, 2002.
2. Классика экономической мысли (У. Петти, А. Смит, Д. Рикардо, Дж.М. Кейнс, М. Фридмен). М.: Эксмо-Пресс, 2000.

XX-BOB. XX ASR 40-60-YILLARI OXIRIDA IQTISODIYOT FANI RIVOJLANISHI

20.1. Iqtisodiy fan asosiy yo`nalishlari

Davr tavsifi. Ikkinchi jahon urushi natijasida, jahon bozoridagi kuchlar mutanosibligida keskin o`zgarishlar yuz berdi. Evropa mamlakatlari iqtisodiyoti kuchsizlandi. Sanoat deyarli emirilgan holatda bo`lib, savdo tizimli floti to`liq yo`qotilgan, moliya bozorlari esa nomo``tadil ahvolda edi. Evropa Jahon savdosi ko`lamida o`z pozitsiyalarining yirik qismini yo`qotdi, mazkur sohalar AQSH, Kanada, va Lotin Amerikasi davlatlari va britaniya hamdo`stligi mamlakatlari tomonlaridan egallandi, Chunki ushbu mamlakatlar ijtimoiy - iqtisodiy holatlarini musiaxkamlashdi. Jahon bozoridagi asosiy rolni Amerika Qo`shma SHtatlari egallab uning nufuzi mustaxkamlanib bordi.

1940-1960-yillar uchun tavsifli holat, hududiy hamdo`stliklarning shakllanishidir. 1947-yildan boshlab, Evropa mamlakatlarda birlashish jarayoni boshlanib, bu holat 1957 yilda «Umumiy bozor» ni shakllanishiga olib keldi. Xudud Sharqida 1949- yilning yanvar` oyida o`zaro iqtisodiy yordam qo`mitasi (UNYOQ), yaratilib, u Sharqiy Evropa va Sovet ittifoqi mamlakatlarini birlashtirdi.

Xalqaro tuzilmalarning yaratilishi, iqtisodiyotni markazlashishini kuchaytirdi va urushdan so`nggi davrlar uchun xos bo`lgan umumiy tendentsiyalarga muvofiq edi, zero bu holat iqtisodiyotning hukumat tomonidan nazorat etilishini faol rivojlanishiga olib keldi. O`sha davrlarda ilk marotaba, hukumatning xo`jalik hayotiga aralashishi doimiy tavsifga ega bo`lib, nafaqat majburiy, nafaqat istisno chora, balki urush yoki inqiroz sharoitlarida zarur chora bo`lib qolib (bu holat XX asrning 30-yillarigacha iqtisodiy siyosat uchun xos edi), zamonaviy iqtisodiy tizimning asosiy qismiga aylandi. Umuman olganda Evropa iqtisodiyoti, umuman olganda urushdan so`ng muammolarni tez hal qildi va tekis rivojlanish bosqichiga o`tdi. Qisman bunday ijobiy dinamikaning sababi, Shunday ediki, urushdan so`nggi davrlardagi holat, yirik sikl ko`tarilish fazasiga mos tushib, bu holat barcha iqtisodiy ko`rsatkichlarga ta`sir etdi. 1960-yillarda, ilmiy - texnik inqilob kuchayib bu holat ham g`arb mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishining Yangi impul`siga asos solib berdi.

20. 2. Iqtisodiy siyosat yo`nalishlari

Keynschilik ustunligi. Urushdan so`nggi davrda, iqtisodiyot rivojlanishi, birinchi navbatda keynschilik maktabi ustunligi bilan ko`zga tashlanadi. Urushdan so`ng, Yangi nazariya keng ommalashib birinchi navbatda AQSHda ko`zga

tashlana boshladi, zero bu maktab, AQSH hukumat siyosatini belgilab berib, bu jarayon 1970-yillardan oldin Garri Trumen boshqaruvi davrida boshlandi (1884-1972, 1945-1953 yillar davomida AQSH prezidenti). Yangi siyosatning asosi, iqtisodiyotga to`liq bandlikni davlat nazorati choralari bilan ta`minlash bo`ldi. 1946 yilda, Amerika Qo`shma SHtatlarida bandlik haqida qonun qabul qilinib, undan so`ng, davlat o`z zimmasiga ishsizlikning past darajasini saqlab turish majburiyatini oldi.

Shunga o`xshash siyosat qator mamlakatlarda ham amalga oshirila boshlandi. Xususan Kanada, Buyuk Britaniya, Gollandiya va Avstraliya kabi mamlakatlarda. Shuningdek iqtisodiyotning ba`zi sektorlari milliylashtirilishi ham amalga oshirila boshlandi (masalan energetika va transport), aholining kam ta`minlangan qismini ijtimoiy qo`llab - quvvatlash tizimi rivojlana boshladi (nafaqalar, ko`p bolalshi oilalar uchun nafaqalar, subsidiyalashtirilgan tibbiy xizmat). Davlat zimmasiga, inqiroz holatlarini oldini olish maqsadida nazoratni amalga oshirish majburiyatini yukladi.

Shved modeli. Urushdan so`nggi davrlardagi keynschilikka muqobil bo`lgan ko`plab iqtisodiy siyosat yo`nalishlarida davlat dasturlarini amalga oshirishga kirishildi. Masalan, umumiy davlat ravnaqi skandinav kontseptsiyasi stokgol`m maktabi nazariyasiga, xususan o`z xulosalari bo`yicha keynschilikka yaqin bo`lgan K. Viksel`, E. Lindal`, Gunnar Myurdal` (1898-1987), Bertil` Ullin (1899-1979), Erik Lundberg (1897-1987) xulosalariga tayanar edilar. Mazkur maktab, iqtisodiy tizim nomutanosibligidan kelib chiqib, iqtisodiyot makroiqtisodiy nazorati usullarini ko`zda tutar edi (asosan kredit - pul usullarini). Shu bilan birgalikda, u davlat byudjetining har yili balanslashtirilishi majburiy emasligi haqidagi tezisni, hamda davlatning o`z fuqarolariga mo‘ayyan darajadagi ravnaqni ta`minlab berishi, xususan ijtimoiy siyosat hisobiga amalga oshirishi majburiyati haqidagi tezisni ilgari surishgan.

Frantsuz dirijizmi. O`sha davrlardagi Frantsiyada dirijizm siyosati amalga oshirilib, bu siyosat, keynschilikka nisbatan ko`proq darajada davlatning iqtisodiyotga aralashuvini ko`zda tutar edi. Mazkur siyosat retseptlari, qisman institutsional yo`nalish doirasida ishlab chiqarilib, bu yo`nalish urushdan so`nggi o`sha davrlarda ko`proq ahamiyatga ega edi. Dirijizm siyosatining keynschilikdan printsipial farqi Shundaki, dirijizm antisiklik nazorat talablari bilan bir qatorda muvaffaqiyatli ravnaq o`sishini ta`minlash bo`yicha vazifani davlat zimmasiga qo`yadi (Fransua Perru (1903-1987) kontseptsiyasi). Mazkur vazifa o`z tarkibiga iqtisodiyotning institutsional qayta tuzilishi, iqtisodiy tuzilishlar yaratilishi yoki qo`llab - quvvatlanishi (o`sish polyuslari) kabi o`z zimmasiga olib, bu tushunchalar butun iqtisodiyot rivojlanishida mo‘ayyan rol` o`ynashi ilgari surilgan. Frantsuz

dirijizmi o`ziga xos xususiyatlaridan birining natijasida davlat bo`ylab indikativ rejalashtirish usullari qo`llanila boshlandi.

20. 3. «Ijtimoiy bozor xo`jaligi» Germaniya doktrinasi

Ikkinchi jahon urushidan so`ng dunyoda keynschilikni yetakchiligi va davlatning keng nazorati g`oyalari doirasida, ayniqsa GFR ajralib chiqdi, zero davlatda «Ijtimoiy bozor xo`jaligi» doktrinasi hukmronlik surar edi. Mazkur doktrina asoslari urush o`rtalarida German ordoliberalizmi doirasida shakllanib, uning boshida nemis iqtisodchisi institutsionalizm namoyandasi Val`ter Oyken (1891-1950) turgan edi. Uning asosiy g`oyalari, «Milliy iqtisodiyot asoslari» (1940) va «Iqtisodiy siyosat asosiy printsiplari» asarlarida ilgari surilib, mazkur kitoblar 1952 yilda muallif o`limidan so`ng nashr etildi. 1933 yildan 1945 yilgacha Germaniyada natsional - sotsializm g`oyalari hukmronlik qilganligi sababli, ordoliberalizm g`oyalari 1940-* yillarning oxirigacha keng tarqalmagan.

V. Oyken asosiy g`oyalari Shunda ediki, iqtisodiy tuzilish tasodifan shakllanmaydi, va Shu sababli, tasodifiy ravishda shakllanishi mumkin ham emas. Uning fikricha, iqtisodiy tizim, millat tomonidan uning madaniy, tarixiy, va ma`naviy an`analariga muvofiq tanlanib, jamiyatda hukumatning maqsadli siyosati yordamida belgilanishi kerak. Germaniya iqtisodiyotini o`ziga xosligini tadqiq etar ekan V. Oyken birinchi navbatda natsizm siyosatini markazlashtirishgan davlat g`oyalari uchun tanqid qilgan. U hukumatning iqtisodiyotga aralashuviga qarshi emas edi, ammo Shu bilan birgalikda, bunday tuzilish, Germaniyaning protestantlik ma`naviy an`analariga zid ekanligini aytib o`tgan. Shu bilan birgalikda, uning fikricha, Germaniya uchun liberal iqtisodiyot modeli ham mos tushmaydi.

Uning tomonidan iqtisodiy hayotni tashkillashtirilishining uchinchi yo`li taklif etilib, bu yo`nalish “iqtisodiy gumanizm” nomini oldi. Iqtisodiyotning mazkur modeli besh asosda qurilgan:

1. xususiy mulskning saqlab qolinishi;
2. ochiq bozor printsiplariga rioya qilish, aynan Shu holat davlat tomonidan monopolizatsiya jarayonining qattiq cheklovini ko`zda tutar edi;
3. erkin kelishuvlar printsipi - iqtisodiy liberalizm;
4. o`z xo`jalik faoliyati uchun javobgarlik printsipi;
5. jamiyatda kam ta`minlangan qatlamlarining resurslar adolatli taqsimlanishi orqali ta`minlashga yo`naltirilgan keng ijtimoiy siyosat.

Iqtisodiyotning mazkur modelida davlatni roli, antimonopoliya siyosatini amalga oshirish, bozorning eokin raqobatchiligini himoya qilish, hamda keng ijtimoiy dasturlarini amalga oshirish doirasida cheklangan.

1950-yillarda, ordoliberalizm g`oyalari ko`plab nemis iqtisodchilari asarlarida rivojlantirilgan. Ular orasida ayniqsa muhim ahamiyatga Al`fred Myuller – Armak (1901-1978) asarlari e`tiborga molik bo`lib, mazkur muallif, V. Oykenning uchinchi yo`li g`oyasini qo`llab, uning asosida iqtisodiy siyosat kontseptsiyasini shakllantirdi va bu kontseptsiya iqtisodiyot fanida ijtimoiy bozor xo`jaligi nomini oldi. Mazkur kontseptsiyaning asosiy holatlari, urushdan so`nggi Germaniyada Lyudvig Erxard (1897-1977) siyosati sababli realizatsiya etildi, zero Lyudvig Erxard o`sha davrlarda avval iqtisodiyot vaziri vazifasini, keyin esa (1963-1966) GFR federal kantsleri vazifasida ishlagan. Real ravishda amalga oshirilgan siyosat juda qattiq edi. Xususan davlat nafaqat o`yin qoidalarini belgilaydi, balki investitsion jarayonlarda faol ishtirok etib, ayniqsa daromadli sohalarni qo`llab - quvvatladi (qishloq xo`jaligi, qurilish). Shu bilan birgalikda, aholi kambag`al qatlamlarini qo`llab - quvvatlash nazariyada deklaratsiya etilganidek keng emas edi. Umuman olganda, mazkur siyosat, iqtisodiyotning uchinchi turini yaratishga qaratilib, mazkur tur, bozor xo`jaligini davlat ijtimoiy dasturlari bilan bog`lashi kerak edi.

Iqtisodiy nazariya. 1940-1960-yillar davomida keynschilik, nafaqat iqtisodiy siyosatda, balki iqtisodiyot fanida ham yetakchilik qilar edi. Shu bilan birgalikda, makroiqtisodiy nazariya ham faol ravishda rivojlanib kelayotgan edi: iqtisodiy o`sish va iqtisodiy siklni turli modellari yaratildi. Iqtisodiyotning nomutanosib holati sifatida, nafaqat pasayish fazasi, balki sikl fazalari ham ko`rib chiqildi. Davlat antisiklik siyosati mexanizmlari rivojlanib, iqtisodiy kon`yunkturaga kredit - pul va byudjet usullari ta`siri o`rganildi.

Keynschilik maktabiga ommaviylik bo`yicha ancha orqada qolgan neoklasssik yo`nalish ham, rivojlanishda davom etdi. mazkur rivojlanishning muhim yo`nalishlaridan biri, keynschilar tomonidan ilgari surilgan g`oyalarning qayta ko`rilishi bo`ldi. Neomumtoz oqim ularni o`z nazariyasiga moslashtirishga harakat qildi. Natijada, neomumtoz sintez kontseptsiyasi yaratildi (Dj. Xiks, P. Samuel`son) uning vazifasi Shundan iborat ediki, keynschilik nazariyaning neoklasssik nazariya muhim qismlaridan biri sifatida ilgari surish bo`ldi. Neomumtoz va kenyschilik nazariyalari iqtisodiyotningning turli yo`nalishlari doirasida tadqiq etilganligi sababli, birinchisi to`liq bandlik holatini tadqiq etsa, ikkinchisi to`liq bo`lgan bandlikni tadqiq etib, bunday sintez keynschilik nazariyasi, neomumtoz nazariyasining xususiy holati sifatida o`rganilib, to`liq bo`lmagan bandlik sharoitlarida iqtisodiyotning o`ziga xos holatiga bag`ishlanadigan bo`lsa mumkin edi. Shunga o`xshash, har ikkala maktab amaliy tavsiyalari ham sintezlashtirildi. Agar iqtisodiyot depressiv holatda bo`lsa, keynschilik choralari qo`llaniladi. To`liq bandlik holati yuzaga kelishi bilan, neomumtozlar tomonidan taklif etilgan retseptlar kuchga kiradi.

Marjinalistik yo`nalishlar rivojlanishi bilan parallel ravishda (neomumtozlar va keynschilik) institutsional nazariya ham rivojlanishda ham davom etdi. 1940-1960-yillar davomida mazkur yo`nalish iqtisodchilarini band qilgan asosiy mavzu, ilmiy - texnik progress va u bilan bog`liq bo`lgan iqtisodiyotdagi institutsional o`rganishlar bo`ldi, ya`ni mulkdorlik shakllari transformatsiyasi, iqtisodiy hukmronlik almashinuvi, yirik korporatsiyalar faoliyatidagi o`zgarishlar va boshqalar.

Nazorat uchun savollar:

1. Urushdan so`ng qator mamlakatlarda amalga oshirilgan keynschilik iqtisodiy siyosati asosiy holatlari nimadan iborat?
2. Iqtisodiy siyosat Shved modeli nima?
3. Frantsiyada dirijizm siyosatiga tavsif bering?
4. Germaniya iqtisodchilari tomonidan ilgari surilgan uchinchi yo`l kontseptsiyasi mohiyati nima?
5. XX asrning 40-60-yillarida rivojlangan iqtisodiy fikr asosiy maktablarini sanab o`ting.

Mavzu bo`yicha adabiyotlar ro`yxati:

1. История экономики: Учебник/ под ред. О.Д.Кузнецовой и И.Н.Шапкина. М.: ИНФРА – М, 2002.
2. Камерон Р. Краткая экономическая теория мира от палеолита до наших дней. М.: РОССПЕН, 2001.
3. История экономических учений. Т. III. / Под ред. А.Г. Худокормова. М., 1998.
4. Теория хозяйственного порядка: «Фрайбургская школа и немецкий неолиберализм». М., 2002.
5. Ойкен В. Основы национальной экономии. М.: Экономика, 1996.
6. Эрхард Л. Благосостояние для всех. М.: Дело, 2001.

XXI-BOB. NEOKEYNSCHILIK IQTISODIY NAZARIYALARI

21.1. Neokeynschilik metodologiyasini o`ziga xosliklari

Yuqorida aytib o`tilganidek, neokeynschilar tadqiqotlarining asosiy yo`nalishlari, dinamik makroiqtisodiy tahlil bo`ldi. Dj.M. Keyns tarafdorlarining asosiy yutuqlari iqtisodiy o`sish nazariyasi yaratilishi bilan bog`liq. Mazkur nazariya doirasida uchta asosiy holat o`rganilgan:

- ❖ Dinamik muvozanat sharoitlari;
- ❖ Dinamik muvozanatdan uzoq muddatli chetlashish;
- ❖ Dinamik muvozanatdan qisqa muddatli chetlashish.

Mazkur tadqiqotlar boshlanishi II jahon urush o`rtalarida ingliz iqtisodchisi Roy Forbs Xarrot (1900-1978) va amerikalik iqtisodchi Alvin Xansen (1887-1975) tomonidan yaratildi. 1936 yilda, Xarrotning birinchi «Iqtisodiy sikl» deb nomlangan kitobi nashr etilib, 1941 yilda esa, Xansenning «Soliq siyosati va iqtisodiy sikllar» kitobi nashr etildi. 1940-1950-yillarda mazkur muammoga bag`ishlangan qator boshqa kitoblar ham nashr etildi. 1948-yilda R. Xarrotning «Iqtisodiy dinamika nazariyasi haqida» kitobi va amerikalik iqtisodchi Efsey Devid Domarning (1914-1998) qator maqolalari nashr etildi. 1951-yilda E. Xansenning «Iqtisodiy sikllar va milliy daromal» kitobi nashr etildi, 1956 yilda Dj. Robinson «Kapital to`planishi», bir yildan so`ng, 1957 yilda esa, E. Domar qalamiga mansub « Iqtisodiy nazariyasi bo`yicha ocherklar» nomli asosiy assarlari nashr etildi.

Neokeynschilar nazariyasi uslubi asoslangan qator o`ziga xosliklarga ega. Bir tomondan mazkur o`ziga xosliklar keynschilik ana`analari rivojlanishi bilan bog`diq. Birinchidan neokeynschilar tomonidan agregatsiyalashtirilgan ko`rsatkichlar qo`llaniladi. Ikkinchidan iqtisodiy mexanizmlar tasvirlanishida psixologik yondashuv qo`llaniladi: katta e`tibor kutilayotgan va prognozlashtirilayotgan kattaliklar tahlili, individlarning iqtisodiy harakatiga ta`siri, demak, butun iqtisodiy tizim faoliyati tahliliga qaratiladi. Uchinchi maktab bozor tizimi nomutanosibligi printsipidan kelib chiqadi.

Muvozanat holatidan muddatli chetlashish siklik to`lqinlanishi sifatida ko`rib chiqilgan neomumtoz sikl nazariyalaridan farqli o`laroq, neokeynschiliklar iqtisodiyotni depressiya yoki yuksalish holatiga keltiruvchi nomutanosib tendentsiyalarga e`tiborlarini qaratishgan. Bunda muvozanat holatiga qaytish mexanizmlari undan chetlashish mexanizmidan farqli o`laroq, juda qiyin ekanligi tan olingan. Bu borada neokeynschilar asosiy e`tiborlarini bozor kon`yunkturasiga u yoki bu tomonga katta og`ishini oldini olish maqsadida davlat aralashuviga qaratishgan. Boshqa tomondan Dj. M. Keyns nazariyasidan farqli o`laroq,

neokeynschilik nazariyasi dinamik tahlilga ham ega. Keynschilik nazariyasida ishlab chiqarish, statik holatda qisqa muddat davr oralig`ida ko`rib chiqilgan. Mashkur namoyandalar nazariyasi, uzoq muddatli dinamik jarayonlar tadqiqoti ko`rinishida bo`lgan. ular tomonidan keng ma`noda Stokgol`m maktabi tomonidan kiritilgan ex-ante va ex-post tushunchalari qo`llanilgan.

R. Xarrot iqtisodiy dinamikasi. R.Xarrot nazariyasi barcha neokeynschilar kabi dinamik tahlilga yo`naltirilganligi sababli, birinchi navbatda u statika va dinamika holatlarini qay darajada tavsiflashini aniqlashga qaratgan, zero turli iqtisodchilar mazkur tushunchaga turli interpretatsiyalar berishgan. R. Xarrot nazariyasida statika, sodda ishlab chiqarish bilan, ya`ni iqtisodiyotning o`zgarmas hajmdagi faoliyati bilan bog`lanadi. Uning dinamikasi esa, uzoq muddatli davrda ishlab chiqarish hajmlaridagi istalgan o`zgarishni ta`min etadi.

R. Xarrot o`z tadqiqotida o`sib borayotgan aholining to`liq bandligi va ishlab chiqarish quvvatlarining to`liq bandligiga erishish imkoniyatini beradigan o`sish darajasini ta`minlovchi mexanizmni topishni vazifa qilib qo`ygan. R.Xarrot, o`sish darajasini asosan investitsiyalar hajmiga bog`liqligidan kelib chiqgan holda, «Kapital koeffitsient» (C) tushunchasini kiritgan. Mazkur koeffitsient, kapital o`sish hajmi darajasini ko`rsatadi, ya`ni iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalar hajmi, va mazkur investitsiyalar keltirib chiqargan umumiy daromad o`sish darajalarini ko`rsatadi (taxmin etilishicha umumiy daromad dinamikasi investitsiyalargagina bog`liq).

$$c = \frac{I}{\Delta Y}$$

Daromadning talab etilgan o`sishini ta`minlash uchun, mazkur ishlab chiqarish davrida mo‘ayyan investitsiyalar miqdorini kafolatlash zarur. Investitsiyalar esa – ishlab chiqarish talabiga yo`naltirilgan zahira mablag`larining bir qismidir. Demak davlat siyosati, talab etilgan o`sish darajasini zarur miqdordagi investitsiyalar bilan ta`minlashga qaratilgan bo`lishi kerak.

Belgilangan o`sish darajalariga erishish shartlaridan tashqari R. Xarrot, dinamik muvozanatni ta`minlash masalasini ham ya`ni iqtisodiyot inqiroz holatlariga tushmasdan o`sib borish holatini taxlil etgan. U investitsiyalar tengligi (i) va zahira mablag`lari (S) tengligidan iborat bo`lgan tenglik asosiy shartini ilgari suradi. Mazkur muvozanatdan istalgan chetlashishlar krizis holatlarini keltirib chiqaradi. Agar S>I bo`lsa, to`liqsiz bandlik holati kelib chiqadi, agar S<I bo`lsa, bu holat inflyatsiyani keltirib chiqaradi.

R. Xarrot S va I ko`rsatgichlarni iqtisodiyotdagi darajasini belgilash usullarini tadqiq etgan. Zahira mablag`lari umumiy daromadnining investitsiyalarga

mo`ljallangan va iste`mol qilish uchun qo`llanilmagan qismidir. Zahira mablag`lar hajmi, bozordagi kapital taklifi darajasini belgilab, mazkur zahira mablag`larini yig`ishga moyillgiga bog`liq (S): S=S/Y.

Investitsiyalarni R.Xarrot kapitalga nisbatan ishlab chiqarish talabi sifatida qarashni taklif etadi. Mazkur talab darajasi, iqtisodiy o`sish darajalari uchun qancha investitsiya zarur ekanligi bilan belgilanadi. U umumiy daromad va kapital koeffitsient o`sishi miqdori bilan belgilanadi:

$$I = \frac{\Delta Y}{Y} X \frac{I}{\Delta Y}; \quad \text{yoki} \quad g \ x \ c,$$

Bunda g – umumiy daromad o`sishi (ΔY/Y); c - esa kapital koeffitsentidir.

Mazkur ikki formula asosida R. Xarrot, iqtisodiy dinamika tenglamasini ishlab chiqgan (mazkur formula o`sish templari tenglamasi deb ham atalgan). Mazkur tenglamaning mazmuni Shundan iboratki, iqtisodiyot o`sish darajalari keltirib chiqargan kapitalga talab (g * c), kapitalga muvofiq taklifi bilan ta`minlanishi kerak (S):

$$g \ x \ c=s$$

Bu tenglamani quyidagicha ham ifodalash mumkin.

$$g = s/c$$

Ushbu ko`rinishda dinamika tenglamasi, iqtisodiy o`sish darajalari zahira mablag`lari darajasidan qancha yuqori bo`lsa (S), kapital koeffitsienti Shu darajada past bo`lishini (C) ko`rsatadi. Agarda S doimiy miqdor bo`lsa, ya`ni zahira mablag`lari darajasi o`zgarmas bo`lsa, biz quyidagi bog`liqlikka ega bo`lamiz: S – kapital o`sishi hajmi qay darajada past bo`lsa, G o`sish darajasi Shu darajada yuqori bo`ladi, va aksincha, o`sish kapital hajmi qay darajada yuqori bo`lsa, mazkur o`sish Shu darajada past bo`ladi. Iqtisodiyotning har ikkala holatlarini kapital o`sishini turli hajmi darajasi bilan ko`rib chiqadigan bo`lsak, har ikkala holat uchun quyidagi tenglama xos bo`ladi:

$$g1 \ x \ c1 = s$$

$$g2 \ x \ c2 = s$$

Bunda, C1<C2 bo`lsa G1>G2 bo`ladi. Agar s1>c2 bo`lsa, g1 < g2

Keyingi holatlarda R. Xarrot iqtisodiyotni boshqarilish mexanizmini muayan o`sish darajalari doirasida ko`rib chiqgan. Uning ta`kidlashicha, tadbirkorlar o`z harakatlarida o`sishni real templariga emas (G) o`sishning kafolatlangan

templariga tayanishlari lozim, bu holat mavjud ishlab chiqarish quvvatlarining to`liq bandligi sharoitlarida erishilishi mumkin. Bundan Shunday xulosa kelib chiqadiki, tadbirkorlar, ishlab chiqarishda qo`llash uchun tayyor bo`lgan resurslar qay darajada ishlatilishiga umid qilishlari zarur. Mazkur ko`rsatkichga tayangan holda, tadbirkorlar mavjud zahira mablag`larida mazkur darajaga erishish uchun zarur kapital hajmlarini belgilaydilar. Buning natijasida o`sish tenglamasi quyidagi ko`rinishga ega bo`ladi.

$$gw \times cr = s$$

Bunda Gw o`sish kafolatlangan darajali; Sr – kafolatlangan o`sish darajalarini ta`minlash uchun zarur bo`lgan investitsiya kattaligini belgilab beruvchi zarur kapital koeffitsient. R.Xarrotning ta`kidlashicha, to`xtovsiz barqaror rivojlanish uchun, real o`sish darajasi prognozlashtirilgan darajasiga bog`liq bo`lishi zarur, ya`ni ishlab chiqaruvchilar bo`lajak iqtisodiy bozor kon`yunkturasiga to`g`ri baho berishlari kerak. Ammo real iqtisodiyotda bunday tenglik kamdan - kam holatda uchraydi. Bundan tashqari bir marotaba yuzaga kelgan nomutanosiblik, real darajaning prognozlashtirilgan darajasidan tobora kattaroq chetlashishiga olib keladi.

Buning uchun ikki real va kafolatlangan o`sish darajalarini ifodalovchi tenglamalarini olamiz.

$$g \times c = s;$$

$$gw \times cr = s$$

Aytaylik, real o`sish tempi prognozlashtirilgan tempdan past bo`ladi: G< Gw. yuqorida ko`rsatilgan bog`liqlikka muvofiq, bu holat belgilangan zahira mablag`lari darajasida kapital hajmi koeffitsienti talab etilganidan yuqoriligini ko`zda tutadi (C>CR).

Tadbirkorlar o`z faoliyatlarida aynan kapital hajmi ko`rsatkichiga tayanishadi. Kapital hajmi talab etilganidan ishlab chiqarish hajmidan yuqoriligini aniqlagach, ular mazkur holatni tushunishga harakat qilishadi, ya`ni xom ashyo, materiallar, uskuna xaridini qisqartirishadi. Bu holat keyingi davrlarda ham, G pasaytirilishiga olib keladi, demakki G va Gw orasidagi bog`liqlik o`rnatilishiga ham. Natijada, iqtisodiyot uzoq muddatli depressiya holatiga tushib qoladi.

Shunga o`xshash holat kafolatlangan o`sish darajalari (Gw) real o`sish darajalari past bo`lishi holatlarida ham, (G) yuzaga keladi. Real kapital hajmi real koeffitsienti (C) talab etilgan darajadan past bo`ladi (Cr), demak tadbirkorlar o`z kapital zahiralarini oshirish harakatiga tushib, Shu orqali ikki ko`rsatkichni

tenglashtirishga harakat qilishadi. Bunday harakatlar real o`sish darajalari keyingi davrlarda oshishiga olib kelib, bu holat G va Gw orasidagi bog`liqlikni kuchaytiradi. Bunday harakatlar natijasida esa uzoq muddatli yuksalish davri yuzaga keladi.

O`z nazariyalari asosida, R. Xarrot quydagicha xulosa qiladi, iqtisodiy tizim muvozanatda bo`lmasa, tadbirkorlik faoliyati doimiy ravishda pichoq tig`i ustidagi muvozanat holatida bo`ladi. Muvozanatdan kichik chetlashish, gravitatsiya kuchlarini ishga solib, iqtisodiy tizim balans nuqtasidan ayiradi. Bunday tendentsiyalar sababi esa, iqtisodiyot agentlarining noadekvat harakatlari bo`ladi. Bozor ko`rsatkichlari ishlab chiqaruvchilarni o`z maqsadlaridan chalg`itib ularni bozor muvozanatini tiklashga emas, aksincha muvozanatdan qochishga olib keladigan harakatlarni amalga oshirishga majbur qiladi.

Real va kafolatlangan o`sish darajalaridan chetlashish ostida, R. Xarrot, iqtisodiyotda ro`y beradigan qisqa muddatli tebranishlar sabab sifatida ko`radi. Uning sikllar kontseptsiyasi ham aynan o`sish nazariyalari asosida ishlab chiqilgan. Ammo, to`lqinlanishlar yuzaga kelishlarini tasvirlar ekan, R. Xarrot, muvozanat nuqtasidan iqtisodiyot harakati yo`nalishi nima sababdan o`zgarib turish sikllarini shakllanishi sabablarini tushuntira olmagan. R. Xarrot, bor - yo`g`i taxminlar bilan cheklanib, siklning bir fazasining boshqa fazasiga o`zgarishini tasodifiy omillar harakati deb tushuntirgan.

O`z tahlilini kengaytirgan holda R.Xarrot yana bir tushuncha, tabiiy o`sish darajalari (Gn) tushunchasini kiritgan. Mazkur usishning darajasi, iqtisodiyot rivojlanishining texnologik darajasidan maksimal, ya`ni potentsial jihatdan, yuqori holatida mavjuddir. Ya`ni Gw ishlab chiqarish quvvatlari to`liq bandlikga muvofiq bo`lsa Gn barcha potentsial resurs turlari bandligini ko`zda tutadi. Xususan, o`sishning kafolatlangan darajasiini, mehnat resurslari noto`liq bandligini taxmin etib, barcha yollangan ishchilarni ishga solishni ko`zda tutadi. Tabiiy o`sish darajasini esa ularning to`liq bandligini talab etadi. O`sish mazkur tempini ta`minlash uchun, zahira mablag`lari etmasligi mumkin. Shu sababli, tabiiy o`sish darajasi tenglamasi quyidagi ko`rinishga ega bo`ladi.

$$gn \times c = s \text{ yoki} \neq s$$

Xarrot o`sish darajalarini uch ko`rsatkichi ya`ni real, kafolatlangan va tabiiy mutanosibligini ko`rib chiqadi. Bularning ichida eng muhimi kaforlatlangan va tabiiy o`sish templari mutanosibligidir, zero mazkur ikki ko`rsatkichlar orasidagi farqni R. Xarrot bandlik muammosi sifatida talqin etadi. Agar kafolatlangan o`sish darajalari tabiiy o`sish darajasidan yuqori bo`lsa (Gw>Gn), iqtisodiyotning

bunday holati resurslar etishmasligi bilan tavsiflanadi. Va birinchi navbatda mehnat resurslari etishmovchiligi kuzatiladi, Chunki ishlab chiqarish imkoniyatlari salohiyati yirik resurs bazasiga qaratilgan bo`lib, iqtisodiyotning mavjud holatining bu darajani ta`minlay olmaydi. Bundan tashqari, mazkur holatda tadbirkorlarning investitsion umidlari iqtisodiyot imkoniyatlaridan ustun bo`lib, bu holat zahira mablag`lari tabiiy normasi bilan belgilanadi. Gn tabiiy o`sish darajalari imkon qadar maksimal temp bo`lganligi sababli, u real o`sish darajasidan ustun bo`ladi (Gn>G). Demak, ko`rib chiqilayotgan Gw holatida G doimo kattaroq bo`ladi, bu esa uzoq muddatli stagnatsiya shartidir.

Kafolatlangan o`sish darajasi tabiiy o`sish darajasidan past bo`ladigan bo`lsa (Gw<Gn), resurslarning to`liqsiz bandligi bilan tavsiflanadi, demakki ishsizlik yuzaga keladi. Bunday holat real (G) va kafolatlangan (Gw) o`sish darajalari mutanosibligi ikki variantini taxmin etadi: agar Gn>Gw.>G bo`lsa iqtisodiyot uzoq muddatli depressiya holatiga kiradi, ammo birinchi holatdagi darajasida emas. Agarda Gn>G>Gw bo`lsa, iqtisodiyot iqtisodiy yuksalish holatiga kiradi.

O`z nazariyasi asosida R. Xarrot davlat iqtisodiy siyosati choralarini ishlab chiqib, ular o`z tarkibiga ikki blokni olishni ta`kidlaydi:

a) kafolatlangan va real o`sish darajalari ko`rsatkichlarini yaqinlashtirish maqsadida byudjet xarajatlari o`sishi va foiz stavkalarini manipulyatsiya etish keynschilik retseptlarini qo`llagan holdagi antisiklik nazorat;

b) kafolatlangan va tabiiy o`sish darajalari ko`rsatkichlarini yaqinlashtirishga yo`naltirilgan bandlikni yuqori darajasini ta`minlash bo`yicha choralar.

A. Xansen, iqtisodiy sikl nazariyasi. Amerikalik iqtisodchi A.Xansen sikllar nazariyasi ko`p jihatdan sintezlashtirilgan tavsifga ega, zero uning nazariyasi o`z tarkibiga iqtisodiyot dinamikasi nazariyasi boshqa iqtisodchilari tomonidan yaratilgan elementlarini oladi. A. Xansen o`zidan oldingi qator iqtisodchilar asarlariga tayanib, ularning nazariyalari rivojlanishi tarixiga tavsif ham beradi. Shu bilan birgalikda, uning sikllar nazariyasi, qator o`ziga xosliklarga ham ega, Chunki unda muammoning keynschilikning interpretatsiyasi taklif etilgan.

1951-yilda, A.Xansenning «Iqtisodiy sikllar va milliy daromad» nomli fundamental asari nashrdan chiqdi. Mazkur kitobda, u birinchi navbatda, sikllarni klassifikatsiyasini berib, ularni davomiylik va to`lqinlanishlarni kelitirb chiqaruvchi sabablarga ko`ra to`rt turga bo`ladi (1-jadval).

Umuman olganda uning iqtisodiyot siklik rivojlanishi modeli, investitsiyalarning notekis kiritilishi haqidagi taxminga asoslanadi. Bu holat, butun iqtisodiyot uchun umumiy bo`lgan faktik natijada ya`ni talab o`zgarishi va mazkur o`zgarishga nisbatan taklif reaktsiyasi orasida muddatli bo`shliq mavjud bo`lsa kelib chiqadi. Mo‘ayyan tovar yoki xizmatga bo`lgan talab oshishi, muvofiq

sohaga investitsiyalar oqimini kuchaytiradi. Buning natijasida, sarmoyalar va ishlab chiqarishning zaruriy o`sishiga erishiladi, ammo mahsulot hali bozorga tushishga ulgurmaydi, mahsulotga bo`lgan talab esa, taklif darajasidan ustun kelib, ishlab chiqarish o`sishi zarurati haqidagi yolg`on axborotni keltirib chiqaradi.

21.1.1-jadval

Sikl nomlanishi	Davomiyligi	To`lqinlanish sabablari
Kichik tsillar	2-3 yil	Aylanma kapital harakatlanishi
Katta sikllar	6-13 yil	Asosiy kapital harakati
Qurilish sikllari	17-18 yil	Qurilishda kapital harakatlanishi
Asr davomida siklik to`lqinlanishlar	50 yildan 100 yilgacha	Ishlab chiqarishga Yangi texnologiyalarni tadbiq etish

Buning natijasida sarmoyalar oqimi davom etib, haqiqatda ularning zarur darajasiga erishilgan bo`ladi. Muvofiq ravishda, mo‘ayyan muddatda ishlab chiqarish o`sishi oshib tushadi. Bozorga kelib tushadigan mahsulot asta - sekinlik bilan talabni qondira boshlagach, undan oshadi. Natijada bozorning mahsulotga to`lishi, narxlar tushishi va sohadan kapitalning oqishi boshlanadi.

Ammo, kapitalning oqishiga bozor kechroq e`tibor qaratadi, Chunki ishlab chiqarish darajasining real tushishi, yuksalish davrida yuzaga kelgan mahsulot zahiralari bilan yashiriladi. Natijada, kapital qisqarishi jarayoni ham me`yoridan ortiq bo`lib, mo‘ayyan vaqtdan so`ng talab yana oshadi, va sikl qaytalanadi. Bozor kechikish mexanizmini A. Xansen «kechikish va ildamlash» mexanizmi deb ataydi. U mazkur tushunchani birinchi uch turdagi sikllar dinamikasini tushuntirish uchun ilgari suradi.

A.Xansen yirik sikl modelini ham alohida ko`rib chiqgan. Mazkur modelda siklik to`lqinlanish boshlang`ich nuqtasi sifatida avtonom investitsiyalarning yuzaga kelishi deb biladi. Ularning avtonomligi Shundan iboratki, bozorning mavjud kon`yunkturasi bilan bog`liq bo`lmay tashqi omillar tomonidan keltirib chiqariladi: ilmiy - texnik taraqqiyot demografik portlash, Yangi konlar va bozorlar topilishi. Avtonom iqtisodiy sarmoyalar mexanizmini tushuntirar ekan, A. Xansen tahlilga keynschilikning matematik modellarini kiritadi.

Iqtisodiyotning ma`lum sohalarida investitsiya hajmi oshishi, mazkur sohada daromadlar miqdori oshishiga olib keladi. Daromad o`sishi, mahsulot va xizmatlarga nisbatan talab samaradorligini oshishiga olib kelib, bu holat aynan iqtisodiyotning boshqa sohalarida daromadlar o`sishini keltirib chiqaradi. Natijada, bir sohaga kiritilgan investitsiyalar, mazkur sohada o`sgan daromad miqdoridan oshgan kattalik umumiy daromadi oshishini keltirib chiqaradi. Daromad

o`sishining kiritilgan investitsiyalarga bog`liqligini aks ettirish uchun, A. Xansen tomonidan mul`tiplikator modeli kiritilgan.

Xansen nazariyasida, mul`tiplikator - bu bir birlikka nisbatan sarmoyalar o`sishida umumiy daromad kattaligi qanday bo`lishini belgilovchi koeffitsientdir. Uning tomonidan qo`llanilgan mul`tiplikator formulasi quyidagi ko`rinishga ega.

$$M=\Delta Y/\Delta Ia$$

Bunda DY- sarmoyalar o`zgarishi natijasida kelib chiqgan daromad o`zgarishidir; D1a esa avtonom sarmoyalar o`zgarishi bo`ladi. Ammo, daromadlar o`sishi, sarmoyalar hajmiga ham ta`sir o`tkazadi. Daromadning investitsiyalarga ta`sirining mazkur samarasi, ilk marotaba 1909 yilda frantsuz iqtisodchisi A. Aftal`on tomonidan tasvirlangan edi. Daromad o`sishidan investitsiya o`sishi bog`liqligini bildiruvchi koeffitsient, akselerator nomini olib, quyidagi ko`rinishga ega.

$$A=\Delta Is/\Delta Y$$

Bunda Is daromad o`sishi bilan keltirib chiqarilgan sarmoyalarning rag`batlantirilgan ko`rinishidir.

Akselerator kattaligi iste`molga yo`naltirilgan Yangi daromad ulushi qanday bo`lishiga bog`liq bo`ladi, ya`ni bunda masala, mazkur daromad samarali talabning bir qismiga aylanishi yoki aylanmasligiga bog`liq. Keynschilik nazariyasiga ko`ra, mazkur ulush hajmi, iste`molga nisbatan maksimal tayanishdan kelib chiqadi.

Har ikkala mexanizm mul`tiplikator va akselerator birlashtirilishi, iqtisodiy o`sishning o`ta kumulyativ jarayonini keltirib chiqaradi. Sxematik jihatdan bu jarayon sodda ko`rinishga ega.

Ia avtonom sarmoyalari mul`tiplikator ta`siri vorsitasida Y umumiy daromadi o`sishini keltirib chiqaradi; Y o`sishi esa, o`z navbatida akselerator ta`siri orqali, Is rag`bat o`zgarishlarini keltirib chiqaradi; Is o`zgarish mexanizmini harakatga tushirib, buning natijasida Y keyingi o`sishi uchun sharoit yaratiladi. Taklif etilgan akselerator - mul`tiplikator mexanizmi siklning oshiruvchan to`lqini qanday yuzaga kelishini tasvirlaydi. R.Xarrotdan farqli o`laroq, A. Xansen, kumulyativ jarayon tugatilish sabablarini tadqiq etgan. Bunda u bir - necha sababni ilgari suradi. Birinchidan - avtonom investitsiyalar impul`sini tugashi. Ma`lumki, mazkur impul`s, cheksiz emas.sarmoyalar effektivligi, demakki mul`tiplikator kattaligi ham pasayish xususiyatiga ega, zero sarmoyalar kapital kiritmalari o`sishidan o`zga narsa emas, buning oqibatida kapital kiritmalari o`sishi natijasida, maksimal effektivlik darajasi tushib boradi.

Kumulyativ jarayonning ikkinchi sababi, yuksalish davrida foiz normalari o`sishi bo`lib, buning oqibatida sarmoya tovarlarga bo`lgan narxlar oshadi. Natijada sarmoya vositalari qimmatlashadi, ular keltiradigan daromad esa, tushadi.uchinchi sabab Dj. M. Keyns asosiy psixologik qonuniyatini ta`siri bo`lib,

uning natijasida umumiy daromad o`sgani sayin iste`molchilik darajasi tushib boradi. Natijada, talab samarasi pasayadi. Demak akselerator kattaligi ham qisqaradi, zero u iste`molchilikka maksimal moyillikka to`g`ridan - to`g`ri proportsional bo`ladi.

Mazkur uch sabablar ta`siri natijasida, iqtisodiy o`sish asta - sekinlik bilan pasayadi. Avtonom sarmoyalar tugagach, daromad o`sishi to`xtaydi, bu holat esa umumiy daromad pasayishiga olib keladi, zero mazkur soha bilan bog`liq bo`lgan boshqa sohalar tovarlariga nisbatan talab chiqaradi. Umumiy daromad pasayishi, akselerator – mul`tiplikator mexanizmini teskari yo`nalishda harakatlanish mexanizmini yotadi. Iqtisodiyot pasayish bosqichiga o`tadi. Mazkur harakat, Yangi avtonom investitsiyalar uchun kuchlar yig`ilmagunga qadar davom etadi. Bundan tashqari qulash davrida iste`molchilikka nisbatan moyillik oshadi, va foiz normasi tushib boradi. Bu esa, investitsion soha uchun qulay sharoitlar yaratadi.

Antisiklik nazorat choralari. A.Xansen alohida e`tiborni iqtisodiyotning antisiklik nazorat etish choralariga ham qaratgan. Mazkur choralarni u uch qismga bo`ladi.

1. Kiritma stabilizatorlar ko`rinishidagi choralar, ya`ni bunday mexanizmlar bir marotaba kiritilib, kon`yunktura o`zgarishlarini avtomatik ravishda bartaraf etadi. Xususan Stabilizatorlarning mazkur turiga xususan progressiv daromad solig`i ham kiradi. Agar iqtisodiyot, ko`tarilish davrida bo`lsa, aholi daromadlari oshadi. Ammo, progressiv solig`i ta`siri sababli, iqtisodiyotdan soliq ko`rinishida olinadigan daromadlar ulushi ham muvofiq ravishda orshib boradi. Shunday qilib, davlat, alohida choralarni kiritmagan va qo`llamagan holda, samarali talab o`sishini cheklash va iqtisodiy o`sishini sekinlashtirish imkoniyatiga ega bo`ladi.

Choralarning ikkinchi turi - avtomatik ravishda amal qiluvchi qarshi choralardir. Mazkur choralar, iqtisodiyot tomonidan mo‘ayyan bosqichga erishilishi bilan kelishilmagan qo`shimcha kelishuvlarsiz qo`llanila boshlanadi. Ular kiritilishi lozim bo`lgan davrni aniqlash uchun, indikatorlar tizimi qo`llaniladi. Xususan, ishsizlikning mo‘ayyan darajasi belgilanib, uning o`sishi, iqtisodiyotning depressiya bosqichi sifatida ko`rib chiqiladi, va muvofiq choralar ko`rish lozim deb hisoblanadi. Iqtisodiyot yuksalish holatiga kirishini aniqlash imkoniyatini beruvchi signal sifatida inflyatsiyaning mo‘ayyan darajasi belgilanadi. Mazkur darajaning oshishi, iqtisodiy kon`yunktura pasaytirilishi uchun qarshi choralarni amalga oshirish zaruratini keltirib chiqaradi.

A.Xansen tomonidan ko`rib chiqilgan avtomatik ravishda amal qiluvchi kontrchoralar asosan kredit - pul tavsifiga ega bo`ladi. Ularning sirasiga foiz normasi, soliq stavkalari, davlat obligatsiyalarini sotib olish va sotish, davlat ssuda va zayomlari miqdorlarini oshirish kiradi. Mazkur choralar ordinar choralar

sifatida ko`rib chiqilib, uchinchi turdagi choralardan farqli o`laroq, parlament bilan kelishishni talab qilmaydi.

Choralarning uchinchi turi, boshqariluvchi dasturlardir. Bunda so`z iqtisodiy kon`yunkturaning byudjet nazorati haqida ketib, davlat xarajatlarini kamaytirish yoki oshirish orqali samarali talab darajasiga ta`sir etish ko`rinishida bo`ladi. Mazkur choralar, faqatgina o`ta zarur holatlarda qo`shimcha kelishuvlardan so`ng qabul qilinadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Neokeynsian nazariyasi predmeti va uslublarini tavsiflang.
2. R.Xarrot nazariyasida statika va dinamika nima? Kapital koeffitsienti nima va R.Xarrot nazariyasiga muvofiq o`sish templarini aniqlashda qanday rol o`ynaydi?
3. R.Xarrot o`sish modeli iqtisodiy tizim nomutanosibligini qanday tasvirlaydi? Iqtisodiyotning krizis yoki iqtisodiy bum holatiga kirish mexanizmlari qanday?
4. Sikllarni keynschilik nazariyasi neomumtoz nazariyasidan tub farqi nimada?
5. A. Xansen sikllarning qanday turlarini ko`rib chiqadi? A. Xansen fikriga muvofiq sikllar birinchi uch turining asosiy sababi nima?
6. A.Xansen fikricha, yirik sikllar boshlang`ich nuqtasi nima?
7. Mul`tiplikator va akselerator ta`siri mexanizmlarini tasvirlang.
8. A. Xansen kumulyativ jarayon tugatilishining qanday sabablarini ilgari suradi?
9. A. Xansen tomonidan qanday antisiklik nazorat etish choralari taklif etilgan?

Mavzu bo`yicha adabiyotlar ro`yxati:

1. Классика кейнсианства: В 2 т. М.: Экономика, 1997.
2. Хансен А. Экономические цыкли и национальный подход. М., 1959.
3. Харрод Р. Ф. К теории экономической динамики. М.: Гелиос АРВ, 1999.

XXII-BOB. NEOMUMTOZ SINTEZ

22.1. Xiks - Xansen modeli

Neomumtoz va keynschilik nazariyalari sintezi amalga oshirilgan modellarni taxlil etishdan oldin, mazkur ikki maktab asosiy uslubiy farqlarini tavsiflaymiz.

Birinchidan, neomumtoz nazariya har - bir sotuvchi, o`z navbatida xaridorga aylanishiga asoslangan iqtisodiy tizim muvozanatidan kelib chiqadi, zero zahira mablag`lari faqatgina kechiktirilgan talabdir. Keynschilik nazariyasiga ko`ra bunday muvozanat faqatgina barter iqtisodiyoti sharoitlarida mavjud bo`lishi mumkin. Oldi - sotdi kelishuvlari pul vositasida amalga oshirilishi sababli, talab va taklif disbalansi yuzaga keladi, zero daromadning bir qismi mablag` vositalari ko`rinishida saqlanib talabga aylanmaydi. Talab etarli emasligi esa, inqirozni keltirib chiqaradi.

Ikkinchi farq, har ikkala maktabning mablag` kontseptsiyasi bilan bog`liq. Neomumtozlar, mablag` omili neytralligidan kelib chiqib, ularning fikricha, mablag` asosiy iqtisodiy munosabatlarga ta`sir etmaydi. Keynschilarning fikricha esa, mablag` iqtisodiyotga to`g`ridan - to`g`ri ta`sir o`tkazadi. Oldin ko`rsatilgan nazariyadan tashqari mablag` omili mavjudligi, real va nominal kattaliklar mutanosibligi bilan bog`liq muammoni ham keltirib chiqaradi. Keynschilarning fikricha, individlar, aynan nominal ko`rsatkichlar o`zgarishlariga qarab ish tutishadi. Shu bilan birgalikda, mazkur o`zgarishlar, inflyatsion jarayonlar bilan bog`liq bo`ladi. Demak kon`yunktura holati haqidagi yolg`on ta`sirni ham belgilashlari mumkin. Umuman olganda, e`tirof etish lozimki, keynschilar murakkab motivatsion modelni qo`llab, bunda neomumtozada qabul qilingan iqtisodiy – ratsional harakat modelidan farq qilishadi. Uchinchi farq, neomumtoz nazariya talab va taklif tengligi qonuniyati sababli barcha resurslarning to`liq bajarilishi mavjud deb hisoblaydi. Keynschilarning ta`kidlashicha esa, talab kechikishi sababli, barcha resurslarning qo`llanilishi real hayotda deyarli imkonsiz; demakki, ular o`z tahlilini to`liqsiz bandlik asosida amalga oshirishadi. Demak, tadqiqot nazariy vazifasi ham o`zgacha tarzda qo`yiladi. Agar neomumtozlar, cheklangan resurslar samarasi maksimal taqsimlanishi masalasini qo`yishadigan bo`lsa, keynschilar, resurslarning to`liq bandligi yoki Shu holatga yaqinlashtirilish imkoniyatini beruvchi vositalarni qidirish bilan Shug`ullanishadi.

Neomumtoz nazariya doimo liberalizm printsiplaridan kelib chiqgan. 1930-yillar oxiridan boshlab, neomumtozlarning katta qismi neoliberalizm g`oyalari tarafdorlariga aylanishgan. Nima bo`lganida ham, ular doimo davlatning iqtisodiyotga aralashishi asossiz deb hisoblashgan. Keynschilik nazariyasiga

muvofiq, bunday aralashuv nihoyatda zarur, boz ustiga iqtisodiyot inqiroz holatiga tushib qolmasligi uchun, doimiy bo`lishi kerak.

Neomumtozlar va keynschilar orasidagi ko`rsatilgan farqlar, ularni bir nazariyaga birlashtirish uchun printsipial darajada etarli va mukammaldir. Nima bo`lganida ham, har ikkala maktabni sintezlashtirish harakatlari Dj. M. Keyns kitobi nashr etilishidan so`ng tez - tez uchrab turar edi.

Mazkur jarayonda faol ishtirokni Dj.Xiks amalga oshirgann. Dj.M. Keynsning «Umumiy nazariya» kitobi 1937 yilda nashr etilganidan so`ng, u «Ekonometrika» jurnalida «Janob Keyns va mumtozlar, Interpretatsiya harakati» nomli maqolasini nashr etdi. Mazkur maqolada, u Dj.M. Keyns nazariyasi matematik modelini taklif etib, mazkur model` keyinchalik «Xiks – Xansen modeli» yoki «I.S. - LM» diagrammasi deb nomlandi mazkur model` ikki bozorni birlashtiradi: tovarlar bozori va mablag` bozori. Shu bilan birgalikda, mazkur ikki bozordagi ishsizlik sharoitlaridagi muvozanat holatini aks ettiradi. Shu bilan birgalikda, u noaniqlik omilini e`tiborga olmagan, garchi Keyns mablag` iqtisodiyoti uchun bu holat printsipial jihatdan muhim ekanligini tasdiqlagan bo`lsa ham. Xususan, nominal va real ko`rsatkichlar mutanosibligi masalasi tilga olinmagan. To`liqsiz bandlik sharoitlarida muvozanat belgilanishiga olib kelinadigan sabablar (Keyns postulati), Xiks nazariyasida itqtisodiyotni mustahkam narxlar va mustahkam ish haqi mavjudligiga asoslangan.

Mazkur modelni ko`rib chiqamiz. Tovar bozorlarida muvozanat sharoiti sarmoya va mablag`lar tengligi bilan belgilanadi:

$$I=S$$

Sarmoyalar (I) kapitalga nisbatan talab sifatida belgilanib, kapital va foiz normasi maksimal samarali mutanosibligiga bog`liq bo`ladi. Kapitalni maksimal samarasi belgilangan holatida, sarmoyalar foiz normasi funktsiyasi sifatida ko`rib chiqiladi:

$$I=I(r)$$

Zahira mablag`lar (S) kapital taklifi sifatida tasvirlangan. Ular, Y umumiy daromadi bir qismidir, Shu sababli, mazkur daromad kattaligi, hamda Yning qaysi ulushi zahira mablag`lariga aylanishini belgilovchi iste`molchilikka nisbatan maksimal moyillikka bog`liq. Iste`molchilikka nisbatan maksimal moyillik, daromad o`zgarishiga muvofiq o`zgarishi sababli, (Dj.M. Keyns asosiy psixologik qonuniyati) zahira mablag`larini daromadning funktsiyasi sifatida belgilash mumkin.

$$S=S(Y)$$


Mablag` bozoridagi muvozanat sharti, mablag`ga nisbatan talab va mablag` taklifi tengligi bilan belgilanadi. Mablag` taklifi (M) doimiy kattalik sifatida ko`riladi. Mablag`ga nisbatan talab, keynschilik ruhida interpretatsiya qilinib,

likvidlik (L) nisbatan talab sifatida qabul qilinib, uning hajmi ikki ko`rsatkichga bog`liq, ya`ni daromad (to`g`ridan- to`g`ri bog`liqlik) va foiz stavkasi (teskari bog`liqlik). Mazkur bozordagi muvozanat sharoiti, quyidagi ko`rinishga ega bo`ladi:

$$I(r) = S(Y)$$

yuqoridagi formula yordamida, bozorlarning har birida foizning Shunday normasini topish mumkinki, u daromadning ushbu darajasida muvozanat sharoitlarini qondira oladi. Ko`rsatkichlarning mazkur juftligi, har - bir bozor muvozanat chiziqlari nuqtasi geometrik joylaShuvini belgilaydi (22.1.1-rasm)

M=L(Y,r)



22.1.1-rasm


Dj.Xiks modelidagi IS chizig`i, teskari egilishga ham ega, Chunki tovarlar bozorida foiz normasi qay darajada yuqori bo`lsa, sarmoyalar va zahira mablag`lari tengligi rioya qilingan holda daromad darajasi Shu daraja past bo`ladi. LM chizig`i esa aksincha, o`sib boruvchan, Chunki daromad o`sishi sayin mablag`ga nisbatan talab ham oshib boradi. IS chizig`ining har - bir nuqtasi koordinatalarga ega bo`lib (Y; i), ular foiz normasi va daromad kattaligiga teng bo`lib, investitsiyalar va zahira mablag`lar (I=S) tengligi sharoitini qondiradi. Xuddi Shunday holat LM chizig`iga ham xos bo`ladi. Bunda Shuni nazarda tutish kerakki, foizning Shunday normasi darajasi mavjudki, LM undan past darajaga tushmaydi. Bu R kattaligi bo`lib, u likvidlik chohi holatiga muvofiq bo`ladi. Grafikda, mablag` krediti iqtisodiy siyosatini amalga oshirish mexanizmini ko`rsatish mumkin (11-rasm). Kredit - pul siyosati, mablag` massasi oshirilishiga qaratilgan bo`ladi. Grafikda mazkur holat LM chizig`ining o`ngga og`ishiga olib keladi. Demak, bozorlarda Yangi muvozanat belgilanishi natijasida foiz pasayishi va daromad darajasi oshishi kuzatiladi.

Ammo Dj.M. Keyns tomonidan, boshqa holat ham tasvirlanib, unga muvofiq foiz normasi likvidlik chohiga yaqin darajada joylashadi. Bunday holatda LM

chizig`ining chap qismi OY paralel` o`qiga OY o`qiga deyarli paralel` holatda bo`ladi (22.1.3--rasm)


Mablag` massasi oshishi, egri chiziq chetlashishiga olib keladi (Lm), ammo uning chap tomoni o`zgarmas holatda saqlanib qoladi, Chunki uning foiz normasining pastki nuqtasiga erishiladi.

Dj. Xiks tomonidan taklif etilgan model`, keynschilar nazariyasining soddalashtirilgan variantidir. Unda, Dj.M. Keyns g`oyalariga muvofiq tarzda to`liqsiz bandlik sharoitlarida, bozorda tenglik o`rnatish mexanizmlari ko`rsatilgan, ammo Shu bilan birgalikda mazkur mexanizmga neomumtoz interpretatsiyasi ham berilgan.



22.1.2-rasm


Birinchidan, asosiy e`tibor, bozorda muvozanatni o`rnatish mexanizmiga qaratilgan, ya`ni statik tahlil keltirilgan. Dj.M. Keynsni esa muvozanatni buzuvchi omillar qiziqtirgan edi.



22.1.3-rasm

Ikkinchidan, to`liqsiz bandlik nuqtasida o`rnaShuvchi muvozanat sabablari, bitta omilga ya`ni ish haqining egiluvchan emasligiga qaratilgan. Kutish va noaniqlik omili, bozor signallarini buzuvchi muammo, foiz stavkasining likvidlikka nisbatan spekulyativ talabiga bog`liqligi, Dj. Xiks tomonidan taklif etilgan nazariya doirasidan tushib qolgan. Natijada, ish haqi mustahkamligi muammosi echimi, avtomatik tarzda iqtisodiyotni to`liq bandlik sharoitlarida muvozanat holatlariga keltirish mumkinligi taxmin etilgan. Shunday qilib, Dj.M.

Keyns modeli, muvozanat neomumtoz nazariyasining xususiy holati sifatida interpretatsiya etiladi.




22.1.4-rasm

Dj.M. Keyns soddalashtirilgan modeli. 1948 yilda, amerikalik iqtisodchi Pol Entoni Semuel`son (1915 yilda tug`ilgan) o`zining «Iqtisodiyot» darsligida Dj,M. Keyns nazariyasining o`z interpretatsiyasini taklif etdi. U umumiy daromad va umumiy talab kattaliklari yaxshilanish jarayonini tadqiq etdi. Bunda, mablag` sohasi tahlildan to`liq chetlashtirildi. Bu esa keynschilik nazariyasidan printsipial ravishda chetlashish edi. Umumiy talab (E) iste`mol (C) va sarmoya (I) kabi tushunchalardan iborat. Muvozanat sharti esa, umumiy talab va umumiy daromad muvozanatidir: E=Y. Ko`rsatilgan grafikada (13-rasm). Mazkur muvozanat O` egri chizig`ida joylashgan muvozanati tomonidan qondirilib, ular egilishning teng burchagiga ega bo`lib, ham abstsissalar o`qi, ham ordinatalar o`qi – 450 ega. Semuel`son grafigi, ko`pincha 450 diagramma ham deb ataladi.

Keyingi davrlarda modelga iste`molchilik funktsiyasi kiritilib, u asosiy psixologik qonuniyatlarga muvofiq daromad darajasi va iste`molchilikka nisbatan maksimal moyilikka bog`liq bo`ladi. Semuel`son uni ikki asos summasi sifatida tasvirlaydi. Birinchisi – iste`mol ulushi bo`lib, u daromad o`zgarishi bilan o`zgarmaydi (S), demak, doimiy kattalik bo`ladi. Ikkinchisi, iste`mol ulushi bo`lib, u Dj.M. Keyns asosiy psixologik qonuniyati ta`siri bilan belgilanadi. Demak, iste`mol funktsiyasi quyidagi ko`rinishga ega bo`ladi.

$C=c+kY$

Bunda k – iste`molchilikka nisbatan maksimal moyillikdir.




22.1.5-rasm

Egri chiziqning quyi nuqtasi iste`mol mustaqil darajasiga muvofiq bo`ladi (S), to`g`ri chiziq egilish burchagining S S` tangensi esa OY o`qiga nisbatan K-iste`mol maksimal moyilligiga teng bo`ladi.


Sarmoya funktsiyasi ekzogen ravishda kiritiladi, Chunki taxmin qilinishicha, u daromad darajasiga bog`liq bo`lmaydi.

Ikki egri chiziqni taqqoslagan holda (22.1.6-rasm) Semuel`son milliy daromad muvozanat darajasi qanday aniqlanishini ko`rsatib bergan.

Daromad darajasi, sarmoya va iste`mol summasiga tengligi sababli, mazkur rasmda bu egri chiziq bo`lib, u investitsiyalar va iste`mol grafikalari natijalarini umumlashtiradi. Sarmoyalar grafigi, abstsissalar o`qiga parallel` o`tadi, Chunki modelda investitsiyalar Y ga bog`liq bo`lmaydi. Demak DD` daromad egri chizig`i SS` iste`molchilik funktsiyasi gnrafikasiga masofada paralel` o`tib, investitsiyalar kattaligiga teng bo`ladi (IO) DD` ning OO` nuri kesishish nuqtasida daromad darajasi bozordagi muvozanat holatiga muvofiq bo`ladi.



22.1.6-rasm



22.1.7-rasm

Ko`rsatilgan model`, «Keyns xochi» nomini oldi. Aynan uning asosida inflyatsion uzilish fenomeni tasvirlangan edi. Aytaylik OO` va D to`g`ri chiziqlari

kesishish nuqtasi (16-rasm) bo`ladi, u esa to`liq bandlik darajasida belgilaydi (Y`), bunda Y` maksimal holat bo`ladi. Agar sarmoya darajasi o`sadigan bo`lsa, D egri chizig`i D` holatiga qarab chetlashadi. Buning natijasida umumiy talab, taklif maksimal imkoni mavjud bo`lgan darajasidan oshadi. U daromad o`sishi bilan kompensatsiyalanmasligi sababli, narxlar o`sishiga olib keladi.

Rasmda oshish miqdori SSi kesimi bilan aks ettirilgan. Mazkur oshish, inflyatsion uzilishdir. Bunday uzilishni engib o`tish uchun, talab egri chizig`i darajasini pasaytirishga qaratilgan choralar kiritilishi zarur bo`ladi: masalan soliqlarni oshirish, davlat xarajatlarini qisqartirish, muvofiq kredit - pul siyosatini yuritish.

Neomumtoz doirasida taklif etilgan modellar tasvirini tugatar ekanmiz, xulosa qilamiz. mazkur modellar doirasida keynschilik nazariyasi, neoklasssik nazariya xususiy holati sifatida tasvirlanib, bu holat to`liqsiz bandlik sharoitlarida bozorda muvozanat o`rnatilishini tasvirlaydi. Bunda, iqtisodiy tizim umumiy xolda olganda muvozanatga egaligi haqidagi asosiy tezis saqlanib qolinadi. Keynschilik nazariyasi tomonidan tasvirlangan alohida holatlargina bu muvozanatni buzishi mumkin. Bunday holatlar sirasiga ish haqining egiluvchansizligi, likvidlik chohi, foiz bo`yicha investitsion talabning noelastikligi kiradi.

Nazorat uchun savollar:

1. Neomumtoz va nekeynsian nazariyasi orasidagi uslubiy farqlar qanday?
2. Dj. Xiks tomonidan kiritilgan IS-LM modelini tasvirlang.
3. Mazkur modelning keynschilik modelidan farqi nimada?
4. Dj. M. Keyns iqtisodiy modelidan farqli o`laroq Samuel`son tomonidan taklif etilgan modelning printsipial soddaligi nimada?
5. Samuel`son modelida milliy daromad nazariyasi muvozanati qanday aniqlanadi?
6. Keynschilik xochi nima?

Mavzu bo`yicha adabiyotlar ro`yxati:

1. Осадчая П.А. Современное кейнсианство. Эволюция кейнсианства и неоклассический синтез. М., 1971.

XXIII-BOB. 1940-1960-YILLARDA INSTITUTSIONALIZM

23.1. Iqtisodiy rivojlanish bosqichlari nazariyasi

Metodologiya. Mazkur davrda institutsionalizm yo`nalishida metodologik nuqtai nazardan marjinalistik oqimi tanqidi rivojlanishda davom etdi. Jamiyat hayotida ekologik, madaniy, ijtimoiy, siyosiy aspektlar bilan birgalikda iqtisodiy muammolarni bog`lab, tadqiq etgan institutsionalistlar faqatgina iqtisodiy muammolar tadqiqi bilan o`z izlanishlarini cheklagan holda sof iqtisodiy nazariyaga qarshi chiqishdi.

Institutsionalizm, asosiy e`tiborini iqtisodiy jarayonlarning miqdoriy emas, sifatiy tahliliga qaratishgan. Xususan, yo`nalish namoyandalari, tarixiy rivojlanish davomida yuz bergan iqtisodiy tizimdagi sifat o`zgarishlariga e`tibor bermaganligi uchun, marjinalistik nazariyani tanqid ostiga olishdi. Aynan Shu orqali, iqtisodiyot qonuniyatlari va iqtisodiy institutlar tarixdan tashqariligi haqidagi tezisni ham tanqid ostiga olingan. Xususan, urushdan so`nggi davrda institutsionalistlari, nuqtai - nazaridan qator Yangi ijtimoiy - iqtisodiy, mumtoz kapitalizm o`tmishga o`tib ketayotganligini ta`kidlash imkoniyatini beruvchi hodisalar nuqtai – nazaridan, jamiyatdagi jarayonlarga hodisalarni e`tiborni qaratishgan.

Sifat transformatsiyalari nazariyasi

Umuman olganda 1940-1960-yillardagi institutsionalistik nazariyalarni zamonaviy iqtisodiy tizimda yuz berayotgan transformatsiyalarga nisbatan umumiy ijobiy munosabat farqlar edi. Optimizmning asosiy manbai 1950-1960-yillardagi iqtisodiy ko`tarilish va ijtimoiy muammolarni engish vositasi sifatidagi ilmiy - texnik jarayoni farqlaydi.

Kapitalizm iqtisodiy tizimida sifat o`zgarishlari masalasiga katta e`tibor qaratgan mualliflardan biri, amerikalik institutsionalist Gardiner K. Minz (1896 – 1988) bo`ldi. U 1931- yilda nashr etilgan «Amerika sanoatida mulkdorlik va nazorat bo`linishi» maqolasida, iqtisodiy nazariya va u bilan birgalikda neomumtoz yo`nalish ham Adam Smit tomonidan ajratilgan iqtisodiy modelga tayanishini ko`rsatgan. Mazkur model, XVIII asr Angliya iqtisodiy tizimi aksidir. Minz fikriga ko`ra o`sha davrlardan beri, iqtisodiyot ko`plab o`zgarishlarga yuz tutib, birinchi navbatda bu o`zgarishlar institutsional xususiyatga ega ekanligini aytib o`tgan.

«Amerikada korporativ inqilob» (1962) asarida G. Minz o`z fikrini rivojlantirib, butun tarix davomida bir - birini o`rniga kelgan to`rt turdagi iqtisodiy tizimni ajratadi. Birinchi tur natural xo`jalik bo`lib, unda barcha tovarlar shaxsiy iste`mol uchun ishlab chiqariladi. Ikkinchi tur atamistik iqtisodiyot bo`lib, u Adam Smit iqtisodiy nazariyasi uchun model` sifatida qo`llanilgan. Mazkur tizimning

tavsifli tomoni Shundaki, tovarlar bozor uchun ishlab chiqarilib, iste`molchi ishlab chiqarish vositalari va ishlab chiqaruvchi harakatlari ustidan nazoratni yo`qotadi. Iqtisodiyotning uchinchi turi, xususiy kapitalizm bo`lib, bu holat XIX asr Evropasi uchun xos edi. Bu davrning tavsifli tomoni Shundaki, ishlab chiqarish ustidan nazoratni nafaqat iste`molchi, balki ishchi ham yo`qotadi. Iqtisodiy tizimning mazkur turi, Karl Marks nazariyasi uchun model sifatida qo`llanilib, bunga G. Minz o`zi uchun zamonaviy mumtoz nazariyaning iqtisodiy taqqoslash metodologiyasi sifatida katta e`tibor ajratgan.

Iqtisodiy tizimning to`rtinchi turi XX asrda shakllanib, ayniqsa AQSHda keng rivojlangan "kollektiv" kapitalizm bo`lib, uning asosida korporativ tadbirkorlik yotadi. Aynan korporativ tadbirkorlik uchun esa, nafaqat iste`molchi yoki ishchi tomonidan ishlab chiqarish ustidan nazorat yo`qotilishi, balki bunday nazorat mulkdor tomonidan ham yo`qotilishi bilan farqlanadi. Buning asosiy sababi, mulkchilik aktsionerlik shakli keng tarqalishi bo`lib, bu holatni boshqa amerikalik institutsionalist, Adol`f O. Berel` (1895-1971) passiv mulkdorlik deb atagan. Gap Shundaki aktsiya egalari, korxona boshqaruvida umuman ishtirok etmay, mazkur vazifalarni menedjerlarga berib qo`yishadi. Menedjerlar esa, o`z navbatida, aktsiyalarning katta qismiga ega bo`lmaganliklari sababli, mulkdorlar toifasiga kirmaydi. Iqtisodiyotning mazkur to`rtinchi turi, marjinalistlar ham, marksistlar tomonidan ham qo`llanilgan modellarga mutlaqo muvofiq emas. U jihatning ham, bu jihatning ham etarli emasligi sababli, har ikkala tomon yuz bergan transformatsiyani sezishmaydi, va demak tadqiqot predmeti o`zgarganligi haqidagi masalani ko`tarishmaydi.

Amerikalik iqtisodchi va sotsiolog Uolt Rostou (1916-2003) iqtisodiy rivojlanishning o`z nazariyasini ilgari surib, buni XX asrning 60-yillarida amalga oshirdi. Insoniyat jamiyati evolyutsiyasi masalasini tadqiq etar ekan, u turli o`sish darajalari va texnika rivojlanishi darajasi bilan tavsiflanuvchi beshta bosqichni ajratib ularga baho bergan.

U.Rostouning fikricha, insoniyat taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuch, insonga xos bo`lgan mo‘ayyan psixologik odatlardir. O`zining «Iqtisodiy o`sish jarayoni» (1952) kitobida u o`sish yoki taraqqiyotga yordam beruvchi oltita omillarni sanab o`tgan: bularga iste`molchilik, farzand ko`rish, fanga nisbatan moyillik, iqtisodiyotda fanni qo`llashga moyillik, Yangiliklarga moyillik, hamda moddiy taraqqiyotga nisbatan moyillikdir.

O`zining «Iqtisodiy o`sish bosqichlari. Nokommunistik manifest» (1960) asarida U. Rostou insoniyat rivojlanish jarayonida o`tadigan besh bosqichni ajratadi. Birinchi bosqich an`anaviy jamiyat bo`lib, unda qishloq xo`jaligi rivojlanadi. Texnika darajasi esa N`yuton davridan oldingi fanga asoslanadi. Ikkinchi bosqich, sakrashga tayyorgarlik yoki o`tuvchan jamiyat deb ataladi. U

banklar va qayta ishlash sanoati rivojlanishi bilan, hamda Yangi turdagi tadbirkorlikni namoyon etish bilan bog`liq bo`ladi. Uchinchi bosqich sakrash bosqichida bo`lib, mazkur bosqichda jamiyat iqtisodiyot va texnika rivojlanishining Shunday darajasiga o`tadiki, oqibatda doimiy taraqqiyotni ta`minlash imkoniyatini beradi. Ishlab chiqarilgan mahsulotning bir qismi doimiy ravishda ishlab chiqarishni kengaytirishga qaratiladi. U. Rostou, sarmoyalar doimiy oqimi paydo bo`lishi sharoitida bu holatninng milliy daromadni shakllanishida taxminan 5 % u tashkil etishini yozgan. Sanoatning Yangi turlari yuzaga kelib, o`sish darajalari tezlashadi, qishloq - xo`jaligi maxsuldorligi oshadi. To`rtinchi bosqich «industrial jamiyat» yoki «etuklik» bosqichidir. Sarmoyalar oqimi ikki to`rt marotaba o`sib, milliy daromadning 10-20 % tashkil etadi. Iqtisodiy o`sish dinamikasi aholi o`sishi dinamikasidan oshadi, ya`ni T. Mal`tus tomonidan qo`yilgan aholi keskin o`sishi muammosi echiladi, zero bu muammo XIX asr davomida barcha iqtisodchilarni qiziqtirgan. U. Rostouning fikricha, rivojlanishning mazkur bosqichini mamlakatlar XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning birinchi yarmida etishgan: masalan Angliya taxminan 1850 yillarda, AQSH 1900 yillarda, Germaniya va Frantsiya 1910 - yillardan so`ng, Rossiya va Kanada esa 1950-yillarga kelib.

**Beshinchi bosqich ommaviy iste`molni yuqori darajasi bosqichi.** Mazkur bosqich ishlab chiqarish tuzilmasi, uning uzoq muddatli foydalanish tovarlarini yaratishga yo`naltirilishi va xizmatlar ko`rsatish tuzilmasidagi sifat o`zgarishlari bilan bog`liq. U.Rostouning fikricha, faqatgina G`arbiy Evropa, AQSH va Yaponiya mazkur darajaga erishishgan.

Mulkdorlik va daromad shakllaridagi o`zgarish

A.Berl`ning yuqorida tilga olingan «Passiv mulkdorlik» kontseptsiyasi va G. Minz tomonidan ilgari surilgan kapitalizm kontseptsiyalaridan tashqari, mulkdorlik aktsionerlik shakllari masalalari bilan «Mulkdorlik diffuziyasi» nazariyasi doirasida Shug`ullanishgan (amerikalik iqtisodchi M. Nadler, italiyalik iqtisodchi N. Sal`vadori), Shu bilan birgalikda, amerikalik iqtisodchi Saymon Kuznetsga (1901-1985) mansub «Daromadlarni taqsimlashda inqilob» kontseptsiyasida ham mazkur masala bir - necha marotaba ko`rib chiqilgan. Ushbu nazariyalarning asosiy g`oyasi Shundaki, mulkdorlik aktsionerlik shakllari rivojlanishi, xususan, kichik aktsiyalar paydo bo`lishi bilan sinfiy to`siqlar yo`qolishi yuz beradi. Mulkdor bo`lish osonlashadi, demak aholining tobora kattaroq qismi yirik korporatsiyalar umumiy daromadidan o`z ulushini olish imkoniyatiga ega bo`ladi.

Boshqarish sohasida o`zgarishlar

Urushdan so`nggi davrlarda institutsional nazariyalar doirasida Shu kabi optimistik baholanishga yirik korporatsiyalar doirasida menedjerlar hukmronligi kuchayishi

bilan bog`liq holatlarga ham ega bo`lgan. Korporatsiyalarda davlat o`zgartirilishi haqidagi g`oyalar, P. Veblen tomonidan oldinroq ham ilgari surilgan. 1940-1960-yillarda «Boshqaruv inqilobi» nazariyalari paydo bo`ladi (Dj. Bernxem, S. CHeyz, D. Liliental`, P. Druker). Shunga o`xshash g`oyalar, G. Minz va A. Berl` tomonidan ham tilga olingan edi. Mazkur nazariyalarga muvofiq boshqaruvchilarning davlat tepasiga hukumat boshiga kelishi yirik firmalar siyosatini o`zgarishiga olib kelib, bu holat mulkdorlik manfaatlari bilan bog`liq bo`lmagan holda tobora ko`proq ravishda ishlab chiqarish va jamoatchilik manfaatlariga qaratiladi, ya`ni Yangi texnorlogiyalar kiritilishi natijasida ishlab chiqarish kengayadi va kompaniya rivojlanadi. «Boshqaruv inqilobi» kontseptsiyasining ko`pchilik tarafdorlarini fikricha, mazkur manfaatlar xususiy mulkdorlik tavsifiga ega bo`lmay, butun jamiyat rivojlanishi manfaatlariga muvofiq bo`ladi.

23.2. Sinflarsiz jamiyat nazariyasi

1940-1960-yillarda institutsional nazariyalarning yana bir muhim tezisi, sinf tushunchasi eski tushuncha sifatida interpretatsiya etilib, kapitalistik va sotsialistik iqtisodiy tizimlar bo`linishi kabi bartaraf etilishi haqidagi fikrlar paydo bo`ldi. «Mulkdorlik diffuziyasi» sababli, mulkdorlar sinfi yo`qoldi. Korporatsiyalardagi hukmronlik boshqaruvchilar va menedjerlar qo`liga o`tishi bilan, mazkur shaxslar kapitalist ham, ishchi ham emasliklari sababli, asosiy konflikt mehnat va kapital orasida kechadigan jamiyat shakllanishiga olib keldi. Ushbu g`oyalar, Frederik Stern tomonidan ilgari surilgan «Sinflarsiz kapitalizm» nazariyasi, hamda Dj. Gelbreyt nazariyasi bo`lmish, «Industrial jamiyat» nazariyasi uchun xos edi.

Yirik korporatsiyalar faoliyati baholanishi

Yirik korrporatsiyalarning faoliyati ham ijobiy baholangan. Bunda asosiy e`tibor, yirik firmalar erkin raqobatchilik qonuniyatlarini buzishiga emas, (bu holat 1930 yillarda kuzatilgan edi) balki Yangi texnikadan manfaatdor tuzilmalar sifatidagi korporatsiyalar ijobiy rolini ta`kidlashga qaratildi, zero aynan ular mazkur texnologiyalarning tadbiq etish imkoniyatiga ega edilar.

Bundan tashqari, urushdan keyingi yillardagi institutsional nazariyalar, mazkur davr uchun umumiy bo`lgan iqtisodiyotni nazorat etish mumkinligiga ishonch bilan farqlanishar edi. g`arbning deyarli barcha mamlakatlarida 1950-1960 yillarda kuzatilgan mo``tadil iqtisodiy o`sish, ular tomonidan inson tafakkurining bozor ustidan hukmronligi natijasi deb qabul qilinar edi. Institutsionalistlar, iqtisodni boshqarish keynsga uslublariga umumiy ijobiy munosabat bildirishib, o`z faoliyatida rejalashtirish elementlarini qo`llovchi yirik biznes ijobiy rolini ta`kidlashar, va Shu orqali, inqirozlarning asosiy manbai bo`lmish, iqtisodiyotning

tasodifiylik darajasi pasayishini aytib o`tishgan edi. o`z tarkibiga bir - necha ishlab chiqarish zanjirini olgan yirik korporatsiyalar, o`z faoliyatlarini qattiq nazorat va rejalashtirishga tayantirib, butun tizimning mo``tadil ishlash vazifasini echishadi. Bundan tashqari, yirik firmalar qo`lida yig`ilgan hukmronlik sababli, ular nafaqat korporatsiya ichida kechayotgan jarayonlarni, balki tashqi jarayonlarni, Shu jumladan narx siyosatini nazorat etish imkoniyatiga ega bo`lib, hattoki iste`molchilarning ta`biga ta`sir etishni ham amalga oshirishadi. Buning natijasida, ko`pchilik iqtisodiy aloqalar, bozor tavsifini yo`qotadi, demak tasodifiy jarayonlar ta`siriga chidamli bo`lishadi.

Dj.Gelbreytning “industrial jamiyat” nazariyasi. 1960-1970-yillar davomida amerika institutsionalizmi yirik namoyandasi Djon Kennet Gelbreytdir (1908 yilda tug`ilgan). Ilmiy jamiyat e`tiborini o`zining «Amerika kapitalizmi» (1952), «Buyuk inqiroz» (1955), «Jamiyat ravnaqi» (1958) va «Liberalizm davri» (1960) nomli asarlarini 1950 yillar davomida nashr etilishi bilan tortdi. Ammo, jahon miqiyosidagi mashhurlikka u «Yangi industrial jamiyat» kitobini (1967 yilda) nashr etilganidan keyin sazovor bo`ldi. Gelbreyt asarlarining asosiy mavzusi, kapitalistik iqtisodiyotning urushdan so`nggi transformatsiyasi bo`ldi. «Zamonaviy iqtisodiy hayotning ko`zga tashlanarli jihatlaridan biri Shuki, - deb yozgan edi u, - unda sodir bo`layotgan o`zgarishlar baholanishi bilan bog`liq». Gelbreyt kapitalistik iqtisodiyot transformatsiyasi bilan bog`liq g`oyalarini mo‘ayyan ma`noda ijodiy jihatdan qo`llab, bu holat Veblen davridan beri qayta ko`rilmagan edi, zero Gelbreyt bu g`oyalarga o`ziga xos takliflarini kiritdi.


1960-yillarda institutsionalistik nazariyalarda paydo bo`lgan XX asr o`rtalari ilmiy - texnik inqilob talqini, ikkinchi sanoat inqilobi sifatida ilgari surildi. XVIII asr oxiri XIX asr birinchi yarmida sodir bo`lgan sanoat to`ntarilishi, feodalizmdan kapitalizmga o`tish jarayonini tugatganligi haqida xulosa qilinib, endilikda 1950-1960-yillar ilmiy - texnik inqilobi kapitalizmdan Yangi ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlarga ega industrial jamiyatga o`tish davri asosi sifaktida qabul qilindi. Gelbreyt 1960-yillarda industrial jamiyat nazariyasini ilgari surgan birinchi olim emas edi, ammo uning talqini barcha iqtisodchilar tan olingan talqinlar ichida o`ziga xosdir. O`zining kitobida Gelbreyt, e`tiborni asosan yirik korporatsiyalarga qaratadi. «Besh yuzta yirik korporatsiyalar ulushiga Amerika Qo`shma SHtatlarida ishlab chiqarilgan barcha tovar va xizmatlarning deyarli yarmi to`g`ri keladi», - deb yozgan edi u. Iqtisodiyotning mazkur qismini Gelbreyt industrial tizim deb atab, uni ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyot lokomotivi deb hisoblaydi. «Iqtisodiyotning aynan Shu qismini biz, o`ylamay zamonaviy industrial jamiyatga o`xshatamiz. Uning faoliyatini tushunish, xalq xo`jaligi faoliyatining doimo o`zgarib turuvchi, demakki ko`proq jihatdan hayotimiz tavsifini o`zgartiruvchi sohani tushunish bilan barobardir… iqtisodiyotning qolgan qismi qisqarishi sababli, ko`pchilik jihatdan

statikdir». Gelbreyt fikriga ko`ra, yirik korporatsiyalarda qanday o`zgarishlar sodir bo`lmoqda? Birinchi navbatda bu, ikkinchi jahon urushidan so`ng menedjerlar inqilobi nomini olgan jarayondir. «Oxirgi o`n yilliklar davomida, - deb yozgan edi Gelbreyt, - zamonaviy yirik korporatsiyadagi hukmronlik kapital mulkdorlaridan boshqaruvchilar qo`liga o`tmoqda. Bu hodisani u, tabiiy deb bilib, ishlab chiqarishni yetakchi omili umumiy nazariyasi yordamida asoslaydi. Demak uning o`zgarishi jamiyatdagi hukmronlik tuzilmalari o`zgarishiga olib keladi»; «masalani uzoq muddatli darajada ko`rib chiqadigan bo`lsak, hukmronlikning ishlab chiqarish korxonasi doirasida radikal o`zgarishi yuz beradi. Buning oqibatida jamiyat ishlab chiqarish omillari ostida o`zgaradi. Kapital hukmronlik pozitsiyalari yaqin o`tmish holatidir; bir - necha yuz yil oldin biror - bir to`g`ri fikrlovchi inson hukmronlik er bilan bog`liq ekanligiga Shubha qilmas edi». «O`tmish tajribasi, hukmronlik manbai yana bir bor o`zgarganligini taxmin qilish uchun asos yaratadi, endilikda o`zgarish kapitaldan tashkiliy bilimlarga nisbatan o`zgardi. Demak, taxmin qilish mumkinki, bu holat jamiyatda hukmronlikning qayta taqsimlanishida aks etadi». Menedjerlar nazariyasi inqilobiga Gelbreyt Yangi element kiritgan. Uning fikricha korporatsiya haqidagi hukmronlik yuqori boshqaruvchilar tor doirasiga emas, yirik va ko`p tarmoqli jamoalarga tegishlidir. «Iqtisodiyot fani nuqtai - nazaridan zamonaviy texnika qo`llanilishi muhim oqibati Shundaki u sohaning istalgan elementni tarkibiy qismlarga bo`lish vazifasini o`z oldiga qo`yadi» deb ta`kidlaydi. Shunday qilib yirik korporatsiyalarni normal ish yuritishi uchun, tor doiradagi mutaxassislarning katta jamoasi talab etiladi. Ulardan hech biri boshqalar bilan maslahatlashmagan holda, qaror qabul qila olmaydi «mazkur guruh son jihatidan nihoyatda katta, u yuqori pog`onali korporatsiya xizmatchilaridan turli darajadagi ishchilargacha etishi mumkin. Shu bilan birgalikda, bu soha mutaxassislari maxsus bilimlarga egadir». Gelbreyt mazkur mutaxassislar jamoasini “texnotuzilma” deb ataydi.

Keyingi davrlarda Gelbreyt, yirik yoki ko`p tarmoqli korporatsiya bilan bog`liq insonlar faoliyati maqsadlari haqidagi masalani ham ko`targan. Mazkur masalani echilishi uchun u rag`batlantirish uchun motivlar umumiy nazariyasini ilgari surdi. Mazkur nazariyaga muvofiq, insoniyat butun tarixida, to`rtta rag`batlantirish asosiy motivini boshidan kechirgan: majburlar, daromad, o`xshatish va moslashish. Oxirgi ikki alohida talqin etilishi lozim. O`xshatish rag`bati ostida, inson mo‘ayyan faoliyat bilan Shug`ullanar ekan, o`zi ishlab turgan tashkilot, butun mamlakat yoki bajarayotgan ishi bilan tavsiflanadi. Moslashish rag`bati ostida, inson o`z faoliyati ostida, o`zi ishlab turgan tashkilotni shaxsiy maqsadlarga moslashtirishga harakat qiladi. Gelbreyt fikriga ko`ra u yoki bu motiv ustunligi, inson temperamenti va egallab turgan lavozimi yuqoriligiga bog`liq. Uning nazariyasiga muvofiq, oxirgi ikki motiv aynan texnotuzilmaga xos

xususiyatdir. Bizning fikrimizcha, bunda mo‘ayyan qarama - qarshilik mavjuddir, zero Gelbreyt kitobining boshqa qismlarida uning ta`kidlashicha jamoatchilik qaror qabul qilish jarayoni, deyarli barcha alohida shaxslar harakatlari umumiy natijadir… texnotuzilma maxfiylikka yo`l qo`ymaydi, zero uning asosida mansab jinoyatlari va suiste`mollar yuzaga keladi». Shu bilan birgalikda texnotuzilma ulushiga faqatgina o`xshatish motivini qoldirish maqsadga muvofiq.

Korporatsiyaning boshqa ijtimoiy qatlamlariga keladigan bo`lsak, Gelbreyt ular faoliyati motivatsiyasi uchun quyidagi sxemani taklif etadi (23.2.1-rasm).



23.2.1-rasm

Unda, shaxslarning o`z motivlar tizimiga ega bo`lgan to`rt guruhi kuzatiladi. Eng tashqi aylana, aktsionerlarni bildiradi. «Ularning korporatsiya bilan aloqasi deyarli doimiy ravishda faqatgina mablag` tavsifiga ega». Boshqacha qilib aytganda, tashqi aylanada daromad motivi dominant bo`lsada, ammo «ichki aylanalar orqali markazga yaqinlashish davomida o`xshatish va moslashish doimiy ravishda kuchayib boradi». Ishchilarda esa, aksincha, daromad motivi ustunlik qiladi (ish haqi), ammo Shu bilan birgalikda o`xshatish ham mavjud. O`rta texnik personalda esa aksincha, o`xshatish motivi mavjud bo`lsada, daromad ham birgalikda ko`zga tashlanadi. Texnotuzilmalarda o`xshatish ustunlik qiladi.

O`zining rag`batlantirish motivlari umumiy nazariyasini Gelbreyt jamoatchilik rivojlanishiga nisbatan ham, ilgari suradi. «iqtisodiyotdagi hukmronlik, qadim zamonlarda er egaligiga asoslangan edi, keyinchalik u kapital qo`liga o`tdi va nihoyat bizning davrimizda hukmronlik manbai sifatida bilim, va tajriba aralashmasi xizmat qilib, bu texnotuzilma shaklida ko`zga tashlana boshlandi. Mazkur jarayon bilan paralel ravishda inson faoliyatini nazorat etuvchi motivlar almashinuvi ham yuz berdi. Majburlash, qadim zamonlardan beri er egaligi bilan bog`liq. Shunga o`xshash mablag` motivi kapital bilan bog`liq. Maqsadlarning o`xshatilishi va moslashtirilishi ham texnotuzilma bilan bog`liq». Kelajakdagi industrial jamiyatda hukmronlik uning qo`liga o`tishi sababli, texnotuzilmaning nafaqat korporatsiya bilan, balki jamiyat bilan ham o`xshatilishi

yuzaga keladi, boz ustiga texnotuzilma va jamiyat maqsadlari bir - biriga o`xshash. «Texnotuzilma asosan, tovarlar ishlab chiqarilishi va mazkur tovarlarga nisbatan talab boshqarilishi va rivojlanishi masalalari bilan bog`liq. Demak, mazkur faoliyat jamiyatning birlamchi vazifasi sifatida ko`rib chiqilishi muhimdir» deb ta`kidlaydi.

Keyingi davrlarda Gelbreyt quyidagi masalani ham ilgari surgan: korporatsiya hukmronligi tepasiga texnotuzilma kelgan taqdirda korporatsiya bozor iqtisodiyotida qanday Yangi harakatlarni amalga oshira boshlaydi? «Korporatsiya tadbirkorlik maqsadlari tadbirkor mablag` daromad manfaatlari bilan aniqlashtirilgan», ya`ni daromad maksimizatsiyasi maqsadi ilgari suriladi. Shu bilan birgalikda daromad maksimizatsiyasiga nisbatan harakat, tavakkalchilik oshishi bilan ham bog`liqdir. Texnotuzilma o`z ishi bilan o`xshatishga asoslanganligi sababli, uning maqsadi korporatsiya faoliyati, bozordagi mo``tadil holati va ishlab chiqarishni o`sishi bo`ladi. Shu sababli, daromadning kafolatlangan darajasi va maksimal o`sishi mablag` ta`minoti masalasi bilan mos bo`lib, uning mosligi kapital investitsiyalari uchun zarur, demak texnotuzilma birlamchi maqsadlari ham Shudir».

Rivojlanishning mazkur masalalariga erishish uchun, korporatsiya Gelbreyt fikricha rejalashtirish bilan Shug`ullanadi. «firma rejalashtirish deb hisoblagan narsa, ko`pchilik jihatdan bozor ta`sirini minimum darajasiga tushirish yoki undan voz kechishga qaratilgan».

Korporatsiya hayotiy faoliyati uchta bozorda kechadi: tovar bozori, mazkur bozor xom ashyo, uskunalar bozoriga bo`linadi, kapital bozori va mehnat bozori. Mazkur bozorlarning barchasida rivojlangan korporatsiya o`zini tavakkal va noaniqlikdan himoya qilishi shart. Tovar bozorida «Firma sotayotgan mahsuloti ustidan, hamda sotib olayotgan mahsulotlari ustidan nazoratni amalga oshirishi kerak. Buning uchun u birinchi o`ringa bozorni rejalashtirilishini amalga oshirishi zarur». Bunda Gelbreyt korporatsiyaning rejalashtirilishi bozor monopolizatsiyasi bilan barobarligi haqidagi ayblovni inkor etadi. «Bozorlar ustidan bunday nazorat, korxonaning yirik hajmlari bilan bog`liq, aniqrog`i mazkur bozor yirik hajmlari ustidan». «Iqtisodchilar bozorchi tushunchasini rejalashtirish bilan emas, monopoliya bilan bog`lashadi. Bozor kontsentratsiyasi yoki monopoliya umumqabul qilingan nuqtai - nazardan bozor mexanizmi vositasida resurslar qo`llanilishi samaradorliligiga salbiy ta`sir etuvchi omil sifatida qabul qilinib, ko`pchilik jihatdan noqonuniy hodisa sifatida qabul qilinadi». «Bunday fikrlar, ko`pchilik insonlarni sarosimaga tushirib qo`yadi. Korxona hajmlari texnik progressning sodda yo`ldoshi bo`lib, u hech qachon daromad ob`ekti bilan aloqador emas».

Kapatal bozorida qo`shimcha mablag`larni olish an`anaviy ravishda aktsiyalar chiqarish vositasida amalga oshiradi. Bunda istalgan bozordagi kabi

tavakkalchilik va noaniqlik mavjud, Shu sababli «Yirik hajmlarda kapitaldan foydalanuvchilar kapital bozoridan bo`lgan bog`liqliklarni pasaytirishga harakat qilishadi». Bundan tashqari qo`shimcha aktsiyalarning mulkdorchilik belgilari sifatida chiqarilishi, mulkdorlar, ya`ni aktsionerlarning ish faoliyatiga aralashuvi xavfini oshiradi. «O`z mustaqilligini mustahkam ravishda ta`minlash uchun, texnotuzilma Yangi kapital manbaiga ega bo`lib, mazkur manbadan, o`z qarorlari ustidan mo‘ayyan hukmronlik bilan kelishgan holda mablag`larini kompensatsiya etish majburiyatisiz ega bo`lishi kerak». Gelbreytning fikricha, mazkur manba sifatida, texnotuzilma tomonidan dividiendlar bo`yicha ozod etilgan daromad qismining yashirilishi va bu mablag`larning korporatsiyaning o`z - o`zini moliyalashtirishi uchun qo`llanishga yo`naltirilishidir.

Rivojlangan korporatsiya mehnat bozorida ilgarigidek, tadbirkorlik korporatsiyasi bilan to`qnashishga to`g`ri keladi, bunda korporatsiyalar Yangi raqib, kasaba uyushmalari bilan to`qnashib, kasaba uyushmalari alohida ishchiga ega bo`lmagan tadbirkor tomonidan xarajatlarni oshirish (masalan ish haqi), hamda ish tashlash natijasida daromadini pasaytirishga ega. Ammo Gelbreyt fikricha, bir tomondan texnotuzilma psixorlogik jihatdan mulkdorlarga ko`ra kamroq bosim ostida kasaba uyushmalari bilan kelisha oladi. Boshqa tomondan esa texnik taraqqiyotni rivojlanishi va ishchilar malakasi oshgani sayin, ular o`rta texnik personal darajasiga ko`tarilib, ularga nisbatan korporatsiya bilan o`xshatish motivi oshadi, demak daromad olish motivi pasayib boradi. Ular kasaba uyushmalaridan uzoqlashib, ish tashlashga kamroq darajada moyil bo`lishadi.

Nihoyat, tashqi muhit bilan rivojlangan korporatsiyaga qarama - qarshi soha ham mavjud. Mazkur jamiyat bilan qarama - qarshiliklar nazdida, shaxs nomidan davlat chiqadi. Bir tomondan jamiyat korporatsiyaga nisbatan, atrof muhit ifloslanishi, reklamaning taxtalari ko`rinishni buzishi borasidagi qarshiliklarga ega bo`lsa, boshqa tomondan korporatsiyalar ham soliq to`lash, o`z ishlab chiqarish jarayonini qimmatlashtirish, tozalash infshootlarini qurishni yoqtirmaydi, ammo mazkur qarama - qarshiliklar, Gelbreyt fikricha echilishi mumkin bo`lgan, boz ustiga davlat texnotuzilmaga mulkdorlarga nisbatan yaqinroq bo`ladi: hukumat ham, texnotuzilma ham rejalashtirish rivojlanishi tarafdorlari bo`lishib, hukumat xizmatchilari, va texnotuzilma xodimlari orasida o`xshash ma`lumot va dunyoqarash mavjud bo`lib, umuman olganda jamiyat va rivojlangan korporatsiya manfaatlari orasida qarama - qarshilikka nisbatan o`xshashliklar ko`proqdir.

Umuman olganda 1960-yillar so`ngida, Gelbreyt kapitalizmdan Yangi industrial jamiyatga o`tish borasida optimistik fikrlarni bildirgan. Ammo tezda jahon iqtisodiyotidagi holat salbiy tomonga o`zgarib, Shu bilan birgalikda Gelbreyt va boshqa institutsionalistlar qarashlari ham o`zgardi.

Nazorat uchun savollar:

1. Nima sababdan 1950-1960-yillarda institutsionalistlarda kapitalizm tranformatsiyasi va jamiyat Yangi turi yaratilishi g`oyalari paydo bo`ldi?
2. G. Minz tomonidan ajratilgan iqtisodiyot turlarini sanab o`ting va qisqacha tavsiflang.
3. U. Rostou iqtisodiy o`sishning qanday bosqichlarini ko`rib chiqadi.
4. Mulkdorchilik diffuziyasi nima?
5. Nima sababdan zamonaviy iqtisodiyot jamiyatini institutsionalistlar sinfsiz deb hisoblagan?
6. 1940-1960-yillarda institutsionalistlar yirik korporatsiyalarning iqtisodiyotdagi rolini qanday baholashgan?
7. Ikkinchi sanoat to`ntarilishi g`oyalari mazmuni nima?
8. Texnotuzilma nima va Dj.Gelbreyt fikriga muvofiq uning paydo bo`lish sabablari qanday?
9. Gelbreyt asarlarida ishlab chiqarish yetakchi omili va rag`batlantiruvchi motivlar nazariyasi mazmuni nima?
10. Gelbreyt rivojlangan korporatsiya ichida qanday ijtimoiy guruhlarni ajratadi va ularning faoliyat motivlari qanday?
11. Gelbreyt rejalashtirish ostida nimani tushunadi va bu holat rivojlangan korporatsiya tomonidan qaysi bozorlarda amalga oshiriladi?

Mavzu bo`yicha adabiyotlar ro`yxati:

1. Гелбрейт Дж. Новое индустриальное общество. М., 1969.

XXIV-BOB. 1970-1990-YILLARDA IQTISODIY FAN RIVOJLANISHI

24.1. Iqtisodiyot fani asosiy yo`nalishlari

Davr tavsifi. Mazkur davr iqtisodiyotining asosiy, o`ziga xos jihatlaridan biri, 1970-yillarda kuzatilgan iqtisodiy qulash bo`lib, bu holat Kondrat`ev sikli qolish to`liqiniga muvofiq bo`lib, 1960- yillar oxiri 1980- yillar boshida iqtisodiy kon`yunktura inqiroziga olib keldi. Buning oqibatida qator inqirozlar kuzatilib, ular o`rta siklik to`lqinlanishlar bilan bog`liq edi. Bunday inqirozlardan birinchisi 1968- 1969 yillarda yuzaga keldi. Uning sababi asosida valyuta inqirozi yotgan. Keyinchalik 1975 va 1981 yillarda ham krizislar kuzatildi. Iqtisodiy holat yomonlashishiga 1973 yildagi neft inqirozi ham o`z hissasini qo`shib, bu krizis OPEC a`zolari bo`lmish mamlakatlar harakatlari tufayli sodir bo`ldi va neft`ga nisbatan narxlar oshishi va inflyatsiyaning Yangi to`lqinini keltirib chiqardi.

Inqiroz tufayli, ko`pchilik g`arb mamlakatlari iqtisodiy siyosati ham o`zgardi, 1940-1960- yillar davomida dominant g`oya bo`lgan keynschilik, yuzaga kelgan holat siyosatini taklif eta olmadi. Bundan tashqari, aynan ularning siyosati moliyalashtirish deffitsiti sharoitlarida doimiy inflyatsiyani keltirib chiqarganligida ayblashdi. Shu sababli, birinchi darajaga keynsianlik opponentlari, ya`ni neoliberallar chiqib olib, ular krizis sabablarini tushuntirib berish va undan chiqish choralarini ishlab chiqarish bo`yicha o`z takliflarini kiritishdi.

1980-yillar o`rtalaridan boshlab iqtisodiyotda asta - sekinlik bilan ko`tarilish boshlandi. Evropa va AQSH mamlakatlarida Shu davrlarda neokonservativ siyosat yuritilishi sababli (Reyganomika, Tetcherizm), iqtisodiy liberalizm g`oyalari, garchi o`zgartirilgan ko`rinishda bo`lsa ham, yarim asrlik tanaffusdan so`ng ommalashishni boshladi. 1990-yillar boshida sotsialistik lager` qulashi esa, rejaviy davlat iqtisodiyoti siyosati kuchsiz ekanligini isbotlab, liberalizm pozitsiyalarini yanada mustahkamladi. 1970-1980- yillar davomidagi siyosatning muhim tavsiflaridan biri, iqtisodiyotning keyingi globalizatsiyasi, jahon bozori rivojlanishi va xalqaro iqtisodiy aloqalarning mustahkamlanishi bo`ldi. Bu holat Evropa integratsiyasi rivojlanishi davom etishida ham kuzatildi. 1979 yilda, EKYU hisob birligiga asoslangan yagona valyuta tizimi kiritildi. 1992 yilda Maastrixt shartnomasi imzolanib, shartnomaga asosan Evropa ittifoqi yuzaga keldi. 1994 yilda, GATT butunjahon savdo tashkilotiga aylandi.

Iqtisodiyotda ham tuzilmaviy o`zgarishlar sodir bo`ldi. Ular, xizmat ko`rsatish sohasini o`sishi va axborot texnologiyalari bozori rivojlanishida namoyon bo`lib, bu holat iqtisodchilar oldiga Yangi tadqiqot vazifalarini qo`ydi, zero bu turdagi mahsulot bozori tovar harakatlari umumqabul qilingan modeliga mos bo`lmay, mustaqil tahlil va Yangi nazariya ishlab chiqilishini talab etar edi.

24.2. 1970-1980 yillarda iqtisodiyot fani umumiy tavsifi

1960- yillar oxiri, 1980-yillar boshidagi inqiroz holatlari 1929-1933 yil inqirozlaridan chuqur bo`lmasa-da, ular iqtisodiy siyosat va iqtisodiy nazariya qayta orientatsiya etilishi borasida xuddi Shunday ahamiyatli rol o`ynadi. Keynschilik maktabi g`oyalari to`g`riligi Shubha ostiga olindi. Bundan tashqari inqirozlar inflyatsiyaning yuqori darajalari, ishlab chiqarishni qulashi va ishsizlik darajasi oshishi bilan birgalikda kuzatildi. Iqtisodiyotning bunday holati stagflyatsiya nomini oldi. Shunisi ahamiyatliki, stagflyatsiya, keynschilik nazariyasi tomonidan qo`llanilgan modelga muvofiq emas, zero keynschilik nazariyasi, inflyatsiyaning ishsizlikka bog`liqligi haqidagi aksilnazariyadan kelib chiqgan edi. Buning natijasida keynschilik retseptlari Yangi iqtisodiy fenomen oldida kuchsiz bo`lib qoldi. Bundan tashqari inqiroz yuzaga kelishining o`zi, keynschilik davlatlari tomonidan amalga oshirilayotgan antisiklik siyosatni diskreditatsiyasi ham edi. Bundan tashqari 1960-yillar iqtisodiy o`sishi oqibatlari va keynschilik iqtisodiyoti siyosatining bevosita natijalari, qadriyatlarni qayta ko`rishni talab etayotgan edi. Keyingi o`n yilliklar davomida AQSH va G`arbiy Evropa mamlakatlari iqtisodiyoti, kuchli iqtisodiy o`sishga ega bo`lib, bu holat aholi barcha qatlamlari intensiv o`sishi bilan birgalikda kuzatildi. Hajmli istemol bozori yaratildi: jamiyat tomonidan talab darajasi va sifati oshdi. Bu holatni ilmiy - texnik taraqqiyot keltirib chiqarib, buning oqibatida, sanoat tomonidan Yangi uskunalarga va iste`molchilar tomonidan Yangi tovarlarga nisbatan talablar oshdi. Bunday sharoitlarda samarali talabni rag`batlantirish muammosi bir vaqtlar keynschilik siyosati markazida turgan bo`lsada, endi dolzarbligini yo`qotdi.

Shu bilan birgalikda, keynschilik strategiyasining salbiy omillari ham aniqlandi. Talab darajasini oshirishga qaratilgan davlat siyosati, byudjet deffitsiti, va davlat xarajatlarini o`sishi hisobiga amalga oshirilar edi. bu holat inflyatsiya kutishlari, va narxlar o`sishiga olib keldi. Hukumat xarajatlari o`sishi, soliq yuki bosimi o`sishi bilan birgalikda yuz berib, bu holat, ishbilarmonlik faolligiga salbiy ta`sir etib, kapital quyilmalari daromadlari darajasini pasaytirdi.

Yuzaga kelgan muammolar asosida keynschilik nazariyasi o`rniga neoliberal va sofliberal nazariyalar yuzaga kelib, ularning g`oyalari asosida, davlat qarorlari bilan to`liq cheklash yoki qisman chegaralash g`oyalari yotar edi. ularning nuqtai - nazari bo`yicha o`sish darajalari pasayishi, inflyatsiya darajasi oshishi 1970 yillarda kuzatilgan bo`lib, bularning barchasi davlatning chalkash iqtisodiyotga aralashuvi natijasidir.

1970-1980-yillar neoliberalistik yo`nalishiga qator nazariyalar mansub: monetarizm, taklif va neoinstitutsionalizm iqtisodiy nazariyasidir. Mazkur nazariyalar bir - biridan keskin ravishda o`z nazariy pozitsiyalariga ko`ra farq

qilsada, ularning yagona umumiyligi davlatning iqtisodiyotga aralashuviga nisbatan garchi, davlatning roli, to`laligicha inkor etilmasada umumiy tanqidiy munosabatdir.

Markaziy hukumat tomonidan bozor tizimiga istalgan ta`sirga qarshi chiquvchi liberalistik yo`nalishga neoavstriya maktabi mansub bo`lib, u mazkur g`oyalarni 1930- yillardayoq ilgari surgan edi, ammo 1970-yillarda u juda ham mashhur bo`lib ketdi. Shular jumlasiga ratsional kutish maktabi ham mansub bo`lib, mazkur maktab o`zining ketma - ket liberalistik g`oyalari sababli, Yangi mumtoz nazariya nomini ham olgan.

Ammo, 1970-1990 yillar davomida iqtisodchilar orasida liberal kayfiyatlar ko`plab uchraganligi bilan bir qatorda, davlatning iqtisodiyotdagi muhim roli g`oyasini ilgari surgan maktablar ham saqlanib qolgan edi. bunda, so`z birinchi navbatda postkeynschilik nazariyasi haqida yuritilishi lozim. Uning namoyandalari orasida, Aksel` Leon Xufvudni, Pol Devidsonni, hamda Robert Klauerni tilga olish lozim. Ularning asosiy vazifasi, bozor nomutanosibligi haqidagi Keynschilik g`oyalarini tiklanishi, va nazariyani neokonservativ tanqiddan himoyalash bo`ldi. Birinchi navbatda, ular Keynsning iqtisodiyotda muvozanatga erishish printsipial ravishda imkonsiz ekanligi haqidagi markaziy tezisini himoyalab, buning natijasida, davlat aralashuvi zarurligini ilgari surishgan.

Davlatning faol roli an`naviy tarafdorlari sifatida institutsionalistik yo`nalish namoyandalari g`oyalarini tilga olish mumkin. Garchi qator institutsionalistlar (P. Druker, A. Toffler) neoliberalizmga yaqin bo`lgan byurokratik boshqaruv kamchiliklari haqidagi g`oyalarini ilgari surishib, xususiy korxonalar harakatlarining noiqtisodiy oqibatlarining jamiyat tomonidan nazorat etish lozimligi haqida gapirishgan bo`lsa ham, davlat tomonidan iqtisodiyotni nazorati zarurligini ilgari surishgan.

Iqtisodiy nazariya masalalari. 1970-1980-yillarda marjinalistik yo`nalish doirasida ilg`or pozitsiyalar monetaristlar tomonidan egallandi. Mazkur maktab asoschisi amerikalik iqtisodchi Milton Fridmen edi (1912-yilda tug`ilgan). Monetarizm maktabi tarafdorlari sirasiga yana ikki maktab qo`shilgan edi, ya`ni taklif - iqtisodiy nazariyasi va ratsional kutish maktabi. Ularning amaliy xulosalari ko`pchilik jihatdan monetaristlar xulosalari bilan mos bo`lsada, bunda ularning farqli jihati iqtisodiyot tahliliga nisbatan o`ziga xos yondashuv bo`lib, buning oqibatida alohida maktablar ajratiladi.

Monetarizm doirasida iste`mol nazariyasi (permanent va nominal daromad nazariyasi), ishsizlik va inflyatsiya mutanosibligi egri chizig`i Yangi interpretatsiyasi (Filips egri chizig`i) va qator boshqa nazariyalarning qayta ko`rilishi yordamida, keynschilik nazariyasining asosiy iqtisodiy xulosalari inkor etilgan. Demak, iqtisodiyot nazorati asosiy retseptlari ham.

Monetarizm doirasida iste`mol nazariyasi (permanent va nominal daromad nazariyasi), ishsizlik va inflyatsiya mutanosibligi egri chiziq Yangi interpretatsiyasi (Filips egri chizig`i), va qator boshqa nazariyalarning qayta ko`rilishi yordamida keynschilik nazariyasining asosiy xulosalari inkor etilgan, demak iqtisodiyot nazorati asosiy retseptlari ham. Iqtisodiy siyosatning yangi printsiplari shakllanib, ular hukumatning iqtisodiyotga aralashuvini mablag` siyosatini yuritish orqali hukumatning iqtisodiyotga aralashuvini cheklash, hamda o`z - o`zini nazorat etish bozor mexanizmini to`ldiruvchi qurilma stabilizatorlar tizimini yaratish zarurligi g`oyasini ilgari surishgan.

Marjinalizmda printsipial ravishda yangi hodisa sifatida, iqtisodiyotga aloqasi bo`lmagan sohalar iqtisodiy tahlili uslublari tarqalishi bo`ldi. Mazkur hodisa iqtisodiy imperializm nomini oldi. Mazkur yo`nalish tarafdorlari, iqtisodiy motivatsion modelni, uning samarali maksimizatsiyalash va to`liq ratsionallik printsiplari bilan birgalikda irqiy, huquqiy masalalarni echishda, oilaviy hayot, jamoatchilik siyosatida indvidlar harakatlari tahlili uchun qo`llasha boshlashdi, mazkur yo`nalishning yorqin namoyandasi amerikalik iqtisodchi Geri Stenli Bekker (1930-yilda tug`ilgan) bo`lib, u 1992 yilda nobel` mukofotiga sazovor bo`ldi. Uning asarlari jamiyatda keskin to`lqinlarni keltirib chiqardi. Birinchidan uning g`oyalari, inson harrakati tahlilining mutlaqo yangi qulay uslubini taklif etdi. Boshqa tomondan esa, keskin tanqidlarga duchor bo`lib, ularning asosida inson soddalashtirilgan interpretatsiyasi yotgan edi.

Aynan shu yondashuvga yaqin bo`lgan jamoatchilik tanlovi nazariyasi (Dj.M. B`yukenen, G. Tallo) va «Huquq iqtisodiyoti» (K. Pozner, G. Kalabrezi), nazariyalari rivojlandi.

yuqorida aytib o`tilganiddek 1960-yillardan boshlab, iqtisodiyot ta`limotining Yangi yo`nalishi yuzaga kelib, bu yo`nalish keynschilik nazariyasini sof holatda tiklashga qaratilgan edi. Keyns g`oyalari mumtoz interpretatsiyasi tanqid ostiga olindi. Asosiy e`tibor Keynsning iqtisodiy nomutanosibligi asoslari e`tibordan qochirilganligi bo`ldi. Postkeynschilik nazariyasi tarafdorlarini ta`kidlashicha axborotning nomuvofiqligi, nomutanosibligi, mablag` - kredit omili mavjudligi sababli yuzaga kelib, iqtisodiy reaktsiyalar elastikligi neomumtoz nazariya tomonidan hisobga olinmasligi haqidagi fikrlar yuzaga keldi. Shu bilan birgalikda ularning ta`kidlashicha bozor iqtisodiyoti asosiy ko`rsatkichlarining mablag` ko`rinishidagi asosiy mutanosibliklari haqida axborot berdi. Iqtisodiy agentlar, aynan nominal ko`rsatkichlar o`zgarishiga e`tibor qilib, bu ko`rsatkichlar real ko`rsatkichlarni farq qiladi. Natijada, bozor tomonidan berilgan axborot yolg`on bo`lib, xo`jalik sub`ektlarini chalkashtiradi. Bu holat, bozor qatnashchilarining noadekvat harakatlari, va muvozanatini buzilishiga olib kelinadi. Bundan tashqari, Keyns g`oyalari neomumtoz interpretatsiyasida uning

nazariyasi dinamik tavsifi yo`qotiladi. Xususan Xiks modelida, vaqt tushunchasi umuman mavjud emas.

O`z pozitsiyalarini mustahkamlash uchun postkeynschilik nazariyasi tarafdorlari, o`z harakatlarini nazariyalarining makroiqtisodiy asosini yaratishga qaratishadi. Bunday asosning mavjud emasligi, keynsianlik nazariyasi tanqidi uchun jiddiy asos bo`lib xizmat qilar edi.

Shu bilan birgalikda neoavstriya maktabi ham alohida rivojlanadi. Mazkur maktab o`z asoschilari Lyudvig fon Mizes (1881-1973) va Fridrix fon Xayek (1899-1992) asarlariga tayanadi. Zamonaviy iqtisodchilar sifatida Izrail` Kirtsner (1930 yilda tug`ilgan), Myurrey N. Rotbard kabilarni tilga olish mumkin. Mazkur maktab doirasida mablag` va sikl nazariyasi rivojlanib unda asosiy rol`ni axborot o`zgartirilishi muammosi o`ynaydi. Neoavstriya maktabi namoyandalarining ta`kidlashicha, iqtisodiyotga istalgan aralashuv hoh mablag` massasi yoki foizni nazorat etish bo`lsin, hoh boshqa aralashuv, yolg`on bozor signallari yuzaga kelishiga olib kelib, iqtisodiy agentlar va butun iqtisodiyot dezorientatsiyasiga sabab bo`ladi.

Mazkur maktabda alohida o`ringa XX asr iqtisodiy ta`limotlari tarixi ham ega. Chunki u, ham marjinalistik yo`nalish rivojlanishiga (xususan M. Fridmen qarashlariga ham al`ternativ boshqa oqimlar shakllanishiga ta`sir o`tkazgan. Neoavstriya maktabining axborot va noaniqlik omillari, ratsionallik kuchsiz formalari qo`llanilishi, doimiy o`zgarishlar sharoitida adaptiv tizimlar sifatida iqtisodiy institutlarni Yangi tushunilishi kabi muammoga e`tibori, uning birinchilardan bo`lib marjinalistik aksiomatika qayta ko`rishga kirishganligidan dalolat beradi.

Marjinalizm an`anaviy modelining qayta ko`rilish jarayoni 1970-yillarda alohida ahamiyatga ega bo`ldi. Mazkur davrda ko`pincha, hukmron an`analar nazariy asoslarining imkonsizligi haqidagi g`oyalari, tez - tez eshitilib turar edi (masalan main stream nazariyasi), ular esa, cheklangan ratsionallik, noaniqlik, yirik korporatsiyalar mavjudligi, kabi dolzarb hodisalarni tahlil etish, hamda, iqtisodiyot dinamik jarayonlarini tadqiq etish imkoniyatini bermaydi. Bu davrlarda, ortodoksal nazariya inqirozi haqida V. Leont`ev, Dj. Robin (1918 yilda tug`ilgan), R. Solou (1924 yilda tug`ilgan), O.Morgenshtern (1902-1977), O. Uil`yamson (1937 yilda tug`ilgan) kabi olimlar so`z yuritishgan. Mazkur to`lqin doirasida qator nazariya va maktablar shakllanib, ular an`anaviy marjinalizmga nisbatan al`ternativ bo`lgan tahlil uslublarini shakllantirishga harakat qilishadi. Bular sirasiga neoinstitutsionalizm, evolyutsion iqtisodiyot nazariyalari kiradi. Neoinstitutsional yo`nalish tarkibiga qator maktablarni oladi. Mazkur maktablar orasida ayniqsa katta ta`sir kuchiga transaktsion xarajatlar maktabi ega. Uning tarafdorlarining ta`kidlashicha, an`anaviy marjinalistik nazariya iqtisodiy institutlar rivojlanishi va

harakatlari qonuniyatlari tadqiqoti imkoniyatini beruvchi tahliliy apparatga ega emas. Yangi institutsional nazariya, o`zining transaktsion harajatlariga asoslangan uslubini taklif etadi. Ushbu maktabning bosh namoyandalaridan biri Oliver Uil`yamsondir. Mazkur yangi uslub iqtisodiy nazariyaga nisbatan qo`llanilgan, aniqrog`i esa iqtisodiy institutlar rivojlanishi tarixiga. Yaratilgan nazariya «Yangi iqtisodiy tarix» nomini oldi. Uning ilg`or mualliflaridan biri, Duglas Nortdir (1920-yilda tug`ilgan).

Mulkdorlik huquqlari nazariyasi, institutsionalizm doirasidagi yana bir maktabdir (A. Alchian, X. Demsets). U ham institutlar tahliliga nisbatan al`ternativ yondashuv bo`lib, alohida tuzilmalar doirasida mulkdorlik huquqlari tahlili va ularning taqsimlanishi tahliliga asoslangan.

«Evolyutsion» nomini olgan yana bir al`ternativ uslub, mo‘ayyan ketma - ketlikda evolyutsion iqtisodiy nazariya namoyandalari tomonidan ishlab chiqildi (R.R. Nel`son, S.Dj Uinter, L. Magnusson, D. Xodjson, U. Vitt). Uning qo`llanilish zaruriyati haqida, A. Alchian ham aytgan edi. iqtisodiy fikrning mazkur yo`nalishi, iqtisodiyotdagi institutsional o`zgarishlar tadqiqoti bilan Shug`ullanadi. Uning tomonidan qo`llanilgan yondashuv, biologik ko`plab usullarini o`z ichiga olgan. Xususan, firmalar harakatlari, o`zgaruvchan tashqi sharoitlarga nisbatan moslashish sifatida ko`rib chiqiladi. Alchian o`zining «Noaniqlik evolyutsiya va iqtisodiy nazariya» (1950) maqolasida yozishicha, tashqi iqtisodiyot institutsional tuzilmasi aniqlashida faol rol o`ynaydi. U ayniqsa kuchli va muvaffaqiyatli ravishda moslashgan o`yinchilar saralovini amalga oshiradi. O`z navbatida firmalar tuzilishi, tashqi iqtisodiy, ijtimoiy va hattoki ekologik sharoitlarga javob hamdir. Bu borada, firma tashkiliyligi va uning bozordagi harakati printsipi asosida nafaqat daromadga nisbatan harakat, balki yashab qolish, mo``tadillik, ichki energiya iqtisodiyoti, muhimi esa o`zgaruvchan sharoitlarga moslashish masalalari echimi asosida kelib chiqadi. Alohida ahamiyatga noaniqlik, axborot o`zgaruvchanligi, harakat noratsional turlari kabi omillar ham, tahlilda alohida ahamiyatga ega. Mazkur yo`nalish namoyandalari katta e`tiborni tarixiy tadqiqotlar, texnologiya va iqtisodiy tashkiliylikdagi kumulyativ o`zgarishlar tahliliga qaratishadi. Shuni ham ta`kidlab o`tish joizki, neomumtoz nazariya, juda tez ravishda nazariyalarni nazariy chaqiruvlariga nisbatan javob berib, ularning iqtisodiyot interpretatsiyasi cheklovlarini tanqid etilishiga qarshi turadi. U, opponentlar o`z e`tiborlarini qaratgan asoslarni e`tiborga oluvchi Yangi modellarni shakllantira oladi.

Iqtisodiyot fani an`anaviy yo`nalishlari rivojlanishi, ya`ni institutsionalizm rivojlanishi, iqtisodiyot va siyosatda yuz berayotgan ko`rib chiqilayotgan davr o`zgarishlari bilan bog`liqdir. Mazkur yo`nalish iqtisodchilari asosiy e`tiborni,

kapitalistik tizim keyingi transformatsiyasi jarayonlari bilan bog`liq Yangi masalalarga qaratishgan.

Katta e`tibor ishlab chiqarish o`zgartirilishiga ham qaratilgan, ya`ni aynan xizmat sohasini faol o`sishiga (K. Klark, A. Toffler va boshqalar). Demak axborot sohasi ham, bundan mustasno emas. Bu borada, iqtisodiyot evfemirizatsiyasi g`oyalari ham paydo bo`lgan. Masalan K. Klark ishlab chiqarish sohasining uch bosqichini ajratadi: agrar bosqich, sanoat bosqichi, xizmat ko`rsatishni o`sishi bosqichi. Bunda uchinchi bosqich insonlar katta miqdorini ishsiz qoldirib, qo`l mehnati o`rniga kelgan mashina ishlab chiqarilishi yuzaga kelishi bilan tavsiflanuvchi ikkinchi bosqich uchun dolzarb bo`lgan ishsizlik masalasi hal etilishi, kichik tadbirkorlikning qaytishi bilan tavsiflanadi. Iste`mol tuzilishi ham o`zgaradi- asosiy o`ringa, birinchi bosqich kabi oziq - ovqat mahsulotlari, yoki ikkinchi bosqichdagi kabi sanoat mollari emas, xizmat chiqadi.

Uchinchi, yirik iqtisodiy institutlar samaradorligini Shubha ostiga olgan nazariyalar ham paydo bo`lib, iqtisodiyotda davlat tadbirkorligi, xizmat sohasi rivojlanishi bilan bog`liq (K.Klark), hamda zamonaviy iqtisodiyotning asosiy ishlab chiqarish omili bo`lmish bilimlar yetakchi darajaga ko`tariladi mazkur nazariyalar himoya etayotgan asosiy g`oya, Shundan iboratki, bilimlarning rivojlanishi, va ularni ishlab chiqarishga tadbiq etilishi istalgan turdagi rejalashtirish yoki byurokratiya bilan mutanosiblashmaydi P. Druker.

Institutsional nazariyalarning boshqa qismi (Dj.Gelbreyt, D. Bell) asosiy e`tiborni ilmiy - texnik progress salbiy oqibatlari, yirik korporatsiyalar o`sishi, inson jamiyatiga bo`ysuntirilishi, texnologik rivojlanish manfaatlari salbiy oqibatlariga qaratgan. Institutsionalistlar e`tiborini xalqaro iqtisodiyotni jahon iqtisodiyotiga aylantirayotgan globalizatsiya masalalari ham tortib, bunda biror - bir millat, boshqa mamlkatlar bilan aloqa doirasidan tashqarida o`zini tasavvur eta olmaydi (P. Druker). Mazkur masalalarga e`tibor qaratishning asosiy sababi, butunjahon tavsifga ega bo`lgan ekologik muammolar bo`ldi. 1970-yilning ikkinchi yarmidayoq, atrof - muhitga texnika va iqtisodiyotning salbiy ta`siri bilan bog`liq bo`lgan kelajak borasidagi pessimistik kayfiyatlar paydo bo`la boshladi. Bunday kayfiyatlar tarqalishiga, ilmiy - texnik inqilob davrida insoniyat rivojlanishi istiqbollarini maxsus tadqiq etish uchun 1983 yilda asos solingan Rim Klubi faoliyati ham sabab bo`ldi. Amalga oshirilgan tadqiqotlar ko`rsatishicha, ITF inson faoliyati davomida asosiy resurslar va er emirilish erroziyasi darajalarini kuchli darajada tezlashtirgani ayon bo`ldi. O`sish to`xtashi borasidagi g`oyalar paydo bo`ldi. YA`ni ishlab chiqarish va iste`mol darajalarini cheklash zarurligi, hamda miqdoriy ko`rsatkichlardan sifat o`sish ko`rsatkichlariga o`sish talablari ilgari surila boshlandi.

Nazorat uchun savollar:

1. 1970-1980-yillar g`arbiy iqtisodiyoti qanday xususiyatlar bilan tavsiflanadi?
2. Keynschilik siyosati inqirozi sabablari va neoliberal g`oyalarning birinchi darajaga chiqish sabablarini sanab o`ting.
3. 1970-yillarda kuzatilgan iqtisodiyot fani inqirozi sabablari nima?
4. 1970-1980-yillarda marjinalizm doirasida rivojlangan asosiy maktablarni sanab o`ting.
5. Qaysi maktablar iqtisodiyot tahlili al`ternativ usullarini yaratishga harakat qilishgan?
6. 1970-1980-yillardagi iqtisodiy va tuzilmaviy o`zgarishlar institutsionalizm muammolariga qanday ta`sir o`tkazdi.

Mavzu bo`yicha adabiyotlar ro`yxati:

1. Брегель Э.Я. Критика буржуазних учений об экономической системе современного капитализма. М.: Мысль, 1972.
2. Современная экономическая мысль / Под ред. С. Вайнтрауба. М.: Прогресс, 1981.

XXV-BOB. ZAMONAVIY MARJINALIZMNI RIVOJLANISHI

25.1. Monetarizm iqtisodiy nazariyalari

Mazkur oqimning bosh namoyandasi amerikalik iqtisodchi Milton Fridmen (1912 yilda tug`ilgan) bo`lib, u Chikago universitetida (1948 yildan) iqtisodiyot professori lavozimida ishlab, 1976 yilda Nobel` mukofotiga sazovor bo`lgan.

Uslub. M.Fridmen, tadqiqot metodologiya masalalariga asosiy e`tiborini qaratgan zamonaviy iqtisodchilardan biridir. U, fanda bosqichma - bosqich empirizm g`oyalarini ilgari surib, pozitiv faktlar bilan tasdiqlangan fikrlar asosida ishlovchi pozitiv iqtisodiy nazariyani yaratilishi ustidan ish olib borgan. Bu holat uning tadqiqotlarida "isbot" uslubidan foydalanilganligidan dalolat beradi. M. Fridmenning ta`kidlashicha, nazariya faqatgina faktlar bilan tasdiqlangan holatda to`g`ri bo`lib, bunda faktlarning bashoratlari aniq bo`lishi lozim. Mazkur nazariya asoslari voqelik realistik ekanligi muhim emas. O`z qarashlarida Fridmen "qora quti" printsipini ilgari suradi. Agarda ikki iqtisodiy ko`rsatkich dinamikasida, birining boshqasiga nisbatan bog`liqligini ko`rsatsa, ushbu faktning konstatatsiyasining o`zi, keyingi ta`sir mexanizmini isbotlarsiz tasdiqlanadi. Mazkur mexanizm ya`ni "qora quti", tushuntirilishi shart emas, yoki hatto, zamonaviy fan nuqtai - nazaridan safsata bo`lishi mumkin, ammo o`zaro ta`sir fakti empirik nuqtai - nazaridan ko`rsatilgan bo`lsa, bu mexanizmning mavjudligini isbotlash mumkin.

Shunday qilib, nazariyaning inkor etilishi yuz beradi. Agarda, mo'ayyan kontseptsiya realistik asoslardan kelib chiqib, o`z tuzilishiga ko`ra mantiqiy bo`lsa, uning xulosalari amaliyotga mos tushmasa, u erda ushbu faktik holat yolg`on deb tan olinishi mumkin. Bunday holatda kontseptsiya postulatlarining inkor etilishi shart emas.

Aynan ana Shunday asosiy qoidalar M. Fridmen va monetaristlar tomonidan keynschilik nazariyasi doirasida tadqiq etilgan. 1970-yillar inqirozi, stagflyatsiya, inflyatsiya va yuqoridarajadagi ishsizlikni o`ziga olib, e`tirof etilayotgan bilan keskin qarama - qarshilikka kirishdi, oqibatida monetaristlar tomonidan keynschilik oqimining noto`g`riligini ta`kidlash imkoniyatiga ega bo`lishdi.

Permanent daromad nazariyasi. Monetaristlarning empirik tadqiqotlari asosida Dj. M. Keyns nazariyasining bir qator iqtisodiy tezislari xususan, uning «Asosiy psixologik qonuniyati» inkor etildi. Saymon Kuznets (1901-1985) 1869-1924 yilgacha bo`lgan davrda AQSHning asosiy iqtisodiy ko`rsatkichlari taxlili tadqiqotini amalga oshirib, xulosa qildiki, iste`molchilikka nisbatan o`rtacha moyillik garchi daromadlar o`sgan bo`lsa ham o`zgarmas holatda qolgan. Buni boshqa qator iqtisodchilar tadqiqotlari ham tasdiqladi.

Asta - sekinlik bilan, iste`molchilik harakatining Yangi nazariyalari paydo bo`la boshlab, ular iste`molning daromaddan emas, turli ijtimoiy - psixologik omillarga bog`liqligini ko`rsatishdi. 1957-yilda M. Fridmen «Iste`molchilik funktsiyasi nazariyasi» asarini yozib, unda permanent daromad nazariyasini rivojlantirdi. M. Fridmen daromadni (Y) ikki asosga bo`ladi:

a) Permanent daromad (Yp), ya`ni individ o`z ma`lumoti darajasi, professional imkoniyatlari, ijtimoiy holatidan kelib chiqgan holda doimiy ravishda olishni mo`ljallayotgan daromad.

b) Vaqtinchalik yoki tasodifiy daromad (Yi), ya`ni tashqi holatlarning vaqtinchalik o`zgarishi natijasida yuzaga kelgan va doimiy tavsifga ega bo`lmagan daromad (Masalan me`ros, lotereyada yutuq, sohaning siklik ko`tarilishi va boshqalar). Keyinchalik M. Fridmen, iste`mol darajasi faqatgina permanent daromad bilan belgilanishi haqidagi tezisni ilgari surgan. Barcha vaqtinchalik daromadlar, odatda vaqtinchalik mablag`lar sirasiga qo`shiladi. Bunda, permanent daromaddagi (Cp) iste`molchilik ulushi qator kattaliklar yordamida belgilanib, ular korrelyatsiyaning mo‘ayyan koeffitsientini (k) shakllantiradi.

$$SP=k\ YP$$

Mazkur koeffitsient foiz stavkasi (i) zahira kapitali kattaligi (W) va iste`molchilar xohishi yoki (U) kabi holatlarga bog`liq. Shunday qilib, M.Fridman permanent iste`mol formulasi quyidagicha ifodalaydi.

$$CP = k\ (I, w, u)\ Yp$$

Ilgari surilgan permanent daromad kontseptsiyasi asosida M. Fridmen iste`mol darajasi, uzoq muddat davomida doimiyligini saqlab qolishini ta`kidlaydiki, o`z nazariyasini tasdiqlash maqsadida u 1905-1951 yilgacha bo`lgan davrda AQSH daromadlari haqidagi empirik ma`lumotlarini yig`ib, mazkur ma`lumotlar permanent iste`molning permanent daromadga bog`liqligini tasdiqlaydi. Natijada M. Fridmen, Dj. M. Keyns tomonidan ilgari surilgan samarali talab nazariyasi kamchiliklari muammosi mavjud bo`lmay, u daromadlar o`sishi sayin iste`molga maksimal moyillik chiqarishi bilan bog`liq holatlar mavjud emas deb xulosa qiladi («Asosiy psixologik qonuniyat»). Demakki, mazkur talabni rag`batlantirish bo`yicha alohida choralarni ko`rish ham shart emas.

25.2.Nominal daromad nazariyasi

Monetarist iqtisodchilar tomonidan amalga oshirilgan empirik tadqiqotlar asosida yana bir bog`liqlikni aniqlab, bu bog`liqlik monetaristlar nazariyasi uchun o`zak bo`ldi. Ular mablag` massasi hajmi dinamikasi mo‘ayyan vaqt o`tishi bilan iqtisodiy kon`yunktura dinamikasidan takrorlanishi isbotlandi. YA`ni, agar iqtisodiyotdagi mablag` massasi oshadigan bo`lsa, mo‘ayyan vaqt o`tgach

(taxminan 12-18 oy), ishbilarmonlik faolligi ham oshadi, va aksincha. Mazkur qonuniyat M. Fridmen tomonidan o`zining ikki asarida: «Mablag` va ishbilarmonlik sikllari» (1958) va «1867-1960-yillar davomida Qo`shma SHtatlar monetar tarixi» nomli (1963) asarlarida tasvirlangan. Olingan ma`lumotlarga asosan, u o`zining nominal daromad sikli nazariyasi va antisiklik nazorat nazariyalarini shakllantirgan.

Empirik uslubda M. Fridmen, nominal daromadning mablag` massasi pul vositalari hajmiga bog`liqlik darajasi formulasini ishlab chiqgan.

$$Y=VxM$$

Bunda: Y- nominal daromad darajasi, V – mablag` aylanish tezligi; M- mablag` miqdoridir.


Bundan Shuni e`tirof etish mumkinki, mazkur formula, mablag` miqdoriy nazariyasi g`oyalarini takrorlaydi. M. Fridmen mazkur nazariyaning I. Fisher tomonidan taklif etilgan mablag`ni aylanish yoki to`lov vositasi sifatida emas. Dj.M. Keyns kabi, kapital sifatida ko`rib chiqgan, ya`ni masalan qimmatbaho qog`ozlarga investitsiya etish uchun zarur bo`lgan mablag`lar sifatidagi mo‘ayyan miqdordagi har bir mablag`ni olgan iste`molchi variantiga murojaat qilgan aktivlar portfelini shakllantiradi. M. Fridmen, aktivlarning bir - necha turini ajratadi. Masalan naqd pul, obligatsiyalar, aktsiyalar, inson kapitaliga investitsiyalar va boshqalar. Demak, mablag`ga nisbatan talab, mazkur aktivlar daromadlilik darajasiga (bunda inflyatsiya hisobga olinadi), hamda har - bir iste`molchi individual istaklariga bog`liq bo`ladi.

Mablag` aylanish tezligi uzoq muddat davomida deyarli o`zgarishsiz qolishini hisobga olgan holda, M.Fridman tomonidan taklif etilgan formula mablag` massasi tarkibidagi o`zgarishlar nominal daromaddagi muvofiq o`zgarishlarga olib kelishini taxmin qiladi. O`zgarishlar mexanizmining o`zini, M. Fridmen tasvirlamay, uni qora quti ko`rinishida ko`rsatadi.

«Fridmen - Filips» vertikal egri chizig`i, yoki Filips egri chizig`i atrofidagi munozaralar.

O`zining «Monetar siyosatning roli» (1968) nomli asarida, M.Fridmen, ingliz iqtisodchisi Elban Fillips (1914-1975) qalamiga mansub ishsizlik kontseptsiyasini tahlil qilgan. 1950-yillarda mazkur iqtisodchi tomonidan empirik jihatdan nominal ish haqi (W) va ishsizlik darajasi (U) darajasi orasidagi bog`liqlik aniqlangan edi. Buning uchun, A. Filips 1861-1957 yillar davomida Angliya bo`yicha muvofiq ma`lumotlarni tadqiq qilgan. Mazkur ma`lumotlar asosida, u xulosa qiladiki, ish haqining barqaror darajasiga ishsizlikning 5.5% darajasi muvofiqdir. Tadqiqot natijalari, uning tomonidan egri chiziq ko`rinishida berilib, mazkur egri chiziq keyinchalik Filips egri chizig`i nomini oldi (25.2.1-rasm).

Shuni ham aytib o`tish joizki, Filipsdan oldin, 1920-1930-yillarda mazkur bog`liqlikni I. Fisher, Y. Timbergen va Dj. Danloplar ham tasvirlashgan edi. nima bo`lganida ham, aynan Filips egri chizig`i keynschilar tomonidan inflyatsiya va ishsizlik nazariyasini asoslab berish uchun qo`llanilgan edi. Nominal ish haqi ko`rsatkichi, bunda inflyatsiya darajasi ko`rsatkichiga almashtirildi, natijada egri chiziq inflyatsiya yordamida bandlik darajasini nazorat etish, demakki ishlab - chiqarish darajasiga ham ta`sir etish imkoniyatlarini namoyish etdi. O`z siyosatini amlga oshirish davomida davlat yuqori darajadagi inflyatsiya va yuqori darajadagi ishsizlik orasida tanlovga egadir. Agar ishsizlik darajasini tushirish zarur bo`lsa, davlat inflyatsiya o`sishiga tayyor bo`lishi kerak, demak bu holat, ishchi o`rinlari o`sishi va ishlab chiqarish faoliyati faolligiga, zahira mablag`lari ulushiga nisbatan investitsiyalar ulushi oshishiga olib keladi. Agar inflyatsiya darajasini tushirish lozim bo`lsa, bu albatta zahira mablag`lari o`sishi, sarmoyalar qulayligini tushishi, demak ish o`rinlari miqdorlarini ham tushishiga olib keladi.




25.2.1-rasm

M. Fridmen ishsizlikning tabiiy normasi mavjudligi taxminlaridan kelib chiqib, bu holat har safar hukumat qanday choralarni ko`rib chiqishidan qat`iy - nazar tiklanishini aytib o`tgan. M. Fridmenning fikrlarini mantig`i quyidagicha. Masalan iqtisodiyot A nuqtasida joylashgan bo`lsin (19-rasm) va narxlar va ishsizlikning U teng bo`lgan mo``tadil darajasi bilan tavsiflansin. Davlat bandlik darajasini oshirish maqsadida talabni rag`batlantiradi. Bu narxlarni o`sishi va daromadlar oshishiga olib keladi: ishlab chiqarish o`sadi, ishchi kuchiga nisbatan talab oshadi, bu esa nominal ish haqi va bandlik darajasi o`sishiga olib keladi va iqtisodiyot B nuqtasiga ko`chib o`tadi.

Ammo, ishchilar nominal ish haqi o`sishi real ish haqi o`sishini bildirmasligini tez tushunishadi, bu holat esa inflyatsiya sharoitlarida o`zgarmas qoladi. Natijada, ishchilar mehnat taklifini qisqartirishadi va bandlik darajasi oldingi ko`rsatkichga qaytadi. Ammo bunda narxlar darajasi o`zgarishsiz qoladi. Iqtisodiyot C nuqtasiga ko`chadi. Shunday qilib, davlatning barcha ishsizlik

darajasini tushirishga qaratilgan harakatlari inflyatsiyani rag`batlantirilishiga olib kelib, uzoq muddat davomida mehnat bozoridagi holatni o`zgartirmaydi. Agarda A va S nuqtalarini birlashtiradigan bo`lsak, vertikal to`g`ri chiziq yuzaga kelib, bu chiziq ishsizlik tabiiy darajasiga muvofiq bo`ladi, va monetaristlar tomonidan uzoq muddatli Fillips egri chizig`i sifatida interpretatsiya etiladi. Zamonaviy iqtisodiy nazariyada, u «Fridmen - Fillips vertikal egri chizig`i» yoki «Fillips vertikal egri chizig`i» nomini olgan.



25.2.2-rasm

25.3. Monetar iqtisodiy siyosat

Monetaristlar o`z nazariyalarida isbotlashga harakat qilayotgan asosiy amaliy tezis Shundaki, keynscha qarashlari asosida amalga oshirilayotgan kredit - pul va byudjet siyosati, iqtisodiyotdagi muhim tuzilmaviy o`zgarishlarga olib kela olmaydi. Bunday siyosatning yagona mo``tadil oqibati inflyatsiya bo`lib, u davlat xarajatlarini oshishiga olib kelishligi sababli, byudjet defitsitini keltirib chiqaradi. Keynschilik choralari yuqori soliqlar evaziga amalga oshirilishidan tashqari, bu holat xususiy firmalar daromadlilik darajasiga salbiy ta`sir ko`rsatishi bilan birgalikda, tadbirkorlik faolligini tushishiga ham sabab bo`ladi.

Keynschilarning antisiklik siyosati ham tanqid ostiga olingan. Mazkur tanqid tezislaridan biri, iqtisodiy agentlar davlat harakatlarini oldindan seza olishlari, demak mazkur harakatlarga qarshi chora ko`rishlari mumkinligi haqidagi tezisdir. Bundan tashqari, monetaristlarni e`tiroficha inqiroz holati yuzaga kelishi va unga davlat e`tibori va inqirozni engib o`tish bo`yicha choralar amalga oshirilishi orasida vaqt ham mavjud. Shu munosabat bilan, engib o`tish choralarini amalga oshirish boshlanguniga qadar, masalan iqtisodiy pasayish iqtisodiy ko`tarilish bosqichiga bemalol etib oladi. Bunda choralar, boshlangan o`sishni tezlashtirib, siklik to`lqinlanish amplitudasini oshirishadi.

Shu sababli monetaristlar davlat iqtisodiyotdagi rolini cheklash g`oyasini ilgari surib, bunda davlat zimmasiga bor - yo`g`i bir vazifani, ya`ni zarur mablag`

massasi hajmini ta`minlab berish vazifasini saqlab qolishni taklif qilishadi. M. Fridmen nominal daromad nazariyasiga tayangan holda, monetaristlar har yili mablag` massasi o`sishini 3-5 % darajada ta`minlash lozim deb hisoblashadi. Bu holat esa, YAMMni barqaror o`sishiga muvofiqdir.

Bunda, mablag` massasi hajmi, doimiy o`sish darajasiga ega bo`lishi kerak. Monetaristlar iqtisodiyotdagi siklik tabiiy to`lqinlanishlarini tan olishlari bilan birgalikda, sikl ostiga moslashish siyosatini noto`g`ri deb hisoblashadi. M. Fridmen tomonidan, mablag` massasi o`zgarishi, va mazkur o`zgarishlarga nisbatan iqtisodiy kon`yunktura reaktsiyasi ostida vaqt mavjudligi isbotlovchi empirik ma`lumotlar kiritilgan.

Nazorat uchun savollar:

1. M. Fridmen metodologik pozitsiyasini tavsiflang.
2. M. Fridmen nazariyasida permanent daromad nima va keynsianlik nazariyasi tanqidida u qanday qo`llaniladi?
3. M. Fridmen nominal daromad nazariyasi nima?
4. Monetaristik nazariyaga muvofiq fillips egri chizig`i uzoq muddatli davrda vertikal to`g`ri chiziqga aylanishini tushuntiring.
5. Monetaristlar tomonidan iqtisodiyotning hukumat tomonidan nazorat etilishining qanday choralari taklif etilgan?

Mavzu bo`yicha adabiyotlar ro`yxati:

1. Фридмен М. Количественная теория денег. М., 1995.
2. Усоскин В.М. «Денежний мир» М. Фридмена. М., 1989.

XXVI-BOB. ZAMONAVIY TAKLIF IQTISODIY NAZARIYASI

26.1. Taklif iqtisodiy nazariyasi shakllanishi

Taklif iqtisodiy nazariyasi 1970-yillar oxirida shakllandi. Mazkur yo`nalishni aloxida maktab deb bo`lmaydi, Chunki o`z yetakchisi, yagona metodologik pozitsiyasiga va ko`p jihatdan monetarizm g`oyalariga yaqinligiga ko`ra alohida ahamiyatga molik emas. Taklif iqtisodiy nazariyasi paydo bo`lishi, 1970-1980-yillar davomida AQSHda yuz bergan iqtisodiy va siyosiy jarayonlar bilan bevosita bog`liq. Xususan, bu holat amerikalik gubernator R. Reygan dasturiga ham yaqindir (1991-2004). Mazkur maktabning asosiy namoyandalari Martin Fel`stayn (1939 yilda tug`ilgan) va Artur Laffer (1941 yilda tug`ilgan) kabi iqtisodchilarni e`tirof etish mumkin. Taklif iqtisodiy nazariyasi yorqin antikeynschilik tavsifiga ega. Agar keynschilik nazariyasi, iqtisodiyotda talabni rag`batlantirish zarurligidan kelib chiqadigan bo`lsa, taklif iqtisodiy nazariyasi uning nomidan ko`rib chiqganidek, asosiy iqtisodiy vazifa taklifni rag`batlantirish deb hisoblagan. Taklif iqtisodiy nazariya namoyandalari nuqtai - nazaridan 1970- yillarda yuzaga kelgan iqtisodiy muammolar ishlab chiqarish past darajasi va ishlab chiqarish yuqori darajasi inflyatsiya asosida kelib chiqib, o`n yilliklar davomida amalga oshirilgan keynschilik siyosati natijasida yuzaga kelgan deb hisoblashgan. «Qimmatbaho huumat», iqtisodiyotga aralashmaslik oqibatida bozor nazorat rolini buzilishi, iqtisodiy rag`batlarni pasayishi, kabilar asosiy muammo taklif etishmovchiligi bo`lishiga, ya`ni tadbirkorlik faolligi tushishiga olib kelgan.

Iqtisodiy ahamiyati. Birinchi navbatda, biz tomondan ko`rib chiqilayotgan maktab iqtisodchilari, iqtisodiy muhit o`zgarishiga davlat aralashuvi ta`siri muammosini tadqiq etishadi.

**Bandlik darajasiga ta`sir.** Taklif iqtisodiy nazariyasi namoyandalari, ko`ngilli ishsizlik, friktsion ishsizlik va «Ishsizlikni tabiiy normasi» mavjudligini tan olishadi. Ularning fikricha aynan ko`ngilli ishsizlik, asosiy muammo bo`lib, uni hal etilish lozim. Buning uchun ishsizlik darajasi davlvt ijtimoiy xarajatlariga to`g`ridan-to`g`ri bo`lishi kerak. 1970-yillar o`rtalarida M. Fel`tstayn, ishsizlik bo`yicha nafaqalar oshirilishi salohiyatli ishchilarda ko`ngilli ishsizlikka moyillikni oshiradi deb aytadi. Keyinchalik Pol Evans 1931-1977 yillar davomida qo`shma shtatlar bo`yicha empirik materiallarni qo`llagan holda, istalgan transfertlar, ya`ni hukumat tomonidan amalga oshirilgan beg`araz to`lovlar, hamda davlat xaridlari bandlik darajasiga salbiy ta`sir o`tkazishni isbotlab beradi. Bundan tashqari bandlik darajasiga nisbatan salbiy ta`sirga soliq hajmi oshishi ham egadir. U, ishchilar real daromadlari hajmlarini pasaytiradi, bu esa muvofiq ravishda ularning mehnatga nisbatan moyilligini tushiradi. Muhim omil sifatida, davlat


xarajatlari tuzilishi ham ko`rib chiqilgan. Agar mazkur xarajatlar, ishchilar yuqori foydalilik darajasiga ega bo`lsa, ular soliq oshishiga kamroq darajada e`tibor beradi. Agarda, davlat xarajatlari aholini qondirmasa, soliq darajasi bo`yicha mehnatning elastik takliflari oshib boradi.

**Iqtisodiy faollikga ta`sir.** M. Fel`tstayn o`z asarlarida soliqni o`sishi, ayniqsa kapitaldan olingan daromad tortiladigan soliqqa o`sishi, itqtisodiyotda zahira mablag`lari o`sishiga olib kelib, bu holat insvestitsiyalar darajasiga salbiy ta`sir ko`rsatishi mumkin. Bunda ishlab chiqarish kengayishi uchun imkoniyatlarni qisqartiradi, hamda Yangi texnologiyalar tadbiq etilishini sekinlashtiradi. A. Laffer fikricha yuqori darajadagi soliqlar, ishbilarmonlik faolligini pasaytiradi, zero zahira mablag`lari ulushi miqdori tushadi. Ular, korxonalar daromadlilik darajasini pasaytirib, kapitalga foiz miqdorini tushiradi, va zahira mablag`larini foydjasiz qilib qo`yadi. Bunday sharoitlarda, tadbirkorlar bozordan chiqib ketishadi, yoki o`z kapitallarini chet elga chiqarishga majbur bo`lishadi. Eng achinarlisi soliqlardan qochish holatlari ham kuzatiladi. Bundan tashqari soliqlar aholi daromad darajasini tushirib, oqibatda zahira mablag`lari holatiga salbiy ta`sir etadi, hamda ishlash istagini emiradi. Natijada yuqori darajadagi soliqlar almashinuv ikki tomonlama samarani keltirib chiqaradi. YA`ni odamlarda ishlash istagi yo`qoladi, iste`mol darajasi esa investitsiyalarga nisbatan ko`proq bo`ladi.

Taklif iqtisodiy nazariyasi namoyandalarining fikricha yana ham salbiy ta`sir, davlatning to`g`ridan - to`g`ri iqtisodiy faoliyati tomonidan amalga oshiriladi. Bu holat bozor signallarini emirib, xususiy iqtisodiy agentlar prognozlariga noaniqlik kiritadi, va muvozanat mexanizmini buzadi. Bundan tashqari, taklif nazariyasi iqtisodchilari siqib chiqarish samarasi mavjudligi haqida ham gapirishgan (Kroudig Aut samara). Bozorda davlatning paydo bo`lishi, resurslarning xususiy sektordan davlat sektoriga o`tib ketishiga olib keladi, zero bu holat ham tavakkaldir. Bunda, davlat sektori samaradorligi iqtisodiy nazariyasi tarafdorlari tomonidan Shubha ostiga olingan. Mablag`larning yirik qismi iqtisodiy emas, ijtimoiy dasturlar amalga oshirilishiga yo`naltiriladi. Shu bilan birgalikda, davlat qaror qabul qilish o`ziga xos mexanizmlariga ega bo`lib, iqtisodiy harakat rayonalligi modeliga mos tushmaydi. Davlat strategiyasini siyosatchilar belgilab, ularni siyosiy kon`yunkturaga bog`liqligi sababli, iqtisodiy emas, siyosiy maqsadlarni amalga oshirishga harakat qilishadi. bu borada qabul qilinayotgan qarorlar mantiqsiz va qisqa muddatli bo`ladi.

**Davlat daromadlari darajasiga ta`sir.** Laffer samarasi. Taklif iqtisodiy nazariyasiga muvofiq, «katta davlat» xususiy moliyaviy bazasini emiradi. Soliqlarning yuqori darajasi, soliqqa tortiladigan bazan kamayishiga, hamda g`aznaga soliq tuShumlari qisqarishiga olib keladi. Bunday bog`liqlik Laffer

samarali nomini olgan. Mazkur samaraning grafik interpretatsiyasi 26.1.1-rasmda berilgan.



26.1.1-rasm

Ordinatalar o`qiga qarab o`rtacha soliq stavkasi hajmi aniqlanadi (T) abstsissa o`qi bo`ylab esa, byudjetga tushadigan soliq tuShumlari umumiy summasi belgilanadi (Y). T* nuqtasi soliq optimal stavkasiga muvofiq bo`lib, bunda soliq tuShumlari summasi maksimizatsiya etilib, u kichkina Y*ga teng bo`ladi. Egri chiziq formasi ham, qo`ng`iroq nomini olib, g`aznaga tuShumlar va soliq hajmi o`sishi bilan belgilanadi. Ammo, yuqorida ko`rsatib o`tilgan soliqni o`sishi iqtisodiy faollikga salbiy ta`sir o`tkazishi haqidagi fikrlardan kelib chiqib, davlat daromadlari o`sishi ko`rinishidagi soliqqa tortish stavkalari o`sishidan maksimal iqtisodiy faollik va Shu miqdorlari qisqaradi. Mo‘ayyan nuqtada u nolga teng bo`lib qoladi.

Soliqqa tortish optimal darajasi nuqtasi yoki sinish nuqtasi aniqlanadi (T*). Soliqlarning keyingi davrlarda oshirilishi, davlatning fiskal daromadlarini qisqarishiga olib keladi. 100% soliq stavkasi sharoitlarida davlat daromadlari 0 darajasiga teng bo`ladi.

26. 2. Iqtisodiy siyosat masalalari

Taklif nazariyasi iqtisodchilari tomonidan taklif etilgan iqtisodiy dastur, neoliberal bo`lib, davlat ulushining iqtisodiyotdagi hajmini qisqarishiga yo`naltiriladi. Unda monetaristlarning ko`plab tavsiyalari takrorlanadi. Nima bo`lganida ham, biz tilga olishimiz lozim bo`lgan qator farqlar ham mavjud. Birinchidan taklif iqtisodiy nazariyasi namoyandalari asosiy e`tiborlarini soliq yukini kamaytirishga qaratishgan. M. Fel`tstayn o`zining «Kapitalni soliqqa tortilishi» asarida (1983) yozganidek, aynan to`g`ri soliqqa tortish iqtisodiyotga yana o`sish imkoniyatini berib, qolgan barcha masalalarni echishga asos bo`la oladi (Yangi ish o`rinlari yaratish, byudjet defitsiti masalasi echilimi, inflyatsiya darajasi pasayishi). Ikkinchidan, ular davlat siyosat borasida siyosiy arboblarining

noratsional motivatsiyasi sababli mo‘ayyan ratsional siyosatni amalga oshirishini ham Shubha ostiga olishadi. Shu sababli monetaristlardan farqli o`laroq, ular markaziy bankning to`g`ri mablag` siyosat yuritishiga umid qilishmaydi. Umuman olganda taklif iqtisodiy nazariyasi namoyandalari monetaristlar qarashlarini ya`ni inflyatsiya ishsizlik masalasini echa olmasligi borasida qarashlarni qabul qilishadi. Ammo ular mazkur holatga nisbatan negativ munosabatda bo`lib, narxlar o`sishi, zahira mablag`lari qadrlanishiga, hamda investitsiyalar sekinlashishiga olib kelishini aytib o`tishadi. Shuningdek munosabatda ular byudjet defitsitiga nisbatan ham negativ munosabatlarini bildirishadi.

Soliq siyosati masalalariga keladigan bo`lsak, taklif iqtisodiy nazariyasi namoyandalarining fikricha, birinchi navbatda, investitsiyalardan olingan daromadlarga nisbatan soliq stavkalari pasayishi kerak, ayniqsa Yangi texnologiyalarga bo`lgan investitsiyalar, bu esa shaxsiy daromadlar o`sishiga olib keladi.

26.3. Yangi mumtoz iqtisodiy nazariyasi tarafdorlari

1970-yillarda paydo bo`lgan yangi mumtoz nazariya, “ratsional kutishlar maktabi” nomini olgan, zero uning nazariyasi asosida ratsional kutishlar haqidagi postulat yotib, bu holat iqtisodiy agentlar harakatlarini belgilash imkoniyatini beradi. Mazkur postulat 1960-yillarda amerikalik iqtisodchi Djon Frezer Mutt (1930-yilda tug`ilgan) tomonidan kiritilgan.

F.Nayt nazariyasi sababli, “Stokgol`m maktabi” ta`siri keynschilik va neokeynschilikni rivojlanishi sababli, kutilayotgan kattaliklar ko`pincha XX asr iqtisodiy nazariyasida qo`llanila boshlanib, noaniqlik masalasini dolzarblashtirdi. Zero mazkur masala iqtisodiy agentlar o`z harakatlarida kutilayotgan ko`rsatkichlarga asoslanishlari, bu esa real haqiqat bilan mos tushmasligi haqidagi fikrdan kelib chiqgan. Dj.Mutt, bozor ishtirokchilari birinchidan, barcha axborotni prognozlar uchun qo`llamasliklari, ikkinchidan esa, o`z xatoliklari asosida bilimlarini oshirishlari, va Shu orqali, bo`lajak iqtisodiy holatni oldindan bilishga harakat etishlari haqidagi taxminni ilgari surgan. Shu sababli Dj. Mutt, iqtisodiy agentlar ratsional kutishlaridan kelib chiqishni taklif etgan. Mazkur tezis Yangi mumtozlar metodologiyasi asosida yotadi.

Uslubiy ahamiyati. Ratsional kutishlar maktabi qator metodologik o`ziga xos xususiyatlariga ega bo`lib, ular yuqorida tilga olingan marjinalizm nazariyalaridan keskin farq qiladi. Birinchidan u mablag`larning to`liq neytralligidan kelib chiqib monetaristlardan farqli o`laroq, mablag` omiliga katta e`tibor qaratmaydi. Shu sababli, mazkur maktab, “Yangi mumtoz nazariya” nomini olgan. Mumtozlar kabi, ratsional kutish nazariyasini namoyandalari fikricha, mablag` omili bor - yo`g`i

parda bo`lib, u iqtisodiy tizim elementlariga ta`sir o`tkazmaydi. Bu borada ular keynschilik nazariyasidan farq qilmaydi, zero keynschilar ham mablag` ko`rsatkichlari o`zgarishi ishlab chiqarish hajmlari va iqtisodiyotdagi muvozanat nuqtasi ko`chishiga sabab bo`ladi deb hisoblashgan. Bunda ular mablag` ko`rsatkichlari ishlab chiqarish ko`lamlaridagi hamda iqtisodiyotdagi muvozanat nuqtasi o`zgarishiga olib keladi deb hisoblovchi keynschilardan ham nominal ko`rsatkichlar, garchi vaqtinchalik bo`lsa ham iqtisodiy holat va iqtisodiy agentlar harakatiga ta`sir etadi deb hisoblovchi monetaristlardan ham farq qilishadi. Yangi mumtozlar, mumtoz iqtisodiy nazariya g`oyalariga qaytib, bozor ishtirokchilari yuz berayotgan hodisalarni Shu darajada yaxshi baholashadiki, nominal ko`rsatkichlar o`zgarishiga ham e`tibor bermasdan, narxlar Yangi hajmlariga darhol moslasha oladilar deb hisoblashadi.

Ikkinchidan, mazkur maktab namoyandalari monetaristlar kabi iqtisodiyotga davlat aralashuvi keynschilik choralariga qarshi chiqishadi. Ammo Shu bilan birgalikda, monetaristlar tomonidan taklif etilgan choralarni ya`ni mablag` massasini nazorat etish chorasini ortiqcha deb hisoblashadi. Ularning nuqtai - nazaridan mablag` absolyut betarafligi sababli, mablag`larni nazorat etish, mutlaqo mazmunsizdir. U iqtisodiyotga ta`sir o`tkazmaydi. Albatta qisqa muddatli natija kuzatilishi mumkin bo`lsada, ular rivojlanishning tabiiy oqimiga ta`sir etmaydi va bor - yo`g`i chalkashliklarni keltirib chiqaradi xolos. Shunday qilib, mazkur maktab sof liberalizm pozitsiyalarida turadi, ya`ni davlatning to`lashi iqtisodiyotga aralashmasligi, va Shu bilan birgalikda iqtisodiy siyosatga mumtoz nazarlarini qayta kiritadi.

26. 4. Filips egri chizig`i atrofida munozaralar

Ratsional kutish maktabi namoyandalari monetaristlar bilan bir vaqtda Filipsning inflyatsiya darajasi va ishsizlik darajasi orasidagi o`zaro bog`liqlik haqidagi kontseptsiyasini tanqid ostiga olishdi. M. Fridmen kabi, ular iqtisodiy agentlar real ko`rsatkichlar o`zgarishlarini hisobga olishadi, Shu sababli, inflyatsiya sharoitlarida ish haqini nominal o`sishi, ularni o`z harakatlarini o`zgarishtirishga majbur qila olmaydi va kutilayotgan yo`nalishda bandlik darajasini o`zgartirmasligiga asoslanishgan.

Yangi mumtozlarning monetaristlardan pozitsiyalaridan farqi Shundaki, agar, monetaristlar Filipsning qisqa muddat egri chizig`i haqidagi ta`sirini tan olishsa, Yangi mumtozlarning fikricha, hattoki qisqa muddatli davrda ham egri chiziq vertikal tavsifga ega bo`ladi. Bunday qarama - qarshi fikrlarning sababi Shu ediki, monetaristlar adaptiv kutishlarga asoslanib, inson tomonidan olingan tajriba asosida shakllanishi haidagi fikrlarni bildirishgan. Shunday qilib, iqtisodiy

agentlar, ish haqi o`sishi shartliligini tushunib, faqatgina mo‘ayyan muddatdan keyin buni anglashadi.

Shunday qilib, iqtisodiy agentlar ish haqi o`sishi shartliligini faqatgina inflyatsiya natijasida narxlar o`sishi bilan to`qnashgach mo‘ayyan muddatdan keyin tushunishadi. Yangi mumtozlar esa, ratsional kutish nazariyasidan kelib chiqib, bu holatda kelajakni hozirda olingan tajriba asosida emas, davlat harakatlari ratsional tahlili, va mazkur harakatlar natijalarini oldindan bilishdan kelib chiqgan holda modellashtirishadi. Demakki, Filips egri chizig`i bo`yicha iqtisodiyotning yuqoriga harakati yo`nalishi siyosati davridayoq, iqtisodiy agentlar natijani prognozlashtirishadi, va o`z harakatlarini o`zgartirishmaydi. Buning natijasida mehnat bozoridagi talab va taklifni ta`siri natijasi saqlanib qolinadi va ishsizlik ko`rsatkichlari o`zgarmaydi.

26. 5. Iqtisodiy imperializm

Yuqorida aytib o`tilganidek, iqtisodiy imperializm nomini olgan iqtisodiy yo`nalishi uchun, iqtisodiy tahlilning inson faoliyati noiqtisodiy sohasiga ekspansiyasi xosdir. Bunday imperializm asosi, iqtisodiy fanda qabul qilingan, va universalnazariya sifatida ya`ni istalgan inson harakatini tasvirlab berishga asoslangan iqtisodiy vazifalarni echish imkoniyatiga ega bo`lgan modelga asoslanadi.. Mazkur yo`nalish namoyandalari nuqtai - nazarida iqtisodiy tahlil, nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy - institutlar harakatlarini interpretatsiya etish imkonyaitini beradi. Bunday mantiq asosida 1970-yillar boshida iqtisodiyot fanida iqtisodiy tahlilning Yangi sohalari ya`ni iqtisodiyot huquqi, oila iqtisodiyoti, jinoyat iqtisodiyoti va boshqalar shakllandi. Iqtisodiy imperializmning yorqin namoyandalari va asoschilaridan biri amerikalik iqtisodchi Geri Bekkerdir (1930-yilda tug`ilgan). O`z asarlarida. G. Bekker inson istalgan harakatini nazorat etuvchi noma`lum bozorlar mavjudligi haqida so`z yuritgan. Istalgan faoliyat turidan olingan daromad va zararlar tahlili, mazkur bozorlarning muvozanat garovidir. Masalan, Bekker ta`lim bozorini ko`rib chiqdi («Inson kapitali: nazariy va empirik tahlil» (1964)). Ushbu asarda ta`lim olish uchun sarflangan vaqt va moliyaviy xarajatlar uning tomonidan uzoq muddatli investitsiya sifatida qabul qilinib, bunday investitsiya haqida qaror qabul qilinishi, mazkur ta`limdan olingan daromadlar hajmidan kelib chiqilishini aytib o`tgan. Shunday qilib, insonnning mo‘ayyan jinoyatni amalga oshirish yoki oshirmaslik tanlovi ham interpretatsiya etilgan («Jinoyat va jazo: iqtisodiy yondashuv» (1968)), ya`ni amalga oshirilgan jinoyatdan olingan daromad va uning ochilgan taqdirida, yuzaga keladigan xarajatlar mutanosibligi e`tiborga olinadi (Shu jumladan mazkur jinoyat ochilish ehtimoli ham). Bekker tomonidan taklif etilgan yondashuv, o`z rivojlanishida

iqtisodiyot fikri keng ya`ni jamoatchilik tanlovi nazariyasi doirasida Yangi yo`nalishi doirasida ega bo`ldi. Mazkur nazariyaning yirik namoyandalari sirasiga Dj. B`yukenen (1919 yilda tug`ilgan, 1986 yilda Nobel` mukofoti sovrindori), G. Tallop, T. Ertssonlar kiradi. Mazkur iqtisodchilar ratsional harakatlar maksimizatsiya modelini turli siyosiy tuzilmalarda qaror qabul qilinish jarayonida qo`llashadi. Albatta, bunda harakatning murakkabroq motivatsion modeli ham mavjud. Xususan, siyosiy institutning asosiy maqsadi, hukmronlikni saqlab qolishdir. Ammo, tadqiqotning umumiy printsipi saqlanib qolinib, u ko`zda tutilgan maqsadlar erishilgan taqdirda u yoki bu tuzilmalar ishlari samaradorligi tahliliga asoslanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Taklif iqtisodiy nazariyasi maktabi nomining mazmunini tushuntiring.
2. Taklif nazariyasiga muvofiq ishsizlik darajasiga davlat siyosatining salbiy ta`siri nimada?
3. Taklif nazariyasiga muvofiq ishbilarmonlik faolligi darajasiga davlat siyosatini salbiy ta`siri nimada?
4. Laffer samarasi nima? Uning grafik interpretatsiyasini bering.
5. Taklif iqtisodiy nazariyasi namoyandalari iqtisodiy dasturlarining monetaristlar tavsiyalaridan farqi nimada?
6. Ratsional kutish va monetarizm maktablari orasidagi printsipial farq nimada?
7. Nima sababdan ratsional kutish maktabini Yangi mumtozlar deb atashadi.
8. Filips egri chizig`i interpretatsiyasi va monetar interpretatsiya orasidagi, hamda ratsional kutish maktabi orasida farq nimada?
9. Adaptiv va ratsional kutish orasidagi farq nimada?
10. Iqtisodiy imperializm tushunchasini tushuntiring.
11. Bekker ta`lim bozorini qay tarzda interpretatsiya etadi?
12. Mazkur yondashuv bo`lajak rivojlanishini qanday Yangi nazariya asosida ega bo`ldi.

Mavzu bo`yicha adabiyotlar ro`yxati:

1. Беккер Г. Экономический анализ и человеческое поведение // ТЕЗИС, теория и история экономических и социальних институтов и систем. Т. 1 Вип. 1. 1993. С. 24-40.
2. Беккер Г. Человеческое поведение: экономический подход. Избранные труды по экономической теории. М.: ГУ-ВШЭ, 2003.
3. «Экономика предложения»; теория и практика. М., 1986.

XXVII-BOB. NEOAVSTRIYA MAKTABI

27.1. Metodologik nuqtai nazar

Neoavstriya maktabi nazariyalarini talqin etishdan oldin, iqtisodiyot fanidagi Avstriya an`analari qisqacha tavsifini berib, Avstriya va neoavstriya maktablarining metodologik farqlarini aniqlab olamiz.

Marjinalistik inqilob natijasida paydo bo`lgan Avstriya maktabida, dastlabki davrlarda mazkur yo`nalish boshqa namoyandalari orasida metodologik yondashuvining o`ziga xosligi bilan farq qilar edi. Xususan: birinchidan, u iqtisodiyot fanida matematik uslublar qo`llanilishiga keskin salbiy munosabat bildirib, umuman tabiiy fanlar modeli bo`yicha mazkur turdagi bilimlar qurilishiga qarshi edi, ikkinchidan, mazkur maktab namoyandalari nazariyalari, o`zining ketma - ket sub`ektivizm bilan farq qilar edi. Induktiv uslubni qo`llagan holda Avstriyalik iqtisodchilar ketma -ket ravishda o`z nazariyalarini foydalalik sub`ektiv baholanishida chiqarib olishdi. Uchinchidan avstriya maktabi, mumtoz uslubiyatning sabab - natijaviy tahlilni saqlab qoldi.

Neoavstriya maktabi, bir namayondalari tomondan o`z tarafdorlari an`analarini davom ettirdi. Shu bilan birgalikda, u matematik uslublarni e`tiborga olmasdan, iqtisodiyot fani stsintizmiga qarshi chiqgan, ya`ni nazariyani tabiiy fanlar modeli bo`yicha predmet o`ziga xosligini inobatga olmasdan inson harakatlari bilan bog`liq nazariya qurilishiga qarshi edi. Neoavstriya maktabi, avstriya maktabi kabi sub`ektivizmi bilan farq qilib, makroiqtisodiy yondashuv, hamda istalgan agregatsiyalangan ko`rsatkichlarga ishonmasdi. asosiy e`tibor alohida individlar harakatlari, real hayotning sub`ektiv qabul qilinishi masalalariga qaratilgan.

Boshqa tomondan neoavstriya maktabi, o`zining oldingi namoyandalari metodologiyasini qayta ko`rib, qator iqtisodiy holatlar bo`yicha ilmiy Yangiliklar kiritgan. Xususan iqtisodiy holat taxlilida maktabi induktiv yondashuvidan chetlashdi. Yangi nazariya asoschisi Lyudvig fon Mizes iqtisodiy qonuniyatlarning universal va aprior tavsifidan kelib chiqgan. U inson harakati haqida, insonga xos bilimlar mantiqiy tahliligaasoslangan.

Bundan tashqari sub`ektivizm uslubi ham qayta talqin etgan. Agar avstriya maktabi individlar faqat sub`ektiv baholanishini tadqiq etgan bo`lsa, neoavstriya maktabi, iqtisodiyotning individ va real haqiqat tomonidan sub`ektiv qabul qilinishiga asoslangan.

27. 2. “Tarqatma bilim” kontseptsiyasi

Iqtisodiy harakatni tahlil etar ekan, Fridrix fon Xayek neoavstriya maktabi ilg`or namoyandasi sifatida iqtisodiy axborot, ya`ni ishlab chiqarish faoliyati imkoniyatlari haqidagi bilim va iste`molchilar ta`biga qarab, bilimlarga faqatgina alohida individ, u ham bo`lsa faqatgina o`ziga nisbatan ega bo`ladi deb xulosa qiladi. Biror - bir inson, boshqa insonning didi, yoki xo`jalik rejalari haqidagi aniq axborotga ega bo`lmaydi.

Bundan tashqari, bozorning xar bir ishtirokchisi ega bo`lgan axborot, to`la ravishda formalizatsiya etilishi, va bozorning boshqa ishtirokchilariga adekvat ravishda uzatilishi mumkin emas. Muammo Shundaki, mazkur individual bilimlarning asosi sifatida, rivojlantirilgan hissiyot, intuitsiya bo`lishi mumkin, u tahlil etilib, talqin etilishi mumkin emas, demakki bunday tajribaga ega bo`lmagan insonga uzatilishi imkoniyati ham yo`q.

Mazkur xulosalar asosida, F. Xayek xulosa qiladiki, iqtisodiyotda bilimlar tarqatma tavsifga ega. Biror – bir shaxs, bozorning boshqa ishtirokchilari haqida to`liq axzborotga ega emas, demak sub`ekt o`zi haqidagi axborotni boshqalarga to`liq ravishda uzata olmaydi, va bozorning boshqa iqtisodiy sub`ektlari uning iqtisodiy ta`bi, biznesdagi muvaffaqiyati haqida axborotga ega bo`lmaydi.

27. 3. Fridrix Fon Xayekning “Bozor” kontseptsiyasi

Agarda axborot tarqatma bo`lsa, savol tug`iladi: individlar qay tarzda faoliyat yuritishadi, harakat mo‘ayyan variantini tanlashda nimaga asoslanishadi, ularning o`zlariga nisbatan ega bo`lgan qisman bilimlar muvaffaqiyatli iqtisodiy harakat uchun etarli emas. F. Xayek fikriga bu holda ularga bozor munosabatlari yordamga keladi. Bozor mexanizmi qurilma indikatorlar, ya`ni narx ko`rsatkichlariga ega. Bu ko`rsatkichlar, tanlov variantlari va bozor boshqa ishtirokchilarining ishlab chiqarish imkoniyatlarini ko`rsatadi. Narxlardagi o`zgarish, ta`bdagi yuzaga kelgan o`zgarishlar, hamda individlar imkoniyatini ko`rsatadi. Bozor mavjud bo`lganda, tadbirkor, o`zining mahsulotiga nisbatan xaridorlarning ehtiyojlarini aniqlashi shart emas. Insonlarning maqsadlarini, demakki ularning ratsional yo`l bilan harakatlarini oldindan bilish imkoniyati yo`q. Bozor esa, amalga oshgan faoliyatlarni inobatga oladi, ya`ni xaridning oshishi, tovarga nisbatan narxning avtomatik ravishda oshishiga olib keladi, va aksincha, mo‘ayyan mahsulotga bo`lgan qiziqishni pasayishi, uning narxini tushiradi. Narx signallarini o`rgangan tadbirkor, bozor kon`yunkturasi haqidagi zarur axborot olish imkoniyatiga ega bo`ladi va axborot asosida o`z harakatini rejalashtiradi. Bozor yana bir muhim vazifani bajaradi. Bozor, va faqatgina bozor, qanday iqtisodiy

harakat samarali va qaysi harakat samarasiz ekanligini aniqlash imkoniyatiga ega. F. fon Xayek nuqtai nazarida, ratsional yo`l orqali mazkur masalaga ilmiy tahlil uslubi vositasida javob berib bo`lmaydi. Faqatgina faoliyat natijalariga qarab, mazkur harakat reallikka nisbatan adekvat bo`lganligi yoki bo`lmaganligi haqidagi savolga javob berish mumkin. Agar, tadbirkor, daromad olib o`z biznesi rivojlanishiga erishsa, u iqtisodiy nuqtai - nazardan to`g`ri harakatni tanlagan bo`ladi, ya`ni uning harakatlari iqtisodiy jihatdan samaralidir. Agarda zarar ko`radigan bo`lsa, demak uning harakatlari iqtisodiy jihatdan samarasiz bo`ladi. Mazkur masala borasida, F. Xayek, alohida empirizm nuqtai nazarini bildirgan. Uning g`oyasini asosida Shundaki, u yoki bu harakat samaradorligi darajasini ratsional taklif asosida baholash mumkin emas. Faqatgina hayot va amaliyot barcha narsalarga baho berishi mumkin.

Antiratsionalizm

Tarqatma bilim haqidagi kontseptsiyasini rivojlantirar ekan F. fon Xayek mumtoz iqtisodiy nazariyaga xos bo`lgan ideal, turli iqtisodiyot rejaviy nazoratiga ishonuvchi nazariyalar uchun asos bo`lsada, printsipial ravishda amalga oshirilishi mumkin emas deb xulosa qiladi. Mumtoz iqtisodchilar, inson o`z tafakkuri yordamida, iqtisodiy qonuniyatlarni ochish, va olingan bilimlar asosida o`z harakatlarini ratsionallashtirish imkoniyatiga egaligiga asoslanishgan, demak, buning orqasidan iqtisodiy mexanizmni ratsionallashtirish mumkin. Bunday optimizmning mantiqiy xotimasi, F. fon Xayek fikricha, turli ijtimoiy nazariyalardan kelib chiqib, hukumatning iqtisodiyotga aralashuvi kontseptsiyasi shakllanishidir. Agar, fan yordamida harakat ratsional yo`llarini topish printsipial imkoniyati tan olinadigan bo`lsa, bu holat bevosita jamiyat rivojlanishi turiga aloqador iqtisodiy rivojlanish optimal variantini hisobga olish imkoniyatiga ega bo`lgan ilmiy asos beruvchi yagona koordinatsion markaz yaratilishi g`oyasi ham yuzaga keladi.

Antiratsionalizm g`oyalari asosida, F. fon Xayek o`zining ijtimoiy tizim tanqidini ko`rib, mazkur mavzuga bag`ishlangan asarlaridan birini “emiriluvchan o`ziga ishonch” (1988) deb nomladi. Xayek o`ziga ishonuvchan ratsionalizmni tanqid ostiga olgan. Ingliz skeptitsizmi an`analarini davom ettirgan holda, u juda ham ehtiyotkorona ravishda inson tafakkuri imkoniyatlarini baholab, ta`kidlaydiki, insoniyat ideal fikr va ong imkoniyatlariga ega emas, va mavjud imkoniyatlar unga o`zlarini qiziqtirayotgan predmet haqida zarur axborotni akkumulyatsiya etish, uni tahlil etish, tizimga to`la tadbiq etishga yo`naltirish, va o`zlari uchun mazkur tizim doirasida ratsional harakatni belgilab olish imkoniyatini bermaydi. Birinchidan, inson tafakkuri bunday bilim hajmlarini qo`llashga qodir emas. Ikkinchidan, inson, faqatgina formalizatsiyalangan bilimlarni tahlil etish imkoniyatiga ega bo`lib, uning bilimlari, so`zlar va mantiqiy konstruktsiyalarga asoslangan. F. fon Xayek

nuqtai nazaricha, qadriyati bo`yicha o`ziga xos bilimlarga ega bo`lgan amaliy tajriba, mantiqiy konstruktsiya va abstraktsiyalarning sodda tilga o`zgartirilishi, uning emirilishiga olib keladi. Bilimlar amaliyotdan qancha uzoq bo`lsa, ularning dolzarbligi ham Shu darajada past bo`ladi.

Liberalizm g`oyalari himoyasi.

F.Xayek nazariyasida bozor ikki muhim iqtisodiy vazifani ya`ni iqtisodiy kon`yunktura holati haqida axborotlar beradi va ishlab chiqarish vazifasi individual eng yaxshi echimi saralashini amalga oshiradi. Bundan, F. Xayek iqtisodchilar oldiga qo`yilgan asosiy talab keltirib chiqaradi. Bu talab, bozor erkinligini ta`minlashdir. Uning tan olishicha, bozor, iqtisodiy agentlar harakatlari boshqaruvining eng samarali vositasi emas, ammo bu yagona vositadir. Tashqaridan istalgan aralShuvlar, istalgan iqtisodiy tizimni nazorat etish harakatlari, narx signallari o`zgarishiga olib kelib, demakki iqtisodiy agentlar, iqtisodiy kon`yunktura haqidagi yolg`on axborotga ega bo`lishadi. Iqtisodiy nazorat, saralash jarayonini ham emirib, xo`jalik yuritishning samarasiz shakllarini rivojlanishi uchun sharoit yaratib beradi.

Hukumatning istalgan aralashuvi, ya`ni antimonopoliya siyosatidan tortib, aholining kambag`al qatlamlari yoki ishsizlarga yordam berish ijtimoiy dasturlarigacha yolg`on signallar paydo bo`lishiga olib keladi. Bu holat istalgan hukumat monopoliya shakllariga tegishli bo`lib, hattoki pul chiqarish monopoliyasiga ham ta`sir etadi. Shu nuqtai nazardan F. Xayek xususiy mablag` nazariyasini ilgari suradi. Uning ta`kidlashicha, hukumatning pul birliklarini bosishga xususiy huquqi, bozor signallarini buzishga olib kelib, bu signallar iqtisodiyotga qancha pul birliklari miqdori zarurati haqidagi axborotni chalkashtiradi. Bundan tashqari, bunday huquqga ega holda, hukumat doimiy ravishda bozor faoliyatiga aylanmadagi mablag` hajmini nazorat etish orqali aralashadi. F.Xayek, inflyatsiyaning asosiy sababi, iqtisodiyotda al`ternativ mablag`lar mavjud emasligi bilan bog`liq dngan tezisni ilgari suradi.

Mazkur muammo echimini u, valyutalar raqobatchilik bozori yaratilishida, ya`ni xususiy mablag` bozori yaratilishida deb biladi. Mazkur echimni u xususiy mablag`lar, ya`ni raqobatchilik valyuta bozorini yaratishda deb biladi. Uning fikricha, pul birliklarini chiqarishga markaziy bank monopoliyasini buzishning yagona usuli, xususiy banklarga o`z valyutasini chiqarish huquqini berishdir. Mazkur valyutalar raqobatchiligi, mablag` bozorini sog`lomlashtirib, hisob - kitobning samarali vositalarini aniqlash imkoniyatini beradi.

Nazorat uchun savollar:

1. Avstriya va neoavstriya maktablarining farqi, va umumiy jihati nima?
2. Nima sababdan F. Xayek nazariyasiga muvofiq, bilim tarqatma tavsifga ega bo`ladi.
3. F. Xayek nazariyasida erkin bozor qanday vazifalarni amalga oshiradi?
4. Neoavstriya maktabi ijtimoiy nazariyalari tanqidi, nima asosida quriladi?

Mavzu bo`yicha adabiyotlar ro`yxati:

1. Мизес Л. Либерализм. М.: Экономика, 2001.
2. Мизес Л. Человеческая деятельность. Трактат по экономической теории. М.: Экономика, 2000.
3. Хаек Ф.А. Индивидуализм и экономический порядок. М.: Изограф, 2001.
4. Хаек Ф.А. Пагубная самонадеянность. М.: Новости, 1992.
5. Хаек Ф.А. Дорога к рабству. М., 1992.

XXVIII-BOB. NEOINSTITUTSIONALIZM

28. 1. Neoinstitutsionalizm oqimi

Zamonaviy neoinstitutsional yo`nalishi o`z tarkibiga, birinchi navbatda umumiy iqtisodiy tadqiqot predmetini birlashtirgan qator nazariyalarni oladi. Mazkur predmetlar jumlasiga, jamiyat institutlari, ularning yuzaga kelish printsiplari, faoliyati va evolyutsiyasi kabilar kiradi.

Neoinstitutsionalizm oqimi nomi XX asr boshida shakllangan institutsionalizm ta`limotining davomi degan fikrni keltirib chiqarishi mumkin. Mazkur ikki yo`nalishni birlashtiruvchi yagona holat, bu iqtisodiy tahlil predmetining umumiyligidir, ya`ni iqtisodiy institutlarni tahlil etishga qiziqish, hamda marjinalistik tahlil uslublariga nisbatan tanqiddir. Institutsionalistlarning, ham neoinstituttsionalistlarning xam fikriga ko`ra, iqtisodiyotni institutsional tuzilishini adekvat ravishda tasvirlab bera olmaydi. Neoinstitutsionalistlar nuqtai - nazariga ko`ra neomumtoz yo`nalish institutlar faoliyatiga ta`sir ko`rsatuvchi muhim omillarni ya`ni: noaniqlik omimli, axborotlar cheklovi, iqtisodiy agentlarga nisbatan axborot emirilishi; insonlar va firmalar harakatlari motivlari xilma - zilligi, individ va firma manfaatlarining o`zaro mos tushmasligi kabi omillarni inobatga olmayli. Bu jihatdan neoinstitutsional yo`nalishi, evolyutsion iqtisodiy nazariya va neoavtsriya maktabi pozitsiyalariga yaqin turadi.

Metodologiya. Neoinstitutsional nazariyalarni birlashtiruvchi qator metodologik yondashuvlarni garchi ular asr boshi instituttsionalizm bilan bir vaqtning o`zida farq qilib, turli yo`nalishlarga ega bo`lishsa ham. Birinchi navbatda, metodologik individualizm printsipi, ko`pchilik jihatdan mazkur oqim iqtisodchilari tomonidan ketma -ket ravishda neomumtozlarga nisbatan ko`proq qo`llanilsa ham ajratish mumkin. Nazariya asosiga individ harakatlari tahlili olinib, qolgan barcha iqtisodiy jarayonlar mazkur tahlil orqali jumladan, iqtisodiy institutlar harakati ham (turli firmalar, hukumat va boshqalar) ko`rib chiqiladi. Mazkur usul neoinstitutsionalizmni institutsional nazariyadan farqlaydi, zero institutsional nazariya, bunday yondashuvga qarshi chiqib, institutlarni jamoatchilik tashkilotlari sifatida ko`rib chiqib, ularning harakatlari alohida iqtisodiy agentlar harakati bilan bog`liq emas deb hisoblagan. Neoinstitutsionalistlarning fikricha, jamoatchilik bozor ishtirokchilari harakatlari alohida insonlar irodasiga bo`ysinadi, zero bu insonlar ularning mulkdorlari sifatida ish foliyatini boshqarishadi.

Neoinstitutsional nazariya printsipial ravishda davlat va uning iqtisodiyotdagi rolini o`zgacha tarzda talqin etadi. Davlat iqtisodiyotda alohida institut sifatida qabul qiladi. Hukumat tuzilmalari insonlardan iborat, ularning

faoliyati esa, istalgan xususiy firma xodimlari harakatlaridan farq qilmaydi. Ular ham firma xodimlari kabi, mo‘ayyan tarzda ratsional, egoistik faoliyat turi bilan ajralib turib, (ya`ni noratsional), bozor signallariga ham tabiiy ravishda javob berishadi (yoki mazkur signallar nomuvofiqligiga). Mazkur institutning samaradorlik darajasi esa, istalgan tashkilotning boshqa formasi kabi samarali baholanishi zarur.

Neoinstitutsionalizmning institutsional nazariyadan ikkinchi metodologik farqi, tahlilning tarixdan tashqari tavsifi bilan bog`liq. Neoinstitutsional nazariyalar, universal va umumiy tavsifga ega qonuniyatlarni ochish bilan Shug`ullanadi. Mazkur qonuniyatlar, barcha iqtisodiy ishtirokchilar uchun, haqiqiydir (institutlar, alohida individlar). Ularning yordamida istalgan iqtisodiy tizimlar, istalgan tarixiy davrda tasvirlanishi mumkin.

Umumiy metodologik yondashuvlardan tashqari, neoinstitutsional yo`nalishga kiritilgan nazariyalar mo‘ayyan farqlarga ham ega. Tahlil uslubi bo`yicha, ularni eng kamida ikki asosiy guruhga bo`lish mumkin. Birinchi guruh tarkibiga, asoslari R. Kouz O. I. Uil`yamson, D. Nort, R. Fogel`, R. Tomas nazariyalari kiradi, ular o`z tadqiqotlarida iqtisodiy tuzilmalar tadqiqoti uchun transaktsion tahlillarni qo`llaydi. Ikkinchi yo`nalish, birinchi yo`nalishga metodologik jihatdan yaqin bo`lib, mulkdorlik huquqlari nazariyasiga tahlil jihatidan yondashadi (A. Alchian, X. Demsets).

28. 2. Transaktsion xarajatlar nazariyasi

O.I. Uil`yamson «Yangi institutsional nazariya» nomi ostida birlashtirgan transaktsion xarajatlar nazariyasi, transaktsion tahlilga asoslangan institutlar tabiatini tahliliga nisbatan Yangicha yondashuvni taklif etishi bilan tavsiflanadi. Transaktsion xarajatlar nazariyasi asoslari, ingliz iqtisodchisi Ronal`d Kouzning «Firma tabiati» (1937) maqolasida keltirilgan, ammo Shunga qaramay tan olish kerakki, bunga o`xshash g`oyalarni F. Naytning «Tavakkal, noaniqlik va daromad» va Dj. Kommansning ilk marotaba transaktsiya atamasi qo`llanilganligi haqidagi asarlarda ham topish mumkin. Kouz tomonidan taklif etilgan “keng rivojlangan” kontseptsiyasi 1970-1980-yillarga kelib ommalashdi. 1991-yilda R. Kouz, firma nazariyasi bo`yicha ishlanmasi uchun, Nobel` mukofotiga sazovor bo`lib, uning nazariyasi Kouz teoremasi deb atala boshlandi.

«Firma tabiati» asarida R. Kouz bozorda nima sababdan firmalar yuzaga kelishi masalasini ko`targan, uning yozishicha, individlarning o`zaro ta`siri bozor printsiplari qator muammolar bilan bog`liq bo`lib, ular iqtisodiy faoliyat xarajatlarini oshiradi. Bu xarajatlar tarkibiga kelishuvlarni amalga oshirish bo`yicha xarajatlarni olib, bular sirasiga hamkor qidirish, kelishuvlarni yuritish,

shartnomalar imzolash, hamda aloqalarni o`rnatishni oladi. Mazkur turdagi barcha xarajatlarni Kouz yagona tushuncha, ya`ni transaktsion xarajatlar tushunchasiga birlashtirgan. Mazkur xarajatlarni kamaytirish maqsadida, insonlar firmalarga asos solishadi, firmalar esa, mo‘ayyan munosabatlar stabilizatsiyasi shaklidan o`zga narsa bo`lmay o`zaro foydali mo``tadil aloqalarga aylanadi. Bularning barchasi transaktsion xarajatlar miqdorini tushirish imkoniyatini beradi.

Nima sababdan barcha bozor kelishuvlari firma ichki kelishuvlariga aylanmasligi borasidagi savolga javoban, Kouz - «firmani kengaytirish uchun, firma ichki xarajatlarini oshirish kerak bo`lib, bunda birinchi navbatda byurokratizatsiya xarajatlari, nazorat xarajatlari, hamda boshqarish xarajatlari ilg`or nuqtalarga ko`tariladi» deb ta`riflaydi. Bundan muallif xulosa qiladiki, firmani yaratish haqidagi qaror, transaktsion xarajatlar firmani tashkillashtirish bo`yicha xarajatlar kattaligidan oshgan taqdirda qabul qilinadi.

Bozor aloqalarini yutish, va ularni firma doirasiga kiritish jarayoni, bozor operatsiyalari xarajatlari bilan solishtirilmagan tashkilot ichki maksimal xarajatlari davom etgunga qadar davom etadi. Bunda Kouz tomonidan tahlilning Yangi varianti taklif etilib, uning asosida, xarajatlar ikki turini taqqoslash yotadi, ya`ni transaktsion va firma ichki xarajatlarini taqqoslash yotadi. Bu holat esa, firma hajmi samaradorligini aniqlash imkoniyatini ham, uning tarkibiga kiritilgan kelishuvlar tuzilmasini ham baholash imkoniyatini berib, natija asosida, qaysi operatsiyalarni bozorda, qaysilarini esa firma doirasida amalga oshirish foydaliroq ekanligiga baho beriladi.

Mazkur Yangi uslub, keyingi davrlarda faol tarzda amerikalik iqtiisodchi O.I. Uil`yamson tomonidan turli iqtisodiy tashkilotlarning turli ko`rinishlarini qiyosiy tahlili usullarini ishlab chiqarish uchun qo`llanilgan («Vertikal bozor tuzilmalarining»). Uil`yamson o`zining «Bozorlar va ierarxiya: antimonopoliya nazorati uchun tahlil va xulosalar» (1975), «Kapitalizm iqtisodiy institutlari» (1985), «Boshqaruv mexanizmlari» (1996) asarlarida, firma ichki kontraktatsiya va bozor kontraktatsiyasi orasidagi qiyosiy ilg`orliklar tahlili usulini ishlab chiqadi. U vertikal integratsiya hajmlari va mexanizmlarini ham, umumiqtisodiy isloxotlar va hukumat antimonopoliya siyosati samaradorligini ham baholash imkoniyatini beruvchi modellarni taklif etadi. O.I.Uil`yamson tomonidan iqtisodiy institutlar turli kontraktatsiya ko`rinishlari sifatida taklif etadi, ya`ni ishlab chiqarish va sotish zanjiri alohida bosqichlari bilan kelishgan holda kelishuvlarni amalga oshirish va shartnomalarni imzolashning turli variantlari sifatida. Ularning qiyoslanishi, shartnomaning qaysi turi samaraliroq ekanligi asosida amalga oshirilib, bunda transaktsion xarajatlar tejalishi nuqtai - nazaridan kelib chiqiladi, ya`ni tanlov bozor va firma ichki masalasi orasida amalga oshiriladi. Buning uchun u qator aspektlarni ko`rib chiqib, bunda u yoki bu turdagi kelishuv samarasidan

kelib chiqadi. Ulardan birinchisi opportunistik harakat mavjudligidir. Aynan opportunistik harakatning nazariyasi Uil`yamsonning iqtisodiy tahlilga qo`shgan muhim hissasidir. U firma yuzaga kelish sabablari, va transaktsion xarajatlar mavjudligini psixologik asoslarini ochilishiga imkoniyat yaratdi. Uning nazariyasida, opportunizm ikki shaklga ega – ex-ante va ex - poste ega. Birinchisi, shartnoma imzolash bosqichsida paydo bo`lib, axborot cheklovining mumtoz shartidir. Ammo uning o`ziga xos farqli jihatiga ega. bunda axborot, shartnoma taraflarida shaxsiy strategik manfaatni keltirib chiqarish uchun atayin o`zgartiriladi. Kontragentning chalkashtirilishi, yoki xatolik uchun imkon yaratib berishi, o`z strategik maqsadlariga erishish uchun amalga oshirilib, shartnomaning bir tomonlama foydali ravishda imzolanishiga olib keladi. Ex-poste opportunistik harakati esa shartnoma shartlarini bajarishdan bosh tortish, yoki kompensatsion sug`urta to`lovlariga olib kelishi mumkin bo`lgan nomajburiy harakatlarni amalga oshirishga qaratiladi. Bundan Uil`yamson axborot qay darajada to`liqsiz bo`lsa yoki, opportunistik tavakkali qay darajada yuqori bo`lsa, mazkur turdagi shartnoma ham firma ichki shartnomasiga aylanish imkoniyati yuqori bo`ladi deb xulosa qiladi.

Imzolangan shartnoma tavsifini belgilovchi yana bir omil o`ziga xos resurslarning mavjudligidir. O`ziga xos resurslar, bu resurslarning qaysi sohada qo`llanilishiga bog`liq bo`lgan foydalilik darajasidir. Bunday resurslarga investitsiya kiritish haqidagi qarorlar yuqori tavakkalchilik bilan uzviy bog`liq bo`lib bu tavakkalchilik darajasi, yuqori darajadagi xavf bilan bog`liqdir. Standart resurslarga investitsiyalar kiritishdan-da yuqoriroqdir, zero ularning o`ziga xos belgilangan shartnoma doirasidan tashqarida qo`llanishi imkonsiz, yoki nihoyatda daromadsizdir. Bu borada, shartnoma bekor qilinishidan kelib chiqadigan xarajatlar juda yuqori bo`lib, mo`tadil shartnoma kafolatlari yuqoriroq darajadagi qadriyatga ega bo`lib, ishbilarmon hamkorlarning bir - biriga yaqinligi muvofiqligiga yaqin bo`ladi. Bu darajadagi yuqori mo`tadillik kafolatdagi shartnomalar, firma ichki aloqalari sohasiga o`tadi.

Shartnoma munosabatlari turini belgilashdagi muhim rol`ni, o`ziga xos resurslar bo`yicha amalga oshirilgan shartnomalar chastotasi ham o`ynaydi. Agar shartnomalar doimiy bo`lmasa, ularning firmaning asosiy qismiga kamdan - kam holatda aylanadi. Ammo, agarda shartnomalar doimiy tavsifga ega bo`lib, ularning chastotasi yuqori bo`lsa, bu holat firma ichki tashkiliy tuzilmasi qismiga aylanadi.

Umuman olganda Uil`yamsonning ta`kidlashicha bozor sodda shartnomalar nazorat etuvchi mexanizm bo`lib, firma murakkab shartnomalarni nazorat etadi, va bu shartnomalar opportunistik harakat imkoniyati, hamda o`ziga xos resurslarni boshqarish bilan bog`liqdir.

Bozor yoki firma ichki shartnomasi qiyosiy samaradorligini baholashdagi yana bir muhim omil, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan rag`batlarning qiyosiy tahlilidir. Raqobatchilik bozori harakati bilan bog`liq bozor rag`batini Uil`yamson « yuqori kuchga ega rag`bat» deb atab, uni bozorning ilg`or imkoniyatlari kiritadi. Firmalar tomonidan qo`llanilgan motivatsiya, kuchsiz quvvat rag`batlari deb ataladi. Motivatsion omil, firma kengayishi uchun cheklangan ahamiyatga ega bo`ladi.

«Kouz teoremasi» va mulkdorchilik huquqlari nazariyasi.

1960-yilda, R. Kouz «Ijtimoiy xarajatlar muammosi» asarini nashr etib, unda tashqi samara masalasiga e`tibor qaratdi.23 Mazkur masala mohiyati Shundaki, bozor mo‘ayyan ishtirokchisi harakatlari, boshqa iqtisodiy agentlarga zarar ko`rsatishi, yoki aksincha foyda keltirishi, mumkin bo`lib, bunda ishlab chiqarish xarajatlari tahlilida bu holat e`tiborga olinmaydi (yoki daromadlar). Natijada, jamoatchilik noeffektiv resurslar taqsimlanishi masalasi yuzaga keladi, ya`ni salbiy eksternaliyalarga ega bo`lgan tovarlarning keragidan ko`proq ishlab chiqarilishi va ijobiy eksternaliyalarga ega tovarlarning etarli darajada ishlab chiqarilmasligi yuzaga keladi. O`z asarida, Kouz XX asr boshida ingliz qtisodchisi A. Pigu tomonidan taklif etilgan mazkur masala echimini Shubha ostiga oladi, zero A. Pigu, tashqi samaraga ega bo`lgan tovarlar ishlab chiqarilish hajmining davlat tomonidan nazorat etilishi zarurligi g`oyasini ilgari surgan (jarima, soliq va subsidiyalar tizimi vositasida). R. Kouz ta`kidlashicha, tashqi samara yuzaga kelish sabablari bozor qulashida emas, balki barcha resurslarga mulkdorlik himoyalangan va aniq huquqlari mavjud emasligidadir. Tashqi samara hisobga olinmaganligi sababli mulkdorlik hisobga olinmagan huquqlarining buzilishidadir. Aytaylik, mo‘ayyan zavod daryodagi suvni ifloslantiradi, bu holat yaqin masofadagi qishloq aholisini iqtisodiy holatini yomonlashtiradi, zero qishloq aholisi baliqchilik hisobidan kun kechiradi. A. Pigu nuqtai nazaridan xarajat va daromadlar muvozanatini saqlab qolish uchun ekologik soliq kiritish lozim. R. Kouz ta`kidlashicha esa, bunday harakatlar samaradorlik printsipiga muvofiq emas. Birinchidan ular, majburiy tavsifga ega, ikkinchidan ular, eksternaliyalarning ham ular bilan kurashishning ham simmetrik tabiatini hisobga olmaydi. baliqchilarni himoya qilish maqsadida zavodga nisbatan kiritilgan cheklovlar faqatgina ifloslanishdan baliqchilarning zararlarini hisobga olishadi, ammo bunday cheklovlar natijasida korxona olishi mumkin bo`lgan zararlarni hisobga olmaydi. Agar eksternaliyalar yuzaga kelishi iqtisodiy zararlarga olib keladigan bo`lsa, eksternaliyalar likvidatsiyasi ham iqtisodiy zararlarga olib keladi. Shu sababli, Kouz fikriga muvofiq, har ikkala zarar turlaridan jamiyat uchun qay biri kamroq darajada zarar keltirishini hisobga olish lozim. Bunda ifloslanishdan olingan zarar,

mazkur ifloslanishni bartaraf etilishidan olingan zarardan ko`ra, kamroq bo`lishi mumkin.

Xarajatlarni mazkur resurs bo`yicha har ikkala tomon erkin kelishuvlari asosidagina taqqoslash mumkin. Buning uchun mazkur resurs har ikkala tomondan birining mulki bo`lishi kerak. Kouz fikriga ko`ra, qaysi tomon mulkdorlik huquqiga ega bo`lishi muhim emas. yuqoridagi masalamizda qishloq aholisi daryodagi baliq miqdorini oshirish uchun zavod direktoriga ishlab chiqarish hajmlari qisqartirilishi natijasida oladigan zarari miqdoridagi summani kompensatsiya qilishlari lozim. Agar, zavod zararlari qishloq aholisi oladigan daromaddan kamroq bo`lsa, shartnoma imzolanadi. Bundan tashqari, mazkur kelishuvlarda xarajatlarni qisqartirishdan oladigan zavod maksimal xarajatlari, qishloq aholisi baliq tutishdan oladigan maksimal daromadga teng bo`lganda tugaydi. Mazkur kelishuvlar natijasida resurslarning optimal taqsimotiga erishiladi. Agar, daryodan foydalanish huquqiga qishloq aholisi ega bo`lsa, mazkur kelishuvlar natijasi zavod qo`shimcha daromad summasidan baliqchilarga kompensatsiya qilishi kerak bo`ladi.

R.Kouz mulkchilik to`g`risida quyidagiga xulosani qiladi: «Agar, mulkdorlik huquqlari aniq belgilansa, va transaktsion xarajatlar ularga teng bo`lsa, resurslar allokatsiyasi (ishlab chiqarish tuzilishi) o`zgarishsiz qolib, mulkdorlik huquqlari taqsimlanishi o`zgarishidan qat`iy nazar samarali bo`ladi». Kouz teoremasining yana bir muhim xulosasi shuki, eksternaliyalar masalasini echish uchun hukumat aralashuvi talab qilinmaydi. Teorema resurslarni samarali taqsimlanish mexanizmi sifatidagi bozor reabilitatsiyasini amalga oshirdi.

R.Kouz g`oyalari, uning tashqi samaralar nazariyasida yanada kengroq yoritilib, keyingi davrlarda Armen Alchian (1914-yilda tug`ilgan) va Xarol`d Demsets (1930-yilda tug`ilgan) kabi amerikalik iqtisodchilar asarlarida rivojlantirildi. Ularni ta`kidlashicha, bozorning samaradorligini ta`minlash hamda uning faoliyatini barqarorligi uchun,birinchi navbatda mulkdorchilik huquqlarining aniq xususiyatlarini, chegaralarinianiqlash zarur. Ammo, Alchian va Demsets real hayotda nolga teng transaktsion xarajatlar mavjud emas, spetsifikatsiya jarayoni esa mo‘ayyan darajadagi xarajatlarni talab etadi deb hisoblashgan. Shu sababli mulkdorlik huquqlari faqatgina daromxdlilik xususiyati spetsifikatsiyasi, xarajatlar xususiyatlariga nisbatan yuqoriroq bo`lganda amalga oshadi. Aks holda mulk huquqlari o`rtasidagi chegaralari yo`qoladi.

«Ishlab chiqarishning axborot xarajatlari va iqtisodiy tashkiliylik» nomi (1972) maqolasida Alchian va Demsetslar iqtisodiy tashkiliylik holati bo`yicha o`z nazariyasini taklif etishdi. Bu nazariya mulkdorlik huquqlari kontseptsiyasiga asoslangan. Mazkur nazariyaga muvofiq mulk bir tomonlama tushuncha emas. U o`z tarkibiga egalik qilish, ishlatish, u yoki bu resursni mulkni uchinchi shaxsga

berish bo`yicha huquqlar to`plamidir. Demak resursga nisbatan turli huquqlar, turli iqtisodiy agentlar orasida bo`linishi mumkin. Mazkur huquqlar almashinuvi, iqtisodiy operatsiyalar mazmunini tashkil etadi. masalan, tovarning bozordagi sotilishi, mazkur tovarga nisbatan huquq mo‘ayyan to`plami sotilishi sifatida interpretatsiya etilishi mumkin. Xususan, litsenziyalashtirilgan disk yoki kassetalar sotilishi, mazkur tovar bilan foydalanish huquqi sotilishi sifatida talqin etilib, bunda mazkur qo`llashdan olinadigan daromad huquqi, istisno bo`ladi.
Har bir iqtisodiy institut, mulkdorlikning mo‘ayyan shakli sifatida baholanib, u o`zida huquqlarning mo‘ayyan to`plamiga egaligidan kelib chiqib Alchian va Demsetslar tomonidan turli iqtisodiy tuzilmalar sub`ektlarining qiyosiy tahlili amalga oshirilgan (xususiy firma, aktsionerlik jamiyati, hukumat korxonasi).

28. 3. Yangi iqtisodiy nazariya

Neoinstitutsional yo`nalish namoyandalari tomonidan ishlab chiqilgan tahliliy apparat, ya`ni turli institutsional tashkiliy ustunliklarini qiyosiy transaktsion tahlili, tashqi samaralar masalasiga xususiy mulkdorlik nuqtai nazardan qarash, opportunistik harakat tushunchasi, amerikalik iqtisodchi Duglas Nort (1920-yilda tug`ilgan) va uning hamkasblari asarlarida o`ziga xos ravishda qo`llanilgan. U umuman olganda, iqtisodiy tarix tahlili, va mo‘ayyan mamlakatlarda, mo‘ayyan davrlarda katta iqtisodiy o`sish yuz berib boshqa mamlakatlarda Shu davrning o`zida bunday rivojlanish kuzatilmaganligi sabablarini tushuntiruvchi tahlil tushuntirilishi uchun qo`llanilgan.

«1790 yildan 1860-yilgacha bo`lgan davrda Qo`shma SHtatlarda iqtisodiy o`sish» (1961), «Institutsional o`zgarishlar va Amerika iqtisodiyoti o`sishi» (1971 yilda L. Devis bilan hammualiflikda), «G`arbiy dunyoda ko`tarilish» (1973 R. Tomas bilan hammualliflikda) asarlarida Nort va uning hamkasblari tomonidan AQSH va Evropa iqtisodiy tarixi bo`yicha katta material yig`ilib, tahlil etildi. Uning asosida neoinstitutsional apparat vositasida iqtisodiy tarix va uning qonuniyatlarining Yangi kontseptsiyasini yaratish harakati amalga oshirildi. Mazkur kontseptsiyaning asosiy g`oyalari Nortning ikki asari, ya`ni «Iqtisodiy tarixda tuzilish va o`zgarishlar» (1981), «Institutsional institutlar. Institutsional o`zgarishlar va iqtisodiyot faoliyati» (1990) kabi asarlarda yoritilgan.

Nort va uning hamkasblari tomonidan taklif etilgan Yangi yondashuv, asosiy e`tiborni turli tarixiy davrlarda va turli hududlarda iqtisodiy institutlar qiyosiy tarixiyligi qaratib, institutsional tizimlar va iqtisodiy o`sish darajasining yuzaga kelishi, rivojlanishi va emirilishi orasidagi aloqani tadqiq etadi. Yangi iqtisodiy tarix tezisi asosini mazkur o`sish indlikatorlari tomonidan o`sish rag`batlantirilishining an`anaviy qarashlari borasidagi omillar tashkil etadi.

Innovatsiyalar, zahiralar, ta`lim, NTP. Iqtisodiyotning tez va muvaffaqiyatli o`sishining asosiy sharti effektiv institutlar mavjudligidir.

Institutlar bajaradigan asosiy vazifa transaktsion xarajatlarni tejashdir. Agar, iqtisodiy o`zgarishlarga javoban institutlar yaratilib, ular mazkur muammoni muvaffaqiyatli tarza echadigan bo`lsa, iqtisodiyot kelajakdagi rivojlanishi uchun ijobiy impul`sga ega bo`ladi. D. Nort nuqtai-nazariga ko`ra o`zgaruvchan sharoitlarga iqtisodiy tuzilishlarni tez va adekvat ravishda moslashtirish imkoniyatini beruvchi eng egiluvchan tizim, ya`ni xususiy mulk tizimidir. Aynan, mazkur tizimning Angliya va Gollandiyada erta rivojlanishi, Frantsiya va Ispaniyadan farqli o`laroq mazkur mamlakatlar iqtisodiyoti dinamikligini belgilab berdi.

Nort nazariyasining yana bir muhim jixati rivojlanishi, yo`liga bog`liqlik kontseptsiyasidir. Uning ta`kidlashicha, evolyutsion iqtisodiyot nazariyasi namoyandalaridan farqli o`laroq tarixiy taraqqiyot davomida samarali faoliyat yuritayotgan institutlarda tabiiy saralanishi yuz bermaydi. Bir marotaba belgilangan tuzilmalarni bartaraf etish qiyin, va aynan Shular mamlakat rivojlanishi yo`lini uzoq muddatga belgilab beradi. Institutsional muhitning bu kabi inertlik holati sababi, yuqori darajadagi transaktsion xarajatlarning institut islohotlariga sarflanadigan yuqori transaktsion xarajatlaridir va bu holat ayniqsa yirik va konservativ institutlarda ko`p kuzatilib, Yangi institutlar yaratilish yo`lida to`g`anoq bo`ladi. Tuzilmaviy o`zgarish yuz berishi uchun, uning harakatidan olinadigan iqtisodiy daromadlar xarajatlardan ustun kelishi lozim. D. Nort va Dj. Uolis tomonidan AQSH iqtisodiyotida transaktsion xarajatlar dinamikasi hisoblab chiqilgan edi.25 ularning hisob-kitobi bo`yicha, 1870-1970 yilgacha bo`lgan muddat davomida transaktsion xarajatlar umumiy ulushi hajmi ikki barobar oshib, yalpi ichki mahsulot 26,6 dan 54,9 % ga oshgan. Transaktsion sektorning kengayishini D. Nort va Dj. Uollislar birlamchi ahamiyatga ega tuzilmaviy o`zgarish deb baholashgan va uni rivojlangan mamlakatlar va iqtisodiy jihatdan qoloq mamlakatlar orasidagi kontrast bilan belgilash mumkin.

Nazorat uchun savollar:

1. XX asr boshida neoinstitutsionalizm va institutsionalizm yondashuvlari orasida asosiy farqlarni sanab o`ting.
2. Neoinstitutsionalizm doirasida qanday uchta yo`nalishni ajratish mumkin?
3. Transaktsion xarajatlar tushunchasi yordamida bozorda firma paydo bo`lishi va ularning Kouz nazariyasidagi hajmlari tushuntiriladi.
4. O. Uil`yamson fikriga ko`ra bozor shartnomalarini firma ichki shartnomalariga aylanishini qaysi omillar belgilab beradi?

5. Tashqi effektlar muammosini echish uchun Kouz teoremasiga muvofiq nimani amalga oshirish lozim?
6. Nima sababdan Kouz nuqtai nazaridan hukumatning tashqi effekt masalalarini echishda hukumat aralShuvi iqtisodiy jihatdan noeffektiv bo`ladi.
7. D. Nort nuqtai - nazaridan iqtisodiy o`sish asosiy omili nima ?
8. Qaysi institutsional muhit effektiv iqtisodiy tuzilma shakllanishi uchun ayniqsa qulay?

Mavzu bo`yicha adabiyotlar ro`yxati:

1. Коуз Р. Природа фирмы. М.: Дело, 2001. С. 33-91.
2. Коуз Р. Институциональная структура производства. Лекция лауреата Нобелевской премии в области экономических наук за 1991 год // Вестник Санкт - Петербургского университета. Серия «Экономика». 1993. № 4. С. 86-95.
3. Коуз Р. Фирма, рынок и право // Теория фирмы. СПб.: Экономическая школа, 1995.
4. Уильямсон О., Уинтер С.Дж. Природа фирмы. М.: Дело, 2001.
5. Уильямсон О.И. Экономические институти капитализма. СПб.: Лениздат, 1996.
6. Норт Д. Институты, институциональные изменения и функционирование экономики. М.: Начала, 1997.

XXIX-BOB. 1970- YILLAR – 1990-YILLAR BOSHI INSTITUTSIONALIZMI

29.1. P. Druker iqtisodiy bilimlar kontseptsiyasi

1970-1980-yillar davomidagi institutsional nazariyalar asosiy e`tiborini yuqorida aytib o`tilganidek iqtisodiyotda yuz berayotgan o`zgarishlar tahliliga qaratgan, zero bu o`zgarishlar ilmiy - texnik progress, ishlab chiqarish tuzilishidagi o`zgarishlarning, xizmat ko`rsatish sohasi va axborot bozori rivojlanishi, globalizatsiya jarayonlari bilan bog`liq. Mazkur davr institutsional nazariyalarining 1940-1960-yillar nazariyasidan asosiy farqi Shundaki, ularning ko`pchiligi e`tiborlarini iqtisodiyotda amal qilayotgan yirik korporatsiyalar roliga nisbatan qarashlarni o`zgarishidir. Institutsionalistlardan bir qismining xulosa qilishicha, kelajakda mamlakatlar iqtisodiyotida asosiy rolni kichik biznes o`ynaydi; institutsionalistlarning boshqa qismi esa zamonaviy iqtisodiy tizim asosini gigant firmalar tashkil etishini tan olgan holda, bunday tizim rivojlanishi istiqboliga nisbatan munosabatini optimistik jihatidan pessimistik jihatga o`zgartirdi.

Zamonaviy iqtisodiyot tuzilishidagi o`zgarishlar tadqiqoti bilan Shug`ullangan institutsionalistlardan biri P. Drukerdir. 1969 yilda, uning «Asta - sekinlik tanaffusi davri» deb nomlangan kitobi nashr etilib, unda muallif zamonaviy iqtisodiyotda markaziy rolni qaysi resurs o`ynashi haqidagi masalani ko`targan. Bilimlar iqtisodiyoti tushunchasini kiritgan holda P. Druker na moddiy resurslar, na moliyaviy resurslar, va hattoki na boshqaruv resusrlari ishlab chiqarish yetakchi omillari bo`la olmaydi deb ta`kidlaydi. Zamonaviy iqtisodiyot faqatgina axborotga, uning yaratilishiga va tarqatilishiga asoslangan. Aynan, bilimlarning mavjudligi yoki mavjud emasligi, firmalar ishlab chiqarish va raqobatbardoshliligini belgilaydi. Bilim iqtisodiyoti, tuzilmaviy o`zgarishlarni talab etadi. Rejalashtirishga asoslangan yirik institutlar yoki byurokratiya tomonidan boshqarilayotgan hukumat iqtisodiyot samarasiz bo`ladi, zero uning asosida innovatsiyalar bo`lmaydi. Innovatsiyalarni esa, faqatgina xususiy kichik tadbirkorlik amalga oshirishi mumkin. O`z kontseptsiyasi doirasida, P. Druker Y.Shumpeter nazariyasiga ko`pchilik jihatidan mos tushadigan tadbirkorlik nazariyasini ilgari suradi. U innovatsiyalarni uzoq vaqt tadbiq jarayonini va yirik kapital kiritmalarini Yangi texnologiyalar bilan bog`lamaydi, zero bunga faqatgina yirik korporatsiyalargina qodir bo`ladi (Dj. Gelbreyt nazariyasi). P. Druker fikricha, innovatsiyalar birinchi navbatda biznes tashkillashtirilishining Yangi shakllari bo`lib, bunda ham tashqi (Yangi bozorlar, tovarlarning Yangicha tarzda qo`llanilishi), ham ichki tashkiliylik tushuniladi.

P. Drukerning fikricha, zamonaviy iqtisodiyot asosida xususiy tadbirkor yotadi, u tashabbuskor va tavakkal qilishga qodir bo`ladi.

Uning zimmasida, iqtisodiyotning asta-sekin rivojlanishiga barxam berish, portlatish va uni Yangi sifat darajadagi rivojlanishga ko`tarish kiradi. Korporatsiyalar esa, mohiyatan rejaviy tuzilma bo`lib, ular innovatsion jarayon asoslarini yo`qotadi.

Shu sababli iqtisodiyot rivojlanishi uchun ishlab chiqarish detsentralizatsiyasi kichik xususiy tadbirkorlikning qayta tug`ilishi, hamda yirik korporatsiyalarning isloh etish zarur. P. Drukerning fikricha, mazkur tuzilmalar samaradorligini oshirish uchun, kompaniya doirasida qaror qabul qilish jarayonini dejitralizatsiyalash zarur. Shu bilan birgalikda, firmaning malakasiga muvofiq alohida a`zolariga qo`shimcha vakolat va majburiyatlarni maksimal darajada taqdim etib, ularni maksimal darajada boshqaruv jarayoniga jalb etish lozim. Bularning barchasi ichki tadbirkorlik rivojlanishiga olib kelib, oqibatda ushbu mazkur tuzilmalar doirasida innovatsion jarayonni tiriltirish imkoniyatini beradi.
P. Druker hukumat tadbirkorligiga tanqidiy munosabat bildiradi. Uning fikricha, faqatgina xususiy biznes, iqtisodiyot rivojlanishini ta`minlashi, hukumat esa o`z byurokratiyasi bilan, resurslarni samarasiz tarzda sarf etib, Yangiliklarni tadbiq etilishi uchun, to`sqinliklar yaratadi. P. Druker nazariyasi, tasodifiy bozor samaradorligi va xususiy manfaatga asoslangan erkin tadbirkorlik samaradorligiga ishonchda qurilgan. Siyosat bilan bog`liq istalgan tuzilishlar sirasiga P. Druker kasaba uyushmalari va siyosiy partiyalarni kiritib, ular xususiy biznesga aralashish orqali, iqtisodiy jarayonga xalaqit berishadi. Shu sababli, P. Druker zamonaviy davlat oldida turgan ikki vazifani ajratadi:

29.2. Davlat mulkini privatizatsiya etishi va mazkur mulkning yangi egalariga oyoqqa turmagunlaricha yordam ko`rsatishi

Hayot sifati masalalari. 1950-yillardan ko`tarila boshlangan yana bir muammo hayot sifati muammosidir. Ammo mazkur atama faqatgina 1960-yillar oxiri, 1970-yillar boshiga kelibgina ommalashdi, zero oldingi davrlar iqtisodiy ko`tarilish bilan tavsiflanib, asosiy e`tiborni ravnaqning miqdoriy ko`rsatkichlari tortar edi. mazkur kontseptsiyalar mohiyatini Dj. Gelbreyt, A. Toffler, R. Aaron kabi iqtisodchilar rivojlantirib, ularning nazariyalarini mazmuni Shundan iborat ediki, zamonaviy jamiyat yuqori iste`mol davriga erishib, asosan ravnaq miqdori masalasini echdi. Shu sababli, uning oldida Yangi vazifa, mazkur ravnaq sifatini ta`minlash vazifasi turibdi deb hisoblashgan. Yirik korporatsiyalari faoliyatida yuqori texnologik ishlab chiqarish iqtisodiyot, insonlar moddiy ehtiyojlari qondirilishini yuqori darajada ta`minlaydi. Shu sababli, jamiyat rivojlanishi Shunday darajaga erishdiki, hayot sifati, ya`ni ravnaqlar sifati masalasini ko`tarish vaqti etib keldi. Mazkur tushunchaga, nomoddiy ravnaqlar xususan: iqtisodiy,

ijtimoiy, siyosiy, ma`naviy rag`batlar xam kiradi, Shuningdek, bularning sirasiga ta`lim, sog`liqni saqlash, ekologiya, ijtimoiy - iqtisodiy tengsizliklar ham kiritilishi mumkin.

Bir tomondan mazkur masala, iqtisodiy taraqqiyotning ziddiyatli oqibatlari bilan bog`liq. Birinchidan, bu holda korporatsiyalar iste`molchilarga o`z mahsulotini o`tkazish bo`yicha agressiv siyosatini yuritishadi bunday holatda, mazkur siyosat jamiyat uchun doimo ham foydali emas (Dj. Gelbreyt). Ikkinchidan umuman olganda, sanoat rivojlanishi iqtisodiy muammolar o`sishiga olib kelib, bu holat ham insonlar hayot sharoitlarini yomonlashtiradi. Ammo xar qanday holatda xam jamiyat rivojlanishi Shunday darajasiga erishdiki, oqibatda mazkur masalalarni qayta ko`tarib, mamlakat iqtisodiyoti oldiga Yangi vazifalarni shakllantirish imkoniyatini beradi. Shuningdek aholining tobora kattaroq qismi, atrof - muhitni saqlab qolinishi, hayot estetik tavsiflarini ko`tarish uchun to`lov to`lashga tayyor. Mehnatning ishlab chiqarilishdagi vaqtiga nisbatan dam olish vaqti uchun tobora ko`proq vaqtni ajratish imkoniyatini berib, dam olish sifatini oshirish masalasini ham ko`taradi.

Hayot sifati haqidagi masala ko`tarilishi sababli, yuzaga kelgan muammo hayot sifatini ko`rsatkichlaridir. Agar, iqtisodiy samaradorlik qator ko`rsatkichlar masalan, yalpi ichki mahsulotning o`sishi, daromad normasi, narx indekslari, fond indekslari kabi ko`rsatkichlar yordamida baholanishi mumkin bo`lsa, jamiyat taraqqiyoti sifati to`g`ridan - to`g`ri hisoblash imkoniyatini bermaydi. 1961 yillarda, BMT hayot sifati sharoitlarining 12 aspektlarini ajratib, ularning holati jamiyat rivojlanish darajasini sifat jihatdan tavsiflashi mumkinligini e`tirof etgan.

Ushbu ko`rsatkichlarga sog`liqni - saqlash, tarbiya, mehnat sharoitlari, bandlik, iste`mol va zahira darajasi, transport va kommunikatsiya, turar joy fondi holati, dam olish va ko`ngilxushliklar, ijtimoiy ishonch, shaxsiy erkinliklar kiradi. Keyingi davrlarda, boshqa indikator tizimlari ham taklif etilgan. Hayot sifati masalasiga katta e`tiborni amerikalik futurolog Alvin Toffler ham qaratgan. O`zining “Futuroshok” («Kelajak shoki») deb nomlangan 1970- yilda nashr etilgan kitobida, A. Toffler hayot sifati tushunchasini uchta aspektga ajratgan, ya`ni ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy.

Ekologik aspekt o`z tarkibiga nafaqat atrof - muhit ifloslanishi bilan kurashni, balki alohida hududlarda aholi tobora o`sishi bilan bog`liq muammolarni echish, shovqin ifloslanishi, noestetik landshaftlar muammosini ham ko`targan.

Hayot sifati iqtisodiy ko`rsatkichlarini A. Toffler nomoddiy ehtiyojlarni qondirish bilan bog`lab, estetik va psixologik tavsifga ega ekanligini aytib o`tgan. Bunday ehtiyojlar sirasiga go`zalik, yaxshi kayfiyat, ijobiy hissiyotlar, tinchlikka nisbatan munosabat yoki aksincha tavakkalga nisbatan harakatlar kiradi. A. Toffler psixologik iqtisodiyot tushunchasini ham ilgari surib, uning ta`kidlashicha

zamonaviy taraqqiyot bosqichda iste`mol tuzilishini tovarning moddiy xususiyatlari, emas iste`mol jarayonining psixologik tavsiflari belgilay boshlaydi, ya`ni mazkur ravnaq qo`llanilishdan, insonda yuzaga keladigan hissiyotlar.

29. 3. Kelajakda jamiyat rivojlanishi nazariyasi

A.Toffler, o`z asarlarini zamonaviy jamiyat transformatsiyasiga bag`ishlagan mashhur mutaffakkirlardan biridir. O`zining «Futuroshok» (1970) va «Ekospazm» (1975) asarlarida, u jamiyat rivojlanishining zamonaviy bosqichini o`zgartiruvchi bosqich deb tasvirlagan. Ilmiy - texnik progress va iqtisodiy o`sishning yuqori darajalari iqtisodiy va ijtimoiy tuzilmalarni o`zgarishi, insonlarning ijtimoiy va psixologik zarbalarga to`qnash kelishiga olib kelib, bular doimiy ravishda mazkur o`zgarishlarga moslashishni talab etadi. Mo‘ayyan kasblar, munosabat turlari yo`qolib, aholining mobilligi oshadi, ishchilar malakasiga nisbatan xam talablar doimiy ravishda o`zgaradi. Eski kasbiy jihatlarni sinishi bilan bog`liq stress holatlari chuqurlashadi, va bu holatni A.Toffler kelajak shoki deb ataydi.

A.Tofflerning transformatsiya bilan bog`liq tavsiflari ko`pchilik jihatdan P.Druker g`oyalariga o`xshash. Uning fikricha XX asr oxiri iqtisodiyoti bilimlar iqtisodiyotidir. Toffler katta e`tiborni, Yangiliklarning asosiy manbai sifatida tadbirkorlikka ajratadi. Bunda u korporatsiya doirasida tadbirkorlik vazifasi tirilishini ham payqab, bu holat P.Drukerda, yirik firmalarga berilgan tavsiya sifatida ko`tarilgan. A.Toffler Shu bilan birgalikda, Avtokratiya haqida yozib, uning fikricha avtokratiya mutaxassislarning vaqtinchalik guruhi bo`lib, ular alohida loyihalarga boshchilik qilishadi, va texnokratiya, hamda byurokratiya o`rniga keladi. Mazkur kichik markazlashmagan jamoalar tashabbus, ijod, mustaqil qaror qabul qilish huquqiga ega bo`lib, o`zlari markazlashgan holda, ko`pchilik masalalar bo`yicha firma siyosatlarini yuritishadi. A. Toffler nuqtai - nazaridga ko`ra korporatsiya avtokratiyasi paydo bo`lishi bilan, korporatsiyalar bozorning Yangi sharoitlariga tezroq moslashib, innovatsion funktsiyalarini yaxshiroq amalga oshira boshlashdi. Shu bilan birgalikda, A. Toffler katta e`tiborini texnik – iqtisodiy rivojlanish ustidan nazorat masalalariga ham qaratgan. Uning fikricha, jamiyat yirik korporatsiyalar faoliyatini kuzatishlari lozim, zero korporatsiyalar progressga Shu darajada qiziqishganki, ular tomonidan tadbiq etilayotgan Yangi texnologiyalar foydasiz yoki insoniyat uchun zararli bo`lishi mumkin.

Shu bilan birgalikda, Yangiliklar, jiddiy - ijtimoiy futuroshok bilan bog`liq oqibatlarga ham olib kelishi mumkin. Shu sababli, A. Toffler Yangiliklar kiritish monitoringi zarurati haqida ham so`z yuritgan.

A.Toffler qalamiga mansub «Uchinchi to`lqin» (1980) asari alohida axamiyatga molikdir. Unda, muallif elektronikani tadbiq etilishi bilan bog`liq

texnika rivojlanishini tahlil etadi. Uning Yangi kontseptsiyasining muhim asoslaridan biri, elektron aloqa vositalari paydo bo`lishi bilan ishlab chiqarish markazlashtirilishi uchun sharoitlar yaratilishi haqidagi fikrdir. Shuni e`tiborga olish lozimki, uzoq vaqt davomida ilk marotaba texnologiyalar ishlab chiqarish kontsentratsiyasi sharoitlarini emas, uning taqsimlanish sharoitlarini ajratib berdi. Buning oqibatida, ishlab chiqarishning hududiy taqsimlanishi yuz berdi. Yangi aloqa vositalari mutaxassislarga bir - biri bilan doimiy aloqada bo`lib, uyda ishlash imkoniyatini beradi.

Aynan Yangi texnologiyalar sababli, kichik seriyali ishlab chiqarish arzonlashadi. Shuningdek taklif egiluvchan bo`ladi, buning oqibatida esa, iste`mol tuzilishi va hayot uslubi o`zgaradi. Odamlar yanada individuallashishga harakat qilishadi. mehnat tavsifi o`zgaradi. Mehnat individual tus olib, ijodiy tavsifga ega bo`ladi. Jismoniy mehnat xodimlari miqdori qisqaradi. yuqori malakali mutaxassislarga talab xam va taklif xam oshadi.

29.4. D. Bell postindustrial jamiyati nazariyasi

P.Druker va A.Toffler nazariyalariga nisbatan, amerikalik sotsiolog Daniel` Bell (1919- yilda tug`ilgan) qarashlari nisbatan pessimistikdir. U tomonidan qator kitoblar yozilib, mazkur asarlar ichidan ikkitasini alohida ajratib ko`rsatish mumkin: «G`oya xotimasi» (1960), «Kelayotgan postindustrial jamiyat» (1973). Ushbu asarlarda D.Bell birinchidan Dj.Gelbreyt kabi ikki tizim konvergentsiyasi kontseptsiyasini rivojlantirishda davom etib, industrial jamiyatning ikki turi sifatida ijtimoiy va kapitalistik tuzumni tasvirlaydi. Mazkur jamiyatlar asosida esa yirik korporatsiyalar turib, ularning moddiy ravnaqlarini asosiy hajmini ishlab chiqaradi.

P.Druker va A.Tofflerdan farqli o`laroq, D.Bell kelajakni aynan yirik tuzilmalar doirasida ko`radi, zero iqtisodiy rivojlanish asosi sifatida, ilmiy - texnik progress turib uning fikricha, bu holat yirik kapital qo`yilmalarini talab etadi. Shu bilan birgalikda, P. Drukerdan farqli o`laroq, u jamiyat tomonidan iqtisodiy rivojlanish ustidan nazorat zarurati tarafdori bo`lib, hukumat olimlar ham nazorat etilishi lozim deb hisoblaydi. Ayniqsa olimlar, ilmiy - texnik progressga siyosat va bozor manfaatlari bo`ysunishini oldini olishlari kerak, kelajak jamiyatini D.Bell rejalashtiruvchi jamiyat sifatida tasavvur qilib, unda hukumat roli oshadi.

D.Bell, asosiy e`tiborini yuridik firmalar faoliyatining salbiy oqibatlariga qaratadi. Birinchidan, atrof-muhitga holatiga texnologik jarayonlar ta`sir ko`rsatib, salbiy bo`ladi. Ikkinchidan, ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar individlar haqiqiy ehtiyojlariga to`liq muvofiq bo`lmaydi.

D.Bell nazariyasida zamonaviy jamiyatda ijtimoiy o`zgarishlar haqida ham so`z yuritilgan. D.Bell “Postindustrial jamiyat” tushunchasini kiritgan holda, Yangi turdagi jamiyat asosiy xususiyatlaridan biri, meritokratiya hukmronligi bo`lib, u texnokratiya o`rniga keladi deb e`tirof etadi. Meritokratiya, jamiyat oldida katta xizmatlarga ega insonlar guruhidan tashkil topib, bu insonlar, yuqori intellektual rivojlanish darajasiga ega holatda axborotni qayta ishlash va qaror qabul qilishlari mumkin.

1970-yillarda Dj.Gelbreyt qarashlari. 1970 yilda Dj.Gelbreyt «Jamiyat iqtisodiy nazariyalari va maqsadlari» kitobini yozadi. Bu kitobda muallif oldin bildirgan ko`plab qarashlarini qayta ko`rib chiqgan. Xususan Gelbreyt yirik korporatsiyalar faoliyatiga nisbatan yanada salbiyroq munosabatini bildirib, ekspluatatsiya o`sib borayotgan elementlari Yangiroq tavsifga egaligiga e`tibor qaratgan. Shu bilan birgalikda, u iste`molchilarning ishlab chiqaruvchilar tomonidan reklama orqali tovarlarni tiqishtirish vositasida ekspluatatsiyasi haqidagi fikrini ham rivojlantirdi. Shu bilan birgalikda, korporatsiyalar tomonidan bozor va narxlar ekspluatatsiyasi, rivojlanayotgan mamlakatlarning rivojlangan mamlakatlar tomonidan ekspluatatsiyasi, hamda tabiat ekspluatatsiyasi haqidagi fikrlari ham ahamiyatga molik. Deyarli u, asr boshi ruhidagi monopoliya tanqidiga qaytib, zamonaviy jamiyatni yirik korporatsiyalar monopoliyasi holatida ekanligi haqidagi fikrni bildirdi. U o`z g`oyasini 1950 yillar boshidagi “kuchlar muvozanati” haqidagi g`oyaga qaytarib, mazkur g`oya yirik korporatsiyalariga kichik ishlab chiqaruvchilar va iste`molchilar tashkillashtirilishi vositasida o`zi al`ternativ usullarni shakllantirib berishini taxmin etdi. Endilikda Gelbreyt jamiyat yirik firmalar hukmronligiga qarshi qo`yadigan hech - narsaga ega emasligi borasidagi fikrni bildirdi.

Nazorat uchun savollar:

1. P. Druker innovatsiyalar kontseptsiyasi mohiyati nima? Uning fikricha, qanday iqtisodiy tuzilmalar Yangiliklarni tadbiq etishga moslashgan?
2. Hayot sifati tushunchasiga qanday ko`rsatkichlar kiradi?
3. A. Toffler fikricha psixologik iqtisodiyot nima?
4. A. Toffler tomonidan tasvirlangan sanoat inqilobi «Uchinchi to`lqiniga» tavsif bering.
5. D. Bell va P. Drukerning innovatsion jarayonda yirik korporatsiyalar roli, hamda hukumatning iqtisodiyotdagi roliga nisbatan qarashlari farqi nimada?
6. Meritokratiya nima?
7. 1970 yillarda Dj. Gelbreyt qarashlari qanday va nima sababdan o`zgardi?

Mavzu bo`yicha adabiyotlar ro`yxati:

1. Гелбрейт Дж. Экономические теории и цели обшества. М.: Прогресс, 1976.
2. Тоффлер А. Футурошок. Спб.: Лань, 1997.
3. Тоффлер А. «Экоспазм». М.: Издательство АРС, 2002.
4. Тоффлер А. «Третья волна». М.: Издательство АРС, 2002.
5. Брегель Э.Я. Критика буржуазных учений об экономической системе современного капитализма. М.: Мысль, 1972.

Qo‘shimcha adabiyotlar ro‘yxati:

1. Аникин А.В. Юнность науки. М., 1971.
2. Аникин А.В. Путь исканий. М., 1990.
3. Блауг М. Методология экономической науки. М., 2004.
4. Блауг М. Экономическая мысль в ретроспективе. М., 1995.
5. Бейтон А., Долло К., Дре А.М., Казорла А. 25 ключевих книг по экономике. Челябинск, 1999.
6. Всемирная история экономической мысли: в 6 т. М., 1987-1997.
7. Жамс Э. История экономической мысли XX века. М., 1959.
8. История русской экономической мысли/ Под ред. А.И. Пашкова: В 3 т. М., 1955-1966.
9. История экономических учений. Ч-I / Под ред. В.А. Жамина, Е.Г. Василевского. М., 1989.
10. История экономических учений. Ч-II / Под ред. А.Г. Худокормова. М., 1994.
11. История экономических учений. Современный этап / Под ред. А.Г. Худокормова. М., 1998.
12. История экономических учений / Под ред. В. Автономова, О. Ананьина, Н. Макашевой. М., 2000.
13. Негиши Т. История экономической теории. М., 1995.
14. Нобелевские лауреаты XX века. Экономика: Энциклопедический словарь. М., 2001.
15. Селигмен Б. Основные течения современной экономической мысли. М., 1968.
16. Современная экономическая мысль. М., 1981.
17. Шумпетер Й.А. История экономического анализа: В 3 т. СПб., 2001.

CLOSSARIY

Miloddan avvalgi (m.a.) IV ming yillik - Sharqdagi dastlabki quldorlik davlatlari paydo bo‘ldi, ilk iqtisodiy qarashlar shakllandi.

Xammurapi (m.a. 1792-1750 yy.) - Bobil (Vavilon) podshosi toshga o‘yib yozilgan o‘z qonunlarida quldorlik tuzumining xarakterli belgilarini aks yettirgan (282 ta). Bu yodgorlik Parijda Luvr muzeyida saqlanmoqda.

Zardushtiylik (Zoroastrizm, otashparastlik) - islomgacha O‘rta Osiyo,Ozarbayjon va Yeron xalqlarining dini. Bunda ayniqsa tabiatni va hayvonot dunyosini asrash va boshqa iqtisodiy masalalarga alohida urg‘u berilgan.

«Avesto» - Zardushtiylikning muqaddas to‘plami, oromiy yozuvida bitilgan. m.a. VII asrda Markaziy Osiyoda qadimgi davrdagi iqtisodiy hayot aks yetgan. Mehnatga, chorvachilikka alohida ye’tibor berilgan. Ko‘p qismi yo‘q bo‘lgan, to‘liq yemas. Rus va o‘zbek tillariga tarjima qilingan. Bu kitob 2700 yil avval yozilgan bo‘lib, unda «yezgu fikr, yezgu so‘z va yezgu amal» prinsiplari ilgari suriladi.

«Artxashastra» - m.a. IV-III asrlarda Hindistondagi siyosiy va iqtisodiy hayotni aks yettirgan. Ish haqi tushunchasi ish vaqti bilan ifodalangan.

Konfusiy (Kun-Szi, m.a. 551-479 yy.) - Xitoydagi konfusiychilik iqtisodiy ta’limotining asoschisi. «Lunyu» suhbatlar va mulohazalar to‘plamini yaratgan. «Xalqlar otasi» iborasining muallifi. Oz iste’mol qilib, ko‘proq ishlashni targ‘ib yetgan. Odat bo‘yicha boshqarish tarafdori (ota-bola; podsho-xalq, oila kabi bo‘lishi kerak)

Legistlar - Xitoydagi (m.a.VI-III asrlar) iqtisodiy oqim. Konfusiylikka qarshi. Boshqaruv qonunlar asosida bo‘lish tarafdori. Don masalasini hal qilish bosh vazifa deb qaraladi. Dehqonlarni ro‘yxat qilish, soliq tizimini tartibga solish tarafdorlari.

«Guan-Szi» (m.a.IV asr) - Xitoydagi ijtimoiy-iqtisodiy asar, unda xo‘jalikni davlat tomonidan tartibga solish tizimlari mukammal berilgan.

M.a. II ming yillik - Farbda (Qadimgi Gresiya - Yunoniston va Italiyada) quldorlik tuzumi yuzaga keldi. Quldorlik klassik shaklda amalga oshdi.

Gomer (m.a. XII-VII asrlar oralig‘i) - «Iliada» va «Odisseya» asarlarida natural xo‘jalik konsepsiyalarini ilgari surgan.

Solon (taxm. m.a. 640/635-559) - Yunoniston siyosiy arbobi, islohotlar o‘tkazgan. Qullarni qarzga berishni man yetgan (chet yelliklar bundan mustasno).

Perikl (m.a. 490-429) - qadimgi Yunon siyosiy arbobi. Qul yekspluatasiyasini keng qo‘llagan, lekin savdo va pul xo‘jaligini ham rivojlantirgan. Afina yeng rivojlangan davrda uni boshqargan.

Ksenofont (m.a. 430-335/354) - Yunon yozuvchisi va tarixchisi. Quldorlikni qo‘llab-quvvatlagan. «Dehqonchilik barcha san’atlarning onasi va boquvchisi» degan iboraning muallifi. «Yekonomiya» (uy xo‘jaligi) so‘zini birinchi bo‘lib ishlatgan. Mehnat taqsimotiga alohida urg‘u bergan va uni bozor ko‘lami bilan bog‘lagan. Pulning almashuv va jamg‘arish (ikki) funksiyalarini tan olgan.

Platon (Aflotun, m.a. 428/427 - 348/347) - «Davlat» va «Qonunlar» asarlarining muallifi. Jamiyatni ish quroli - natural ishlab chiqarish deb qaragan, natural xo‘jalikni qo‘llagan, pulni jamiyatdagi dushmanlikning bosh sababchisi deb bilgan.

Aristotel (Arastu, m.a. 384-322) - yirik Yunon olimi, «Nikomaxov ahloqi» va «Siyosat» asarlarini yozgan. Aflotundan ta’lim olgan. Aleksandr Makedonskiyga tarbiyachilik qilgan. Qulchilikning prinsipial tarafdori bo‘lgan. Qul - jonli (gapiruvchi) qurol, qul - tirik mulk, degan fikrda bo‘lgan. Qiymatning dastlabki shaklini tahlil yetgan: buyumdan ma’lum talabni qondirish va almashish uchun foydalanish mumkin, degan, natural xo‘jalik (T-T), tovar (T-P-T) va pulning kapital shaklidagi aylanishini (P-T-P)

tahlil yetgan. Tovar ishlab chiqarish uchun qo‘llaniladigan harakatni qo‘llab-quvvatlagan. P-T-P, P-P shaklini inkor yetadi.

Xrematistika (xrema - mulk, yegalik) - mulk orttirish san’ati, ya’ni foyda va boylikni pul shaklida to‘plashga yo‘naltirilgan faoliyat. Kapital qo‘yish va jamg‘arish san’atidir. Amaliyotda kam

qo‘llaniladi.Aristotel tomonidan kiritilgan.

Katon Starshiy (m.a. 234-149) - Qadimgi Rimdagi qulchilikni himoya qilganlardan. Dehqonchilik to‘g‘risidagi asarida qishloq xo‘jaligiga ko‘proq ye’tibor berishni taklif yetadi, ko‘proq sotish va kam olishni ma’qullaydi. Qullar mehnatidan rasional foydalanishni taklif yetadi (Villa xo‘jaligi). Yaxshi ishlagan qulning sharoitini yaxshilash kerak, deydi, - lekin gunohkor qattiq jazolanishi kerak.

Varron (m.a. 116-27) va **LyusiyKolumella** (milodiy I asr) - Rim agronomlari. Qul xo‘jaligini samarali tashkil yetishga ahamiyat berdilar, dehqonchilik va chorvachilikni ham rivojlantirishni zarur deb bilganlar. Qul mehnatining samarasiz yekanligini tushungan va dehqonchilikni yerkin kolonlarga berishni taklif yetganlar.

Aka-uka Grakxlar, Tiberiy (m.a.162-133) va Gay (153-121) - Rim davlatida yer islohotining rejasini tuzganlar. Har bir yer yegasidan 125 ga (500 yuger) dan ortiq yerlar tortib olinib (oilaga 1000 yuger - 250 ga), boshqalarga 30 yugerdan bo‘lib berish taklif yetilgan. Mayda dehqon manfaatlari himoya qilingan. Islohotlar natija bergan. Ammo aka-ukalarning o‘limidan keyin bu islohotlar bekor qilindi.

Latifundiya - yirik yer yegaligi (pomeste). Dastlab Qadimgi Rimda m.a. II asrda paydo bo‘ldi, milodiy I asrda keng tarqaldi. Feodalizm davrida avj oldi. Prussiya va AQShda rivoj topdi. Inqiloblar tufayli tugatildi.

Spartak (m.a.71 halok bo‘ldi) - qullar qo‘zg‘oloniga (m.a.73-71) rahbarlik qildi. Qo‘zg‘olon yengildi. Ammo qulchilik tuzumiga zarba berildi.

Xristianlik (nasorolik) - jahondagi keng tarqalgan uch dindan biri, buddizm va islom bilan bir qatorda milodning I asrida Rim imperiyasinig Sharqiy provinsiyasi(Falastin)da mazlumlar va yezilganlar dini sifatida paydo bo‘lgan, muqaddas kitobi Injilda «Ishlamagan tishlamas» prinsipi ilgari surilgan (havoriy apostol Pavelning fikri). 325 yildan Rim imperiyasining davlat dini, unda mulk, iqtisodiy tenglik, hamkorlik va boshqa g‘oyalar ilgari suriladi.

V asrda Farbiy Yevropada (Rim imperiyasining qulashi) qullik tugatilib, feodalistik munosabatlar tarkib topdi (V-XVI-XVII asrlar). Sharq mamlakatlarida feodalizmning shakllanishi III-VII asrlarda ro‘y berdi. Bu davrdagi iqtisodiy g‘oyalar tovar-pul munosabatlarining rivoji bilan bog‘liq.

Islom - VII asrda (hijriy 622 yil) dastlab Arabistonda tarqalgan so‘nggi muqaddas din. Islomning muqaddas kitobi *Qur’oni karim*da (arabchada *o‘qish, qiroat* degani) Alloh taolo tarafidan shaxsiy mulk muqaddas deb ye’lon qilingan, unga ko‘z olaytirish katta gunoh deyilgan va sudxo‘rlik harom qilingan, ortiqcha sarf-harajatlar qoralangan, ayniqsa «yenglar, ichinglar, hadya qilinglar, lekin isrof qilmang» degan oyatlar bugungi kun uchun ham ahamiyatlidir.

Forobiy Abu Nasr ibn Muhammad (870-950) - qomusiy olim, Arastuning izdotshi (Arastudan keyin ikkinchi muallim nomini olgan), xayoliy sosializmning asoschilaridan, 160 dan ortiq asar yozgan, donishmand (ayni vaqtda diniy jamoaning boshlig‘i bo‘lgan), hukmdor, tasarruf yetuvchi, «sahovatli yurt» haqidagi ta’limotni rivojlantirdi (fozil davlat tarafdori).

Abu Ali ibn Sino (980-1037) - qomusiy olim, 280 dan ortiq asar yozgan, «Uy xo‘jaligi», «Ruhshunoslik» va boshqa kitoblarda iqtisodiy qarashlari aks yetgan.

Beruniy Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad (973-1048) - qomusiy olim, 150 dan ortiq asarlari mavjud, lekin iqtisodiy qarashlari to‘liq o‘rganilmagan. Mehnat boylikning asosi yekanligi to‘g‘risidagi fikrlari mavjud.

Yusuf Xos Hojib Bolasog‘uniy (~1016-1018-?) - turk tilidagi ilk «**Qutadg‘u bilig**» («*Saodatga yo‘llovchi bilim*», 1069-70) asarida ajoyib iqtisodiy g‘oyalarni bayon yetgan (1990 yilda chop yetildi). Ayniqsa, hunar-kasb o‘rganish, savdo-sotiqning ahamiyatiga ye’tibor berilgan. Kitobda «san’at, hunar - kishiga chiroy, turli-tuman hunarlarni o‘rganmaslik tubanlik belgisi» (64-bet) yekanligi haqida fikrlar va mehnat taqsimoti g‘oyalari bor. Davlat va iqtisodiyot masalalaridagi bog‘lanishni yaxshi tushungan.

Nizomulmulk (1018-1092) - Saljuqiylar davlati vaziri sifatida «Siyosatnoma» asarini yozdi, unda soliq , davlat mablag‘larining hisob-kitobi, iqto‘ (chek yer) to‘g‘risida qimmatli g‘oyalar berilgan.

Ibn Xaldun Abu Rahmon Abu Zayd (1332-1406) - arab olimi, «Ibratli misollar kitobi» (1370)da iqtisodiy g‘oyalari jamlangan. Uning fikricha, «jamiyat moddiy qiymatlar ishlab chiqaruvchilar» jamoasidan iborat. Asarlarida moddiy zarurat tarixni harakatlantiruvchi asosiy kuch, mehnat unumdorligi, zaruriy va qo‘shimcha mehnat, qiymat tushunchalari keltirilgan. 1401 yilda Amir Temur bilan uchrashgan. «Ijtimoiy fikr» jurnalining 1998 yil, 1-sonida lavha berilgan.

Amir Temur (1336-1405) - Markaziy Osiyoda markazlashgan davlat asoschisi, uning olib borgan to‘g‘ri iqtisodiy siyosati tufayli mamlakat obod bo‘ldi, ilm-fan ravnaq topdi. «Temur tuzuklari» kitobida bir qancha muhim ijtimoiy-iqtisodiy g‘oyalari berilgan. Masalan, soliq, maosh, byudjet to‘g‘risida qimmatli fikrlari bor. Yangi yerlar ochgan dehqon uch yilgacha soliqdan ozod qilingan, o‘g‘rilik, qalloblik, tovlamachilik qattiq jazolangan. Uning davrida Buyuk Ipak yo‘li rivoj topgan, savdogarlar qaroqchilardan himoya qilingan, karvonsaroylar qurilgan. «Kam yegin, kam uxla, kam gapir» aqidasiga amal qilgan.

Ulug‘bek Muhammad Tarag‘ay (1394-1449) - A.Temurning nabirasi, Shohruhning o‘g‘li, 1409-49 yy. Movarounnahrda podsholik qildi, ilm-fan, madaniyat rivojiga, mamlakatning iqtisodiy ravnaqiga katta hissa qo‘shdi, 1428 y. Fulusiy pullar islohotini o‘tkazib, chaqa pullar qadrini mustahkamladi, «Tamg‘a» bojiga alohida ye’tibor berdi, uning podsholik davrida mamlakatda ichki va tashqi savdo o‘sdi.

Alisher Navoiy (1441-1501) - temuriylardan, shoir, davlat arbobi sifatida iqtisodiyot masalalariga katta ye’tibor bergan. «Mahbub-ul-qulub» asarida dehqon, hunarmand va savdogarlar faoliyatiga alohida baho beradi, uning fikrlarida almashuv zarurati ko‘rsatilgan, kapital tushunchasining yelementlari bor.

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) - Andijon, Qobul va Hindiston hukmdori, «Boburnoma», «Mubayyin» asarlarida soliq siyosati, masalan, zakot to‘g‘risida qimmatli g‘oyalari berilgan. Yeng muhimi, daromad oshgan sari soliqning kamayib borishining ahamiyati tushuntiriladi. Savdo va ayniqsa tashqi munosabatlarga katta ye’tibor bergan.

Tomas Mor (1478-1535) - ingliz olimi. «Utopiya» (1516) asarida xayoliy sosializm g‘oyalari berilgan, «qo‘ylar odamlarni yeb qo‘ydi» iborasining muallifi (dehqonlarning o‘z yerlaridan mahrum qilinishi). «Utopiya» so‘zi Yunoncha «*u*-» /yo‘q/ va «*topos*» /joy/ so‘zlaridan tashkil topgan, ya’ni bu so‘zning ma’nosi «o‘zi yo‘q joy»dir.

Tommazo Kampanella (1568-1639) - italyan iqtisodchisi, Italiyadagi og‘ir iqtisodiy ahvolni ko‘rgan. «Oftob shahri» (1602 yilda yozilib, 1632 yilda chop yetilgan) kitobida umumiy mulkchilik, mehnat asosida xayoliy sosializm g‘oyalari rivojlantirilgan.

Merkantilizm - italyancha so‘z bo‘lib, savdogar degani, feodalizmning yemirilishi va ilk kapitalizm davridagi dastlabki bozor iqtisodiy maktabi; ilk merkantilizm (monetarizm) va rivojlangan merkantilizm davrlariga bo‘linadi; boylikning asosi muomala (savdo)da yuzaga keladi, degan g‘oya ilgari surilgan.

Antuan Monkreten (1565-1621) - fransiyalik iqtisodchi, birinchi bo‘lib «siyosiy iqtisod» tushunchasini kiritgan, merkantilizmni, savdo rivojini qo‘llagan, dvoryanlarning zeb-ziynatga berilishini qoralagan.

Jan Batist Kolber (1619-1683) - Fransiya qiroli Lyudovik XIV davrida moliya vaziri bo‘lgan, merkantilizmni jon-jahdi bilan qo‘llagan, uning davrida agrar sohaga ye’tibor kamaygan, kolbertizm siyosatining muallifi. Bank, sanoat va savdo rivojiga hissa qo‘shgan.

Kameralistika - merkantilizmning Germaniyadagi shakli. Bu g‘oya tarafdorlari yirik feodallar xo‘jaliklarini boshqarish masalasini yuqori qo‘yadilar va buni idora doirasida hal qiladilar.

Jon Lou (1671-1729) - asli shotlandiyalik, ammo ko‘proq Fransiyada ijod yetgan. Merkantilizmning bir oqimini, ya’ni korxonalar va savdo haqiqiy boylikdir, degan g‘oyani ilgari surgan. Bank, aksiya, obligasiya va qimmatli qog‘ozlar sotish yo‘lini tutgan. Hozirgi «piramida» usulining muallifi. Oxir-oqibatda inqirozga uchradi (Moskvadagi «MMM» va boshqa shu kabi aksioner jamiyatlarining ibtidotsi). Banklarning ijobiy tomonini ko‘ra bildi.

XVII asrning o‘rtalarida (1640-1660) Angliyada burjua inqilobi bo‘lib o‘tdi, feodalistik munosabatlar sinib, kapitalistik munosabatlar shakllana boshladi.

Manufaktura - italyancha «qo‘l mahsuloti» degani, mehnat taqsimoti, qo‘l hunarmandchiligi va yollanma mehnatga asoslangan oddiy kapitalistik kooperasiyadan keyingi ikkinchi bosqich. XVI asrning o‘rtalarida paydo bo‘ldi, sanoat to‘ntarilishiga, ya’ni fabrikaga zamin tayyorladi. A.Smit tomonidan yeng mukammal korxona turi deb hisoblangan.

Petti Vilyam (1623-1687) - Angliya klassik iqtisodiy maktabining asoschisi, merkantilizmni inkor yetgan, boylikning asosi ishlab chiqarishda, degan fikrni ilgari surgan, «mehnat boylikning otasi, yer yesa uning onasidir» degan iborani qo‘llagan. Kapitalistik tuzumni tabiiy va abadiy deb hisoblagan. Tovarning almashuv qiymatini tan olgan. Statistika («Siyosiy arifmetika») faniga asos solgan. Aholiga boylik yaratuvchi sifatida qaradi.

Buagilber Per (1646-1714) - Fransiya klassik iqtisodiy maktabining asoschisi. Agrar sohaning rivojiga ye'tibor berdi, kolbertizmga qarshi kurashdi, soliq tizimni isloh qilishni taklif yetdi. Pulga «buyuk yovuzlik» deb qaradi. Qiymatning iste'mol shaklini tan oldi, savdo va sanoatni to‘g‘ri baholamadi. Yerkin savdo, proporsional baholar tarafdori bo‘ldi va yerkin raqobatni qo‘llab-quvvatladi.

Fiziokratlar - Yunoncha «tabiat» va «hokimiyat» so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib Fransiyadagi klassik siyosiy iqtisod namoyandalari F.Kene, A.R.Tyurgo va boshqalar fiziokratizmga asos soldilar. Tadqiqot mavzuini muomala sohasidan (merkantilizm) ishlab chiqarish sohasiga ko‘chirdilar; yerkin savdo tarafdorlari yedilar. Fermerlar, qishloq xo‘jaligi mamlakat ravnaqining asosi deb hisoblanadi.

Kene Fransua (1694-1774) - fransiyalik fiziokratizm oqimining asoschisi, «Tabiiy tartib konsepsiyasi», «Sof mahsulot» «Unumli mehnat» to‘g‘risidagi ta'limotni yaratdi. O‘zining «Iqtisodiy jadval»ida takror ishlab chiqarishni va sinflarni tahlil yetdi, kapitalga (doimiy va aylanma) izoh berdi. Almashuv yekvivalentligi ta'limotini ilgari surdi, unda boylik yaratilmasligini isbotladi. Boylik yaratishda tabiatning ishtirokini tan oldi.

Fermer, fermer xo‘jaligi - xususiy yoki ijaraga (lendlordan) olingan yerda olib boriladigan sohibkorlik tipidagi xo‘jalik. Kapitalistik fermerchilikda yollanma mehnatni jalb yetish, oilaviy shakli yesa aksariyat xo‘jalik yegasining (fermer va uning oilasi) kuchi bilan olib boriladi. Dastlab Angliyada XVII asrda vujudga keldi. Hozir deyarli barcha mamlakatlarda mavjud. Fiziokratlar qo‘llab-quvvatlagan xo‘jalik turi. Yerkin savdo, xususiy mulk va mavjud tuzum tabiiy deb baholanadi.

Tyurgo Ann Rober Jak (1727-1781) - fransiyalik, fiziokratizm g‘oyasini rivojlantirdi. Sof bozor iqtisodiyoti tarafdori. Minimal ish haqini qo‘llagan, jamiyatda (kapitalist va ishchilarni qo‘shgan holda) beshta sinf (Keneda yesa uchta) borligini aytdi.

Smit Adam (1723-1790) - Angliya klassik iqtisodiy maktabining buyuk nazariyotchisi, manufaktura davrining iqtisodchisi. Asosiy asari «Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to‘g‘risidagi tadqiqot» (1776) bo‘lib, unda hozirgi til bilan aytganda yerkin bozor munosabatlari o‘z aksini topgan. Unda kapitalistik iqtisodiyot, xususiy mulk ideal deb hisoblanadi. Mehnat taqsimoti (vaqtdan, malaka oshishidan, mashina qo‘llashga imkon yaratishdan) uch yutuq berishini isbotlagan. Davlatning iqtisodga aralashuvi imkoni boricha kam bo‘lishi kerak, deydi. Yegoizm xususiyati jamiyat manfaatlariga qarama-qarshi yemas, degan xulosa chiqaradi. Xalq boyligi ishlayotgan odamlarning soniga va ularning mehnat unumdorligi darajasiga bog‘liq deb o‘ylagan. Manufakturani sanoatning yeng

yuksak choʻqqisi deb bilgan (bu fikr xato yedi, Chunki fabrika ustunroq). «Smit dogmasi» deb ataladigan xatoga yoʻl qoʻygan.

Gersog Baklyu - Adam Smit tarbiyachilik qilgan oila.

Sanoat toʻntarilishi (inqilobi) - Angliyada birinchi bor XVIII asr oʻrtalarida qoʻl kuchiga asoslangan manufakturadan (ikkinchi bosqichdan) mashinalashgan zavod-fabrikaga (uchinchi bosqichga) oʻtish jarayoni (XIX asrning oʻrtalarida yakunlangan). Iqtisodiy rivojlanishda muhim oʻrinni yegallaydi, ijtimoiy-siyosiy sohalarda katta oʻzgarishlarga sabab boʻlgan.

Rikardo David (1772-1823) - A.Smit ta'limotining buyuk davomchisi, sanoat toʻntarishi davrining iqtisodchisi. Mehnat taqsimotini korxona doirasidan mamlakatlarga ham joriy yetishni taklif yetgan, nisbiy ustunlik, nisbiy chiqimlar ustunligi nazariyalariga asos solgan. Fabrika davrini toʻgʻri tushungan, fritreyderlikni (yerkin savdo) qoʻllab-quvvatlagan.

Proteksionizm - lotincha, davlatning milliy iqtisodiyotini chet yel raqobatidan himoya qilishga qaratilgan iqtisodiy siyosat.

Fritreyderlik - inglizcha, yerkin savdo siyosati, proteksionizmga zid. Bu siyosatni bozor munosabatlariga oʻtgan davlatlar tashqi savdoda qoʻllaydilar.

Sismondi Sharl (1773-1842) - Jenevada tugʻilgan, Fransiyada yashagan, mayda ishlab chiqarish iqtisodining asoschisi, yirik kapitalistik ishlab chiqarishga qarshi chiqdi va buni «isbotlab berish»ga harakat qildi. Mamlakatdagi barcha illatlar yirik ishlab chiqarish tufayli deb hisoblagan, u kapitalizmni tan olmagan, davlat yoʻli bilan yirik korxonalarni tugatishni taklif yetgan. Klassik maktabga muholif.

Prudon Per Jozef (1809-1865) - fransiyalik mayda ishlab chiqarish iqtisodchisi va sosiologi, mayda ishlab chiqarishni himoya qildi, «ishchi puli» orqali mahsulot sotishni taklif yetdi. Kapitalizmni isloh qilishni taklif yetdi. P. pulga qarshi boʻlgan. Klassik maktabga muqobil fikrlar bildirgan.

Rodbertus Karl Iogann (1805-1875) - nemis iqtisodchisi, oʻz iqtisodiy gʻoyalarini «Sosial xatlar» shaklida ilgari surdi, qoʻshimcha qiymat, pul va renta boʻyicha mayda burjuacha qarashlar tarafdori. Vulgar qarash - «oʻta soddalashtirilgan», «soxtalashtirilgan» degan ma'nosi bor, gʻayriilmiy iqtisodiy nazariyalar majmui, asosiy namoyandalari Sey (1767-1832) va Maltusdir (1766-1834). Ular kapitalizmni himoya qilish maqsadida iqtisodiy jarayonlarning tashqi koʻrinishini tavsiflash va «xoʻjakoʻrsin»ga klassifikasiya qilish bilan chegaralanib, hodisaning mohiyatini tadqiq yetmaydilar. Ularga faqat ayrim masalanigina olib, butun muammoni hal qilish xosdir. V.k. namoyandalari klassik iqtisodiy maktabni inkor yetadilar.

Apologetika - biror gʻoya yoki ta'limotni xato boʻlsa ham koʻr-koʻrona himoya qilish. Ma'lum sinf, guruhlar manfaati himoya qilinadi.

Mill Jeyms (1773-1836) - ingliz iqtisodchisi, ish haqini oshirish uchun kurashmaslik tarafdori, jonli mehnat bilan birga ishlab chiqarish vositalarining mehnatini ham tan olishni talab qilgan.

Mak-Kullox Jon Ramsey (1789-1864) - ingliz olimi, Maltusni qo‘llagan, mehnat bilan birga kapital ham boylik yaratishda ishtirok yetadi, degan fikrni ilgari surdi.

Senior A. (1790-1864) - ingliz siyosiy iqtisodi vakili, «So‘nggi soat» va «Tiyilish» nazariyalarini ilgari surgan, unga ko‘ra go‘yoki ishchilar o‘n bir yarim soat ish vaqtining faqat oxirgi bir soati davomidagina foyda keltirar yekanlar.

Sey Jan Batist (1767-1837) - fransuz iqtisodchisi, klassik maktabga qarshi, «kompensasiya» nazariyasini ilgari surgan, «Sey qonuni»ning («Bozorlar qonuni») muallifi, unga ko‘ra taklif talabni avtomatik ravishda vujudga keltiradi, S. inqirozlarni inkor yetgan, sinflar o‘rtasidagi qarama-qarshilikni tan olmaydi («ular o‘rtasida uyg‘unlik bor», deydi). Proteksionizm o‘rniga savdoni targ‘ib qilgan. Ishlab chiqarishning uch omilini (kapital, ishchi kuchi va yer) ilgari surdi.

Maltus Tomas Robert (1766-1834) - ingliz iqtisodchisi, «Nufus nazariyasi», «Tuproq unumdorligining pasayib borishi qonuni»ning muallifi. Uningcha aholi geometrik progressiya asosida, noz-ne’matlar yesa arifmetik progressiya asosida o‘sib boradi, oqibatda qashshoqlikning sababi aholi soniga bog‘liq deb ko‘rsatiladi. M. aholi sonining o‘sishini cheklash tarafdori bo‘lgan.

«Uchinchi shaxslar» - XIX asr boshlarida muomalaga kiritilgan tushuncha. Xo‘jalik hayotini sinfiy tahlil qilish metodida qo‘llaniladi. Jamiyatning asosiy ishlab chiqarish kuchlari bo‘lgan tadbirkorlar va yollanma ishchilardan tashqari qatlam bo‘lib, olimlar fikri bo‘yicha ular mahsulotni yaratish va realizasiya qilishga imkon beradi.

Bastia F. (1801-1850) - fransuz iqtisodchisi, «Iqtisodiy garmoniyalar» kitobi va g‘oyasi, «manfaatlar uyg‘unligi» va «xizmatlar» nazariyalarining muallifi.

Keri Genri Charlz (1793-1879) - amerikalik iqtisodchi, «Manfaatlar uyg‘unligi» (1872) asarini yozgan. Shu g‘oyaning tarafdori bo‘lgan, millatlar uyg‘unligi g‘oyasini ilgari surdi, Rikardo va Maltusga qarshi chiqdi. Yerkin savdoni rad yetdi, proteksionizm va qulchilikni qo‘lladi.

Yekonometrika (Yekonometriya) - iqtisodiy jarayonlarga matematik usullarni qo‘llash bilan bog‘liq iqtisodiy matematik yo‘nalish. XIX asrning boshlarida vujudga keldi va hozirgi kunda nazariya va amaliyotda keng qo‘llaniladi.

Kurno Antuan Ogyusten (1801-1877) - fransiyalik matematik, birinchilardan bo‘lib matematikani iqtisodiy jarayonlarga keng qo‘llash uslubini ishlab chiqdi. Yekonometrika yo‘nalishining asoschilaridan biri, «talablarning yelastikligi» funksiyasi va grafigini yaratdi.

Iogann Genrix fon Tyunen (1783-1850) - nemis olimi, yekonometrikada matematik modellashtirish bo‘yicha yirik mutaxassis.

Iqtisodiy ta’limot, nazariya, qonun, kategoriya - merkantilizm, fiziokratizm, klassik iqtisodiy maktab, marjinalizm - bu iqtisodiy ta’limotlardir; «nufus», «so‘nggi soat», «uchinchi shaxslar», yuqori foydalilik, umumiy bandlik, qiymatning mehnat nazariyasi; qiymat, qo‘shimcha qiymat, talab va taklif qonunlari; tovar, mehnat taqsimoti, pul, narx, ish haqi, renta va boshqalar iqtisodiy kategoriyalardir.

Konsepsiya (lotincha tushuncha, tizim degani) - ma’lum predmet, hodisa va jarayonlarni tushuntirish uslubi, predmet va boshqalarga qaratilgan asosiy ko‘zqarash; ularni sistematik yoritib berish uchun bosh g‘oya; bu matn ilmiy va boshqa faoliyatdagi asosiy fikrni, konstruktiv tamoyilni belgilash uchun ham qo‘llaniladi. Masalan, tabiiy tartib konsepsiyasi va boshqalar.

Tarixiy maktab - Germaniyada (vakillari: F.List, V.Rosher, B.Gildebrand, K.Knis) vujudga kelgan siyosiy iqtisod. Unda foydalilik va yuqori naf birinchi o‘ringa qo‘yiladi. Iqtisodiy qonunlar inkor yetilib, iqtisodiy tarix bilan almashtiriladi.

Fridrix List (1789-1846) - nemis iqtisodchisi, tarixiy maktab asoschilaridan biri, uning ta’limotiga ko‘ra, qiymat «millatning ruhi» tomonidan yaratiladi; F.L. taraqqiyotni besh bosqichga bo‘ladi: badaviylik, cho‘ponlik, dehqonchilik - manufaktura, dehqonchilik - manufaktura - savdo; urush va bosqinchiliklarning tarafdori bo‘lgan, F.L. fashizmning iqtisodiy nazariyotchisidir.

Rosher Vilgelm Georg (1817-1894) - Germaniya tarixiy mni maqtabining faollaridan, iqtisodiy qonunlarning obektivligini rad yetadi, iqtisodiyotni ma’naviy fan deydi, sinfiy kurashning mavjudligini rad yetadi, urushlar madhiyachisi, Sey g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlaydi.

Knis Karl (1821-1892) - nemis iqtisodchisi, uningcha, iqtisodiy qonunlar yo‘q va tabiiy qonunlar bor. K.K. xususiy mulk va kapitalizmni abadiy deb hisoblagan. Iqtisodiy siyosatga katta o‘rin bergan.

Gildebrand Bruno (1812-1878) - nemis iqtisodchisi, iqtisodiy hodisalarni tadqiq qilishning o‘z tarixiy usulini ilgari surdi (natura, pul, kredit), uningcha qiymat - foydalilikdir va xususiy mulk abadiydir.

Sen-Simon Klod Anri (1760-1825) - Fransiya xayoliy sosializmining vakili, ammo S.S. xususiy mulkni saqlab qolish taradori bo‘lgan.

Fure Fransua Mari Sharl (1772-1837) - Fransiya xayoliy sosializmining vakili, kelajakni sinfsiz ko‘rgan, uningcha jamiyat ishlab chiqarish birlashmalari - falangalardan iborat bo‘ladi («Ish rohat bag‘ishlashi zarur»).

Ouyen Robert (1771-1858) - ingliz xayoliy sosializmining vakili, kelajakda xususiy mulkni inkor yetgan, barcha sog‘ odamlar uchun mehnat zarur deb

hisoblab, «har kimdan qobiliyatiga yarasha va har kimga mehnatiga yarasha» prinsipini ilgari surgan.

Marks Karl (1818-1883), Yengels Fridrix (1820-1895) - ilmiy sosializm nazariyasining asoschilari. Kapitalizmning o‘rniga sosializm kelishini bashorat yetganlar. Xususiy mulkni inkor qilishgan. Umumxalq mulkini asosiy deb qarashgan (tarix bularni inkor yetmoqda).

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlari - yangi tarixiy maktab va «sosial yo‘nalish» paydo bo‘ldi. Uning vakillari G.Shmoller (1838-1917), L.Brentano (1844-1931) va K.Byuxerlardir (1847-1930).

«Neoklassisizm», Avstriya maktabi - XIX asrning 70-yillarida paydo bo‘ldi, uning asosiy maqsadi Marksning qiymatning mehnat nazariyasiga qarshi kurash yedi. Vakillari: K.Menger (1840-1920), Ye.Byom-Baverk (1851-1914), F.Vizer (1951-1926). Marjinalizm, yeng yuqori naf, yeng yuqori unumdorlik g‘oyalari qo‘llaniladi.

Shmoller Gustav (1838-1917) - nemis iqtisodchisi, yangi tarixiy maktabning asoschisi, siyosiy iqtisodni xalq xo‘jaligi tarixi bilan bir deb qaradi, tarixiy formasiyaga qarshi chiqdi, unga yempirizm xos yedi. Iqtisodiyotda odob-huquq omilini birinchi o‘ringa qo‘ygan.

Brentano Lui (1844-1931) - yangi tarixiy maktab vakili, kapitalizmni madh yetgan, «Ijtimoiy inoqlik» tarafdori, «davlat sosializmi» g‘oyalarini ilgari surgan.

Verner Zombart (1863-1941) - yangi tarixiy maktabga yaqin turgan nemis iqtisodchisi, antagonistik ziddiyatlar va iqtisodiy inqirozlarning muqarrarligini inkor yetgan, kapitalizm tartibga solingan va rejali rivojlanib boradigan xo‘jalik tarzi deb tasvirlanadi. Turli tizimlarni plyuralizm asosida yaqinlashtirish mumkin, deydi. V.Z. shovinizm pozisiyalarida turgan va fashizm mafkurasining shakllanishiga ko‘maklashgan.

Menger Karl (1840-1921), Byom-Baverk Yevgeniy (1851-1914), Vizer Fridrix (1851-1926) - Avstriya maktabi vakillari, iste’mol ishlab chiqarishdan ustun qo‘yilgan, tadqiqotning Robinzonada usuli keng qo‘llanilgan, qadriyatlar (yuqori foydalilik) nazariyasi ilgari surilgan. Qiymat iste’mol qiymati bilan aynan bir xil deb talqin qilingan.

Lenin (Ulyanov) Vladimir Ilich (1870-1924) - marksizmni rivojlantirgan, imperializm to‘g‘risidagi ta’limotni yaratdi, Sovet davlatining asoschisi va rahbari, «Harbiy kommunizm», «Yangi iqtisodiy siyosat» muallifi, umrining oxirida sosializmga yangicha qarash tarafdori bo‘ldi. L. ning asosiy g‘oyalari (umumxalq mulki, qat’iy rejalashtirish, sho‘rolar tizimi) inqirozga uchradi.

Ma’muriy-buyruqbozlik (rejalashtirilgan bozor) - sobiq SSSR va «sosialistik» deb atalgan davlatlarda amalga oshirilgan bozor turi, unda davlat mulki ustun va xususiy mulk deyarli yo‘q, imperativ qat’iy reja hukmron, yerkin

raqobat inkor yetiladi; qat'iy baholar qo'llanadi. Hayot bozorning bu turini inkor yetmoqda.

«Harbiy kommunizm» siyosati (1918-1920) - Sovet davlatida qo'llanilgan, tovar-pul munosabatlari inkor yetilgan, qat'iy taqsimot va to'la milliylashtirish hamda oziq-ovqat razverstkasi amalga oshirilgan, bir qancha sosial sohalar tekin bo'lgan (transport, yelektr yenergiyasi, kommunal xizmatlar). X.k. davrida mamlakat og'ir inqirozga uchradi.

«Yangi iqtisodiy siyosat» (Novaya yekonomicheskaya politika, «NEP») - Sovet davlatida 1921 yilda joriy yetilgan. Tovar-pul munosabatlariga keng o'rin berilgan, denasionalizasiya amalga oshirilgan, xususiy ishlab chiqarish va savdoga keng o'rin berilgan va yagona oziq-ovqat solig'i joriy yetilgan. Ya.i.s.dagi kapitalistik munosabatlar iqtisodiyotni tez tiklash va rivojlantirishga imkon berdi. Faqat og'ir sanoat, bank, temir yo'l, tashqi savdogina davlat monopoliyasida bo'lgan. Moliya tizimi pul islohoti orqali kuchaytirilgan. 1928 yildan boshlab inkor yetilib, ma'muriy-buyruqbozlikka o'tildi.

Chayanov Aleksandr Vasilevich (1888-1937) - taniqli iqtisodchi, Rossiyada tashkiliy ishlab chiqarish maktabining asoschisi, dehqonni mehnat xo'jaligining asosi deb, oilaviy mehnat yacheykasini tashkil yetgan (kollektivizasiyaga qarshi); kooperasiya va agrar sohalarda 200 ga yaqin asar yozgan, bosh asari «Xo'jalikning nokapitalistik sistemalari nazariyasi»dir. Ch. 1937 yilda repressiya qilinib, qatl yetilgan. Ilmiy g'oyalari hozirda ham ilmiy-amaliy ahamiyat kasb yetadi.

Monopoliya - ishlab chiqarish va banklarning yiriklashuvi va markazlashuvi, sof raqobat yo'qoladi (nomukammal raqobat), monopol baho, foyda yuzaga keladi.

Marjinalizm - fransuzcha «chegaraviy» ma'nosidagi so'zdan olingan, XIX asrning 70-yillari Jevons, Menger, Valraslar tomonidan ochilgan iqtisodiyotning metodologik prinsiplaridan biri, iqtisodiy hodisalarni tahlil yetishda yeng chekka ko'rsatkichlarga suyanadi. Iste'molni ishlab chiqarishdan ustun qo'yadi. Qiymatning mehnat nazariyasi inkor yetiladi. Avstriya maktabi vakillari tomonidan qo'llanilgan. XIX asrning o'rtalarida fransuz iqtisodchisi Kurno (1821-1877), nemis iqtisodchilari Tyunen (1783-1850), Gossen (1810-1858) birinchi bo'lib marjinal tahlilni iqtisodiy nazariyaga joriy yetishga uringan. Uning kategoriyalari: qimmat, yeng yuqori, chegaralangan naf, noyoblik, ishlab chiqarishning yeng yuqori unumdorligi va boshqalar.

Kembridj maktabi (Angliya)- asosiy vakili Alfred Marshall (1842-1924), «qiymasiz baho» nazariyasini ilgari surdi, bahoga «yeng yuqori naf» va ishlab chiqarish chiqimlari ta'sir qiladi, degan. Marksning «qiymatning mehnat

nazariyasi»ga qarshi. «Siyosiy iqtisod»ni «Yekonomiks» bilan almashtirdi. Asosiy asari «Iqtisodiyot prinsiplari» (1890), 3 jilddan iborat, rus tiliga o‘girilgan.

Lozanna maktabi - L.Valras va V.Pareto (1848-1923) tomonidan iqtisodiyotda yekonometrika usullarini keng qo‘llash tufayli paydo bo‘lgan.

Amerika maktabi Jon Beys Klark (1847-1938) - Amerika maktabi vakillaridan, AQSh va Kolumbiya universitetlari professori, Amerika maktabi asoschisi, Amerika iqtisodiy uyushmasini tuzish (1885) tashabbuskorlaridan biri. Psixologik va ma’naviy omillar hal qiluvchi deb qaralgan. Avstriya maktabi prinsiplariga qo‘shilgan. «Mehnat va kapitalning pasayib boruvchi unumdorligi» qonunini kashf yetgan. Marjinalizm g‘oyalarini rivojlantirgan.

Bozor iqtisodiyoti - tovar-pul munosabatlariga asoslangan va ularga xos iqtisodiy qonunlar asosida boshqariladigan iqtisodiyot. Uzoq tarixga yega bo‘lib, sohibkorlarning yerkinligi va raqobatni taqozo yetadi. Qiymat qonuni, talab va taklif qonuni, pul muomalasi qonuni B.i.ga xos obektiv qonunlardir. Bozor yesa sotuvchi bilan xaridor o‘rtasida tovarni pulga ayirboshlash munosabatidir.

Bozor munosabatlarining shakllanishi - ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi davridayoq boshlangan, ammo tovar-pul munosabatlarining rivoji kapitalizm bosqichiga to‘g‘ri keladi (Makkonell K.R., Bryu S.P., «Yekonomiks», M.,1992, 12-bet).

Hozirgi zamon iqtisodiy ta’limotlarining uch asosiy yo‘nalishi mavjud: 1.Neoklassik (yangi klassik); 2. Keynschilik; 3. Institusional.

Institusionalizm - lotincha «urf-odat», «muassasa», «ko‘rsatma», ya’ni ayrim institutlar (oila, davlat, monopoliya, kasaba uyushmasi) ijtimoiy taraqqiyotning asosi deb qabul qilgan nazariya.XX asrning 20-30-yillarida AQShda keng tarqaldi. T.Veblen (1857-1920), J.R.Kommons (1862-1945), U.K.Mitchell (1874-1948), J.Gobson (1858-1940) va boshqalar bu nazariyaning 20-30-yillardagi vakillaridir, keyingilari yesa Klark, Berli, G.Minz (50-yillar), Lou, Myurdal, Gelbreyt, Xeylbroner (60-yillar va hozirgi davr) obektiv iqtisodiy qonunlarning mavjudligini inkor yetadilar.

Buyuk depressiya - 1929-1933 yy. va hatto 1940 yilgacha AQSh va jahondagi yirik iqtisodiy inqiroz, ishlab chiqarish 50% kamaygan, ishsizlik 25% oshgan (17 mln.).

Keyns Jon Meynard (1883-1946) - ingliz iqtisodchisi, keynschilikning asoschisi, 1929-1933 yillarda Buyuk inqirozni tahlil yetib, jamoat ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta’minlash maqsadida davlatni kapitalistik iqtisodiyotni boshqarishiga asoslangan nazariyasini yaratdi. Milliy daromad, kapital mablag‘, ish bilan bandlik, iste’mol, jamg‘arish va boshqa iqtisodiy miqdorlarning tahliliga alohida ye’tibor berdi. «Boshqariladigan kapitalizm»ning tarafdori bo‘ldi, turli yo‘nalishlari mavjud. A.Marshallning do‘sti, marksizmning

ashaddiy dushmani, «aralash iqtisodiyot»ning otasi va «Iqtisodiy jurnal»ning muharriri. Asosiy asari «Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» (1936). *Multiplikator* formulasini taklif yetgan, investisiyalarning o‘sishi, bandlik va daromadlarning o‘sishi o‘rtasidagi nisbatni ko‘rsatgan, masalan, AQSh uchun o‘sha davrda bu ko‘rsatkich 2.5 bo‘lgan, ya’ni investisiya qilingan 1 dollar 2.5 dollar daromad keltirgan.

Likvidlik - moddiy ne’matlar va boshqa resurslarning tez pulga aylana olish qobilyati; korxonani o‘z majburiyatlarini o‘z vaqtida to‘lay olish qobiliyati balansning aktiv punktlarini pulga aylantirish.

Keynschilik - J.M.Keynsning fikrlarini ilgari suruvchi yo‘nalish, uch oqimi mavjud: 1. O‘ng oqim - o‘ta reaksion oqim, qurollanish tarafdori, tartibga solish takliflari bor. Germaniya va Italiyada keng tarqalgan; 2. Liberal oqim - monopoliya manfaatlarini himoya qiluvchi va qurollanishni inkor yetuvchi oqim. Uning asosiy vakili Jenni Robinson xonim, bu oqimda kasaba uyushmalariga keng o‘rin berilgan. Fransiyada «dirijizm» (dirijer so‘zidan olingan) nazariyasi vujudga kelgan; 3. Yangi keynschilik, keyinroq ortodoksal keynschilik - J.M.Keynsning qoidalari to‘la qabul qilingan holda A.Xansen tomonidan stagnasiya nazariyasi bilan to‘ldiriladi. A.Xansen va K.Klark multiplikator prinsipini *akselerator* prinsipi bilan to‘ldirdilar, indusirlangan investisiya tushunchasini kiritdilar. *Imperativ* (zaruriy) va *Indikativ* (taklif majburiy yemas) rejalashtirishlardan foydalanish mumkinligi aytiladi (Fransiya va bir qancha mamlakatlarda keng tarqalgan). Asosiy vakillari fransiyalik G.Ardan, G.Mendes-Frans, F.Perru, S.Xarrislardir. Yangi keynschilik o‘rniga postkeynschilik vujudga keldi, uning vakillari J.Robinson, N.Kaldor, P.Sraffa (Angliya), L.Yeyxner, .Vayntraub (AQSh); bu oqimda o‘sish va taqsimot markaziy deb hisoblanadi. Iqtisodni tartibga solish mexanizmini yanada takomillashtirish taklif yetiladi.

Multiplikator - ko‘paytiruvchi; iqtisodiyot ta’limotlarida ma’lum bog‘lanishlarni o‘rganishda, multiplikasiya yeffekti bor joylarda qo‘llaniladi. Masalan, Keyns ta’limoti bo‘yicha qo‘yilgan investisiya va daromadlar o‘rtasidagi bog‘lanishni ko‘rsatuvchi koyeffisiyent.

Akselerator-multiplikatorga teskari bo‘lgan koyeffisiyent bo‘lib, milliy daromad o‘sishining investisiya o‘suviga ta’sirini ko‘rsatadi (neokeynschilar qo‘llagan).

Yangi klassik (neoklassik) yo‘nalish - Farb iqtisodiy adabiyotida «Yangi klassik yekonomiks» deb ataladi va bu yo‘nalish asosida marjinalizm g‘oyalari yotadi. Buyuk ingliz iqtisodchisi A.Marshall (1842-1894) nomi bilan bog‘liq. Shu davrda «Siyosiy iqtisod» o‘rniga mafkurasiz «Yekonomiks» matni paydo bo‘ldi. Unda sof yerkin bozor iqtisodiyoti targ‘ib yetiladi, davlatning roli imkoni boricha kam bo‘lmog‘i kerak. Bu yo‘nalishda liberalizm va neoliberalizm oqimlari

mavjud. Amerika monetarizmi - M.Fridman (1912, AQSh) o‘zining «Kapitalizm va yerkinlik» (1960) kitobida «yerkin ishbilarmonlik»ni himoya qiladi. «Ozodlik yo‘lida qurbon berish»ni va «tabiiy ishsizlik»ni qo‘llab-quvvatlaydi, davlat tomonidan beriladigan yordamga qarshi chiqadi, iqtisodiyotni to‘g‘ri pul siyosati bilan (davlat kam aralashadi) tartibga solish tarafdori. Bu oqim g‘oyalari Rossiya Federasiyasi iqtisodiyotida qo‘llanilmoqda.

«Marshall xochi» - talab va taklif yegri chiziqlarining kesishganligini ko‘rsatadi; kesishgan nuqta ularning muvozanatini hamda turg‘un bahoni ko‘rsatadi.

Fridman Milton (1912, Nyu York) - *iste’mol: pulning tarixi va nazariyasi* sohalaridagi tadqiqotlari uchun 1976 yilda Nobel mukofoti bilan taqdirlangan. Uning pul to‘g‘risidagi g‘oyalari (monetarizm) AQShda R.Reygan, Buyuk Britaniyada M.Tetcher iqtisodiy siyosatida qo‘llanilgan.

Samuyelson Pol (1915, AQSh) -ko‘p marta qayta nashr yetilgan «Yekonomiks» (1948) darsligini yaratdi (rus tiliga ham ag‘darilgan), 1970 yilda iqtisodiyot fanlarida ilmiy tahlil darajasini oshirishga qo‘shgan hissasi uchun Nobel mukofotini olgan. Iqtisodiyotning barcha sohalariga oid ilmiy ishlari bor. «Aralash iqtisodiyot»ning nazariyotchisi. Neoklassik tahlil bo‘ycha, taraqqiyotning «to‘rt g‘ildiragi» asoschisi.

Neoliberalizm - neoklassikaning bir oqimi, klassik iqtisodiy maktabni va keynschilikni birga qo‘llash tarafdori, bunda davlatning iqtisodiyotga aralashmasligi taklif yetiladi. Asosiy vakillari L. fon Mizes (1881-1973), F. fon Xayek (1899-1992) bo‘lib, bu oqim Avstriya maktabi deb ham yuritiladi. Sosialistik (imperativ) rejalashtirishga qat’iy qarshi, Chunki bu rejalangan tartibsizlikka olib keladi, mehnat taqsimoti, xususiy mulk va yerkin almashuv sivilizasiyaning mutlaq asosi deb sanaladi. Xayek 1974 yilda Nobel mukofoti sovrindori bo‘lgan. Neoliberalizm g‘oyalari asosida «Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti» yuzaga keladi, uning asoschilari - nemis olimlari V.Rebke (1899-1966), V.Oyken (1891-1950), L.Yerxard (1897-1977)lardir. Bu konsepsiya GFR va Shvesiyada yaxshi natija berdi, uning asosiy g‘oyalari mustaqil O‘zbekiston iqtisodiyotida qo‘llanilmoqda. Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotining asosiy qoidalari: yerkin baholarning zarurligi; yerkin raqobat; talab va taklifning muvozanati; iqtisodiyotning muvozanati; davlat bozor xo‘jaligida shu shartlarni kafolatlashi va uning ijtimoiy yo‘naltirilgan rivojini ta’minlash. N. nafaqat ma’muriy-buyruqbozlik tizimidan, balki kapitalizmning yerkin raqobatlarga asoslangan davridan ham qat’iyan farq qiladi. Mustaqil O‘zbekistonda undan ijobiy foydalanilmoqda.

Lukas R.I. - neoliberalizmning tarafdori, «Rasional kutilmalar» nazariyasi uchun 1995 yilda Nobel mukofoti sovrindori. Ijtimoiy-institusional yo‘nalish

yevolyusiyasi industrial jamiyatdan postindustrial, superindustrial (neoindustrial) jamiyat sari boradigan konvergensiya nazariyalarida (Gelbreyt, P.Sorokin - AQSh, Raymon, Aron - Fransiya, Tinbergen - Niderlandiya) kapitalizm va sosializmning ilg‘or tomonlarini olish va amalda qo‘llash taklif yetiladi.

«Xalq kapitalizmi» nazariyasi - kapitalizm transformasiyasi (o‘zgarishi) bilan bog‘liq, go‘yoki hozirgi kapitalizm «yeski kapitalizm»dan keskin farq qiladi, ilgarigi illatlar yo‘qolgan. X.k.ning vakillari: Berli, Nidler, Cheyz, Klark, Gelbreyt... «Kapitalning demokratizasiyalashuvi» («Mulk diffuziyasi») yo‘li bilan aholining barcha qismi mulkka yegalik qiladi (aksionerlik jamiyatlari).

Konvergensiya nazariyasi - bu nazariyaning asosida kapitalistik ijtimoiy sistemalar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy tafovutlar go‘yo asta-sekin bartaraf yetiladi, degan g‘oya yotadi. Asosiy vakillari: U.Rostou, J.Gelbreyt (1908), Ya.Tinbergen (1903).

Yekonometrika konsepsiyalari - iqtisodiyotda matematika metodlaridan keng foydalanishga asoslangan konsepsiyalar. Asosiy vakillari L.Valras, V.Pareto (Lozanna universiteti), fon Neyman, U.Mitchell, Ye.Barone, M.Panteleoni. 1910 yilda polshalik iqtisodchi P.Chompa «Yekonometriya» («Yekonomterika») matnini qo‘llagan. Ilmiy muomalaga (1926) norvegiyalik R.Frish kiritgan. AQSh, Buyuk Britaniya, Niderlandiya va boshqa mamlakatlarda keng rivoj topmoqda. Turli iqtisodiy ta’limot yo‘nalishlarida qo‘llaniladi, ilmiy va amaliy ahamiyatga molik. V.Leontev ham bu konsepsiyalardan (1906) o‘zining «chiqim - chiqarish» uslubida foydalangan (U 1973 yilda Nobel mukofoti sovrindori bo‘ldi). 60-70-yillarda bu yo‘nalish sobiq SSSR, xususan O‘zbekistonda rivoj topdi. Respublikamizning olim va mutaxassislari tomonidan iqtisodiy modellashtirish va algoritmlash bo‘yicha muhim tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Jahon xo‘jaligi - qadimdan vujudga kelgan, ammo XVI asrdagi buyuk geografik kashfiyotlar tufayli rivoj topgan, ayniqsa II Jahon urushidan keyin avj olgan xalqaro iqtisodiy munosabatlar majmui. Xalqaro mehnat taqsimoti bu xo‘jalikning moddiy asosini tashkil yetadi. Xalqaro integrasiyada baynalmilallik xos.

Xalqaro mehnat taqsimoti - butun jahon xo‘jaligining tashkil topish va rivojlanishining hal qiluvchi omili. Birinchi bo‘lib uning zarurligini D.Rikardo aytgan. Ayrim ishlab chiqarish korxonalaridagi kabi (A.Smit), jahon xo‘jaligida ham mehnat taqsimoti nisbiy chiqimlar ustunligini beradi, ya’ni ayrim mamlakatlarning ma’lum sohada ixtisoslashuvi yuqori samara beradi.

Jahon iqtisodiyoti nazariyalari - jahon bozorida mahsulot, valyuta, ishchi kuchi va boshqalarning harakat jarayonlariga xos qonun va qonuniyatlarini o‘rganuvchi nazariyalar. «Ishlab chiqarish omillarining xalqaro taqsimoti» nazariyasi tipikdir (Ye.Xeksher, B.Olin, P.Samuyelson); «Mahsulot hayoti sikli»

nazariyasi (G.Xufbauyer, R.Vernon, M.Pozner); Monopolistik raqobat nazariyasi (Ye.X.Chemberlin) va boshqalar.

Absolyut (mutlaq) afzallik prinsipi - A. Smit tomonidan ilgari surilgan g‘oya bo‘lib, savdo munosabatlaridagi mutlaq afzallikni anglatadi (tovarlarni ishlab chiqarishda sarf-xarajatlarning ustunligi hal qiluvchi hisoblanadi).

Nisbiy afzallik prinsipi - D. Rikardo tomonidan izohlab berilgan prinsip bo‘lib, ishlab chiqarish omillari (kapital, mehnat, yer) xarajatlarining afzalligini ko‘rsatadi va tashqi iqtisodiy aloqalarda keng qo‘llaniladi.

Insoniy rivojlanish konsepsiyasi - BMT tomonidan 90-yillarda ilgari surilgan. Unda taraqqiyot natijalarining inson bilan hamohang bo‘lishi ko‘zda tutiladi, moddiy boylik (yalpi milliy mahsulot) bilan birga sog‘lom hayot, savodxonlik, demokratik institutlar bilan birinchi o‘ringa qo‘yiladi (ayrim davlatlar kambag‘al bo‘lishiga qaramay, bu sohada yuqori natijaga yerishmoqdalar va aksincha) hamda «ijtimoiy rivojlanish indeksi» (IRI) bilan o‘lchanadi.

Nokapitalistik (kapitalizmni chetlab) rivojlanish konsepsiyasi - ilgari qoloq bo‘lgan, kapitalizm taraqqiyoti bosqichini to‘la bosib o‘tmagan mamlakatlar uchun tavsiya yetilgan rivojlanish yo‘li. Bir qancha mamlakatlar shu yo‘ldan borib, sosializm quryapmiz, deb o‘ylagan. Hayot buni inkor yetdi.

O‘tish davri - bu yerda ma’muriy-buyruqbozlik (imperativ rejalashtirilgan) iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga o‘tish davri. O‘z davrida sosiolistik deb atalgan mamlakatlarning, xususan, O‘zbekistonning bozor munosabatlariga o‘tish davri.

ISMLAR RO`YXATI

A

Avgustin Avreliy	(354-430)
Adamson	
Alle M.	(1911 yilda tug`ilgan)
Allen R.	(1906-1983)
Alchian A.	(1914 yilda tug`ilgan)
Antonovich A.	(1848-1917)
Aristotel`	(m.avv. 384-322)
Aron R.	(1905-1983)
Aftal`on A.	(1874-1956)

B

Babst I.	(1824-1881)
Bazarov (Ruziev) V.	(1874-1939)
Balug`yanskiy M.	(1769-1847)
Barbon N.	(1640-1698)
Barengol`ts M.	
Barone E	
Bastia F.	
Bezobrazov V.	(1828--1889)
Bekkr G.	(1930 yilda tug`ilgan)
Bell D.	(1919 yilda tug`ilgan)
Byom – Baverk E.	(1851-1914)
Bentam I.	(1748-1832)
Berl` A.	(1895-1971)
Bernxem Dj.	(1905-1987)
Bilimovich A.	(1876-1963)
Bogdanov (Malinovskiy) A.	(1873-1928)
Boden J.	(1530-1596)
Brentano L.	(1844-1931)
Brey Dj	(1809-1895)
Buagil`ber P.	(1646-1714)
Bulgakov S.	(1871-1944)
Bunge N.	(1823-1895)
Butovskiy A.	(1817-1890)
Buxarin N.	(1888-1938)
B`yukenen Dj.	(1919 yilda tug`ilgan)

Bekon F. (1561-1626)
Byuxer K. (1847-1930)

V

Val`d A.
Val`ras L. (1834-1910)
Varron (mil. avv. 116-27)
Veber M. (1864-1920)
Veblen T. (1857-1929)
Vernadskiy I. (1821-1884)
Vizer F. (1851-1926)
Veksel` K. (1851-1926)
Vindel`band V. (1848-1915)
Vitt U.
Vitte S. (1849-1915)
Voytinskiy V. (1885-1960)
Vol`ter (1694-1788)
Vorontsov V. (1847-1918)

G

Gegel` G.V.F. (1770-1831)
Gel`vetsiy K.A. (1715-1771)
Gel`d A.
Gertsen A. (1812-1870)
Gobbs T. (1588-1679)
Godskin T. (1787-1869)
Golitsin D. (1734-1803)
Gol`bax
Gorlov I. (1814-1890)
Gossen G. (1810-1858)
Grey Dj. (1798-1850)
Greshem T. (1519-1579)
Gurne V. (1712-1759)
Gutman P.
Gelbreyt Dj. (1908 yilda tug`ilgan)

D

D`Alomber
Davantsati B. (1529-1606)
Davenant SH.
Davidson P. (1930 yilda tug`ilgan)

Daniel`son P.	(1844-1918)
Danlop Dj.	
Darvin CH.	(1809-1882)
Debre D.	(1921 yilda tug`ilgan)
Demsets X.	(1930 yilda tug`ilgan)
Desnitskiy S.	(1740-1789)
Defo D.	(1660-1731)
Djevons U.	(1835-1882)
Didro D.	(1713-1784)
Dil`tey V.	(1833-1911)
Dmitriev V.	(1868-1913)
Domar (Domashevitskiy) E.	(1914-1998)
Druker P.	
Duglas P.	(1892-1976)
Devis L.	
Dyunuaye SH.	(1786-1862)
Dyupyui J.	(1804-1866)
E	
Yermolay – Erazm	(XVI v.)
J	
Jams E.	
Jyuglar K.	(1819-1905)
Z	
Zalesskiy V.	(1861-1922)
Zimmel` G.	(1858-1918)
Zombart V.	(1863-1941)
I	
Ibn – Xaldun	(1332-1406)
Ivanyukov I.	(1844-1912)
K	
Kablukov N.	(1849-1919)
Kalabrezi G.	
Kaldor N.	(1908-1986)
Kan R.	(1905-1989)
Kantil`on R.	(1680-1734)
Kantorovich L.	(1912- 1986)
Karishev N.	(1855-1905)
Kassel` G.	(1866-1945)
Katon Starshiy	(Mil. Avv. 234-149)

Kautil`ya	(mil. Avv. IV asr)
Keyns Dj.N.	(1852-1949)
Keyns Dj.M.	(1883-1946)
Kene F.	(1694-1774)
Kirtsner I.	(1930 yilda tug`ilgan)
Klark Dj.B.	(1847-1938)
Klark K.	(1905 yilda tug`ilgan)
Klauer R.	
Knis K.	(1821-1898)
Kobb	
Kolumella	(mil. Avv. I asr)
Kol`ber J.	(1619-1683)
Kommons Dj.	(1862-1945)
Kondrat`ev N.	(1892-1938)
Kont O.	(1798-1857)
Kopernik N.	(1473-1543)
Kouz R.	(1910 yilda tug`ilgan)
Kritsman L.	(1890-1937)
Ksenofont	(mil. Avv. 480-355)
Kuznets S.	(1901-1985)
Kupmanns T.	(1910-1985)
Kurno A.O.	(1801-1876)

L

Lang Y.	(1775/6-1820)
Lange O.	(1904-1965)
Laffer A.	(1941 yilda tug`ilgan)
Leyonxuvvud A.	(1933 yilda tug`ilgan)
Lenin (Ul`yanov) V.	(1870-1924)
Leont`ev V.	(1906-1999)
Lerner A.	(1903-1983)
Li Kuy	(mil. Avv. IV asr)
Liliental` D.	
Lindal` E.	(1991-1960)
Lippmann U.	(1889-1974)
List F.	(1789-1846)
Littl` I.M.D.	
Lokk Dj.	(1623-1704)
Lo Dj.	(1671-1729)
Lunberg E.	(1907-1987)

M

Magnusson L.	
Makarov N.	(1887-1980)
Makkalox Dj.	(1789-1864)
Maksvell Dj.	
Mal`tus T.	(1766-1834)
Mann T.	(1571-1641)
Mandevil` B.	(1670-1733)
Marks K.	(1818-1883)
Marshall A.	(1842-1924)
Menger K.	(1840-1921)
Mendeleev D.	(1834-1907)
Mizes L.	(1881-1973)
Mill` Dj.S.T.	(1806-1873)
Milyutin V.	(1826-1855)
Minz G.	(1886-1988)
Minin A.	(1881-1943)
Mirabo	(1715-1789)
Mitchell U.	(1874-1948)
Monkret`en A.	(1575-1621)
Montesk`e SH.L.	(1689-1755)
Morgenshtern O.	(1902-1977)
Mutt Dj.	(1930 yilda tug`ilgan)
Messi D.	(1784 yilda vafot etgan)
Myuller – Armak A.	(1901-1978)
Myurdal` G.	(1898-1987)

N

Nadler M.	
Nayt F.	(1895-1973)
Nel`son R.R.	
Neyman Dj.fon	(1903-1957)
Nors D.	(1641-1691)
Nort G.	(1920 yilda tug`ilgan)
N`yuton I.	(1643-1727)

O

Oyken V.	(1891-1950)
Ordin- Nashchokin A.	(1605-1680)
Orjentskiy R.	(1863-1923)
Ouen R.	(1751-1808)

P

Pareto V.	(1848-1923)
Potinkin D.	
Pantaleoni M.	
Peru F.	(1903-1987)
Petti U.	(1623-1687)
Pigu A.	(1877-1959)
Pixno D.	(1853-1913)
Platon	(mil.avv. 428-348)
Pozner K.	
Popov P.	(1872-1950)
Postnikov A.	(1846-1921)
Prudon P.J.	(1809-1865)

R

Ramsey F.	(1903-1930)
Reygan R.	(1911-2004)
Repke V.	(1899-1966)
Rikkardo D.	(1772-1873)
Rikkert G.	
Robbins R.	(1898-1984)
Robbertson D.X.	
Robinson Dj.	(1903-1983)
Rostou U.	(1916-2003)
Rotbard M.N.	
Rosher V.	(1817-1894)
Ruzvel` F.D.	(1882-1945)
Russo J.J,	(1712-1778)
Ribnikov A.	(1877-1939/41)
Ryustof A.	(1885-1963)

S

Sovin`i F.	
Saltikov F.	(1715 yilda vafot etgan)
Sal`vadori M.	
Samuel`son P.	(1915 yilda tug`ilgan)
Seligmen B.	
Serafim X.YU.	
Serra A.	
Sismondi S. D.	(1773-1842)
Slutskiy E.	(1880-1948)

Smit A.	(1723-1790)
Solou R.	(1924 yilda tug`ilgan)
Spenser G.	
Speranskiy M.	(1772-1839)
Sraffa P.	(1898-1983)
Stalin I.	(1878-1953)
Stern F.	
Stolyarov N.	
Struve P.	(1870-1944)
Styuart Dj.	(1912-1780)
Stsitovskiy T.	
Sey J.B.	(1767-1832)
Syulli M.	(1560-1641)

T

Tagvell R.	(1891-1979)
Tallok G.	
Terner D.	
Tinbergen YA.	(1903-1994)
Tobin Dj.	(1918 yilda tug`ilgan)
Tomas R.	
Tompson U.	(1785-1833)
Toffler A.	(1928 yilda tug`ilgan)
Tret`yakov I.	(1735-1779)
Trumen G.	(1884-1972)
Tugan – Baranovskiy M.	(1865-1919)
Tyunen I.G.	(1783-1850)
Tyurgo A.R.J.	(1724-1781)
Tyutchev F.	(1803-1873)

U

Uatt Dj.	
Uil`yamson O.I.	(1937 yilda tug`ilgan)
Uinter S.	
Ulin B.	(1899-1979)
Uollis Dj.	

F

Fel`tstayn M.	(1930-yilda tug`ilgan)
Felps N.	(1914-1975)
Fel`dman G.	(1884-1958)
Fillips E.	(1914-1975)

Fisher I.	(1867-1947)
Fogel` R.	(1926 yilda tug`ilgan)
Foma Akvinskiy	(1225-1274)
Franklin B.	(1706-1790)
Fridmen M.	(1912 yilda tug`ilgan)

X

Xaberler G.	(1900-1974)
Xayek F.	(1899-1992)
Xansen A.	(1887-1975)
Xarrod R.	(1900-1978)
Xiks Dj.	(1904-1989)
Xil`debrand B.	(1812-1878)
Xodjson D.	

CH

Chayanov A.	(1888-1938)
Cheyz S.T.	
Chelintsev A.	(1874-1962)
Chemberlin E.	(1899-1967)
Chernishevskiy N.	(1828-1889)
Chuprov A.	(1842-1908)

SH

Shan Yan	(mill. Avv. IV asr)
Shaposhnikov M.	(1878-1939)
Sheval`e M.	(1806-1879)
Shlyotser X.	(1774-1831)
Shmoller G.	(1838-1917)
Shpitxoff A.	(1873-1957)
Shtammler R.	
Shtorx G.	(1776-1835)
Shumpeter I.	(1883-1950)

E

Evans P.	
Eggerdson T.	
Edjuort F.	(1845-1926)
Engel`s F.	(1820-1895)
Eli R.	
Errou K.	(1921 yilda tug`ilgan)
Erxard L.	(1897-1977)

YU

Yum D. (1711-1776)
Yurovskiy N. (1884-1938)

YA

Yanjul` I. (1846-1910)
Yakob L. (1759-1827)

MUNDARIJA

KIRISH……		3
I-BOB.	IQTISODIY TA`LIMOTLAR TARIXI FANIGA KIRISH…	5
1.1.	Iqtisodiy ta’limotlar atamasi shakllanishining tarixiy bosqichlari	5
II-BOB.	QADIMGI SHARQ, ANTIK DUNYO, FEODAL JAMIYAT VA ILK KAPITALIZMNING IQTISODIY TA’LIMOTLARI	9
2.1.	Qadimgi Sharq iqtisodiy fikrlari …….	9
2.2.	Antik dunyo iqtisodiy ta’limotlari……	12
2.3.	Feodal jamiyat va ilk kapitalizmning iqtisodiy ta’limotlari…	15
III-BOB.	MERKANTILIZM IQTISODIY TA’LIMOTINING MOHIYATI VA AHAMIYATI……..	25
3.1.	Merkantilizm shakllanish davri tavsifi……	25
3.2.	Merkantilizm umumiy tavsifi……..	26
3.3.	Kapital nazariyasi……	29
3.4.	Protektsionizm siyosati……	30
3.5.	Erta va kechki merkantilizm farqi……	31
3.6.	Rossiyada merkantilizm……	33
IV-BOB.	ANGLIYA VA FRANSIYADA KLASSIK (MUMTOZ) MAKTABNING SHAKLLANISHI……	35
4.1.	Klassik (mumtoz) siyosiy iqtisodiyot umumiy tavsifi……	35
4.2.	Angliyada klassik (mumtoz) siyosiy iqtisodiyot shakllanishi…	37
4.3.	Fransiyada klassik (mumtoz) siyosiy adabiyoti shakklanishi…	40
V-BOB.	KLASSIK IQTISODIY MAKTABNING TO‘LA SHAKLLANISHI. ADAM SMIT VA DAVID RIKARDO IQTISODIY TA’LIMOTLARI…….....	49
5.1.	Adam Smit iqtisodiy qarashlari……	49
5.2.	D. Rikardo iqtisodiy qarashlari……	54
VI-BOB.	KLASSIK IQTISODIY MAKTABGA MUQOBIL G‘OYALAR MOHIYATI……	59
6.1.	J.B.Sey iqtisodiy qarashlari……	59
6.2.	T.Mal`tus iqtisodiy qarashlari. Davlatning iqtisodiyotdagi roli	61
6.3.	S.Sismondi iqtisodiy qarashlari……	63
VII-BOB.	BOZOR IQTISODIYOTIGA MUXOLIF – SOTSIALISTIK YO‘NALISH MOHIYATI VA UNING TARIXI TADBIRI…	67
7.1.	R. Ouen va sotsialist - rikardianlar iqtisodiy nazariyasi……	67
VIII-BOB.	XIX ASR O`RTALARIDA MUMTOZ SIYOSIY IQTISODNING TUGASHI……	69
8.1.	Dj.S. Mill` iqtisodiy nazariyasi……	69
8.2.	K. Marks iqtisodiy nazariyasi……	72
8.3.	Rossiyada mumtoz siyosiy iqtisodiyot……	75
IX-BOB.	GERMANIYADAGI TARIXIY MAKTAB G‘OYALARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI……	82
9.1.	F. List va eski tarixiy maktab iqtisodiy kontseptsiyalari……	82
9.2.	Yangi tarixiy maktab iqtisodiy kontseptsiyalari……	84

X-BOB.	MARJINALIZM TA’LIMOTI……	89
10.1.	Iqtisodiyot fanida marjinalistik inqilob……	89
10.2.	Marjinalistika g`oyasining davriyligi……	90
10.3.	Marjinalistik inqilob asoschilari……	93
10.4.	Marjinalistik inqilob natijalari……	95
XI-BOB.	MARJINALIZM NEOKLASSIK IQTISODIY MAKTABLAR	97
11.1.	Avstriya maktabining asosiy nazariy holatlari……	97
11.2.	Ishlab chiqarish vositalari tannarxi……	99
XII-BOB.	A. MARSHALL VA D.B.KLARK IQTISODIY NAZARIYASI	102
12.1.	Marshal va Klark nazariyalari……	102
12.2.	«Kvazirenta» yoki iste`molchi va sotuvchida ortiqcha tovar yig`ilishi……	105
XIII-BOB.	LOZANNA MAKTABI IQTISODIY NAZARIYASI (L.VAL`RAS, V.PARETO)……	107
13.1.	Lozanna maktabi nazariyasi……	107
13.2.	L.Val`ras. Umumiy iqtisodiy muvozanat……	107
13.3.	V. Pareto. Umumiy iqtisodiy muvozanat……	108
13.4.	Foydalilikni ordinalistik nazariyasi……	109
13.5.	Rossiyada marjinalizm qismati……	112
XIV-BOB	INSTITUTSIONALISM YO`NALISHI MOHIYATI VA AHAMIYATI……	116
14.1.	Institutsionalistik yo`nalish umumiy tavsifi……	116
14.2.	Institutsionalizm shakllanishi umumilmiy asoslari……	117
14.3.	Institutsionalizm shakllanishi bosqichlari……	118
14.4.	XX asr boshida Amerika institutsionalizmi……	119
14.5.	Iqtisodiy sikl nazariyalarining vujudga kelishi……	123
XV-BOB	NEOLIBERALIZM G‘OYALARINING MOHIYATI VA AHAMIYATI……	129
15.1.	XX asrda iqtisodiyot fanining rivojlanishi……	129
15.2.	1920-1930-yillar davomida iqtisodiyot fani umumiy tavsifi…	130
15.3.	Iqtisodiy siyosat masalalari……	133
XVI-BOB	NEOMUMTOZ YO`NALISHINING RIVOJLANISHI……	137
16.1.	Kardinalistik yondashuvdan ordinalistik yondashuvga o`tish	137
16.2	Kapital nazariyasi……	139
XVII-BOB.	NOMUKAMMAL RAQOBAT BOZORI NAZARIYALARI…	145
17.1.	E.Chemberlin monopolistik raqobatchilik nazariyasi……	145
XVIII-BOB.	JAMIYAT RAVNAQI NAZARIYASI……	151
18.1.	V. Pareto «optimum kontseptsiyasi» rivojlanishi……	151
XIX-BOB.	JON MEYNARD KEYNS TA’LIMOTI ……	158
19.1.	Resurslar cheklanmaganlik sharoiti……	158
XX-BOB.	XX ASR 40-60-YILLARI OXIRIDA IQTISODIYOT FANI RIVOJLANISHI……	168

20.1.	Iqtisodiy fan asosiy yo`nalishlari……	168
20. 2.	Iqtisodiy siyosat yo`nalishlari……	168
20. 3.	«Ijtimoiy bozor xo`jaligi» Germaniya doktrinasi……	170
XXI-BOB.	NEOKEYNSCHILIK IQTISODIY NAZARIYALARI……	173
21.1.	Neokeynschilik metodologiyasini o`ziga xosliklari……	173
XXII-BOB.	NEOMUMTOZ SINTEZ……	183
22.1.	Xiks - Xansen modeli……	183
XXIII-BOB.	1940-1960-YILLARDA INSTITUTSIONALIZM……	190
23.1.	Iqtisodiy rivojlanish bosqichlari nazariyasi……	190
23.2.	Sinflarsiz jamiyat nazariyasi……	193
XXIV-BOB.	1970-1990-YILLARDA IQTISODIY FAN RIVOJLANISHI	200
24.1.	Iqtisodiyot fani asosiy yo`nalishlari……	200
24.2.	1970-1980 yillarda iqtisodiyot fani umumiy tavsifi……	201
XXV-BOB.	ZAMONAVIY MARJINALIZMNI RIVOJLANISHI……	208
25.1.	Monetarizm iqtisodiy nazariyalari……	208
25.2.	Nominal daromad nazariyasi……	209
25.3	Monetar iqtisodiy siyosat……	212
XXVI-BOB.	ZAMONAVIY TAKLIF IQTISODIY NAZARIYASI……	214
26.1.	Taklif iqtisodiy nazariyasi shakllanishi……	214
26. 2.	Iqtisodiy siyosat masalalari……	216
26.3.	Yangi mumtoz iqtisodiy nazariyasi tarafdorlari……	217
26. 4.	Filips egri chizig`i atrofida munozaralar……	218
26. 5.	Iqtisodiy imperializm……	219
XXVII-BOB.	NEOAVSTRIYA MAKTABI……	221
27.1.	Metodologik nuqtai nazar……	221
27.2.	"Tarqatma bilim" kontseptsiyasi……	222
27.3.	Fridrix fon Xayekning "bozor" kontseptsiyasi……	222
XXVIII-BOB.	NEOINSTITUTSIONALIZM……	226
28.1.	Neoinstitutsionalizm oqimi……	226
28. 2.	Transaktsion xarajatlar nazariyasi……	227
28. 3.	Yangi iqtisodiy nazariya……	232
XXIX-BOB.	1970- YILLAR – 1990-YILLAR BOSHI INSTITUTSIONALIZMI……	235
29.1.	P. Druker iqtisodiy bilimlar kontseptsiyasi……	235
29.2.	Davlat mulkini privatizatsiya etishi va mazkur mulkning yangi egalariga oyoqqa turmagunlaricha yordam ko`rsatishi…	236
29. 3.	Kelajakda jamiyat rivojlanishi nazariyasi……	238
29.4.	D. Bell postindustrial jamiyati nazariyasi……	239
Qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati…….		242
GLOSSARIY……..		243
ISMLAR RO`YXATI……..		259

TURAEV B.X., NIZAMOV A.N.

IQTISODIY TA`LIMOTLAR TARIXI

O`zbekiston Respublikasi Oliy va O`rta maxsus ta`lim vazirligi tomonidan oliy o`quv yurtlari talabalari uchun o`quv qo`llanma sifatida tavsiya etilgan

Muharrir X. Rahimova
Musahhih L. Xoshimov
Texnik muharrir B. Egamberdiyev

ISBN – 978-9943-7274-4-1

2021 yil 01 iyulda tahririy-nashriyot bo`limiga qabul qilindi.
2021 yil 05 iyulda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.
Qog`oz bichimi 60x84$_{1/16}$. “Times New Roman” garniturasi.
Offset qog`ozi. Shartli bosma tabog`i –17,0.
Adadi 50 nusxa. Buyurtma № 461

SamDU tahririy-nashriyot bo`limida chop etildi.
140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.

